

A.M.MANNONOV  
N.A.ABDULLAYEV  
R.R.RASHIDOV

# AFG'ONISTON TARIXI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

---

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK  
INSTITUTI**

**Mannonov Abdurahim Mutalovich,  
Abdullayev Nodir Abdulhayevich,  
Rashidov Rustam Rasulovich**

**AFG‘ONISTON TARIXI**

**O‘quy qo‘llanma**

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
tomonidan 5120100 – 5120200 – 5120300 – 5120700 – 5120800 –  
5231000 – ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun  
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT – 2018**

UO‘K 94(581)(075.8)  
KBK 63.3(5Afg)ya73

**Afg‘oniston tarixi // o‘quv qo‘llanma. – T.: «Barkamol fayz media», 2018. – 344 bet.**

O‘quv qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik institutida bajarilayotgan A-1–191 – “Xorijiy tillardagi tarixiy asarlarning ilmiy tadqiqi va tanqidiy tahlili asosida sharq mamlakatlari tarixiga oid zamonaviy o‘quv adabiyotlarini yaratish” ilmiy loyihasi doirasida amalga oshirilgan bo‘lib, bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari talabalariga Afg‘oniston tarixini o‘rgatishga mo‘ljallangan.

**Mualliflar:**

*f.f.d., prof. Mannonov Abdurahim Mutalovich,*  
*s.f.n. Abdullayev Nodir Abdulhayevich,*  
*Rashidov Rustam Rasulovich*

**Mas‘ul muharrirlar:**

*t.f.n. Xudoyberdiyev Aziz Xelyamovich*  
*Hamidov Xayrulla Xudayorovich*

**Taqrizchilar:**

**Shodmonova Sanobar Bazarbayevna** – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori;

**Azimov Komil Sarvarovich** – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

ISBN 978-9943-5517-5-6



© A.Mannonov va boshq., 2018.  
© «Barkamol fayz media», 2018.

## MUQADDIMA

“Afg‘oniston tarixi” o‘quv qo‘llanmasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti ta‘lim yo‘nalishlaridagi sharq mamlakatlari tarixiga oid fanlarni o‘zbek tilidagi yangi o‘quv adabiyotlari bilan ta‘minlash maqsadida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlardagi Afg‘oniston tarixiga oid ma‘lumotlarni atroflicha o‘rganish asosida tayyorlangan.

Bugungi kunda dunyodagi voqea-hodisalar shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bir sharoitda sharq mamlakatlari tarixiga bag‘ishlangan o‘quv adabiyotlari davriy jihatdan eskirib borayotgani talabalarni o‘zbek tilidagi yangi o‘quv adabiyotlari bilan ta‘minlash masalasining dolzarbligini oshirmoqda. Chet tillaridagi adabiyotlarda sharq mamlakatlari tarixi turli xil nigohda va mafkuraviy o‘zanda yozilgan. Shu bois xorijiy tillardagi yangi adabiyotlarga asoslangan holda Sharq mamlakatlari tarixini o‘rganish va ularni tahlil qilish orqali yangi o‘quv qo‘llanmalarini yaratish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.

Afg‘oniston tarixi keng xronologik davrni o‘z ichiga oladi. Afg‘onistonda mahalliy aholi va ko‘chmanchi xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, to‘qnashuvlar va kurashlar, qadimgi va o‘rta asrlarda sharq tarixida katta rol o‘ynagan, ijtimoiy munosabatlar rivojini bezagan munosabatlar, to‘qnashuv va kurashlar makoni bo‘lgan. Ming yillar davomida Xitoy imperiyasidan boshlanib, O‘rtayer dengizi sohillariga borib tutashgan karvon yo‘llari forsiyzabon xalqlar yashagan viloyatlar orqali o‘tib borgan. Shu sababdan ularning xalqaro savdo-sotiq va madaniyatlar almashinuvidagi o‘rni muhim bo‘lgan.

“Afg‘oniston tarixi” o‘quv qo‘llanmasida O‘rta Sharq mamlakatlari tarixining barcha bosqichlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma‘naviy taraqqiyoti, tarixiy jarayonlari tahlili,

qadimdan hozirgacha davlatchilik jarayonlari tarixi, qadimgi, o'rtasrlar hamda yangi va eng yangi davrga oid tasavvurlar, xalqlari madaniyati tarixi va turli bosqichlarda erishgan yutuqlarining umumbashariy ahamiyati, qadimgi podsholiklar va ularning o'zaro munosabatlari, markazlashgan davlat qurish, o'zaro mojarolar, etnik va hududiy muammolar, xalqlarining an'analari va hozirgi hayoti, ichki va tashqi siyosati, tarixiy shaxslari ilmiy tadqiq etilgan.

Hozirgi kunda respublikamiz ta'lim tizimida xorijiy adabiyotlar asosida Sharq mamlakatlari tarixiga oid o'zbek tilida chop etilgan o'quv adabiyotlarga talab tobora ortib bormoqda. "Afg'oniston tarixi" o'quv qo'llanmasida ushbu davlatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti, davlatchilik jarayonlari, etnik va hududiy muammolari, urf-odatlar va an'analari, ichki va tashqi siyosati tadqiq etilgan. Unda mamlakatning tarixiy rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlar ham atroflicha bayon etilgan. Kitob Afg'onistonning o'ziga xos jihatlarini anglashda muhim ahamiyatga molikdir.

## AFG‘ONISTON QADIMGI DAVRDA

Afg‘oniston hududida ilk odamlar qadimgi tosh davri – paleolit davridan yashab kelishgan. Ayniqsa, Afg‘oniston hududidagi tog‘li hududlar va tog‘lar orasidagi sovuqdan pana iliq vodiylar qadimgi odamlarning yashashlari uchun qulay yerlar bo‘lgan.

Afg‘oniston hududlari dastlabki odamlarning yashash manzilgohi bo‘lgan yoki bo‘lmagani hozirgi vaqtgacha noma‘lum bo‘lib qolmoqda. G‘azna viloyatidagi Dashti Novur degan joyda topilgan qo‘pol tosh qurollari qoldiqlari bundan 200–100 ming yil avval Afg‘oniston hududida paleolit davri ovchilari yashaganini tasdiqlaydi. Biroq, Afg‘oniston hududidan ilk paleolit davrida yashagan odamning suyak qoldiqlari haligacha topilgan emas.

Miloddan avvalgi 60–35 mingyilliklarga oid Afg‘onistonning shimoli-sharqidagi Darai Kur manzilgohida o‘rta paleolit davriga oid tosh qurollar topilgan. Bu yerdan topilgan yovvoyi buqa va qo‘y suyaklari mazkur manzilgohda yashovchi qadimgi odamlarning asosiy oziq-ovqat manbayi nima bo‘lganini ko‘rsatadi. Aynan shu manzilgohda ko‘rinishidan neandertal odamniki bo‘lgan bosh suyagi qoldiqlari topilgan. Shimoliy Afg‘onistondagi Amudaryo oldi qumliklarida topilgan maxsus ovchilik qurollari bu yerda paleolit davri ovchilari yashaganidan darak beradi.

Arxeolog olimlar tomonidan Afg‘oniston hududida o‘rta paleolit davri (miloddan avvalgi 100–40 ming yillar)ga tegishli odam manzilgohlari topib o‘rganilgan. Xususan, hozirgi Puli Xumri shahridan Toshqo‘rg‘on shahriga ketish yo‘lida joylashgan Qora Kamar deb ataluvchi manzilgohda o‘rta va so‘nggi paleolit (miloddan avvalgi 40–12 ming yillar) davrlariga tegishli odamlar yashaganligi va ular asosan ovchilik bilan shug‘ullanishganligi aniqlangan<sup>1</sup>.

Bu davrdagi arxeologik materiallarni tizimlashtirish va turlarga bo‘lish missiya ishtirokchilarining doimiy diqqat-e‘tiborida

---

<sup>1</sup> Runion, M.L. The History of Afghanistan. – London: Greenwood Press, 2007. P. 17.

bo'ldi. R.Girshman boshchiligida Seiston manzilgohlaridan birida o'tkazilgan qazishmalar anchagina diqqatga sazovordir. R.Girshmanning Bagramda olib borgan qazishmalari va unda 3 qatlamga ega madaniy kompleksning topilishi Afg'oniston qadimgi tarixini o'rganishda katta o'rin tutadi. 1947-yilda Balx-Baqtriya shaharchasida o'tkazilgan qazishmalar bu yirik shahar markazini tadqiq etishda alohida ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin arxeologik qazishmalar natijasida ko'plab o'tmish yodgorliklari aniqlandi va bu Afg'oniston hududidagi qadimgi sivilizatsiyalar evolutsiyasini xomaki tarzda bo'lsa ham belgilash imkoniyatini berdi.

Mozori Sharifdan 100 kilometr janubda joylashgan G'ori Mor (Ilon g'ori) deb ataluvchi manzilgohni o'rganish chog'ida esa bu yerda mezolit davri (miloddan avvalgi 12–7 ming yillar)ga oid odamlar yashaganligi ma'lum bo'ldi.

Tog' oldi va ochiq tekisliklardagi zamonaviy odamlar avlodlari mil.avv. X–VII mingyilliklarda Afg'oniston hududlariga ko'chib keladilar. Bu mezolit davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Qora Kamarda qo'y, jayron va turli qushlarning suyaklari mavjud bo'lgan ovchilar guruhi manzilgohi topilgan. Mozori Sharifning janubidagi Balxob daryosi bo'yida bu davrga oid ikkita g'or va bitta ochiq manzilgoh topilgan, ularning umumiy nomi Al-Ko'prik bo'lgan. Bu yerda ancha yirik qurollar bilan bir qatorda suyakdan va yog'ochdan yasalgan qurollar ham mavjud bo'lib, ularning juda kam qismi saqlanib qolgan. Bu qurollar o'sha davr uchun yangi qurollar bo'lib, o'z davrida mehnat unumdorligining oshishiga yordam bergan. Mezolit davrida uchburchak, to'g'ri burchak shaklidagi chaqmoqtosh qurollar ancha keng tarqalgan edi.

Neolit davrida Afg'oniston hududidagi jamiyat rivojida xo'jalikdagi bir xillikka asta-sekin putur yetdi. Mamlakat shimolida xo'jalikning ilk ko'rinishlari – termachilik va baliqchilik (o'zlashtiruvchi xo'jalik) hali ham davom etayotgan bir vaqtda, janubda dehqonchilik va chorvachilik (ishlab chiqaruvchi xo'jalik) vujudga keldi. Neolit davri ovchilari va baliqchilari ko'proq Baqtri-

ya tekisliklariga ko'chib borib joylashgan edilar. Bu davr odamlari qurollarning yangi turlarini kashf etadilar. Loydan yasalgan dag'al idish qoldiqlari va siniqlari juda kam sonlidir. Neolit davri qatlamlari ko'proq Afg'onistonning shimolidan topilgan. O'sha paytdagi boy tabiiy resurslar neolit jamiyatining birmuncha mustahkam bo'lishini ta'minlagan.

Miloddan avvalgi 5–4 ming yillar atrofida hozirgi Hirot va Qandahor shaharlari tevaraklarida ziroatchilik bilan shug'ullanuvchi aholi jamoalari shakllana boshlaydi va bu keyinchalik butun Afg'oniston hududi bo'ylab dehqonchilik jamoalari paydo bo'lishi uchun o'ziga xos tayanch vazifasini o'taydi. Xususan, Qandahor yaqinidagi Said Qal'a manzilgohida loydan yasalgan turar joy binolari o'troq turmush tarziga o'tgan va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi kishilar jamoasi yashaganligidan dalolat beradi. Shuningdek, miloddan avvalgi III–II mingyilliklar atrofida Seyiston viloyati hududlarida ham sersuv Helmand daryosi bo'ylarida o'ziga xos ravishda taraqqiy etgan dehqonchilik madaniyati mavjud bo'lganligi xususida arxeologik qazishma ishlari ma'lumot beradi.

Hozirgi Afg'oniston hududida o'troq dehqonlar va chorvadorlarning manzilgohlari hozircha faqat Hindikushning janubida ma'lum va ularning yoshi mil.avv. IV–III mingyilliklar bilan davrlashtiriladi. Ular suvi ko'p va unumdor Qandahor viloyatida (Mundigak, Said qal'a, Dex-Morasi-Gxundoy) joylashgan. Aytib o'tish joizki, yaxshi tabiiy sharoit bu yerda ilk dehqonchilik madaniyatining rivojlanishiga xizmat qilgan. Uning Afg'oniston janubidagi evolutsiyasi fransuz arxeologi J.M.Kasal boshchiligida Mundigakda o'tkazilgan qazishmalar sababli juda yaxshi o'rganilgan. Bu yerdagi eng quyi qatlamlarda ham kulolchilik charxi yordamida yasalgan va naqshlar bilan bezatilgan sopol idishlar keng tarqalganini ko'rish mumkin. Kulolchilik charxi kabi bunday murakkab qurollarning ishlatilganligi texnikaning yuqori darajada rivojlangani va ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishning mavjudligini tasdiqlaydi. Qandahordagi ilk dehqonchilik qabilalarining metallurgiya sohasida ancha taraqqiyotga erishgani kuzatiladi. Bunda ehtimol Afg'oniston



hududida mis rudasi qatlamlarining mavjudligi katta rol o'ynagan bo'lishi mumkin. Mis va bronzadan boltalar, xanjarlar va zeb-ziynat buyumlari yasalgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi yillar va asrlar osha rivojlana borib, o'z o'rnini turli tabaqalardan tashkil topgan davlat hokimiyati hukmron bo'lgan jamiyatga bo'shatib berdi. Ushbu taraqqiyot davomida hozirgi Afg'oniston hududlarida istiqomat qilib kelgan aholi urug'chilik jamoasida bo'lib, uning ikki bosqichini bosib o'tdi. Birinchi bosqichda urug' ijtimoiy ishlab chiqarishga asoslangan bo'lib, jamoa onalar hukmronligi – matriarxatga asoslangan edi. O'sha davrning urf-odatlariga ko'ra bir jamoa a'zolari o'rtasida oila qurish, ya'ni er-xotin bo'lish mumkin emasdi. Albatta, bir jamoa erkaklari boshqa bir jamoa ayollari bilan "oila" qurishlari lozim edi.

Jamoani boqish, ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash albatta oson ish emas edi. Buning ustiga dehqonchilik va chorvachilik ixtiro etilgach, onalar uchun xo'jalikni boshqarishda yana ham katta qiyinchiliklar kelib chiqdi. Shunday sharoitda ikki jamoa urug'idan er-xotindan iborat juft oila shakllandi. Bu hodisa jamiyat hayotida o'zgarish nuqtasi bo'ldi. Chunki juft oilaning tashkil topishi bilan jamoa mulkchiligiga asoslangan ibtidoiy urug'chilik jamoasi zaminiga zil ketdi. Nega deganda urug' jamoasidan tashqarida tashkil topgan bu oilaning iqtisodiy zamini xususiy mulkchilikka asoslanar edi. Oila manfaati bilan urug' jamoasi manfaati o'rtasida o'ziga xos kelishmovchilik, nomuvofiqlik va ziddiyat paydo bo'ldi. Urug' jamoalaridan tashqarida juft oilalar jamoasi tarkib topdi. Ularni o'zaro birlashtiradigan manfaat omili albatta ishlab chiqarish edi. Shu sababdan bo'lsa kerak, olimlar bunday juft oilalarni "oilalar jamoasi" yoki "ishlab chiqarish jamoasi" deb ataganlar. Shunday qilib, taraqqiyotning bu bosqichiga kelib urug' jamoasi yemirilish sari yo'l tutdi, u o'zining tub ma'nodagi ishlab chiqarish va jamoa mulkchiligiga asoslangan qiyofasini yo'qota bordi.

Shu tariqa Afg'oniston hududida ham qadimdan yashab kelgan aholi orasida miloddan avvalgi II mingyillik ikkinchi yarmi va I mingyillik boshlarida juft oilalar shakllana boshladi va ular

negizida ishlab chiqarish jamoalarining paydo bo'lishida birinchi va asosiy omil – jamoa ixtiyorida ortiqcha mulkning hosil bo'lishi va jamoalararo mahsulot ayirboshlashning vujudga kelishi hal qiluvchi o'rin tutdi. Albatta, bu jarayon chorvachilik va dehqonchilikning paydo bo'lishi oqibatida oilalar ixtiyorida ortiqcha oziq-ovqat mahsulotlarining to'planishi bilan bog'liqdir. Endi har bir oila o'zidagi ortiqcha mahsulot va buyumlarni qo'shni oiladagi o'zida yo'q mahsulotlar bilan almashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunday jarayon dastlab ikki urug' jamoalari o'rtasida olib borildi. So'ngra bu jarayonda urug' jamoalari ham faol qatnasha bordilar. Ammo juft oila mulki bilan jamoa mulki endi sig'isha olmay qoldi. Bu o'zaro ziddiyatlar oilalar bilan oilalar, urug' jamoalari bilan urug' jamoalari o'rtasida o'zaro janjal, to'qnashuv va hatto urushlar darajasiga borib yetardi. Bu to'qnashuvlar oqibatida yengilgan oila va urug' jamoaning boyliklari g'oliblar qo'liga o'tardi.

G'oliblar bu boyliklarni o'z mulklariga va boyliklariga qo'shar edilar, yengilgan va tobe bo'lgan oila hamda urug' jamoasi vakillarini esa asir olib, ularni qullarga aylantirar edilar. Bu qullar ham g'oliblarning mulki hisoblanganlar va ular ustidan o'z bilganlaricha hukmronlik qilganlar. Ana shu tariqa shaxsiy mulk sekin-astalik bilan rivojlanib xususiy mulkka aylangan, haq-huquqsiz qullar kelib chiqqan hamda ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik tuzumiga o'tish uchun muayyan asoslar yetila boshlagan. Biroq, bu mulkni qo'riqlash, qullarni itoatda saqlash va zo'rlab ishlatish uchun zo'rlikka tayanuvchi qo'shimcha qurollangan kuchlarga ehtiyoj ham kelib chiqqan. Bunday ehtiyojni oilalar va urug' jamoalarining ma'lum bir qismi qoplagan. Ana shu tariqa jamiyatda mulkdorlar, xo'jayinlar – quldorlar, tobelar, mazlumlar – qullar va zo'rlikka tayanuvchi qurollangan kuch, ya'ni ibtidoiy davlat ko'rinishi elementlari vujudga keldi.

Yuqoridagi holat urug'chilik jamoasi uchun ikkinchi taraqqiyot bosqichini kechirish davriga kirganligini ko'rsatadi. Bu davrda endi urug'chilik jamoasi yemirilib, sinfiy tabaqalanish jarayoni boshlanadi. Jamoaning ijtimoiy tarkibida tub sifat o'zgarishlar sodir

bo'ladi. Ijtimoiy va oila hayotida erkaklarning o'rni va ahamiyati oshadi. Patriarxat – ona hukmronligi o'z o'rnini Patriarxat – ota hukmronligi davriga bo'shatib beradi. Xuddi shu davrda jamoadagi ortiqcha daromad – xususiy mulk va uni ayirboshlash jarayoni bilan bog'liq hamda mushtarak tarzda birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti kelib chiqadi. Chunki jamoa a'zolari bir vaqtning o'zida ham chorvachilik, ham dehqonchilik bilan shug'ullana olmas edilar. Shu bois ular o'zlariga qulay va ma'qul sohani tanlab ola boshladilar. Albatta, bu narsa jamoa joylashgan hududning tabiiy-geografik jihatdan xo'jalik yuritishning qaysi sohasini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar mavjudligi bilan bog'liq edi.

Afg'oniston hududida yashagan hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi qabilalar madaniyatining eng gullagan davri mil.avv. III mingyillikka borib taqaladi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, Afg'onistonda sopol buyumlar ishlab chiqarish va idishlarga zeb berish qadimgi hind sivilizatsiyasi bo'lgan Xarappa madaniyati bilan juda ham o'xshash. Ehtimol, Hind vodiysida joylashgan Xarappa markazi misni hamda asl koni Badaxshonda bo'lgan lazuritni Afg'onistondan olgan bo'lishi mumkin. Bu go'zal zangori toshni sehrarlik xususiyatiga ega deb hisoblagan butun qadimgi Sharqda juda yuqori baholashgan. Lazurit mil.avv. IV mingyillikda Mesopotamiya va Misrda ancha keng tarqalib, Troya va Kichik Osiyogacha yetib borgan. Mundigak manzilgohi maydonlaridan biri usti ochiq va to'rt tomondan minoralar bilan himoyalangan aylanma devor bilan o'ralgan edi. Bundan ko'rish mumkinki, Mundigak manzilgohi o'zining oxirgi bosqichida dehqon jamoasi yashaydigan joydan shahar tipidagi manzilgoh ko'rinishiga o'ta boshlagan.

Mil.avv. II mingyillikda katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu vaqtda janubiy afg'on ziroatchilarining ikkala guruhi ham to'la aniq bo'lmagan sabablarga ko'ra madaniyat jihatidan qashshoqlashdi. Aksariyat manzilgohlar oddiy qilib ko'mib yuborildi. Mundigakda o'zlashtirilgan hududlar bir necha marta qisqardi; sopol idishlar yasash hunarmandchiligi saqlanib qolgan bo'lsa-da, oddiy keramika hali ham asosiy mahsulot edi. Shimolda esa, aksincha, aynan shu

davrda ancha rivojlangan madaniyat mavjud edi. Qazishma ishlari vaqtida bu madaniyatga tegishli qimmatli narsalar bilan bir qatorda tilla va kumush buyumlar ham topilgan. Bu madaniyatga oid bir qancha yodgorliklar ochilgan.



### *Afg'oniston hududidagi qadimgi davlatlar*

Davlatobod va Mozori-Sharif oralig'idagi uncha katta bo'lmagan maydonda besh yoki oltita vohaga ajratiluvchi o'troq dehqon va chorvadorlarning bir necha o'nlab manzilgohlari ochilgan. Vohalar sug'orish ishlari qulay bo'lgan kichik daryochalar bo'ylarida joylashgan. Shimoliy Afg'oniston tuprog'ining unumdorligi juda yaxshi ma'lum.

Olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu yerda bronza davridayoq voha dehqonchiligi yuzaga kelgan. Har bir voha 1 gektarga yaqin maydonga ega bo'lgan o'zining markaziga ega. Qal'a atrofi xom g'ishtdan terilgan devor bilan o'ralgan, har bir

burchakda minoralar mavjud bo'lgan (Dashli I, Girday). Bu juda chidamli va o'z davrining rivojlangan usulida qurilgan inshoot bo'lgan. Bu vohalar aholisi madaniyatining xarakteri va yuqori darajasi mil.avv. II mingyillikka oiddir.

Hozirgi paytgacha Shimoliy Afg'onistonda shahar tipidagi manzilgoh qoldiqlari deb hisoblanuvchi bronza davriga oid yirik yodgorliklar topilmagan. Ehtimol, dehqonlarning yerlarni o'zlashtirishining dastlabki bosqichida aholining joylashishi juda sekinlik bilan o'tgandir. Shu sababli jamoalarning kichik-kichik guruhga bo'linib, bir-biridan uncha uzoq bo'lmagan hududlarga joylashishi ustun bo'lgan, ammo ular favqulodda vaziyatlar yuz berganda o'zlarini butun bir organizm deb hisoblaganlar.

Shimoliy Afg'onistondan topilgan topilmalar orasida bronza davriga oid anchagina qimmatli buyumlar bilan bir qatorda naqshlar bilan bezatilgan tilla idishlar ham topilgan. Ular biror boy kishining dafn marosimida ishlatilgani yoki ibodatxona xazinasida mavjud bo'lganiga aslo shubha yo'q. Shunday qilib xulosa qilish mumkinki, mil.avv. II mingyillikda Shimoliy Afg'oniston hududida ham Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining rivojlangan ko'rinishi mavjud bo'lgan. Ammo mamlakat janubida bu jarayon mil.avv. III mingyillikdayoq boshlangan edi.

Bronza davridagi bu yuqori madaniyatni tashkil etgan qadimgi qabilalarning etnik va til xususiyatlari haligacha to'liq aniqlanmagan. Ilk dehqonchilik davridayoq bu hududlarda antropologik tipi bo'yicha Afg'onistonning hozirgi aholisiga o'xshaydigan yevropoid tipidagi boshi uzun aholi yashagan. Ammo shunga o'xshash antropologik tip O'rta Sharq ilk dehqonchilik madaniyatining aksariyatida, jumladan, Xarappa madaniyati egalarida ham uchraydi. Xarappa yozuvidagi qo'lyozmalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning tili qadimda keng tarqalgan dravid xalqining tiliga yaqin bo'lgan. Shunday yozuvlar Janubiy Turkmanistonda Oltintepa qazishmalari vaqtida ham topilgan. Bundan ko'rinadiki, Janubiy Turkmaniston, Shimoliy Eron va Afg'onistonning katta qismidagi qadimiy qabilalar dravid tili va shevasida gaplashgan. Eronning ja-

nubida esa, aksincha, dravid tili bilan bir qatorda elam yozuvidagi yodgorliklarni ko‘plab ko‘rish mumkin.

Mil.avv. II mingyillikda vaziyat o‘zgaradi. Afg‘oniston hududlarida hind-eron guruhi tilida gaplashuvchi aholi yashagan deb hisoblashga barcha asos bor. Qadimgi eron va qadimgi hind tillari yagona tildan kelib chiqqan; ular undan grammatik tuzilish va leksika o‘zaklarini meros qilib olganlar.

Afg‘onlarning tili – pushtu eroniy tillar oilasiga mansub. Tilshunos olim B.A.Dorning xulosasiga ko‘ra, pushtu tili tojik va yangi hind tillarining ta’sirida vujudga kelgan. Hind-eron tiliga oid umumiy so‘zlarni tahlil qilish bu qabilalar dehqonchilik bilan tanish, ammo asosiy boyligi chorva bo‘lgan qabilalar bo‘lganini isbotlash imkonini berdi. Harbiy bilimlar allaqachon rivojlangan edi. G‘ildirakli aravalar kashf etilgan edi. Asta-sekin podshoh hokimiyati darajasiga ko‘tarilgan sardorlar boshqaruvi o‘sha paytdayoq mavjud edi. Qadimgi hind tilini tarqatgan aholi Shimoliy Hindistonda tarqalgan edi, ular sekin-sekin dravidlarning mahalliy aholisi bilan aralashib, dravidlar Shimoliy Hindistondagi oriylar tiliga katta ta’sir ko‘rsatgani haqida ma’lumotlar beriladi. Bu tildagi qadimiy yodgorlik – Rigveda ko‘pchilik mualliflar tomonidan mil.avv. XII–X asrlarga tegishli deb davrlashtiriladi, ammo ularning bu hududlarga tarqalishi mil.avv. II mingyillikning 1-yarmi deb taxmin qilinadi. Shubhasiz, bu hodisa Afg‘oniston hududiga ham ta’sir qilmay qolmaydi, ko‘plab tadqiqotchilar ham hind-oriylarning ajdodlari ma’lum vaqt mobaynida O‘rta Osiyo va Eron hududlarida fors qabilalarining ajdodlari bilan birgalikda yashagan deb taxmin qiladilar.

Yaqin Sharqda “oriy” nomi va maxsus iborasining paydo bo‘lishi mil.avv. II mingyillikka oid eron tili guruhiga aloqadordir. Mil.avv. I mingyillikda hozirgi Afg‘oniston hududlari va O‘rta Osiyoning katta qismi eron tilida gaplashuvchi qabilalar tomonidan egallangandi, ularning alohida viloyatlarga bergan nomlari bir necha asrlar davomida saqlanib qoldi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, mil.avv. II mingyillik 2-yarmida, balki undan ham ertaroq Afg‘oniston va qo‘shni viloyatlarga

eron tilida gaplashuvchi qabilalarning ko‘chib borishi va mahalliy aholi bilan assimilyatsiya jarayoni kuzatilgan. O‘sha davrda mahalliy aholi va ko‘chib borgan hind-eron guruhidagi aholi o‘rtasida til bo‘yicha ham assimilyatsiya jarayoni kuzatilgan. Ushbu viloyatlarda mahalliy, yuqori darajada rivojlangan o‘troq dehqonchilik an‘analari saqlanib qolgan. Bu Afg‘onistonning qadimgi tarixi va aholisi hayotida muhim davr bo‘lgan.

Afg‘oniston qadimgi tarixining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu yerda turli madaniyatlarning mavjudligidir. Afg‘oniston shimolida madaniyat jihatidan Shimoliy Baqtriyaga (Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i) yaqin bo‘lgan Janubiy Baqtriya (Amudaryoning chap qirg‘og‘i) joylashgan. Afg‘oniston shimoliy-g‘arbida 2 madaniyat: baqtriya va parfiya madaniyatini o‘zida birlashtirgan Arey (Hirot vohasi) joylashgan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Afg‘oniston davlati tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning anchagina qadimiy davlat ekanligini anglab olish qiyin emas. Buni bir necha o‘nlab yillar davomida o‘tkazilgan tadqiqot ishlari, yirik va ko‘zga ko‘ringan olimlarning xulosalari ham tasdiqlab turibdi.

Miloddan avvalgi II mingyillikda Afg‘oniston shimolida sezilarli rivojlanish ko‘zga tashlanadi. Bu yerda, Baqtriya tekisligida qadimgi sharq madaniyatining yangi markazi yuzaga keldi.

Afg‘oniston hududida ham mavjud pasttekisliklar, katta va o‘rta darajadagi tog‘ tizmalari orasidagi so‘lim vodiylar ham dehqonchilik, ham chorvachilikning rivojlanishi uchun juda qulay edi.

Miloddan avvalgi I mingyillik boshlarida Afg‘oniston hududida ham temirdan yasalgan mehnat qurollari va buyumlar tarqala boshladi. Mehnat qurollarining takomillashuvi natijasida inson faoliyati kengaydi va jadallashdi. Bunga mintaqaning temir, oltin, qalay, qo‘rg‘oshin kabi tog‘ jinslari va qazilma boyliklariga boyligi ham kuchli turtki berdi.

Miloddan avvalgi I mingyillik 1-yarmidan boshlab Afg‘oniston hududida xo‘jalik hayotining turli sohalari jadal rivojlana boshladi. Xususan, metallni qayta ishlash, ulardan mehnat qurollari yasash,

kulolchilik, to'quvchilik, quruvchilik, zargarlik kabi sohalar taraqqiy eta boshladi.

Xo'jalik hayotidagi bu kabi o'zgarish va taraqqiyot albatta, Afg'oniston hududida kishilik jamiyatining yuqori ijtimoiy-siyosiy birlashmasi – davlatning vujudga kelishi uchun qulay shart-sharoit hamda imkoniyatlarni yaratib berdi va natijada Afg'oniston hududida ham bir qator ilk davlat birlashmalari vujudga keldi. Xususan, miloddan avvalgi I mingyillik 1-yarmida Afg'onistonning shimoliy qismida Qadimgi Baqtriya, shimoliy-g'arbiy hududlar (Murg'ob daryosi vohasi)da Marg'iyona, janubiy-g'arbiy hududlar (Helmand daryosi vohasi)da Drangiana (keyinchalik Seyiston), hozirgi Hirot vohasida Areya, Qandahor atroflarida Araxosiya, Kobul va unga tutash hududlarda Gandxara kabi davlat hamda davlat birlashmalari paydo bo'ldi.

Qadimgi Afg'oniston hududida mavjud bo'lgan bu kabi madaniyat o'choqlari unga qo'shni bo'lgan davlatlar madaniyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. Markaziy Osiyoda joylashgan davlatlar bir necha ming yillar davomida bir-birining madaniyatiga ta'sir qilib, bu o'lkada o'lmas tarixiy madaniyat o'choqlarining yuzaga kelishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Afg'oniston hududida vujudga kelgan ilk davlatlardan biri – bu qadimgi Baqtriya podsholidir. Bu podsholik haqidagi ma'lumotlar yunon muarrixlari asarlarida uchraydi. Jumladan olim va tabib Ktesiy Ossuriya podshosi Nin Belidning miloddan avvalgi I mingyillik 1-yarmida Baqtriyaga qilgan harbiy yurishi haqida ma'lumot beradi. Nin baqtriyaliklarning jangovarliklarini bilgan bo'lsa-da, juda katta qo'shini va jang aravasi bilan Baqtriyaga hujum boshlaydi. Baqtriyaliklar o'z davlatlari poytaxti Baqtra (hozirgi Balx)ni mustahkam mudofaa qo'rg'oniga aylantiradilar. Baqtriya hukmdori Oksiart Vatan himoyasiga 400 ming kishidan iborat katta qo'shinni hozirlaydi. Baqtriya qo'shinlari ossuriyaliklarni katta talafotga uchratadi. Biroq, jang maydonida ularning asosiy qo'shinlari tugagach, baqtriyaliklar chorasiz chekinadilar. So'ngra baqtriyaliklar kichik-kichik guruhlariga bo'linib, o'z shaharlarini



mudofaa qilishga o'tadilar. Ossuriya podshosi Nin bundan ustalik bilan foydalanadi va Baqtriya shaharlarini birin-ketin qo'lga kiritadi. Ammo poytaxt Baqtrani ossuriyaliklar egallay olmaydilar. Ossuriyaliklarning shaharni egallashga qaratilgan barcha urinishlari muvaffaqiyatsiz tugaydi.

Baqtriyani egallash borasida muvaffaqiyatsizlikka uchragan Nin qo'shinlariga uning rafiqasi Semiramida boshliq yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Shundan so'ng uzoq davom etgan shahar qamali va ketma-ket qilingan hujumlar oqibatida Baqtra shahri egallanadi. Uning boyligi talanadi.

Ossuriyaning Baqtriyani egallashidan ma'lum bir muddat o'tgach, Midiya bilan Ossuriya o'rtasida urush kelib chiqadi. Bu urushda Baqtriya Ossuriya tomonida turib Midiyaga qarshi qo'shin tortib borgan. Bundan xabar topgan Midiya aslzodalari Baqtriya qo'shini lashkarboshisi va uning qo'shinini o'z tomonlariga ag'darib oladilar. Midiya va Baqtriyaning birlashgan qo'shinlari Ossuriya qo'shinlariga katta talafot yetkazadilar.

Ktesiy Ahamoniylar podshosi Kir II ning Markaziy Osiyoga yurishi munosabati bilan yana bir marta Baqtriya haqida to'xtaladi. U bergan ma'lumotda Kir II dastlab Baqtriyani egallay olmaydi. Faqat baqtriyaliklar Midiya podshosi Astiagning Kirni o'zining qonuniy vorisi sifatida tan olganligini eshitgach, unga hech bir qarshiliksiz taslim bo'ladilar.

## **AFG'ONISTON AHAMONIYLAR IMPERIYASI TARKIBIDA**

Fors imperiyasi mil.avv. VI asrning o'rtalaridan boshlab dunyo tarixida muhim rol o'ynab keldi. Hozirgi Afg'oniston hududlari ham o'sha vaqtda forslar tomonidan nazorat qilingan edi. Mil.avv. 545- 540-yillar oralig'ida Afg'oniston hududlari forslar tomonidan bosib olindi<sup>2</sup>. Forslar imperiyasi hukmronligi Buyuk Kiryovush yoki

---

<sup>2</sup> Sykes P. A History of Afghanistan. Vol. 1. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940.– P. 44.

Kir II ning boshqaruvi boshlanishidan Doro III ning Makedoniyalik Iskandardan mag'lubiyatiga qadar 200 yildan ham ko'proq davom etdi.


Fors imperiyasi yuksalish davrida hozirgi Afg'oniston hududlari Ahamoniylar imperiyasining bir qancha viloyatlarini o'z ichiga olgan. Imperiyaning buyuk hukmdori Kir II mil.avv. 559–530-yillarda hukmronlik qildi va u fors imperiyasining asoschisi deb ham yuritiladi. U taxtga chiqishidan oldin Midiya sivilizatsiyasini zabt etdi, zamonaviy Iroq hududida mavjud bo'lgan ikkita davlatni o'z saltanati tarkibiga qo'shib oldi va mil.avv. 558-yilda fors podshohi bo'ldi<sup>3</sup>.



*Afg'oniston hududlari Fors imperiyasi tarkibida*

Kir II fors podshohlighi chegarasini kengaytirish uchun doimiy urushlar olib bordi. Jumladan, uning hukmronligi davrida hozirgi Afg'oniston, Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo va Hindistonning

<sup>3</sup> Runion, M.L. The History of Afghanistan. – London: Greenwood Press, 2007. – P. 25.



yarim hududlari zabt etildi. Birinchi fors podshohi Kir II ning hukmronligi mil.avv. 530-yilda massagetlar bilan bo‘lib o‘tgan urushda halok bo‘lguniga qadar davom etdi<sup>4</sup>. Shundan so‘ng uning o‘g‘li Kambiz taxtga o‘tiradi. Kambiz haqida garchi, tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan ma‘lumotlar kam bo‘lsa-da, lekin uning mil.avv. 525-yilda Misrda erishgan muvaffaqiyatli g‘alabasi haqida ko‘plab nodir ma‘lumotlar mavjud.

Kambizning o‘limidan keyin mil.avv. 522-yilda Ahamoniylar sulolasidan yangi hukmdor hokimiyatga chiqdi. Yangi hukmdor Buyuk Doro sifatida tanilgan (shuningdek, u Doro I deb ham atalgan)<sup>5</sup>. U taxtni janjalli tarzda meros qilib oldi. Yunonlarning taniqli ikki tarixchilari Gerodot va Ktesiylar tasvirlaganlaridek, fors imperiyasining xronologik tavsifida Doroning taxtga chiqishi haqidagi to‘liq tafsilotlar mavjud. Shunga qaramay, Doroning yana boshqa shaxsiy, hayotiy voqealarining tavsifidan to‘qima hikoyalari mavjud. Hikoyaning bir qancha ko‘rinishlari shubhali va yunon tarixchilari Gerodot, Ktesiylarning hisobotlariga zid tuzilgan. Bu hikoyalarga, shuningdek, Doro I ning buyrug‘i bilan Behistun tog‘laridagi qoyatoshlarga uch til (qadimgi fors, elam va bobil tillari)da o‘yib yozilgan yozuvlardagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Doro fors saltanatida yuqori lavozimlarda xizmat qilgan Hishtaspning o‘g‘li bo‘lgan. Kir II Ahamoniylar davlati hukmdori bo‘lgan davrda ham Doro yosh bo‘lgan va Kir II o‘sha paytdanoq uning fors podshohligi taxtini fitna yo‘li bilan olib qo‘yishidan gumonsirar edi. Kir II ning o‘limidan so‘ng, Doro shoh Kambizning podshohlik oilasiga tegishli shaxsiy tansoqchi guruhining a‘zosi bo‘lib xizmat qildi. Behistun qoyatosh yozuvlariga ko‘ra, Kambiz mil.avv. 521-yilning mart oyida Doroning qo‘lida jon berdi.

Kir II ning Kambizdan tashqari yana Bardiya ismli o‘g‘li ham bor edi. Forslar davlatining podshohligiga da‘vogarlik natijasida va

---

<sup>4</sup> Sykes P.A. History of Afghanistan. Vol. 1. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940. – P. 45.

<sup>5</sup> Runion, M.L. The History of Afghanistan. – London: Greenwood Press, 2007. – P. 27.

taxt tufayli og'a-inilar o'rtasida nizo kelib chiqadi. Go'yoki, Kir II o'lim to'shagidaligida Bardiyaning podshohlikdagi ulushi ko'p ekanligini ma'lum qilgan va to'g'rirog'i, fors imperiyasining sharqiy viloyatlarini, ya'ni hozirgi Afg'oniston hududlarini Bardiyaga meros sifatida qoldirishga farmon bergan edi.

Kambiz Misr taxtini egallashidan oldin o'z ukasi Bardiyaning o'ldirilishini maxfiy rejalashtirdi. Kambiz toj-u taxtidan ajralishdan, va yangi hududlar izlab topishdan, mahv etilishdan qo'rqqan edi. Kambiz ukasining muammo bo'lmasligiga va uning taxti boshqa da'vogarlardan xoli ekanligiga ishonib, Misrga jo'nab ketadi. Shunga qaramay, Kambizning ortga qaytish yo'lida tushunarsiz bir vaziyat kutib turardi. Kambiz misrliklarga qarshi urushda g'olib chiqib qaytayotganida ukasi Bardiya maxfiy qotillik rejasi tuzgani haqida xabar oladi. Doroning ta'riflashicha, Bardiyaning nomini xoinga chiqarishdi, uni taxtga da'vogarlikdan asossiz mahrum qilishdi va bunday xiyonatning tagida Gaumata nomli ko'zboylamachi turar edi.

Mil.avv. 522-yilda Gaumata o'zini shoh deb e'lon qiladi va podshohlikni o'z nazorati ostiga oladi. Kambiz Gaumatadan podshohlikni qaytarib olish uchun unga qarshi urush ochadi. Gaumata yetti oy davomida imperiya bo'ylab fors podshohi bo'ladi. Afsonalarda keltirilganidek, hech kim Dorochalik mardlik bilan yangi podshohga qarshi chiqa olmadi. Xalq Doroning firibgar va qallob taxtga da'vogarlarni hokimiyatdan olib tashlashiga ishonardi.

Mil.avv. 522-yilda fors podshohligida hokimiyat uchun kurash nihoyasiga yetdi. Doro va uning odamlari firibgar Gaumatani tutib, bandi etishdi va so'ngra uni o'ldirishdi.

Behistun bitiklarida yozilishicha, Doro shoh sifatida bir qator ulkan islohotlarni amalga oshirgan. Davlatni imperiyaga aylantirgan. Doro mil.avv. 522–486-yillarda hukmronlik qilgan<sup>6</sup> va uning hukmronligi davrida imperiya o'z kuch-qudratining cho'qqisiga erishgan. Taxtga sirli kelishiga qaramay, u Ahamoniylar sulolasining

---

<sup>6</sup> Runion, M.L. The History of Afghanistan. – London: Greenwood Press, 2007. – P. 27.

eng buyuk shohlaridan bo'lgan. Behistun bitiktoshlarida yozilishi-cha, Doro 19 marta jangga kirgan va 9 ta qo'zg'olon yetakchilarini mag'lub etgan. Uning armiyasi xalq qo'zg'olonlarini osonlikcha yenggan. Doro katta janglarda, yirik sonli qo'shinni boshqarishda o'zining noyob qobiliyat egasi ekanligi bilan tanilgan.

Doro hukmronligining dastlabki yilida Marg'iyona (hozirgi Afg'oniston shimoli va Turkmaniston janubi)da Frada ismli shaxs boshchiligida qo'zg'olon boshlandi. Doro qo'shini ushbu qo'zg'olonne tez orada bostirdi hamda Frada qo'lga olinib qatl etildi.

Shundan so'ng eramizdan odingi 519-yilga qadar Doro fors saltanatining sharqiy hududlarida ham bir qator norozilik kayfiyatlarini bartaraf etib, o'z hukmronligini o'rnatdi. U o'z saltanatini mustahkamlash uchun urush orqali davlat hududini kengaytirish siyosatini olib bordi. Bundan tashqari u Yevropa qit'asi hududiga va Hind vodiysi hududiga ham muvaffaqiyatli yurishlar qildi.

U shoh bo'lishdan tashqari boshqaruv va qonunshunoslikda tengi yo'q shaxs bo'lgan. Kir II dan qolgan qonun-qoidalar asosida Doro o'z davlatini satrapliklarga bo'lgan. Shuningdek, yagona soliq va o'lchov tizimini ham muomalaga kiritgan. Doro bundan tashqari me'morchilik ishlariga ham alohida e'tibor bergan. Doro poytaxt Suzada ulkan binolar qurdirgan va bu binolarning devorlari soliq olib kelayotgan bo'ysundirilgan xalqlarning tasviri bilan bezatilgan.

Doroning davlat boshqaruvida muvaffaqiyatga erishishiga yana bir sabab sifatida Kir II va Kambizning diniy siyosatini davom ettirganligini ko'rsatib o'tish mumkin. Doro o'z hukmronligi davrida Kir II va Kambizlar tomonidan kiritilgan har xil dinlar tan olindi va amalda davom etdi. Doroning o'zi zardushtiylikka sig'ingan. Hozirgi Afg'onistondagi Balx viloyati o'sha paytda Baqtriya deb nomlangan va zardushtiylikning markazi hisoblangan. Fors saltanatining aksariyat aholisi zardushtiylik dini va aqidalariga ishonishgan. Mil. avv. 486-yilda Doroning o'limidan keyin Afg'oniston fors Ahamoniyalar sulolasi vakili Kserks I nomi ostida boshqarildi. U o'z ajdodining buyuk ishlarini davom ettirdi.

Kserks I mil.avv. 465-yilgacha 20 yil davomida hukmronlik qildi. So'ngra Kserks I o'rmini Artakserks egalladi. U imperiya poytaxtini Persepoldan Vavilonga ko'chirdi. Uning hukmronlik davrida fors tili davlat tili deb joriy qilindi. Uning o'limidan so'ng, katta o'g'li Kserks II taxtga o'tiradi.

Eramizdan oldingi V asr oxiridan boshlab Artakserks II Ahamoniylar shohligida juda uzoq vaqt hukmronlik qildi. Uning 45 yillik tinch hukmronlik davrida Afg'onistonda ham bir qator ishlar amalga oshirildi va ko'plab obidalar qurildi. Artakserks II ning o'limi, taxtga xoinlik, zaharlash va qonli yo'l orqali kelgan Artakserks III nomi bilan bog'liq. Shundan so'ng Ahamoniylar sulolasida merosxo'rlar orasida toj-u taxt uchun kurash va zo'ravonlik boshqaruv tizimining kuchayishi bilan belgilanadi.

Ahamoniylar hukmronligi davrida mamlakat harbiy toparxialarga bo'lingan edi (Ahamoniylar davlati Kserks davrida yettita, Artakserks davrida to'rtta toparxiyaga bo'lingan). Forslar hukmronligi davrida baqtriyaliklar, so'g'diylar va xorazmliklar yagona bir ma'muriy viloyatni tashkil etganlar. Gerodotning yozishicha, fors harbiy qo'shini saltanat tarkibidagi toparxialardagi jangchilar hisobiga shakllantirilgan va qo'shinni tegishli ravishda olti sarkarda boshqargan. Baqtriya va So'g'diyona ma'muriy-harbiy birlikka kirgan. Bu kabi birlik Iskandar va Salavkiylar davrida ham saqlanib qolgan.

Ahamoniylar davridayoq, sharqiy eroniy xalqlar qo'shin tarkibida muhim rol o'ynaganlar. Xususan, Baqtriya forslar armiyasini 30 ming kishilik suvoriylar bilan ta'minlagan. Forslar qo'shinida baqtriyaliklar midiyalik va saklar bilan bir qatorda asosiy o'rin tutishgan. Yunon dramurgi Esxil forslar qo'shini tarkibidagi baqtriyaliklarni rangdor deb atagan. O'rta Osiyo va Misrgacha bo'lgan hududlarda mavjud bo'lgan fors shaharlari qazilma ishlarida topilgan haykalchalarda xorazmliklar, saklar, so'g'diylar va baqtriyaliklar rangli harbiy kiyimda aks etgan holatda bo'lishgan. Fors sarkardasi Mardoniy Yunonistonda janglarda old qatorda mahoratli baqtr jangchilarini qo'ygan. Aynan forslar mil.avv. I mingyillik

boshlarida suvoriylar qo‘shinini ossuriyaliklarning manyovr qilishga noqulay ot qo‘shilgan aravalariga qarshi qo‘yganlar. Yunon-fors urushlariga qadar forslarning qo‘shinini hech kim yenga olmagan. Zich qator qilib qo‘yilgan yoyandozlar raqib qo‘shinining old qatorini nishonga olganlar va undan keyin otliq kavaleriya, ya’ni suvoriylar jangga kirishgan.

Mil.avv. IV asr o‘rtalaridan boshlab Fors imperiyasi har tomonlama parchalanishni boshladi. Imperiya zaiflashib, ichki nizolar o‘z cho‘qqisiga chiqayotgan bir paytda g‘arbdan Fors imperiyasiga Makedoniyalik Iskandar hujum qildi.

## **AFG‘ONISTON A.MAKEDONSKIY BOSQINI VA UNDA KEYINGI DAVRDA**

Miloddan avvalgi 336-yilda Makedoniya hukmdori Filipp vafot etgach, o‘g‘li Iskandar boshqaruvni o‘z qo‘liga oldi va butun Yunon zaminining inqirozi hamda xarobaga aylantirilishi uchun forslarni ayblashni boshladi. Bunda u otasining hayotiga qarshi fitnani moliyalashtirgan va Yunonistondagi tartibbuzarliklarga homiylik qilishda Ahamoniylar hukmdorini aybladi. Yosh Iskandar uning forslarga qarshi urushi yangi maqsadlarni belgilaydigan tuzum o‘zgarishi ekanligini aniq ta’kidladi. Biroq Iskandar o‘z xalqini to‘plashi va rag‘batlantirish yoki qo‘rqitish orqali otasining eski itifoqini qayta qurishi zarur edi.

O‘z davrining talablariga mos ravishda Iskandar o‘z qo‘shinini urush olib borish orqali tajribasini kuchaytirib bordi. Iskandar tarixdagi boshqa urushlarda ishtirok etgan harbiy sardorlardan ko‘proq o‘z boshqaruvida shafqatsizligi bilan alohida nom qozongan edi.

Miloddan avvalgi 334-yilda Granik daryosi bo‘yidagi jangda Iskandarning qo‘shinlari dushman tomon harakatlandi va nisbatan ko‘p sonli bo‘lgan Ahamoniylar kuchlarini yakson qilib tashladi<sup>7</sup>.

---

<sup>7</sup> Holt F.L. Into the Land of Bones. Alexander the Great in Afghanistan. – Los Angeles: University of California Press, 2005. – P. 12.

Issa yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda esa Iskandar Forslar hukmdori Doro III ning ulkan qo‘shinini mag‘lubiyatga uchratdi. Doro III makedoniyaliklar qo‘shinidan yashirinib mamlakatning sharqiy hududlari, ya’ni hozirgi Afg‘oniston hududlariga qochib ketdi. Forslarning o‘z ajoyibligi bilan nom qozongan saroylari yunonlar va makedoniyalik bosqinchilar tomonidan egallandi.



### ***Iskandar Makedonskiy imperiyasi***

Baqtriya sifatida ma’lum bo‘lgan Afg‘oniston Iskandarning Osiyodagi qudratiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xavfli hudud sifatida ko‘rinardi. Miloddan avvalgi 329-yil bahorida Iskandar Oks (Amudaryo)dagi Iskandariya nomi bilan mashhur bo‘lgan dunyodagi eng qadimiy istehkomni qurdirdi. Baqtriya daryosi yonida joylashgan Zariasp (yoki Baqtra) shahri fors imperiyasining eng qadimiy viloyatlaridan biri hisoblangan Baqtriyaning ma’muriy poytaxti edi. Baqtriya hududi Iskandarda boshqacha taassurot qoldirdi va Iskandarning qo‘shini uning darvozalarini shturm qilmadi hamda devorlarini buzib tashlamadi.

Iskandar Baqtriyaga yetib kelishidan bir necha hafta oldin Ahamoniylarning Baqtriya satrapligidagi noibi Bess mahalliy yetakchilar ishtirokida urush kengashini uyushtirdi.



Iskandar Fors saltanatiga bostirib kirgan dastlabki paytlarda Bess va Iskandar o‘zaro to‘qnash kelishgan edi. Jumladan, Bess hozirgi Iroq hududidagi Gavgamela jangida Iskandarga qarshi jang olib borgan edi. O‘sha paytda Bess Forslar imperiyasining “shohlar shohi” nomini olgan Doro III qo‘l ostidagi Baqtriya satrapi edi. Fors shohi va uning satrapi qarindosh bo‘lib, Bess Doro III ning eng mahoratli qo‘mondonlaridan biri edi. Iskandarning qo‘shini allaqachon imperiyaning g‘arbiy qismini egallab olgan edi. Gavgameladagi jang davomida Bess va uning askarlari yaxshi jang qilishdi, lekin ma‘lum bir chiziqda Iskandarning tuzog‘iga tushishdi va Doro III ning qo‘shini chekinishni boshladi.

Doro III Gavgameladagi yirik mag‘lubiyatdan so‘ng Iskandar qo‘shinining ta‘qibidan qochib mamlakatning sharqiy hududlari, ya‘ni Baqtriya hududiga yetib keldi. Biroq, Doro III va Bess qayta uchrashishganda Bess o‘z shohidan nima sababdan qudratli fors armiyasi o‘zidan besh baravar kam sonli qo‘shindan mag‘lubiyatga uchraganligini tushuntirib berishni so‘radi. Mil.avv. 330-yilda Doro III Bessning buyrug‘i bilan aldab asirga olindi va achinarli hayvon kabi qafasga solib qo‘yildi. Shundan so‘ng Baqtriya noibi Bess Forslar saltanatining shohi Artakserks IV deb e‘lon qilindi. Baqtriyaning kuchli otliq qo‘shiniga tayangan Bess Doro III ni qatl ettiradi va Iskandarni Baqtriya hududiga yurishini to‘xtatish maqsadida Doro III ning jasadini Iskandarning yo‘liga tashlab, o‘zi Amudaryoning o‘ng sohiliga o‘tib ketdi<sup>8</sup>.

Miloddan avvalgi 330-yildan boshlab yunon va makedoniyaliklar qo‘shini Baqtriyaning pasttekisliklaridan tortib to‘qorli tog‘lariga qadar uzoq muddat Bess va uning uchqur otliq qo‘shinini izlashadi. Biroq, Baqtriyaning otliq qo‘shini hech qayerda ko‘rinmas edi, Iskandarning qo‘shini esa Hindikush tog‘larining kuchli bo‘ronidan sillasi qurib holsizlanadi.

Shunga qaramay, hozirgi Hirot shahri yaqinida Iskandarning qo‘shini Bessning yaqin ittifoqchisi Satibarzan bilan jang qilib uni qo‘lga oladi va Bess haqida bir talay ma‘lumotga ega bo‘ladi.

<sup>8</sup> Holt F.L. Into the Land of Bones. Alexander the Great in Afghanistan. – Los Angeles: University of California Press, 2005. – P. 28.

Iskandar Satibarzan ustidan qozonilgan g'alabadan keyin Artabazni Baqtriya satrapi etib tayinladi. Bu vaqtda Bess Baqtriyadagi barcha kuchlarni birlashtirib Iskandarga qarshi chiqish o'rniga kurtish taktikasini ma'qul ko'rdi hamda bosqinchilar bilan bo'ladigan jangda mudofaa usulini tanladi. Bessning bunday taktikasi Iskandarga qo'l keldi va u Bess bilan to'g'ridan to'g'ri jangga kirish oldidan hozirgi Afg'oniston hududidagi bir qator tarixiy viloyatlar (Areya, Drangiana va Araxosiya)ni egalladi.

Mil.avv. 329-yilda Iskandar Amudaryoni kechib o'tdi va Bessni qo'lga olib, uni qatl ettirdi. Biroq, bu bilan Baqtriya hududida bosqinchilarga qarshi kurash to'xtab qolmadi. Amudaryoning o'ng sohilida va So'g'diyona (hozirgi O'zbekiston) hududida Iskandarga qarshi Spitamen boshchiligida keng ko'lamlil xalq qo'zg'oloni boshlandi. Iskandar ushbu qo'zg'olonni bostirish uchun uch yil vaqtini sarfladi. Shunda ham Spitamenni qo'lga ololmadi. Qo'zg'olonchilar bosqinchilarga qarshi pistirmalar qo'yish va yirik janglarga kirmaslik taktikasini qo'llab qaqshatqich zarba berdilar.



*Baqtriya-yunon bosqinidan keyin*

Iskandar So'g'diyonadagi qaqshatqich muvaffaqiyatsizlikdan keyin ona yurtidan qo'shimcha madad kuchi sifatida 22 ming nafar yunon askarlarining yetib kelishini kutdi.

Mil.avv. 328-yilning erta bahorida Iskandar veteran qo'shini va yangi kelgan kuchlari vositasida Baqtriyani butkul zabt etishga yana urinib ko'rdi. Xavfning kengayib borishi Iskandarning yorqin strategiyalar orqali katta muvaffaqiyat qozonishiga bo'lgan umidini chippakka chiqardi. Qo'zg'olonchilarni yo'q qilish maqsadida bir joydan boshqa joyga ko'chib yurgan uning ulkan qo'shini Markaziy Osiyoda maqsadsiz harakat qilardi.

Qo'zg'olonlarni bostirish maqsadida Iskandar o'z kuchlarini bir necha qismga taqsimladi. Oks daryosining janubida joylashgan Baqtriyani boshqarish maqsadida Iskandar o'z harbiy qo'mondoni Krater boshchiligida qo'shin qoldirdi. So'g'diyonaga qarshi yurishda esa qo'shinni Iskandarning o'zi boshqardi<sup>9</sup>.

Kurashdan charchagan mahalliy aristokratiya vakillari Spitamenni xoinlarcha o'ldirib, boshini Iskandarga yubordilar. Aksiart yetakchiligidagi Baqtriya mahalliy aristokratiyasi Iskandar hokimiyatini tan oldilar.

Mil.avv. IV asrda Makedoniyalik Iskandar bilan janglarda baqtriyaliklarni o'z satrapi qo'shinga boshchilik qilgan. Iskandar Baqtriyada satraplikni butunlay tugatgan emas. Sug'diyona egallangach, Baqtriyaga 10 ming kishilik piyoda va 3500 suvoriydan iborat katta qo'shin bilan makedoniyalik Aminta ismli odamni hokim qilib qoldiradi.

Makedoniyalik Iskandar davrida bosib olingan O'rta Osiyo va Afg'oniston hududlarida harbiy manzilgohlar va shaharlar: polislar, urbislar, oppida, koloniyalar tashkil etilgan edi.

Mill.avv. 327–325 va 323-yillarda Baqtriya va Sug'diyonada qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Diadoxlar tomonidan qo'zg'olonlar bostirilgach, o'sha hududlardagi barcha harbiy kuchlar qirib tashlangan.

---

<sup>9</sup> Tanner, S. Afghanistan. A Military History from Alexander the Great to the Fall of the Taliban. – Cambridge (Massachusetts): Da Capo Press, 2003. – P. 47.

Makedoniyalik Iskandar Hindiston safari oldidan 30 ming nafar eronliklarni o‘z qo‘shini tarkibiga kiritish va ularga jang san’atini, yunon tilini o‘rgatishga buyruq bergan.

Nihoyat Iskandar Hindiston yo‘nalishi bo‘ylab yurishni maqsad qildi. Hindistonga yurishning dastlabki bosqichida yunonlar va makedoniyaliklar qish faslida Hindikush tog‘ini kesib o‘tishdi va bunda juda katta qiyinchiliklarga duch kelishdi. Iskandar o‘z hayotining ancha qismini Fors saltanatining boshqa qismlariga qaraganda So‘g‘diyona va Baqtriyani zabt etish bilan o‘tkazdi. Biroq, bu kurash hali yakunlamagan edi. Baqtriya urushini tugatish uchun Iskandar zamonaviy Kobul shahrining sharqiy chegaralarini bosib olishi zarur edi.

Mil.avv. 329-yilda Iskandar hozirgi Afg‘onistondagi Bagrom shahri yaqinida o‘z nomi bilan ataluvchi yana bir Iskandariya shahriga asos soldi va bu shahar uning Hindistonga yurishi yo‘lida tayanch baza vazifasini o‘tashi lozim edi.

Iskandar afg‘on zaminini vodiyma vodiylar orqali zamonaviy Afg‘oniston–Pokiston chegaralaridan o‘tdi va Federal Ma‘muriy Qabilalar Hududi va Pokistonning Shimoli-G‘arbiy Chegara Viloyati hududlarigacha kirib bordi.

Buyuk Iskandar shundan so‘ng boshqa hech qachon Afg‘oniston zaminiga oyoq bosa olmadi. U Hindistonning ma‘lum qismini zabt etgach, Bobilga qaytib ketdi va bu shaharni ulkan saltanatining poytaxti sifatida e‘lon qilib, shu shaharda yashadi.

Mil.avv. 323-yilning 10-iyunida Iskandar Bobilda 33 yoshida vafot etdi. Uning o‘limidan so‘ng, Iskandarning ulkan saltanati uch qismga – Yunoniston, Misr va Sharqdagi katta hududlarni o‘zida mujassam etgan Suriyaga bo‘linib ketdi.

Uzoq kurashlardan so‘ng Iskandarning mohir lashkarboshilaridan biri bo‘lgan Salavk I Nikanor mil.avv. 312-yilda hozirgi Afg‘oniston, Markaziy Osiyo, Eron, Iroq va Suriya hududlarini o‘z ichiga oluvchi ulkan davlat hukmdoriga aylandi<sup>10</sup>. Ushbu davlat

---

<sup>10</sup> Runion, M.L. The History of Afghanistan. – London: Greenwood Press, 2007. P. 41.

hududlari ham ulkan bo'lganligi sababli Salavk sharqiy hududlarni boshqarish uchun o'g'li Antioxni noib etib tayinlaydi. Antioxning onasi mahalliy aholi orasidan bo'lib, hozirgi Afg'oniston hududida tug'ilgan edi.

Yunon muarrixlari Salavk I va Antioxlar Afg'oniston hududlariga juda katta e'tibor berganliklarini yozadilar. Ular davrida 75 ta shahar qurilganligi manbalarda qayd etiladi. Bu shaharlar Salavkiya, Antioxiya va boshqa nomlar bilan atalgan.

Strabon bergan ma'lumotlarga qaraganda Antiox Marg'iyonada o'z nomiga qurdirgan shahar – Antioxiyani ko'chmanchilarning tinimsiz hujumidan himoya qilish maqsadida Murg'ob vohasi atrofini 250 km.li devor bilan o'rab olishga ko'rsatma beradi. Ammo ko'chmanchilarning hujumlari bu bilan to'xtamagan. Ular u yoki bu shahar devorlari ostida yoki ekinzor dalalar hamda voaha bog'larida kutilmaganda paydo bo'lar va yana tezda ko'zdan g'oyib bo'lar edilar. Ana shunday og'ir bir vaziyatda Salavk I Hindistonga qarshi urush boshlaydi. Bu urush uning mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Natijada Salavkiylarning Afg'onistondagi obro'siga putur yetadi, ularga qarshi qo'zg'olonlar boshlanadi. Salavkiylar og'ir ahvolga tushib qoladilar. Antiox Baqtriyadagi mahalliy aslzodalarga bir qadar yon bosib og'ir vaziyatning oldini oladi.

Antiox Baqtriyada saltanatning sharqiy viloyatlari uchun o'z pullarini zarb etishga kirishadi. Antiox nomi bilan Baqtriyada pul zarb etilishi uning mustaqil davlat siyosatini olib borayotganligini ko'rsatar edi. Baqtriyada Salavk I ning o'g'li Antiox otasining maqsadlarini amalga oshirish uchun mamlakatni taxminan mil.avv. 293-yildan 281-yilgacha boshqardi.

Miloddan avvalgi 280-yilda Salavk I vafot etadi. Otasi vafot etgandan keyin esa Antiox ulkan saltanatning hukmdoriga aylandi. Ana shu davrdan boshlab sharqiy viloyatlar Antiox I faoliyatidan chetda qoladi. Chunki G'arbiy viloyatlardagi harbiy vaziyat uning qo'shin bilan birga bo'lishini taqozo etar edi. Ayni paytda G'arbiy viloyatlarda ham vaziyat ko'ngildagidek emas edi. Xullas, Salavk I vafotidan so'ng davlatning zaminiga putur yetadi.

Antiox I ning vorislari Antiox II (261–246) va uning o‘g‘li Salavka II (246–225), uning o‘g‘li Salavka III (225–223) davrida mamlakatda tarqoqlik jarayoni kuchaydi. Ushbu hukmdorlar Ahamoniylar va Iskandar tuzgan satrapliklarga tayangan holda hozirgi Suriya hududidan turib mamlakatni idora qilishdi. Bizga ma’lumki, Salavkiylar Baqtriyada ham satrapliklarni saqlab qolishdi.

Mil.avv. 250-yilda Salavkiylar imperiyasidan Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari ajralib chiqishdi.

Baqtriya hukmdorlari faqatgina mil.avv. III asrning o‘rtalariga kelibgina hozirgi Afg‘oniston hududida mustaqil davlat tuzdilar. Bundan oldin Ahamoniylar davrida Bess o‘zini shoh Artakserks deb e‘lon qilishi ortidan Makedoniyalik Iskandar davridagi mustaqillikka intilish harakatlari ko‘zga tashlangan edi. Biroq Yunon-Baqtriya shohligi Diodot I davriga kelibgina, Salavkiylarga qarshi kurashlar natijasida mustaqillikka erishdi.

Mil.avv. 250-yilda Diodot Afg‘oniston hududidagi Baqtriya viloyatida boshqaruvini o‘z qo‘liga oldi va uni Salavkiylar imperiyasidan mustaqil deb e‘lon qildi. Afg‘oniston tarixidagi qisqa vaqt mobaynida Baqtriya mustaqil, ellinistik davlat sifatida taraqqiy etdi. Yunon-Baqtriya davlati boshqaruvi haliyam yunonlar qo‘lida bo‘lganligi, biroq davlatning o‘zi Baqtriya hududida bo‘lganligi bois davlat nomi Yunon-Baqtriya deb ataladi.

Yunon-Baqtriyaning mustaqillik uchun kurashi bilan bir vaqtda hozirgi Eron hududida ham mustaqillikka bo‘lgan kurash boshlanib ketdi va bu yerda ham Salavkiylardan o‘zini mustaqil deb e‘lon qilgan Parfiya davlati vujudga keldi. Parfiya davlati Seiston viloyati ostidan nazoratini mustahkamlab, janubiy Afg‘oniston va sharqiy Eron orasidagi viloyatlardan o‘tuvchi chegara chizig‘ini tortadi. Shuningdek, parfiyaliklar Afg‘oniston janubidagi Qandahor viloyati ostidan ham bir muddat o‘z boshqaruvini o‘rnatgan edi. Bu vaqtda Afg‘oniston janubidagi viloyatlar haligacha Salavkiylar imperiyasi qo‘l ostida edi. Bu viloyatlar gullab yashnadi, biroq Hindistonda Iskandar bosqinidan so‘ng vujudga kelgan qudratli Maurya davlati Afg‘oniston janubidagi hududlarga tahdid solib turar edi. Bunday

tahdidlar ayniqsa, mil.avv. III asrda podsho Ashoka hukmronligi davrida kuchaydi va Afg'onistonning janubiy viloyatlari deyarli tinch emas edi.

Diodot I Salavkiylarga qarshi kurashayotgan parfiyaliklar bilan ittifoqchi bo'lib, shohlik tojini kiyish huquqini qo'lga kiritgan edi. Diodot I ning shoh unvonini olishda uning tashqi siyosatda omadi kelishida u yetakchi bo'lgan harbiy qo'shinning benihoya hissasi katta. Biroq, Diodot I ning muvaffaqiyatlarida uning harbiy qo'shini roli ustunligi haqida biror-bir manbada aytib o'tilmagan.

Diodot II davrida shoh hokimiyatiga nisbatan ellinlar orasida ishonchsizlik bildirildi. Oqibatda u magneziyalik ellin Evtidem tomonidan taxtdan ag'darildi. Evtidem shoh hokimiyatini mustahkamlashga harakat qildi va shaxsan Salavkiy hukmdor Antiox III tomonidan shoh sifatida tan olinishiga erishdi. Uning davrida mamlakat har tomonlama rivoj topdi.

Mustaqillikka erishgandan keyin Yunon-Baqriya o'z hududini kengaytirish siyosatini yuritdi. Mil.avv. 170-yilga kelib uning hududlari shimoliy Eron dan Hindiston g'arbidagi Gang daryosigacha yetib boradi. Biroq, yunonlar va ellinlashgan mahalliy hukmdorlar orasidagi ichki qarama-qarshiliklar davlatni zaiflashtirdi. Keyinroq, davlat chegaralarini sharqqa, ya'ni Hindiston tomonga bosqinchilik orqali kengaytirishga bo'lgan harakatlar Yunon-Baqtriya davlatining halokatiga sabab bo'ldi.

Eramizdan oldingi 180-yilda Yunon-Baqtriya hukmdori Demetriy (mil.avv. 199–167) Hindistonga bostirib kirdi va yunon-hind podshohligiga asos soldi. Mazkur yurish Maurya davlatining mustahkamligiga jiddiy zarba berdi.

Evtidem I avlodlari Hindiston yarim oroli hududlarigacha bo'lgan yerlarni qo'shib oldilar. Aynan Evtidem I avlodlari davrida hukmronlik qilib o'tgan shohlarni ilohiylashtirish an'anaga aylangan edi. Biroq Demetriy I va uning avlodlari hokimiyat uchun kurashda Evkratid I ga imkoniyatni boy beradilar. Evkratid I Evtidem avlodlari bilan kurashda o'z hokimiyatining kuchsizlanishiga olib keladi va oqibatda o'z o'g'li tarafidan o'ldiriladi. Evkratid avlod-

luri davrida kushon qabilalari bosqini oqibatida Baqtriya ustidan nazoratni qoʻldan boy beradilar.

Yunon-Baqtriya davlatida hukmronlik qilgan har bir hukmdor hokimiyati harbiy xarakterga ega boʻlgan. Evtidem I faqatgina Antiox III bilan Areya daryosi boʻyidagi jangda toʻqnashgan. Dastlab jang avvalida uning qoʻshinini sarkarda Menandr boshqargan. Menandr halok boʻlgach, Evtidemning oʻzi boshlab borgan.

Yunon manbalariga koʻra, shohning oʻzi davlatining huquqiy kafolati boʻlgan. Yunon-Baqtriyada shahar-polis kengashlarida aholi uchun qonunlar joriy qilingan boʻlsa, oliy qonunchilik albatta shohning kotibiyati tarafidan butun mamlakat uchun qonunchilik tuzib chiqilgan. Ellin davlatlarida shoh mamlakat diniy hayotida ham oʻz oʻrniga ega boʻlganligini koʻrishimiz mumkin. Masalan, Pergum davlatida attalistlar kengashi shohni ilohiylashtirishda katta rol oʻynagan. Yunon-Baqtriyada ham shunday kengashlar mavjud boʻlgandir, chunki bekorga shohning xudo darajasiga olib chiqilganligi bejiz emas.

Ellin hukmdorlarining qarorgohlari va saroylari mamlakatning turli joylarida boʻlgan. Misol uchun Oy Xonim saroyi va Baqtra shahridagi shoh saroyi Salavkiylarning ikki yillik hujumlariga dosh berganligining oʻzi mudofaaning mustahkamligidan dalolat beradi. Bundan tashqari hukmdor nomini olgan shaharlar – Evtidemiya, Livkratidiya kabi shaharlar ham mustahkam boʻlganligi haqida manbalar maʼlumot beradi.

Yunon-Baqtriya davlati mustaqillikka erishgach, yangi maʼmuriy-hududiy boʻlinish zaruriyati tugʻildi. Maʼlumki, Baqtriya satrapliklarga boʻlingan edi. Ulardan Aspion va Turiva nomlari haqida yunon tarixchi va geografi Strabon (miloddan avvalgi I asrda yashagan) eslatib oʻtadi. Bu satrapliklar hudud jihatidan Iskandar va Ahamoniylar davlati satrapliklaridan ancha kichik boʻlgan. Baqtriyaning oʻzi ham Ahamoniylar davlati tarkibida alohida satraplik boʻlgan.

Baqtriya satrapliklari unchalik darajada mustaqil faoliyat olib bormaganlar. Ular faqatgina siyosiy sohada mustaqil boʻlganlar.



Mustaqil o'z nomlaridan tanga zarb eta olmaganlar. Taxminlarga ko'ra, yunon-baqtr satrapliklari boshqaruvchisi strateg unvonini olgan bo'lishi mumkin. Viloyatlarning hind-sak yo'l boshchilari baqtriyalik va hindiy-yunonlarning unvonlarini o'zlashtirishgan edi.

Baqtriyada ilk ellin davrida "bo'linmaga rahbarlik qiluvchi" fxurarlar – amaldorlar faoliyat olib borishgan. Arrianning yozishicha, Baqtriya shaharlari akropolida joylashgan Iskandarning qo'shini orasidan bo'linmalar rahbari "getaytlar"dan tayinlangan. Bu kabi harbiy-ma'muriy lavozim Yunon-baqtr davlatida saqlanib qolgan edi. Ular Shimoliy chegara nomadlarida ko'chmanchilar hujumini qaytarishda mudofaani tashkil etishlari kerak edi.

Polibiy mil.avv. 208-yili Ariy (Gerirud) daryosi yaqinida Antiox III qo'shini bilan jang qilgan baqtriyalik otliqlar haqida hikoya qiladi. Muallifning guvohlik berishicha Evtidem I ning 10 ming kishilik suvoriylari bo'lgan. Ba'zi manbalarga ko'ra, "o'n ming kishilik jangchilar" bo'linmasi aynan "miriad" deb nomlangan. Ushbu bo'linma uch qismga – gipparxiyalarga bo'lingan. Otliq qo'shinga mahalliy obro'li shaxs – gipparx boshchilik qilgan.

Keyinchalik hind-yunon shohliklarida yuqori lavozimni mahalliy aholi vakillari ham egallagan. Satrap, strateg, meridaxrlarning vazifasi nafaqat ma'muriy, balki harbiy xarakterga ham ega bo'lgan. Ushbu lavozimlardagi shaxslar harbiy yurish vaqti qo'shinni idora qilishgan, tinchlik hukm surgan vaqtlarda qo'shinning sifati va tayyorgarligiga javobgar bo'lishgan.

Yunon-Baqtriya davlati markaziy boshqaruvida shoh devoni katta rol o'ynagan. Bu organning vazifasi shoh farmonlari va buyruqlarini joylarga yetkazish hisoblangan. Yunon-Baqtriyada hujjat ishlari yunon yozuvida olib borilgan.

Markaziy boshqaruvda ellin davlatlarida muhim davlat ishlari-ga shohning yaqinlari ham jalb qilingan. Misol uchun Evtidem I ning o'g'li Demetriy Antiox III huzuriga elchi qilib yuborilgan.

Shoh harbiy yoki elchilik ishlari bilan safarda bo'lgan vaqtlarda uning o'rmini yaqin qarindoshlaridan biri egallab turgan.

Bu hududlarni koloniyalarga aylantirish siyosatini salavkiylar davrida ham davom etgan. Antiox III davrida Kichik Osiyoning Kariya hududlaridan Afg'oniston hududlariga kolonizatorlar ko'chib kelishgan. Misol uchun Yunon-Baqtriya shohi Evtidem I Magnezialik bo'lgan. Kariyadan sharq tomon yollanma va ko'ngilli kolonizatorlar ko'chib kela boshlashgan.

Yunonlarni bu hududlarga ko'chib kelishga qiziqtirish maqsadida Salavkiylar Iskandarning koloniyalashtirish siyosatini o'zgartirishlariga to'g'ri kelgan. O'rta Osiyo va Baqtriyadagi koloniyalarga polis maqomini bera boshlashgan. Polislarning mustaqilligi ortishi bilan ularga nisbatan markaziy hokimiyatda demokratik munosabat shakllana borgan. Keyinchalik bu polislar o'zini-o'zi boshqarish imkonini qo'lga kiritib, Baqtriya hududlarida polislar ittifoqini tashkil etishib, mustaqillik talab qila boshlashgan. Mil.avv. III asr o'rtalarida Baqtriyada mustaqillikka harakatni aynan yunon polislari boshlashgan. Keyinchalik yunon polislari Diodotni qo'llashdi va oqibatda Salavkiylar bilan raqobatda yengib chiqdi.

Yunon-Baqtriya tarkibiga kirgan polislar ham keng imtiyozlarga ega bo'lgan. Hatto shoh siyosati ularni qanoatlantirmasa, uni taxtdan ham ag'darishgan. Xususan, bunga misol qilib, Evtidem tomonidan Diodot II ning hokimiyatdan chetlatilishini ko'rishimiz mumkin.

Har bir polisda xalq kengashi bo'lgan. Unda shaharning diniy rahnamosi, kotiblar, gimnaziarlar va turli amaldorlar saylanishgan. Polislar kengashi nazorat, qonunchilik shahar rejalarini amalga oshirib kelgan. O'ta harbiylashgan sharoitda Yunon-baqtr polislari-da strateglar katta rol o'ynashgan.

Ellinizm O'rta Osiyo shaharlarida mustahkam o'rnashib bo'lgach, barcha jabhalarda yunon xarakterni o'zida aks ettirgan. Tarixchi V.Tarning fikricha polislar yunoncha nom olishi kerak bo'lgan. Ya'ni, Iskandar nomini olishligi lozim bo'lgan. Polis darajasini olishligi uchun albatta bu hududda yunonlar yashashligi kerak edi. Polislar kleruxlar boshqaruviga o'tgach, markaziy hokimiyat harbiy qo'shinidan kamroq foydalanishgan. O'zlari mustaqil o'z hududlarini mudofaa eta olganlar.

Yunon-Baqtriya tub aholisi etnik jihatdan turli-tuman bo'lgan. Shahar markazlarida doimo yunonlar yashashgan. Mahalliy aholi o'zining turmush tarzini, madaniyati, tili va e'tiqodini antik davr oxirlarigacha saqlab qolishgan.

Ellinizm davrida Baqtriyadagi yunon shaharlari tarkibidagi aholini yuridik jihatdan uch kategoriyaga bo'lish mumkin: fuqarolar, fuqaro bo'lmaganlar (to'la huquqqa ega bo'lmaganlar) va qullar. Tarixchi Diodotning yozishicha, yuqori satrapliklarda qo'shin tarkibida yunon-makedon bo'lmagan aholi orasidan mahalliy baqtr va so'g'd yoshlari Iskandar buyrug'iga ko'ra makedoncha qurollantirilgan va jang mashg'ulotlariga o'rgatilgan. Bu tadbir Filipp II tomonidan ishlab chiqilgan standart qurollanish va qo'shin safini to'ldirish tadbiri bo'lgan. Bu an'ana, ya'ni o'rta osiyolik mahalliy aholi bilan qo'shin tarkibini shakllantirish Salavkiylar davrida ham saqlanib qolgan.

Baqtriya hududidagi Oy Xonim shahar polisi misolida yunon-makedonlarning mahalliy aholi bilan aralashib ketishini ko'rishimiz mumkin<sup>11</sup>. Shahar qarorgohidan tashqaridagi binolar monumental ko'rinishda bo'lganligini ko'rish mumkin va ulardan 14 tasidan 12 tasining nomi yunoncha bo'lgan. Ushbu ma'lumotlarni o'rganish asnosida mil.avv. III asr o'rtalarida Parfiya davlatining tashkil topishi bilan Salavkiylar saltanatini dushmanlar orasida qolib ketganligini hisobga olsak, yunon polislarning rivojlanishi va yunonlarning mahalliy aholi bilan munosabatlari o'zgacha kechganligini ko'rishimiz mumkin.

Yunon-Baqtriya qo'shinining asosi polislardan kelgan, kelib chiqishi ellin bo'lgan ko'ngilli kishilardan tashkil topgan. Aynan ularning xizmati tufayli Baqtriya va So'g'diyona mustaqillik uchun kurashda faol qatnashgan. Hindistonga bo'lgan yurishlarda va Salavkiylar hamda Parfiya bilan bo'lgan janglarda polislar faol ishtirok etishgan. Lekin ular shimoldan kelgan ko'chmanchilarning xavfini kamaytira olmagan. Yunon-Baqtriya harbiy yurishlarida

---

<sup>11</sup> Holt F.L. Into the Land of Bones. Alexander the Great in Afghanistan. – Los Angeles: University of California Press, 2005. – P. 71.

polislardagi ko'ngillilardan tashqari, Kichik Osiyodan kelgan yollanma qo'shin Hindiston va Sharqdagi harbiy yurishlarda ishtirok etgan.

V. Tarnning yozishicha, Yunon-Baqtriya o'z o'rniga ega bo'lgan mahalliy zodagonlar va ellinlar tomonidan boshqaruvdagi "ikki boshqaruvli davlat" bo'lgan. Baqtriyaliklar nafaqat yunonlar uchun otliq qo'shin yetkazib berishgan, balki, mil.avv. 256-yilda salavkiylarga qarshi qo'zg'olonda faol ishtirok etishgan.

Yunon-baqtr va yunon-hind hukmdorlarining nomi yunoncha bo'lgan. Yunon-hind jamiyatida ierarxik tarafdin yunon ayollari hind varnlari: brahman, kshatriya, vayshiyulardan ustun turgan. Shundan kelib chiqib, bosib olingan Hindistonning shimoli-g'arbiy hududlarida yunonlarning avlodlari va aralash nikohdan qolgan avlodlar ham oliy maqomga ega bo'lganligini xulosa qilish mumkin.

Oy Xonim akropolida kichik harbiylar binnosida kichik eroniy ibodatxona topilishi, mahalliy jangchilar uchun xizmat qilganligi xususida tarixchi P. Bernar xulosa qilgan.

Mahalliy aholi ellinlardan darajasi pastroq ekanligini hisobga olsuk, Areya daryosi bo'yidagi jangda Antiox III ga qarshi faqat baqtriyalik suvoriylar qarshi chiqqanligini ko'rishimiz mumkin. Savol tug'iladi: Nega Evtidem o'z qo'shini bilan Areya jangida qatnashmadi? V. Tarnning fikricha, Evtidem qonuniy hukmdorga qarshi chiqishga qo'rqqan va o'z qo'shini bilan chetroqqa chiqib turgan. A. Simonettaning fikricha esa, Evtidem o'z suvoriylari bilan Antiox III ning piyoda qo'shiniga sezilarli zarba berishi mumkin bo'lgan. Lekin keng maydonda jang qilish uchun Evtidemda piyoda qo'shin yetishmagan va Baqtra shahrini mudofaasi ishini ma'qul ko'rgan bo'lishi mumkin. Bir tomondan Evtidem strategik jihatdan to'g'ri o'ylagan bo'lishi mumkin. Chunki o'sha payt u Antiox III bilan siyosiy kelishuvga erishishi mumkin bo'lgan. Oqibatda Evtidem ikki yillik qamalda o'z qo'shini va hokimiyatini saqlab qola oldi.

Hatto Yunon-Baqtriyada siyosiy inqiroz kechgan vaqtlarda ham baqtriyaliklar o'z jangovarligini yo'qotishmagan. Tarixchi Yustinning yozishicha, Demetriy II parfiyaliklarga qarshi kurashda baqtri-

yalik yollanma qo'shinni yordamchi kuch (auxilia) sifatida harbiy to'qnashuvlarda qo'llagan.

Shuni ta'kidlash kerakki, ellin davlatlarda, xususan Yunon-Baqriyada qo'shinni "makedonlashtirish" bilan bir qatorda sharqona jang elementlari ham qo'llanilgan. Misol uchun janglarda Demetriy I Yengilmasning jangovar fillarni qo'llaganligini buning tasviri tushirilgan tangalarda ko'rish mumkin.

Yunon-Baqriya piyoda qo'shini falanga tarzida bir qatorda tizilgan bo'lgan. Ular og'ir qurollangan bo'lishgan. Ularning ortida yordamchi kuch yoyandozlar, tosh uloqtiruvchi drotiklar falanga qanotlarini mudofaa qilishgan. Tarixchi Polibiy baqtriyaliklar otliq qo'shiniga e'tibor qaratmay ularning yengil qurollanganini va saf tortgan holda jangga kirmaganligiga, yaqin masofada dushman bilan yuzma-yuz jang qilishdan qochganliklarini ishora qilgan. Bunday tasvirni Gerodot asarlarida va qadim hind eposi "Mahobharat"da baqtriyaliklarning qurollanishi haqidagi yozuvlarni uchratish mumkin. Jang qilishning turli usullarini qo'llagan holda baqtriyaliklar makedonlarning jang qilish texnika va taktikasini yaxshi bilishgan. Misol uchun baqtriyalik suvoriy o'zi bilan bir piyoda askarni jangga olib kirgan va dushmanga yaqinlashganda otni boshqarayotgan suvoriyning ortidagi piyoda jangchi otdan sakrab tushib jangga kirib ketgan. Bu jang usulini makedonlar bilmagan.

Keyinchalik Yunon-baqtr shohlari Areya bo'yidagi mag'lubiyatdan so'ng og'ir qurollangan suvoriylar (katafrakta) ni qo'llay boshlashgan. Oy Xonimdagi qazishma ishlarida topilgan suvoriylarning temir sovutlari suvoriylar yunonlardan emas, eroniylardan bo'lganligidan darak beradi. Ilk katafraktalar yunon-baqtr qo'shinida o'rta osiyolik dasht xalqlari ta'sirida paydo bo'lgan. Yunon suvoriylari haqida "Mahobharat" eposida ma'lumot uchraydi. Lekin Yunon-Baqriya qo'shinida yunon suvoriylari katta rol o'ynashmagan.

Tarixchi Yustin hikoyalarida Evkratidga tegishli 300 suvoriyning Demetriyga qarshi jangi haqida aytib o'tilgan. Hikoyada shuningdek, 300 jangchi Demetriyning 60 ming kishilik qo'shinini

yengganligi aytiladi. Bizningcha, ushbu saralangan 300 jangchi shohning maxsus agama – shaxsiy tan soqchilari bo‘linmasi bo‘lgan.

Yunon-Baqtriya qo‘shinining yana bir qismi fillardan tashkil topgan harbiy qism bo‘lgan. Ba‘zi olimlarning fikricha, baqtriyaliklarda jangovar arava qo‘shilgan otliq qo‘shin turi ham bo‘lgan. Tarixchi Yustin Evkratidning fojiali halok bo‘lishini, uning Hindistondan qaytganida o‘z o‘g‘li tomonidan o‘ldirilgani va o‘ligi ustidan ot qo‘shilgan arava bilan o‘tib ketganligiga e‘tiborni qaratadi. Ba‘zi olimlarning fikricha, ot qo‘shilgan aravalar jang uchun emas, balki hashamat uchun aslzodalar tomonidan qo‘llanilgan va bunga shoh Menandrni misol qilib ko‘rsatishgan.

Oy Xonimdagi qazishma ishlarida topilgan diametri 12,3 dan 25,8 sm gacha va og‘irligi 2 kg dan 20,5 kg gacha bo‘lgan metall sharlar va katta nayzalar baqtriyaliklar dushmanning yengil piyodasini safdan chiqarish uchun uzoq masofaga uloqtiruvchi qurilmalardan foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yunon-Baqtriya qo‘shini soniga kelsak, A.Simonetta Polibiyning ma‘lumotlari asosida keltirgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Evtidem I ning qo‘shini soni 22 ming kishilik bo‘lgan. Ulardan 10 ming nafari piyoda, 2 ming nafarini otliq suvoriylar tashkil etganligini aytadi. Yustin ma‘lumotlariga ko‘ra esa, Yunon-Hind shohi Demetriyning 60 ming kishilik qo‘shini bo‘lgan.

Makedoniyalik Iskandar vafot etgandan keyin ellin davlatlari qo‘shinining asosini baribir jangchi piyodalar tashkil etgan. Iskandar Hindistonga yurishga otliq qo‘shinni ishga solishni reja qilgan bo‘lishi mumkin. Lekin otliq katafraktalarni keng qo‘llash keyingi davr – yuechjilar hukmronligi davriga borib taqaladi. Bundan tashqari ellinlarda og‘ir nayzalar sarissoforlar janglarda qo‘llangan. Fillardan ko‘proq Yunon-Hind shohlari janglarda qo‘llashgan. Fillar bilan dushman safidagi fillarni birinchi bor ko‘rgan askarlarni qo‘rqitganlar.

Afg‘oniston hududida Yunon-Baqtriya davriga oid qazishma ishlarida topilgan qilichlar – maxayra va ksifoslar yunon-makedonlarga xos bo‘lgan. Ksifos – yaqin masofada jang qilishga

mo'ljallangan ikki tarafi o'tkir qilich hisoblanadi. Maxayra – uchi qayrilgan va dastagi grifon boshi bilan bezatilgan bo'lib, piyodalar va suvoriylar tomonidan foydalanilgan. Nayzalar yunon-baqtr qo'shinida asosan sarissalardan keng foydalanishgan. Sarissa qadim dunyoda P.A.Manti fikricha, eng uzun nayza qurol bo'lgan.

Yoy-kamon o'qlari saklarniki kabi bo'lgan. Yunonlarning yoy nayzalari yasash namunasi Baqtriyada ommalashmagan, ko'proq saklarning uchi temirli va bronzali nayzalari amalda bo'lgan.

Yunon-baqtr jangchisining yana bir quroli bu sekir bo'lib, janglardan tashqari xo'jalikda o'tin yorishda qo'llangan. Uch shoxli nayzalar Neptun (Poseydon) xudosi belgisi shaklidagi qurol jangdan tashqari baliq ovida va hayvonlarni ovlashda qo'llangan. Keyinchalik uch shoxli nayza qurol hokimiyat ramziga aylangan. Bu ko'proq kushonlar davrida urf bo'lgan. Shu qurollar qatorida sopqon (0,7 dan 1,5 kg) bo'lib, yengil piyodalar foydalanishgan. Baqtriyada "attika" va "beotiya" dubulg'alari keng urf bo'lgan.

Sovutlardan yunon-baqtriyaliklar bronza va misdan yasalgan – karasa va sharq xalqlariga xos bir-biriga zanjir bilan ulangan plastinkali sovutdan foydalanishgan. Bu sovutlardan namunalar Kampir tepa va Oy Xonim manzilgohlaridan topilgan.

Afg'oniston hududidan topilgan qalqonlar antik tipga ega bo'lib, biri qalin terilar bilan qoplangan inson yuzi aks etgan qalqon, ikkinchisi Kampirtepadan topilgan likop-lagan ko'rinishdagi temirli qalqon va uchinchisi Oks ibodatxonasi (Taxti Sangin)da topilgan oval shaklga ega qalqondir. Oksda topilgan qalqon Attikaga xos an'anada qalqonda "trisikl", ya'ni epik qahramon Axillesning tezkorligiga xos bo'lib, uning "oyoqlari" ramziy qilib olingan. Gerodot va Plutarx Baqtriya satrapi, fors sarkardasi Masistaning tantanavor jangovar aravada sovutlar bilan kiyingan holatini tasvirlashgan. Bu Baqtriyaga aloqador shaxsning jangovar holatda tasvirlangan yagona holati hisoblanadi.

Oy Xonim manzilgohidan og'ir qurollangan otliq suvoriyning va otning jangovar sovuti topilgan.

Yunon-Baqtriya davlati mil. avv. 130-yilgacha mavjud bo'ldi va mamlakat hududiga shimoldan kirib kelgan ko'chmanchi yue-chji qabilalari tomonidan ag'darib tashlandi. Baqtriya hududi Osiyoning ichki hududlaridan kelgan ko'chmanchi qabilalar bilan to'lib ketdi.

## **QADIMGI AFG'ONISTON MADANIYATI**

Afg'oniston hududida qadimda mavjud bo'lgan davlatlarning madaniy hayoti haqida gapirganda, ushbu davrda madaniyat, san'at va diniy e'tiqod o'ziga xos ravishda rivojlanganligini kuzatish mumkin.

Makedoniyalik Iskandar bosqini bilan kirib kelgan ellinizm madaniyati Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari hukmronligi davrida sharq madaniyati bilan o'zaro mujassamlashgan shaklda yangicha ko'rinish oldi.

Ayniqsa Yunon-Baqtriya davlatida san'at o'z rivojining cho'qqisiga erishdi. Arxeolog olimlar Yunon-Baqtriyaning yo'qolgan madaniy dunyosi faqat xayollarda mavjud bo'lgan utoptiya emasligini tasdiqlamoqda. Hozirgi Afg'oniston shimolidagi Oyxonim qishlog'i yaqinidan ushbu davrga tegishli noyob ashyoviy dalillarning topilganligi dunyo olimlarini hayratga soldi. Jumladan, fransiya arxeologiya delegatsiyasi tomonidan olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Oyxonim manzilgohining ahamiyatini bir necha baravarga ko'tarib yubordi.

Kushon davlati hukmronligi davrida butun Afg'oniston hududiga buddaviylik dinining tarqalishi kuzatildi. Xususan, Baqtriya hududlaridan topilgan bir necha buddaviylik ibodatxonalari (Eski Termiz, Ayritom, Dalvarzin, Xolchayon) va bir qator me'moriy inshootlarda budda dini aqidalari o'z aksini topgan.

1877-yilda Vaxsh va Panj daryolarining Amudaryoga quyilish yerida "Amudaryo xazinasi" topildi. Topilmalar orasidagi 179 ta oltin va 7 ta kumush zargarlik buyumlari qadimgi Baqtriyada nafis hunarmandchilikning o'sganligidan dalolat beradi. Shuningdek, 1500 dan ortiq yunon kumush tangalari ham topilgan bo'lib, ular



miloddan avvalgi V asr boshidan miloddan avvalgi II asr boshigacha bo'lgan davrga oid. Ularning ichida Iskandar davriga tegishlilari juda kamchilikni tashkil qiladi. Tangalarning asosiy qismi miloddan avvalgi III asr va II asrning boshiga oid. Lekin xazinada o'sha davrda keng tarqalgan miloddan avvalgi II asr o'rtalariga oid Baqtriya hukmdorlari Yevkratit va Geliokl, Parfiya podshosi Mitridat I ning tangalari uchramaydi. Tekshiruvlardan so'ng xazinadagi tangalar va qimmatbaho buyumlarni miloddan avvalgi 170-yilga oidligi aniqlandi. Ushbu buyumlarda yunon madaniyatiga xos belgilardan tashqari, fors va mahalliy madaniyat belgilarini kuzatish mumkin. Demak bu xazina yunon va mahalliy xalq madaniyatining aralashuvi natijasidir. Bu xazina aslida Baqtriya hududiga qarashli Taxti-Sangin shaharchasidagi ibodatxonaga tegishli bo'lgan. Ular 1897-yilda Londondagi Britaniya muzeyiga olib ketilgan.

Yunon-Baqtriya davri madaniyatini tadqiq etishda fransuz arxeolog olimlari ham katta hissa qo'shdilar. 1922-yilda mamlakatda Fransuz arxeologik missiyasi tashkil qilindi. Ushbu missiyaga taniqli san'at tarixchisi, professor A.Fushe rahbarlik qildi. Fransuz arxeologik missiyasi Janubiy Baqtriya tog'liklari va tekisliklarida Yunon-Baqtriya san'ati yodgorliklarini topish uchun o'z faoliyatini boshladi. Fransuz arxeologik missiyasi 30 yil muddatga Afg'onistonni arxeologik tadqiq etish huquqini qo'lga kiritdi.

Fransuz arxeologik missiyasi A.Fushe rahbarligida 1924–1925-yillarda O'zbekistonning Surxondaryo viloyati markazi Termiz shahridan 70 km janubda joylashgan Baqtriya poytaxti Qadimgi Balx shahri yodgorliklarida arxeologik qazishmalar olib bordi. Fransuz arxeologlarini “oddiy”, maishiy arxeologik materiallar qiziqtirmas edi. Afsuski, fransuz arxeologlari bu yerda o'zlari xohlagan shahar yodgorliklari va tosh haykallarini topa olmadilar. Fransuz arxeologik missiyasi ko'plab shaharlar, qal'alar va manzilgohlarni tadqiq etdilar, ko'plab buddaviylik yodgorliklari, haykallar va bitiklarni ochdilar. Ushbu yodgorliklar milodiy I mingyillikka oid bo'lib, qal'alar va manzilgohlar esa Qadimgi

Baqtriyaning yodgorliklari edi. Lekin A.Fushe va keyinchalik uning o'rnida ishlagan J.Aken ham Yunon-Baqtriya tarixiga doir yodgorlik topa olmadilar.

A.Fushe Yunon-Baqtriya tarixi va san'atini sarob deb e'lon qildi. XX asr 20–30-yillarida ilm-fanda “Baqtriya sarobi” tezisi mashhur bo'lib ketdi. Lekin hamma tadqiqotchilar ham fransuz olimining pessimistik ruhdagi fikriga qo'shilmadi. Janubiy Baqtriya hududida (Afg'oniston) esa fransuz arxeologlari – R.Girshman (1936–1941), D.Shlyumberje (1945–1964), P.Bernar (1964–1978) rahbarliklaridagi ekspeditsiyalar arxeologik tadqiqotlarni olib borishgan va o'z tadqiqotlarining natijalari bo'yicha tegishli ilmiy ishlar chop etishgan edi.

Keyingi yillarda ba'zi olimlar, shu jumladan, Daniel Shlyumberje “Amudaryo xazinasini”ga tegishli yodgorliklarni Yunon-Baqtriya madaniyatiga oid ekanligini tasdiqladilar.

Uzoq yillar davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasida yunon-baqtr madaniyati va san'atiga oid yodgorlik topilgandek bo'ldi. Rim qazilmalarida topilgan yunon-baqtr madaniyatiga oid tangalarda hukmdor Evtidemning tasviri aks etganligi ma'lum bo'lgach, yunon-baqtr madaniyatining mavjud bo'lganligiga shubha kamayib bordi. Lekin Evtidemning aslida Kichik Osiyoning Magneziya shahridan bo'lganligini hisobga olsak, tangalar uning vatandoshlari tomonidan zarb etilgan bo'lishi mumkinligi ehtimoldan xoli emas edi.

Yunon-Baqtr madaniyatining mavjudligini isbotlovchi dalillar uzoq vaqt topilmagan bo'lsada, A.Fushe va uning tarafdorlari fikriga qaramasdan, ushbu madaniyatning mavjudligi bashorat qilingan edi. Daniel Shlyumberje Baqtriya madaniyatining keyingi bosqichi, Kushon davrini tahlil qilib, Yunon-Baqtr madaniyatining mavjud bo'lganligini taxmin qilgan edi. Fransuz tadqiqotchisining ushbu xulosasi 1960-yilda nashr qilindi, bir necha yildan so'ng kashf qilingan arxeologik yangiliklar bu bashoratni tasdiqladi.

“Amudaryo xazinasini” topilganidan so'ng 55 yil o'tgach, 1932-yil oktabrda Termiz shahridan 13 km uzoqlikdagi Ayirtom

hududida Amudaryo qirg'og'idan uch musiqachi ayolning haykalini topishdi. Topilmalar bir necha oydan so'ng Toshkentga jo'natildi.

Ayirtomda arxeologik tadqiqotlar boshlandi. Izlanishlar natijasida qadimiy buddaviylik ibodatxonasining yodgorligi topildi. Ibodatxonaning plitalari yillar o'tishi bilan daryoga siljib tushgan edi. Og'irligi 250–300 kg bo'lgan plitalarning Shimoliy Baqtriyada o'yib ishlanganligi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari ushbu san'at durdonalari Hindiston madaniyati va buddaviylik bilan qiziquvchi tadqiqotchilarning diqqatlarini o'ziga tortdi. Chunki ular Gandhar madaniyati yodgorliklariga juda o'xshashligi ma'lum bo'ldi.

Baqtriya tarixini o'rganishga qiziqish keyingi yillarda avj oldi. Qadimgi Baqtriyaning bronza, temir davrlari va Ahmoniylar, Yunon-Baqtriya, Kushon davrlariga oid yodgorliklari O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston va Afg'oniston hududlarida joylashgan. Xorijiy mutaxassislar Afg'oniston hududidagi Baqtriya yodgorliklarini tadqiq etishni boshlashdi. Ushbu tadqiqotlar turli yillar davomida olib borildi.

Bu davrda Afg'oniston hududida **shaharsozlik** ham yuksak darajada taraqqiy etganligini ko'rish mumkin. Jumladan, Kobul shahri qadimgi va o'rta asrlarda Sharqning nufuzli markazlaridan biri bo'lib, savdo sotiqlik, ilm-fan va madaniyat gullab-yashnagan.

Arxeologik tadqiqotlar hozirgi Kobul vodiysida qadimiy sivilizatsiya mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Jumladan Chaman Xuzuri nomli manzilgoh qadim sivilizatsiyaning qoldiqlaridan biri bo'lib undagi qadimiy tangalar Kobulning yirik savdo markazi va "Buyuk Ipak yo'li"dagi eng muhim shaharlardan biri bo'lganligini ko'rsatadi. Shuningdek, Kobul vodiysini tadqiq qilish natijasida o'rganilgan Minori Chokar, Yaxdardagi arxitektura va diniy kompleks (mil.avv. III asr), Guldor, Tepayi Maranjon, Tepai Balx, Xazona tepa, Kutali Xazonxona hamda boshqa o'nlab qadimiy yodgorliklar bizga Kushon va buddaviylik davridagi yuqori madaniyat darajasidan darak berish bilan birga Kobul sivilizatsiyasi haqidagi fikrlarimizga asos bo'ladi. Sherdarvoza va Asmay tog'laridagi shu kabi mudofaa inshootlari Kobuldagi

buddaviylik davriga oiddir, Bolo Hisordagi yirik harbiy qal'a esa qadimiy Afg'onistonning madaniy ulug'vorligiga yana bir isbotdir.

Kobul muhim geografik joyda joylashgan, bu haqda hattoki uni "Kaspotirius" ("chorraha") deb nomlagan antik mualliflar ham xabar beradi. Antik mualliflar xabarlariga ko'ra Kobul karvon yo'llari, xususan, "Ipak yo'li"da chorraha vazifasida ham moddiy, ham ma'naviy merosni saqlovchi va yetkazib beruvchi vazifasini o'tagan. Zamonaviy istiloh bilan aytganda Kobul madaniyatlar qorishuvi sodir bo'luvchi maskan, shuningdek, tranzit shahar bo'lib kelgan. Kushonlar davrida bu mintaqada xristianlik, zardushtiylik, buddaviylik, braxmanizm dinlarining keng tarqalishi va ularning o'zaro aralashuvi kuzatilgan.

Arxeologik qazishmalar vaqtida ko'plab manzilgohlar aniqlangan, bular qatoriga Kutali Xazana, Teppa-yi Zumrad, Tepa-yi Salom, Bolo Hisor, Panja-yi Shox, Kuhi Baranta, Kulli Chamani Huzuri (Tepa-yi Maranjon) tog' yonbag'irlaridagi va boshqa qadimiy yodgorliklar kiradi. Ammo bu qazishmalar oxirigacha yetkazilmagan.

Qadimgi yunon mualliflari asarlarida ham Kobul haqida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Yunon mualliflari orasida Gerodot (mil.avv. 484–420) birinchilardan bo'lib Kobul haqida yozadi. Kobul (Kobul)ning tub aholisi va unga tutash tumanlari haqida ma'lumot berar ekan, Gerodot Paktiyo va Kobul aholisi "dadiklar" (tojiklar) deb atalishini yozadi. Kobulni esa u "Kaspotirius" deb nomlaydi.

Gerodotning ishiga tayanib, tarixchilarning keyingi avlodi Sharq tarixi va geografiyasi, shu qatorda Eron bilan ham shug'ullanadi va bu mavzuda juda ko'p ilmiy ishlar qilingan, hatto bu ishlarning bibliografiyasida Afg'oniston tarixi bo'yicha qilingan umumiy ishlar ham berib o'tiladi.

Eng qadimgi davrdan hozirgi kungacha tadqiqotchilar foydalanib kelayotgan eng muhim tarixiy manbalardan biri, shubhasiz, Ptolomey (mil.avv. 322–273)ning "Geografiya" asaridir.

Ptolomey "Geografiya"sidan tarjimalar va dalillarni Muhammad Xorazmiyning "Surat ul-arz" asarida topish mumkin.

Ptolomey “Geografiya” sidan shu tariqa zamonaviy tadqiqotchilar shaharlarning tarixiy geografiyasi, butun mamlakat va mintaqa geografiyasini o‘rganishda foydalanganlar. Jumladan, bu asarda Afg‘oniston tarixiy geografiyasi bo‘yicha ham ma‘lumotlar mavjud.

Ptolomey Kobulni “Kapur” deb nomlaydi va u haqida quyidagilarni yozadi “Hindukushdan janubda (Kobuliston) yashovchi qabilalar “bulutlar” deb ataladi”. Tarixchilar “bulutlar” so‘zini “Kobul aholisi” deb izohlaydilar. Agar “bulutlar” yashaydigan joylar Ptolomey ma‘lumotiga ko‘ra kobulliklar vatani deb hisoblansa, unda Kobuliston hududi Hindikush (Paropamis)dan janubdagi barcha yerlar: Paktiyo, Lugar, Vardak, Xadda va ularning atroflarini o‘zida birlashtiradi. Ptolomeyning “Geografiya” asarida “Artospan” (“yuqori shahar” yoki “yuqori joy”) so‘zi Kobul shahri ma‘nosida kelgani eslatib o‘tiladi.


Eratosfen Ptolomeyning izdoshlaridan biri hisoblanib u Afg‘oniston tarixini, shu jumladan, Kobul va Kobulistonni tasvirlash vaqtida Ptolomeyning asariga tayanib, “Kobur”, “Korur” va “Artospan” nomlaridan foydalanadi. Bu nomlanishdan keyinchalik Strabon ham foydalangan.

Afg‘onistonning qadimgi tarixi va tarixiy geografiyasiga oid ma‘lumotlar yana bir qancha qadimgi g‘arb tarixchilari va sayohatchilarning asarlaridan joy olgan, masalan, Arrian, Kvint Kursiy Ruf (mil. I asr), Artemitlik Apollodor, Yustin va boshqalar shular jumlasidandir.

## **AFG‘ONISTONDA KUSHON IMPERIYASI HUKMRONLIGI**

Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Afg‘oniston hududiga bir qator ko‘chmanchi qabilalar bostirib kira boshladi. Ular orasida Markaziy Osiyo hududlaridan ko‘chmanchi chorvadorlik bilan shug‘ullanib kelgan sak qabilalari alohida o‘rin egallaydi. Janubga tomon ko‘chishni boshlagan sak qabilalari hozirgi Afg‘onistonning g‘arbiy hududlari va Eronning Seyiston viloyati hududlariga

borib joylashdilar. Ba'zi olimlarning fikricha, Afg'onistonda hozirgi paytda istiqomat qilib kelayotgan yirik etnik birlik bo'lmish pushtunlar aynan o'sha saklarning avlodlari hisoblanadi.



*Kushon imperiyasi hududi*

Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Afg'oniston hududiga bostirib kirgan ko'chmanchi qabilalar orasidan yirik birlashma sifatida yue-chjilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Xitoy manbalarida yue-chji nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu qabilalar Afg'oniston hududidan o'zlari uchun qulay yaylovlar va keng qir-adir hamda dalalarni topishdi.

Taxminan mil. avv. 130-yildan so'ng Baqtriya hududiga ko'chib kelgan hamda beshta tarmoqqa bo'linib ketgan yue-chji qabilalari orasidan Guyshuan qabilasi qo'l ostida boshqa qabilalar ham birlashtirildi. Barpo etilgan yangi davlat yue-chji qabilalari orasidan yetakchi qabila bo'lmish Guyshuan qabilasiga nisbat berilib, Kushon nomini oldi. Kudzula Kadfiz Kushon sulolasi asoschisi bo'lib, u bir necha qabilalar o'rtasidagi mustahkam ittifoqning yuzaga kelishiga munosib hissa qo'shdi.

Yue-chji qabilalariga Afg'oniston hududida o'zaro urush olib borish taqiqlangan edi. Kushon davlati hukmdorlari o'z yerlarini kengaytirish siyosatini olib bordilar va parfiyaliklar tomonidan boshqarib kelingan Seyistonni (hozirgi Eron va Afg'oniston o'rtasidagi chegara hudud) va Qandahor shahri atroflarini o'z mulklariga qo'shib oldilar.

Kushon davlati hukmdorlarining dastlabki qarorgohi Baqtriya shimolidagi Dalvarzin qal'asi (Surxondaryo viloyati)da joylashgan edi. Keyinchalik Kushon hukmdorlarining olib borgan bosqinchilik urushlari natijasida hozirgi Afg'oniston hududi, Pokiston hududi va Hindistonning ma'lum bir qismi zabt etildi. Bunday ulkan davlatning poytaxti sifatida Taksila shahri (hozirgi Peshovar) tanlandi.

Milodiy I asr davomida Parfiya imperiyasidan va hozirgi Eron hududidagi saklar ittifoqi tomonidan berilgan jiddiy harbiy zarbalarga bardosh bergan Kushonlar o'z davlati chegaralarini mustahkamlab oldi.

Milodiy II asr boshlarida Kushon davlati podsho Kanishka (milodiy 78–123-yillar) hukmronligi davrida o'z qudratining cho'qqisiga erishdi. Davlat hududlarini kengaytirish siyosatini olib borgan Kanishka hind zaminiga yurishlari davomida

buddaviylik dini bilan tanishadi va ushbu dinni o‘z davlati dini sifatida e‘lon qiladi.

Milodiy III asrga kelib Kushonlar Eron forslarining Sosoniylar sulolasi tomonidan ancha kuchsizlantirildi va Kushon davlatiga tegishli ko‘pgina hududlar Sosoniylar tomonidan tortib olindi. Sosoniylar sulolasi asoschisi Ardasher I (224–241) Parfiya davlatini milodiy 224-yilda qulatdi. Ardasher g‘arbiy va shimoliy Afg‘oniston hududlarini o‘z davlati tarkibiga qo‘shib oldi.

Kanishka boshqaruvi davrida Kushon davlati hududida o‘zaro tovar aylanmasi o‘sdı va chet mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borish rivojlandi. Bu davrda Buyuk Ipak yo‘li gullab-yashnadi va Kushon davlati tranzit savdodan juda katta foyda olar edi. Xususan, Xitoy hamda Hindistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning Yevropaga yetkazilishida va aksincha Rim imperiyasi hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning Xitoyga yetkazib berilishida Kushon davlatining vositachilik o‘rni benihoya katta bo‘lgan edi. Rim imperiyasidan qimmatbaho metallar (Suriya va Misrda ishlab chiqarilgan), jun va surp matolar, shisha mahsulotlar va vino Sharq mamlakatlariga yetkazib berilgan bo‘lsa, Xitoyning ipak mahsulotlari, Baqtriyaning uchqur otlari va Badaxshonning bir qator qimmatbaho tosh (la‘l, marjon, qahrabo hamda dur)lari xalqaro savdo-sotiqda qadrlanar edi.

Hindistondan paxta hamda nil bo‘yog‘i, dorivor o‘simliklar, marvarid va yarim nodir toshlar, Kashmir juni, po‘lat qilichlar va mo‘yna keltirilgan bo‘lsa, Sibir va Manjuriyadan mo‘yna, ot va chorva mollari olib kelingan.

Hozirgi Afg‘onistondagi Bagrom shahri Kanishkaning yozgi qarorgohi bo‘lib, Kushon hukmdori o‘zining ulkan saltanatini shu yerdan turib boshqarishni ma‘qul ko‘rgan. Bu yerdan XX asr 30–40-yillarida olib borilgan qazishma ishlarida II asrga oid ma‘muriy inshootning topilganligi va unda shohona darajadagi 2000 dan ortiq san‘at asarlarining mavjudligi kishini hayratga soladi.

Shu bilan birga, Hindistondan ham Kushon davrida oid bir qator tarixiy topilmalar topib o‘rganilgan. Fil suyagidan ishlangan



turli buyumlar, barelef usulidagi yunon-rim haykal va medallari, Pompey uslubidagi bronza haykallar shular jumlasidandir.

Kushon davlati mavjud bo'lgan davrda buddaviylik dini ham Afg'oniston hududiga tarqalib rivojlandi. Garchi buddaviylik Hindistonda vujudga kelgan bo'lsa-da, uning taraqqiy etishida Kushonlarning xizmati katta. Jumladan, Afg'onistonning markaziy qismi bo'lgan Bomiyonda milodiy III–IV asrlarga oid Buddaning eng katta haykallari (36 va 53 metr balandlikda) qoyatoshlarga o'yib ishlangani Kushon hukmdorlarining buddaviylikka bo'lgan alohida hurmatini ko'rsatib beradi<sup>12</sup>. Ushbu haykallar va shunga o'xshash boshqa yana ko'plab kichik hajmdagi Buddha haykallarining butun Afg'onistondan topilganligi Kushonlar davrida san'at, haykaltaroshlik va qurilish ishlari yuksak darajada taraqqiy etganidan dalolat beradi.

Kushonlar davrida hozirgi Afg'onistonning markaziy va shimoliy qismlarida ko'plab buddaviylik ibodatxonalari mavjud bo'lib, ularda VII asrgacha, ya'ni arablar bosqiniga qadar minglab buddaviylik ruhoniylari yashagani haqida ma'lumotlar bor.

Kanishka buddaviylik dini homiysi sifatida hind falsafasi va adabiyotini ham qadrlagan, garchi u zardushtiylikni ham qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da buddaviylik aynan shu davrdan boshlab Osiyoning boshqa hududlariga keng tarqala boshladi. Xususan, buddaviylikning Gandahara maktabi Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoyga va Mo'g'ulistonga hamda Koreyaga yoyilgan va keyinchalik esa Yaponiyaga ham tarqaldi<sup>13</sup>.

Afg'onistonning Bomiyon vodiysidagi yodgorlik majmuasi butun Osiyo madaniyati va san'atiga katta ta'sir ko'rsatgan buddaviylik dinining ajoyib qadamjosi edi. Eramizning boshida hozirgi Afg'oniston hududida keng yoyilgan buddaviylik Kobul, Jalolobod, Qandahor va Balx shaharlarida katta yodgorliklar qoldirgan bo'lsa

---

<sup>12</sup> Wahab, Sh.& Youngerman, B. A Brief History of Afghanistan. – New York: Facts On File, 2007. – P. 48.

<sup>13</sup> Qarang: Samad, R. The Grandeur of Gandhara: The Ancient Buddhist Civilization of the Swat, Peshawar, Kabul and Indus. – New York: Algora Publishing, 2011. – P. 286.

ham, ammo Bomiyondagidek ulug‘vor majmuani buddaviylikning vatani bo‘lgan Shimoliy Hindistonda ham topib bo‘lmaydi.

Bomiyonga mamlakat poytaxti Kobuldagi Xojikek dovonini orqali bosib o‘tiladigan masofa 150 km bo‘lib, uning eng baland cho‘qqisi 3000 metrdir. Bomiyonga olib boradigan yo‘l butunlay qirrali xarsang burilishlaridan iboratdir. Dovon balandligi yo‘lovchiga sezilarli ta‘sir etadi. Pastda shunday manzara ochiladiki, gullagan vodiya tomon cho‘qqilardan qorli choyshab yoyilgandek tuyuladi. Qizg‘ish yer va qor chegarasida archalar ko‘kka bo‘y cho‘zganki, ular kichik butalardek ko‘rinadi. Dovondan oshib, 5 soatda Bomiyonga kirib borish mumkin.

Bomiyonga yaqinlashib, to‘satdan bosh aylantirgudek balandlikda osilib turgan qizg‘ish qoyalarda qadimgi shaharning qudratli qal‘alari qoldiqlarini ko‘rish mumkin. Ular xuddi Shahri Zaxxok (Zaxxokning shahri)ning qadimgi qal‘asiga kirish yo‘lini qo‘riqlayotgandek tasavvur tug‘diradi. Firdavsiy o‘zining mashhur dostoni bo‘lgan “Shohnoma”da haddan tashqari zolim siymosini Zaxxok shaxsida tasvirlagan ediki, xalqni uning zulmidan temirchi Kova qutqargan edi. Bomiyondan unchalik uzoq bo‘lmagan tog‘li vodiya rivoyatlarga qaraganda Kova yashagan va shuning uchun ham hozirgacha bu yerni temirchilar vodiysi deb atashadi.

Pishgan g‘ishtdan barpo qilingan Zaxxok qo‘rg‘onining qudratli devor qoldiqlarini hamon o‘zida saqlagan bo‘lib, ularning balandligi 20 metrgacha yetadi. U deyarli qizg‘ish tog‘ cho‘qqilari bilan qo‘shilib ketgan bo‘lib, xalq orasida Qizil shahar deb nom olgan. Taxmin qilishlaricha, bu shaharga eramizning birinchi asrlarida (Kushonlar davrida) asos solingan. Arxeologlarning fikricha, Bomiyonda barpo etilgan g‘orlardagi ibodatxona va Buddaning haykallari Kushonlar davriga taalluqlidir.

Xitoylik rohib buddaviy Fa Shen Hindiston va Seylon bo‘ylab 15 yil sayohat qilgandan keyin, 400-yilda karvonlarning biri bilan Bomiyonga keladi va o‘z kundalik daftarida quyidagilarni yozadi: “Bu mamlakatda toshga o‘yib ishlangan, sadaqalar uchun ko‘zlangan Buddaning kosasi bor. U yerda Buddaning tishi ham

bo‘lib, uning uchun kishilar qadamjo barpo qilgandirlarki, unda 1000 dan ortiq rohiblar xizmat qiladilar... Bu mamlakat piyozshakl tog‘lar o‘rtasida joylashgan bo‘lib, unda qor yozda ham, qishda ham mavjud. U yerda zaharli ajdaholar ham borki, agar ularni bezovta qilinsa, ular og‘izlaridan zaharli havoni puflab, qor bo‘ronlarini, qumli va toshli bulutlarni yog‘diradilar va bunday xavf-xatarga yo‘liqqan hech kim najot topa olmaydi”.

Bomiyon vodiysiga islom dini kirib kelgandan keyin qayta qurilgan eski Bomiyon 1221-yilda Chingizxon qo‘shinining birinchi zarbalarini qabul qildi. Aytishlaricha, qal‘aga hujum vaqtida shafqatsiz istilochining yaxshi ko‘rgan nevarasi o‘ldirilgach, u shaharda va uning atrofida bo‘lgan barcha tirik jonni yo‘q qilishga buyruq bergan. Ulug‘vor qal‘a juda yaxshi himoyalangan bo‘lib, agar tasodif yordamga kelmaganida mo‘g‘ul bosqinchilari uni ololmas edilar. Aytishlaricha, Bomiyon hokimining qizi Lali Xotunning xoinona sotqinligi bo‘lmasa, Bomiyon taslim bo‘lmas edi. U o‘z otasining ikkinchi marta uylanganligi uchun o‘ch olish niyatida Bomiyonni suv bilan ta‘minlovchi soy yo‘lini maxfiy ravishda Chingizxonga ma‘lum qilgan. Bomiyonni ishg‘ol qilib, barcha aholini qilichdan o‘tkazgan Chingizxon o‘z otasiga xoinlik qilgani uchun bu qizni ham qatl qilishga hukm chiqargan.

Eski shahar xarobalari tepasidan Bomiyon vodiysi kaftdek tekis ko‘rinadi. Qoyalardagi g‘orlardagi ibodatxona o‘zining ko‘p sonli bir-biriga tutashgan chuqurliklari bilan yaxshi ko‘rinadiki, ularning soni mingdan oshadi. Majmuani qoyatosh jinsiga kesib ishlangan ikki bahaybat Buddaning 35 va 53 metrlik haykali yakunlaydi. Bahaybat buddalardan eng qadimgisi Kichik Buddha deb ataladi. Uning pastida kvadrat shaklida g‘or bo‘lib, ehtimol, ushbu ibodatxonaga kirish qismini qo‘riqlovchi qorovulga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin<sup>14</sup>.

Eramizdan oldingi II–I asrlarda buddaviylik Afg‘oniston bilan bir qatorda O‘rta Osiyoga, Sharqiy Turkiston va Xitoyga kirib

---

<sup>14</sup> Wahab, Sh.& Youngerman, B. A Brief History of Afghanistan. – New York: Facts On File, 2007. – P. 48.

keldi. Buddaviylik ushbu mamlakatlarning mafkurasi, hayot tarzi, maishiy va madaniy jihatlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Tabiiyki, buddaviylik madaniyati ham ular hisobiga boyib bordi. Jahonga mashhur bo'lgan I–VIII asrlar davomida Sharqiy Turkistonda barpo etilgan g'orlarda qurilgan ibodatxona majmuasi “Ming uy (Mingta g'or)” o'zida me'morchilik, haykaltaroshlik va rassomchilik sintezini ifodalab, hind, eron, xitoy va Sharqiy Turkiston san'atlari bir-birini boyitganligini ko'rsatadi.

Kushonlar davriga oid Surxko'tal diniy kompleksida o'tkazilgan qazishmalar fanga katta yangiliklar olib kirdi. Ikkinchi Jahon Uru-shidan keyingi yillarda amerikalik va fransiyaliklar ekspeditsiyasi tomonidan Afg'oniston janubidagi ibtidoiy jamoa davri yodgorliklarini o'rganish boshlandi.

Bagramdagi qazishmalar natijasida yuksak badiiy mahorat bilan yasalgan bir qancha buyumlar topildi. Bundan tashqari Qunduzdagi buddaviylik monastiri, Kobul yaqinidagi Xayr-xona braxmanlar ibodatxonasi, Bagramdan uncha uzoq bo'lmagan Shotarak manzilgohi va Fundukistondagi monastirda olib borilgan qazishma ishlari natijasida qadimgi Afg'oniston tarixiga oid ko'plab ma'lumotlar oydinlashdi. Bu ishlar vaqtida mashhur rassomlik, haykaltaroshlik va arxitektura yodgorliklari sinchiklab o'rganildi hamda o'nlab yodgorliklar ochildi, ularning ko'pchiligi hozirda Kobul tarixiy muzeyida saqlanmoqda.

Milodiy III asrda Kushonlar hukmronligi davrida Afg'oniston hududiga yana bir diniy qarash – moniylik dini tarqaldi. Bu dinning yetakchisi Moniy (217–275-yillar yashagan) o'zini payg'ambar deb e'lon qildi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu din Afg'onistonning markaziy qismi bo'lgan Bomiyonda rivojlangan. Moniylik dini butun qadimgi dunyoda ko'plab kuchli tarafdorlariga ega bo'lib, u xristianlik, jaynizm, buddaviylik va zardushtiylik elementlarini o'z ichiga oladi. Bu din keyinchalik Afg'onistonda islom dinining tarqalishi bilan o'z ta'sirini yo'qotdi.

Ushbu davr tarixini o'rganish bo'yicha bir qator qadimshunos olimlar yetakchiligidagi ilmiy ekspeditsiyalar Afg'onistonda

muvaffaqiyatli izlanishlar olib bordilar. Jumladan, 1957-yilda Gardin tomonidan Balxda, 1946-yilda Girshman tomonidan Bagramda olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Kuvayamaning 1974, 1991-yillarda Bagramda olib borgan tadqiqotlari, Misunoning 1968-yilda Do'rmontepada, 1970-yilda Chakalaktepada olib borgan tadqiqotlari, Bernardning 1964-yilda, Fussmanning 1990-yilda Qo'hna Masjidda olib borgan tadqiqotlari natijasida Baqtriyaning Kushon davriga oid yodgorliklari tadqiq qilindi. D.Shlyumberje (1945–64) va P.Bernar (1964–1978) rahbarliklaridagi ekspeditsiyalar tomonidan Oyxonim yodgorligi xarobalaridan ellin madaniyatiga doir shahar qoldiqlarining topilishi alohida ahamiyatga egadir.

Kobul Yunon-baqtra hukmronligi davri, ayniqsa Kushonlar hukmronligi davrida oriylarning siyosiy-madaniy va diniy hayotida muhim rol o'ynagan. Hindikushdan janubda (Paropamis) Sind daryosi qirg'og'igacha bo'lgan katta hududni egallagan Gandxara sivilizatsion-madaniy havzasi buddaviylik davri madaniyati va san'atiga katta hissa qo'shgan. Uning muhim markazlaridan biri, shubhasiz, o'zining 3 mingyillik tarixidan hikoya qiluvchi ko'plab madaniy va tarixiy yodgorliklar saqlanib qolgan Kobul shahri bo'lgan.

Ushbu davrda hozirgi Afg'oniston hududida bir qator tillar muomalada bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday tillar orasidan Baqtriya tili alohida e'tiborni talab qiladi. Baqtriya tili Shimoliy Afg'onistonning O'rta eron tillari guruhiga kiruvchi til sifatida ma'lum edi. Bu til Kushon davlati hukmdori Kanishka davridan Arablar bosqiniga qadar bo'lgan uzoq davrgacha asosiy mahalliy til edi. XX asrning ikkinchi yarmida Baqtriya tili haqidagi asosiy manbalar – bizgacha yetib kelgan tangalar va muhrlar ustidagi afsonalar hisoblanar va ularda faqatgina hukmdorlarning nomlari zikr etilgan edi. O'z navbatida, Baqtriya kursiv yozuvidagi bu ma'lumotlarni qiyoslab o'rganish uchun qo'shimcha manbalar ham yetarli emas edi. XXI asrga qadar topib o'rganilgan bu tildagi yodgorliklar quyidagilar:

– Afg‘onistondan topilgan ikkinchi Kushon shohi Vima Taktoga tegishli maxsus Dasht-e-Navur yozuvi;

– janubiy O‘zbekistonda Termiz yaqinidan topilgan Huvishka davriga tegishli Ayritom yozuvi;

– 1905-yilda A.Fon Le-Kok tomonidan Sharqiy Turkistonning Turfon vodiysida Tuyoq daryosi vohasidagi ibodatxona xarobalaridan topilgan qog‘oz, beresta va palma barglariga yozilgan manixey, xristian va budda qo‘lyozmalari;

– janubiy O‘zbekistondagi Qoratepa budda monastiri devoridagi baqtriya kursiv yozuvi;

– shoh Kanishka va uning vorislariga tegishli muhr hamda tangalar;

– Sharqiy Turkistondagi Lou-Lan xarobalaridan topilgan va F.Tomas tomonidan nashr qilingan “London fragmenti”;

– 1952-yilda Shimoliy Afg‘onistondan topilgan ilk Kushon davriga oid Delbarjin yozuvi;

– 1957-yili fransuz arxeologlari tomonidan Bag‘lon yaqinidagi Surh Ko‘tal yodgorligidan topilgan baqtriya yozuvi. Ushbu topilma bu boradagi ilmiy ishlarning rivojlanishi uchun yangi yo‘l ochdi. Topilgan yozuv haqidagi ilk maqola 1957-yili “Kushonlar imperiyasi va Kanishka” nomi ostida Andre Marik tomonidan nashr qilingan. Topilma mazmunini o‘rgangan lingvist olim V.B.Xenning ma‘lumotlariga ko‘ra, bu matn Kanishka davrining 30-yilida, aniqrog‘i, uning vorisi Huvishka (II asr boshlarida) hukmronligi davrida Nukunzuk ismli yuqori mansabdor tomonidan qazdirilgan bir quduq va uning qurilishiga oid ma‘lumotlardan iborat. Bu tarjimalarning to‘g‘riligini esa arxeologik topilmalar isbotlagan. Bu kashfiyotdan qirq yil o‘tib, Surh Ko‘taldagi baqtriya yozuvi Baqtriya tarixini o‘rganish borasidagi eng muhim manba bo‘lib qolaverdi. Qo‘shimcha yozuvlar topildi, ammo ular baqtriya tili borasidagi ma‘lumotlarga keng va aniq darajadagi hissa qo‘shmadi.

1993-yilda kashf qilingan hamda 1995–1996-yillarda Jo Gribb va Nikolas Sims Vilyams tomonidan o‘rganilib, ommaga e‘lon qilingan ravatak yozuvi. Baqtriya tili va yunon yozuvi (yunon-

boxtar) asosidagi bu yodgorlik Doru I buyrug'iga binoan yaratilgan Behistun bitiklariga o'xshab ketadi, unda Kanishka va undan oldingi davrning ayrim voqealari tasvirlagan. Bundan tashqari, ushbu topilmada ikki shoh – Kanishkaning ilgari noma'lum bo'lgan bobosi va Vima Takto haqida ma'lumot topilgan.

## **AFG'ONISTON FEODAL MUNOSABATLAR DAVRIDA**

Milodning IV–V asridan boshlab Afg'oniston hududida yerga egalik munosabatlari, ya'ni feodal ishlab chiqarish munosabatlari qaror topa boshladi.

“Feodal” – lotincha katta yer egasi ma'nosini anglatadi. Dehqonlar feodal yer egasi foydasiga tekin ishlab berishga majbur edilar. Dehqondar dastlabki davrlarda haftada bir kun, so'ngra ikki kun, undan keyin uch kun, bora-bora esa butun hafta davomida feodal yerida ishlashga majbur qilingan. Chunki yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yer feodalning xususiy mulki, dehqon esa bunday mulkdan mahrum edi. Shu bois u feodal yerida ishlamasa ochlikdan o'ladi, oilani boqolmaydi.

Kushon davlati inqirozga uchrab tarqab ketgach, hozirgi Afg'oniston hududidagi ayrim vohalarda mustaqil mulklar paydo bo'ldi. Bu mulklar qatorida Chag'oniyon (hozirgi Afg'oniston shimoli va O'zbekistonning Surxondaryo viloyatining ma'lum bir qismi), Xuttalon (hozirgi Afg'oniston shimoli va Tojikistonning janubidagi ma'lum bir hudud), Toxariston (hozirgi Afg'oniston shimolidagi Toxar va Qunduz viloyatlari) kabilarni sanab o'tish mumkin.

Tarixdan ma'lumki, milodiy IV asrdan boshlab Osiyo qit'asining Uzoq Sharq qismidan boshlangan xalqlarning buyuk ko'chishi Afg'oniston hududini ham chetlab o'tmadi.

Yer yuzining boshqa mintaqalarida xalqlarning buyuk ko'chishi oqibatlarini oldindan ko'ra olingan va shunga yarasha muayyan darajada tayyorgarlik ko'rilgan bo'lsa, Afg'oniston va Shimoliy

Hindiston hududlari uchun xalqlarning ko'chishlari kutilmagan hodisa edi. Ayniqsa, Afg'oniston hududi jiddiyroq va vahshiy qabilalar bilan yuzlashdi. Eftallar yoki oq xunlar mo'g'ullardan kelib chiqqan va etnik jihatdan xunlar va avarlarga borib taqaluvchi etnik birliklar bo'lib, keyinchalik ular Yevropa va O'rta Sharq hududlariga ham o'rnamashgan edilar.

Ilk feodalizm davrida Afg'oniston hududlarini ham o'z ichiga olgan holda tashkil topgan yirik davlatlardan biri – Eftaliylar davlatidir. Milodiy V asr o'rtalarida Amudaryoni kesib o'tgan eftallar hozirgi Afg'oniston hududini va Shimoliy Hindistonni zabt etishdi.

Eftaliylarning etnik jihatdan qaysi qabila yoki xalqqa mansubligi va qaysi tilda so'zlashganliklari to'g'risida fan olamida har xil fikrlar mavjud. Aksariyat olimlar eftaliylarni milodimizdan avvalgi I asr bilan milodimizning IV asri o'rtalarida Yettisuvdan va undan ham sharqroqdagi hududlardan Orol dengizi bo'ylariga kelib qolgan xunlar bilan aralashib ketgan holda xunn qabilalaridan turkiy tilini qabul qilgan Orol bo'yi sak-massaget qabilalarining avlodlaridir, degan g'oyani ilgari suradilar. Eftaliylar tarixiga oid ma'lumotlar rimlik tarixchi Ammian Mapsellin (IV asr), vizantiyalik tarixchi Prisk Paniyskiy (V asr), Prokopiy Kesariyskiy (VI asr), Feofan Vizantiyskiy (VI asr) asarlarida berilgan. Birmuncha keyinroq yozilgan xitoy solnomalari "Vey-Shu" (VI asr) va "Man-Shu" (IX–X asr)larda ham eftaliylar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Eftaliylar turli tillardagi manbalarda turlicha nomlar bilan talqin qilinadi. Jumladan, xitoy tilidagi manbalarda "E-da" yoki "I-da", arman tilidagi manbalarda – "Xettal" va "Tetal", arab tilidagi manbalarda – "Xeytal", yunon tilidagi manbalarda – "Abdel" ko'rinishida berilgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha "eftaliylar" degan nomning o'zi V asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran paydo bo'lgan, Feofan Vizantiyskiyning ma'lumotlariga qaraganda eftaliylar shohi Vaxshunvor Eftalon deb nomlangan. Arman tarixchilaridan biri esa eftaliylar degan nom "haft" (yetti), ya'ni massagetlarning yettinchi qabilasi nomidan olingan deb hisoblaydi.



Sosoniylar podshosi Varaxran V (418–438-yillar) o‘z davlatining sharqiy chegaralari mustahkamligini ta‘minlash maqsadida Amudaryo havzasiga kirib kelgan yana bir ko‘chmanchi qabila – xioniylarga qarshi kurash olib boradi. Marv yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda xioniylar ustidan g‘alaba qozongan Varaxran V o‘z davlati chegaralarini Taluqon (Marv bilan Balx oralig‘i)gacha kengaytirdi va bu yerda toshdan chegara minorasi qurdiradi.

V asr boshlarida Markaziy Osiyo hududiga va undan o‘tib Afg‘onistonga yana bir ko‘chmanchi qabila bostirib kirdi. Ular kidariylar deb atalib, Afg‘oniston shimolidagi Toxariston hududlarida joylashdilar. Bu nom qabila boshlig‘i va podshosi Kidar nomidan olingan. Kidariylar bir necha marta g‘arbga, ya‘ni sosoniylar Eroniga hujum uyushtirganlar.

456-yildagi bo‘lgan jangda sosoniylar kidariylarni tor-mor etadilar va kidariylar ushbu jangda halok bo‘lgan o‘z podsholari Kidarning o‘g‘li Kungas boshchiligida Hindikush orqali Qandahor tomonga ketadilar. Kidariylar biroz muddat o‘tib Shimoliy Hindistondagi Gupta podsholigini o‘zlariga bo‘ysundiradilar va bu yerda 75 yil mobaynida hukmronlik qilganlar.

457-yilda eftaliy podshosi Vaxshunvor Chag‘oniyon, Toxariston va Badaxshonni o‘ziga bo‘ysundiradi. Eftaliylarning kuchayib ketayotganligidan xavfsiragan sosoniylar shohi Peroz eftaliylarga qarshi yurish qiladi. Ammo u yengilib asirga tushadi va yordam so‘rab Vizantiyaga murojaat qiladi. Vizantiyadan yuborilgan pul evaziga asirlikdan ozod qilingan Peroz eftaliylarga ilgari bosib olingan Taluqon shahrini qaytarib berish va Varaxran V tomonidan belgilangan chegaradan nariga o‘tmaslik majburiyatini oladi. Biroq Peroz o‘z va‘dasini bajarmaydi va eftaliylar ustiga ikkinchi marta qo‘shin tortib keladi. Ikkinchi marta ham mag‘lubiyatga uchrab asir tushadi. Sosoniylar shohi eftaliylarga kumush dirhamlar bilan to‘ldirilgan qoplar ortilgan 30 ta xachir berish majburiyatini oladi. Lekin u faqat yigirmata xachir va shunga loyiq tangalar topa oladi, xolos. Majburiyatning qolgan qismi evaziga Peroz o‘z o‘g‘li Qubodni Eftaliylarga garovga berishga majbur bo‘ladi.

Majburiyatdagi qarzni to'lab bo'lgan Peroz Vizantiya yordamida uchinchi marta eftaliylar ustiga yurish qiladi. Bu yurishda ham eftaliylardan mag'lubiyatga uchragan Peroz jangda halok bo'ladi. Perozni tor-mor keltirgan eftaliylar Eron ustiga juda katta o'lpon soliqlari soladilar, so'ngra Kobul va Panjob vodiysini ham zabt etadilar.

VI asr o'rtalaridan boshlab Markaziy Osiyo hududiga yana bir yirik ijtimoiy-siyosiy birlashmadan iborat turklar bostirib keladi. 563-yilda sosoniylar hukmdori Xusrav I Anushirvon (531–579) va Turk xoqonligining birlashgan qo'shinidan mag'lubiyatga uchragan Eftaliylar o'zini qayta o'nqlab ololmaydi. Natijada Eftaliylarning katta mulklari Sosoniylar va Turk xoqonligi o'rtasida bo'lib olinadi. Jumladan, hozirgi Afg'oniston hududlari Sosoniylar davlatiga qo'shib olinadi.

VII asrda Arabistonning markaziy va g'arbiy qismidagi bo'y-sunmas qabilalar islom dinining asoschisi payg'ambar Muhammad (s.a.v.) atrofida birlashdi.

632-yilda Muhammad (s.a.v.) vafotidan so'ng uning izdoshlari birinchi hujumni Arabiston yarim orolidan tashqaridagi mamlakatlarga qaratishadi. Keyingi 25 yil ichida arab qo'shinlari Afg'oniston hududlariga qadar yetib kelishdi. Ular jangda mohir bo'lib tez harakatlanishgan, o'zlaridan-da madaniyati rivojlangan dushmanlari o'rtasiga nifoq solib, bir lahzada g'olib bo'lishga qodir bo'lishgan.

Afg'oniston hududining qulay va go'zal tabiiy iqlim sharoiti hamda behisob boyliklari hamisha arablarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Manbalarning ma'lumotlariga qaraganda arablar 651-yilda Hirot va Balx shaharlari atroflarida paydo bo'ladilar. Hirot shahri 652-yilda arablar tomonidan egallandi.

Arablar bosqini arafasida Afg'oniston hududida feodal tarqoqlik hukm surgan. Bu yerda 10 dan ortiq kichik-kichik davlatchalar bo'lib, ular o'zaro urushlar olib borar edilar. Bu hol arablar tomonidan Afg'oniston hududining bosib olinishini yengillashtirdi.

Sosoniylarning sharqdagi chekka viloyatlari qatori Afgʻoniston ham arablar tomonidan bosib olindi. VIII asr boshlarida arab qoʻshini Seistonni egallagandan keyin oʻz diqqatini Balx shahriga qaratadi va 705-yilda Balx shahri egallandi.

Shundan soʻng arablarning diqqati Qandahor hamda Kobul shaharlariga qaratilgan va bosqinchilar bir necha marotaba ushbu shaharlarni bosib olishga urinib koʻrgan boʻlsa-da, mahalliy aholining qattiq qarshiligi tufayli arablar oʻz maqsadiga yeta olishmadi. Faqatgina IX asrning ikkinchi oʻn yilligi (815–816-yillar) ga kelib arablar Qandahor hamda Kobul shaharlarini oʻzlariga boʻysundirdilar. Soʻngra arablar oʻz hujumlarini Sind daryosi (hozirgi janubiy Pokiston)gacha davom ettirishdi.

Shahar aholisi arab harbiy boshliqlari va kuchli qoʻshini tomonidan qattiq nazoratda ushlab turilar edi. Bu holat islom dinining tezlik bilan tarqalishiga turtki berdi. Lekin Afgʻonistonning baʼzi joylarida mahalliy aholi oʻzining asrlar osha eʼtiqod qilib kelgan dinlarini X asrgacha saqlab qoldi.

Ushbu davrda hozirgi Afgʻoniston hududida madaniyat ham oʻziga xos ravishda rivojlanganligi bir qator ilmiy tadqiqotlar davomida oʻrganib chiqildi. Jumladan, milodiy 342–781-yillarga tegishli Shimoliy Hindikushdan topilgan Baqtriya hujjatlari buning isbotidir. 1991-yildan boshlab oxirgi oʻn yil ichida Peshovar bozori va Xalqaro sanʼat bozorida baqtriya kursiv yozuvining yuzlab namunalari paydo boʻldi. Ularning eng katta qismi Londonda professor Nosir David Xaliliy tomonidan sotib olindi va juda katta kolleksiyada toʻplandi. Ushbu hujjatlar charm, mato va hatto yogʻoch tayoqchalarga ham yozilgan. Ulardagi maʼlumotlar korpusi IV asr Sosoniylar hukmronligi davridan to VIII asr Arab xalifaligining gullab-yashnagan davrigacha boʻlgan butun tarixni ozgina boʻlsa-da yoritib beradi. Ushbu kolleksiyadagi hujjatlar butun dunyoda “Rob tumani hokimiga tegishli Baqtriya hujjatlari” nomi bilan mashhur. Fors imperiyasining sharqiy satrapligi hisoblanuvchi Qadimgi Baqtriya tarixiga doir bu topilma shu davrgacha boʻlgan tarixiy qarashlarni oʻzgartirib yubordi.

SOAS (The School of Oriental and African Studies, University of London) tomonidan 2004-yilda “Baqtriya xronologiyasi” nomli loyiha tashkil etildi. Loyihadan maqsad – Baqtriya hujjatlarini tadqiq etish orqali hujjatlarning nisbiy va mutlaq xronologiyasini aniqlash va shu orqali ularning boy tarixiy mazmunini ochib berish edi. Loyiha rahbari sifatida London Universiteti professori Nikolas Sims Vilyams tayinlandi hamda loyiha San’at va Gumanitar fanlar tadqiqot kengashi tomonidan moliyalashtirildi. N.S.Vilyams loyiha davomida 150 dan ortiq hujjatlar ustida ish olib bordi va juda katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Olim tomonidan tarjima qilingan hujjatlar mavzusiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- Qishloq xo‘jaligi yerlariga doir;
- Qullarni ozod qilishga doir;
- Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni sotishga doir;
- Dehqon xo‘jaliklarining mahsulot qiymati va soliqlarga doir ro‘yxatlari;
- Soliq maslahatchilariga tegishli yog‘och taxtachalar;
- Xudo va ilohlarga ibodat vaqtida ehson qilingan narsalarning tushum ro‘yxati;
- Buddha matnlari va diniy qiroat ro‘yxatlari.

Mazkur hujjatlar mavzu jihatidan turlicha bo‘lgani bilan, ularni bir umumiy jihat birlashtirib turadi – davlatning muhim arxiv hujjatlari hisoblanuvchi ushbu ma’lumotlar tarixning juda katta sahifalarini ochib beradi.

Baqtriyadan topilgan hujjatlarining juda katta qismi muhrlangan va shu sababli ular bizgacha mukammal saqlanib qolgan. Muhrlangan hujjatlar tarkibi ko‘plab huquqiy va iqtisodiy hujjatlar, budda matnlari va xatlardan iborat. Shu bilan birga, ba’zi xatlar juda qisqa va tushunish uchun ancha qiyin, chunki ularda bizga noma’lum voqealar haqida so‘z boradi. Topilgan hujjatlarning ikkitasi, ya’ni budda matnlari Pure Land budda maktabiga taalluqli, deb ehtimol qilinmoqda.

Hujjatlarning katta qismi iqtisodiy mazmunda yozilgan. Ulardan 30 tasi charmga yozilgan tijorat matnlari vazifasini bajargan.

Tijorat hujjatlari – shaxsiy nomalar, tovarlar va turli hajmdagi ro‘yxatlardan iborat hisobot matnlaridir. Bunday hujjatlarda sana va vaqt aniq ko‘rsatilgan.

Yana 18 ta matn yog‘och tayoqchalarga rang-bo‘yoq bilan yozilgan va ular soliq maslahatchilariga tegishli bo‘lgan. Mamlakat miqyosida yig‘iladigan soliqlarning to‘lanish muddati kelganda, soliq yig‘uvchilar aholidan soliqlarni turli ko‘rinishlarda qabul qilganlar: dehqonlar va bog‘bonlar yetishtirgan mahsulotlari bilan; g‘allakorlar bug‘doy bilan; hunarmandlar ishlab chiqargan tovarlari bilan soliq to‘lagan. Yog‘och tayoqchaga soliq to‘lovchi va soliq qabul qiluvchining ismi, to‘langan sana, soliq turi qayd etilgan va u soliq to‘lovchi shaxsga taqdim etilgan. O‘sha davrda bu tayoqchalar to‘lov dalolatnomasi vazifasini bajargan.

Bundan tashqari ko‘pgina sanasi ko‘rsatilgan hujjatlar – savdo va lizing, sovg‘alar, bir qulni ozod qilishga doir muhrlangan huquqiy shartnomalardir. Ular orasida uchraydigan nikoh shartnomasi bunday mazmundagi ilk topilma hisoblanadi. Shartnoma bir xil pergament (nam va yog‘ni o‘ziga tortmaydigan qog‘oz)ga ikki nusxada yozilgan. Birinchi nusxa o‘qish uchun ochiq qoldirilgan. Ikkinchi nusxa o‘ram shakliga keltirilib, kanop bilan bog‘langan; ip ustiga maxsus loy bo‘laklari yopishtirilgan va loyga yaqin tomonlarning muhrlari yoki bosh barmoq izi bosilgan, bu hujjatning tasdig‘ini bildirgan. Yaqin tomonlar yoki guvohlarning ismlari ba‘zan hujjatning teskari qismidagi muhr-kanop uchun ochilgan teshik yonida yozilgan. Shunday qilib, bunday shartnomalarning muhrlangan nusxasi nizo kelib chiqqanda hakam ishtirokida ochilgan bo‘lishi mumkin. Bu hujjatlarda ko‘rsatilgan sanalar 110-yildan 549-yilgacha bo‘lgan davrga tegishli ekanligi, Sosoniylar erasi 233-yildan boshlanganligi taxmin qilindi. Keyinroq esa, Pokistonning Tochi vodiysidan topilgan baqtriya yozuvi namunasi ham bu taxminning to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatdi.

Sosoniylar hukmronligiga tegishli va sanasi ko‘rsatilgan hujjatlardan biri 157-yilda (milodiy 389-yilda) odatiy teriga yozilgan sovg‘a tarzida ishlangan. Uning ham ikki nusxasi mavjud: 1-nusxa

ochiq, 2-nusxa muhrlangan. Ammo ular yozilgan joy nomi turlicha. Muhrlangan nusxada “Rob shahrida” (zamonaviy Rui), ya’ni viloyatning ma’muriy markazida, deb qayd etilgan. Ochiq nusxada esa “Kandban shahrida” deb yozilgan. Tadqiqotchi olimlarning umumiy xulosasiga ko’ra, “Kandban” – yopiq hujjatda keltirilgan Rob shahrining keyingi davrlardagi nomi bo’lishi mumkin.

“239-yilda yozildi” deb qayd etilgan bir xatda Sosoniylar imperator – Shahanshohga ishora mavjud. Yozuvchi o’zini “Me-yam, boshqaruvchi va muvaffaqiyat egasi, mashhur va taniqli hukmdor Peroz Shahanshoh”ga taqqoslagan. Xatning mazmuni haqida ikki xil qarash mavjud:

1. Agar haqiqatdan ham Sosoniylar erasi 233-yilda boshlangan deb olsak, 239-yil milodiy yil hisobi bo’yicha 471-yilga to’g’ri keladi. Eron shohi Perozning hukmronlik yillariga (459–484) to’g’ri kelishini hisobga olgan holda, bu xatni Peroz hukmronligi davriga tegishli deb aniq aytishimiz mumkin.

2. Shu bilan birga, “peroz” so’zi “g’olib” ma’nosidagi sifatlash ham bo’lishi mumkin. N.Sims-Vilyams bu xatni Tochi yozuvi bilan taqqoslagan holda birinchi qarashni yoqlagan.

Hujjatlarning talaygina qismi yangi siyosiy kuch sifatida Eftallarning kirib kelishini ochib beradi. 260-yildan (milodiy 492-yil) to 295-yilgacha (milodiy 527-yil) bo’lgan davrga tegishli 3 ta hujjat Eftallar yoki “Eftal lordlari” uchun to’lanishi kerak bo’lgan mulk solig’i haqidagi talabnoma vazifasini bajargan. Soliq to’lovchilar – qirol (“shah”)ning xizmatkorlari deb, soliq oluvchilar – “Shabur Shaburan” ismli oliy fors zodagonining xizmatkorlari deb tasvirlangan. Bundan ko’rinadiki, Eron aristokratiyasi Eftallarga ularning qonunlarini buzmaganda bo’ysunishga rozilik taklifi bilan chiqqanlar va Sosoniylar hukmronligi nomiga bo’lsa-da saqlanib qolinganda. Ehtimol, “Rob hukmdorlari” nomli mahalliy sulola shartnomaga binoan, mahalliy soliqlardan tashqari, o’zlari yashayotgan viloyat uchun mulk solig’ini ham to’lab borganlar. Afsuski, hujjatda keltirilgan Eftallarga ishora ularning aynan qachon Shimoliy Hindikushdan ko’chib kela boshlaganlarini

ko'rsatmaydi. Faqatgina ularning so'nggi manzilgohlari va 260-yilning oxirlarida mahalliy aholidan soliq hamda o'lponlarni yig'ib olish uchun kelganliklari ko'rsatilgan.

Tarixiy xatlardan birida Turk qabilalarining Afg'oniston hududiga ilk marta qadam qo'ygan yili 407-yil (milodiy 639-yil) deb tasdiqlangan. Bu xatda Eftal unvonlari orasida "Robning xari" deb atalgan Turk unvoni keltiriladi. Ammo xatdagi shaxsning ismi va otasining ismi hech qaysi matnda turk deb atalmagan.

Hujjatlar orasidan 478-yili (milodiy 710-yili) "Buyuk turk malikasi Bagaziyas" nomiga yozilgan sovg'a-tabrik xat topilgan. U Xalachdagi Turk qabilasining malikasi sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, uning ismi hech shubhasiz – baqtriycha. U tegishli bo'lgan Bredagan oilasi 247-yildan (milodiy 479-yil) oldingi davrlarda Lan shahrini boshqargan hukmron oila sifatida beriladi. Ehtimol, Bagaziyas Turk xoqoni uchun nikohga berilgan mahalliy hukmdor qizi bo'lgan.

Baqtriya hujjatlarining bir qismida arablar haqida ma'lumotlar uchraydi. Ammo ikkita hujjat diqqatga sazovordir.

Ulardan birinchisi 507-yili (milodiy 739-yil) tuzilgan shart-noma. Oldin uchraydigan iqtisodiy hujjatlarda fors kumush dirhami yoki oltin dinori deb izohlangan pul miqdori uchragan bo'lsa, bu hujjatda mahalliy o'zgarishlarning tasdig'i sifatida "Arab kumush dirhami" degan ibora uchraydi.

Ikkinchi hujjat esa 525-yilda (milodiy 752-yil) jo'natilgan, arablarga to'lanadigan soliqni to'lash to'g'risidagi bildirgi xatdir. Hujjatda mahalliy yer egasi o'g'lining ismi "Xamir", ya'ni arabcha "Amir" atamasining mahalliy tildagi ko'rinishi shaklida uchraydi.

Arablar uchun talab qilinayotgan soliq bildirgisi – aynan shu davrda Arab iqtisodiy hukmronligining yanada yuksak bosqichga chiqqanidan dalolat beradi.

Baqtriya soliq hujjatlarida arabcha jumalarning uchrashi aynan o'sha davrda arab tilining mahalliy baqtriya tilini siqib chiqarayotganligi va asosiy mahalliy davlat tiliga aylanayotganligidan darak beradi.

Mazkur hujjatlarning tarjimasi ustida qariyb besh yil davomida izlanish olib borildi. 150 dan ortiq hujjatlarning har biri sinchiklab o'rganildi va dunyo ommasi e'tiboriga havola qilindi. Loyihaning muvaffaqiyatli bajarilganligi Kembrij Universitetidagi Qadimgi Hindiston va Eron bo'limi tomonidan tashkil qilingan xalqaro seminarda namoyish etildi. Seminarning ochilish vaqti, ya'ni 2008-yilning 25-yanvar kuni loyiha tarkibidagi jamoa a'zolari orasidan uch kishi, shuningdek, boshqa mashhur olimlar tomonidan taqdimotlar topshirildi va ikkita yangi kitob taqdimoti o'tkazildi: Nikolas Sims-Vilyamsning "Shimoliy Afg'onistondan Baqtriya hujjatlari" nomli kitobining ikkinchi qismi va Geoffrey Xon tomonidan yozilgan "Xurosondagi ilk islomiy arab hujjatlar" nomli asarlar.

Nikolas Sims-Vilyamsning "Shimoliy Afg'onistondan Baqtriya hujjatlari" kitobi "Azimut Editions Nour" jamg'armasi bilan birgalikda ikki qismda chop etildi. Birinchi qism huquqiy va iqtisodiy hujjatlarni o'z ichiga oladi va bu kitob professor Gelmut Gumbach tomonidan "filologiya va lingvistik durdona" deb tan olindi. Ikkinchi kitobda harflar va budda matnlari o'rin egallagan.

SOASning "Baqtriya xronologiyasi" loyihasi natijalari juda keng ko'lamda amalga oshirildi. Afg'onistonning juda ko'p marotaba xorijiy kuchlar tomonidan ishg'ol qilinganligi haqidagi tarixiy ma'lumotlar bizgacha to'liq tarzda yetib kelmagan edi. Lekin bugungi kunga kelib bu muammoni ham bartaraf eta oldik. Baqtriya hujjatlari orqali Afg'onistonning qadimiy siyosiy va ijtimoiy tarixi, qadimda yashagan hukmdor va hokimlari avtobiografiyasi, mahalliy urf-odatlar va mahalliy yozuv madaniyati haqida shovshuvli yangiliklar taqdim etildi. Loyihaning asosiy yutuqlaridan biri, Sosoniylar erasining, haqiqatan ham, 223-yildan boshlanganligini rasmiy ravishda isbotlab berilganligi bo'ldi.

Yuqorida tasvirlangan hujjatlar ilgari noma'lum bo'lgan til va madaniyatni yuzaga chiqarishda muhim vazifani bajaradi. Bu ma'lumotlar Qadimgi Baqtriya va zamonaviy Afg'oniston madaniyati bo'yicha yangi davrni ochib beradi. Baqtriya tarixi,



nafaqat baqtriya tili, balki, huquqiy amaliyot, poleografik boyliklar, san'at tarixi va hatto sotsiologiyaga doir ma'lumotlar bilan boyitildi.

## AFG'ONISTON MAHALLIY MUSULMON SULOLALARI HOKIMIYATI OSTIDA

747-yilda Arab xalifaligida hukmronlik qilib kelayotgan Ummaviylar sulolasiga qarshi Xurosonda yirik qo'zg'olon boshlandi. Ushbu qo'zg'olonning yetakchisi Abu Muslim edi<sup>15</sup>.

Qo'zg'olonchilar Xurosonda muvaffaqiyat qozongach, xalifalikning markaziy hududlariga qarab hujum boshlaydilar va 749-yilda poytaxt Damashq qo'lga kiritiladi. Damashq shahri uchun bo'lgan hal qiluvchi jangda balxlik zodagonlardan biri va lashkarboshi Xolid ibn Barmoq o'zini ko'rsatadi. Ummaviylarning barcha oila a'zolari qirib tashlanadi va Muhammad payg'ambarning amakisi Abbasning avlodlaridan Abul Abbas Saffoh (749–754) yangi sulola – **Abbosiy**lar sulolasidan birinchi xalifa bo'ladi.

Shu tariqa arab xalifaligida davlat hokimiyati ummaviylar sulolasidan abbosiyalar sulolasi qo'lga o'tdi. Abbosiyalar hukmronligining boshlang'ich davrida xalq ommasiga berilgan katta-katta va'dalarning birontasi ham bajarilmadi. Ular hokimiyatni egallab olgach, mahalliy boy va zodagonlar bilan ummaviy hukmdorlar singari hamtovoq bo'lib oldilar. Ular bu yo'lni tutishga majbur edilar. Chunki birinchidan, bosib olingan o'lkalardagi mulklarni tutib turish uchun ularning yordami kerak edi. Ikkinchidan esa, mahalliy hukmdorlar va oqsuyak zodagonlar sahroyi arablarga qaraganda ko'p asrlar davomida madaniy an'analar va tajribalarga ega edilar.

Abbosiy hukmdorlarga mahalliy zodagonlarning ana shu an'ana va tajribalari asqotar edi. Shu bois ular mahalliy oqsuyak va zodagonlar vakillarini yuqori lavozimlar va mansablarga

---

<sup>15</sup> Sykes P. A History of Afghanistan. Vol. 1. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940.– P. 172.

ko'tardilar. Ana shunday shaxslardan biri balxlik katta yer egasi Xolid ibn Barmoq edi.



### *Afg'oniston arab xalifaligi tarkibida*

IX asrga kelib ham Xuroson hududida hali ham arablar hukmronligi davom etardi. Ammo ushbu hududda mustaqil markazlashgan davlat barpo etishga bo'lgan intilishlar kuchayib bordi. Bunday harakatlar arab istilochilarini har doim tahlika va qo'rquv ostida saqlab turdi. Arablar joylardagi hatto o'zlaridan chiqqan hukmdorlarga ham shubha bilan qarar va ishonmas edilar.

Arablarning Xurosondagi boshqaruviga chek qo'yish tarafdorlaridan biri Xolid ibn Barmoq edi. Arablar bosqinining dastlabki bosqichida ularga xizmat qilgan **Barmoqiylar** Xurosonni idora qilish bilangina cheklanib qolmadilar. Ularning ta'siri markaziy arab xalifaligida ham kuchli bo'lgan. Abbosiylar hukmronlik qilgan davrda qariyb ellik yil mobaynida davlatni idora qilishning mas'ul lavozimlari Balxdan chiqqan Barmoqiylarning qo'lida bo'lgan. Abbosiylar bunday mas'uliyatli lavozimlarni barmoqiylar qo'lga berishga majbur bo'lsalar-da, biroq ularning kuchayib borayotganligidan qo'rqar edilar.

786-809-yillarda xalifalik qilgan Xorun ar-Rashidning barmoqiylar xonadoniga qaqshatqich zarba berganligi buning isbo-

tidir. Xorun Ar-Rashid barmoqiylarga qarshi kurashda hatto o'ziga yaqin bo'lgan qishloqlar aholisini ham qirib tashlagan edi. Natijada Xurosonda Barmoqiylar o'rniga hokimiyat tepasiga **Tohiriylar** keladi.

Tohiriylar ham Xurosonning yirik oqsuyak yer egalaridan bo'lib, bu sulolaning asoschisi Tohir ibn Husayn edi. Bu sulola asli Hirot viloyatining Bushang shahridan edi. Kuchli lashkarboshilik qobiliyatiga ega Tohir ibn Husayn 809–813-yillarda Xorun ar-Rashidning o'g'illari Ma'mun bilan Amin o'rtasida hokimiyat uchun bo'lgan kurashda Ma'mun tomonida bo'ldi hamda unga Bag'dodni va xalifalik taxtini egallashda yordam berdi.

813-yilda Ma'mun xalifalik taxtiga o'tirgach, Tohir ibn Husayn katta hurmat va e'tiborga loyiq, nufuzli kishi bo'lib qoldi. 821-yilda u Xurosonning noibi etib tayinlandi. Uning qarorgohi Nishopur shahrida edi.

Arab xalifaligi tarkibidagi eng katta viloyatlardan bo'lmish Xuroson viloyatining noibi bo'lib olgach, Tohir o'z qo'l ostidagi katta mulkni mustaqil davlatga aylantirish uchun ochiqdan-ochiq harakatni boshlab yubordi. U noiblikka tayinlangan kundan bir yil o'tar-o'tmas, jome' masjidida o'qiladigan juma nomozidagi xutbadan xalifa nomini chiqarib tashlashga buyruq berdi. Bu o'sha davr uchun xalifaga qarshi ko'tarilgan isyon bilan teng edi. Bu voqeadan ko'p vaqt o'tmay Tohir ibn Husayn to'satdan vafot etdi.

Shundan keyin Tohirning har bir qadamini kuzatib yurgan xalifa uni zaharlab o'ldirgan degan gap tarqaldi. Xalifa bunday mayda-chuyda gaplarga asos qoldirmaslik maqsadida Xuroson noibligi taxtiga Tohir ibn Husaynning o'g'illari Talxa va Abulabbos Abdullohni navbat bilan noiblikka tayinladi va shundan so'ng Tohiriylar sulolasiga asos solindi.

Abulabbos Abdulloh noibligi davrida (830–844) Xuroson arab xalifaligiga rasman qaram – vassal bo'lsa-da, amalda mustaqil davlatga aylanib poytaxtni Marvdan Nishopurga ko'chirdi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida xalifalik hukmronligini xavf ostida qoldirgan va tez-tez ko'tarilib turadigan xalq qo'zg'olonlari edi.

Ana shunday qo'zg'olonlardan biri 806-yilda isyonkor arab lashkarboshisi Rofi' ibn Lays boshchiligida bo'lib o'tdi. Xalifalikni zirqiratgan ushbu qo'zg'olon Movarounnahr va Xuroson hududlarini qamrab oldi. Qo'zg'olonchilar Muqanna boshchiligida 769–783-yillarda bo'lib o'tgan isyon an'analarini davom ettirishdi. Ushbu qo'zg'olonne har galgidek turklar yana qo'llab-quvvatladilar. Qo'zg'olonchilar Samarqandni egalladilar. Xalifa Ma'mun bu harakatning xalifalik uchun o'ta xavfli ekanligidan tashvishda edi va uni bostirish uchun turli vositalarni ishga soldi. Nihoyat qo'zg'olon 810-yilda bostirildi. Uni bostirishda Somon ibn Asad hamda uning o'g'illari Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyoslar katta hissa qo'shdilar. Ular aslida Balx viloyatining Somon qishlog'i oqsoqoli Somon Xudotning avlodlari bo'lganlar.

Somoniylar xonadoni Balx xalqidan bo'lib, zardushtiylik diniga mansub edilar. Bu xonadonning ulug'i bo'lgan Somonxudot Balxning hokimi edi. Arablardan Xuroson hokimi etib tayinlangan Asad VIII asrning o'rtalarida Somon bilan do'st tutindi va Somon islom diniga kirib, o'z o'g'liga Asad ismini qo'ydi. Ana shu Asadning o'g'illari mashhur shaxslar bo'lib yetishdilar va IX asrda Abbosiy Ma'mun hukmronligi davrida Movarounnahr va Hirotning mahalliy hukumatlarini boshqardilar.

819–820-yillarda arab xalifasi Ma'mun Somon ibn Asad va uning farzandlari xizmatlari evaziga Nuh ibn Asadni Samarqandga, Ahmad ibn Asadni Farg'onaga, Yahyoni Shosh va Ustrushonaga, Ilyosni esa Hirotga noib etib tayinladi. Shu tariqa Movarounnahr va Xurosonning bir qismida Somoniylar sulolasi qaror topdi. Albatta bu yerda Tohir ibn Husaynning Somon ibn Asad o'g'illarini yaxshi bilganligi va ularga xayrixohlik qilgani ham katta rol o'ynagan. Somon hali Marvda noib bo'lib turgan paytida Tohir ibn Husayn va xalifa Ma'munning diqqatini o'ziga tortgan edi. Somon Ma'munning ta'sirida otashparastlik dinidan chiqib, islom dinini qabul qilgan edi.

IX asrning o'rtalariga kelib Movarounnahrning deyarli barcha hududi Ahmad va uning o'g'illari ta'siri doirasiga kirdi. Bu ishga Xurosonda hukmronlik qilayotgan Tohiriylar sulolasi vakili Tohir

ibn Abdulla (844–862) qarshilik qilmadi. Chunki endi **Somoniylar** ustidan ilgarigidek ota-bobosi singari hukmronlik qila olmasligini yaxshi bilardi va Tohiriylar sulolasining o‘zi borgan sayin inqirozga yuz tutmoqda edi.

IX asrning 60-yillaridan e‘tiboran Xurosonda Tohiriy hukmdorlarga qarshi xalq harakatlari kuchaydi. Bu harakatga G‘oziyar boshchilik qildilar. **“G‘oziyar”** asosan ko‘chmanchi qabilalar hujumlarini bartaraf etish maqsadida kambag‘al hunarmandlar va yersiz ziroatchilardan tashkil topgan qurolli qo‘shin bo‘lib, bu harakatni aka-uka Yoqub va Amr binni Lays boshqardilar. Ular dastlab Seistonda hokimiyatni qo‘lga olgach, 873-yilda Tohiriylarning qo‘shiniga katta zarba berib, Xuroson poytaxti Nishopurni egalladilar. Shu davrdan e‘tiboran Tohiriylar sulolasi barham topdi va Xurosonda hokimiyat Safforiylar<sup>16</sup> qo‘liga o‘tib ketdi. Rasmiy suratda Xuroson va Movarounnahr ustidan hukmronlik qilib turgan Tohiriylar sulolasining inqirozga uchraganligi Movarounnahrda mahalliy hokimlarning o‘lkanini to‘la mustaqilligini ta‘minlash sari harakatlari uchun qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Endi bu davrda Somoniylar siyosiy kurash maydonida erkin harakat qila boshladilar.

888-yildan boshlab Somoniylar davlatini Ismoil (888–914) boshqara boshladi.

893-yilda Ismoil Somoniy ko‘chmanchi turk qabilalari ustiga yurish qildi. Bu yurishda u katta tarixiy g‘alabani qo‘lga kiritdi. Taroz (hozirgi Jambul) shahrini egalladi va turklarning xonini 10 ming askari bilan birga asir oldi. Bu jang davomida shu darajada katta o‘lja qo‘lga kiritildiki, oddiy jangchilar ham juda katta miqdorda daromad ko‘rishgan edi. Bu yurish Ismoilning dasht ko‘chmanchilariga qarshi uyushtirgan oxirgi va so‘nggi yurishi bo‘ldi. Chunki Ismoil ta‘sir doirasining kengayib borayotganligi

---

<sup>16</sup> «G‘oziyar» yetakchilari aka-uka Yoqub va Amrbinni Layslarning asli kasblari miskarlik bo‘lgani uchun ular hokimiyatni egallashganidan so‘ng davlat nomi ham ularning kasbiga nisbat berilib «Safforiylar» deb atala boshlandi. Arab tilida «saffor» – miskar degani.

Xuroson hukmdori Amr ibn Laysga ham, arab xalifasi Mu'tazid (892–902)ga ham xush kelmas edi. Shu bois xalifa bir o'q bilan ikki quyinni urish maqsadida 900-yilda Ismoil bilan Xuroson hokimi Safforiy Amr ibn Lays o'rtasida urush keltirib chiqardi. Amr ibn Lays hukmronligi (879–900) davrida o'zining aqlliligi va serg'ayratliligi tufayli kuchli hokimiyat barpo qildi. Arab xalifasi undan qo'rqardi. Xalifa Amr ibn Laysni Xuroson bilan Movarounnahr ustidan ham hukmronligini ta'minlovchi farmon chiqardi. U mazkur farmoni bilan Amr ibn Lays hamda Ismoil Somoniyni to'qnashtirib, o'rtada o'zi yutib chiqishni mo'ljallagan edi. Lekin voqealarning rivojlanib borishi xalifa umidlarini chippakka chiqardi.

900-yilda Somoniylar Safforiylar ustidan g'alaba qozondi va ularga tegishli bo'lgan hududlarda o'z hukmronligini o'rnatdi. Somoniylar Afg'onistonning Xuroson va Tohariston viloyatlari, shuningdek, Amudaryoning shimoliy hududlarini yagona davlatga birlashtirdi.

Somoniylar va Safforiylar o'rtasida bo'lgan urushda Ismoil katta g'alaba qozondi va uning davlati, kuch va qudrati yanada yuksaldi. Safforiylar qoldirgan meroslarni o'ziniki qilib olgan Ismoil butun Xurosonni ham Somoniylar davlatiga qo'shib oldi.

Ismoil Somoniy davrida Xuroson va Movarounnahr Arab xalifaligi istibdodidan abadul-abad ozod bo'ldi va Somoniylarning hukmdorligi 100 yildan ortiq davom etdi. Somoniylar sulolasi o'zining islom diniga bo'lgan e'tibori, shuningdek, fors adabiyoti, ma'daniyatiga bo'lgan xislati tufayli ajralib turardi.

Ammo bir qarashda qudratli bo'lib ko'ringan bu davlatni ich-ichidan yemirayotgan bir qator ijtimoiy ziddiyatlar bor ediki, buni hatto Ismoil Somoniy ham bartaraf eta olmadi. Bu markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat vakillari o'rtasidagi qarama-qarshilik edi. Somoniylar har qancha urinsalar-da, hozirgi Afg'oniston hududidagi Seyiston, G'uzg'on va G'aznani o'zlariga batamom bo'ysundira olmadilar. Bu viloyatlarning hokimlari Somoniylarning markaziy hokimiyatini rasman tan olsalar-da, amalda mustaqil siyosat yurgizardilar.

Ismoil Somoniydan so‘ng uning vorislari davrida Somoniylar sulolasi inqiroz sari yuzlandi. Somoniylar davrida qo‘shinda yetakchi mavqeni turk sarkardalari va g‘ulomlari egallagan edilar. Ularga hamma vaqt ham ishonib bo‘lmasdi.

Afg‘oniston hududlarida hukmronlik qilgan keyingi sulola bu **G‘aznaviylar** sulolasi bo‘lib, ular o‘zlarining harbiy kuch qudrati va islomni qo‘llab-quvvatlashlari bilan alohida ajralib turishgan. G‘aznaviylar sulolasining vujudga kelishi islom dunyosida oddiy hol bo‘lgan holat bilan bog‘liqdir. O‘sha davrdagi yetakchi musulmon davlatlari armiyalariga qullar harbiy xizmatga olina boshlaydi va keyinchalik ushbu qullar orasidan qobiliyatli lashkarboshilar yetishib chiqadi. Ushbu lashkarboshilarga davlat hukmdorlari muayyan bir hududlarni boshqarishni ishonib topshira boshlaydilar. Bu kabi qullardan yetishib chiqqan harbiy lashkarboshilar keyinchalik o‘z hududlarida juda katta kuchga ega bo‘lib, hatto oliy hokimiyat tepasiga chiqishga ham erishishadi.

Ana shunday qobiliyatli qullardan chiqqan harbiy lashkarboshilardan biri turk Alptegin Somoniylar qo‘l ostidagi kichik bir garnizonning qo‘mondoni edi. Keyinchalik u G‘azna viloyatidagi kichkina qal‘alardan biriga hokim etib tayinlandi, ushbu qal‘a Qandahordan shimoli-sharqda joylashgan edi.

961-yildan boshlab lashkarboshi Alptegin Somoniy hukmdorlari nomidan butun G‘azna viloyati hududini boshqarish vakolatini oldi. U Somoniylar tomonidan Nishopurga hokim etib tayinlanadi va shu yerda somoniy hukmdori Mansur I ga qarshi isyon ko‘taradi. Somoniylar bilan Alptegin o‘rtasida Balxda urush bo‘ladi. Alptegin otasi hukmdor bo‘lgan G‘aznada yarim mustaqil davlat tuzadi. 963-yil Alptegin vafot etadi va uning vorisi o‘g‘li Is‘hoq bo‘ldi. Is‘hoq 3 yildan keyin vafot etadi. Shundan keyin Somoniy hukmdor Mansur I Alpteginning sobiq quli Balkateginni G‘azna hukmdori etib tayinlaydi. 972-yil hukmronligining dastlabki 5 yilini Afg‘onistondagi Hind va Musulmonlar o‘rtasida chiqqan nizolarda o‘tkazgan Piray–roja Balkateginning homiysi bo‘ldi. Aynan shu paytda Panjob rojasining hududi Hindikushgacha kengayadi va



Qobulni ham o'z ichiga oladi. Ammo Panjob rojasida, qo'shni hududda tashkil topgan va kuchayib borayotgan Musulmon qirolligiga nisbatan tabiiy qo'rquv hissi bor edi. Rojadagi bu qo'rquv hissi G'aznaga hujum qilishga undadi va ikki o'rtada bo'lib o'tgan jangda Panjob rojasi tor-mor keltiriladi.

G'aznaviylar 976-yili Pirayni butkul davlat hududlaridan quvib yuboradi. Alpteginning tutingan o'g'li Sobuqtegin Buxoro amiri Nuh II bilan murosala yo'lini tanlab taxtga ko'tariladi. Alpteginning o'g'li Sobuqtegin esa keyinchalik G'azna viloyati hududini Xurosonning janubiy qismigacha kengaytiradi. Yangi hukmdorni davlat hokimiyatida va xalq orasida obro'yi ancha baland edi. Sobuqtegin hukmronligining 12-yili, ya'ni 988-yili o'z hududlarini kengaytira boshlaydi. 979-yili Panjob rojasi Jaypal G'aznaga hech qanday sababsiz hujum uyushtiradi, lekin hujum to'xtatilib o'rtada bitim tuzilgan edi. 986-yildagi g'alabadan so'ng Sobuqteginning navbatdagi bu jangida Qobulni G'aznaviylar yana qaytarib oladi va shu atrofda mayda hokimliklar bo'ysundiriladi.

994-yil Somoniylar hukmdori Nuh II Sobuqtegingan Xuroson noibi Abu Ali Simjuriyni isyon ko'targanligi uchun uni haydab yuborishni talab qiladi. Somoniylarning parokandaligidan unumli foydalangan Sobuqtegin 994-yilda Amudaryoning janubiy hududlarida ham o'z hukmronligini o'rnatdi.

X asrning 60-yillaridan boshlab Somoniylar davlati shimoliy-sharqdan kelgan yangi bosqinchilar – turkiy qabilalarning hujumiga uchray boshladi. 996-yilda turkiy qabila yetakchilaridan biri – Qoraxoniylar hukmdori Iloqxon Buxoroni zabt etdi va 9 yildan so'ng esa Somoniylar sulolasiga barham berildi.

Sobuqtegin Qoraxoniylarning Somoniylar davlatiga barham berishidan juda unumli foydalanib qoldi va Amudaryodan janubdagi Somoniylarga tegishli barcha mulklar yangi barpo etilgan G'aznaviylar davlatiga, Amudaryodan shimoldagi hududlar esa Qoraxoniylar tasarrufiga beriladi.

Sobuqtegin o'zining o'g'li Mahmudni ayni shu yillarda harbiy qo'shin qo'mondoni etib tayinlaydi. Mahmudning musulmon bo'l-



maganlarga shafqatsiz yurishlari natijasida unga “But buzuvchi” nomi beriladi. Mahmudning muvaffaqiyatli yurishlari uchun otasi uni viloyat hokimi darajasiga ko‘taradi. Sobuqtegin davrida davlat yerlari shimolda Amudaryogacha, sharqda Peshovargacha, g‘arbda Xurosongacha kengayadi. Sobuqtegin 997-yil vafot etadi. Biroq u taxtni kichik o‘g‘li Ismoilga topshiradi. Lekin Mahmud bunga rozi bo‘lmaydi, o‘rtada taxt uchun kurash boshlanadi. Bu kurashda Mahmud g‘alaba qozonadi va Ismoil qamoqqa olinadi. Mahmud 998-yil taxtga chiqadi va o‘sha payt u 27 yoshda bo‘lgan. Aynan shu yili u Seistonni bosib oladi. Mahmud G‘aznaviy Somoniylarga yordam bermagani uchun Somoniylar davlati ham barham topgan edi.

Sobuqteginning o‘g‘li Mahmud G‘aznaviy (988–1030) G‘aznaviylar imperiyasiga tamal toshini qo‘ygan davlat arbobi, shuningdek, Afg‘oniston hududida tuzilgan birinchi eng katta musulmon davlatining asoschisi ham hisoblanadi<sup>17</sup>. U shaxsan Hindistonga 17 marta yurish qilgan, shuningdek, Balujiston, Panjob, Kashmir va Gang daryosining yuqori qismlarini ham o‘z davlatiga qo‘shib olgan.

Mahmud shuningdek davlat hududlarini g‘arbga tomon kengaytirdi. U Eron hududiga ham bir necha bor harbiy yurish uyushtirgan edi. Sulton Mahmud bosqinchilik yurishlaridan orttirilgan barcha mablag‘larini G‘aznani juda katta ko‘rkam shaharga aylantirish uchun sarf qildi. Hozirgi kunda ham Afg‘onistonning ba’zi bir hududlarida Mahmud G‘aznaviy tomonidan qurilgan ko‘plab masjidlar, saroylar saqlanib qolgan, lekin hozirgi G‘azna shahrida ularni ko‘p uchratmaymiz, chunki keyinchalik Mahmud tomonidan qurilgan inshootlar barbod qilangan.

Bog‘dod xalifasi Al Qodir Billoh Mahmud G‘aznaviy davlatini rasman tan oladi. Xalifa Mahmudga “Yamin ad Davla” ya’ni “odil podshoh” degan unvon beradi. Shuning uchun ham bu davlat tarixchilar orasida Yaminiylar davlati deb ham ataladi.

---

<sup>17</sup> Wahab, Sh.& Youngerman, B. A Brief History of Afghanistan. – New York: Facts On File, 2007. – P. 55–57.

999-yil Qoraxoniylar hukmdori Iloqxon Somoniylar podshosi Abdumalik II ni yengib, uni badarg'a qilib yuborgan edi. Lekin Abdumalik II ning akasi Ibrohim Mahmud G'aznaviy bilan Iloqxon o'rtasida sulh tuzilib, Somoniylar davlati bo'lib olingunga qadar Xurosonni vaqtinchalik boshqargan edi.

Mahmud G'aznaviy xalifadan unvonni olgach, Hindistonga yurishini boshlaydi va keyinchalik bu yurishlar odatiy holatga aylanadi. Mahmud hayotining 30 yilini Hindistonga yurish bilan o'tkazadi va behisob boyliklar-u, o'ljalarni qo'lga kiritadi.

U 1001–1008-yillarda Hindistonga dastlabki yurishlarini boshlaydi. Bunga sabab qilib yo'ldagi qaroqchilar to'dasini yo'q qilish deb bahona qilinadi. Yurish davomida u roja Jaypalni yengadi va Panjob viloyatini o'zini podshohligiga qo'shib oladi. Bu mag'lubiyatdan uyalgan va asirga olingan Jaypal o'z xohishi bilan o'zini yonib turgan olovga otadi.

1002-yil Seistonda qo'zg'olon ko'tariladi. Unga Seistonni eski hukmdorining o'g'li Xolid boshchilik qiladi. Mahmud bu qo'zg'olonni bostiradi va Xolidni qatl qilishga buyruq beradi. Lekin Xolidning Mahmudga "Sulton" deya murojaat qilishi Mahmudning ko'nglini yumshatadi va uni o'ldirmaydi. Mahmud Xolidni o'zining otxonasi boshlig'i lavozimiga tayinlagan.

1005-yilda G'aznaviy Mahmud Panjobni kesib o'tib, Mo'ittonni bosib olishga tayyorgarlik ko'ra boshlaydi. Bu paytda Mo'ittonni hukmdori Abul Fatx Davud shia oqimining "Qarmatiylik" yo'nalishida bo'lgan. Bu holat Mahmudga yoqmagan. Abul Fatx Mahmudning yurishidan tahlikaga tushib unga sulh tuzishni iltimos qiladi. Sulhga ko'ra, Abul Fatx Davud Mahmud G'aznaviyga yiliga 20 mln dirham soliq to'laydi va shia oqimining "Qarmatiylik" yo'nalishidan voz kechadi.

1007-yilda Mahmud Balxga hujum qilib yengilgan Iloqxonga qarshi yurish boshlaydi. Bu paytda Mahmudning qo'shini tarkibida (hindlar, afg'onlar, g'aznaviylar, xalajlar) bor edi. Bu jangda mag'lubiyatga uchragan Eloqxon Amudaryo tomonga qochadi va qaytib G'aznaviylarga hujum qila olmaydi.

1008-yil Mahmud Peshovorga qayta hujum uyushtiradi. U yerda roja Jaypalning o'g'li Ananpal shu atrofdagi hind qabilalar bilan ittifoq tuzib, kutilmaganda qattiq qarshilik ko'rsatadilar. Bu jangda tajribali Mahmud mudofaa yo'lini qo'llaydi va bu o'z samarasini berdi. Hujumga o'tgan hind askarlari va fillariga mudofaadan turib zarba beriladi hamda kutilmaganda Mahmudning o'zi ham hujumga o'tadi. Hindlar chekinadi, bu jangda hindlarning "Kokarlar" urug'ini 30 ming nafari qirib tashlanadi. Mahmud ham yetarlicha talafot ko'radi. Mahmud hindlarni taqib qilib "Kangra" qal'asini bosib oladi va uning aholisi qurolsizlantiriladi. Bu yerdan u ko'p boyluklarni qo'lga kiritadi. Kokarlar – yovvoyi varvarlar deb atalgan. Ularning yuz tuzilishlari varvarlarnikiga o'xshab ketgan, o'zining diniy e'tiqodi bo'lmagan, hech qanday dinga e'tiqod qilmagan. Ularning g'ayrioddiy hunuk odatlari bo'lgan. Bu qabilada qizlar ko'p bo'lgan, shuning uchun qiz farzand tug'ilsa, chaqaloqning bir qo'lga pichoq tutqizib bironing eshigi tagiga qo'yib ketilgan. Agar unga qiz kerak bo'lsa uni boqib oladi, agar kerak bo'lmasa o'sha pichoq bilan chaqaloqni o'ldirib yuborgan.

G'ur – G'azna va Hirot oralig'idagi kichik bir tuman bo'lib, o'zining hukmdorlari tomonidan boshqarilgan. Ular o'zlarini afsonaviy podshoh "Zuhak" avlodlarimiz deb davo qilishardi. Shansob ismli shaxs g'uriylar sulolasiga asos soladi.

Yoqub Ibn Lays Zamindavar va Bustga hujum qilganda o'sha atrofni G'uriylar boshqarganligini tarixdan bilamiz. Zamindavar va Bustni asli ismi Suriy bo'lgan Malik ismli hukmdor boshqargan.

1009-yilda Mahmud G'uriylarga hujumga o'tadi va bosib oladi, hukmdori Muhammad Suriyni asir qilib zindonga tashlaydi. G'aznaviy Mahmud G'uriylarga o'zining o'g'li Abu Alini hukmdor etib tayinlaydi.

Beruniyning yozishicha Laga Turman Kobuldagi Shohiylar sulolasining oxirgi hukmdori bo'lgan. Uning vaziri Braxmin (Kallar) Laga Turmanni taxtdan ag'darib tashlab, Hindushohlar sulolasiga asos solgandi. Bu sulolaning 6 ta avlodi musulmonlarga qarshi jang

qilib keladi. 1013-yilda Mahmud Gʻaznaviy Hindushohlarning oxirgi hukmdori Trilo Chapulani taxtdan agʻdaradi.

1017-yil Xorazmda xorazmshoh Maʼmun II hukmdor edi. Maʼmun II Mahmudning singlisiga uylangandi va shu sabab Xorazmda Mahmudning ismini xutbaga qoʻshib oʻqitadi. Bundan norozi boʻlgan fitnachilar Maʼmunni oʻldirib yuborishadi. Bu voqeadan norozi boʻlgan Mahmud Xorazmgga bostirib kiradi va Xorazmni egallaydi. Bu yerga oʻzining oilasiga xizmat qilib kelgan Oltintosh ismli turkni noib qilib tayinlaydi. Mahmud Gʻaznaviy 1018-yilda Hindistonning Muttra va Kanauj degan joylariga 12-hujumini boshlaydi va Muttrani egallaydi. Muttradagi Krishnaning tugʻilgan joyi sifatida eʼzozlanadigan joylarni buzib tashlaydi. Oʻsha yerda qoʻshinni 2 ga boʻladi va qoʻshinning bir qismini shu yerda qoldirib, oʻzi bilan bir qismini olib Kanaujga hujumini boshlaydi. Bu paytda Kanaujning rojasi Rajputlar Mahmudning hujumini bilib qolib boyliklarni olib qochib ketadi. Mahmud Kanaujni egallaydi va but sanamlarini buzib shaharni vayron qiladi. Bu paytda Rajputlar qaytib keladi va barcha boyliklarni Mahmudga berib uning xizmatiga oʻtadi. Mahmudning bu safardagi Hindistonga yurishi natijasida 53 ming odam asir qilinadi va butun Markaziy Osiyo boʻylab sotib yuboriladi.

Ushbu muvaffaqiyatli yurishdan keyin Mahmud Gʻaznaga keladi va poytaxt Gʻaznaga “Samoviy Nur” degan katta masjid qurdiradi. Mahmud yurishlaridan keltirilgan boyliklarni koʻpini masjid, madrasa, karvonsaroylar qurilishiga sarflagan.

Mahmud Hindistonda Shiva, yaʼni Oy xudosining yirik ibodatxonasi haqida eshitadi. Bu xudoning ibodatxonasi Kadxiavar qirgʻoqlarida joylashgandi. Mahmud bu yerlarni ham bosib olishga qaror qiladi. Baxtga qarshi bu ibodatxona oldin vayron qilingan ibodatxonalardan ancha uzoqda joylashgandi. U dastlab Moʻltonga boradi, keyin Samxorga borish uchun katta choʻlni kesib oʻtadi. Samxor – hozirgi Ajmer degan shahar boʻlib, Shiva ibodatxonasi aynan mana shu shaharda joylashgan edi. Nihoyat Mahmud shahar devorlari ostida paydo boʻladi. Shahar himoyachilari musulmon-

larga past nazar bilan qaragan, biroq oradan bir kun o‘tib Mahmud shahar devorlarini buzib tashlaydi va shaharni egallaydi. Shahar aholisining har 1000 tadan 10 tasini qatl ettiradi. Shiva ibodatxonasi yog‘ochdan qurilgan bo‘lib, ibodatxonaning o‘zi “Langam” toshi bilan himoya qilingan edi. Ibodatxona buzilib but va sanamlar yer bilan yakson qilinadi. Mahmud yakson qilingan Shiva butining ikki bo‘lagini G‘aznada qurilayotgan masjidning zinapoyasi uchun olib ketadi. Aynan mana shu zinapoya uchun yuborilgan but haykalini buzmaslik uchun Brahmanlar Mahmudga katta boylik va‘da qilishganda Mahmud ularga javoban: «Men but buzuvchiman sotuvchi emasman», deb javob bergan ekan. Bu taklifga rozi bo‘lmagan Mahmud o‘zi bilmagan holda Brahmanlarning sirini fosh etadi. Gap shundaki bu buzilgan but haykali ichida Brahmanlarning behisob boyliklari saqlangan. Shu sababdan ham Brahmanlar unga pul va‘da qilib butni saqlab qolmoqchi bo‘lishgan. Biroq ular niyatiga yetolmaganlar.

Mahmud bu hududni ham egallab qaytayotganda Sind cho‘lida ifloslangan suvni ichib qo‘ygan askarlarini ko‘pi qirilib ketadi. Bu vaziyatdan foydalangan, sind cho‘li atroflarida yashaydigan, Jadd degan qabila Mahmudga hujumlar uyushtiradi. Shuning uchun ham Mahmudning G‘aznaga yetib kelishi cho‘zilib ketgan. Mahmud 1026-yil bahorigacha G‘aznaga yetib kelolmagan. Bu yurish uning Hindistonga qilgan eng so‘nggi va muhim safari edi. Ushbu yurishdan keyin Bag‘dod xalifasi Al Qodir Billoh Mahmudni Xuroson, Seiston, Hindiston, Xorazm hukmdori sifatida tan oladi va unga o‘sha mashhur nom “Sanam buzuvchi” degan nomni bergan edi.

Bu davrda hozirgi Eronning shimoliy-sharqida joylashgan va G‘aznaviylar bilan chegaradosh Buvayxiylar davlati, Az ud Davla vafotidan keyin ancha zaiflashgan edi. Uning vafotidan keyin taxtga Majid Davla o‘tiradi. Majid Davlanning qisqa hukmronligi paytida Ray viloyati uning onasi tomonidan boshqariladi. Mahmud G‘aznaviy aynan mana shu Ray viloyatidan boj to‘lashni talab qiladi va Mahmud Majid Davla onasiga “Mening 2 ming jangovor fillarim senlarni Raydan G‘aznagacha chang qilib olib ketadi” degan xabar

yuboradi. Bunga javoban Majid Davlanning onasi shunday deydi: “Men sulton Mahmudni bilaman u hech qachon biror sababsiz urush boshlamaydi, agar u zaif ayolni ustiga yurish qilsa uning shon-shuhrati qayerda qoladi. Agarda u bu yurishni to‘xtatsa avlodlar oldida sharmanda bo‘ladi. Ya’ni bir ayol ustiga yurish qilishdan qo‘rqan bo‘ladi”.

Mahmud G‘aznaviy Majid Davla taxtga chiqqunga qadar, ya’ni 1029-yilgacha Rayga hujum qilmagan, balki unda yana boshqa biror sabab bo‘lgandir.

Mahmud baribir Isfaxon, Ray va shu kabi bir qator viloyatlarni bosib oladi. Keyinchalik ya’ni Mahmuddan keyin Buvayxiylar yana hokimiyatni o‘z qo‘llariga oladilar. Ular Saljuqiylar kelgunga qadar hukmronlik qiladilar.

Mahmud G‘aznaviy 1030-yili vafot etadi. Bu inson musulmon hukmdorlari orasida eng yuqori o‘rinlarda turar edi. U nihoyatda ehtiyotkor podshoh edi. U yurishlarini nihoyatda sirli va ehtiyotkorlik bilan rejalashtirar edi. Uning muvaffaqiyati ham aynan shundadir.

G‘aznaviylar imperiyasi Mahmudning 1030-yildagi o‘limidan so‘ng o‘zining avvalgi kuch-qudratini yo‘qotdi<sup>18</sup>.

XI asr 30-yillari oxiridan boshlab boshqa bir turkiy qabilalar bo‘lmish Saljuqiylar G‘aznaviylar mulklariga shimol va g‘arbdan hujum uyushtira boshlaydilar. Shundan so‘ng Saljuqiylar Iroq va Eron hududlarini deyarli zabt etdilar. Ular Mahmudning vorisi hisoblangan Mas‘ud G‘aznaviyini Hindistonga chekinishga majbur etdilar. Bu paytda G‘aznaviylar davlati tarkibida istiqomat qilib kelayotgan kichik-kichik tarqoq qabilalarning bosh ko‘tarishi boshlandi. Mas‘ud G‘aznaviy juda ham ko‘ngilchan, lekin o‘ta qobiliyatsiz hukmdor edi.

Mahmud urush va davlat boshqaruvida qanchalik qobiliyatli bo‘lsa, san‘at va adabiyotda ham shunchalik qobiliyatga ega bo‘lgan. U o‘z poytaxtida shunchalik ko‘p masjid va madrasa qurdirganki

---

<sup>18</sup> Sykes P. A History of Afghanistan. Vol. 1. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940.– P. 192.

boshqa davlat shaharlarida bunchalik ko'p masjid, madrasalar bo'lmagan shuningdek, u saroyida zamonasining yetuk shoir va olimlariga g'amxo'rlik qilgan. Afg'onlar Mahmudni o'zlarining birinchi "musulmon hukmdori", "qobiliyatli davlat boshlig'i", "butsanamlarni buzuvchi" hukmdor sifatida hurmat qilishadi.

Mahmud o'limi oldidan o'z xohishi va zodagonlar taklifi bilan o'z o'g'li Muhammadni taxtga voris etib tayinlaydi. O'sha vaqtda Mahmudning katta o'g'li Mas'ud Hamadon shahrida noib edi. U otasi vafot etganini eshitib zudlik bilan G'aznaga yetib keladi. Ikki o'rtada taxt uchun kurash boshlanib ketadi, bu kurashda eng kuchli zodagonlar va otasining sodiq quli Ayozi Mas'udni qo'llaydi. Muhammadning homiylari hech qanday imkon qolmaganini sezgach taslim bo'ladilar va Muhammadni Mas'udga tutib beradilar. Muhammad o'z akasi tomonidan ko'r qilinib, Balxda qamab qo'yiladi.

Ariyaruk Panjob hokimi edi. Mas'ud taxtga chiqqandan keyin uni davlat pulini talon-taroj qilish, hamda o'zini mustaqil hukmdor etib e'lon qilishda ayblaydi. Ariyarukni Balxga chaqirib, Hind qo'shinlari boshlig'i sifatida saylaydi, lekin uni qo'lga olib qatl etishadi. Uning o'rniga Mas'ud otasi Mahmudning xazinachisi Ahmadni hokim etib tayinlaydi va uning sadoqatiga ishonadi. Panjobdagi qo'mondonlikka Mas'udning ruxsatisiz boshqa hududlarda urush qilish taqiqlab qo'yildi. Bundan tashqari Panjobdagi harbiylarga ichishni, chekishni, polo o'ynash hamda Lohurdagi hind zobitlari bilan muloqot qilish taqiqlab qo'yildi.

1033-yil Ahmad ushbu buyruqlarni bajarmay Benarisga hujum qildi va Benarisni bosib olib, juda ko'p boyliklarni qo'lga kiritib Lohurga qaytadi. Bu uning isyon ko'tarishining bir belgisi edi. Mas'ud musulmon sarkardalaridan Ahmadga qarshi jang qilishni taklif etadi lekin bu taklif rad etiladi. Biroq uning hind qo'shinlarining boshlig'i Tilak Ahmadga qarshi yurishni o'z zimmasiga oladi. Tilak Ahmadni qamal qilish uchun ketayotganda uni Mas'udga sodiq qal'alarni qamal qilayotganini ko'radi va Tilak Ahmadni qamal qilib, Ahmadning odamlarini qo'lga oladi. Ahmadni

odamlarining hammasini qo‘lini kesadi, Ahmadni ham qo‘lini kesib o‘ldirib yuboradi.

1037-yil Mas‘ud va vazirlari o‘rtasida ziddiyatlar kuchayib ketgan paytda Mas‘ud Xansi qal‘asiga hujumga o‘tadi va bosib oladi. Mas‘ud hukmronligining so‘nggida saljuqiylar kuchayib ketadi va tahlikali vaziyat vujudga keladi. Vaholanki, saljuqiylar 1031-yil Hirotdan quvib yuborilgan edi. 1033-yilda Mas‘ud saljuqiylarga hujumga o‘tib ularni tor-mor etgan, u yerdagi o‘ljalar talon-taroj qilinayotgan bir paytda, ya‘ni hujumning ikkinchi kunida saljuqiylar to‘satdan hujumga o‘tishadi va Mas‘ud qo‘shinini yengishgan edi.

1036-yil saljuqiylar Chaqir Davudbek boshchiligida Balxni egallaydi. Bu vaziyatda Mas‘ud ularni Marvga sulh tuzishga chaqiradi. Sulh tuzilgan joy haligacha noma‘lum. Bu kelishuvdan keyin Mas‘ud G‘aznaga qaytadi, lekin yo‘lda saljuqiylar ikki o‘rtada tuzilgan sulhni buzib, Mas‘udga qarshi hujumga o‘tadi. Jangda saljuqiylar og‘ir talafot ko‘rib ortga qaytadi.

1037-yil Mas‘ud Hindistonga axmoqona yurish boshlaydi, axmoqona deyishga sabab saljuqiylarning xavfi uning uchun yetarli edi. 1038-yil u G‘aznaga qaytayotganda saljuqiylar Nishopurni egallaganini eshitadi, lekin Nishopurga hech qanday yordam bera olmaydi.

1040-yil To‘g‘rul boshchiligidagi saljuqlar Mas‘udga qarshi urush boshlaydi. Jang Toliqon yaqinidagi Dandanakonda bo‘lib o‘tadi, jang vaqtida Mas‘udning sarkardalari uni tashlab ketadilar. Yolg‘iz o‘zi qoladi, lekin u “sherlardek” jang qilib G‘aznaga esonomon yetib keladi. Ushbu jangni fors tarixchisi Muhammad Qosim Farishta shunday tasvirlaydi: “Saljuqlar bor kuchini to‘plab Mas‘udning maxsus qo‘shinini va armiyasini o‘rab oldi hamda dahshatli xayqiriqlar bilan kela boshladi Mas‘ud bunga javoban qo‘shiniga jang qilishga buyruq berdi, G‘aznaviylar qo‘shini kutilmaganda tahlikaga tushib qolgan bir paytda Mas‘udning sarkardalari qo‘rquvga tushib qolishdi yoki sadoqatsizligi tufayli o‘zining qal‘alariga qochadi, ko‘plari dushman tarafga o‘tib ketadi. Lekin Mas‘ud qo‘rqmaydi va u dushman safini yorib o‘tadi”.



1040-yilda Dandanakon jangida Mas'ud g'aznaviy saljuqiylar tomonidan mag'lub etildi va otasining barcha xazinasini o'zi bilan olib Hindistonga qochib ketdi.

Biroq Mas'udning bu harakatlari unga samara bermaydi. Saljuqlarning bu g'alabasi Mas'udni Afg'onistondan Hindistonga ketishga majbur qiladi. U oilasini va boyliklarini olib Hindistonga ketadi. U Hindistonda yana qaytadan kuch to'plab saljuqiylarga hujum qilaman, deb o'ylaydi. Lekin Hindistonda Abul Xasan boshchiligida o'zining qo'shinlari tomonidan isyon ko'tariladi va o'zi ko'r qilingan akasi Ibrohim tomonidan taxtdan ag'dariladi va zindonga tashlanadi, o'sha yerda Ibrohimning o'g'li Ahmad tomonidan o'ldiriladi. O'z vaqtida Mas'ud "ikkinchi Rustam" deb taqqoslangan. U faqatgina buyuk jangchi emas edi, u ham otasi kabi shoir va olimlar homiysi edi.

Uning o'g'li Maudud Balxda noib edi, otasi haqidagi bu voqealarni eshitib, G'aznaga boradi. U yo'lda Nangahor degan joyda Ibrohimni uchratadi va ikki o'rtada jang bo'lib o'tadi. Maudud Ibrohim qo'shinini yengib, Ibrohim, uning o'g'li va barcha tarafdorlarini qatl ettiradi. Keyin Maudud Lohurga yurish qiladi. Shu payt uning ukasi Majdud unga qarshi isyon ko'taradi. Lekin Majdud bilan uning vaziri qamoqqa olinadi. Natijada har ikki qo'shin birlashadi. Maudud butun G'aznaviylar va Hindiston hukmdori etib e'lon qilinadi.

Sulton Mahmud G'aznaviy buyrug'i bilan matematika, din, tibbiyot va insoniylikdan dars beradigan madrasa ham tashkil qilindi. G'aznaviylar garchi turkiy qabila bo'lishsa-da, fors tili G'aznaviylar saltanati boshqaruv organlarining asosiy tiliga aylandi. Ushbu tajribani ular Somoniylardan o'zlashtirib olganlar. Shuningdek, Mahmud 900 dan oshiq olimlarni, shoirlarni, faylasuflarni poytaxt shahar G'aznada jamladi va astrolog olim, tarixchi Abu Rayhon Beruniy (973–1048) ularga yetakchi etib tayinladi. Abu Rayhon Beruniy arab tilida mukammal yoza olgan. Uning Hindiston tarixiga bag'ishlangan asari hozirgi Afg'oniston, Pokiston va Hindiston tarixi bo'yicha muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, Mahmud

Gʻaznaviy tarixchi Al-Utbiy, Bayhaqiy va juda koʻp fors shoirlari xususan Firdavsiyni ham qoʻllab-quvvatladi. Ushbu yozuvchilar sulolaning muvaffaqiyatlarini keng yoyishda, sulolaning dovrugʻini dunyoga tanitishda, yangi qurilayotgan inshootlar, bogʻlar, tarixiy obidalarni saqlab qolishda juda katta yordam berdilar.

1151-yilda Gʻazna shahri **Gʻuriylar** sulolasi vakili Alouddin tomonidan ishgʻol qilindi, shahar aholisining aksariyat qismi qatl etildi, mashhur binolar va kutubxonalar yondirib yuborildi. Garchi Gʻuriylar yetakchisi Alouddinning oʻzi ham turkiy qavmdan boʻlsa-da, shafqatsizligi va vayronkor harakatlari bilan mashhur boʻlgan va shu sababli u jahonsoʻz (yaʼni dunyoni kuydiruvchi, forscha “soʻzondan” – kuydirmoq feʼlidan olingan) degan nomni olgan edi. Gʻazna shahrining qolgan aholisi keyinchalik shaharni qayta tiklashgan boʻlsa-da, Gʻazna oʻzining ilgarigi shon-shuhratiga erisha olmadi. Gʻaznaviylar Hindistonda 1186-yilgacha hukmdorlik qildilar. 1186-yilda Gʻaznaviylarning oxirgi sultoni Lahorda Gʻuriylar tomonidan oʻldirildi. Shu tariqa Gʻuriylar Afgʻonistonning markaziy qismidagi togʻli hududlarida oʻz davlatini barpo etishdi.

Gʻuriylar sulolasi turkiy qavmlarning yana bir yirik birlashmasi – Xorazmshohlar tomonidan magʻlubiyatga uchratildi. Xorazmshohlar XII asr 80-yillari davomida Afgʻoniston va Eronga bostirib kiradilar. Xorazmshohlar 1215-yilda Gʻuriylarni yengadilar va Saljuqiylarni esa gʻarbga surib chiqaradilar hamda Turkiyadan Hindistongacha boʻlgan hududlarda, shu jumladan Afgʻoniston hududlarida ham oʻzlarining hukmronliklarini oʻrnatadilar.

Ushbu davrda Afgʻoniston tarixi haqida maʼlumot beruvchi bir qator yirik asarlar yaratib qoldirilgan. Jumladan, mazkur davrdagi eng muhim tarixiy-geografik asarlaridan yana Ibn Xavqalning “Surat ul-arz” asari hisoblanadi. Bu kitobda koʻplab shaharlar va ularning joylashish oʻrni, shu jumladan, Afgʻoniston shaharlari haqida ham maʼlumotlar mavjud. Ibn Xavqal Kobul haqida maʼlumot berar ekan, shahar qoʻrgʻoni, hunarmandchilik ishlab chiqarishi, Kobulistonning mineral resurslari haqida maʼlumotlarni keltirib oʻtadi. U yozadi: “Kobul Hindiston yoʻlida joylashgan, u yerdan

turli yo‘nalishlardagi yo‘llar o‘tadi. Bu shaharda Kobul atrofidagi shaharchalar va qishloqlarda ishlab chiqariluvchi nil bo‘yog‘i juda ko‘p miqdorda mavjud. Ularning savdogarlar qo‘lidan o‘tadigan qismining bahosi hisob-kitob qilinganda yiliga ikki mln dinordan ortiqni tashkil qilgan. Kobulda yaxshi paxta matolar tayyorlanadi, chiroyli patnislar va vino quyadigan juda qimmatbaho chashkalar ishlanadi, ular keyinchalik Juzjonga jo‘natiladi, u yerdan esa ular Xitoy, Sind va boshqa davlatlarga olib ketiladi. Kobulda temir rudasi juda ko‘p. Kobulda juda mustahkam qal‘a va qo‘rg‘onlar mavjud, shaharga ham faqat bitta yo‘l orqali kirish mumkin. Shahar markazida musulmonlar yashaydi”.

Abu Is‘hoq Istaxriyning “Masolik al-mamolik” (Sayohatlar va davlatlar kitobi) asari ham Kobul tarixiga va geografiyasiga oid muhim manbalardan biri hisoblanadi. Istaxriy Kobul haqida shunday yozadi: “Kobul faqatgina bitta yo‘ldan kirish mumkin bo‘lgan juda mustahkam qal‘aga ega. Bu qal‘alarda musulmonlar joylashgan va u yerda hindular va majusiylar yashaydilar”. Shuningdek, Istaxriy G‘azna va Kobulni Bomiyon viloyatining bir qismi deb ta’riflaydi.

Tarixchi va sayyoh Muqaddasiy esa G‘aznaviylarning harbiy yurishlari haqida to‘liq ma’lumot bergan holda Kobulni G‘azna viloyatiga bo‘ysunuvchi shahar sifatida aytib o‘tadi.

Ibn Faqiha esa “Muxtasar al-Buldon” asarida Kobulni Toxariston hududining bir qismi deb ma’lumot berishi, taajjublanarli holat: “Kobul Toxaristonning chegarasida joylashib uning quruq va issiq havosiga ega shahri hisoblanadi”. Shak-shubhasiz Toxariston juda katta hududlarni egallagan davlat edi. Uning hududi sharqda Chitroldan, g‘arbda Hirotgacha cho‘zilib, Amudaryoning shimoliy qismi va shimoliy Hindikushda joylashgan shaharlarni o‘z ichiga olgan. To‘g‘ri ma’lum bir davrda “Toxariston” so‘zi “Baqtriya” so‘zi bilan sinonim bo‘lgan, ammo Janubiy Hindikush hududidagi shahar bo‘lmish Kobul mustaqil hisoblangan. Bunga Eron mifologiyasida ham dalil mavjud bo‘lib, unda afsonaviy Eron bahodiri Rustam Kobuliston, Zobuliston va Baqtriyaning birlashishi uchun kurashadi. Bulardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Toxariston hudud-

lari Hindikush tog‘larining janubiga o‘tmagan va Kobul hech qachon uning bir qismi bo‘lmagan.

Forsiy zabon tarixchilar orasida mashhur bo‘lgan “Hudud al-alam” asarida “Afg‘oniston” degan nom ilk bora keltiriladi. “Hudud al-alam” muallifi (asar muallifi noma‘lum) yozadi: “Kobul – bu egallab bo‘lmasligi bilan mashhur mustahkam qal‘aga ega shahar, unda musulmonlar va hindular yashaydilar. U yerda buddaviylik ibodatxonalari mavjud. Kanuj podshosi ham bu ibodatxonada to‘xtab o‘tmasdan o‘z sayohatini yakunlamasdi” .

“Hudud al-olamdagi” bu xabarni Kobulning Bolo Hisoridagi arxeologik qazishmalar natijasida topilgan Hindushohlar davridagi buddaviylik ibodatxonasi qoldiqlari tasdiqlaydi. “Hudud al-alam”ning Said Jalol Tehroniy nashr etgan boshqa bir nusxasida yana shu qo‘shimcha qilinadi: “Kanuj davlatining bayrog‘i ham shu yerda saqlanadi”. “Hudud al-alam”ning V.V.Bartold so‘zboshisi bilan 1967-yilda Kobulda nashr etilgan boshqa bir nusxasida Kobul haqida boshqacharoq ma‘lumot beriladi: “Kanuj podshosiga toj kiydirish Kobul ibodatxonasida o‘tkazilgan” .

Ibn Fakihiyning “Muxtasar al-Buldan” asaridagi ma‘lumotlar Kobul haqidagi ma‘lumotlarni biroz chalkashtirib yuborishi bilan farqlanadi, u Kobulni Toxariston hududining bir qismi deb aytadi. Toxariston o‘sha paytda sharqda Chitrolgacha, g‘arbda Hirotgacha cho‘zilgan va Amudaryoning shimoliy qirg‘og‘idagi shaharlar va Hindikush shimolidagi tumanlarni o‘z ichiga olgan bepoyon hududni egallagan edi. “Toxariston” so‘zi bir vaqtning o‘zida “Baqtriya” bilan sinonimdir. Ammo Hindikushdan janubdagi tumanlar, shu jumladan Kobul va Kobuliston mustaqil viloyatlar bo‘lgan. Bu fakt afsonalarda ham tasdiqlanadi. Masalan, afsonaviy Eron bahodiri Rustam Kobuliston, Zobuliston va Baqtriyani birlashtirish uchun kurashgan. Bundan kelib chiqadiki, bu davlat chegaralari Hindikush cho‘qqisida kesishmagan. Kobul ham hech qachon Toxariston hududiga kirmagan. O‘sha yerda Ibn Fakihiy eslatib o‘tadi: “Kobul Toxariston hududida joylashgan va uning quruq va issiq havoli shaharlaridan biridir. Kobulda aloe, kokos palmasi,

shafran va mirobalan daraxtlari o'sadi. Bu mamlakat o'zining iqlimiy sharoitiga ko'ra Hindistonga o'xshaydi. Musulmonlar xalifa ibn Marvon hukmronligi davrida u yerga muqaddas yurish qiladi va bu mamlakatni egallaydi. Shu tariqa bu mamlakat aholisi musulmon bo'ladi". Biroq Boburning "Boburnoma"si va hozirgi tabiiy sharoit Ibn Fakih fikrlarining aksidir. Kobul o'z iqlim sharoitiga ko'ra Hindistondan ancha farq qiladi. Kobul o'zining sog'lom iqlimi, toza havosi va suvi bilan mashhur, Hindiston esa juda issiq va tropik hududda joylashgan.

Ibn Nadimning "Al-Fekrist" asari "Hudud al-olam"dan 5 yil o'tib, 987-yilda yozilgan. "Al-Fekrist" Kobuldan chiqqan faylasuflar, musulmon teologlari, olimlari haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan. "Al-Fekrist"da musulmon dunyosi madaniyatini rivojlantirish va mustahkamlashda Kobul aholisining roli va o'rnini ko'rsatish bilan bir qatorda islom tarixida muhim rol egallagan ko'zga ko'ringan arboblarning nomlarini ham keltirib o'tadi. Bular: Abuxanifa ibn Lag'mon Kobuliy (hijriy 80–151-yillar), Makxuvayl Kobuliy (hijriy 112-yilda vafot etgan), Umar ibn Ubayd Kobuliy (hijriy 117-yilda vafot etgan), Abu Mujohid Ali ibn Muslim Kobuliy, Abuxalid Vardan Fakix Kobuliy, Hazrat Imom Bakirning zamondoshlaridan Abuxalid Asqar Kobuliy va boshqalar.

Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma" asarida ham Kobul haqida o'qish mumkin. Unda turli harbiy yurishlar, mudofaa janglari, Eron xalqlarining mustaqillik uchun kurashlari bilan aloqador Kobul va Kobuliston haqida eslatib o'tilgan. Unda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, Kobul Eron shohi Qobusning turar joyi yoki eron armiyasining muhim qo'mondonlik punktlaridan biri bo'lgan.

"Shohnoma"da Kobul va aholisining Eron ijtimoiy, siyosiy va harbiy hayotidagi muhim roli haqida to'liq ma'lumot beriladi. Eronda biror-bir ijtimoiy muammolar paydo bo'lsa, Kobul aholisi kengash orqali unga yechim topardi, agar Eron hududiga chet el bosqinchilari qurolli hujum uyushtirsa, kobulliklar doimo birinchi bo'lganlar va Kobul qo'shinlari odatdagidek chet el bosqinchilariga qarshi kurashdagi himoyachilarning birinchi qatorida turardilar.

Firdavsiy, bundan tashqari, o‘z asarida ming yil avvalgi shaharlar, jumladan, Bagram (Kapisa), Jabal us-siroj, Panjshir, Kuhdomon, Sakovand (Lugar), Maydonshahr, Kalat, Qandahor va Seistonning joylashishi haqida aytib o‘tadi. Kobulning g‘arbida Kobul aholisi “Shohnoma”dagi afsonaviy bahodir Isfandiyor qal’asi deb ataydigan qo‘rg‘on xarobalari saqlanib qolgan.

## **AFG‘ONISTON MO‘G‘ULLAR BOSQINI DAVRIDA**

1219-yilning oxirlarida Chingizxon Xorazmshoh Muhammadga qarshi urush harakatlarini boshlaydi. Bu paytda Chingizxon lashkarlarining umumiy soni to‘g‘risida adabiyotlarda turlicha raqamlar keltiriladi. Jumladan, tarixchi A.R.Muhammadjonov “Chingizxonning jami askari 200 mingdan oshmas edi”, desa, M.Ivanin: “...Muhammadga hujum boshlashdan avval Chingizxonning qo‘shini 250 ming nafar jangchidan oshishi mumkin emas edi” deydi. Ba‘zan esa hatto 600 ming raqami ham uchraydi, ammo bu raqam haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi.

Chingizxonga uyg‘ur xoni Ediqut ham qo‘shiladi. Chingizxon Irtysh qirg‘oqlaridan to Sayxun sohillarigacha bo‘lgan harakati davomida hech qanday qarshilikka duch kelmaydi. Hujumning dastlabki zarbasi O‘trorga qarshi qaratiladi. Shu yerda Chingizxon o‘z lashkarlarini to‘rt qismga bo‘ladi va Movarounnahr hamda Xorazmni tezroq zabt etish maqsadida ularni to‘rt yo‘nalish bo‘yicha yalpi hujumga tashlaydi.

1220-yilda Chingizxon Samarqandni qo‘lga kiritish uchun butun vujudi bilan qamal qilib jang qilayotgan vaqtda Xorazmshoh Muhammad batamom umidsizlikka tushib, davlat va xalq manfaatlaridan umuman uzoqlashib, faqat o‘z jonini qanday qilib bo‘lsa-da, saqlab qolishni o‘ylar edi.

Xorazmshoh Muhammad o‘z vazirlari va lashkarboshilari bilan davlatni halokatdan qutqarish choralari to‘g‘risida maslahatlashadi. Tajribali va tadbirkor jangchilar hozir Movarounnahrni himoya qilish payti emasligini aytib, Xuroson va Iroqni himoya qilishga

asosiy diqqatni qaratish lozimligini maslahat beradilar. Boshqa birlari esa Xorazmshohlarning qolgan barcha qo'shinini G'aznada to'plab shu yerda dushmanga qarshi jang qilish va agar zaruriyat bo'lib qolsa, Hindistonda yashirinishni taklif qiladilar. Iroqlik bir vazir esa Iroqi Ajam yurtiga chekinishni maqsadga muvofiq deb ma'qullaydi. Xorazmshoh Muhammadga so'nggi taklif ma'qul tushadi va u Iroqqa yurishga qaror qiladi.

Xorazmshohning katta o'g'li Jaloliddin Manguberdi otasi bilan birga edi. U barcha harbiy kuchlarni to'plab Jayhun daryosi bo'yini himoya qilishni va dushmani daryoning chap sohili, ya'ni hozirgi Afg'oniston va Turkmaniston hududiga o'tkazmaslik bo'yicha maslahat beradi. Biroq Muhammad Iroq tomon chekinishga qat'iy qaror qilgach, Jaloliddin atasining qarorini inkor etib yurtni dushmandan himoya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Ammo bu gaplar Xorazmshoh qulog'iga kirgan ham emas. U o'z bilganidan qolmaydi.

Xorazmshoh Muhammad Buxoro va Samarqandning dushman tomonidan zabt etilganligini Balxda eshitadi. Uni battar vahima bosadi. Xorazmshohning qo'shinlari asosan turk va turkmanlardan tashkil topgan, boshliqlari o'z onasi Turkon xotunning odamlaridan iborat edi. Ular o'z sultonlariga qarshi suiqasd uyushtiradilar. Buni sezib qolgan Muhammad kechasi yotar joyini o'zgartirib boshqa chodirga kirib yotadi. Ertalab turib qarasa, u yotishi kerak bo'lgan chodir o'qlar bilan ilma-teshik qilib tashlangan. Dahshatga tushgan Xorazmshoh shoshilinch suratda Nishopur sari o'tlanadi. U yerda ko'p vaqt o'tmasdan ov qilishni bahona qilib Iroqqa jo'naydi.

Xorazmshoh Muhammadni ta'qib qilib kelayotgan Jebe va Subutoy Termiz yonida ko'priksiz va kemasiz Jayhun daryosini kechib o'tadilar va tezda Balx orqali Nishopurga yetib keladilar.

1220-yilning yozida Xorazmshoh Nishopurdan Qazvin shahriga o'tadi. Bu yerda 30 ming lashkar to'plangan bo'lishiga qaramay mo'g'ullarga qarshi turishga jur'at qila olmaydi. Qazvindan u Bag'dod, G'ilon va Kaspiy dengizi qirg'oqlari bo'ylab Mozandaronga yuradi. Xorazmshoh bu shaharda turib

Mozandaron viloyatining savdo-sotiq shahri Astrobod va asosiy shaharlardan bo'lgan Amoyni mo'g'ullar bosib olgani va talon-taroj qilganligidan xabar topadi. Chorasiz qolgan va baxti qaro Xorazmshoh Muhammad viloyat amirlari maslahatiga ko'ra Kaspiy dengizining Obeskun oroliga borib yashirinadi va u shu yerda 1221-yil fevralida vafot etadi.

Yozma manbalarning guvohlik berishicha, Xorazmshoh o'limi oldidan Xorazm saltanatini faqat sulton Jaloliddin saqlab qola olishiga nihoyat ko'zi yetadi hamda to'ng'ich o'g'lining beliga qilich taqib, Jaloliddinni taxt vorisi va valiahd deb e'lon qiladi. Qolgan farzandlariga Jaloliddinning izmidan chiqmaslikni vasiyat qiladi.

Chingizxon Movarounnahr va Xorazmni qo'lga kiritgan bo'lsa-da, sulton Jaloliddin hayot ekan tinchlik yo'q edi. Go'yo uning toju-taxtining shavkati va borligi, istiqboldagi muvaffaqiyati-yu, o'zining ham taqdiri sulton Jaloliddin qo'lida-yu, uning ixtiyorida. Ayniqsa, 1221-yilda Jaloliddinning mo'g'ullar ustidan Niso, Nishopur va G'azna atroflarida qozongan g'alabalari Chingizxon oromini buzmoqda edi<sup>19</sup>.

1221-yilning bahorida Sulton Jaloliddin G'aznaga yetib kelganda Xorazmshohning tarqalib ketgan qo'shinlari uning atrofida to'planadilar<sup>20</sup>. Chingizxonning kenja o'g'li Tuluxondan mag'lubiyatga uchrab G'azna tomon chekingan Hirot kuchlari ham Jaloliddinning kuchlariga qo'shiladilar. Qabaqliyon qavmidan bo'lgan 40 ming qo'shin Xorazmdan yetib keladi. Xullas, dushmanga qarshi tura oladigan katta kuch to'planadi. Jaloliddin bu kuchlar bilan G'aznaga yaqin bo'lgan Valiyon qal'asi atrofida Chingizxonning Bekchak va Timkur ismli lashkarboshilari boshliq qo'shinini yakson qiladi. Dushman to'qqiz ming jangchisidan judo bo'lib juda ko'p o'lja, boyliklarni tashlab qochadi. Chingizxon bu

---

<sup>19</sup> Tanner, S. Afghanistan. A Military History from Alexander the Great to the Fall of the Taliban. – Cambridge (Massachusetts): Da Capo Press, 2003. – P. 93–97.

<sup>20</sup> Sykes P. A History of Afghanistan. Vol. 1. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940. – P. 223.



shum xabarni Taluqonda turganida eshitadi va Jaloliddinni tezda daf qilish uchun eng ishonchli va dongdor lashkarboshisi Qayqur nuyon boshchiligida 30 ming kishilik qo‘shinni yuboradi.

Ikki o‘rtadagi jang 1221-yilning yozida Parvona dashtida bo‘ladi. Jaloliddin janglar tarixida birinchi marta mo‘g‘ullarga qarshi kurashda yangi taktik usulni qo‘llaydi, ya‘ni jangchilarga otdan tushib, jilovlarni bellariga bog‘lashni va kamon bilan jang qilishni buyuradi. Tun qorong‘usiga qadar davom etgan jangda ikki tomonning birortasiga ham zafar kulib boqmaydi. Ertasi kuni Qayqur nuyon harbiy hiyla ishlatmoqchi bo‘ladi. U dushmani yangi qo‘shinlar kelib qo‘shildi, deb ishontirish maqsadida kigiznamat va choponlar orasiga poxol xashaklar solib sun‘iy boshlar yasab, ularni otlar ustiga o‘tqizib qo‘yadi. “Soxta jangchilar”ni tuyalar karvoni va aravalar orasiga joylaydilar. Bu hiyla Jaloliddin askarlarini dastlab ancha dovdiratib qo‘yadi. Ularning ba‘zilari hatto chekinishga maslahat ham beradilar. Ammo sulton og‘ir va bosiqlik bilan avvalgi kundagi taktika asosida otdan tushib kurashni davom ettirishni tavsiya qiladi. Dushmanning bir necha hujumi qaytarilgach, sulton buyrug‘i asosida chalingan karnay sadolari ostida Jaloliddin askarlari otlarga minib, shovqin-suronlar bilan mo‘g‘ullar ustiga tashlanadilar. Dushman tilka-pora qilinadi va juda katta talafot ko‘radi. Qayqur nuyon ozgina qo‘shin bilan Chingizxon huzuriga kirib boradi. Bu xabarni eshitgan Chingizxon dahshatga tushadi. U shu zahotiy o‘zining barcha kuchlarini jamlab, sulton Jaloliddinni daf qilish maqsadida shaxsan o‘zi otlanadi.

Parvona dashtidagi g‘alaba sulton Jaloliddinga qimmatga tushadi. Mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozonilgandan so‘ng qo‘lga kiritilgan o‘ljani taqsimlash paytida nizo kelib chiqadi. O‘ljaga tushgan bir arabi ot uchun Xorazmshohning mo‘tabar amirlaridan Sayfiddin O‘g‘roq bilan Hazora maligi Amin Malik janjallashib qoladilar. Qizishib ketgan Amin Malik tortishuv paytida O‘g‘roqning boshiga qamchi bilan tushiradi. Sulton Jaloliddin bu nizoni bartaraf qilmaydi. Xafa bo‘lgan Sayfiddin O‘g‘roq 30 ming askari bilan ketib qoladi. Qabakli turkman va xalaj sipohlari

ham sultondan yuz o'giradilar. Natijada Jaloliddinning qo'shinlari yarmiga kamayib kuchsizlanib qoladi.

Chingizxon ikki o'rtadagi masofani juda tez fursatda bosib o'tib G'aznaga yetib keladi va Jaloliddinni 1221-yilning kuzida ta'qib qila boshlaydi. Jaloliddin Chingizxonning ko'p sonli qo'shinlariga qarshi tura olmasligini payqab, avval G'aznaga, so'ngra Sind (Hind) daryosiga chekinadi. Chingizxon Sind daryosiga yaqinlashganda Jaloliddinning keyingi kuni daryoni kechib o'tmoqchi ekanligini eshitib shu kechani o'zidayoq daryoning kechuv yo'lini to'sadi. U sulton qo'shinining orqadagi qismiga yetib olib uni tor-mor qiladi.

1221-yil 9-dekabrda Jaloliddinning yarim oy shaklida joylashtirilgan hamda qanotlari bilan Sind daryosiga tiralgan oz sonli qo'shinini o'rab oladi. Sulton Jaloliddin uchun hech bir tomondan chiqib ketishning iloji yo'q edi va u noiloj jangga kirishdi.

Chingizxon Jaloliddinni tiriklayin qo'lga olishga farmon beradi. Xorazm bahodiri yetti yuzta mard yigitlari bilan jang maydoni o'rtasida arslonlardek jon berib jon olardi. Ammo Chingizxon lashkari hisobsiz edi. Uning jang maydonidagi asosiy kuchlari parokanda bo'lish arafasida turgandi. Biroq pistirmadagi 10 ming nafar saralangan lashkar jang oqibatini Chingizxon foydasiga hal qiladi. Sulton Jaloliddin vaziyatning g'oyat og'ir va mushkulligini hisobga olib, rafiqasi, onasi va farzandlarining dushman qo'lga tushishini istamay ularni Sind daryosiga cho'ktiradi. Chunki o'sha kuni mo'g'ullar Jaloliddinning qo'lga tushirilgan yetti yoshli o'g'lining yuragini tiriklayin sug'urib olgan edilar.

Jaloliddinning o'zi esa qora to'riq otiga minib, so'nggi bora mo'g'ullarga hamla qilib, so'ng oti jilovini orqaga tortadi. Sovutini yelkadan tashlab, otiga qamchi bosadi va balandlikdagi qoyadan o'zini Sind daryosiga otadi. Jaloliddin daryoning narigi sohiliga o'tib oladi va ko'zdan g'oyib bo'ladi. Daryo qirg'og'iga kelib bu voqeani kuzatib turgan Chingizxon taajjub va hayratdan yoqasini ushlaydi va "Otdan dunyoda hali bunday o'g'il tug'ilmagan. U sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang (akula) kabi botir".

Dushmandan omon-esson qutulgan Jaloliddin o'zining oz sonli askari bilan Shimoliy Hindistonning bir chekkasiga o'tib omonatgina jon saqlashga majbur bo'lgan edi. Bundan xabar topgan Shatra viloyatining podshosi chaqirilmagan mehmonlarning og'ir ahvolidan foydalanib, ularni daf qilmoqchi bo'ladi va hujum uyushtiradi. Ahvolining tangligini hisobga olgan Jaloliddin tavakkal qilib Shatra podshosini yakkama-yakka jangga chorlaydi. Bu jangda g'alabaga erishgan sultonga Shatra podshosining mingta otliq va besh mingta yaxshi qurollangan jangchilari taslim bo'ladilar va uning tomoniga o'tadilar. Bu muvaffaqiyatdan so'ng tevarak-atrofdagi yangi-yangi kuchlar Jaloliddinga kelib qo'shiladilar.

Hindiston shimolida o'z davlatini barpo etgan musulmon lashkarboshisi Shamsiddin Eltutmish ham umumiy dushman – mo'g'ullarga qarshi kurashmoq maqsadida 30 ming nafar otliq va 100 ming nafar piyoda askarlarini olib Jaloliddin huzuriga keladi. Shamsiddin Eltutmish ixtiyorida 300 ta fil ham bor edi. Shu tariqa Jaloliddin Hindiston shimolida katta davlat barpo etadi, o'z nomidan kumush va tilla tangalar zarb ettiradi hamda bir qator islohotlarni amalga oshiradi. Shundan keyin Kavkaz va Iroq hududlarida mo'g'ullarga qarshi qattiq kurash olib borgan Jaloliddin bu yerlarda ham kuchli davlat barpo etadi va uning davlati 1231-yilgacha, ya'ni Jaloliddinning fojiali o'limiga qadar mavjud bo'ldi.

Mo'g'ullar bosqini davrida boshqa joylarda bo'lgani kabi Afg'oniston hududi ham butkul vayron etildi. Xo'jalik hayoti, savdo-sotiq va madaniyat tamomila inqirozga uchradi.

## **AFG'ONISTON AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA**

Amir Temur ibn amir Tarag'ay 1336-yil 9-aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelgan paytda, Movarounnahr mo'g'ullar istibdodi ostida bo'lib, Chingizxon va Botuxon bosib o'tgan shahar va qishloqlar vayronaga aylangan, suv inshootlari

buzib tashlangan yoki ishga yaroqsiz holga keltirilgan, Chingizxon Movarounnahrni o'zining ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonga suyurg'ol sifatida in'om qilgan edi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davri (1360–1385) Movarounnahrni mo'g'ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o'zaro urushlarga barham berish. Ikkinchi davri (1386–1405) esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan xarakterlanadi.

1360-yillardan boshlab Amir Temur Movarounnahrdagi ichki nizo, urushlarda ishtirok eta boshladi hamda Mo'g'uliston hukmdori Tug'luq Temurxon va so'ngra uning o'g'li Ilyosxo'ja qarshi kurash olib boradi. Jumladan, 1361–1362-yillarda Amir Temur o'z tarafdorlari va askarlari sonini ko'paytirish maqsadida Buxoroga yetib boradi va bu yerda uning tarafdorlari 2000 kishidan oshadi.

Temur Buxorodan Qandahorga kelganida unga yana ming kishi kelib qo'shiladi. Ammo hali bu kuchlar bilan Ilyosxo'ja kuchlariga qarshi jang qilib bo'lmasligini Temur yaxshi bilar edi. Chunki uning raqiblari 100 ming kishilik qo'shin to'play olish imkoniyatiga ega edilar. Shuning uchun Temur o'z qo'l ostidagi kuchlar yordamida janubdagi ba'zi bir hududlarni egallab kuch va qudratini oshirishga qaror qiladi. Ana shu maqsadda u Garmsir viloyati (hozirgi Afg'onistonning janubiy qismi)ni egallaydi. Bu yerda ham mingta otliq turk va tojik sipohlari Temur lashkarlari sonini to'ldiradilar.

Endi o'zini ancha qudratli his qilgan Amir Temur Seiston yerlariga hamla qiladi va uni egallaydi. Bu yerdagi shiddatli jangda Temur o'ng qo'li va o'ng oyog'idan qattiq yaralanadi. Shundan keyin u ikki oy mobaynida Garmsirda davolanadi. So'ng Balxga yo'l oladi.

Balx shahriga yaqinlashgan Amir Temur mo'g'ullarning Amudaryoning ikki qirg'og'i, ya'ni Termiz va Balx atroflarida talon-taroj ishlari bilan mashg'ul ekanliklarini aniqlaydi. Sohibqiron mo'g'ullar bilan bo'ladigan hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'radi. Jangchilari orasidan eng sodiq, jasur va qobiliyatli 313 kishini tanlab oladi va ularni o'ziga yordamchilar sifatida tayinlaydi. Keyinchalik

ana shu yordamchilar uning ko'p ming kishilik qo'shinini uyushtirish va boshqarishda asosiy o'zak bo'lib xizmat qiladi.

Temur Balxda turib Termiz atrofida joylashgan Ilyosxo'ja kuchlarining joylashishi to'g'risida xabar keltirish uchun u yerga o'z ayg'oqchilarini yuboradi. Ayg'oqchilar Ilyosxo'ja askarlari Termiz atroflarida xalqni talon-taroj qilish bilan shug'ullanayotganligini aniqlaydilar. Bu hol Temur lashkarlari safiga yangi-yangi kuchlar kelib qo'shilishini ta'minlaydi. Shu sababdan Amir Temur vaziyatni har tomonlama hisobga olib kuchlari Ilyosxo'janing kuchlariga nisbatan o'n barobar kam bo'lsa-da, urush boshlashga qaror qiladi.

Jang 1363-yilda Jayhunning chap sohilida Qunduz shahri yonida bo'ladi. Amir Temur o'z qo'shiniga nisbatan o'n barobar ko'p bo'lgan dushman qo'shinlarini batamom mag'lubiyatga uchratadi va o'zining buyuk sarkardalik mahoratini ko'rsatadi. 1365-yilning may oyida Toshkent yaqinidagi Chinozda Sirdaryo bo'yida Ilyosxo'ja qo'shini bilan bo'lib o'tgan navbatdagi jangda Amir Temur o'z ittifoqchisi Amir Husaynning harakatsizligi tufayli jang maydonini tark etishga majbur bo'ladi. 1366–1370-yillar oralig'ida Amir Temur o'z e'tiborini ichki ishlarga qaratdi hamda o'z qo'shinini kuchaytirishga intildi.

Mo'g'ullarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib borayotgan Amir Temurning obro'si kundan kunga oshib boradi. Bu esa o'z navbatida Amir Husaynga yoqmaydi. O'rtada nizo chiqib bir necha janglar bo'lib o'tadi. Nihoyat, hal qiluvchi jang 1370-yilning aprelida Balx shahrida bo'lib o'tadi. Jang natijasida Balx egallanib Amir Husayn qatl etiladi.

1370-yilning 11-aprelida Balx shahrida yirik Qurultoy bo'lib o'tadi va unda yurtning barcha beklari, amirlari, viloyat va tumanlarning dorug'alari hamda sayyidlari, shuningdek, Amir Temurning yoshlikdan birga o'sgan quroldosh do'stlari va piri Sayyid Baraka ishtirok etdilar.

Mavjud an'anaga ko'ra chingiziylardan Suyurg'atmishxon mamlakat hukmdori deb e'lon qilingan bo'lsada, amalda markaziy hokimiyatni Amir Temurning o'zi boshqardi, viloyatlardagi ho-

kimiyatni o'g'illari, nabiralari va yaqin amirlari orqali idora qildi. Samarqand Amir Temur davlatining poytaxtiga aylantirilib, o'sha yilning yozida shahar devori va qal'asi tiklandi, saroy va qasrlar bino qilindi. 1370-yil kuzi va 1371-yil bahorida Amir Temur amir Zinda Chashmga zarba berib, hozirgi Afg'oniston shimolidagi Shibirg'on viloyatini bo'ysundirdi. Balx viloyati atroflarida ham Amir Temurning hokimiyati yanada mustahkamlandi.

Amir Temur tarqoq va o'zaro urushlar girdobiga botgan qo'shni davlatlar va xalqlar shu jumladan, Xuroson, Eron va hozirgi Afg'oniston hududlariga bir necha bor yurishlar qilib bu yerlarni o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi. Mazkur hududlardagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ham uning uchun juda qo'l keldi.

Amir Temur harbiy yurishni Xurosondan boshladi. 1381-yil u Hirotni egalladi. Saraxs, Jom va Qavsiya shaharlari jangsiz taslim bo'ldi. Xuroson, xususan uning poytaxti Hirot strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, Eron, Iroq, Shom va boshqa mamlakatlarga o'tishda ko'prik vazifasini o'tardi.

1381–1384-yillar davomida Amir Temur Eronning katta qismini egalladi. Avval (1381) Kalot, Turshiz va Sabzavor, keyin (1383) Seistonning Zireh, Zova, Farah va Bust qal'alari, 1384-yilda esa Astrobod viloyati va Ozarbayjonning Omul, Sori, Sultoniya va Tabriz shaharlari bo'ysundirildi. Amir Temur Eron, Ozarbayjon, Iroq va Shom (Suriya) ustiga uch marta lashkar tortdi. Bu yurishlar tarixda “uch yillik”, “besh yillik” va “yetti yillik” urushlar nomi bilan mashhur. Uch yillik (1386–1388) harbiy yurishlar oqibatida Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi, Gurjiston va Van ko'li atrofidagi yerlar egallandi.

Amir Temurning 90 ming kishilik qo'shin bilan Hindiston ustiga qilgan yurishi (1398-yil may – 1399-yil mart) qariyb o'n bir oy davom etdi. Hindiston tomonga yurish qilar ekan, uning yo'li jangovar afg'on qabilalari istiqomat qiluvchi aksariyat tog'li hududlardan o'tishini yaxshi bilar edi. Ushbu yo'ldan qadimda Iskandar Makedonskiy ham o'tganligini va mahalliy aholi uning qo'shiniga katta ziyon yetkazganligidan yaxshi xabardor edi.

Buyuk sarkarda Kobul va uning janubiy-sharqida yashovchi afg'onlarning g'ilzoy qabilalari hududidan o'tayotganda ayniqsa, ularning jiddiy qarshiligiga uchraydi. Dastlab g'ilzoylar o'zlarining o'ziga xos harbiy quroli – keskirliги bilan ajralib turuvchi temir halqalar bilan Amir Temur qo'shiniga katta talafot yetkazadilar. Shu bilan birga, Amir Temur tog'li hududda istiqomat qiluvchi qaysi afg'on qabilasi hududidan o'tmasin ular albatta muhim va strategik ahamiyatga ega cho'qqilarga joylashib olib, Amir Temur qo'shiniga jiddiy qarshilik ko'rsatar hamda qo'shinning keyingi harakatini butkul to'sib qo'yar edi. Sohibqiron afg'onlarning ushbu tadbiriga qarshi tog'li hududlarda jang olib borish ko'nikmalarini puxta egallagan maxsus guruh (zamonaviy armiyalardagi "tog'li diviziya"larga o'xshash) tayyorlaydi va ular ko'magida hatto o'z jangchilarini sandiqlarga solib tog' cho'qqilariga olib chiqqanligi to'g'risida ham tarixiy manbalar ma'lumot beradi. Shuningdek, g'ilzoylarning keskirliги bilan ajralib turuvchi temir halqalariga qarshi Amir Temur poroxdan foydalanishga buyruq beradi va shu orqali ularning qarshiligini sindiradi.

1398-yilda Hindistonga yo'l olar ekan, Amir Temurga g'ilzoy qabilalari ko'makchi bo'ladilar va uning 100 ming kishilik qo'shini tarkibiga yana g'ilzoylarning 20 ming kishilik qo'shini kelib qo'shiladi.

Amir Temur Afg'onistonning tog'li hududlaridan o'tib 1398-yilning dekabrda Hindiston poytaxti Dehli shahriga yetib boradi. Shahar ostonalarida bo'lib o'tgan jangda Amir Temurga qarshi Dehli hukmdori Sulton Mahmudxon o'zining jangovar fillardan iborat katta qo'shinini tashlaydi. Jangovar fillar hamlasini fillarning oyoqlariga sanchiluvchi tikanli simlarni tashlash hamda ustiga o'tin bog'langan va yoqib yuborilgan tuya hamda yovvoyi ho'kizlarni fillarga qarshi haydash orqali bartaraf etgan Amir Temur jangda g'alaba qozonadi. Shundan so'ng Dehli shahrini qamal qilgan qo'shin shaharni egallagach, shahar aholisining qo'zg'olonini bostira olmaydi. Bunda Amir Temur o'zining ming nafar saralangan jangchidan iborat maxsus gvardiyasi – "ming qo'shin"ni ishga soladi va Dehli shahri aholisi qo'zg'olonini bostiradi.

Amir Temur Hindistondan katta o'lja, shu jumladan 120 jangovar fil bilan qaytdi. O'ljalarning bir qismi qo'shinga taqsimlab berildi, qolgani Samarqand va Kesh shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga sarflandi.

Sohibqiron Amir Temur Xitoyga qilinayotgan harbiy yurish vaqtida qattiq og'rib, 1405-yil 18-fevral kechasi O'tror hokimi Berdibekning saroyida vafot etadi. Amir Temur o'ziga voris va taxt valiahdi etib nevarasi Pirmuhammad Jahongirni vasiyat qilib qoldiradi.

Amir Temur barpo etgan buyuk saltanat (jami o'z ichiga 27 ta o'lka va viloyatlarni jam etgan) garchi Temurning mahorati va kuch-qudrati ila mustahkam turgan bo'lsa-da, lekin u ichki jihatdan siyosiy ancha zaif edi. O'g'illar, nabiralarga mamlakatning qism-qismlarga bo'lib berilganligi va suyurg'ol tartibi ham Temur davlati parokandaligini kuchaytirar edi. Temur jasadi Samarqandda dafn etilishi va motam marosimlari tugamasdanoq, toj-u taxt uchun shahzodalar o'rtasida o'zaro kurash kuchayib ketdi.

Kobul va shimoliy hind mulklarning hokimi bo'lmish, Pirmuhammadni ko'pchilik taxt egasi sifatida ko'rishni xohlamas ham edi. Buning ustiga u ancha uzoqda bo'lib, Samarqandga tezlik bilan yetib kelish uchun imkoni ham yo'q edi. Temur vafotidan so'ng Movarounnahr, Xuroson, Eron, Ozarbayjon, Iroq va boshqa yerlarda notinchlik boshlanib, g'alayonli vaziyatlar yuzaga kela boshladi. Sekin-asta Temur kuch-qudrati bilan barpo etilgan buyuk saltanatga putur yeta boshladi.

Fosix Xavofiy Temurdan so'ng tirik qolgan uning o'g'il va nabiralarini sanab, jami ularning soni 36 taga yetishini ta'kidlagan edi. Ayniqsa ular orasida Shohruh (1377–1447)ni va uning o'g'li Ulug'bek (1394–1449) alohida hurmat bilan tilga olib o'tilgan. Shu davr muarrixlari taxt egaligiga ko'proq Shohruhni ma'qul ko'rib, uning insoniy sifatlariga yuqori baho berar edilar. Shohruh taxt egasi bo'lishidan avvalroq ham o'zining oqil va ilmli, zukko va taqvodorlik sifatleri bilan hurmat qozongan edi.



Temurning sadoqatli amirlaridan ko'pchiligi jumladan Shohmalik va Shayx Nuriddinlar ham toj-u taxt Shohruh Mirzoga tegishi tarafdori edilar. Shunday bir vaqtda Mironshoh Mirzoning o'g'li shimoliy yerlar (Toshkent, Sayram, Turkiston) hokimi Xalil Sulton (1384–1409) shoshilinch ravishda o'zining ming chog'li askari bilan 1405-yilning 18-mart kuni Samarqandni egallaydi va o'zini Movarounnahr hukmdori deb e'lon qiladi.

Hatto u Pirmuhammadga tegishli Amudaryoning o'ng betidagi yerlarni ham o'z tasarrufida deb e'lon qiladi. Avval boshda uni qo'llagan Movarounnahr amirlari, harbiy-sarkardalar ko'p o'tmay undan ixloslari qayta boshlaydi. Xalil Sulton davlat xazinasini o'z holicha sovura boshlaydi. Shohruh bilan birinchi o'zaro nizodan so'ng Xalil Sulton garchi uning oliy hukmdorlik huquqini tan olsa-da, Movarounnahr uning ixtiyorida qolajagini ma'lum qiladi.

Xalil Sultonni Iroq tomonidan boshqa bir kuch, otasi Mironshoh Mirzo ham qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Siyosiy kaltabinlik yo'lini tutgan Xalil Sultondan norozilik tobora kuchaya boshlaydi. Farg'ona hokimi Amir Xudoydod Xalil Sultonga qarshi bosh ko'taradi. Shohruhning sadoqatli kishisi bo'lmish Shayx Nuriddin O'tror hokimi, o'z ukasi bo'lmish Berdibek bilan birga boshqa bir isyon ko'tarilishiga sababchi bo'ladi. Xalil Sultonning ukasi Mirzo Sulton Husayn Amudaryo bo'ylarida o'z akasiga qarshi bosh ko'taradi. Xorazm esa Oltin O'rdalik taniqli sarkarda Amir Idiqu O'zbek tomonidan ishg'ol etiladi. 1405–1406-yillarda Xalil Sultonning Shohruh, Pirmuhammad qo'shinlari bilan Movarounnahr taxti uchun bir necha bor harbiy to'qnashuvi sodir bo'ladi. Butun Temur saltanati o'zaro toj-u taxt kurashlari domiga tortiladi. Yagona hisoblangan saltanat Shohruh boshqarayotgan Xuroson, Balxdan to Hind yerlarigacha bo'lgan yerlarga hokim Pirmuhammad, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq tasarrufida bo'lgan Mironshoh va uning avlodlari (Umar Mirzo, Abu Bakr) yerlariga bo'linib ketdi. Movarounnahr Xalil Sultonga rasman qarashli, deb hisoblansada, Turkiston, O'tror, Sayramda Amir Berdibek, Farg'onada esa Amir Xudoydod hukmronlik qilishar edi. Ularni barcha Temuriylar

saltanatining yuragi bo'lmish Movarounnahrni egallash istagi tark etmas edi.

Movarounnahr hokimi Xalil Sultonning o'z holicha ish tutishi, temuriy zodagon, amirlarning kamsitilishi, musulmon ulamolari, jumladan, Naqshbandiya tariqatining taniqli shayhi Muhammad Porsoning tahqirlanishi muxolif kuchlarning dushmanligini kuchaytirib yubordi. Shu vaqtning o'zida o'zaro fitna g'alayonlarning navbatdagi qurbonlari ham paydo bo'ladi.

1407-yil 22-fevralda taxt valiahdi hisoblangan Pirmuhammad o'zining vaziri Pirali Toz tomonidan suiqasd natijasida o'ldiriladi. (Keyinchalik o'zini Pirmuhammadning "Qasoskori" deb e'lon qilgan Shohruh Pirali Tozni Hirotda qatl etadi.)

Shundan so'ng garchi Shohruh Xurosonda tinchlik o'rnatib, mamlakatni barqaror boshqargan bo'lsa-da, uning vafoti (1447)dan keyin Xuroson hududida ham parokandalik va o'zaro urushlar juda ham kuchayib ketadi. Natijada XV asr ikkinchi yarmi va XVI asr boshlariga kelib Afg'oniston hududidagi yirik shahar va viloyatlar ham mustaqil bo'lib oldilar.

XVI asr boshlarida Afg'onistonning tarkibiy qismlari orasida Kobul markaziy o'rinni egallagan. Afg'onistonning o'rta asrlarga oid tarixiy manbalarida Kobul viloyati sifatida ma'lum bo'lgan poytaxt, shuningdek, Qandahor, Hirotda, Badaxshon, G'azna, Qunduz va boshqa viloyatlar o'z davrining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida o'ziga xos o'rin egallagani qayd etilar ekan, bu jarayonlarda Boburiylar sulolasining hissasi va o'rni nihoyatda muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rish mumkin.

Boburiylar sulolasining asoschisi, Zahiriddin Muhammad Bobur XV asr oxirlarida Movarounnahr taxti uchun kurash avjiga chiqqan, temuriy shahzodalar o'zaro kurashayotgan, mahalliy zodagonlar boshchiligida mamlakat ko'pdan-ko'p viloyatlarga parchalanib ketgan hamda siyosiy fitnalar uyushtirilayotgan bir sharoitda siyosiy kurash maydoniga kirib keldi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan Samarqandni egallash orqali Amir Temur

saltanatini qayta tiklash va Movaraunnahrda kuchli markazlashgan hokimiyatni oʻrnatish edi. Biroq, davr taqozosi bilan buni amalga oshirishda muvaffaqiyatsizlikka duch kelgan Bobur oʻzining kam sonli 200–300 navkarlari bilan Hisor togʻlari orqali Afgʻoniston tomon yurish boshlaydi va u yerdagi ichki nizolardan foydalangan holda 1504-yilda Kobul va Gʻaznani ishgʻol etadi<sup>21</sup>. Bu davrda Kobul Muqimxon (Zunnunbek Argʻun oʻgʻli) hukmronligi ostida edi. Kobul viloyati hukmdori Qandahor tomon chekinadi.

Boburning Fargʻonani tark etib Kobulni zabt etishiga cha boʻlgan davr mobaynida uning qoʻl ostiga koʻplab qavm boshliqlari oʻz oilalari, odamlari va xoʻjaligi bilan Boburning qoʻl ostiga kelib qoʻshilishdi. Ularning koʻpchiligini Shayboniyxonning odamlari bostirib kelganda Bobur mirzoni yonida boʻlish xavfdan xoliroq deb hisoblovchilar hamda Qunduz shahri hokimi Xisravshohning hokimiyati kuchsizlanib qoʻshini tarqab ketayotgan bir paytda undan ajralib chiqqan moʻgʻullar ulusi vakillari tashkil etishardi.

Maʼlumki, darbadarlikda yurib koʻplab elatlarni bir qanot ostiga birlashtirish qiyin masala. Ayniqsa Xisravshohdan kelib qoʻshilgan odamlar zulm va boshboshdoqlikka oʻrgangan edilar. Ular mahalliy xalqqa zulm qila boshladilar, oziq-ovqat va oʻlja olish niyatida yoʻlda uchragan qabilalarga hujum qilib, molini talashardi. Tabiiyki boshqa bu holda davom etish mumkinmasligini fahmlagan Bobur qattiqqoʻllikka oʻtadi. U oʻz asarida shunday deydi: “Oxiri Saydim Ali Darbonning bir zoʻr navkarini birovning bir koʻza yogʻini tortib olgani uchun oʻrdaga keltirib tayoqlatdim. Tayoq ostidayoq jon berdi. El bu siyosatdan batamom bosildi”. Boburning bu siyosati kelajakda qoʻshini oʻrtasida tartibsizlik holati yuz bermasligi uchun olib borilgan eng toʻgʻri yoʻl edi.

Dastlab “Boburnoma”da yozilishicha Qorabogʻdagi Oq Saroyda toʻxtagan Bobur oldida ikki yoʻl turar edi yo Kobulga oʻsha paytning oʻzida kirib borish, yo Sayyid Yusufi va boshqa navkarlarning

---

<sup>21</sup> Barfield, T. *Afghanistan: a Cultural and Political History*. – New Jersey: Princeton University Press, 2010. – P. 75.

fikriga qo'shilib, qish yaqinligi sababli Lag'monga borib qishlab, so'ng Kobul sari yurish. Boqi Chag'aniyonning qattiq qistovi ostida birinchi variant ma'qul deb topiladi.

Kobul va uning atrofidagi qishloqlarning joylashuvi Bobur mirzoga yaxshi tanish edi. Bu yerda keyingi yillarda Boburning amakilaridan biri, oxirgi temuriy shahzodalarning ulug'i Ulug'bek mirzo hukmronlik qilar edi. Uning vafotidan so'ng uch yashar o'g'li Abdurazzoq mirzo valiahd sifatida taxtga o'tqazilgan. Biroq mahalliy mulkdorlardan bo'lgan Muqim Arg'un undan hokimiyatni tortib olgandi. Bobur mirzo o'z o'rnida Muqim Arg'unga bir necha marotaba chopar yuborib muzokaralar o'tkazadi, ammo u javobni ortga suraveradi. Uning bunday xatti-harakati Bobur mirzoning ta'kidlashi bo'yicha bundan oldin Bobur tomonidan Qorabog' bosib olingandan so'ng navbat Kobulga kelganini fahmlagan Muqim darrov otasi va akasiga chopar yuborib harbiy yordam kutishiga asoslangan.

Ammo bu paytda Bobur Cholokda o'rnashib olib o'z qo'shinini uch qismga bo'lib, o'zi markaziy qismga bosh bo'lib, Haydar Toqi bog'i va Qul Boyazid maqbarasi o'rtasida joylashadi, o'ng qanotga Jahongir mirzo bosh bo'lib Chorbog'da joylashadi va chap qanot Nosir mirzo boshchiligida Qutluq Qadam go'rxonasining orqasidan joy olishadi. Tarixdan ma'lumki, jangda o'zi ilg'or chiqib lashkarni ortdan ergashtirgan sarkardaga ko'pchilik navkarlar ergashadi va muvaffaqiyat ta'minlanadi. O'zi ortda turib, lashkarni oldinga undagan sarkardaga har doim ham omad kulib boqavermaydi. Bobur mirzoning qo'shin markazida qal'a tomon kelishi kobulliklarga ta'sir ko'rsatmay qolmadi. U kobulliklarning xatti-harakati haqida shunday deydi: "Arkning tuproq o'yilgan tepaligiga ko'plab kobulliklar tomoshaga chiqqan edilar. Qochayotganda rosa chang-to'zon ko'tarishib, o'zlarini ichkariga olishdi. Darvoza bilan ko'prik orasidagi yo'l o'rtasiga kobulliklar chuqur qazishib, ustini xast-xashak bilan berkitgan ekanlar. Sultonquli Chinoq va boshqa bir necha kishilar qopqon ustiga kelganda chuqurga yiqildilar. O'ng qanotdan kelgan bir necha yigitlar Ko'chabog' oralab chiqqanlar bilan bir-

ikki qilich solishib olishdilar. Jang boshlashga farmon bo‘lmagani uchun ular shu bilan cheklanib, orqaga qaytishdi”.

Shundan so‘ng qal‘a ichida tartibsizliklar boshlanadi dushmanga yetarli qarshilik ko‘rsata olishmasliklarini tushunib yetgan Muqim Arg‘un va amaldorlar Boqi Chag‘aniyon vositachiligida qo‘rg‘onni Boburga topshirishga qaror qilishdi. Ikki tomon kelishuviga binoan ertasi kuni Muqim oila a‘zolari, mol-mulki va xizmatkorlari bilan chiqib qal‘ani topshirdi.

Tabiiyki xalq yangi hukmdorni ochiq qo‘l bilan kutib olmaydi. Kutilishi mumkin bo‘lgan to‘s-to‘polonni oldindan sezib, erta tongda Bobur ishonchli kishilarini qal‘a darvozasida osoyishtalikni ta‘minlash uchun jo‘natdi. Ular darvoza oldidagi xalqning to‘poloni va g‘avg‘osini ko‘rib: “Siz kelmaguncha bu elni hech kim tinchita olmaydi”, deb Boburga chopar yuborishadi. Shundan so‘ng Bobur yana qattiqqo‘llik siyosatini tutadi: “To‘rt-besh kishini o‘q bilan otib, bir-ikki kishini parcha-parcha qildirdim. G‘avg‘o bosildi”, – deb yozadi Bobur o‘z kitobida. Bobur o‘sha davr Afg‘oniston tarixini batafsil yoritgan, noyob va qimmatli manba hisoblangan o‘zining “Boburnoma” asarida bu haqida quyidagicha fikr yuritadi: “Rabi ul-avval oyining oxirida Tangri taoloning fazlu karami bilan Kobul va G‘azna mulk hamda viloyatlari jang-jadalsiz menga muyassar bo‘ldi va fath etildi”. Shuningdek, Bobur ushbu asarda Kobul viloyati haqida ham aniq tafsilotlar berganligini ko‘rish mumkin: “Kobul viloyati to‘rtinchi iqlimdir. Shahar obod yerlarning o‘rtasida joylashgan. Sharqi Lamg‘onot, Purshovar, Hashnag‘ar va ba‘zi Hind viloyatlaridir. G‘arbi tog‘li maskanlardir, Karnud va G‘ur o‘sha tog‘lardadir. Hozirgi paytda hazora va nakdariy qavmlarining maskani shu tog‘lardir. Shimoli Hindikush tog‘iga tutashgan (Hindikush tog‘i vositadur) Qunduz va Andarob viloyatlaridir. Janubi Farmul, Nag‘ar, Bannudir. Afg‘oniston kichik viloyatdir. Uzunasiga cho‘zilgan. Sharqdan g‘arbga tomon yastangan. Atrof-tevaragi batamom tog‘dir. Qal‘asi toqqa tutashgan. Qal‘aning g‘arbi-janub tarafida kichikroq tog‘ bor. U tog‘ning cho‘qqisida Kobul shohi imorat qilgani bois bu tog‘ni Shohi Kobul deydilar”. Bunday il-

miy talqin bevosita bugungi Afg'oniston deb atalmish mamlakat tarixiga ham daxldor. Chunki Bobur davridagi "Afg'oniston" hozirgi hududni egallamagan, davlatning nomi ham "Afg'oniston", deb yuritilmagan.

"Boburnoma"dagi "Afg'oniston" o'sha payt yashagan pashtun millatiga mansub afg'on qabilalarining istiqomat qilib kelgan joylarini anglatadi (bugungi Qandahor, Paktiya, Logar, Jalolobod va boshqa joylar). Boburning Hindikush tog'ini "vosita" deyishida ham jon bor. Haqiqatda, bu eng baland va qorli tog' Xuroson o'lkasini janubdagi afg'on, baluj va hindlar yashaydigan o'lkalardan ajratib turgan, uni oshib o'tadiganlar uchun vosita – ko'prik vazifasini bajargan.

"Boburnoma"ning yana bir ahamiyatli jihati shundan iboratki, unda hududlarning geografik joylashuvi keng ochib berilgan. Aynan afg'on ko'chmanchi xalqlarining bu davrda qayerda o'rnatilgan va ta'sir doirasini o'rganish bo'yicha ham asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Bobur Kobul shahrini ta'riflar ekan uni "to'rtinchi iqlimdandur. Ma'muraning o'rtasida joylashgan" – deydi. Umuman olganda Kobulni ma'muraning o'rtasida, ya'ni yashab turgan dunyoning o'rtasida joylashgan deb ta'kidlashi, uning geografiyadan yaxshi xabardor bo'lganligini anglatadi. Undan tashqari uni bunday qarorga kelishiga, Kobulning Xuroson va Hindistonning o'rtasida joylashganligi sabab bo'lishi mumkin.

Bobur mirzo o'z fikrini davom ettirgan holda shunday deydi: "Kobul kichkina viloyatdur. Uzunasiga cho'zilgan. Sharqdan G'arb tomon yastangan. Tevarak-atrofi batamom tog'dur. Kobul qal'asi tog'larga kirib boradi. Qal'aning janubi g'arbi tog' bilan o'ralgan bo'lib, Kobul shohi u yerda imorat solgan, shu sababli u yerni Shohi Kabul derlar. Bu tog' Durin darasidan boshlanib, Dehi Yoqub darasida tugaydi".

Bobur mirzoga shahar shunisi bilan ma'qul bo'ldiki, bu yerlarda ko'plab bog'larni va bog'lar bo'ylab oqayotgan ariqlarni uchratish mumkin edi. Qal'a janubi va Shohi Kobulning sharqida katta ko'l tushgan bo'lib, bu yerdan Kobulga qarab uchta kichik chashma

chiqadi. Ulardan ikkitasi Gulkinaning yon-atrofida oqadi. Birining oldida Xoja Shamu mozori joylashgan bo‘lib, ikkinchisini yonida Xoja Xizrning mozori qo‘yilgan. Kobul aholisi mana shu yerlarda sayr qilishni yoqtirishadi. Uchinchi chashma bo‘lsa, Xoja Abdusamad mozori qarshisida oqib o‘tadi.

Kobul qal‘asining arki Uqbayn qoyasi yonidagi tog‘ ustida joylashgan. Katta qo‘rg‘on arkning shimoliy tarafida bo‘lib, ark ajoyib tarzda balandda joylashgan. Arkdan turib pastga qarasa ko‘l va uchta yaylovni ko‘rsa bo‘ladi. Ular Siyohsang, Sunan qo‘rg‘on va Cholok bo‘lib ularning hammasi arkning pastida yastanib yotib, oyoq ostida turgandek ko‘rinadi. Yoz chog‘lari Kobulda shimoliy yel esib turadi. Uni Parvon yeli deyishadi.

Bobur yangi qo‘lga kiritgan shahri ta‘rifini keltirar ekan, uning faqatgina tabiatini ko‘klarga ko‘tarib qolmay, balki Kobulning geografik jihatdan joylashgan o‘rni uning tashqi aloqalarda iqtisodiy-siyosiy mavqeini oshirishini aytib o‘tadi.

“Hindiston va Xuroson o‘rtasida quruqlik yo‘lida ikkita savdo shahri joylashgan, biri – Kobul, ikkinchisi – Qandahor. Farg‘ona, Turkiston, Buxoro, Balx, Hisor va Badaxshondan kelgan karvonlar – Kobulda to‘xtashadi. Xuroson karvonlari esa – Qandahorda to‘xtaydi. Hindiston va Xurosonni bog‘lovchi vosita Kobul viloyatidir. Ko‘p yaxshi savdo maskanidir. Savdogarlar Xitoy va Rimga borsalar shuncha savdo qilardilar. Har yili Kobulga yetti, sakkiz yoki o‘n ming ot olib kelinadi, janubiy Hindistondan o‘n, o‘n besh yoki yigirma ming buqa olib kelinadi. Hindistondan oq mato, shakarqamish, chaqmoq qand, shakar, ziravorlar olib kelinadi. Ba‘zi savdogarlar uchdan bir, to‘rttan bir daromadiga qoniqishmaydi. Kobulda Xuroson, Iroq, Rim va Xitoydan keltirilgan mollarni topish mumkin. Bu shahar Hindistonning savdo bandargohidir”.

Mutaxassislarining fikriga ko‘ra, Bobur Kobulga kelayotgan savdo karvonlarini ta‘riflashda qizishib ketgan. Buni asoslashda Kobulning XVI asrgacha bo‘lgan siyosiy ahvoliga to‘xtalish zarur. Tarixdan ma‘lumki, Kobul kichkina shahar bo‘lib, siyosiy markazlashmagan, undan tashqari uni har tomonlama yuksaltiruvchi ya-

gona kuchli hukmdoriga ham ega bo'lmagan. Bu haqida Boburning o'zi ham asarida quyidagilarni keltirib o'tadi: "Kobulning ajoyib xususiyatlari ko'p bo'lib ulardan biri shuki, kobulliklar hech bir hukmdorni tan olmas edilar". Undan tashqari shahar tabiiy yopiq zonada joylashgan, dovonlardan kechib o'tish har doim ham muvaffaqiyatli bo'lavermagan (bunga qaroqchilarning ham ma'lum bir hissasi bor). Shunday ekan bu yerda savdo-sotiqning Bobur mirzo aytganchalik rivojlanganligiga shubha bilan qaraladi.

Bobur Kobul ta'rifini keltirar ekan, uning ajoyib iqlimga ega ekanligiga urg'u berib o'tadi. "Issiq va sovuq iqlimi tutashib ketgandir. Kobuldan bir kunda sira qor yog'maydigan joyga borsa bo'ladi. Ikki soatda esa umuman qor kamaymaydigan joyga yetib borish mumkin. Ammo kamdan kam holatda shunday yoz keladiki, butun qorlar erib ketadi".

Bobur Andijon qovunlari va uzumlarini havas bilan eslar ekan, Kobuldagi mahalliy mevalarni ham sinchkovlik bilan ta'riflaydi. U mevalarni pasttekislikdagi iliq iqlimda va tog' etaklaridagi salqin iqlimda yetishtiriladigan turlarga bo'ladi. Salqin iqlim mevalariga uzum, anor, o'rik, nok, shaftoli, olma, behi, xurmo, bodom va yong'oq kabilarni kiritadi. "Men olcha ko'chatlarini olib kelib ekishni buyurdim. Olcha ko'chatlari yaxshi o'sdi, hozirgacha meva beradi", – deydi Bobur.

Iliq iqlim mevalari esa Lag'mondan keltiriladigan apelsin, mandarin va shakarqamishdan iborat edi. "Men Kobulda shakarqamish ekishga buyruq berdim". Kedr yong'oqlari Kobulga Nijrovdan keltirilgan. Kobulni o'rab turgan tog'lardan asal mahsulotlari katta miqdorda olib kelingan. Faqatgina G'azna atrofini o'rab turuvchi tog'lardan asal keltirilmagan. Bobur mirzo Kobul mevalari ichida "obi angur" deb ataluvchi uzumga to'xtalib o'tib, judayam yaxshi uzum ekanligini va undan yuqori navli may tayyorlanishini aytib o'tadi.

Samarqand va Andijon nonlariga o'rgangan Boburga tabiiyki, yangi iqlim nonlari xush kelmaydi. Uning yozishiga ko'ra, Kobul nonlari yaxshi emas, ammo agar Xuroson bug'doyidan qilingan bo'lsa yeyishli bo'ladi. Bobur mirzoning xulosasiga qaraganda Ko-



bulda g'alla va don mahsulotlari ko'p iste'mol qilinadi, biroq g'alla yetishtiriladigan maydonlar tog'liklar qo'lida edi. G'allani ulardan olish lozim edi. Bu esa milliy iqtisodiyot masalasi bo'lib, uni yechish har doim ham oson ko'chmasdi. Hayvonot uchun o'tloqlar masalasi ham yechilishi murakkab bo'lgan muammolardan edi. O'tloqlardagi so'na kabi yirtqich pashshalar yilqilarga juda azob berardi. Kundalik maishiy va harbiy harakatlarni otsiz amalga oshirish mumkin emas edi. Xullas, Bobur mirzo bozor va g'alla masalasini o'ziga xos talabchanlik bilan tahlil qilib chiqadi.

Albatta, tog'lar bilan o'ralgan shaharning havosi toza va yoqimli bo'ladi. Tabiatdagi hodisalarni chuqur tahlil qiladigan Bobur mirzo esa Kobul havosini o'z kundaligida qoralamay ketolmasdi. U shunday yozadi: "Kobulning juda latif havosi bor. Kobul havosidek havoli yer olamda borligi ma'lum emas. Yozlarda kechalari po'stinsiz yotib bo'lmaydi. Qishda, garchi qor aksar katta tushsa-da, lekin qattiq sovug'i yo'qdir. Samarqand va Tabriz ham xushhavoligi bilan mashhurdir, lekin u shaharlarda qattiq sovuq bo'ladi".

Bobur mirzo tevarak-atrofnı sinchiklab ko'zdan kechirib shunga amin bo'ladi, Kobulda tog'lar bilan bir qatorda yaylovlar ham ko'pligiga o'z e'tiborini qaratadi. "Kobulning atrofida to'rtta ajoyib yaylovlar bor. Shimoli sharqiy tarafda So'nak yaylovi Kobuldan 2 kurux narida yastanib yotibdi. Unda o'sayotgan maysalar otlar uchun juda foydalidir.

Kobuldan 1 kurux narida shimoliy g'arbdagi Cholok yaylovida, yoz mavsumi chivinlar otlarni bezovta qiladi.

Janubdagi Devrin va Qo'sh Nodir yaylovlari Kobuldan 1 shar'iy uzoqlikda joylashgan. Yaylovlar uncha katta bo'lmay ulardagi maysalar otlar uchun juda foydali. Ammo eng asosiysi, u yerlarda chivinlar yo'q bo'lib, ular Kobuldagi yaylovlar ichida eng yaxshisidir.

Sharqda yana Siyohsang yaylovi mavjud. Charmgaron darvozasi bilan bu yaylov o'rtasida Qutluq Qadam qabri joylashgan. Bu yaylovga tutashib ketuvchi yana Qamariy yaylovi ham mavjud. Shunday qilib Kobulda oltita yaylovlar mavjud bo'lib, ulardan to'rttasining nomi mashhurdir".

Bobur mirzo shaharni sinchkovlik bilan o'rganar ekan, o'zi uchun qo'l keladigan tabiat tuhfasiga e'tibor beradi: "Kobul berk shahardir. Balx, Qunduz, Badaxshon hamda Kobul shahrining o'rtasida Hindikush tog'lari yastanib yotibdi. Bu tog'lardan yettita yo'l o'tib, uchta yo'l Panjsherdan o'tadi. Hammasidan yuqorida Javak (Xavak) dovoni, pastroqda Tul dovoni, undanam pastda Bozorak dovoni joylashgan. Bularning ichida yurish uchun eng qulayi Tul yo'lidir, ammo undagi yo'l biroz uzunroqdir.

Eng to'g'ri yo'l Bozorak bo'lib, Tul va Bozorakdan o'tadigan yo'l Sarobga tushadi. Sarob aholisi Bozorak dovonini – Parondiy deb atashadi. Chunki bu dovon Parondiy qishlog'iga olib boradi. Yana bir yo'l bor bo'lib, uni Parvon derlar. Katta dovon bilan Parvon dovoni o'rtasida yana yettita dovon joylashgan bo'lib, ularni Haftbacha derlar. Andarob tomondan ikkita yo'l keladi, ular katta dovonda kesishib, Haftbacha orqali Parvonga boradi. Bu judayam mashaqqatli yo'ldir. G'o'rbandda yana uch yo'l mavjud bo'lib, Parvonga borishning eng qisqa yo'li Yangi Yo'l dovoni orqali o'tishdir, bu yo'l esa Valiyon va Hinjonga boradi. Boshqa yo'l Qipchoq dovoni orqali o'tib, Qizil suv va Andarob daryolari kesishgan joyga olib boradi.

Yana bir yo'l – Shibartu orqali o'tgan bo'lib, yozda suvlar ko'tarilganda, bu dovon orqali Bomiyon va Sayg'onga boriladi. Qishda Shibartu yo'lidan boshqa barcha yo'llar to'rt-besh oyga yopilib, Shibartudan Obdara orqali yuriladi. Odatda tog' dovonlari mahalliy qabilalar nazoratida bo'lib, ular ba'zan karvonlarga hujum qilib, ularning mollarini talaydilar".

Bobur mirzoning keltirgan ma'lumotlarini xulosa qilib aytadigan bo'lsak, shimol va janubga olib boradigan yo'llardan faqat yoz oylari borish mumkin. Besh oy davom etadigan, qishda dovonlarni qor bosib yo'llar to'siladi, bahorda esa ularni suv bosib toshqin ostida bo'ladi. Umuman olganda Kobul shahrining bunday keng va chuqur o'rganilishi tarixda Bobur mirzogacha kuzatilmagan. Shu sababli ham uning bergan ma'lumotlari o'ta qimmatli hisoblanadi.

Xurosondan keladigan yo‘l Qandahor orqali o‘tib, bu yo‘l ravon va unda hech qanday dovonlar yo‘q.

Hindiston tomondan esa to‘rtta yo‘l chiqadi. Bitta yo‘l – Lag‘mon orqali o‘tib, bu yerdagi Xaybar tog‘larida uncha katta bo‘lmagan dovon bor. Boshqa yo‘l esa – Bangash orqali, uchinchisi – Nag‘ar, to‘rtinchisi – Formulda joylashgan dovonlar orqali o‘tiladi. Bu yo‘l orqali yuradigan sayyohlar, Sind daryosini uchta kechuv joyidan kechib o‘tishadi. Nilob kechuvidan o‘tganlar Lag‘mon orqali keli-shadi. Qishda ular Sind va Kobul daryolari tutashgan joydan kechib o‘tishadi”.

Bobur mirzo ham Hindistonga bir necha marta aynan mana shu yo‘l bilan o‘tib keladi. Uning fikriga ko‘ra Hindistonga olib boradigan eng ma‘qul yo‘l bu – Kobul daryosini yoqalab o‘tishdir. Aynan Hindistonga borib Ibrohim Lo‘diyini yengib, asirlikka olganida Nilobdan kema orqali o‘tadi. Uning aytishiga ko‘ra, Sind daryosidan boshqa hech qayerda kemasiz kechib o‘tib bo‘lmaydi.

Kobul shahrida turli xil qabilalar yashashadi. Vodiy va past tekisliklarda aymoqlar, atroklar va a‘roblar, shahar va ayrim qishloqlarda sartlar yashashadi. Boshqa qishloqlar va viloyatlarda pashoyilar, narojilar, tojiklar, baraklar, afg‘onlar muqim o‘rnashganlar. G‘azna tog‘larida esa hazora va nakdorilar yashashadi. Ularning orasida ayrimlar hattoki mo‘g‘ul tilida gaplashishadi.

Shimoliy sharqdagi tog‘larda kofirlar yashashadi. Janubda esa afg‘onlar (pushtunlar) yashaydigan hududlar joylashgan.

Kobul viloyatida o‘n yoki o‘n ikki tilda so‘zlashishadi: arab, fors, turk, mo‘g‘ul, hind, afg‘on, pashoyi, parojiy, gabriy, barakiy, lag‘moniy. “Men bilgan boshqa hech qaysi viloyatda bunday xilma-xil tillarda gaplashuvchi qabilalar bir joyda yashashmaydi”, – deydi Bobur o‘z asarida.

Kobul viloyati o‘n to‘rtta tumandan iborat. Boburning izohlashiga ko‘ra, Samarqand va Buxoroda markazga bo‘ysunuvchi kichkina viloyatlar – tumanlar deb atalgan. Andijon va Qoshg‘arda bunday yerlarni o‘rchin deb atashgan. Hindistonda esa pargana deyilgan. Bajur, Savod, Peshavor va Hashang‘ar tumanlari oldin

Kobul ta'sir doirasida bo'lgan bo'lsa-da, ammo hozirda ayrimlari afg'on qabilalari tomonidan zabt etilganligini qayd etib o'tadi Bobur.

Sharqda Lag'mon viloyati joylashgan bo'lib, uning beshta tumani va ikkita bo'luki bordir. Lag'monning eng katta tumani – Ningnahor bo'lib, uni ba'zi manbalarda Negarhar deb atashadi. Kobuldan sharqqa qarab o'n uch yig'och yo'l yurilsa Ningnahorga yetib kelinadi. Kobul bilan Ningnahorning orasida yo'l o'ta yomon va yurish uchun qiyindir. Uch-to'rt joyida kichik dovonlar, ikki-uch joyida tor daralar mavjud. Afg'on qaroqchilari bu yerdan o'tgan karvonlarni o'marishadi.

Boburning ma'lumotlariga qaraganda u yerlarda aholi yashamasdi, aynan uning buyrug'iga binoan Quruqsoyning oxiridagi Qoratuni aholi bilan to'ldirishdi. Aholi yashaydigan joyga aylantirilganidan keyin karvon yo'llari ancha xavfsizlantirildi.

Bodom Chashma dovoni Afg'onistonni issiq iqlim va sovuq iqlimni ajratib turadi. Dovonning Kobul qismida qor yog'adi, ammo Quruqsoy va Lag'mon qismida qor yog'maydi. Shunisi qizikki, dovon ikki xil bir-biriga tutashmaydigan tabiat olamini ajratib turadi. Dovondan o'tilsa umuman boshqa daraxtlar, o'tlar, hayvonlar, urf-odat va odamlarni uchratsa bo'ladi.

Ningnahorda to'qqizta daryo bo'lib, sholisi va bug'doyi juda yaxshi hosil beradi. Mevalardan apelsin, limon va anorlari juda yaxshi bo'ladi. "Odinapur qal'asining oldida, janubiy tomonda, tepalikda men hijriy 914-yilda Bog'i Vafo deb nomlangan katta bog' bunyod etdim. Bog' va qal'a o'rtasida daryo oqib o'tadi. Apelsin, limon va anor daraxtlari juda ham ko'p. Paxorxonni (ba'zi manbalarda Bixarxon) yengib Lohur va Dibalpurni bosib olganimda, bu bog'ga o'zim bilan yashil bananlarni olib kelib ektirdim. Keyingi yilda esa shakarqamish ektirdim, juda yaxshi hosil berdi. Sotish uchun Badaxshon va Buxoroga olib ketishdi.

Bog' tepalikda joylashgan, oqova suv bor, havosi qishda muzlaydigan emas, umuman olganda bog' gullab-yashnashi uchun barcha sharoitlar mavjud".

Shunday qilib Bobur mirzo yangi qo'lga kiritgan shaharni, uning atrofidagi yerlarni va unda istiqomad qiladigan aholining tarkibini hamda ularning urf-odatini sinchkovlik bilan o'rgana bordi. U o'z kuchi va imkoniyatlarini bir qator ko'z oldidan o'tkazib, xayoliga kelgan bir fikrga mahkam yopishib oldi: "Qiziq, bulutlarni quchib turgan tog' cho'qqilariyu ajoyib go'zal go'shalari va cheksiz hududga yoyilgan bu o'lkani Samarqand singari betakror makonga aylantirsa bo'larmikan?"

Bizningcha, u o'z niyatiga erishdi, bunga u barpo etgan yuzlab bog'lar hamda bu bog'lar yaratilishida asosiy kuch manbai bo'lgan Kobulning zahmatkash xalqi, tabiiy qulay joylashuvi sababchi bo'ldi.

XVI–XVII asrlarda Afg'onistonda qabilalar to'rt guruhga bo'lingan va ularning har biri o'z urug' boshlig'ining nomi bilan atalgan: Sarboni, Batani (yoki Bitani), Gurgusht, Karrani (yoki Karlani). O'sha davr Afg'oniston tarixiga oid manbalarning guvohlik berishicha, ushbu davrda taxminan 380 dan ortiq afg'on qabilalari hisoblab chiqilgan. Ulardan 105 nafari Sarboni guruhiga, 77 nafari Batani guruhiga, 95 nafari Gurgushtlar va 105 nafari Karrani guruhiga mansub bo'lgan.

O'z hokimiyatini kengaytirish maqsadida Bobur qo'shni viloyatlarga va hazora hamda afg'on qabilalari yerlariga bir qancha harbiy ekspeditsiyalar va yurishlarni amalga oshirdi. U 1505-yil kuzida Qandahor viloyati sari yo'l oldi va Muqimxon qo'l ostidagi Kalat qal'asini zabt etdi. Biroq, ushbu qal'ani butkul o'z qo'l ostiga olishning imkoni bo'lmadi.

Boburning muvaffaqiyatli yurishlari qatoriga 1511-yilda mamlakatning shimolida joylashgan Qunduz viloyati va shahrini egallaganligini alohida ko'rsatib o'tish joiz. Aynan shu yerda Bobur Muhammad Shayboniyxon o'limidan keyin xizmatdan bo'shab qolgan yollanma mo'g'ul askarlaridan iborat juda kuchli qo'shinni to'pladi.

Boburning Movarounnahrni egallash uchun qayta urinib ko'rishi va 1514-yil butun e'tiborini Hindiston tomon qaratishi jarayonlarini

kuzata turib, ushbu hodisalarni tahlil qiladigan bo'lsak, bu yurishlarning deyarli barchasida Kobul viloyati Boburning siyosiy qarorgohi ekanligi, ya'ni u barcha yurishlarini aynan Kobul orqali amalga oshirganligini ko'rishimiz mumkin. Shu sababli afg'on xalqining kelib chiqishi bilan bog'liq bir qator tarixiy manbalarda Kobul viloyatining ijtimoiy-siyosiy nufuziga yuqori baho beriladi va aksariyat hollarda o'rta asrlar Afg'onistonni Kobuliston deb ham nomladi.

Bobur Afg'oniston ijtimoiy-siyosiy hayotida o'z ta'sirini kuchaytirishi uchun mamlakatning sharqiy va janubiy-sharqiy qismidagi tog'lik tumanlarda istiqomat qiluvchi afg'on qabilalarini o'ziga bo'ysundirishi lozimligini juda yaxshi bilardi. Biroq, na Bobur va na uning vorislari jangovar va erksevar tog'lik afg'onlarni butunlay tobe qila oldi. Bu borada o'zgacha taktika qo'llagan Bobur Hindistonga boradigan yo'lni qo'lga kiritish, afg'on qabilalari orasida o'zining siyosiy ta'sirini mustahkamlash maqsadida o'z qo'shiniga afg'onlarni jalb etish orqali ushbu qabilalar orasida o'ziga nisbatan loyal munosabatni shakllantirishga intilgan.

Bobur va boburiylarning Afg'oniston ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlarda amalga oshirgan islohotlari nihoyatda muhim o'ringa ega. Bobur Kobulga, umuman Afg'onistonga o'z yurti kabi qaradi, qurilish, obodonlashtirish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish ishlarini boshlab yubordi. "Bog'i shahrora", "Bog'i Jahonoro", "O'rta bog'", "Bog'i vafo" va "Bog'i Bobur" kabi oromgohlar tashkil etdi. Shahar ichidagi Bolo Hisor qal'asini o'z qarorgohiga aylantirib, uni qayta ta'mirlatdi, yangi imoratlar qurdirdi va oilasi bilan shu qal'ada yashadi. Bobur Afg'onistonda bir fotih sifatida emas, balki shu yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmdor sifatida qizg'in faoliyat ko'rsatdi, uning manfaatlari yo'lida odilona va oqilona ish tutdi. Shuningdek, bir qancha tarixshunoslarning qayd etishicha, Boburning o'zi o'limidan oldin uni o'zi bunyod etgan Kobuldagi bog'lardan birida dafn etishlarini vasiyat qilgan. Bu keyinchalik uning vorislari tomonidan amalga oshirildi.

Afg‘onistondagi amaliy faoliyatiga ko‘ra, Bobur davlat boshlig‘i va muzaffar sarkarda sifatida mintaqadagi siyosiy hayotni e‘tiborli o‘ringa ko‘tardi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko‘rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig‘iniga maxsus taklif etishi ana shunday yuksak nufuzni ko‘rsatuvchi dalildir. 1530-yilda Bobur Hindistonda vafot etdi va uning vasiyatiga binoan Kobulga dafn etildi. Boburiylar imperiyasi tarkibiga bu vaqtda Afg‘onistonning Nangarxor, Seiston, Kobul, Hirot, G‘azna va Qandahor viloyatlari kirgan edi. Qandahor viloyati va shahri muhim savdo-karvon yo‘lida joylashgan edi. Shu sababli ko‘p yillar davomida bu hududlar uchun safaviylar va boburiylar kurash olib borganlar.

Bobur vafotidan so‘ng, Qandahor Boburiylar va Safaviylar o‘rtasidagi o‘zaro siyosiy kurash maydoniga hamda strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega shaharga aylandi.

XVII asr boshlarida Qandahor orqali har yili tuyalarga yuklangan qariyb 14 ming tovarlar va boshqa mahsulotlar olib o‘tilgan. Qandahor qal‘asining harbiy ahamiyati shundaki, u nafaqat Hindistonning eng muhim yo‘llaridan biriga darvoza vazifasini o‘tagan, balki Kobul yo‘nalishida favqulodda strategik qulay o‘rinni egallaganligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobur vorislari tomonidan olib borilgan Qandahor uchun kurash 1534–1537-yillardagi Xuroson voqealari bilan bog‘liq edi. Ayni shu yillarda Safaviylar Qandahorga kuchli qo‘shini bilan kirib keldi va uni egallab oldi. Biroq, tezda Boburning o‘g‘li Komron Mirzo Kobulni Safaviylar qo‘lidan tortib olishga muvaffaq bo‘ldi.

1540-yil Boburning o‘g‘li va vorisi bo‘lgan Humoyun Mirzo afg‘onlarning sur qabilasidan kelib chiqqan Sherxonga (Sherxon Sur) qarshi to‘qnashuvda hind tojidan mosuvo bo‘ldi. Sherxon Sur afg‘on qabilasidan chiqqan hukmdor sifatida alohida e‘tibor qozongan edi va XVI asr o‘rtalaridagi afg‘on davlatchiligi davrida uning o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lganligini ham qayd etish joiz. Sherxon Sur barcha afg‘on sulolalari hokimiyatini qayta tiklash

maqsadida Hindistonda barcha afg'on harbiy sardorlarini o'z atrofida to'plashga muvassar bo'ldi.

1554-yilda Sherxonurning vorislari o'rtasidagi o'zaro nizolardan foydalangan Humoyun Mirzo Hindistonni o'ziga qaytarib oldi. Humoyunning o'g'li Akbar (1556–1605) Hindistonda o'zaro urushlar bilan band bo'lgan bir paytda Safaviylar sultoni Tahmasp I 1558-yilda Qandahorni zabt etdi va Qandahor viloyati qariyb 37 yil davomida Safaviylar davlati tarkibida bo'lib keldi.

1595-yilda Boburiylar sulolasi vakili Akbar Qandahorni yana ishg'ol etdi va viloyat 1622-yilgacha boburiylar hokimiyati ostida bo'ldi. Shuningdek, Boburiy Akbarshoh Boburiylar davlati hukmronligiga qarshi bosh ko'targan Xemu va Iskandar Sur kabi afg'on qabilalari yetakchilari ustidan g'alaba qozondi, keyinchalik Boburiylar davlatini birmuncha kengaytirishga muvaffaq bo'ldi.

Akbarshoh markaziy davlat apparatini mustahkamlashga qaratilgan bir qancha islohotlar o'tkazdi. Yer solig'i, davlatni boshqarish tartibi xususidagi qonunlarni ishlab chiqdi. Birinchi qonunga binoan, natural soliq pul solig'i bilan almashtirildi. Bu tadbir davlatning moliyaviy ahvolini yaxshiladi. Akbar jizya, ya'ni musulmon bo'lmagan xalqlardan olinadigan soliqni, soliq to'plovchilarning maoshi (dorug'a)ni, chopar hamda amaldorlar uchun to'lanadigan yig'im (qo'nalg'a), bozordan yig'iladigan bir qancha soliq va jarimalarni bekor qildi. Akbar zamonida ichki va tashqi savdo rivojlandi.

1637-yilda Boburiy Shohjahon Qandahor boshqaruvini Safaviylar harbiy sardori Ali Mardonxonga topshirdi va shu tariqa shahar 1709-yil g'ilzoylar qo'zg'oloniga qadar safaviylar boshqaruvi ostida bo'ldi.

Afg'onlarning Hindistondagi Boburiylar imperiyasiga qarshi ozodlik harakatlari mashhur shoir, jangchi, faylasuf Xushxolxon Hattak (1613–90) yetakchiligida olib borildi. U o'z kurashini Pash-to deb nomlangan she'rida aks ettirdi. Xushxolxon Hattak Dehlida Avrangzeb tomonidan hibsga olingan. U ozod etilganidan keyin butun pushtun millatini birlashishga va Boburiylarga qarshi kurashish-



ga chaqirdi. Shoirning butun hayot yo‘li uning qabrtoshida bitilgan ushbu so‘zda mujassam etilgan “Men afg‘onlarning sha‘ni uchun qo‘limga qurol oldim, men Xushxolxon Hattak o‘z zamonining g‘ururli insoniman”.

Afg‘on qabilalari feodallashuv jarayonida asta-sekinlik bilan o‘zlarining ijtimoiy holatlarini ham o‘zgartirib bordilar. Endilikda qullar ekspluatatsiyasi deyarli tugatildi va ozod ijtimoiy qatlamga aylana bordi. Feodallashuv jarayoni turli qabilalarda turlicha kechdi. Chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi qabilalar, masalan, vaziriylarda bu kabi munosabatlar XVI–XVIII asrlarda boshlang‘ich holatda edi, xattakiylar, habibiylar, muhammadzoylarda esa ancha tez rivojlandi. Patriarxal munosabatlarning shakllanishi ham yirik feodallarning oddiy aholiga nisbatan munosabatlarini o‘zgartira olmadi. Yirik musulmon ruhoniylari va katta yer egalarining qishloq aholisiga qilgan zug‘umlari natijasida XVI asrning boshlarida sharqiy hududlarda antifeodal harakatlar boshlanadi. Bunday harakatlarning biriga Boyazid Ansoriy boshchilik qildi va bu harakat “Roshaniylar harakati” deb nomlandi.

Roshaniylar harakati – Boburiylar davlatidagi afg‘onlarning diniy qarshilik harakati bo‘lib, uni musulmonlarning roshaniy mazhabi vakillari olib borganlar. Mazhab nomi uning asoschisi Boyazid Ansoriyning laqabi – Pir roshandan olingan. Katta qiyinchiliklar bilan bostirilgan Roshaniylar harakati Boburiylarning harbiy qudratiga putur yetkazgan, afg‘on davlati taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan va afg‘onlarning etnik jihatdan birlashuviga yordam bergan. Roshaniylar harakati nafaqat chet ellik yer egalariga balki izchil islom tarafdorlari bo‘lgan xonlar, ruhoniylarga qarshi qaratilgan edi. Ular o‘sha davr afg‘on jamiyatining feodal an‘analariga butunlay qarshi edilar. Roshaniylar Boburiylarga qarshi kurashib, ulardan norozi bo‘lgan qabilalar bilan birlasha boshlaydilar. Birinchi navbatda Pokistonning shimoli-g‘arbiy hududlarini egallab olgan Roshaniylar o‘zlarining ko‘p yillik mashaqqatli kurashlarida Afg‘oniston hududlarida katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Ular Nangarxor, G‘azna, Kobul va

bir qancha hududlarni egallab olib, Xaybor o'tish yo'lini to'sib qo'yadilar. Shundan so'ng savdo aloqalariga putur yetib, Boburiy hukmdorlar uchun qiyinchiliklar vujudga keltirildi. Roshaniylar egallab olgan hududlarda hamsoyalik an'analari va qullarning ozod etilishi kuchaytirildi. Feodallar va ruhoniylarga tegishli bo'lgan yerlar qabilalarga bo'lib berildi. Ularning hammasi oltidan bir miqdorda bosh rahbarga soliq to'laydigan bo'ldilar. Roshaniylar o'zlariga qattiq qarshilik ko'rsatganlarni olovda kuydirib yuborganlar. Xaliliylar, muhammadzoilar roshaniylar harakatida faol qatnashdilar. Ammo bu qabilalar orasida chuqur ziddiyatlar paydo bo'ldi. Bir tarafdin qabila boshliqlari, bir tarafdin Boburiy hukmdorlar ularni ziddiyatlar girdobiga tortar edi. Roshaniylar harakati tarkibida ko'pchilik qabilalar bo'lgan. Qabila boshliqlarining maqsadlari ham turlicha edi. Biri ko'proq serhosil yerlar va yaylovlarni qo'lga kiritishni istasa, biri Boburiy hukmdorlardan ko'proq yer-mulk bilan birgalikda hokimiyatni ham olib qo'yishni xohlar edi. Boburiylar Roshaniylar harakatiga qarshi katta armiya safarbar etadi. Sinfiy kurashlar va ularning Boburiy hukmdorlarga qarshi qaratilganligi Roshaniylar harakatiga qo'l keladi. Bundan tashqari Roshaniylarning eng muhim iqtisodiy, harbiy-strategik hududlarni egallab olishi Boburiylarga katta qiyinchiliklar tug'dirdi. Shu sababli Boburiy hukmdorlar uzoq vaqt mobaynida Roshaniylarni mag'lub eta olmadilar. Boshida harakatga Boyazid Ansoriyning o'zi boshchilik qiladi. Keyinchalik o'g'illari va nabiralari uning ishini davom ettiradilar.

Boyazid Ansoriyning vafotidan so'ng (1585-yil) bu harakatga uning o'g'li, keyinchalik esa nabiralari boshchilik qilib kurashni davom ettirishgan. Boyazid Ansoriyning uch o'g'li Umar, Xayriddin va Nuriddin o'z hayotlarini mana shu kurashlarga bag'ishladilar va Roshaniylarning dushmanlari bilan bo'lgan kurashlarda o'ldirildilar. Boyazidning to'rtinchi o'g'li Jaloliddin bu harakatni boshqarishni o'ziga meros qilib oladi va o'zini "afg'onlar podshohi" deb e'lon qiladi. U keyinchalik Boburiylarga asir tushadi va Akbarshoh saroyiga yetkaziladi. Ammo u qochib ketishga muvaffaq bo'ladi.

1600-yilda Jaloliddin G‘azna qamalida asirga tushib qoladi. O‘sha vaqtda harakatga Jaloliddinning o‘g‘li Axdad boshchilik qiladi. Axdad 1626-yilda jang paytida o‘ldiriladi. Uning vafotidan so‘ng harakatga boshchilik qilish o‘g‘li va vorisi Abdul Karimga o‘tadi. Boburiylar Abdul Karimni ayyorlik bilan Peshovarga chaqirtiradilar va u asirlikda vafot etadi (yoki zaharlangan).

Roshaniylarning so‘nggi boshlig‘i Jaloliddinning boshqa o‘g‘li Karimdod 1638-yilda Boburiylar qo‘liga tushadi. Roshaniylar o‘rtasidagi boshboshdoqliklar ham harakatning mag‘lubiyatiga sabab bo‘ldi. Afzalxon Xattakning ona tomondan bobosi, orakzoy qabilasidan bo‘lgan Malik Tor dastlab Roshaniylar harakatiga qo‘shiladi va ularni qo‘llab-quvvatlaydi. Ammo keyinchalik o‘z fikrini o‘zgartiradi va Boburiylar tarafiga o‘tib ketadi. Malik Tor Axdad Roshaniylar bilan bo‘lgan kurashida ularga shunday murojaat qiladi: “Men sening har qanday buyrug‘ingni bajarishga tayyorman, ammo mening uyimni va hududimni boshqarish huquqini bermayman”. Bu so‘zlardan shuni tushunish mumkinki, Roshaniylar yuqori tabaqa vakillarining qabilaviy yerlarini tortib olib, o‘zaro taqsimlab olishgan.

Ko‘pchilik qabila boshliqlari va yirik feodallar bu harakatga birgalikda qaqshatqich zarba beradilar. Bu harakatning oxirgi rahbari Karimdod Boyazid Ansoriyning nabirasi, 1638-yilda halok bo‘ldi. Bu harakat tarkibiga ko‘pchilik qabilalar kirgan edi. Keyinchalik katta yerlar va to‘lovlar evaziga ko‘pchilik qabila xonlari Boburiylar tarafiga o‘tib ketadi. Ba‘zi qabilalar orasida, masalan, yusufzoylar qabila a‘zolari va qullar o‘rtasidagi erkin munosabatlardan norozilik bildira boshlaydilar. Ular qullar ekspluatatsiyasini davom ettirishdan manfaatdor edilar. Bundan tashqari, afg‘on jamiyatining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy rivojida feodal an‘analarning kuchligi ham Roshaniylarga qiyinchilik tug‘dirdi.

Faqat XVII asrning 80-yillaridagina Roshaniylar harakati kuchsizlantirildi. Roshaniylar harakatining mag‘lubiyatiga qaramasdan, uning afg‘on jamiyatiga ta‘siri uzoq vaqt sezilib turdi. Masalan, xalqning yoppasiga feodal ekspluatatorlarga qarshi kurashi

va afg'on jamiyatida patriarxal – urug'chilik an'analarining gullab-yashnashida Roshaniylar harakatining xizmati katta edi. Afg'on jamiyatining keyingi hayotida ham bu harakat katta rol o'ynadi.

Hamma davrlarda va jamiyatlarda bo'lgani singari xalq orasidagi boshboshdoqliklar, murosasizliklar, mol-mulkka bo'lgan ehtiyoj, sotqinliklar mamlakat tanazzuliga, uning yemirilishiga olib keladi. Buni yuqoridagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin. Agar mana shu davrda afg'onlar birlashib chet ellik hukmdorlarga qarshi birgalikda kurashganlarida va Roshaniylarni to'liq qo'llab-quvvatlaganlarida bu harakat mag'lubiyatga uchramas edi. Ko'rib turganimizdek, bu davrda Afg'oniston hududida vaziyat ancha jiddiy bo'lib, xalqning ahvoli nihoyatda og'ir bo'lgan. Afg'on xalqi turli nohaqliklardan azoblanar, o'z yeridan xohlaganicha foydalana olmas edi. Mamlakatda mulkiy tengsizlik hukm surardi. Ammo xalqning mana shunday qiyinchiliklarga uchrashida bir tomondan afg'onlarning o'zi ham aybdor. Chunki ularning aksariyati o'z joni va mol-mulkidan xavotirlanib ajnabiy hukmdorlarning xizmatiga o'tdilar hamda xalqining azob chekishiga o'zlarining "samarali" hissalarini qo'shdilar. Bunga misol tariqasida Malik Sado hamda Malik Tor Axdadlarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Bu paytdagi Afg'onistondagi vaziyatga nazar solib shunday xulosa qilish mumkin-ki, Afg'oniston uchun, uning xalqi uchun Roshaniylar harakati suv va havodek zarur edi. Chunki aynan ular xalqni birlashishga, ularni o'z haq-huquqi uchun kurashishga o'rgatdilar. Xulosa qilib aytganda, roshaniylar afg'on jamiyatiga haqiqiy ma'noda ma'rifat olib keldilar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Boburiylar davlatida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar madaniy aloqalarning ham taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Boburiylar davrida Afg'onistonda ilm-fan, ma'rifat va madaniyat yuqori bosqichga ko'tarildi. Deyarli barcha Boburiy hukmdorlar ilm-fan, san'at, adabiyot, me'morchilik va musiqa shaydolari hisoblangan va shu boisdan ham o'z davlatlari madaniy hayotining yuksalishida homiylik ko'rsatishgan. Yetakchi davlat va siyosat arbobi hamda shoir sifatida Boburning o'zi Afg'onistonda

she'riyat va adabiyotning yuksalishida tamal toshini yaratdi. Bobur o'z g'azallaridan biridan kechagina o'zining Kobulga tashrifi vaqtinchalik ekani, hamishalik (muqim) emasligiga iqror bo'lgan edi.

Bobur Kobulni zabt etishi bilanoq ko'plab shoirlar, olim-u fuzalolar, rassomlar, sozandalar, bog'bon hamda binokorlarni o'z atrofida to'play boshladi. Afg'onistonda forsiy, turkiy hamda hind tillaridagi bir qator nasriy va nazmiy asarlar yaratildi. Shuningdek, Movaraunnahr, Hindiston va Afg'oniston tarixi, jug'rofiyasi, madaniy aloqalariga bag'ishlangan asarlar (Bobur – “Boburnoma”, Abulfazl Allomiy – “Tarixi Akbarshohiy”, Nizomiddin Ahmad – “Tabaqoti Akbariy”, Mirzo Salim Jahongir – “Tuzuki Jahongiriy”, Jahongirshoh – “Jahongirnoma”, Gulbadanbegim – “Humoyunnoma” va boshqalar) o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotining o'lmas durdonalari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Afg'onistonning XVI–XVII asrlarga oid davlatchilik tarixida Boburiylar sulolasi alohida o'ringa ega. Aynan Boburiylar sulolasi Afg'onistonning o'sha davrdagi tarixiy hududlari Kobul, Qandahor, Qunduz, G'azna va boshqa viloyatlarning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti taraqqiy etishiga beqiyos hissa qo'shdi. Ushbu davrda Kobul va unga tutash bo'lgan viloyatlardan tashqari mamlakatning yana bir qator yetakchi hududlari bo'lmish Hirot, Balx va Badaxshon kabi viloyatlar ham aynan Boburiylar boshqaruvi davrida ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan yuksaldi.

## **DURRONIYLAR DAVLATINING BARPO ETILISHI**

Qandahor va Hirotida mustaqil afg'on davlatlarining vujudga kelishi bevosita mazkur mintaqadagi siyosiy jarayonlar bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tish o'rinli. Xususan, mazkur davrda bir tomondan Afg'onistonning janubiy va janubiy-sharqiy hududlarini o'z nazoratida ushlab kelgan Hindistondagi Boburiylar davlati kuchsizlana boshlagan bo'lsa, ikkinchi tomondan hozirgi Afg'onistonning g'arbiy hududlarini o'z tarkibiga qo'shib olgan

Erondagi Safaviylar davlati inqirozga yuz tutgan edi. Boburiylar saltanati 1707-yilda Avrangzebning o'limidan so'ng, o'zining shimoliy-g'arbiy hududlaridagi afg'on qabilalarini nazoratda ushlab turish uchun kuch topa olmay qoldi va keyinchalik ushbu hududlarda tez-tez ro'y beradigan afg'on qabilalarining qo'zg'olonlarini bostira olmay qoldi<sup>22</sup>. Safaviylar davlati ham siyosiy va iqtisodiy inqirozga duchor bo'lib, bo'ysundirilgan xalqlar, shu jumladan afg'on qabilalari orasida norozilik kayfiyati kuchaya boshladi.

Shunday tarixiy sharoitda afg'on (pushtun)larning iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lgan abdaliy va g'ilzoy qabilalari maydonga chiqa boshladi. Abdaliy qabilasi 55–60 ming oila (300–350 ming nafar aholi) atrofida bo'lsa, g'ilzoy qabilasi 50 ming oila (250 ming nafar aholi)ni tashkil etgan<sup>23</sup>. Safaviy hukmdori shoh Husayn (1694–1722) hukmronligi davrida ayniqsa, g'ilzoy va abdaliy qabilalariga nisbatan zulm kuchaydi. G'ilzoy qabila istiqomat qiladigan Qandahor viloyatiga Safaviylar tomonidan dastlab Abdullaxon (1698–1704)ning, so'ngra esa Gurgenxon (1704–1709) ning beklarbegi etib tayinlanishi hamda ular tomonidan ta'magirlik, g'ilzoylar mulkiga ko'z olaytirish va siquvlarning kuchayishi g'ilzoylarning Mir Vaysxon boshchiligidagi xalq qo'zg'oloni boshlanishiga olib keldi.

1709-yil aprelida Mir Vaysxon yetakchiligidagi g'ilzoylar va ularga qo'shilgan alikozoy, nurzoy, kokar, tarin kabi qabilalarning birlashgan qo'shini Qandahor shahrida qo'zg'olon ko'tardi va shaharni egalladi. Safaviylar beklarbegisi Gurgenxon o'ldirildi<sup>24</sup>. Safaviy shohining Qandahorda o'z hokimiyatini qayta tiklash uchun jo'natgan qo'shini muvaffaqiyatga erisha olmaydi va shu tariqa Qandahorda Mir Vaysxon boshchiligidagi mustaqil afg'on

---

<sup>22</sup> Sykes P. A History of Afghanistan. Vol. 1. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940.– P. 321.

<sup>23</sup> Lockhart L. The fall of the Safavi dynasty and the Afghan occupation of Persia. – Cambridge: Cambridge University Press, 1958.– P. 85, 96.

<sup>24</sup> Lockhart L. The fall of the Safavi dynasty and the Afghan occupation of Persia. – Cambridge: Cambridge University Press, 1958.– P. 87.

davlati vujudga keldi. Ammo g'ilzoylarning mustaqilligi uzoq davom etmadi. Mirvaysxon o'limidan so'ng (1715-y.) uning o'rniga g'ilzoylarga yetakchilik qilgan ukasi Abdulaziz Safaviylarga taslimchilik siyosatini yurita boshlaydi. Natijada g'ilzoilar 1717-yilda Mirvaysxonning o'g'li Mahmud boshchiligida qo'z-g'olon ko'tarishadi va Abdulaziz o'ldirilib, Qandahorda hokimiyatni Mahmud egallaydi<sup>25</sup>. G'ilzoilarning mustaqillikka bo'lgan harakatlaridan so'ng Hirot atroflarida istiqomat qiluvchi abdaliy qabilalari orasida ham Safaviylar hukmronligiga qarshi harakatlar avj oldi.

1716-yilda abdaliy qabilasining sadozoy urug'iga mansub Abdullaxon va uning o'g'li Asadullaxon yetakchiligida Hirotida xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Natijada 1717-yil oxirida Hirot va uning atroflari (Murg'ob, Bodg'iz) Safaviylar hukmronligidan ozod bo'ldi. Biroq, mustaqillikka erishgan Qandahordagi g'ilzoilar va Hirot-dagi abdaliylar o'rtasida nizo va kelishmovchiliklar yuzaga keladi hamda 1719-yilda ikki o'rtada Farax yaqinida jang bo'lib o'tadi. Jangda Mahmud yetakchiligidagi g'ilzoilarning qo'li baland keldi. Shundan so'ng, 1721-yilning oxirida Mahmud g'ilzoilardan hamda ularga qo'shilgan boshqa afg'on qabilalaridan iborat katta qo'shin bilan Eronning markaziy viloyatlariga qarab yurish boshladi. 1722-yil oktabrida Safaviylar poytaxti Isfahon shahrini egallagan Mahmud o'zini Eron shohi debe'lon qildi. Biroq, g'ilzoilar orasidagi o'zaro kelishmovchiliklar natijasida 1725-yilda Mahmud o'ldiriladi va shundan so'ng afg'on qabilalarining Eronda hukmronlik qilishi tobora qiyinlashib bordi. Shunday vaziyatda Safaviylar qo'shinida o'zining kuchli intizom va mohir qo'mondonlik xususiyatlarini namoyon etgan kuchli lashkarboshi Nodirquli (1688-yilda tug'ilgan) maydonga chiqdi.

---

<sup>25</sup> Sykes P. A History of Afghanistan. Vol. 1. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940.– P. 326.



***Durroniylar davlat hududi (1747–1862)***

1729–1732-yillardagi harbiy harakatlari tufayli Nodirquli yetakchiligidagi qo‘shin Hirot shahrini egalladi. So‘ngra, Erondagi afg‘on qabilalari bilan bo‘lgan bir necha janglarda muvaffaqiyatga



erishgan Nodirquli 1736-yil bahorida o'zini Eron shohi – Nodirshoh Afshor<sup>26</sup> deb e'lon qildi. 1736-yil oxirida Nodirshoh katta qo'shin bilan afg'on g'ilzoylarining tayanch markazi Qandahorga qarab yurish boshlaydi. Bir yildan ortiq davom etgan qamaldan so'ng Qandahor shahri 1738-yilning bahorida eronliklar qo'shini tomonidan egallanadi va 1709-yildan buyon davom etayotgan g'ilzoylar hukmronligiga barham beriladi. Garchi, Qandahor va Hirot kabi yirik shaharlar Nodirshoh tomonidan egallangan bo'lsa-da, afg'on qabilalarining milliy-ozodlik kurashlari to'xtamadi. 1740-yilda Kobul atroflarida istiqomat qiluvchi afg'on qabilalari Nodirshohga qarshi qo'zg'olon ko'tarishgan bo'lsa, 1742-yilda Balx va Andxoyda xalq qo'zg'olonlari ro'y berdi. 1745-yilda soliqlarning muttasil oshib borishiga qarshi Balx aholisi yana qo'zg'olon ko'taradi. 1746-yilda esa Qandahor va Kobul oralig'ida ko'chib yuruvchi g'ilzoy qabilalari Nodirshohga qarshi qo'zg'oloni bo'lib o'tadi.



XVIII asr 40-yillari ikkinchi yarmiga kelib Nodirshoh qo'l ostidagi hududlar ancha kengayib ketgan va ushbu hududlarni boshqarish tobora murakkablashib bormoqda edi. Shu bilan birga, hukmronligining so'nggi paytlarida Nodirshoh nihoyatda qattiqqo'l, har narsadan shubhalanuvchi, eng ishonchli kishilarini ham kichik xatolari uchun shafqatsiz jazolaydigan, hech kimga ishonmaydigan qonxo'r hukmdorga aylanib qolgan edi.

Ahmadshoh Durraniy – afg'on davlati asoschisi. Afg'on qabilalari jangda o'zining jasurligi, dushman yuziga tik boqishi, qaytmasligini namoyon etishini bilgani bois Nodirshoh o'z armiyasiga ko'plab afg'on jangchilarini safarbar etadi va ular

---

<sup>26</sup> Eronda istiqomat qiluvchi afshor qabilasi nomi. Nodirshoh mazkur qabilaga mansub edi.

orasidan bir qator mohir lashkarboshilar ham yetishib chiqadi. Ana shunday qo'mondonlardan biri abdaliy qabilasi sadozoy urug'iga mansub Ahmadxon bo'lib, u yoshligidan Nodirshoh qo'shinida xizmat qilib, jang olib borishning barcha sir-sinoatlarini puxta egallaydi.

Eron qo'shinidagi sadoqatli xizmatlari uchun Ahmadxon tuman<sup>27</sup> lashkarboshiligiga qadar ko'tariladi. 1747-yilda Nodirshoh suiqasd natijasida o'ldirilgach, uning qo'shinini sarosima qamrab oladi va mazkur qo'shin bir-biriga dushman bo'lgan bir necha qismga bo'linib ketadi. Ahmadxon tezda o'zi qo'mondonlik qiladigan afg'on qabilalaridan iborat qo'shin bilan Qandahorga qaytadi. U o'zi bilan Nodirshoh xazinasining katta qismini, shu jumladan Nodirshoh 1739-yilda Hindistonga yurishi vaqtida qo'lga kiritgan mashhur "Ko'hi Nur" nomli olmosni ham olib ketadi<sup>28</sup>.

Nodirshoh hukmronligiga barham berilgach, afg'on qabilalari yetakchilari orasida mustaqil afg'on davlatini barpo etish g'oyasi paydo bo'ladi. 1747-yilda chaqirilgan afg'on qabilalari sardorlari yig'ini – Loyya Jirg'a<sup>29</sup>da yangi barpo etilgan davlat hukmdorini saylash masalasi ko'rib chiqiladi. Mazkur yig'inda abdaliy qabilasining bir qator yetakchilari – Hoji Jamolxon Barakzoy, Nasrulloxon Nurzoy, Muhabbatxon Popolzoy, Musoxon Is'hoqzoy, Nur Muhammadxon kabilar qatorida Ahmadxon Sadozoy ham ishtirok etadi va ularning barchasi afg'on davlati hukmdorligiga nomzod edi. Mazkur nomzodlar orasidan ayniqsa, abdaliy qabilasi

---

<sup>27</sup> 10 ming nafar jangchidan iborat qo'shin tuzilmasi.

<sup>28</sup> Barfield, T. *Afghanistan: a Cultural and Political History*. – New Jersey: Princeton University Press, 2010. – P. 98.

<sup>29</sup> "Жирға" сүзи пушту тилида "доира", "айлана" дегани булиб, "кичик ёки катта миқдордаги фукаролар йиғилиши", "катта доира атрофида тупланиб муайян масалаларни муҳокама қилиш, кенгашиш" маъносини беради. Умумдавлат даражасидаги йиғилиш – "Loya Jirga" (Катта, Улкан Жирға) деб аталади. Яна қаранг: Wardak, A. *Jirga – A Traditional Mechanism of Conflict Resolution in Afghanistan*. – Treforest (UK): University of Glamorgan, 2003. –P. 3–16. <http://unpan1.un.org/intradoc/groups/public/documents/apcity/unpan017434.pdf>

barakzoy urug‘i yetakchisi Hoji Jamolxon Barakzoy juda katta ta’sir kuchiga ega edi<sup>30</sup>.

Ushbu Loyya Jirg‘a davomida afg‘on davlati hukmdorini saylash bo‘yicha sakkiz marta ovoz berish o‘tkazilishiga qaramasdan, asosiy da’vogar bo‘lib turgan Hoji Jamolxon Barakzoy abdaliy qabilasining boshqa yetakchilari ovozini olishga va qo‘llab-quvvatlashiga erisha olmaydi. Chunki abdaliy qabilasining boshqa urug‘lariga mansub yetakchilar shundoq ham nihoyatda kuchli bo‘lgan barakzoylarning yanada kuchayib ketishini va boshqalar ustidan hukmronlik yurgizishini xohlashmas edi. Shunday murakkab vaziyatda islom dini peshvosi, sufiylik tariqati yetakchisi – shayx Sobirshoh so‘z olib, afg‘on davlati hukmdorligiga Ahmadxon Sadozoyni taklif etadi. Hoji Jamolxon Barakzoy katta obro‘-e’tiborga ega Sobirshohning taklifiga qarshi bora olmaydi va darrov Ahmadxon Sadozoyni qo‘llab-quvvatlab ovoz berishini ma’lum qiladi. Shundan so‘ng, yig‘inda ishtirok etayotgan afg‘on qabilalarining boshqa yetakchilari ham Ahmadxon Sadozoyni qo‘llab-quvvatlab ovoz beradilar hamda u davlat hukmdori deb e’lon qilinadi va o‘ziga “shoh” titulini oladi. Shu vaqtda Ahmadshoh yigirma uch yoshda edi<sup>31</sup>.

Shu o‘rinda yuqoridagi Loyya Jirg‘a jarayonining yana bir jihatiga alohida e’tibor qaratish lozim. Ya’ni, unda muhokama qilinayotgan masala yuzasidan qaror qabul qilishda nisbatan ko‘pchilikning ovozini olish yoki qo‘llab-quvvatlashiga erishish orqali masala hal etilmadi, balki barcha ishtirokchilarning yagona bir fikrga kelishi orqali masalaning yechimiga kelindi. Shundan ham o‘z davrida muayyan masalaning yechimi uchun ko‘pchilikning ovozi talab etiladigan demokratiyaning o‘ziga xos ravishda afg‘on davlati boshqaruvida qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin<sup>32</sup>.

---

<sup>30</sup> Файз Муҳаммад. Сирож ат-таворих. 1–3 жилд. Кобул, 1331–1333-хй. (1912/13 – 1914/15). – Б. 10.

<sup>31</sup> Sykes, P. A History of Afghanistan. Vol. 1. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940.– P. 352.

<sup>32</sup> Яна қаранг: Рашидов Р. Лойя Жирға – афғон халқи иродасини ифода этувчи демократик институт сифатида / Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. Илмий-маърифий журнал. 3 (67) – 2015. – Б. 54–60.

Ahmadshoh hokimiyatni qo'lg'a kiritgach o'zi tegishli bo'lgan abdaliy qabilasi nomini "durri-durron" (ko'plab qabilalar orasidagi "javohirlar javohiri" bo'lgan qabila, qisqacha durroney qabilasi) deb atashni buyuradi<sup>33</sup>. Sadozoylar – durroneylarning bir urug'i, bo'g'ini bo'lib, Sadozoylar sulolasi hukmronligi davri Ahmadshoh Durroney hukmronligidan boshlanib to birinchi ingliz-afg'on urushi (1838–1842)gacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va Temurshoh (1773–1793), Zamonshoh (1793–1801), Mahmud (1801–1803, 1809–1818), Shoh Shujo (1803–1809, 1839–1842), Sulton Ali (1818), Ayubxon (1819–1823) kabi hukmdorlar ushbu sulolaga mansubdir.

Ahmadshoh davlatda ichki tartibni ta'minlash hamda davlat hududini kengaytirish bo'yicha bir qator tadbirlarni amalga oshirdi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik yo'lini tutgan g'ilzoy qabilasining bir necha urug'i kuch bilan bo'ysundirilgan bo'lsa, ilgari Nodirshohga bo'ysungan Kobul, G'azna va Peshovar kabi yirik shaharlarning hokimlari bilan muzokaralar olib borilishi natijasida ular Ahmadshohning hokimiyatini tan olishdi. Shuningdek, Ahmadshoh kuchli va ko'p sonli qo'shin barpo etish masalasiga alohida qaraydi. Uning qo'shini muntazam va urush vaqtida yig'iladigan nomuntazam qo'shından iborat bo'lib, muntazam qo'shin jami qo'shinning 30%idan oshig'ini tashkil etar edi. Shu bilan birga, Ahmadshoh o'zining shaxsiy gvardiyasiga alohida e'tibor qaratadi va shohning shaxsiy gvardiyasi katta qismini Erondan taklif etilgan qizilboshlar tashkil etadi<sup>34</sup>.

Ahmadshoh o'z qo'shini bilan 1748-yilda Panjob vohasini, 1754-yilda Mashhad, Nishopur shaharlarini va Seistonni, 1750–1752-yillarda Balx, Qunduz, Shivirg'on, Maymana va Andxoyni, 1757-yilda Jammu, Kashmir, Sind va Belujistonni hamda

<sup>33</sup> Bellew, H.W. The Races of Afghanistan: Being a Brief Account of the Principal Nations Inhabiting that Country. – Calcutta: Thacker, Spink and Co.; – London: Trubner and Co., 1880. – P. 30–31.

<sup>34</sup> Файз Муҳаммад. Сирож ат-таворих. 1–3 жилд. Кобул, 1331–1333-хй. (1912/13 – 1914/15). – Б. 56.



1759–1761-yillarda Shimoliy Hindistonni poytaxt Dehli bilan birga egallaydi. Shu tariqa jami bo‘lib 2 mln. kv. km.dan ortiq hududni o‘z ichiga oluvchi Ahmadshoh Durroniylarning hukmdorligidagi afg‘on davlati yuzaga keladi. Ammo Ahmadshoh tomonidan barpo etilgan bunday ulkan davlat uning vafotidan so‘ng 1773-yilda parchalanib ketadi va Ahmadshoh vorislari qo‘lida hozirgi Afg‘oniston hududi va Pokistonning g‘arbiy hududlarini o‘z ichiga olgan hudud qoladi.

Ahmadshohning o‘g‘li Temurshoh (1773–1793) va undan so‘ng nevarasi Zamonshoh (1793–1801) hukmronligi davrida afg‘on qabilalarining markaziy hukumatga nisbatan bo‘ysunmaslik harakatlari avj oldi va bu afg‘on davlati mustahkamligiga zarba berdi. Temurshohdan so‘ng hukmronlik qilgan afg‘on hukmdorlari kuchli qabilalar yetakchilari qo‘lida hatto “qo‘g‘irchoq” hukmdorga aylanib qolishadi. Bu vaqtda Ahmadshoh davrida barakzoylarning yetakchisi bo‘lgan Hoji Jamolxon Barakzoyning o‘g‘li Poyindaxon Barakzoy ham o‘z urug‘ining yetakchisi, ham davlat ishlarida nihoyatga katta ta‘sir kuchiga ega amaldorga aylanadi. Poyindaxon Barakzoy davlat boshqaruvida katta lavozim – “sardorlar sardori” (qo‘shinda “qo‘mondonlar qo‘mondoni” yoki “amir ul-umaro”) lavozimini egalladi va aynan Zamonshoh (Temurshohning beshinchi o‘g‘li)ning taxtni egallashida katta xizmat ko‘rsatdi.

Zamonshoh hukmronligi davomida Panjobga bir necha marta harbiy yurish qiladi va shu vaqtdan afg‘on davlati bilan Hindistonni o‘z mustamlakasiga aylantirishni boshlagan Buyuk Britaniya o‘rtasida manfaatlari to‘qnashuvi ro‘y beradi. Britaniyaning Ost-Indiya kompaniyasi Eron hukumatidan Zamonshohning tug‘ishgan ukasi Mahmudni afg‘on taxti uchun kurashda qo‘llab-quvvatlashini so‘raydi. Bu orada bir qator qabila sardorlari va e‘tiborli davlat amaldorlarining Zamonshohga qarshi fitnasi fosh etiladi hamda fitna ishtirokchilari qatl etiladi. Qatl etilganlar orasida barakzoylar yetakchisi Poyindaxon Barakzoy ham bor edi. Fitnada Poyindaxon Barakzoyning o‘g‘li Fathxon ham ishtirok etadi, biroq u qatldan qochib qutuladi hamda taxtni egallashga da‘vogar Mahmudga borib qo‘shiladi. Oz sonli qo‘shinga ega Mahmud barakzoylarning

qo'llab-quvvatlashi bilan Qandahorni egallaydi. Zamonshoh ularga qarshi Ahmadxon Nurzoy boshchiligida katta qo'shin jo'natadi. Biroq, Fathxon Ahmadxon Nurzoyni o'z tomoniga og'dirishga muvaffaq bo'ladi va isyonchilar Kobulni egallaydilar. Zamonshoh qo'lga tushirilib, ko'zi ko'r qilinadi va Bolo Hisor hibsxonasiga jo'natiladi.

Taxtni Mahmudshoh (1801–1803) egallaydi va Fathxon bosh vazir lavozimiga tayinlanadi. Lekin Afg'onistonda tinchlik uzoq davom etmaydi va afg'on xalqi Mahmudshohga Eron hukmdorlari tomonidan qo'yilgan qo'g'irchoq hukmdor sifatida qarar edi. Afg'on xalqining noroziligidan ustalik bilan foydalangan Mahmudshohning ukasi Shujoulmulk (1803–1809) taxtni egallaydi.

Shujoulmulk hukmronligi davridan boshlab ingliz hukumatining Afg'onistonga bevosita kirib kelishi boshlandi. 1809-yil fevralda ingliz hukumati Afg'onistonga mashhur davlat arbobi, mohir diplomat Monstyuart Elfinston boshchiligida missiyani jo'natadi<sup>35</sup>. Shujoulmulk ingliz missiyasini Peshovar shahrida qabul qiladi va muzokaralar natijasida ingliz-afg'on bitimi tuziladi. Mazkur bitimdan inglizlar Napoleonning Sharqqa yurishlariga qarshi afg'on davlatidan foydalanish maqsadini ko'zlagan bo'lsalar, Shujoulmulk esa inglizlar ko'magida ichki raqiblariga qarshi kurashib o'z mavqeini mustahkamlab olmoqchi edi.

1809-yil iyunida ro'y bergan navbatdagi davlat to'ntarishi natijasida Shujoulmulk taxtdan ag'dariladi va taxtni yana Mahmudshoh (1809–1818) egallaydi. Bosh vazir lavozimini qayta egallagan barakzoilar yetakchisi Fathxonning davlat ishlarida ta'siri nihoyatda o'sdi. Fathxon o'z ukalarini davlatning muhim lavozimlariga tayinlaydi. Ular orasidan 1792-yilda tug'ilgan Do'st Muhammadxon alohida ajralib turar edi.

---

<sup>35</sup> M.Elfinston o'z safari va Afg'oniston to'g'risida batafsil ma'lumot beruvchi o'ziga xos sayohat kundaligi yozib qoldirgan. Qarang: Elphinstone, M. An Account of the Kingdom of Caubul and its Dependencies, in Persia, Tartary, and India. Vol. I. – London: Richard Bentley, 1842. 422 p.; Elphinstone, M. An Account of the Kingdom of Caubul and its Dependencies, in Persia, Tartary, and India. Vol. II. – London: Richard Bentley, 1842. – P. 440.

Barakzoy yetakchilari keyinchalik afg'on davlatining Sulton Ali (1818) va Ayubxon (1819–1823) kabi hukmdorlarini butunlay o'z qo'llariga olib ular nomidan davlat ishlarini yuritib kelishdi. Bu vaqtda mamlakat butunlay inqirozga yuz tutib, siyosiy tarqoqlik kuchayadi va Afg'onistonda uzoq yillar markazlashgan hokimiyat mavjud bo'lmadi.

XIX asrning ikkinchi choragi Afg'oniston tarixida o'zaro kurashlarning kuchayishi hamda Durroniylarning Sadozoylar urug'i hukmronligining susayishi bilan izohlanadi. Bu davrda afg'on taxti uchun kurash boshlanib ketdi va toj-u taxt uchun kurashayotgan da'vogarlar orasidan Durroniylarning boshqa bir urug'i – Barakzoylarning qo'li baland kela boshladi. Bu jarayonda tadbirkorligi va jasurligi bilan shuhrat qozongan Do'st Muhammadxon (1826–1838, 1842–1863) nihoyat hokimiyatni egalladi<sup>36</sup>. 1826-yilda Kobul va Ko'histon amiri bo'lgan Do'st Muhammadxon uzoq kurashlardan so'ng mamlakatning katta qismini o'z hukmronligi ostiga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Bu borada dastlab g'ilzoylarni bo'ysundirgan Do'st Muhammadxon 1833-yilda Jalolobod shahrini ham egallaydi.



Do'st Muhammadxonning davlat boshqaruvida amalga oshirgan ulkan ishlaridan biri shundaki, u afg'on davlatida 1747-yildan buyon o'rnatilgan davlat hukmdori faqat sadozoylar urug'iga mansub bo'lishi tartibiga butkul barham beradi<sup>37</sup>. Shuningdek, u bir qator viloyat, tuman va shahar hukmdorlari bo'lgan aka-ukalari ustidan ham o'z hukmronligini yurgizishga intiladi. Do'st Muhammadxon davlat boshqaruvi sohasida yana bir o'zgarishni amalga oshiradi va

<sup>36</sup> Kokar, M. Hassan. *A Political and Diplomatic History of Afghanistan, 1863–1901*. – Leiden: Brill, 2006. – P. 2–3.

<sup>37</sup> Noelle, Ch. *State and tribe in nineteenth century Afghanistan: The reign of Amir Dost Muhammad Khan (1826–1863)*. – Richmond, UK: Curzon, 1997. – P. 12.

o'ziga "amir" titulini oladi. Do'st Muhammadxon ushbu harakati orqali birinchidan, Peshovar shahrini egallab olgan sikxlarga qarshi "jihod" e'lon qilishni ko'zda tutgan bo'lsa, ikkinchidan, o'zining ko'p sonli shuhratparast va hasadchi aka-ukalarining noroziligini oldini olishni mo'ljallagan edi. "Jihod" e'lon qilish huquqiga faqatgina musulmon mamlakatida hukmronlik qilayotgan mustaqil hukmdor egaligini nazarda tutgan holda, Do'st Muhammadxon 1834-yilda Kobulning musulmon ruhoniylari va peshvolaridan "amir" (amir al-mo'minin) titulini oladi va bu orqali mamlakatning aksariyat musulmon bo'lgan aholisi ustidan o'z hukmronligini yurgizishni ko'zda tutgan edi. Shoh titulidan voz kechishi orqali Do'st Muhammadxon o'z aka-ukalariga hokimiyatni meros qilib olmaganligini va ularning markaziy hokimiyatni egallash uchun harakatlari asossiz ekanligini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ladi<sup>38</sup>.

Amir Do'st Muhammadning davlatni mustahkamlash borasidagi sa'y-harakatlari aka-ukalarining hasadini keltiradi va Do'st Muhammad ularni davlat boshqaruvidan chetlashtirib, o'z o'g'illarini davlat ishlariga mas'ul etib belgilaydi hamda davlatdagi ma'muriy, huquqiy ishlarning holatini yaxshilab, qo'shin tuzilishiga alohida e'tibor beradi<sup>39</sup>. Do'st Muhammadxon boshchiligidagi mustaqil afg'on davlatining kuchayishi va uning mamlakatni birlashtirishdagi muvaffaqiyatlari inglizlarning Afg'onistonni va O'rta Osiyoni bosib olishdagi rejalariga to'sqinlik qilardi.

Afg'onistonda o'zlariga loyol munosabatda bo'luvchi hukmdor istagida bo'lgan ingliz mustamlakachilari Do'st Muhammadxon davlatiga qarshi dastlab Hindiston hududlarida istiqomat qiluvchi sikxlarni, so'ngra esa eronliklarni gijgijlaydi. Lekin shunga qaramay, Do'st Muhammadxon nafaqat afg'on yerlarini o'z qo'l ostida

<sup>38</sup> Рашидов Р. Амир Ду́ст Мухаммадхон хукмронлиги даврида Афғонистон / Хорижий Шарк мамлакатлари тарихий жараёнлари ва уларни урганишнинг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. ТошДШИ, 2015. – Б. 162–165.

<sup>39</sup> Lal Mohan. Life of the Amir Dost Mohammed Khan, of Kabul. Vol. 1. – London: Longman, Brown, Green, and Longmans. 1846. – P. 90, 214.



saqlab qoldi balki, tarixda afg'on davlati tarkibiga kirgan yerlari-ning katta qismini o'z amirligiga qo'shib olishga muvaffaq bo'ldi.

Bu orada ingliz hukumatining Afg'onistonga bostirib kirish rejaları ancha shakllanib ulgurgan va ular bir qator dadil harakatlarni boshlab yuborishgan edi. Jumladan, dastlab sikxlar yetakchisi Radjit Singhga nisbatan turli bosimlar o'tkazib kelgan inglizlar 1838-yil avgustida Hirot shahrini qamal qilib turgan Eronga nisbatan do'q-po'pisalar qilish orqali Hirot qamalini to'xtatishga muvaffaq bo'ldilar. Hirot shahri inglizlarning kelgusi rejalarida O'rta Osiyoga bostirib kirish uchun muhim strategik plasdarm vazifasini o'ynashi nazarda tutilgan edi. Shu bois, inglizlar uchun Hirot shahri nisbatan kuchliroq Eron tarkibida emas, balki ichki kurashlar doimiy tus olgan Afg'oniston tarkibida bo'lishi ma'qulroq edi. Ularning fikricha, Afg'onistonni bosib olish hamda u yerda qo'g'irchoq hukumatni shakllantirish bilan Hirot orqali keyingi rejalarini amalga oshirishga kirishish mumkin edi.

Ingliz hukumati Afg'onistonga qarshi urushga tayyorlanar ekan, urushni boshlash uchun bahona izlaydi hamda taxtdan ag'darilgan Shujoulmulkni qayta taxtga o'tkazish va shu orqali o'zlariga "munosib" afg'on hukmdorining taxtni egallashi yo'lida Afg'onistonga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'radi. Shu tariqa Buyuk Britaniyaning Afg'onistondagi manfaatlari ro'yobga chiqmagach, ikki o'rtada birinchi ingliz-afg'on (1838–1842) urushi yuz berdi. Inglizlar mazkur harbiy harakatlarni olib borishdan maqsad amir Do'st Muhammadxonning o'rniga o'z "odami" Shujoulmulkni taxtga ko'tarib, Afg'onistonni shu yo'l bilan qaram qilib olish edi.

1838-yil oxirida afg'on zaminiga qarab yo'lga chiqqan inglizlarning "Hind armiyasi" 30 ming nafardan ortiq askar va zobit hamda 40 ming nafardan ziyod xizmatkorlardan iborat edi. 1839-yil may oyida ingliz qo'shini Qandahorni jangsiz egalladi va inglizlar Shujo ul-Mulkni taxtga o'tqazilganligini va sadozoylar dinastiyasining qayta tiklanganligini e'lon qildilar<sup>40</sup>. Biroq, Qandahor

---

<sup>40</sup> Kaye J.W. History of the War in Afghanistan. Third edition. – London: WM. H.Allen & Co., 1874. – P. 439–442.

aholisi o‘z yurtiga ajnabiylarni boshlab kelgan yangi hukmdorga nisbatan hech qanday iliq munosabat bildirmadi. Shundan so‘ng Shujoulmulk afg‘on hukmdori sifatida ingliz hukumati bilan 8 banddan iborat rasmiy shartnoma imzoladi. Ushbu shartnomaga ko‘ra, Afg‘oniston tashqi dunyodan izolyatsiyada bo‘lishi, ingliz hukumatining ruxsatisiz hech bir ajnabiy (ayniqsa yevropalik)ni mamlakatga kirishiga yo‘l qo‘ymasligi, ingliz qo‘shini mamlakatda umrbod qolishi hamda shohni, “afg‘on xalqini”, va afg‘on zaminini chet ellik bosqinchilardan himoya qilishi, shoh ingliz armiyasi ta‘minotini o‘z zimmasiga olishi va uning huzurida doimiy ravishda ingliz hukumatining maxsus vakili bo‘lishi, inglizlarga Afg‘oniston bilan savdo-sotiq yuritishda keng imkoniyatlar berishi belgilab qo‘yilgan edi<sup>41</sup>.

Inglizlarning bosqinchilik harakatlari amir Do‘st Muhammadxonni tashvishga soldi va u bunga qarshi zarba berishda Rossiya va Erondan yordam olishga umid bog‘lab, ular bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga intildi. Biroq, Rossiya Yaqin Sharq masalalari bilan band bo‘lganligi bois Afg‘oniston masalasida Angliyaga yon bosdi va Afg‘oniston bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishni paysalga soldi.

Ingliz qo‘shini Kobulga tomon o‘z yurishini davom ettirdi va 1839-yil iyulida G‘azna shahrini va avgustda Kobulni egalladi<sup>42</sup>. Inglizlar tomonidan bir qator qabila yetakchilari va saroy ayonlarining sotib olinishi natijasida amir Do‘st Muhammadxon bosqinchilarga qarshi aytarli qarshilik ham ko‘rsata olmadi va mamlakat shimoliga chekindi. Uning mamlakat shimolidagi o‘zbek va tojik bekliklari qo‘shini hamda Buxoro amiri Nasrullo (1826–1860) ko‘magida inglizlarga qarshilik ko‘rsatish rejasi ham amalga oshmadi. Shundan so‘ng umidsiz qolgan amir Do‘st Muhammadxon 1840-yil noyabrida Kobulga kelib inglizlarga taslim bo‘ladi va bosqinchilar uni oilasi bilan Hindistonga jo‘natadilar. Biroq, 1841-yilning bahoridan bosqinchilarga qarshi butun mamlakat

---

<sup>41</sup> Файз Муҳаммад. Сирож ат-таворих. 1–3 жилд. Кобул, 1331–1333 хй. (1912/13 – 1914/15). – Б. 143.

<sup>42</sup> Kaye J.W. History of the War in Afghanistan. Third edition. – London: WM. H.Allen & Co., 1874. – P. 455–458.

bo'ylab ommaviy ravishda xalq qo'zg'oloni alangalanib ketadi. Bunga ajnabiylarning boshboshdoqliklari, turmush tarzining yomonlashuvi, shoh tomonidan ingliz armiyasi ta'minoti uchun soliqlarning haddan ziyod oshirilishi, narx-navoning bir necha barobarga qimmatlashib ketganligi, shuningdek, 1840–1841-yilgi qurg'oqchilik sabab bo'ldi.

1841-yilning 2-noyabrida Kobulda ommaviy qo'zg'olon boshlanadi va poytaxt qo'zg'olonchilar qo'liga o'tadi. Qo'zg'olon davomida inglizlarning Afg'onistondagi yuqori lavozimdagi ma'muri Iskandar Byorns o'ldiriladi<sup>43</sup>. Bu vaqtda qo'zg'olonga amir Do'st Muhammadxonning o'g'illaridan biri Akbarxon boshchilik qila boshlaydi. Butun mamlakatdan poytaxtga yangi kuchlar kelib qo'zg'olonchilar saffariga qo'shila boshlaydi. Afg'on xalqidan bunday shiddatli harakatni kutmagan bosqinchilar butkul harakatsiz bo'lib qoladilar. Shujoulmulk yonida "keng vakolatlarga ega vazir" lavozimini egallagan ingliz ma'muri Maknoten qo'zg'olonchilar bilan kelishishga harakat qiladi. Bundan maqsad vaqtni cho'zish va Hindistondan yangi ingliz kuchlari kelishini kushish edi<sup>44</sup>. Ammo, uning ushbu sa'y-harakatlari samara bermaydi va qo'zg'olonchilarning talabi bilan 1841-yil 11-dekabrda ingliz qo'shinini afg'on zaminidan olib chiqib ketish bo'yicha kelishuv imzolanadi. Akbarxon hamda inglizlar rahbari Maknoten o'rtasida bo'lib o'tgan yakkama-yakka uchrashuv chog'ida Maknoten Akbarxonni o'ldirmoqchi bo'ladi. Biroq Akbarxon chaqqonlik ila Maknotenni o'ldiradi<sup>45</sup> va shundan so'ng boshsiz qolgan inglizlar orasida haqiqiy sarosima boshlanadi.

1842-yil 6-yanvarida Kobuldan chekinib Qandahorga qarab yo'lga chiqqan 4500 nafardan ziyod ingliz askar va zobitlari

<sup>43</sup> Burnes A. Cabul: personal narrative journey to, and residence in that city, in the years 1836–38. – Philadelphia: Carey and Hart, 1843. 96 p. А.Бёрнснинг Афғонистондаги фаолияти хотиралари.

<sup>44</sup> Rashidov R. Afg'onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. Monografiya. – T.: Navro'z, 2017. – B. 21.

<sup>45</sup> Henty G.A. To Herat and Kabul. A Story of The First Afghan War. – New York: Charles Scribner's Sons, 1901. – P. 244–250.

hamda 12 ming nafardan ortiq xizmatkorlar<sup>46</sup> yo'l davomida qo'zg'olonchilar va partizanlik harakati ishtirokchilari tomonidan qo'yilgan pistirmalar, doimiy ta'qib va qo'qqisdan uyushtirilgan hujumlar natijasida butkul qirg'in qilindi va faqat birgina odam (doktor Braydon) ro'y bergan voqealarni ingliz ma'murlariga yetkazishi uchun tirik qoldirildi. 1842-yil 7-mart kuni qo'zg'olonchilar G'azna shahrini inglizlardan ozod qildilar hamda ularning Qandahorni inglizlardan ozod qilish bo'yicha harakatlari besamar ketdi. Chunki, ingliz ma'muriyati Hindistondan yangi kuchlarni chaqirib o'z saflarini birmuncha mustahkamlab olgan edi. Kobulda qolgan "qo'g'irchoq" hukmdor Shujoumuluk xalq qo'zg'olonidan sarosimaga tushib, qo'zg'olon rahbarlari va qabila yetakchilari bosimi bilan bosqinchi ajnabiylarga qarshi "muqaddas urush" e'lon qilishga va'da beradi. Biroq, 1842-yil 5-aprelida Kobuldan chiqib, yana inglizlar panohiga qarab qochib ketayotganida qo'zg'olonchilar tomonidan qo'lga tushirilib o'ldiriladi.

Yuqoridagi muvaffaqiyatsizliklardan so'ng Buyuk Britaniya hukumati Afg'onistonni ham Hindiston kabi mustamlakaga aylantirish uchun mas'ul etib belgilangan Ost-Indiya kompaniyasi faoliyatiga norozilik bildiradi. Shu sababli 1842-yil boshida Hindiston general-gubernatori lavozimini egallab kelgan Oklend o'z vazifasidan ozod etildi hamda uning o'rniga Ellenboro tayinlandi. Afg'onistondagi qo'zg'olonning Hindiston hududiga ham tarqalib ketishidan cho'chigan Ellenboro inglizlarning Qandahor va Jalolobodda qolgan harbiy kuchlariga Hindistonga qaytish to'g'risida farmoyish beradi. Shu bilan birga, ingliz kuchlariga ortga qaytish chog'ida qo'zg'olonchilardan shafqatsiz o'ch olib, afg'on xalqiga nisbatan qirg'in uyushtirish buyrug'i berildi. 1842-yil sentabrida qo'zg'olonchilar va qabila yetakchilari orasidagi ba'zi kelishmovchiliklar hamda yakka qo'mondonlikning yo'qligi tufayli inglizlarning Qandahor va Jalolobodagi harbiy kuchlari Kobul va G'azna shaharlarini egallaydi. Inglizlar afg'on xalqidan

---

<sup>46</sup> Forbes A. The Afghan Wars, 1839-42 and 1878-80. - London: Seeley & Co., 1892. - P. 105-106.



ayovsiz o'ch olib Kobul va G'azna shaharlarini butkul vayron qilib tashlaydi. Nihoyat, Afg'onistonni to'la nazoratda ushlab turish juda ham mushkulligini anglab yetgan ingliz ma'muriyati o'z qo'shinini Afg'onistondan olib chiqadi. Biroq, ingliz qo'shinining afg'on zaminidan chiqib ketishi haqiqiy quvg'inga aylanadi. Chunki, afg'on qabilalarining partizanlik harakatlari tufayli ingliz qo'shiniga katta talafot yetkazildi.

1843-yilning boshida ingliz ma'muriyati amir Do'st Muhammadxonga Hindistondan Afg'onistonga qaytishga ijozat beradi. Do'st Muhammadxon Kobulga qaytadi hamda ikkinchi marta taxtni egalaydi. Shu bilan 1838–1842-yillarda davom etgan birinchi ingliz-afg'on urushi yakuniga yetdi. Birinchi ingliz-afg'on urushida Angliya harbiy jihatdan ancha ustun ekanligiga qaramay, muvaffaqiyat qozona olmadi. Chunki afg'onlar ingliz bosqinchilariga qarshi milliy mustaqillik, umumxalq urushini olib bordilar. Urush natijalariga ko'ra, 70 mingdan ortiq ingliz va afg'on askarlari halok bo'ldi. Angliya Afg'oniston bilan sulh bitimi imzolashga va bu davlatning milliy mustaqilligini tan olishga majbur bo'ldi.

Urushda mag'lub bo'lishiga qaramasdan, ingliz hukumati Afg'onistondan butunlay voz kechmagan edi va Afg'oniston inglizlarning doimiy e'tiborida bo'lib keldi. Shu bois, Buyuk Britaniya afg'on davlati bilan bo'ladigan munosabatlarda do'q-po'pisa qilish, faqat o'z manfaatlarini ustunligini ta'minlashga intilish, afg'on davlatini butkul izolyatsiyada ushlashga harakat qilib keldi. Do'st Muhammadxon Kobulga qaytib taxtni egallagan vaqtda uning qo'li ostida hozirgi Afg'onistonning chorak qismiga teng hudud qolgan edi, xolos. Qandahor, Hirot va mamlakat shimoli Do'st Muhammadxonga bo'ysunmas edi. O'z o'g'illarini qo'l ostidagi hududlarga, jumladan, Muhammad Afzalxonni Zurmat va Kattavozga, Sheralixonni Kurramga, Muhammad A'zamxonni Logarga, Muhammad Aminxonni Ko'histonga, G'ulom Haydarxonni G'aznaga hokim etib tayinladi<sup>47</sup> va davlatni qayta birlashtirish siyosatini boshlab yubordi.

<sup>47</sup> Файз Мухаммад. Сирож ат-таворих. 1–3 жилд. Кобул, 1331–1333 хй. (1912/13 – 1914/15). – Б. 200.

## XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA AFG‘ONISTONDAGI SIYOSIY, IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOT

Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyatni anglagan Afg‘oniston amiri Do‘st Muhammadxon XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab Buyuk Britaniyaning kuchli mavqeini hisobga olgan holda, ingliz ma‘muriyati bilan yaqinlashish siyosatini olib bora boshladi. Amirning bunday xatti-harakatiga Eronning Hirot shahrini bosib olish bo‘yicha faol siyosati turtki bergan edi. Eronning Hirot shahrini bosib olish bo‘yicha harakatlariga to‘sqinlik qilish maqsadida inglizlar bilan o‘zaro kelishilgan holda harakat qilish uchun Do‘st Muhammadxon 1855-yilda o‘g‘li G‘ulom Haydarxonni Peshovar shahriga jo‘natadi. O‘zaro muzokaralarda ingliz tomonidan Ost-Indiya kompaniyasining Panjobdagi bosh vakolatli ma‘muri Lourens ishtirok etdi va natijada 1855-yilning 30-martida 3 banddan iborat ingliz-afg‘on shartnomasi imzolanadi. Mazkur shartnomaning birinchi bandida Ost-Indiya kompaniyasi hamda Do‘st Muhammadxon va uning vorislari o‘rtasida tinchlik va do‘stlik o‘rnatilganligi belgilab qo‘yildi. Shartnomaning ikkinchi va uchinchi bandlari tomonlar bir-birlarining hududiy yaxlitligini hurmat qilishlari, Do‘st Muhammadxon va uning vorislari Ost-Indiya kompaniyasining “dushmanlariga dushman, do‘stlariga do‘st” bo‘lishlari (inglizlar aksincha, o‘zlariga nisbatan bunday majburiyatni olmaydilar), 1849-yilda inglizlar tomonidan bosib olingan ba‘zi afg‘on qabilalari yashaydigan hududlar (shuningdek, Peshovar shahri)dan voz kechish kabi shartlar qo‘yilgan edi<sup>48</sup>.

1855-yilgi ingliz-afg‘on shartnomasi natijasida inglizlar Do‘st Muhammadxonning tashqi siyosiy faoliyati ustidan to‘la nazorat o‘rnatishga intilishgan bo‘lsa, amirning Qandahor shahriga nisbatan huquqini ham e‘tirof etadilar hamda amir tomonidan ushbu shaharni o‘z mulklariga qo‘shib olinishiga e‘tiroz bildirmasliklarini ma‘lum

---

<sup>48</sup> Ferrier, J.P. History of the Afghans. – London: John Murray, 1858. – P. 401–402.

qiladilar. Natijada, Do'st Muhammadxonning ikkinchi hukmronligi davri boshlanganidan beri afg'on davlati tarkibiga kirmay kelayotgan Qandahorga amir qo'shinlari 1855-yil noyabrda yurish qilib, shaharni egallaydi va Qandahor Do'st Muhammadxon mulklariga qo'shib olinadi. 1856-yil oktabrida Hirot shahrining Eron tomonidan bosib olinishi Buyuk Britaniya va Eron o'rtasida urush kelib chiqishiga sabab bo'ldi va Eronning bosqinchilik harakatlari inglizlarni Do'st Muhammadxon bilan yanada yaqin munosabatlar olib borishga undaydi. Ingliz-eron urushida qisqa muddatda g'alaba qozongan inglizlar Eronni Hirot shahridan butkul voz kechishga hamda ushbu shaharga nisbatan kelgusida hech qachon da'vo qilmaslikka majbur etadilar. Biroq, ingliz hukumati Eron qo'shinlaridan ozod etilgan Hirot shahrini Do'st Muhammadxon qo'l ostiga topshirishga shoshilmadi. Inglizlar uchun Hirot bir betaraf va kuchsiz mahalliy hukmdor qo'l ostida bo'lgani hamda Buyuk Britaniyaning O'rta Osiyoga kirib borish bo'yicha kelgusi rejalari uchun muhim rol o'ynaydigan shahar bo'lib qolishi lozim edi.

Amir Do'st Muhammadxon va Ost-Indiya kompaniyasi o'rtasida 1857-yil yanvarida yana bir ingliz-afg'on shartnomasi imzolanadi. Mazmuniga ko'ra harbiy masalalar aks etgan mazkur shartnomada Do'st Muhammadxon va uning vorislari Ost-Indiya kompaniyasining "dushmanlariga dushman, do'stlariga do'st" bo'lishlari yana bir bor ta'kidlab o'tildi hamda amirga ingliz hukumati har oyda 100 ming rupiy to'lab turishini ma'lum qildi. Mazkur mablag' hisobiga amir o'z qo'shinini 18 ming nafarga ko'paytirishi va Eron tomonidan tug'iladigan tahdidga tayyor bo'lib turishi belgilab qo'yildi. Shuningdek, amirning Eron bilan bo'ladigan munosabatlari Kobulda faoliyat olib boradigan maxsus ingliz ma'murining nazorati ostida olib borilishi ta'kidlab qo'yildi.

Garchi Hirot shahri Eron qo'shinlaridan tozalangan va u yerga inglizlarning Teylor boshchiligidagi missiyasi yuborilgan bo'lsa-da, Hirotni Eronning ta'sir doirasidan chiqarib olish mushkul vazifa edi. Bunga 1857-yilda Hindistonda boshlanib ketgan yirik

xalq qo'zg'oloni ham xalaqit berardi. Mazkur qo'zg'oloni bostirish uchun katta xarajatlarni sarf etgan inglizlar Hirot shahriga nisbatan o'z e'tiborlarini biroz susaytirdilar. Buning natijasida Eron shohining ushbu shahardagi ta'siri kengaya bordi. Eron shohining Hirotidagi ta'siriga chek qo'yish maqsadida ingliz ma'muriyati nihoyat 1862-yilda ushbu shaharni amir Do'st Muhammadxon qo'l ostidagi mulklarga qo'shib olinishiga ijozat berdi.

Do'st Muhammadxon qo'shini 10 oylik qamaldan so'ng 1863-yil may oyida Hirotni egallaydi. Yana bir yirik siyosiy-iqtisodiy markazni qo'shib olish bilan mamlakatni birlashtirish yo'lida katta qadam tashlangan bo'lsa-da, bu uzoqqa cho'zilmaydi. 1863-yil iyunida amir Do'st Muhammadxon Hirotida vafot etadi. Do'st Muhammadxonning nisbatan uzoq muddatli hukmronligi Afg'oniston tarixida o'ziga xos iz qoldirdi va shu sababli afg'on xalqi tomonidan u "Amir-i Kabir" ya'ni "Ulug' Amir" deb atalib kelinadi.

Do'st Muhammadxon vafotidan so'ng dastlab uning o'g'li Sheralixon (1863–1879) amir deb e'lon qilinadi. Biroq, tez orada "Ulug' Amir"ning ko'p sonli o'g'illari o'rtasida toj-u taxt uchun kurash boshlanib ketadi. 1864-yil boshida boshlangan ushbu kurashda Sheralixonning asosiy raqibi Do'st Muhammadxonning katta o'g'li Muhammad Afzalxon edi. Markazi Balx shahri bo'lgan Afg'on Turkistonining hokimi Muhammad Afzalxon taxtga o'z ukasi Muhammad A'zamxonni o'tkazish harakatida bo'ladi. Ushbu kurash davomida Muhammad Afzalxon 1866-yilda Kobul va 1867-yilda Qandahor shaharlarini egallaydi va Sheralixon Hirotga chekinishga majbur bo'ladi. Biroq, tez orada Muhammad Afzalxon vafot etadi va hokimiyat ukasi Muhammad A'zamxon qo'lga o'tadi. Shundan so'ng yangi kuch bilan kurashni davom ettirgan Sheralixon yana Kobul va Qandahorni qayta egallaydi va unga qarshi birlikda kurashayotgan Muhammad A'zamxon hamda Muhammad Afzalxonning o'g'li Abdurahmonga 1869-yil Zurmatda bo'lib o'tgan hal qiluvchi jangda qaqshatqich zarba beradi. Natijada 1869-yil boshiga kelib Sheralixon otasi Do'st Muhammadxon hukmron-



ligi davridagi barcha yerlarni o'z hokimiyati ostida birlashtirishga muvaffaq bo'ladi.

Sheralixon o'z hokimiyatining mustahkamligini ta'minlash yo'lida inglizlar bilan o'zaro munosabatlarga aniqlik kiritib olmoqchi bo'ladi. Shu maqsadda 1869-yil Buyuk Britaniyaning Hindistondagi vise-qirol lord Mayo bilan uchrashadi hamda o'zaro muzokaralar olib boradi. Mazkur muzokaralar chog'ida amir Sheralixon tomonidan inglizlarga bir qator talablar qo'yiladi. Jumladan, inglizlarning afg'on davlati ichki ishlariga aralashuviga butunlay chek qo'yish, Afg'onistonda Sheralixon va uning vorislaridan boshqa hech kimni do'st sifatida tan olmaslik, Sheralixonning o'g'li Abdullajonni taxt vorisi etib tan olish kabilar ilgari suriladi. Afg'on amirining mazkur talablariga javob berish chog'ida inglizlar Afg'onistonning ichki ishlariga aralashmaslik majburiyatini oladi va afg'on amiriga moddiy ko'mak berishga va'da beradi.

Hindistondan qaytib kelgan Sheralixon mamlakatda bir qator ichki islohotlarni amalga oshirishga kirishib ketadi. Uning rejasiga ko'ra, harbiy va soliq sohasida islohot o'tkaziladi. Bundan maqsad davlatning harbiy qudratini oshirish hamda davlat g'aznasiga tushadigan daromadlarni keskin ko'paytirish edi. Biroq, qabila yetakchilari va sardorlarining ta'siri hamda hokimiyati kuchli bo'lgan Afg'oniston sharoitida buni amalga oshirishning iloji yo'q edi. Shu sababli amirning bu boradagi sa'y-harakatlari kam samara berdi hamda yuqoridagi islohotlardan ko'zlangan natijalarga erishilmadi. Islohotlardan keyin ham mamlakatda qabila yetakchilarining mavqei balandligicha qolaverdi. Sheralixonning qabila yetakchilari daromadlarini davlat g'aznasiga topshirishga qaratilgan siyosati mahalliy hokimiyat vakillarining noroziligiga sabab bo'lgan bo'lsa, mamlakat aholisi ixtiyorida bo'lgan ortiqcha qurol-aslahani ham davlatga topshirish bo'yicha amir tomonidan chiqarilgan farmon xalqning keskin noroziligiga olib keldi. Mamlakatni birlashtirish siyosatini davom ettirgan Sheralixon 1869-yilda Qunduz va 1873-yilda Badaxshonni o'z davlati tarkibiga qo'shib oladi.

Buyuk Britaniya hukumati 1838–1842-yilgi birinchi ingliz-afgʻon urushidagi sharmandali magʻlubiyatni unutilib, 1878-yil yana afgʻon davlatiga nisbatan urush boshladi. 1878-yil noyabrida Hindistonda turgan inglizlar qoʻshini uch yoʻnalishda Afgʻoniston tomon yoʻlga chiqdi. General S.Broun boshchiligidagi 16 ming nafar harbiydan iborat birinchi guruh Peshovar shahridan Xaybar dovoni tomonga qarab yoʻlga tushgan boʻlsa, general F.Roberts boshchiligidagi 6,5 ming nafar harbiydan iborat ikkinchi guruh Koxatdan Xost shahriga qarab yoʻlga tushdi. D.Styuart boshchiligidagi 13 ming nafar harbiydan iborat uchinchi guruh janubiy yoʻnalishda harakat qilib, Kvetta shahridan Bolan dovoni orqali oʻtib, Qandahor shahrini egallash uchun yoʻlga chiqdi<sup>49</sup>.

Xaybar dovoniga yetib kelgan ingliz qoʻshini bilan afgʻon qabilalarining koʻngilli qoʻshini oʻrtasida dastlabki toʻqnashuv boʻlib oʻtdi. Garchi ushbu toʻqnashuvda afgʻonlar yengilgan boʻlishsa-da, ularning son jihatdan bir necha barobar ustun dushmanga qarshi mardonavor harakatlari butun mamlakat boʻylab tarqaldi. General F.Roberts boshchiligidagi qoʻshin ham togʻli hududlarda afgʻonlarning kuchli qarshiligiga duch keldi va yuzma-yuz jangda muvaffaqiyat qozona olmagan inglizlar harbiy hiyla orqali afgʻonlarni magʻlub etdilar va Xost shahrini egalladilar. Shundan soʻng darhol Kobul tomonga yoʻlga tushmoqchi boʻlgan general F.Roberts afgʻon zaminining baʼzi qiyinchiliklari tufayli oʻz harakatini sekinlashtirishga majbur boʻldi.

Ingliz qoʻshinlarining afgʻon zaminiga bostirib kirganidan soʻng amir Sheralexon mazkur bosqinchilik urushini qoralab ingliz maʼmurlariga murojaat qildi hamda Peterburg shahriga borib, ingliz hukumatining bosqinchilik xatti-harakatlari muhokama qilinadigan Xalqaro konferensiya chaqirish rejasi borligini maʼlum qildi. Sheralexonning fikricha, Peterburgda chaqirilishi lozim boʻlgan

---

<sup>49</sup> Hanna, H.B. The second Afghan war 1878–79–80. Its causes, its conduct and its consequences. Vol I. – London: Westminster Archibald Constable & Co, 1899. – P. 300–353.

Xalqaro konferensiya inglizlarni Afgʻonistonni tark etishga majbur qilishi lozim edi<sup>50</sup>.

Sheralixon oʻzining asosiy kuchlarini mamlakatning markaziy qismida ushlab turadi va inglizlarga zarba berish muddatini poylaydi. U, hatto Qandahor shahri himoyachilariga ham inglizlarga qarshilik koʻrsatmaslik haqida buyruq beradi va 1879-yilning 8-yanvarida inglizlar Qandahorni jangsiz egallaydilar. Afgʻonistonning sharqi va janubini egallagan inglizlar poytaxt Kobulga qarab yurish boshlaydilar va bir qator qabila yetakchilari hamda yuqori lavozimdagi amaldorlarni katta pul evaziga oʻz tomonlariga ogʻdirib oladilar. Mushkul vaziyatda qolgan hamda inglizlarning bosqinchilik xatti-harakatlari muhokama qilinadigan Xalqaro konferensiya chaqirish istagidan qaytmagan amir Sherali 1878-yil dekabrda taxtni oʻgʻli Yoqubxonga topshirib, rus podshosi huzuriga borish uchun mamlakat shimoliga qarab yoʻlga chiqadi. Biroq, Rossiya imperiyasi nomidan Sheralixon bilan yozishmalar olib borgan Turkiston general-gubernatori fon Kaufman (1867–1881) Rossiya va Buyuk Britaniya munosabatlarini chigallashtirmaslik maqsadida Sheralixonni yoʻldan qaytarmoqchi boʻladi. Shundan soʻng orzu-umidlari puchga chiqqan Sheralixon kasallanib, 1879-yilning fevralida Mozori Sharif shahrida vafot etadi.

Taxtga oʻtirgan Yoqubxon inglizlar yordamida oʻz hokimiyatini mustahkamlamoqchi boʻladi va 1879-yil bahoridan mamlakat boʻylab inglizlarga qarshilik koʻrsatishni toʻxtatish boʻyicha farmoyish beradi. Shu yilning 26-may kuni esa inglizlar Yoqubxon bilan Gandamak shartnomasini imzolaydilar.

Gandamak shartnomasiga koʻra, Afgʻoniston Buyuk Britaniyaga qaram boʻlgan vassal davlatga aylandi. Afgʻon davlati mustaqil ravishda tashqi siyosat yuritish hamda chet davlatlar bilan munosabatlar olib borish huquqidan mahrum etildi. Afgʻon davlatining chet davlatlar bilan munosabatlari faqatgina Britaniyaning Hindistondagi maʼmuriyati orqali olib borilishi

---

<sup>50</sup> Файз Муҳаммад. Сирож ат-таворих. 1–3 жилд. Кобул, 1331–1333-ҳй. (1912/13 – 1914/15). – Б. 342.

belgilab qo'yildi. Shuningdek, Yoqubxon inglizlarning bir qator hududlar, jumladan Xaybar dovonini nazorat qilish huquqini tan oldi. Inglizlar o'z navbatida afg'on hukmdoriga har yili 600 ming rupiy miqdorda ko'mak berishga va'da beradilar hamda ushbu mablag'ning qay tarzda sarflanayotganligini nazorat qilish uchun Kobulda doimiy faoliyat yuritadigan ingliz rezidenti faoliyat yuritishiga erishdilar.

1879-yil iyulida ingliz rezidenti etib tayinlangan Lui Kavanyari Kobulga yetib keladi. L.Kavanyari Yoqubxon amaldorlari tomonidan hurmat-ehtirom bilan kutib olinsa-da, unga nisbatan xalqning qahrg'azabi to'lib turganligi yaqqol namoyon bo'lib turar edi. Shu tariqa ikkinchi ingliz-afg'on urushining dastlabki bosqichi tugadi. Ushbu bosqichda afg'onlar uyushqoqlik bilan harakat qilmaganliklari bois, garchi mag'lubiyatga uchragan bo'lsalar-da, inglizlarning muvaffaqiyatini ham mustahkam va ishonchli deb bo'lmas edi. Inglizlar o'zlarining yengil g'alabalaridan mag'rurlanib, butkul beparvolikka berildilar. Hatto, ingliz missiyasi rahbari L.Kavanyari har kuni kechki payt Kobul bo'ylab sayrga chiqar va bu holat tabiiy ravishda mahalliy aholining inglizlarga nisbatan qahrug'azabini yanada oshirar edi. L.Kavanyari tomonidan afg'on davlati ichki ishlariga ko'plab aralashish holatlari bir qator mahalliy amaldorlarning inglizlar yuritayotgan siyosatga nisbatan noroziligi paydo bo'lishiga olib keldi.

Xalqning qahru-g'azabi oshib borayotganligi xususida inglizlar qo'lida qo'g'irchoq hukmdor bo'lib turgan Yoqubxon ham 1879-yil avgusti davomida L.Kavanyarini bir necha bor ogohlantiradi. Biroq, ingliz rezidenti bunday holatga e'tibor bermay o'sha yilning 2-sentabrida Hindistondagi ingliz mustamlakachilik ma'muriyatiga afg'on zaminida hamma ishlar joyidaligi to'g'risida ma'lumotnoma jo'natadi. 3-sentabr kuniyoq Kobulda ommaviy qo'zg'olon boshlandi. Bunga ko'p vaqtdan buyon maosh olmagan afg'on harbiylarining noroziligi bois uyushtirilgan namoyish hamda ushbu norozilikni inglizlar tomonidan qurol kuchi vositasida bostirilishga intilishi sabab bo'ldi. Ingliz rezidenti L.Kavanyari ushbu namo-



yishni bostirish maqsadida birinchi bo'lib o'zi afg'on askarlariga qarata o'q uzadi va shu bilan ikki tomon o'rtasida qurolli to'qnashuv ro'y beradi. Afg'on askarlariga Kobul aholisi ham qo'shiladi va ingliz rezidenturasi binosi egallanib, barcha inglizlar, shu jumladan missiya rahbari L.Kavanyari ham o'ldiriladi.

Afg'on hukmdori Yoqubxon garchi ikki ming nafardan ortiq yaxshi qurollangan harbiy bo'linmaga ega bo'lsa-da, ingliz missiyasining qirg'iniga qarshi hech bir chora qo'llay olmaydi va faqat qo'zg'olonchilarni yaxshi gap hamda iltimoslar bilan yo'ldan qaytarmoqchi bo'ladi. Biroq, afg'on hukmdorining ushbu harakati hech bir naf bermaydi. Qo'rqib ketgan Yoqubxon o'sha kuni kechki payt Hindiston vise-qirol nomiga xat yo'llab, Kobulda ro'y bergan qirg'in haqida inglizlarni ogoh etadi. Kobuldagi qo'zg'olon xabari butun mamlakat bo'ylab tarqaladi va Afg'onistonning turli burchaklarida ushbu voqeani qo'llab-quvvatlab, ko'ngilli ravishda qo'zg'olonga qo'shilganlar soni orta boshlaydi.

1879-yilning 5-sentabrida Hindistondagi ingliz ma'muriyati Afg'onistonga general F.Roberts rahbarligida yirik jazo otryadini jo'natadi. General F.Roberts yetakchiligidagi kuchlarning poytaxt Kobulga yaqinlashayotganidan xabar topgan amir Yoqubxon o'z yaqinlari bilan F.Roberts huzuriga qochib boradi va inglizlar lageridan panoh topadi. Xalq qo'zg'oloni qatnashchilari orasida yagona yetakchining yo'qligi bois, poytaxt mudofaasi yaxshi tashkil etilmaydi va yaxshi qurollangan hamda son jihatdan ustun bo'lgan ingliz armiyasi o'sha yilning 14-oktabrida yana Kobulni egallaydi.

Inglizlar qo'zg'olonchilardan, ayniqsa Kobul shahri aholisidan ayovsiz o'ch oladilar va shahardagi asosiy binolar butkul vayron etiladi. Shu bilan birga, amir Yoqubxon ingliz rezidenturasining qirg'in etilishining oldini ololmaganlikda ayblanadi va 1879-yilning oktabrida inglizlar tomonidan rasman taxtdan tushirilgan deb e'lon qilinadi hamda inglizlar panohida umrbod yashash uchun Hindistonga jo'natiladi. Bubilanglizlar Afg'onistonda boshqaruvni o'z qo'llariga olishni va o'zlarining mustamlakachilik maqsadlarini yanada kengaytirmoqchi bo'lganliklarini anglash mumkin. Garchi

Kobul egallanib, afg'on xalqi qattiq jazoga mahkum etilgan bo'lsa ham, ommaviy xalq harakati to'xtamadi. Afg'onistondagi yuqoridagi kabi hokimiyatsizlik va boshboshdoqliklardan sobiq afg'on hukmdori Muhammad Afzalxonning o'g'li Abdurahmonxon yaxshigina xabardor bo'lib turar edi. Amakisi amir Sheralixon bilan hokimiyat uchun kurashda mag'lubiyatga uchragan Abdurahmonxon qochqinlikda Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan Samarqand va Toshkent shaharlarida istiqomat qilari va afg'on taxti uchun bo'lgan da'vosidan voz kechmagan edi.

1879-yilning oxirida Toshkentdan yo'lga chiqqan Abdurahmonxon Chor hukumatidan yashirincha Amudaryoni kechib o'tadi va afg'on xalqini ingliz bosqinchilariga qarshi muqaddas urush olib borishga chaqiradi. 1880-yilning boshida dastlab Badaxshonda muvaffaqiyatga erishgan Abdurahmonxon, keyinchalik Toluqon va Qunduz shaharlarini ham egallaydi hamda 1880-yilning mart oyiga kelib butun Afg'on Turkistonini, ya'ni Shimoliy Afg'onistonni qo'l ostiga oladi<sup>51</sup>.

Abdurahmonxon mamlakat shimolini zabt etgan bo'lsa-da, inglizlar bilan yuzma-yuz to'qnashuvdan o'zini tiyar hamda imkoni bo'lsa ular bilan afg'on taxti masalasida muzokaralar olib borish niyati ham yo'q emas edi. Shu bilan birga, inglizlar Afg'onistonni bir necha mayda bo'laklarga bo'lish va o'zlariga bo'ysunuvchi bir necha kichik mulklarni vujudga keltirish orqali butun Afg'oniston hududini o'z nazoratlariga olish bo'yicha ham muayyan ishlarni olib bordilar. Jumladan, 1880-yilda Hindiston vise-qirol lord Litton tomonidan ishlab chiqilgan loyihaga ko'ra, Afg'oniston hududida bir necha mayda hokimliklar yaratilishi va ushbu tuzilmalar Buyuk Britaniya protektorati ostida bo'lishi



<sup>51</sup> Файз Мухаммад. Сирож ат-таворих. 1–3 жилд. Кобул, 1331–1333-хй. (1912/13 – 1914/15). – Б. 363–366.

ko'zda tutilgan edi. Bunday yondashuv mustamlakachilik siyosatini yuritishda qadimdan qo'llanilib kelinayotgan "bo'lib tashla va hukmronlik qil" aqidasi ga mos kelardi.

Mustamlakachi inglizlar uchun ham butun Afg'oniston hududini nazoratda ushlab turish borgan sayin mushkullashib borar, afg'on qabilalarining tinimsiz qo'zg'olonlarini bostirish katta kuch, mablag' hamda vaqtni talab etar edi. Shu bois inglizlar mamlakatda obro'-e'tibori oshayotgan va mamlakatning janubiy hududlariga ham o'z ta'sirini o'tkazayotgan Abdurahmonxon bilan kelishish va uni afg'on taxtiga o'tkazish bo'yicha muzokaralarni boshlab yubordi. Ular Abdurahmonxonni taxtga o'tkazib, uni o'z nazoratlarida ushlab va afg'on davlatni Abdurahmonxon orqali boshqarishni ko'zlagan edilar.

Inglizlarning bunday siyosatini yurgizishiga va yuqoridagi xulosaga kelishiga 1880-yilda Angliyada bo'lib o'tgan parlament saylovlari hamda ushbu saylov natijalariga ko'ra, hokimiyatni Dizraeli (1874–1880) yetakchiligidagi konservatorlardan Gladston (1880–1885) yetakchiligidagi liberallarga o'tishi ham turtki berdi. Konservatorlarning Afg'onistondagi muvaffaqiyatsizligini tanqid qilgan liberallar afg'on taxtiga o'zlariga xayrixoh munosabatda bo'ladigan hukmdorning kelishiga qarshilik bildirmadilar va ularning qarashicha Abdurahmonxon aynan shunday hukmdor bo'lishi mumkin edi.

Afg'onistondagi vaziyatni diqqat ila kuzatib turgan podsho Rossiyasini inglizlarning muvaffaqiyatsizligi birmuncha qanoatlantirar va podsho hukumatini shunday vaziyatdan foydalanishga undar edi. Afg'on amiri Yoqubxonning ag'darilishidan so'ng yuzaga kelgan tanqis vaziyat, inglizlarga qarshi xalq qo'zg'olonining boshlanishi hamda inglizlarning butun Afg'oniston hududini nazorat qila olmasligi Rossiya imperiyasini hech bo'lmaganda O'rta Osiyodagi mustamlakalar bilan chegaradosh Afg'on Turkistonida mustaqil afg'on davlati barpo etilishini qo'llab-quvvatlashga yoki butun Afg'oniston hududida inglizlardan mustaqil hukmdorning hokimiyatga kelishiga ko'mak berishga undar edi. Chunki, podsho

Rossiyasi uchun mustaqil afg'on davlatining mavjud bo'lishi va shu orqali O'rta Osiyodagi mustamlakalarning ingliz mustamlakalari bilan bevosita chegaradosh bo'lishini oldini olish o'ta muhim ahamiyatga ega masalalardan biri edi. Shu sababli ham, Rossiya imperiyasi hukumati o'z mulklarida istiqomat qilib kelgan Abdurahmonxonni Afg'onistonga qochib o'tishiga "ko'z yumdi" va bunga imkoniyat yaratib berdi.

Abdurahmonxonning Afg'onistonda hokimiyatni qo'lga kiritish bo'yicha qisqa muddatdagi muvaffaqiyatlari ham inglizlarni shoshirib qo'ydi. Abdurahmonxonning mamlakat shimolidagi muvaffaqiyatli harakatlaridan so'ng, mamlakat janubida ham uning obro'-e'tibori kun sayin oshib borayotganligi inglizlarning haqiqiy xavotiriga sabab bo'lib, mustamlakachilarni hokimiyat masalasida Abdurahmonxon bilan imkoni boricha tezroq kelishib olishga majbur etdi.

1880-yilning iyulida Abdurahmonxon va inglizlar o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralardan so'ng, Angliya hukumati Abdurahmonxonni Kobul amiri sifatida tan oldi<sup>52</sup>. Shundan so'ng taxtga o'tirgan amir Abdurahmon (1880–1901)ning hukmronligi boshlandi va u o'z bobosi amir Do'st Muhammadxon singari o'ziga amir rutbasini oldi. Amir Abdurahmonga katta miqdorda qurol-yarog' va har yil yirik miqdorda moddiy mablag' ajratishni o'z zimmasiga olgan inglizlar Abdurahmonning 1879-yilgi Gandamak shartnomasini bekor qilish talabiga ham rozi bo'lishga majbur bo'ldilar.

Inglizlarning Kobulda muayyan miqdordagi harbiy bo'linma bilan doimiy ravishda faoliyat yuritadigan rezidentning bo'lishiga oid talablariga javoban amir Abdurahmon bunday holat yana afg'on xalqining qahru-g'azabini qo'zg'ashi mumkinligi va shu bois, o'zi hamda Hindistondagi Britaniya ma'muriyati o'rtasidagi munosabatlarda vositachilik qilishi uchun musulmon bo'lgan hind amaldorlaridan foydalanish taklifini bildirdi.

---

<sup>52</sup> Mahomed Khan S. The Life of Abdur Rahman, Amir of Afghanistan. Vol. 1. – London: John Murray, 1900. – P. 194–196.



Shu bilan birga, amir Abdurahmon inglizlarning Afg‘oniston uchun og‘ir bo‘lgan bir qator shartlarini qabul qildi. Jumladan, Gandamak shartnomasida bo‘lganidek, yana Afg‘oniston tashqi dunyodan uzib qo‘yildi va mustaqil tashqi siyosat yurguzishdan mahrum qilindi. Afg‘onistonning tashqi dunyo va boshqa davlatlar bilan bo‘ladigan diplomatik aloqalari Hindistondagi Britaniya ma‘muriyati orqali olib borilishi lozim edi. Shuningdek, amir Abdurahmon bir qator hududlar (Kurram, Pishin va Sibi)ning inglizlar qo‘l ostiga o‘tganligini tan oldi hamda Xaybar va shu kabi bir qator muhim tog‘li dovonlarni inglizlar nazoratiga berilishiga rozi bo‘ldi<sup>53</sup>.

Inglizlar yuqoridagi shartlari qatorida yana Afg‘onistondagi ingliz qo‘shinining mamlakatdan xavfsiz chiqib ketishini ta‘minlab berish masalasini ham Abdurahmonxon oldiga qo‘ydilar va bu bilan afg‘on xalqidan yana imkoni boricha qasos olishga urindilar. Mustamlakachilarning maqsadi mamlakat janubidagi muhim strategik shahar – Qandahorni afg‘on davlatidan ajratib olish va o‘z mulklariga aylantirish edi.

Afg‘onistonni parchalash bo‘yicha siyosatiga sobiq amir Yoqubxonning vorisi Ayubxon qarshi chiqdi va Qandahorni mustamlakachilardan qaytarib olish bo‘yicha muqaddas urush e‘lon qildi. O‘sha paytda Hirotni egallab turgan Ayubxon Qandahorga yurish boshladi. 1880-yilning 27-iyulida Ayubxon yetakchiligidagi afg‘on jangchilari hamda general Berrouz boshchiligidagi ingliz armiyasi o‘rtasida Qandahordan 55 kilometr uzoqlikdagi Mayvand qishlog‘i yaqinida hal qiluvchi jang bo‘lib o‘tdi. Jangda mardlarcha kurashgan afg‘onlar uyushgan ingliz armiyasini mag‘lub etdi va inglizlarning qolgan qutgan qismi Qandahorga chekinishga majbur bo‘ldi. Mayvand jangi inglizlarning “afg‘onlar faqat partizanlik urushi olib bora oladi va hech qachon dushman bilan ochiq jang maydonida jang qilishga yuragi dov bermaydi”, degan gapiga munosib javob bo‘ldi.

Mayvand jangidagi mag‘lubiyatdan so‘ng sarosimaga tushgan inglizlar Qandahordagi ingliz garnizoniga yordam berish uchun

---

<sup>53</sup> O‘sha joyda.

shoshilinch choralarni ko'rdilar va Kobuldan general F.Roberts boshchiligidagi kuchli ingliz qo'shini qisqa muddatda Qandahorga yetib keldi. Ayubxonning Qandahorni qamal qilish bo'yicha sa'y-harakatlari naf bermadi. Chunki uning qo'shini saflari Mayvand jangida berilgan qurbonlar tufayli siyraklashgan va aksincha, inglizlarning mavqei esa yangi kuchlar evaziga birmuncha kuchaygan edi. Qandahor qamali hech bir samara bermagach, Ayubxon o'z qo'shini bilan Hirotga qaytadi va Hirot xalqi uni dushmani mag'lub etgan g'olib hukmdor sifatida qarshi oldi.

Inglizlarning qanday bo'lmasin Qandahorni o'z nazoratlarida tutib turish bo'yicha harakatlari samarasiz tugadi va bu harakat katta mablag' hamda qurbonlarni talab qilar edi. Shu sababli, ingliz hukumati Qandahor shahri va uning atrofini ham amir Abdurahmonga topshirishga qaror qildi.

1881-yilning aprelida butun ingliz garnizoni Qandahor shahridan olib chiqib ketildi va shahar amir Abdurahmonning vakillariga topshirildi. Shu tariqa ikki yarim yildan ortiq vaqt mobaynida davom etgan ikkinchi ingliz-afg'on urushi tugadi. Bu safar ham afg'on zaminiga bostirib kirgan inglizlarning 40 ming kishilik qo'shini muvaffaqiyatsizlikka uchradi va 1881-yilda chekinishga majbur bo'ldi. Mazkur urushdan so'ng Afg'oniston o'z ichki siyosatini mustaqil amalga oshirsa-da, davlatning tashqi siyosati to'laqonli ravishda Buyuk Britaniya nazorati ostida edi.

## **AFG'ONISTON AMIR ABDURAHMONNING HUKMRONLIGI DAVRIDA**

Uzoq muddatli urush xalqning tinkasini quritib, butun mamlakat bo'ylab savdo va hunarmandchilik izdan chiqdi. Afg'on qabilalarining markaziy hokimiyatga nisbatan ishonchi susaygan sharoitda hokimiyatga kelgan amir Abdurahmon oldida mamlakatni birlashtirish, davlat boshqaruvi sohasida keskin o'zgartirishlarni amalga oshirish, xalq hamda mahalliy hokimlar oldida markaziy hokimiyatning ta'siri va obro'sini qayta tiklash hamda oshirish kabi bir

qator jiddiy masalalar turar edi. Inglizlar mamlakatni tark etib, Qandahor shahrini amir Abdurahmon boshqaruviga topshirgan bo'lsalarda, bu shaharga nisbatan Ayubxon o'z da'vosidan kechmagan edi.

1881-yil iyunida Qandahorni egallash uchun kurash boshlagan Ayubxon amir Abdurahmon yuborgan qo'shinni mag'lub etadi va shaharni egallaydi. Qandahorda Ayubxonni qo'llab-quvvatlovchi kuchlar ko'p bo'lib, ular Ayubxonni inglizlarga qarshi kurashgan haqiqiy kurashchi "g'oziy" sifatida kutib oladilar.

Vaziyatning izdan chiqishiga yo'l bermaslik maqsadida amir Abdurahmon katta qo'shin bilan Qandahorga qarab yo'l oladi. 1881-yilning 22-sentabrida Qandahor ostonasida ikki tomon – amir Abdurahmon va Ayubxon qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tadi. Jangda qo'li baland kelgan amir Abdurahmon Qandahorni egallaydi va Ayubxonni qo'llab-quvvatlovchi kuchlarni yo'q qilib, shaharda qat'iy tartib o'rnatadi.

Qandahor uchun kurashda mag'lubiyatga uchragan Ayubxon o'z mulki bo'lgan Hirot shahriga ham bora olmaydi. Chunki, amir Abdurahmon Qandahor yurishiga chiqish oldidan Ayubxon uchun muhim ahamiyatga ega Hirot shahriga ham Abdulquddusxon yetakchiligida qo'shin jo'natadi. Amir Abdurahmonning ushbu qo'shinni Hirotga jo'natishidan maqsad Ayubxonni Qandahor shahriga bo'lgan da'vosidan voz kechishga majbur etish hamda uning diqqatini ikkiga bo'lib yuborish edi. Hirotni egallash uchun dastlab muvaffaqiyatga erisha olmagan Abdulquddusxon Qandahor shahridan Ayubxonning mag'lubiyati haqida xabar yetib kelishi bilan o'z harakatlarini jonlantirib yuboradi hamda Hirot shahrida Ayubxon qoldirib ketgan qo'shin jangsiz Abdulquddusxonga taslim bo'ladi va amir Abdurahmon hukmronligini tan oladi. Shu tariqa amir Abdurahmon ham Qandahor, ham Hirot shaharlarini qo'lga kiritadi va taxt uchun asosiy da'vogar bo'lmish Ayubxon kurashni to'xtatib, Eronga ketishga majbur bo'ladi.

Amir Abdurahmon mamlakatni birlashtirish siyosatini davom ettirib, mahalliy hududlarda markaziy hokimiyatga bo'ysunmay kelayotgan bir necha mayda hokimlik va mahalliy qabila yetakchi-

lari qo‘shinlarini mag‘lub etadi, joylarda o‘ziga bo‘ysunmay kelayotgan hamda muayyan ta‘sir kuchiga ega qabila yetakchilari, inglizlar bilan bo‘lgan jang qahramonlari va diniy yetakchilarni qatl ettiradi. O‘z hokimiyatini har tomonlama mustahkamlash maqsadida amir Abdurahmon o‘z amakisi sobiq amir Sheralixonning bir necha vorislarini mamlakatdan chiqib ketishga majbur etadi.

Amir Abdurahmon tashqi siyosatda Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi kelishmovchiliklar hamda bahsli masalalardan unumli foydalanishga harakat qildi. Shu bilan birga, amir o‘zining mazkur ikki buyuk qo‘shnisi bilan nihoyatda ehtiyotkor munosabatda bo‘lishga va o‘z mustamlakachilik siyosatini tobora kuchaytirayotgan ushbu ikki yetakchi davlatlarning Afg‘oniston bilan munosabatlarini chigallashtirmaslikka intilib keldi. Mamlakatning tashqi dunyodan uzib qo‘yilishi qaysidir ma‘noda amir Abdurahmonga ham ma‘qul edi. Amir shu yo‘l bilan o‘z mulklariga turli buzg‘unchi g‘oyalarning kirib kelishini oldini olish va o‘z xalqini butkul itoatda tutishni ko‘zlar edi.

Chet el fuqarolarining Afg‘onistonga kirishi amir tomonidan qat‘iy cheklangan bo‘lishi bilan bir qatorda afg‘on davlati fuqarolarining ham xorijga chiqishi qat‘iy taqiqlangan edi. Biror-bir fuqaroning chet elga chiqishi uchun maxsus ruxsatnoma (“rohdori”) talab etilardi va u chet eldan Afg‘onistonga qaytmasa uning barcha qarindosh-urug‘lari qiynoqqa duchor etilib, qamoqqa tashlanardi. Shu bilan birga, fuqarolarning mamlakat ichida harakatlanishi ham politsiyaning nazorati ostiga olingan edi.

Mamlakat iqtisodiyotini ko‘tarish va davlat g‘aznasiga tushadigan daromad hamda soliqlarni tartibga solish bo‘yicha olib borilgan sa‘y-harakatlar o‘z samarasini berdi. Natijada davlat g‘aznasiga kelib tushadigan tushum miqdori oshdi va moliyaviy jihatdan yetarli darajada ta‘minlangan amir kuchli davlat boshqaruv apparatini tashkil etdi. Amir Abdurahmonning bu boradagi muvaffaqiyatlari qatorida kuchli politsiya hamda maxfiy xabarchilar faoliyatining yo‘lga qo‘yilganligi bo‘ldi. Kuchli politsiya orqali xalqni hamda mahalliy darajadagi yetakchilarni itoatda tutib

turishni mo'ljallash bilan bir qatorda amir butun mamlakat bo'ylab yuruvchi maxfiy xabarchilar tizimini ham yo'lga qo'yadi. Maxfiy xabarchilar shaxsan amir Abdurahmonning o'ziga mamlakatdagi ahvol xususida axborot berib turar hamda amir o'z amaldorlarining mamlakatdagi vaziyat to'g'risidagi hisobotlarini maxfiy xabarchilar orqali qaytadan tekshirib ko'rar edi.

Amir Abdurahmon mamlakatda islom ruhoniylari, mullalar va ulamolarning ta'siri hamda nufuzi balandligini inobatga olib, ularga ham davlat g'aznasidan muayyan miqdorda maosh belgilaydi va shu orqali din peshvolarini ham o'z nazoratida ushlashga harakat qiladi. Amir Abdurahmon hukmronligi davrida bir qator afg'on qabilalari muayyan darajadagi imtiyozlarini saqlab qoldilar. Ushbu imtiyoz evaziga ular davlat oldida tegishli majburiyatlar (masalan, savdo yo'llarini qo'riqlash, amir qo'shiniga harbiy bo'linma yuborish)ni bajarar edilar.

Mamlakatda savdo-sotiqni yanada rivojlantirish uchun turli shahar va hududlarni bog'lab turuvchi karvon yo'llarining xavfsizligini ta'minlash zarur edi. Shu maqsadda amir keskin choralar ko'radi va yo'llarda o'g'rilik, qaroqchilik va tovlamachilik bilan shug'ullanadigan kimsalarga nisbatan shafqatsiz jazo tayinlanadi. Qo'lga tushgan o'g'ri va qaroqchilar temir qafaslarga solinib yo'l bo'yidagi baland yog'ochlarga osib qo'yilar va ular issig'usovuq hamda ochligu-chanqoqlikdan qiynalib jon berayotganligi boshqalarga o'rnak bo'lishi lozim edi<sup>54</sup>. Savdo-sotiqning rivoji uchun yana butun mamlakat bo'ylab yagona o'lchov birliklarini joriy etish tadbiri ham amalga oshirildi. Shuningdek, yagona pul birligi ta'sis etildi va Kobulda kumush hamda mis tangalar zarb etadigan pul zarbxonasi faoliyat yurita boshladi. Bu davrda mamlakat hududi bo'ylab o'tuvchi tranzit savdoga katta boj qo'yilganligi sababli Hindistondan mamlakatga kirib keladigan tovarlarning hajmi kamayib ketdi. Shuningdek, Rossiya imperiyasi tomonidan Buxoro amirligi va Xiva xonligi vassal davlatga aylantirilgach, ushbu

---

<sup>54</sup> Файз Муҳаммад. Сирож ат-таворих. 1–3 жилд. Кобул, 1331–1333-хй. (1912/13 – 1914/15). – Б. 418.

davlatlaruing bojxona tizimi ham podsho hukumati nazoratiga o'tkazildi hamda rus hukumati Afg'oniston bilan bo'ladigan savdoga ham katta boj joriy etdi. Shu sababli Hindiston va Afg'oniston hamda O'rta Osiyo bo'ylab o'tuvchi asriy savdo yo'llari XIX asrning oxiridan boshlab o'z ahamiyatini yo'qota boshladi va bora-bora butkul to'xtab qoldi. Savdo-sotiqdan, xususan tashqi savdodan katta daromad kelishini yaxshi anglagan amir Abdurahmon garchi tashqi siyosiy faoliyati butkul cheklangan bo'lsa-da, tashqi iqtisodiy (savdo) munosabatlarda o'zi uchun nihoyatda daromadli faoliyat yuritdi. Jumladan, amir bir qator yetakchi xomashyo mahsulotlari (qorako'l terisi)ni Afg'onistondan chetga eksport qilish bo'yicha yagona monopoliya o'rnatdi.

Amir Abdurahmonning davlat boshqaruvini mustahkamlashga oid islohotlari butun Afg'oniston uchun katta ahamiyat kasb etdi. Jumladan, o'tkazilgan islohotga ko'ra, barcha markaziy boshqaruv organlari ikkiga bo'lindi. Bulardan birinchisi "Nizomiy" deb ataluvchi davlatning harbiy yo'nalishdagi siyosatini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan idora va muassasalar jamlanmasidan iborat bo'lsa, ikkinchisi "Mulkiy" deb ataluvchi davlatdagi fuqarolik ishlari bilan bog'liq bo'lgan qolgan sohalar (moliya, bojxona, jamoat tartibini saqlash, adliya, jamoatchilik ishlari, tibbiyot, ta'lim, transport, savdo va pochta)ni qamrab oluvchi davlat idoralari jamlanmasi edi<sup>55</sup>.

Amir Abdurahmonning davlat boshqaruvini mustahkamlashga oid islohotlari bilan bir qatorda mahalliy boshqaruv sohasidagi islohotlari ham diqqatga sazovordir. Bu borada Abdurahmon har bir shaharda hokim, qozi (sud ishlariga mas'ul), kutvol (politsiya boshqarmasi boshlig'i), kafila boshi (savdo va karvon ishlari boshlig'i), soliq, moliya ishlariga mas'ul mansabdorlardan iborat boshqaruv tizimini vujudga keltirish yo'li bilan mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarini birmuncha kengaytiradi<sup>56</sup>.

---

<sup>55</sup> Mahomed Khan S. *The Life of Abdur Rahman, Amir of Afghanistan*. Vol. 2. – London: John Murray, 1900. – P. 51–78.

<sup>56</sup> O'sha manba. – B. 200–209.

Bu davrda markaziy hamda mahalliy hokimiyat munosabatlarida birmuncha o'zgarish ro'y beradi. Jumladan, kichik shaharlar hokimlari ustida katta hokim, katta hokimlar ustida "Noib-ul-hukuma" deb ataluvchi davlat hukmdorining noibi turar edi. Hukmdor noiblari va barcha harbiy hamda boshqa muassasalar ustidan nazoratni esa amirning katta o'g'li – taxt vorisi Habibullaxon boshchiligidagi Oliy maslahat yig'ini olib borar edi<sup>57</sup>. Davlat boshqaruvi tizimida "kutvol" (politsiya boshqarmasi boshlig'i)ga katta vakolatlar berilgan bo'lib, joylardagi tartib uchun aynan u asosiy javobgar etib belgilanadi.

Amir Abdurahmon mamlakatni birlashtirish uchun katta kuch va sa'y-harakatlarni sarfladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. 1885–1886-yillarda mamlakat shimolida Rossiya imperiyasi-ning O'rta Osiyodagi mustamlakalari hamda afg'on davlatiga tegishli yerlar o'rtasida aniq chegaralarni belgilab olish tadbirlari o'tkazilgach, amir Abdurahmon mamlakat shimolida istiqomat qilib kelayotgan ko'p sonli boshqa millat vakillari (tojiklar, o'zbeklar, turkmanlar, choraymoqlar va b.) orasiga an'anaviy tarzda mamlakat janubida istiqomat qilib kelayotgan pushtun millatiga mansub aholini ko'chirishni rejalashtiradi. Amirning bunday siyosat yuritishining o'ziga xos sabablari bor edi.

Birinchidan, garchi Rossiya imperiyasi bilan chegaralar belgilab olingan va 1887-yilda ikki tomonlama shartnoma imzolangan<sup>58</sup> bo'lsa-da, amir Abdurahmon Afg'oniston shimolida ruslarning ta'siri oshib ketishidan qo'rqar va boshqa millat vakillari bo'lgan mahalliy aholiga ishonmas edi.

Ikkinchidan, amir pushtun millatiga mansub aholini mamlakat shimoliga ko'chirtirish siyosati orqali u yerda ham o'ziga tayanch bo'ladigan ijtimoiy qatlamni vujudga keltirmoqchi edi. Amirning fikricha, inglizlar bilan bo'lgan janglarda mardonavor kurashgan pushtun qabilalari Rossiya imperiyasi tomonidan kelgusida bo'lishi

---

<sup>57</sup> O'sha manba. – B. 208.

<sup>58</sup> Sykes P. A History of Afghanistan. Vol. 2. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940. – P. 166–168.

mumkin bo'lgan bosqin va urushda ham mardonavor turib mamlakat shimolini himoya qilishi lozim edi.

Qandahor atrofida istiqomat qilib kelayotgan durroniy qabilalari mamlakat shimolidagi Marv vohasi va Bodg'is atroflariga ko'chirilishi belgilab qo'yildi. Biroq, durroniy qabilalari o'zlariga qulay bo'lgan yashash joylarini boshqa joyga almashtirishni istashmas edi va amirning ushbu qaroriga qarshi norozilik bildirishadi. Shundan so'ng amir mulozimlari durroniy larni majburiy tarzda ko'chirtirib, jami bo'lib 1500 nafarga yaqin oila mamlakat shimoliga ko'chirtirilib yuborildi<sup>59</sup>. Shuningdek, amir Abdurahmon Amudaryoning chap qirg'og'idagi o'zbek va tojik mahalliy hokimliklari, ya'ni xonliklarini ham o'z davlati tarkibiga qo'shib olish bo'yicha qat'iy harakatlar olib bordi. Amirning bunday qat'iy harakatlari uchun 1887-yilgi Rossiya imperiyasi bilan o'zaro chegaralarni belgilab olish bo'yicha shartnoma asos bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, ingliz hukumati amir Abdurahmonni faqat shimol tomonga, ya'ni Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi mustamlakalari tomon o'z yerlarini kengaytirishga da'vat etar va bu orqali Abdurahmonni Rossiya imperiyasi bilan urush-tirib qo'yishni ham ko'zlab turar edi. Ammo ehtiyotkor amir Abdurahmon inglizlarning bu harakatlari zamirida aslida nima yotganini yaxshi anglardi.

1885-yil 30-mart kuni, ya'ni hali o'zaro chegaralarni belgilash bo'yicha rus-afg'on bitimi imzolanishidan oldin, Marv yaqinidagi Pendi vohasida shimol tomondan kirib kelgan rus qo'shinlari bilan afg'on amiri qo'shinlari to'qnashadi. Ushbu to'qnashuvni Hirot shahrida joylashgan hamda Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi mustamlakalari va afg'on davlati o'rtasidagi chegaralarni belgilab olishda afg'on hukumatiga ko'mak ko'rsatayotgan ingliz komissiyasi (tarkibida harbiy bo'linma ham bor) kuzatib turadi. Rossiya armiyasi afg'onlarga nisbatan yaxshi qurollangan bo'lib, to'qnashuv paytida yog'ib turgan yomg'ir afg'on askarlariga

---

<sup>59</sup> Файз Мухаммад. Сирож ат-таворих. 1–3 жилд. Кобул, 1331–1333-хй. (1912/13 – 1914/15). – Б. 510–511.



poroxni o't oldirishga ham to'sqinlik qilar, yomg'irda namlanib qolgan porox o't olmas va tabiiy ravishda afg'onlarning o't ochishini mushkullashtirar edi. Garchi inglizlar mazkur to'qnashuvni kuzatib turgan bo'lsa ham afg'on armiyasiga hech qanday yordam ko'rsatmaydi. Vaholanki inglizlar afg'on davlatiga bo'ladigan har qanday tashqi hujum va agressiyada tezda yordam qo'lini cho'zish majburiyatini o'z zimmalariga olishgan edi. Pendi vohasidagi to'qnashuvda garchi, afg'on qo'shini mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, rus hukumati o'z muvaffaqiyatini rivojlantirib, afg'on davlati ichkarisiga kirib borishdan o'zini tiyadi hamda vujudga kelgan mojaroli vaziyatni diplomatik yo'llar orqali hal etishga urinadi. Amir Abdurahmon ham ushbu mojaroli vaziyatda bosiqlik bilan harakat qilib, ingliz tomonining Rossiya imperiyasiga qarshi urush boshlash to'g'risidagi chaqirig'iga uchmadi va Pendi vohasini rus davlati tarkibiga qo'shib olinishiga rozi bo'ldi.

Rossiya hukumati bilan 1885-yilgi kichik to'qnashuvli vaziyat bartaraf etilgach, amir Abdurahmon barcha diqqat-e'tiborini ingliz mustamlakachilari bilan bevosita chegaradosh bo'lgan hududlardagi qaltis vaziyatga qaratadi. Bu harakati bilan amir ushbu hududlarda ham o'z obro'sini birmuncha mustahkamlashga, shuningdek, ba'zi hududlarni o'z davlati tarkibiga qo'shib olishni ham rejalashtirgan edi. Ammo, Abdurahmonning bu boradagi rejalariga inglizlar tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatdilar. Chunki, inglizlar bu vaqtga kelib, afg'on davlati bilan chegaradosh barcha hududlarni allaqachon egallab, bevosita afg'on davlati tarkibidagi ba'zi hududlarga ham ko'z olaytira boshlagan edilar. Jumladan, 1883-yilda Kvetta shahrini batamom bosib olgan ingliz mustamlakachilari 1887-yilda Pishin va Sibi hududlarini ham to'la egalladi. 1889-yilda Zxob hududi va Gilgit ham inglizlar nazoratiga o'tgan bo'lsa, 1891-yilda Xunza va Nagar hududlari ham ingliz mustamlakachilari qo'lga o'tdi.

Afg'on davlati va inglizlar o'rtasida Dir, Svat va Bajaur hududlarini hamda afg'onlarning turi qabilasi yashaydigan hududlarni, shuningdek, ozod qabilalar hududini o'z ta'sir doirasiga

olish uchun o‘zaro kurash ketadi. Inglizlarning bosqinchilik harakatlariga qarshi uzoq muddat kurashib kelgan ushbu hududlarda istiqomat qiluvchi aholi amir Abdurahmonni o‘zlarining xaloskori deb bilishar edi. Abdurahmon ham XIX asr 80-yillari oxiridan ushbu hududlarda yashovchi bir qator qabilalar yetakchilari (maliklar va xonlar) bilan bitimlar tuzib, ular ustidan o‘z hukmronligini yuritishga harakat qildi. Biroq, inglizlar afg‘on amirining xatti-harakatlariga qarshi afg‘on qabilalarini amirga bo‘ysunmaslikka da‘vat etar, turli yo‘llar bilan amirning sa‘y-harakatlarini chippakka chiqarishga intilishar edi. Jumladan, 1892-yilning oxiri va 1893-yilning boshlarida amir Abdurahmon ozod qabilalar hududidagi ba‘zi qabilalar qo‘zg‘olonini bostiradi va ushbu qabilalar zimmasiga muayyan soliqlarni afg‘on davlati g‘aznasiga to‘lashni yuklaydi. Inglizlar esa, ushbu qabilalarga agar ular ingliz hukumatini tan olsalar har qanday soliqlardan ozod etilishlari to‘g‘risida va‘da beradilar<sup>60</sup>.

Abdurahmon ham o‘z harakatlarida ehtiyotkor bo‘lib, ushbu hududlarda keskin harakatlar olib borsa, bunday holat yana Buyuk Britaniya bilan yangi urush keltirib chiqarishi mumkinligini yaxshi anglar edi. Amir Abdurahmon Afg‘onistonning sharqida joylashgan tog‘li Kofiriston hududini ham o‘z davlati tarkibiga qo‘shib olishni maqsad qiladi. Bir necha asrdan buyon ushbu tog‘li hududda istiqomat qilib kelayotgan va butparastlikka qattiq e‘tiqod qiluvchi Kofiriston aholisi orasiga islom dini aqidalari kirib bormagan edi. Hududi qariyb 10 ming kvadrat kilometrni tashkil etuvchi ushbu hududga islom dini Afg‘oniston bo‘ylab tarqalgan davrlardan so‘ngra hech bir hukmdor kirib bormagan hamda mahalliy aholi islom diniga e‘tiqod qilmas va shu boisdan ushbu hudud Kofiriston, ya‘ni kofirlar yashaydigan joy deb atalar edi.

1895–1896-yillarda amir Abdurahmon Kofiriston hududini egallash uchun to‘rt yo‘nalishda: shimoldan Badaxshon, g‘arbdan Panjsher, sharqdan Asmar va janubdan Lag‘mon tarafdan qo‘shin

---

<sup>60</sup> Файз Муҳаммад. Сирож ат-таворих. 1–3 жилд. Кобул, 1331–1333-хй. (1912/13 – 1914/15). – Б. 882–883.

jo'natadi. Abdurahmonning fikricha, Kofiristonga aynan qish faslida yurish qilish ma'qul edi. Chunki, qor bilan qoplangan tog'li hudud aholisi uchun biror yerga qochishga imkoniyat qoldirmasdan ularni bo'ysundirish lozim edi. Ko'p sonli va yaxshi qurollangan amir qo'shinlarining qo'qqisidan bergan zarbasiga Kofiriston aholisi o'zining juda oddiy qurollari bilan munosib javob bera olmaydi va tezda mag'lub bo'ladi hamda Abdurahmon hokimiyatini tan oladi.

Ushbu yurish natijasida Kofiriston aholisi yoppasiga islom diniga majburan o'tkaziladi va Kofiriston atamasi yangi "Nuriston" atamasi, ya'ni "islom nuri kirib borgan joy" bilan almashtirilib, mahalliy aholi ham nuristonliklar deb atala boshlaydi. Mahalliy aholini islom dini arkonlari bilan yaqindan tanishtirish uchun ushbu hududga ko'plab mulla va ruhoniylar jo'natiladi hamda bir necha jome' masjidleri qad ko'taradi.

1893-yilda ingliz hukumati amir Abdurahmonni ozod qabilalar hududiga bo'lgan da'vosidan voz kechishga chaqirdi. Bu borada amir oldiga qat'iy talab qo'yish uchun ikkinchi ingliz-afg'on urushi qahramoni general F.Roberts boshchiligida maxsus missiya tayyorlandi va mazkur missiya katta qo'shin hamrohligida Kobulga borib inglizlarning ushbu qat'iy talabi (ultimatum)ni amirga yetkazishi lozim edi. Ammo Afg'oniston bilan urush Rossiya imperiyasi bilan ham munosabatlarni chigallashtirib yuborishi mumkinligi, shuningdek, chegara hududlaridagi afg'on qabilalari orasida inglizlarga qarshi norozilik harakatlari avj olishidan xavotirga tushgan inglizlar afg'on amiriga qat'iy talab qo'yish rejasidan voz kechadilar. Mavjud vaziyatni afg'on amiri bilan muhokama qilish uchun Kobulga Hindistondagi Britaniya ma'muriyatida Tashqi ishlar kotibi sifatida faoliyat yuritgan Genri Mortimer Dyurand (1850–1924) boshchiligida diplomatik missiya yuboriladi.



### *Dyurand bitimi imzolanishidan oldin Afg'oniston hududi*

M.Dyurand Hindistondagi Britaniya mulklari va amir Abdurahmon qo'l ostidagi hududlarni ajratish loyihasini ishlab chiqqan va ushbu loyiha asosida 1893-yil 12-noyabrda Kobul shahrida Afg'oniston amiri Abdurahmon va Britaniya hukumati nomidan M.Dyurand o'rtasida bitim imzolangan. Britaniya hukumati garchi, amir Abdurahmon ushbu bitimni imzolashni xohlamagan bo'lsa ham, afg'on hukmdoriga kuchli harbiy va diplomatik bosim o'tkazadi hamda chorasiz qolgan Abdurahmon mazkur bitimni imzolaydi. Hujjat Buyuk Britaniyaga tegishli Hindistondagi hududlar va Afg'oniston o'rtasidagi 2640 kilometrga yaqin sun'iy chegara chiziqlarini belgilab bergan. Shartnomaning imzolanishida M.Dyurandning hissasi katta bo'lganligi uchun shartnomada nazarda tutilgan chegara chiziqlari "Dyurand chizig'i" deb ham yuritiladi hamda bugungi kundagi Afg'oniston bilan Pokiston hamda Afg'oniston bilan Hindiston o'rtasidagi davlat chegaralarining o'rnatilishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Keyinchalik "Dyurand

chizig‘i” 1905, 1919, 1921-yillarda ingliz-afg‘on shartnomasi bilan tasdiqlangan. Ammo ushbu chegarani afg‘on amiri Abdurahmondan keyingi hech bir hukmdor yoki rasmiy Kobul vakili tan olmagan. Xususan, 1949-yilda afg‘on oqsoqollarining yirik yig‘ilishi – Loyya Jirg‘ada Dyurand chizig‘i noqonuniy deb e‘lon qilingan edi<sup>61</sup>.



### *Dyurand bitimi imzolanganidan so‘ng Afg‘oniston hududi*

Mazkur bitimda inglizlarning Hindistondagi mulklari va O‘rta Osiyodagi rus mustamlakalari, aniqroq aytganda ruslarning Pomir tog‘laridagi bosib olgan yerlari o‘rtasida bevosita chegara bo‘lishini ham oldini olishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, Afg‘onistonning shimoliy-sharqidagi baland Tyan-shan tog‘larida joylashgan Vahan koridori bu borada o‘ziga xos ajratib turuvchi hudud sifatida belgilab olindi. Uzunligi 350 kilometr dan ortiq va eni ba’zi joylarda 15 kilometrni,

<sup>61</sup> Lambah S.K. The Durand Line / Policy Papers №4. – New Delhi. Aspen Institute India. 2011. – P. 4–6.

ba'zi joylarda 70 kilometrardan ortiqni tashkil etuvchi Vahan koridori inglizlarning talabi bilan afg'on davlati tarkibiga qo'shib berildi.

Abdurahmon M.Dyurand tomonidan tuzilgan bitimni imzolar ekan, bu bilan ozod qabilalar hududlarida yashovchi afg'on qabilalarining ingliz hukumati boshqaruviga berilishiga rozi bo'ladi. Afg'on amirining bu xatti-harakati vaqtinchalik chekinish bo'lib, Abdurahmon imkoniyat bo'ldi deguncha ushbu hududlarni yana inglizlardan qaytarib olishni ko'zlar edi. Mazkur bitimning imzolanishi natijasida jami bo'lib 100 ming kvadrat kilometrli maydonga ega hududlar rasman afg'on davlati tarkibidan ajratib olindi.

1893-yil 13-noyabrda Kobul shahrida bo'lib o'tgan "durbar" – afg'on davlatining oliy yig'ini (unda barcha yetakchi qabilalarning sardorlari, yirik amaldorlar va diniy arboblar ishtirok etgan)da ozod qabilalar hududida yashovchi barcha afg'on qabilalari yetakchilariga amir Abdurahmon va M.Dyurand tomonidan imzolangan bitimning nusxalari topshirildi va barcha qabila yetakchilari ham ushbu bitimga o'z muhrlarini bosib, kelgusida unga qat'iy amal qilishlari hamda ingliz hukumatiga so'zsiz bo'ysunishlari xususida va'da beradilar. Biroq, bu bilan afg'on qabilalari to'laqonli ravishda inglizlarga bo'ysunib kelganlar deb xulosa chiqarib bo'lmaydi. Ayniqsa, Vaziriston hududida yashovchi qabilalar Dyurand bitimidan noroziligini darrov namoyon qilib, 1894-yilda o'z hududlariga kelgan ingliz qo'shiniga qaqshatqich zarba beradilar. Shundan so'ng momand qabilasi orasida ham norozilik avj oladi.

Abdurahmon va M.Dyurand o'rtasida imzolangan bitimda momand qabilasi yashaydigan hududlar teng ikkiga bo'lingan holda belgilangan bo'lib, momandlarning bir qismi afg'on davlati tarkibida, ikkinchi qismi esa ingliz mustamlakachilari hukmronligi ostida istiqomat qilishi bitim hujjatlarida belgilab qo'yilgan edi. Biroq, mazkur bitim asosida chegara belgilarini o'rnatish uchun momandlar istiqomat qiladigan hududga kelgan ingliz ma'murlari momandlarning katta qarshiligiga duch keladi. Jips holda istiqomat qilib kelgan momandlar aslo ikkiga bo'lingan



holda yashashni istashmas va ular o'rtasida chegara o'tkazilishiga norozilik bildirishadi. Shunda ingliz ma'murlari Dyurand bitimi bandlarini buzib, momandlar yashaydigan barcha hududlarni o'z boshqaruvlariga olishga qaror qiladilar va afg'on davlatining ancha ichkarisiga kirgan holda chegara belgilarini o'rnatishga kirishib ketadilar. Hatto, ingliz ma'murlari momandlarni butkul Britaniya boshqaruviga berilishi xususida amir Abdurahmon bilan ham kelishib olganliklari va amir bunga rozi ekanligi to'g'risida momandlarga yolg'on ma'lumot beradilar.

Amir Abdurahmon inglizlarning bu kabi navbatdagi provokatsiyasidan nihoyatda g'azablangan bo'lsa-da, bosiqlik bilan hamda diplomatik yo'llar orqali hal etishga urinadi va Hindiston vise-qiroli nomiga yozgan xatiga bu haqda ma'lum qiladi. Amir Abdurahmon inglizlar bilan chegaralarni belgilashda ishtirok etayotgan o'z amaldorlariga ham nihoyatda ehtiyotkor bo'lishni va inglizlarning o'zaro urush keltirib chiqarishga qaratilgan turli nayranglariga uchmaslikni qattiq tayinlaydi. Shu bilan birga, momand qabilasi istiqomat qiladigan Miti vodiysini ham qattiq himoya qilishni va ushbu vodiyni inglizlarga bo'shatib bermaslikni o'z amaldorlariga tayinlaydi. Amir amaldorlari inglizlarning Miti vodiysini bo'shatib berish bo'yicha qo'ygan talablariga qarshi momand qabilasi vakillaridan ko'ngilli lashkar tuzib, o'z pozitsiyalarini himoya qiladilar va inglizlarga yon bermaydilar. Garchi, ingliz qo'shini va afg'on ko'ngillilari o'rtasida bir necha to'qnashuvlar bo'lsa-da, inglizlar muvaffaqiyatga erisha olmaydilar va afg'onlar o'z pozitsiyalarini mardonavor himoya qiladilar.

Dyurand bitimidan yuqoridagi kabi norozilik harakatlari yana Chitrol, Dir va Svat hududlarida ham ro'y beradi. Ushbu hududlardagi o'zaro kurashayotgan mahalliy hukmdorlarning ba'zilar afg'on amiri tomonida bo'lsalar, ba'zilar ingliz mustamlakachilari xizmatiga kirib, o'z mavqelarini mustahkamlab olish payida edilar. Ushbu hududlarni ham bo'ysundirish oson emasligini anglab yetgan ingliz hukumati 1895-yilda qurol kuchi bilan ushbu hududlarni bosib olishga kirishadi va bosib olingan hududlarda yangi ma'muriy-

hududiy birlik “Dir, Svat va Chitrol Agentligi” tuzilganligi e’lon qilinadi.

Shu tariqa, 1893-yilda inglizlar yangi urush ochish xavfi ostida amir Abdurahmonni afgʻon davlatining Britaniya Hindistoni bilan chegarasini aniqlab beruvchi – “Dyurand chizigʻi” deb atalmish bitimni imzolashga majbur qildilar. Mazkur bitim asosida Britaniya Hindistoni tarkibiga sharqiy pushtun qabilalari majburan kiritildi va bu bitim hozirgacha Afgʻoniston tomonidan tasdiqlanmagan hamda Pokiston bilan jiddiy nizolarga sabab boʻlib kelmoqda.

## AFGʻONISTONNING XX ASR TARIXI

Amir Abdurahmon oʻzidan oldin oʻtgan afgʻon hukmdorlari tomonidan davlat boshqaruvida qoʻllanilib kelingan anʻanaviy tajriba, yaʼni oʻgʻil farzandlarni mamlakatning turli viloyatlari va yirik shaharlariga hokim qilib joʻnatish orqali amalda mamlakatni parokandalik va turli kichik mulklarga boʻlinib ketishiga qatʼiy chek qoʻyishga harakat qiladi. Abdurahmon shuningdek, ilgarigi hukmdorlar davrida boʻlganidek aniq bir vorisni eʼlon qilmaslik holati toju-taxt uchun hukmdor oʻgʻillari orasida qirgʻinbarot urushlarni keltirib chiqarishi va bundan faqat va faqat davlat zarar koʻrishi hamda oddiy xalq ziyon chekishi mumkinligini yaxshi anglar va shu boisdan, ilgarigi hukmdorlarning xatolarini takrorlamaslikka qaror qiladi. Chunki, afgʻon taxtni egallash jarayonida oʻzi olib borgan kurashlar, taxtni qoʻlga kiritganidan soʻng mamlakatni birlashtirish yoʻlida olib borilgan mashaqqatli kurash hamda oʻz sulolasi vakillari, yaʼni amakisi sobiq amir Sheralixon avlodlarining taxtga daʼvo qilish harakatlarini cheklash kabi tadbirlardan soʻng Abdurahmon tegishli xulosalar chiqargan edi.

Rasmiy taxt vorisidan tashqari oʻz oʻgʻillari orasidan taxtga daʼvo qiluvchilar chiqmasligi hamda oʻgʻillarini turli afgʻon qabilalari yetakchilari yoki yirik amaldor hamda mahalliy hokimlar qoʻllab-quvvatlab taxtni egallashga daʼvat etishlarining oldini olish maqsadida amir Abdurahmon barcha oʻgʻillarini oʻz



nazorati ostida poytaxt Kobulda bo‘lishlarini belgilab qo‘ygan edi. O‘zidan oldin o‘tgan afg‘on hukmdorlarining taxt vorisi va o‘g‘il farzandlar tarbiyasi haqidagi yondashuvlarini yaxshi bilgan Abdurahmon, ayniqsa Temurshoh (1773–1793) hamda o‘z bobosi Do‘st Muhammadxon (1826–1838, 1842–1863) hukmronligi davrida hukmdorning o‘g‘il farzandlari orasida toju-taxt uchun kurash butun mamlakatni xarob qilganligini alohida yodda tutar edi. Amir Abdurahmon hukmronligining oxirgi yillarida og‘ir betob bo‘lib, harakatlanishga juda ham qiynalib qolgan edi. O‘z o‘limi yaqinlashganini sezgani bois, davlat ishlarini yuritishda katta o‘g‘li Habibullaxonning ishtirok etishiga yo‘l ochib bergan edi.

Rasman taxt vorisi etib e‘lon qilingan Habibullaxon 1872-yilda otasi Samarqand shahrida bo‘lgan vaqtda dunyoga kelgan. Amir Abdurahmon o‘g‘li Habibullaxonning tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratadi hamda taxt vorisi bo‘lmish o‘g‘lini yoshlik chog‘idan davlat boshqaruviga bevosita jalb etib, ba‘zi bir vazirlik va tuzilmalarni boshqarishni o‘g‘liga yuklaydi. Bu bilan amir Habibullaxonning davlat boshqaruvidagi amaliy tajribasi oshishi va uning har tomonlama malakaga ega bo‘lishini istar edi. Shu bilan birga, amir Abdurahmon kichik o‘g‘illarini ham davlat boshqaruv ishlariga jalb etar, ularning ham davlatning oliy yig‘ini bo‘lgan – “durbar” yoki “durbar-e shohiy”da ishtirok etishlarini belgilab qo‘yadi.

Amir Abdurahmon 1901-yilning 1-oktabrida 57 yoshida Kobul shahrida vafot etdi<sup>62</sup>. Vafoti oldidan barcha yirik lavozimdagi davlat amaldorlari, qarindosh-urug‘i hamda o‘g‘illarini chaqirib katta o‘g‘li Habibullaxoni hukmdor sifatida tan olishlarini so‘raydi va barcha Abdurahmonning amriga so‘zsiz bo‘ysunadi. 1901-yilning 3-oktabrida Habibullaxon (1901–1919)ning rasman taxtga o‘tirishi marosimi bo‘lib o‘tdi. Taxtga o‘tirgan amir Habibulla davlat yaxlitligini saqlashga, chet el bosqinchilaridan Afg‘onistonni himoya qilishga so‘z beradi. Shular qatorida otasi davrida avj olgan maxfiy xabarchi va ayg‘oqchilar xizmatini cheklashga hamda boshqa bir qator islohotlarni amalga oshirishga va‘da beradi.

<sup>62</sup> Tate G. P. The kingdom of Afghanistan: a historical sketch. – Bombay: Times of India, 1911. – P. 193.

Amir Habibullaxon taxtga chiqishi bilanoq Hindistondagi Britaniya mulklari rasmiylariga o'zining taxtga chiqqanligini ma'lum qilish maqsadida 1901-yilning 10-oktabrida rasmiy xat jo'natadi. O'z xatida Habibullaxon otasi amir Abdurahmonning Buyuk Britaniya imperiyasi bilan olib borgan munosabatlarini davom ettirish hamda otasining "do'stlariga do'st va dushmanlari bilan munosabatdan tiyilish" istagi borligini ma'lum qiladi. Bunga javoban o'sha paytdagi Hindiston vise-qiroli lord Kerzon



Habibullaxonga o'zaro munosabatlarga yanada oydinlik kiritish maqsadida 1902-yilning bahorida uchrashish uchun Hindistonga taklif etadi. Lord Kerzon o'z javobida 1893-yilgi amir Abdurahmon bilan imzolangan Dyurand bitimi shaxsiy xarakterga egaligini, ya'ni faqat sobiq amir Abdurahmon bilan ingliz hukumati o'rtasidagi kelishuvligini, yangi amir Habibulla ingliz hukumati bilan ushbu bitimni boshqatdan imzolashi lozimligiga urg'u beradi<sup>63</sup>. Bu bilan inglizlar yangi amir Habibullaxonga muayyan bosim o'tkazish va afg'on hukmdorining ba'zi masalalarda yon berishiga erishishni ko'zlagan edilar. Biroq, 1901-yilning 31-oktabrida Habibullaxon otasi Abdurahmonning Britaniya hukumati bilan hech qanday masalada tushunmovchiligi bo'lmaganligini va o'zining ingliz hukumati bilan boshqatdan bitim imzolashga hojat yo'qligini ta'kidlab javob xati yo'llaydi. Shuningdek, Habibullaxon inglizlarning Afg'oniston hududida temir yo'l yotqizish hamda afg'on armiyasini ingliz harbiylari tomonidan qayta tayyorgarlikdan o'tkazish bo'yicha bildirgan takliflarini ham rad etadi<sup>64</sup>.

<sup>63</sup> Sykes P. A History of Afghanistan. Vol. II. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940. – P. 216.

<sup>64</sup> Ғубор Мир Ғулом Муҳаммад. Афғонестон дар масир-е торих (Афғанистан на пути истории). – М.: Наука. 1987. – С. 54.

Afg'on amirining bunday munosabatidan xafa bo'lgan lord Kerzon rasmiy Londonga murojaat qilib, Habibullaxonga qarshi dag'dag'ali munosabat bilan tahdid qilishga va shu bilan afg'on amirini tartibga keltirishga ruxsat so'raydi. Lekin, rasmiy London ayni paytda afg'on amiriga bunday do'q-po'pisa bilan munosabatda bo'lish yaxshi oqibatlarga olib kelmasligini va bunday holat afg'on hukmdorini Rossiya imperiyasi bilan yaqinlashtirishi mumkinligini bildirib, lord Kerzonga Habibullaxon bilan munosabatlarni chigallashtirmaslikni buyuradi.

1899–1902-yillardagi ingliz-bur urushidagi g'alaba va Rossiya imperiyasining Yaponiya bilan 1904–1905-yillardagi urushdagi mag'lubiyati Britaniya hukumatiga Sharqdagi mustamlakachilik siyosatida yanada faolroq harakat qilish imkonini berdi. Shu boisdan, ingliz hukumati Afg'onistonga ham o'z e'tiborini kuchaytirib, 1904-yil dekabrda Kobulga Hindistondagi Britaniya ma'muriyatida Tashqi ishlar kotibi sifatida faoliyat yuritgan L.Den boshchiligida missiya jo'natadi. L.Denga amir Abdurahmon bilan 1880-yilda imzolangan bitim bandlarini yanada mustahkamlash, afg'on amirining sharqiy pushtun qabilalari bilan munosabatlariga chek qo'yilishiga erishish, Afg'oniston tashqi faoliyati ustidan Buyuk Britaniya nazoratini kuchaytirishga rozilik olish va shu kabi lord Kerzon tomonidan ishlab chiqilgan shartlarni afg'on amiri oldiga qo'yish hamda shu asosda ikki tomonlama bitim imzolash majburiyati yuklangan edi. Biroq, amir Habibullaxon inglizlarning shartlarini qabul qilmaydi va aksincha, o'z shartlaridan iborat bitimning yangi loyihasini imzolash uchun inglizlarga taklif etadi.

Habibullaxonning loyihasida inglizlarga Afg'oniston bilan bo'ladigan savdo aloqalarida hech qanday ustunlik berilmasligi, inglizlar nazoratidagi Peshovar shahridan Afg'onistondagi Jalolobod shahriga temir yo'l o'tkazish va Kobulda ingliz elchixonasini ochish talabi rad etilganligi o'z aksini topgan edi. Ingliz missiyasi amirning ushbu talablarini qabul qila olmaydi va muzokaralar boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Shunday vaziyatda rasmiy London agar afg'on amirining talablari inobatga olinmasa Habibullaxon podsho

Rossiyasi bilan aloqa o'rnatishga intilishi mumkinligidan cho'chib, nihoyat amirning talablari bo'yicha o'zaro bitim imzolanishiga rozilik beradilar hamda 1905-yilning 21-martida ingliz-afg'on bitimi imzolanadi. E'tiborlisi shundaki, mazkur bitimda Habibullaxon "Janobi Oliylari" rutbasi bilan ulug'langan edi va buni afg'on hukumati Britaniya hukumati tomonidan Afg'oniston mustaqilligini tan olish sifatida qarshi oladi hamda amir hukumatining katta yutug'i sifatida baholaydi.

1906-yilda Hindistonning yangi vise-qiroli lord Minto Habibullaxonni Hindistonga taklif etadi. Habibullaxon agar mazkur tashrif chog'ida yana ikki tomonlama bitim imzolash masalasi ko'tarilmasagina Hindistonga borishi mumkinligini ma'lum qiladi. Inglizlar amir Habibullaxonning talabini qabul qiladilar va afg'on hukmdori 1906-yil dekabrda Hindistonga yo'l oladi. Habibullaxonning Hindistonga tashrifi chog'ida ingliz ma'murlari unga boshqacha yo'llar bilan ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar va afg'on amirini bir qator zavod-fabrikalarga, ishlab chiqarish korxonalariga, harbiy lagerlarga, muzeylarga sayohat qildiradilar. Ushbu tadbirlar afg'on amirida katta taassurot qoldiradi va u inglizlarga nisbatan fikrini biroz yumshatib, xayrixoh pozitsiyaga keladi hamda o'z mamlakatida ham bir qator islohotlar o'tkazish lozimligini anglab yetadi.

O'z Vataniga qaytgach, Habibullaxon bir qator o'zgarishlar qiladi. Jumladan o'z saroyini yevropaliklar stilida bezab, kiyinish va ovqatlanish tartiblarini ham yevropaliklarga monand ko'rinishga olib keladi. Biroq, Afg'oniston XX asr boshida ham ishlab chiqarish sanoati yo'q qoloq davlat bo'lib qolaverdi. Soliqlar pul bilan emas, mahsulot sifatida olinardi. Og'ir sharoitga qaramay, Afg'oniston tashqi dunyodan uzilib qolgani yo'q. Afg'onistonda respublikachilik harakati paydo bo'ldi. Bu harakat tarafdorlari "Yosh afg'onlar" deb ataldi. Ular maktab-maorif, madaniyat, fan, texnika tarmoqlarini rivojlantirish g'oyalarini ilgari surdilar. Ular amirlik hokimiyati bilan barobar konstitutsiya ham bo'lishini talab qildilar. Mahsulot solig'ini bekor qilish, ichki boj to'lovlarini yo'qotish,



qabilalar tengligiga erishish va ko'p masalalarda ilg'or qarashlarni ifoda etdilar.

Dunyodagi yetakchi davlatlar o'rtasida boshlanib ketgan Birinchi Jahon urushi Afg'onistonga ham muayyan darajada o'z ta'sirini o'tkazdi. Antanta ittifoqiga kiruvchi Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi kabi davlatlar Afg'onistonga doimiy tarzda ta'sir o'tkazib kelgan bo'lsalar, Uchlar ittifoqiga kiruvchi Germaniya imperiyasi ham Afg'on davlatiga nisbatan katta qiziqish bildira boshladi. Birinchi Jahon urushiga nisbatan Afg'onistonning tutgan mavqei bo'yicha amir Habibullaxon yetakchiligida 1914-yilning 24-avgustida Kobulda bo'lib o'tgan durbar (oliy yig'in)da aniq pozitsiyaga kelindi va o'sha yilning 3-oktabrida bo'lib o'tgan navbatdagi durbarda ham Afg'onistonning ushbu pozitsiyasi yana bir bor ma'lum qilindi. Yetakchi davlatlar Afg'onistonni o'z tomonlarida turib urishishga yoki muayyan bir tomonni qo'llab-quvvatlashga harchand da'vat etishmasin Afg'oniston Birinchi Jahon urushida o'z betarafligini e'lon qildi.

Bu borada 1915-yil boshida Afg'onistonga Germaniya Qurolli Kuchlari Bosh shtabi kapitani Oskar Nidermayer boshchiligida yuborilgan nemis missiyasi faoliyati alohida e'tiborni talab qiladi. 1915-yilning yozida Hirot shahriga yetib kelgan ushbu missiya katta tantana bilan kutib olinadi va amir Habibullaxon tomonidan poytaxt Kobulga borish uchun ruxsat etilgach, o'sha yilning avgustida Hirot shahrini tark etadi. Mazkur missiya 1915-yilning 2-oktabrida Kobulga yetib kelgan bo'lsa ham amir Habibullaxon missiya vakillarini 26-oktabrida qabul qiladi. Missiya yetakchisi Nidermayer afg'on amirini Germaniya tomonida turib urishishga harchand urinmasin Habibullaxon uning taklifini rad etadi va Afg'onistonning betaraflik maqomini saqlashga intildi.

1916-yilning bahoriga kelib amir Habibullaxonni Uchlar ittifoqi tomonida turib urishishga ko'ndirib bo'lmasligini tushunib yetgan nemis missiyasi Afg'onistonni tark etishga qaror qiladi va o'sha yilning may oyida mazkur missiya Afg'oniston hududini tark etdi. Germaniya missiyasining faoliyatiga inglizlar ham befarq qa-

rab turgani yo'q. Nidermayer missiyasidan xavotirga tushgan ingliz hukumati amir Habibullaxonga agar Afg'oniston urush davomida betaraflik maqomini saqlab turadigan bo'lsa, har yil ajratiladigan ko'mak miqdorini oshirishni va uning hajmini 2–2,5 million rupiyga yetkazishni, urush tugagach esa ko'mak miqdorini 5 million rupiyga yetkazishni va'da beradi. Shuningdek, inglizlar Germaniya va uning ittifoqchisi bo'lgan Usmoniy turklar davlatini afg'on jamoatchiligi ko'z o'ngida turli yo'llar bilan obro'sizlantirishga harakat qildilar.

Urushning borishini diqqat bilan kuzatib turgan amir Habibullaxon Uchlar ittifoqining mazkur urushda g'alaba qozonishiga ko'zi yetmas edi va shu boisdan betaraflik maqomini qat'iy ushlab keldi. Birinchi Jahon urushining oxirgi yillarida Britaniya Hindistonning Afg'onistonga chegaradosh ozod qabilalar yashovchi hududlarida og'ir vaziyat yuzaga keldi. Ayniqsa, momandlar, yusufzoylar va masudlar yashaydigan hududlar 1916-yilda qo'zg'olonli vaziyatda qoldi.

1916–1917-yillarda Vaziriston hududida istiqomat qiluvchi qabilalarning ingliz mustamlakachiligiga qarshi yirik qo'zg'oloni ro'y berdi. Mazkur qo'zg'oloni katta kuch bilan bostirgan ingliz hukumati Habibullaxondan ham yordam so'raydi va amirdan chegara hududlarini qat'iy nazorat qilishni, qo'zg'olon yetakchilarini afg'on davlati hududiga o'tishga yo'l qo'ymaslikni, qo'lga tushgan qo'zg'olonchilarni ingliz hukumatiga topshirishni talab qiladi. Inglizlarning mazkur talablarini bajargan Habibullaxonning xatti-harakatlari ozod qabilalar hududida va Afg'onistonning o'zida ham katta noroziliklarga sabab bo'ladi. Ozod qabilalar hududida va unga tutash afg'on davlati hududida istiqomat qilib keladigan qabilalar amir Habibullaxonni sotqinlikda ayblab, otasi Abdurahmon ham inglizlarning kuchli bosimiga qaramasdan bunday siyosat yuritmaganligiga urg'u bera boshlashdi. Bunday holat amir Habibullaxonning hokimiyatini birmuncha zaiflashtirdi.

1917-yil oxiri va 1918-yil boshida Rossiyada ro'y bergan voqealar Birinchi Jahon urushining borishiga, shu bilan birga Afg'onistonning keyingi taqdiriga ham bevosita ta'sir qilgan

voqealar bo'ldi. 1917-yil oxirida Rossiyada ro'y bergan inqilob va 1918-yilda podsho Nikolay II (1894–1918)ning taxtdan voz kechishi hamda hokimiyatning bolsheviklar tomonidan egallanishi natijasida Rossiya Birinchi Jahon urushidan chiqdi. Shuningdek, Rossiya-ning yangi hukumati podsho hukumatining Afg'onistonga nisbatan yuritib kelgan siyosatidan voz kechdi va Afg'onistonni mustaqil davlat sifatida tan olib, u bilan o'zaro do'stona munosabatlar yuritajagini e'lon qildi.

1918-yil iyulida sovet hukumati Afg'onistonni Buyuk Britaniya ta'siridan batamom xalos etish uchun ozodlik harakati sodir etishga undaydi, biroq amir Habibullaxon bunga yo'l qo'ymaydi. Chunki u Angliya bilan yaqinlashish tarafdori bo'lgan. Habibullaxon ingliz hukumatidan cho'chigani bois, bolsheviklar Rossiyasi bilan munosabatlarga kirishishga shoshilmadi. Bu vaqtda Afg'onistonning o'zida ham bir qator muammolar yetilib qolgan edi. Birinchi Jahon urushining oxirlarida mamlakatda og'ir iqtisodiy-ijtimoiy vaziyat saqlanib qoldi. Afg'onistonning butun iqtisodi Britaniya manfaatlariga bo'ysundirilgan bo'lib, ingliz va hind savdogarlari afg'on tashqi va ichki bozorini egallab olishgan edi.

Tantana va dabdabaga, ayshu-ishratga hamda ov marosimlarini uyushtirishga haddan ziyod berilib ketgan Habibullaxon davlat ishlariga ham beparvolik bilan munosabatda bo'lar edi. 1918-yilning yozida hatto, amir Habibullaxonga qarshi suiqasd ham uyushtirildi. Ammo, mazkur suiqasd ishtirokchilarining kimligi noma'lumligicha qoldi. Ana shunday vaziyatda, ya'ni 1919-yilning 20-fevralida Habibullaxon Jalolobod shahri atrofida ov marosimini uyushtirib yurgan chog'da amirga nisbatan navbatdagi suiqasd uyushtirildi va natijada Habibullaxon o'ldirildi.



Bu vaqtda Habibullaxonning birinchi o'g'li Inoyatullaxon hamda Habibullaxonning ukasi Nasrullaxon ham Jalolobod shahrida edilar. Inoyatullaxonning taxtga bo'lgan da'vosidan tezlik bilan voz kechishga ko'ndirgan amakisi Nasrullaxon 1919-yilning 21-fevralida Jalolobodda Afg'oniston amiri deb e'lon qilinadi. Lekin, Habibullaxonning uchinchi o'g'li Omonullaxon o'sha paytda Kobul shahrida bo'lib, otasi uni o'z o'rniga noib sifatida qoldirib ketgan edi. Otasining o'limi haqida xabar kelishi bilanoq Omonullaxon darrov davlat boshqaruvi ishlarini o'z nazoratiga oladi va 1919-yilning 21-fevralida Kobulda Afg'oniston amiri deb e'lon qilinadi. Omonullaxon otasining o'limi ishtirokchilarini albatta, topib jazolashini, mamlakatda keng ko'lamlı islohotlar o'tkazishini, jumladan, armiyada xizmat qilayotgan askarlarning oylik maoshlari oshirilishini, chet elliklarning Afg'onistondagi boshboshdoqliklariga chek qo'yilib, mamlakat mustaqilligini e'lon qilajagini ma'lum qiladi. Omonullaxonning ushbu xatti-harakatlari butun mamlakatga tarqaladi va Afg'onistonning turli burchaklarida oddiy xalq va mahalliy hokimlar uni qo'llab-quvvatlashlarini ma'lum qiladilar. Omonullaxonning ta'siri Jalolobod shahriga ham yetib keladi va o'zining taxt uchun bo'lgan intilishi foydasiz ekanligini anglagan Nasrullaxon 1919-yilning 27-fevralida Kobulga kelib jiyani Omonullaxonga taslim bo'ladi va u qamoqqa olinadi. Shu tariqa Afg'oniston taxtini Habibullaxonning uchinchi o'g'li Omonullaxon (1919–1929) egalladi va 1919-yilning 28-fevralida Kobulda uning rasmiy taxtga o'tirish marosimi bo'lib o'tdi. Taxt o'tirishi bilanoq Omonullaxon Afg'onistonning to'la darajada mustaqillikka erishişi va buni xalqaro darajada e'lon qilish harakatiga tushadi. Buni uning davlat boshqaruvi bo'yicha chiqargan dastlabki manifestdan ham ko'rish mumkin. Ushbu manifestda jumladan shunday deyiladi:

- Afg'oniston ozod va mustaqil davlat bo'lmog'i va barcha suveren davlatlar egalik qiladigan huquqlardan foydalanmog'i lozim;
- afg'on xalqi ozod bo'lmog'i va hech bir fuqaroga nisbatan zolimlik va majburlov choralari o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi;



– davlat tomonidan o‘tkazib kelingan turli majburiyatlar, shu jumladan “begor” majburiyati bekor qilinadi va h.k.

1919-yil 3-mart kuni Omonullaxon Hindiston vise-qirol lord Chelmsfordga o‘zining taxtga o‘tirganligi va ingliz-afg‘on munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish orqali Afg‘onistonning to‘la mustaqillikka erishishi istagi borligini ma’lum qilib xat yo‘llaydi. Biroq, ingliz hukumati Omonullaxonga ilgari afg‘on hukmdorlari bilan imzolangan bitimlarga amal qilishini bildirib javob beradi.

1919-yil 27-martda Afg‘onistonni to‘laqonli mustaqil davlat sifatida birinchi bo‘lib Sovet Rossiyasi tan oladi. Omonullaxon ham o‘zining o‘sha yil 7-apreldagi javob xatida Rossiyaning yangi hukumati bilan teng va do‘stona munosabatlar olib borishdan mamnunligini bildiradi. 1919-yil 13-aprelda Kobulda bo‘lib o‘tgan yirik durbarda Afg‘oniston to‘laqonli mustaqil davlat deb e‘lon qilinadi. Mazkur yig‘ilishda ishtirok etgan barcha afg‘on qabilalari, shu jumladan ozod qabilalar hududi va chegarabo‘yi hududlarida istiqomat qiluvchi afg‘on qabilalari ham Omonullaxonni o‘z rahnamolari sifatida tan olib, inglizlar hokimiyatiga barham berish istagini bildiradilar. Afg‘on hukumati o‘z navbatida barcha afg‘on qabilalarini mazkur xatti-harakatlarini qo‘llab-quvvatlab, ularning bo‘lg‘usi jangdagi faoliyatini muvofiqlashtirib borishini ma’lum qilib, ularga qurol-yarog‘ yetkazib beradi.

Afg‘on mentalitetidagi ustuvor jihat, shubhasiz, erk va hurriyatga bo‘lgan intilishdir. Buni XIX asr va XX asr boshlarida afg‘on xalqining ingliz mustamlakachilariga qarshi olib borgan milliy ozodlik kurashi misolida ham ko‘rish mumkin. Birinchi afg‘on-ingliz urushida (1838–1842) inglizlarning 16 minglik qo‘shini batamom qirib tashlagan afg‘on xalqi 1880-yilda Mayvandda bo‘lib o‘tgan mahorabada ham inglizlarni ikkinchi marta yakson qilgan. Inglizlar bunday sharmandali mag‘lubiyatlarni, tabiiyki unutishmagan edi.

Ana shunday keskin vaziyatda 1919-yilda Angliya uchinchi marta Afg‘onistonga urush boshladi. Shu tariqa uchinchi ingliz-afg‘on urushi (1919-yil 3-may – 8-avgust) boshlanadi. Bu urush-

ning kelib chiqishiga asosiy sabab inglizlarning Janubiy-g'arbiy chegara viloyatlaridan Afg'oniston tomonga qilgan hujumlari va ushbu bosqinchilik harakatlari bilan birga "Dyurand chizig'i"dagi hal etilmay kelinayotgan muammolar edi. Qabilalar va millatlararo ziddiyatlarga qaramay, Afg'oniston xalqi ajnabiy bosqinchilarga qarshi yagona bayroq ostida birlashdi. 340 minglik ingliz-hind qo'shinlariga qarshi 60 minglik afg'on armiyasi hamda afg'on qabilalarining 200 ming nafardan ziyod ko'ngilli lashkari munosib qarshilik ko'rsata oldi. Uch oy davom etgan mazkur urushda inglizlar havo zarbalarida qo'li baland kelsa-da, Britaniya Hindistoni hududidagi afg'on qabilalari tomonidan boshlangan milliy-ozodlik harakatlari inglizlarning afg'on amiri bilan kelishuv olib borishiga majbur qildi. Natijada 1919-yil 8-avgustda Afg'oniston amiri Omonullaxon va Britaniya Hindiston vise-qiroli lord Chelmsford Ravilpindida uchrashadi va Buyuk Britaniya hukumati Afg'oniston suverenitetini tan olishga majbur bo'ldi. 1919-yil afg'on amiri Omonullaxon Afg'onistonning to'liq mustaqilligini e'lon qildi. Shu vaqtdan buyon Afg'oniston o'z ichki va tashqi siyosatini to'liq mustaqil davlat sifatida yuritib kelmoqda.

XX asr 20-yillaridan boshlab Buyuk Britaniya hukumati Afg'onistonga bo'lgan da'vosining birmuncha pasayishiga Rossiyada ro'y bergan inqilob va podsho hukumatining inqirozi ham muayyan darajada sabab bo'ldi. Chunki, butun XIX asr davomida va XX asr boshida ham ingliz hukumati Hindiston uchun Rossiya imperiyasidan xavfsirab keldi. Rossiyadagi inqilob natijasida hokimiyatga kelgan sovetlarga esa Britaniya hukumati jiddiy raqib sifatida qaramas, shuningdek, Rossiyada boshlangan ichki nizolar hamda Rossiya imperiyasining O'rta Osiyodagi mustamlakalaridagi milliy ozodlik harakatlari inglizlarga birmuncha tasalli berar edi. Shu bilan birga, Rossiyada hokimiyatni qo'lga kiritgan sovetlar Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatidan butkul voz kechganliklari hamda barcha Sharq xalqlariga ozodlik va'da qilganliklari ingliz hukumati uchun o'ziga xos bufer davlat bo'lib kelgan Afg'onistonning ahamiyatini pasaytirib yubordi. Yuqoridagi

voqea va sabablar bois, ingliz hukumati Afg'onistonga nisbatan o'z siyosatini o'zgartirishga majbur bo'ldi.

Afg'oniston o'z mustaqilligiga erishgan bo'lsa ham, Buyuk Britaniyaning Hindistondagi mavqei kuchli bo'lib, ingliz mustamlakachilari hali ham afg'on davlati suverenitetiga daxl qilish niyatidan qaytmagan edilar. Buni 1921-yilning 7-yanvarida Kobulga jo'natilgan G.Dobbs yetakchiligidagi missiya faoliyatidan ham ko'rish mumkin. Mazkur missiyaning asosiy vazifalaridan biri Afg'onistonning yangi sovet davlati bilan yaqinlashishini oldini olish bo'lib, inglizlar amir Omonullaxonga katta miqdorda moddiy va qurol-aslaha yuzasidan ko'mak berishga va'da beradilar. Shunga qaramasdan, Omonullaxon 1921-yilning 28-fevralida sovet davlati bilan do'stlik bitimini imzoladi. 1921-yil 22-iyunda esa Afg'oniston va Eron o'rtasida do'stlik va o'zaro betaraflik to'g'risida bitim imzolandi<sup>65</sup>.

Inglizlar afg'on amirini birmuncha yon berishga hamda o'zlari uchun foydali bitim tuzishga urinmasin Omonullaxon inglizlarga yon bermadi. Natijada uzoq muzokaralardan so'ng 1921-yil 22-noyabrda ingliz-afg'on shartnomasi imzolandi. Unda Afg'onistonning to'la suvereniteti inglizlar tomonidan tan olingan bo'lib, "Dyurand chizig'i" ikki tomon o'rtasidagi chegara sifatida qabul qilindi. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar ham yo'lga qo'yildi va Londonda Afg'onistonning Buyuk Britaniyadagi elchixonasi ochildi.

1923-yilda Buyuk Britaniya va Afg'oniston o'rtasida o'zaro manfaatlisavdobitimihamimzolandi. Shu tariqa, Afg'oniston o'zining ikki qo'shnisi bo'lgan kuchli davlatlar bilan ham munosabatlarni o'zaro tenglik asosida olib borilishiga erishgan Osiyodagi yagona davlatga aylandi. Tashqi siyosatda katta muvaffaqiyatga erishgan amir Omonullaxon o'z e'tiborini mamlakat ichida yuzaga kelgan bir qator o'tkir muammolarning yechimiga qaratdi. Afg'onistonda barcha sohalarda keng ko'lamlil islohotlar o'tkazishni istagan

---

<sup>65</sup> Фу́бор Мир Фулом Муҳаммад. Афғонестон дар масир-е торих (Афганистан на пути истории). – М.: Наука. 1987. – С. 217.

Omonullaxon dastlabki ishni ushbu islohotlarning huquqiy asoslarini yaratishdan boshlashga qaror qildi. Shu maqsadda 1923-yilning 9-aprelida Yevropa davlatlari namunasidagi “Nezomnome-ye Asosiye Doulat-e Oliya-ye Afg‘oniston” – qisqacha “Nizomnoma”, ya’ni demokratik davlatlardagi konstitutsiyaga o‘xshash hujjat qabul qilindi<sup>66</sup>. Mazkur hujjatda Afg‘oniston monarxiya shaklidagi mustaqil, suveren davlat ekanligi, islom dini davlat dini ekanligi, davlat boshqaruvida hukumatning vakolat va huquqlari hamda shu kabi masalalar belgilab qo‘yildi. Shuningdek, hech bir fuqaroning shaxsiy huquqlariga sudning qarorisiz daxl qilinmasligi hamda mansabdor shaxslarning o‘zboshimchaligiga chek qo‘yish kabi masalalar ham ushbu hujjatda o‘z aksini topdi.

Omonullaxon davlat boshqaruvi apparatini ham birmuncha isloh etdi va bir qator keraksiz mansablarni bekor qildi. Shuningdek, amir amaldorlar va hukumat a‘zolarining poraxo‘rligi hamda mansabini suiiste‘mol qilishiga ham qarshi qat’iy kurash olib borgan edi. Mazkur islohotlar davomida Afg‘oniston sud tizimi ham butkul isloh etildi. Jumladan, sudlov tizimining quyi va o‘rta bo‘g‘inlarida qozilar yetakchiligida yuritiladigan shariat sudlarining vakolatlari keskin qisqartirildi.

1921–1925-yillar davomida Afg‘onistonda yangi Jinoyat Kodeksi ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. 308 moddadan iborat ushbu hujjat jinoyatchilik bilan kurashishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Omonullaxon ham bobosi Abdurahmon singari jinoyatchilarga nisbatan shafqatsiz jazo tayinlash tarafdori edi. Shunday bo‘lsa-da, mazkur Kodeks o‘zining aksariyat demokratik normalari, jumladan appelyatsiya berish tartibining mavjudligi, hukmni yengillashtiradigan holatlar kiritilganligi va shu kabilar bilan ajralib turardi.

Omonullaxon tomonidan o‘tkazilgan islohotlarda shubhasiz, iqtisodiy va moliyaviy islohotlar katta o‘rin egallaydi. Ushbu yo‘nalishda ayniqsa, soliq va bojxona to‘lovlari qat’iy

<sup>66</sup> Незомномне-йе Асоси-йе Доулат-е Олија-йе Афғонистон (Афғонистон Олий давлатининг асосий тартиблари). 1923 йил 9 апрель. <http://www.afghan-web.com/history/const/const1923.html>

ravishda tartibga solinishi muhim voqea bo'ldi. Asossiz tarzda yig'ib olinadigan bir qator soliq yig'implari, jumladan "davlat amaldorlarining xizmat vazifalarini bajarayotgan vaqtida ichadigan choyi va iste'mol qiladigan shirinliklari uchun yig'iladigan soliq", "boqiyat – yuqori martabali amaldorlar va ularning vorislari tomonidan davlatdan olingan mablag'laridan voz kechish" kabi xalqning noroziligini keltirib chiqaruvchi hamda davlat g'aznasiga zarar keltiruvchi soliq va to'lovlar bekor qilindi.

Iqtisodiy islohotlar jarayonida amalga oshirilgan eng ta'sirli islohot bu qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlardan olinadigan soliqqa oid bo'lib, yangi o'rnatilgan tartibga ko'ra endilikda soliq mahsulot-natura shaklida emas, balki naqd pul shaklida olinadigan bo'ldi. Bunday tartib mahsulotni yetishtirgan oddiy dehqonda birmuncha jiddiy muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Chunki, oddiy dehqon endi mahsulotini sotib pul qilishi uchun bozorga chiqishi, bozorda band bo'lgan chog'ida esa ekin-tikinga qarashdek qimmatli vaqtdan ajralib qolishi, bu esa yakuniy hosilga salbiy ta'sir qilishi mumkin edi. Shuningdek, dehqonlarda pulga ehtiyojning ortishi qishloq joylarida mahsulotlarni arzon-garovga xarid qilib oluvchi chayqovchilar qatlamini yuzaga keltirdi.

1923-yilda qabul qilingan "Davlat yerlarini sotish to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, har bir fuqaro xohlaganicha davlat ixtiyorida bo'lgan yerni xarid qilib olish imkoniyati yaratildi. Qayd etish joizki, Omonullaxonning bobosi Abdurahmon va otasi Habibullaxon hukmronligi davrlarida ham yer davlat mulki hisoblanib, uni sotish taqiqlangan edi. 1923-yilda Afg'onistonda yangi valuta muomalaga kiritildi va u "afg'oniy" deb atala boshlandi. Afg'on valutasini ichki hamda tashqi savdoning o'sishiga turtki berdi va tezda Britaniya Hindistoni bilan bo'ladigan savdo munosabatlarida ham o'z o'rniga ega bo'ldi.

Amir Omonullaxonning Afg'onistonda amalga oshirmoqchi bo'lgan keng ko'lamli islohotlaridan yana biri – harbiy sohaga tegishli bo'lib, bu yo'nalishda islohotni amalga oshirishda afg'on amaldorlari ikki guruhga bo'linib ketadilar. Birinchi guruh



tarafdorlari afg'on armiyasini Usmonli turklar armiyasi andozasida yangidan barpo etish tarafdori bo'lishsa, o'sha paytda Harbiy vazir lavozimida faoliyat yuritgan Muhammad Nodirxon yetakchiligidagi ikkinchi guruh vakillari esa an'anaviy tarzda afg'on qabilalaridan yig'ilib kelgan tartib – "hasht nafari", ya'ni qabilalardagi har sakkiz nafar erkakdan bir nafari armiyaga jalb etilishi tartibini saqlab qo'lishni yoqlab chiqishadi.

Harbiy islohotni amalga oshirishdagi yuqoridagi kabi bo'linish oqibatida armiya yanada parokanda holiga keldi va bu 1924-yilda Xostda ro'y bergan qo'zg'olonni bostirish chog'ida yaqqol namoyon bo'ldi. O'sha paytdagi Harbiy vazir M.Nodirxon esa Omonullaxonning armiyani turklar andozasi bo'yicha qayta tashkil qilishga bo'lgan rag'batini ko'rgach, o'z lavozimidan iste'foga chiqadi va Afg'onistonning Fransiyadagi elchisi lavozimiga tayinlanib mamlakatni tark etadi.

Bu davrda Afg'onistonda amalga oshirilgan islohotlardan eng samaralilaridan biri sifatida ta'lim va maorif sohasida amalga oshirilgan islohotni ta'kidlab o'tish joizdir. Hokimiyatga kelgan dastlabki vaqtidanoq Omonullaxon ta'limga alohida e'tibor qaratadi. Afg'on yoshlariga zamonaviy bilimlardan ta'lim berish uchun chet ellardan – Turkiya, Misr va Fransiyadan bir necha o'qituvchilar taklif etildi. Kobulda faoliyat ko'rsatib kelayotgan amir Habibullaxon sharafiga "Habibiya" deb ataluvchi litsey bilan bir qatorda, "Omoniya" deb ataluvchi ta'lim maktabi ham barpo etildi (Amir Omonullaxon hukmronligiga barham berilgach, "Omoniya" maktabining nomi "Istiqlol" deb o'zgartirildi). Shuningdek, ingliz va nemis tillarida ta'lim beruvchi hamda xotin-qizlar uchun alohida "Malalay" deb ataluvchi litseylar ham ochildi.

Afg'onistonda shu davrdan boshlab boshlang'ich va o'rta ta'lim olish bepul ekanligi belgilab qo'yildi. Bu davrda afg'on matbuoti ham birmuncha rivojlandi va 1925-yilda qabul qilingan "Matbuot to'g'risida"gi Qonun ham bunga birmuncha turtki berdi. O'tgan asr 20-yillarida Afg'onistonda "Omon-i Afg'on" ("Afg'on tinchligi",

muharriri Mahmud Tarziy), "Anis" ("Do'st", muharriri G'ulom Muhiuddin Anis) va shu kabi gazetalar chop etilar edi<sup>67</sup>.

Omonullaxon Afg'onistonda kuchli ta'sir va obro'-e'tiborga ega bo'lgan islom dini peshvolari, yetakchilari va ruhoniylar bilan kelishmovchilikka boradi. Amirning o'z fuqarolari ustidan aynan din ruhoniylari boshqaruvini cheklash bo'yicha olib borgan ulkan sa'y-harakatlari hech qanday samara bermaydi, balki amir bilan din vakillari o'rtasiga sovuqchilik tushishiga olib keldi. Shundan kelib chiqib, Omonullaxonning din va davlat ishlarini ajratishga bo'lgan intilishlari ham besamar ketdi.

Omonullaxonning din vakillariga nisbatan bunday munosabati natijasida 1924-yil boshida Xostda markaziy hokimiyatga qarshi xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Ushbu qo'zg'olonga Abdulla (laqabi "Mullaye Lang" – "Oqsoq Mulla") va Abdurashid ismli mahalliy mullalar boshchilik qilishdi. Ushbu mullalarning da'vati bilan mangal, vazir va momand qabilalari Omonullaxonning islohotlaridan norozi bo'lib bosh ko'tarishdi. Amir ushbu mullalarni mavjud muammolarni muhokama qilish uchun Kobulga taklif etgan bo'lsa ham, ular ushbu taklifni rad etib qo'zg'olonni davom ettirishdi. Hukumat tomonidan jo'natilgan qo'shin qo'zg'olonni bostira olmadi.

Shundan so'ng amir tomonida bo'lgan yetakchi diniy ulamo va ruhoniylarning o'rtaga tushib, vaziyatni yumshatishga qilgan sa'y-harakatlari birmuncha samara berdi. Shuningdek, diniy masalalar bilan bog'liq muammolarni 1924-yilning yozida Kobul yaqinidagi Pagman shahrida o'tkazilgan Loyya Jirg'ada muhokama qilinishi va tegishli qarorga kelinishi ham qo'zg'olonchilarni birmuncha vaziyatni yumshatishga undadi. Mazkur Loyya Jirg'ada kelishilgan qarorga ko'ra, Omonullaxon konservativ ruhda bo'lgan hamda o'tkazilayotgan islohotlarga qarshi bo'lgan diniy ruhoniylarning talablarini inobatga olishga majbur bo'ldi.

1925-yil boshida bir qator kuchli sa'y-harakatlardan so'ng Omonullaxon Xostdagi qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ldi.

---

<sup>67</sup> Gregorian V. The Emergence of Modern Afghanistan. – Stanford (California): Stanford University Press, 1969. – P. 244.

Qo'zg'olon rahbarlari qo'lga olinib, Kobulga olib kelindi va sudning qaroriga ko'ra o'lim jazosiga hukm qilindi. 1926-yilda amir Omonullaxon Afg'onistonni dunyodagi mustaqil davlatlar bilan teng darajada bo'lishini hamda dunyodagi, xususan Yevropa davlatlari hukmdorlari unga teng munosabatda bo'lishlarini istab, o'ziga "podshoh" ("qiro'l") rutbasini oladi. Bu tadbir ostida shubhasiz, Omonullaxon o'zini dunyodagi yetakchi davlatlar rahbarlari bilan teng ekanligini namoyon qilish yotganligini anglash mumkin.

Omonullaxon tomonidan Afg'onistonda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish va mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish istagiga amirning 1927-yilning dekabridan 1928-yil iyulga qadar Yevropa mamlakatlariga qilgan rasmiy safarlari ham katta ta'sir o'tkazdi. Ushbu safar Britaniya Hindistonidan boshlanib, Suvaysh kanali orqali Yevropaga o'tishi rejalashtirildi. Omonullaxon Yevropaga safari yo'lida Misrga to'xtab o'tdi. Misr xalqi uni "haqiqatda mustaqil bo'lgan musulmon mamlakatining hukmdori" sifatida olqishlab kutib oldi. Misr parlamentida so'zlagan nutqida Omonullaxon "ozodlik taqdim etilmaydi, balki qat'iy kurashlarda qo'lga kiritiladi", degan fikrni bildirdi<sup>68</sup>.

1928-yil yanvar oyida Rimga kelgan Omonullaxon Italiya qiroli Viktor Emmanuil III (1900–1946) va Italiya hukumati rahbari Benito Mussolini (1923–1945) bilan uchrashdi. 1928-yil fevralda Parijga kelgan Afg'oniston hukmdorini Fransiya Respublikasi Prezidenti Gaston Dumerg kutib oldi. Fransiyadan so'ng Omonullaxon Germaniyaga safar qildi va mamlakat Prezidenti fon Gindenburg bilan uchrashdi. Nihoyat, 1928-yil martida Omonullaxon Buyuk Britaniyaga yetib keldi va uni ingliz qiroli Georg V (1917–1936) kutib oldi. Kutib olish chog'ida Georg V Omonullaxonga nisbatan "Janobi Oliylari" deya murojaat qildi va bu Omonullaxonning bobosi Abdurahmon va otasi Habibullaxon istagan eng yuksak orzu edi.

1928-yilning may oyida Afg'oniston hukmdori Moskvaga yetib keladi va Sovet davlati rahbariyati bilan muzokaralar olib

---

<sup>68</sup> Fraser-Tytlar, W.K. Afghanistan: A Study of Political Development in Central and Southern Asia. – London: Oxford University Press, 1953. – P. 208.



boradi. Shundan so‘ng Turkiyaga yo‘l olgan Omonullaxon Prezident Mustafo Kamol bilan uchrashdi. Ushbu uchrashuv mustaqil ravishda rivojlanish tomon qadam tashlayotgan ikki musulmon davlati rahbarlarining uchrashuvi edi. 1928-yilning iyunida Eronga kelgan Omonullaxon Rizoshoh Pahlaviy bilan uchrashdi va o‘zaro muzokaralar olib bordi. O‘sha yil iyulda Erondan o‘z Vataniga kelgan Omonullaxonning taassurotlari juda ko‘p edi.

Omonullaxon Yevropa davlatlaridagi safarlari chog‘ida ko‘plab sanoat korxonalarini, ko‘rgazmalar, harbiy zavod va fabrikalar, port va aerodromlarni borib ko‘rdi hamda yevropaliklarning yutuqlarini iloji boricha tezroq Afg‘onistonga tatbiq etishga oshiqdi. 1928-yil aprelda Yevropa safari tugagach, Afg‘oniston hukmdori katta sovg‘a-salomlar bilan o‘z yurtiga yo‘l oldi. Bu vaqtda Afg‘onistonda xalqning noroziligi yetilib qolgan va mamlakat qo‘zg‘olon arafasida turar edi.

## **AFG‘ONISTONDA MUHAMMADZOYLAR HUKMRONLIGI**

Omonullaxon Yevropa davlatlari bo‘ylab safar qilib yurarkan, Afg‘onistonda vaziyat keskinlasha bordi. Mamlakatdagi keskin vaziyat sabab Omonullaxon o‘zi bilan birga Yevropa safariga olib ketgan Afg‘oniston tashqi ishlar vaziri Mahmud Tarziyni shoshilinch tarzda Afg‘onistonga qaytishiga va vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha choralar ko‘rishga ko‘rsatma bergan edi. Afg‘onistonning yetakchi diniy rahnamolaridan “hazrat” diniy unvoni rahbari Sho‘r Bozor (asl ismi Fazl Rahim) va uning ukasi Sher Og‘a (asl ismi Fazl Umar) Mujaddadiylar o‘zlarining islohotlarga nisbatan noroziliklari tufayli Omonullaxon tomonidan Hindistonga surgun qilingan bo‘lib, ular afg‘on hukmdorining mamlakatda yo‘qligidan foydalandilar va xalq orasida Omonullaxonga qarshi targ‘ib-tashviqotni kuchaytirdilar. Ushbu diniy rahnamolarga Kobul, Xost va mamlakatning boshqa hududlaridan ham ko‘plab diniy yetakchilar ergashdi va bu holat keng ko‘lamli podshohga

qarshi kampaniyaning boshlanishiga olib keldi. Diniy yetakchilar xalq orasida Omonullaxonning Yevropa mamlakatlariga qilgan safari davomida oddiy musulmonga o'xshab yurmaganligi, balki kayfu-safo qilib juda ham katta mablag'ni sarflaganligi, spirli ichimliklardan ichib, hatto cho'chqa go'shti ham tanovul qilganligi, barcha Yevropa gazetalarida Omonullaxonning turmush o'rtog'i malika Surayyoning ochiq yuz ila tushgan surati bosilib chiqqanligi haqida turli xil uydirma gaplarni tarqatishdi.

Omonullaxonga qarshi diniy yetakchilar yana Xostda qo'zg'olon boshlashni rejalashtirdilar. Qo'zg'olon arafasida Omonullaxon davlat apparatida ham bir qator o'zgarishlarni amalga oshirdi va mamlakat mustaqilligining qo'lga kiritilishi yo'lida kurashgan hamda islohotlarni amalga oshirishda katta hissa qo'shgan o'z tarafdorlarini davlat ishlaridan chetlatdi.

1928-yilda diniy yetakchilarning mamlakatda mavqei kuchligi va vaziyatning keskinlashayotganligi jarayonida Omonullaxon Afg'onistondagi yana bir yetakchi diniy rahnamo mulla Oxundzodadan yordam so'raydi. Mulla Oxundzoda amir Abdurahmon davridan buyon mashhur diniy ulamo bo'lib, katta ta'sir kuchiga ega edi va Omonullaxonni inglizlarga qarshi 1919-yilgi mamlakat mustaqilligi yo'lida olib borgan kurashda qo'llab-quvvatlagan edi. Biroq, bu safar mulla Oxundzoda Omonullaxonning taklifini rad etadi. Omonullaxon tomonidan mulla Oxundzodani kuch bilan poytaxt Kobulga olib kelish uchun yuborilgan harbiy qism mullaning uyi yaqinida uning tarafdorlari tomonidan qo'yilgan pistirmaga duch keldi va ortga chekindi. Pistirmada turgan qurolli guruhga "Bachai Saqo" (Suvchining Bolasi) laqabli asli ismi Habibulla Qalaqoniy bo'lgan sobiq askar boshchilik qildi.

1928-yil noyabr o'rtalarida Jalolobodda shinvori va momand qabilalari Omonullaxonga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Ular amalga oshirilayotgan islohotlarga o'z noroziliklarini bayon etib, Omonullaxonni islom dinini toptashda ayblashdi. Podshoh nomidan qo'zg'olonchilar bilan muzokaralar olib borgan amaldorlar hech qanday natijaga erisha olmadilar. Shunday vaziyatda Omonullaxon

Kobul atroflarida qaroqchilik va bosqinchilik harakati ila nom qozongan Bachai Saqoning xizmatidan foydalanishni ma'qul topdi. Bu vaqtda Bachai Saqo mamlakat shimolida davlat xazinasiga olib ketilayotgan turli yig'implardan iborat katta miqdordagi mablag'larni va savdo karvonlarini talab, kuch to'plagan edi.

Bachai Saqo bu paytda qirq yoshlar chamasidagi shaxs bo'lib, uning kelib chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar ham kam edi. U Kobul shimolidagi Ko'histon viloyatining Qalaqon qishlog'ida oddiy xizmatkor oilasida dunyoga kelgan. Afg'on armiyasida bir muddat xizmat qilgach, harbiy xizmatdan bo'yin tovlab, armiyadan qochadi hamda karvon yo'llarida qaroqchilik va shaharu-qishloqlarda bosqinchilik bilan shug'ullanib yuradi.

1928-yil dekabr boshida Omonullaxon Xostda qo'zg'olon ko'targan shinvoriy qabilasiga qarshi kurashda Bachai Saqodan foydalanish maqsadida uning huzuriga Kobul shahri hokimi Ahmad Alixonni jo'natdi. Afg'on hukmdori Ahmad Alixon orqali shinvoriy qabilasi qo'zg'olonini bostiradigan bo'lsa Bachai Saqoni "birgida" (brigada generali) harbiy unvoni bilan taqdirlashini hamda uch ming afg'oniy miqdorda har oylik maosh tayinlashini va qurol-yarog' bilan ta'minlashini ma'lum qiladi. Bachai Saqo Omonullaxonning ushbu shartlarini qabul qiladi va Qur'oni Karimni qo'liga olib shinvoriylar qo'zg'olonini bostirish uchun butun kuchg'ayratini ayamaslikka va boshqa bosqinchilik qilmaslikka qasam ichadi. Bachai Saqo va podshoh Omonullaxon o'rtasida o'rnatilgan mazkur kelishuv Bachai Saqoning xalq orasida obro'sini nihoyatda oshirib yuboradi va uning tarafdorlari soni keskin osha boshlaydi<sup>69</sup>.

1928-yilning 9-dekabrda Bachai Saqo Omonullaxonning so'zlari to'g'ri yoki yolg'onligini aniqlash hamda hukmdorning o'ziga nisbatan chin ma'nodagi munosabatini bilib olish maqsadida o'ziga xos taktika qo'llaydi. U Omonullaxonga qo'ng'iroq qilib, o'zini Kobul hokimi Ahmad Alixon deb tanishtiradi va muzokaralar jarayo-

---

<sup>69</sup> Ведад Х. Восстание и правление эмира Хабибуллы-хана Бача-и Сако (январь октябрь 1929 г.) в Афганистане: Монография. – М.: Изд-во РУДН, 1996. – С. 15–16.

nida Bachai Saqoni qo'shini bilan qurshab, qo'lga olganligini ma'lum qiladi. Shu o'rinda Omonullaxon o'ylab ham o'tirmasdan Bachai Saqoni kallasini tanasidan judo qilib, uni huzuriga yetkazishga buyruq beradi. Shundan so'ng, Omonullaxonning o'ziga nisbatan asl munosabatini bilib olgan Bachai Saqo o'zini tanishtiradi va hukmdorga qarshi kurash boshlashini ma'lum qiladi<sup>70</sup>.

1928-yil 10-dekabrda Jabal us-Sirojdagi afg'on armiyasi garnizoniga hujum qilgan Bachai Saqo shaharni jangsiz egallaydi va katta miqdordagi qurol-aslahani qo'lga kiritadi. Shundan so'ng Bachai Saqo qo'shiniga Ko'histonda istiqomat qilib kelayotgan hamda bu yerdagi pushtun millatiga mansub aholining zulmidan aziyat chekayotgan tojik aholisi qo'shiladi.

1928-yil 11-dekabrda esa Ko'histonda bo'lib o'tgan diniy ruhoniylar va mullalarning katta yig'inida Bachai Saqo "Afg'oniston amiri – Habibulla G'oziy, islom dinining chin xizmatkori" deb e'lon qilindi. 14-dekabrda yirik sonli qo'shin bilan Kobulga hujum qilgan Bachai Saqo garchi shaharni egallay olmagan bo'lsa ham, poytaxtga katta zarar yetkazdi. 1929-yil yanvar oyining boshida Omonullaxon garchi qamoqqa tashlangan mamlakatning eng e'tiborli diniy yetakchilarini ozodlikka chiqargan bo'lsa-da, bu ham vaziyatni yumshatmaydi. Shu bilan birga, Omonullaxon o'zi tomonidan e'lon qilingan barcha islohotlarni to'xtatishni va ular-dan butkul voz kechib, eski qadriyatlarga to'la qaytishi xususida alohida farmon chiqaradi va xalqqa e'lon qiladi. Biroq, uning raqiblari bu Omonullaxonning vaqtinchalik tadbiri ekanligini aytib, xalqni podshohga qarshi ko'tarilishga chaqirdilar.

1929-yilning yanvari davomida tarqoq holda harakat qilgan hukumat qo'shini bilan jangga kirgan qo'zg'olonchilar birin-ketin ularni mag'lub etib, poytaxtga yaqinlashdilar. Shunday vaziyatda Omonullaxon mamlakatdagi yuqoridagi kabi tartibsizliklarga o'zi aybdor ekanligini tushunib yetdi va taxtdan akasi Inoyatullaxon evaziga voz kechganligini ma'lum qiladi. Taxtdan voz kechgan

---

<sup>70</sup> O'sha joyda.

Omonullaxon 1929-yilning 14-yanvarida o'z yaqinlari bilan Qandahor shahriga yo'l oldi.

Afg'oniston taxtini Inoyatullaxon egallagan bo'lsa ham, bu bilan tartibsizliklar to'xtamadi balki, yanada avj oldi. Omonullaxonning taxtdan voz kechganligini eshitgan qo'zg'olonchilar Kobulga yurish qilib, poytaxtni hech bir qarshiliksiz egallaydilar va Bachai Saqo Inoyatullaxon oldiga 24 soat ichida taxtni unga topshirish bo'yicha ultimatum qo'yadi. Chorasiz qolgan Inoyatullaxon taxtda atigi uch kungina o'tirgach, taxtdan voz kechadi va poytaxtni tark etdi.

1929-yilning 18-yanvarida Bachai Saqo poytaxt Kobulda Afg'oniston amiri deb e'lon qilindi va o'sha kuni uning tarafdorlaridan iborat yangi hukumat tuzildi. Ushbu hukumat tarkibida Bachai Saqoning yaqin va ishongan kishilari bilan birga Omonullaxon davrida hukumat tarkibida faoliyat ko'rsatgan ko'zga ko'ringan arboblardan ham bor edi.

Bachai Saqo hukumati dastlabki davrdan o'zining mustahkam emasligi bilan ajralib turdi. Hukumat tarkibida bir qator muhim tuzilmalar, jumladan adliya vazirligi va sud hokimiyatiga tegishli tuzilmalar yo'q edi. Shuningdek, armiya va politsiya faoliyati o'z holiga tashlab qo'yilgan bo'lib, armiya saflariga aholi orasidan askar jalb etish tartibi "hasht nafari" bekor qilinganligi sababli armiya saflari nihoyatda qisqargan hamda askarlar maosh olishmas edi. Shu bilan birga, mamlakat moliyaviy-iqtisodiy inqiroz yoqasiga kelib qolgan bo'lib, davlat g'aznasini to'ldiruvchi manbalardan keluvchi tushumlarga putur yetdi.

Mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyat ham keskinligicha qolaverdi. Omonullaxonga qarshi bosh ko'targan shinvoriy qabilasi hukumat almashgach ham o'z harakatini to'xtatmadi va Bachai Saqo hokimiyatini tan olmadi. Jalolobod, Qandahor kabi yirik shaharlarda va hazoriylar istiqomat qiladigan mamlakatning markaziy qismi Bamiyon hududlari va mamlakat janubiy-sharqidagi Xost atroflari markaziy hokimiyatga nisbatan bo'ysunmaslik harakatlari avj oldi.

1929-yil yanvar oyi ikkinchi yarmida Qandahorga yetib kelgan Omonullaxon mahalliy yetakchilar, shu jumladan diniy rahnamolarning qo‘llab-quvvatlashiga erishish maqsadida chin islom dini aqidalari asosida harakat qilishga va taxtni qaytarib olish uchun ulardan ko‘mak so‘ragan bo‘lsa-da, Qandahor aholisi sobiq hukmdorga yordam berishga shoshilmadi. Bu orada Omonullaxon o‘zini yana Afg‘oniston hukmdori deb e‘lon qildi va Bachai Saqoga qarshi urush e‘lon qildi.

1929-yilning fevral–mart oylari davomida Omonullaxon mamlakatning g‘arbiy va janubiy hududlaridan birmuncha qiyinchiliklar bilan 10 ming nafar atrofida qo‘shin yig‘di. O‘sha yil aprelida ushbu qo‘shin bilan Bachai Saqoning yirik qo‘shini turgan G‘azna shahriga yurishi Omonullaxon uchun muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Shundan so‘ng hokimiyat uchun kurashdan hafsalasi pir bo‘lgan Omonullaxon 1929-yilning 23-mayida Afg‘onistonni butkul tark etdi va Italiyaga qarab yo‘l oldi hamda umrining oxirigacha (1960-y.) shu mamlakatda yashadi.

Afg‘onistondagi beqaror vaziyat Sovet davlatini bu davlat ichki ishlariga aralashishga undadi. Sovet davlati Afg‘onistondagi vaziyatga harbiy aralashuv orqali birmuncha ta’sir o‘tkazmoqchi va Omonullaxonni taxtni qayta egallashga ko‘maklashmoqchi bo‘ladi. Omonullaxon hukumatining Moskvadagi elchisi G‘ulom Nabixon atrofida afg‘on qochoqlari va sovet ekspeditsion kuchlaridan iborat qo‘shin tashkil etildi. 1929-yil 14-aprelida 800 kishidan iborat mazkur bo‘linma sovetlar tomonidan qurollantirilib (4000 dona miltiq va 200 ta pulemyot) Afg‘oniston hududida harbiy harakatlarni boshladi. G‘.Nabixon va sovet harbiy qo‘mondoni V.Primakov boshchiligidagi mazkur qo‘shin dastlab Mazori-Sharifni, keyin Balx, Shibirg‘on va Toshqo‘rg‘on shaharlarini ishg‘ol qildi. Biroq, Omonullaxonning taxt uchun kurashni to‘xtatganligi va mamlakatni tark etganligi xabari kelgach, mazkur qo‘shin 1929-yilning may oyi oxirida zudlik bilan Afg‘onistondan chaqirib olindi.

1929-yilning bahorida afg‘on taxti uchun kurashga yana bir shaxs qo‘shildi. Omonullaxon hukumatida harbiy vazir lavozimida

faoliyat ko'rsatgan va podshohning islohotlarni shoshma-shosharlik bilan amalga oshirishidan norozi bo'lib Yevropaga ketgan general Muhammad Nodirxon Afg'onistonga yetib keldi.

Ozod qabilalar hududida istiqomat qiluvchi afg'on qabilalarining ko'magiga tayangan M.Nodirxon 1929-yilning 15-oktabrida Kobulni egalladi. Bachai Saqo qo'lga olinib, qatl etildi. M.Nodirxonning tarafdorlari undan Afg'oniston taxtini egallashini so'raydilar. Garchi, bu masala afg'on qabila yetakchilarining yig'ini – Loyya Jirg'ada hal etilishi lozimligi xususida fikr bildirgan M.Nodirxon 16-oktabr kuni Afg'oniston podshosi deb e'lon qilindi va o'ziga "shoh" rutbasini oldi.

Muhammad Nodirshoh amirlikni tugatib, shohlikni qaror toptirdi. M.Nodirshoh ham durroney qabilasi barakzoy urug'i muhammadzoy bo'g'inidan bo'lib, sobiq podshoh Omonullaxonning qarindoshi edi.



M.Nodirshoh mamlakatda qabila, millat va elatlar orasida tinchlik o'rnatib, bir qator ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishni boshladi. Biroq, u 1933-yilning 8-noyabrida suiqasd qurboni bo'ldi va hokimiyat tepasiga o'g'li Muhammad Zohirshoh (1933–1973) keldi.

1933-yil Muhammad Zohirshoh Afg'oniston qiroli deb e'lon qilindi. Bu vaqtda u endigina 19 yoshga to'lgan bo'lib, otasi uni davlat boshqaruvida tegishli ko'nikmalarni olishi uchun bir qator lavozimlarni topshirgan edi. Britaniya Hindistonidagi harbiy kollej (Staff College)ni hamda Fransiyadagi yetakchi o'quv yurtini tamomlagan M.Zohirshoh garchi rasman Afg'oniston hukmdori deb e'lon qilingan bo'lsa ham, amalda davlatni uning uch amakisi – Muhammad Hoshimxon (bosh vazir), Shoh Mahmudxon (harbiy vazir) va Shoh Valixon boshqarishdi.

M.Zohirshoh mamlakatni qirq yil mobaynida mo'tadil boshqarishga intildi. Afg'oniston tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari Zohirshohning 1934-yilgi hukumat oldidagi chiqishida belgilab berildi. Unga ko'ra, Afg'oniston Sovet Ittifoqi va Buyuk Britaniya bilan to'g'ri munosabat olib borishi, Turkiya va Eron kabi davlatlar bilan yaqin munosabatlar olib borishi, boshqa musulmon davlatlari bilan keng aloqalar olib borishi belgilangan edi. Afg'oniston tashqi siyosatining asosiy vazifalaridan biri mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yetakchi davlatlar bilan aloqalarini o'rnatish, ularning tajribasidan foydalanish edi.

Zohirshoh Sovet Ittifoqi bilan iliq munosabatlar o'rnatishga intildi va otasi kabi Afg'oniston shimolida panoj topgan Sovet davlatiga qarshi milliy ozodlik kurashi olib borayotgan O'rta Osiyolik kurashchilarni qo'llab-quvvatlamadi va ushbu harakat yetakchilaridan mamlakatni tark etishni so'radi. Shundan so'ng O'rta Osiyolik milliy istiqloqlilik harakati yetakchilari kurashni to'xtatib, Turkiya va Yevropa mamlakatlariga ketishga majbur bo'ldilar.

Buyuk Britaniya bilan ham munosabatlarda nizoli vaziyatlar kelib chiqishini oldini olishga intilgan Zohirshoh hukumati inglizlarga ozod qabilalar hududi va Britaniya Hindistoni bilan chegaralardagi afg'on qabilalarining har qanday qo'zg'olonchilik kayfiyatidagi harakatlarini qo'llab-quvvatlamaslikka va'da berdi.

Afg'onistonning xalqaro munosabatlari faollashib, hatto 1934-yili Millatlar Ligasiga a'zo bo'ldi. Dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan munosabatlarni o'rnatishga intilgan Afg'oniston 1936-yilda AQSH bilan diplomatik aloqalar o'rnatdi. Biroq, AQSH bilan munosabatlar shu bilangina cheklandi va ikki tomonlama kelishuv imzolanish darajasiga ko'tarilmadi. Buni Afg'oniston hukumatining AQSHga keng imkoniyatlar yaratib berishni istamaganligi va o'z navbatida AQSH ham afg'on zaminida muhim manfaatlarni ko'rmaganligi bilan izohlash mumkin. Hokimiyatga kelishi bilan M.Zohirshohning dastlabki tadbirlari ta'lim-tarbiya ishlarini faollashtirish va pushtu tiliga davlat tili maqomini berishga



qaratildi. Nafaqat poytaxt Kobulda, balki joylarda ham bir qator maktablar ochildi. Natijada maktablar soni ko'payib, XX asr 30-yillari oxirida butun mamlakat bo'ylab ularning soni 350 taga yetdi va ularda 60 ming nafarga yaqin o'quvchi tahsil olar edi. Davlat ishlarining fors-dariy tilida olib borilishiga hamda ushbu tilda bir necha asrdan buyon boy ilmiy, ma'naviy, siyosiy va shu kabi yo'nalishlardagi asarlar yaratib kelinganligiga qaramasdan, pushtu tilini ham hukumat darajasiga olib chiqish va undan keng foydalanish bo'yicha bir qator tadbirlar amalga oshirildi. Bu davrda mamlakat iqtisodiy salohiyatini birmuncha oshirishga qaratilgan tadbirlar ham amalga oshirildi.

1932-yilda Afg'oniston Milliy Banki tashkil etildi. Shu bilan birga, mamlakatda savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida bir necha yirik savdo kompaniyalari ham tashkil etildi. Ushbu savdo kompaniyalari nafaqat mamlakatning ichki va tashqi savdosini nazorat qilar edilar, balki mamlakat sanoat tarmoqlarini ko'tarish hamda rivojlantirish uchun ham kapital kiritishni o'z zimmalariga olgan edilar. Hukumat chet el savdo kompaniyalari bilan munosabatlarda ehtiyotkorlikka tayandi. 1933–1938-yillar oralig'ida Afg'oniston Milliy Bankining kapital jamg'armasi yuz barobardan ko'proqqa oshdi. Mamlakat ichki va tashqi savdosining 80%dan ortig'ini o'z nazoratiga olgan ushbu bankning ta'sirini birmuncha kamaytirish maqsadida hukumat 1938-yilda davlatga tegishli Afg'oniston Banki (D Afg'oneston Bank)ni tashkil etdi. Afg'oniston Bankiga davlat bankining barcha vakolatlari berildi va bu bank endilikda pul aylanishini, chet el valutalari, oltin, kumush sotib olish hamda sotishni nazorat qilishi, davlatga tegishli qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarishni boshqaradigan bo'ldi.

Afg'oniston Milliy Banki esa faqat savdo operatsiyalariga ixtisoslashgan kommersiya banki bo'lib qoldi. Biroq, ushbu bankning kapital aylanmasi yanada oshib, 30-yillar oxirida hatto, hukumatga ham 21 mln. afg'oniy (qariyb 2 mln. AQSH dollari) miqdorida kredit berdi.

Mamlakatda keng ko‘lamli sanoat tarmoqlarini barpo etish uchun avvalo, elektr energiyasi ishlab chiqarishni keskin oshirish zarur edi. Shu bois, hukumat bu masalaga jiddiy yondashdi. Natijada o‘tgan asr 30-yillari davomida va 40-yillari boshlarida Jabal us-Sirojdagi gidroelektr stansiyasining quvvati 1500 kVt dan 2400 kVt ga oshirildi. Chok-e Vardakda quvvati 4000 kVt ni tashkil etuvchi yana bir gidroelektr stansiyasi barpo etildi. Shuningdek, hukumat quvvati 24 ming kVt bo‘lgan Sarobiy va 6500 kVt quvvatga ega Arg‘andob gidroelektr stansiyalarini barpo etishni rejalashtirdi<sup>71</sup>.

XX asr 30-yillaridan boshlab Afg‘onistonda sanoat tarmoqlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. Jumladan, 1937-yilda sanoat asbob-uskunalarini mamlakatga olib keluvchi va ularni turli hududlarda o‘rnatib, ishga tushirib beruvchi “Vatan” kompaniyasi ishga tushirildi. Shu bilan birga, paxta xomashyosini va junni qayta ishlovchi sanoat korxonalari vujudga keldi.

1938-yilda Bag‘londa Chexoslavakiyaning “Shkoda” firmasi uskunalari (qiymati 1 mln. AQSH dollari) asosida shakar ishlab chiqaruvchi zavod ishga tushirildi va ushbu korxonaga mamlakatning shakarga bo‘lgan ehtiyojini to‘la ta‘minlab berdi. Shu yilda yana sovun va sement ishlab chiqaruvchi yirik zavodlar ham ishga tushirildi.

Mamlakatda sanoatni rivojlantirishga bo‘lgan katta sa‘y-harakatlar, hukumat tomonidan amalga oshirilgan bir qator muhim tadbirlarga qaramasdan Afg‘oniston qishloq xo‘jaligi mamlakati bo‘lib qolaverdi. XX asr 30-yillari ikkinchi yarmida Afg‘oniston tovar eksportining 85–90 %ini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tashkil etar edi. Import hajmi eksport hajmidan kamroq bo‘lib, asosan tayyor to‘qimachilik mahsulotlari, neft va qurilish mahsulotlari mamlakatga olib kirilar edi.

1937-yilda Afg‘oniston eksportining hajmi 358 mln. afg‘oniyni, import esa 324 mln. afg‘oniyni tashkil etgan bo‘lsa, 1943-yilda

---

<sup>71</sup> Gregorian Vartan. The Emergence of Modern Afghanistan. – Stanford (California): Stanford University Press, 1969. – P. 366–367.

eksport hajmi 734 mln. afg'oniya, import esa 627 mln. afg'oniya yetdi<sup>72</sup>. Savdo hajmining oshishi va eksport-importdagi ijobiy balansga erishilgan bo'lsa ham mamlakat iqtisodiyoti hali nochor ahvolda qolmoqda edi. Bunday holatga barham berish maqsadida hukumat 1932–1938-yillarga mo'ljallangan umumiy rivojlanish dasturini qabul qilgan bo'lsa, 1938-yilda yana shunga o'xshash yetti yilga mo'ljallangan dasturni qabul qildi.

XX asr 30–40-yillari davomida Afg'onistonda madaniyat, ilm-fan, san'at va sport ham muayyan darajada rivoj topdi. Bu davrda Kobuldagi "Najot" va "Istiqlol" nomli litseylarda havaskor teatr guruhleri faoliyat olib bordi. XX asr 20-yillari davomida ish olib borgan teatr faoliyatini qayta yo'lga qo'yish bo'yicha birmuncha sa'y-harakatlar amalga oshirildi. 1937-yilda Hirot, Mozori Sharif va Qandahorda teatrlar faoliyati yo'lga qo'yildi. 1941-yildan Kobulda professional teatr faoliyat yurita boshladi. XX asr 30-yillari birinchi yarmida Kobul, Hirot, G'azna, Mozori Sharif va Qandahorda muzeylar ochildi. Kobul milliy muzeyida Ellinistik, Buddizm va G'aznaviylar davrlariga oid bir qator boy arxeologik va etnografik eksponatlar mavjud bo'lib, ularning aksariyati mamlakatda 1922-yildan qazish va tadqiqot ishlarini olib borgan fransuz ekspeditsiyasi faoliyati natijasida topilgan edi. Shuningdek, Kobul milliy muzeyida turli davrlarga oid 40 ming donadan ko'p tanga pullarning o'ziga xos kolleksiyasi jamlangan edi.

Afg'oniston ilm-fani rivoji yo'lida Kobul Universitetiga asos solinishi muhim qadam bo'ldi. 1938-yilda siyosiy va huquqiy bilimlar bo'limlari, 1941-yilda fizika, matematika, kimyo, biologiya va geologiya kafedralaridan iborat tabiiy fanlar fakulteti va 1944-yilda adabiyot fakultetlari ochildi, 1946-yilda ushbu ilm-fan maskanlari birlashtirilib, Kobul Universitetiga asos solindi.

Mamlakatda ommaviy kutubxonalar ham faoliyat yuritdi. XX asr 30–40-yillarida "Habibiya" litseyi kutubxonasidan tashqari yana 1920-yilda asos solingan ta'lim vazirligi kutubxonasi (fors, arab, rus,

---

<sup>72</sup> Gregorian Vartan. The Emergence of Modern Afghanistan. – Stanford (California): Stanford University Press, 1969. – P. 369.

ingliz va turk tillaridagi 10 ming nafar nashrga ega) va 1931-yilda ochilgan matbuot departamenti kutubxonasi (fors, arab va pushtu tillaridagi 300 nafardan ortiq qo'lyozma va 20 ming nafar nashrga ega) faoliyat ko'rsatdi. Shu bilan birga, Kobul Universitetida ham yirik kutubxona faoliyati yo'lga qo'yildi.

XX asr 30–40-yillarida Afg'onistonda sport bilan ommaviy ravishda shug'ullanish boshlandi va sportning bir necha turlari bo'yicha mashg'ulotlar olib boradigan klub va to'garaklar ish boshladi. Afg'oniston Milliy Olimpiya qo'mitasiga asos solindi. Mamlakat sportchilari 1936-yilda Berlinda bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlarida va boshqa bir qator xalqaro turnirlarda ishtirok etishdi.

Ikkinchi Jahon urushi boshlanishi arafasida Afg'oniston nisbatan tinch ravishda o'z rivojlanish yo'lida davom etar edi. Yetakchi davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar oqibatida yana bir umumjahon urushi kelib chiqishi mumkinligini muayyan darajada anglagan afg'on hukumati o'z armiyasini takomillashtirish va mustahkamlash yo'lidan bordi.

XX asr 30-yillari davomida afg'on armiyasi Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya va Chexoslavakiyada ishlab chiqarilgan harbiy texnika hamda qurol-aslaha bilan ta'minlandi. Afg'on armiyasi tarkibida Harbiy Havo Kuchlari, tank qo'shilmasi, transport bo'linmalari va front orti zaxira faoliyati bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar tashkil etildi. Bir necha marta harbiy o'quv mashqlari o'tkazildi. Afg'on armiyasida asosan turk harbiy instruktorlari xizmatidan foydalanilib kelingan bo'lsa, 1939-yildan boshlab nemis hamda italyan harbiylari va maslahatchilari ham afg'on armiyasida faoliyat ko'rsata boshladilar. Afg'on harbiy zobitlari Turkiya, Sovet Ittifoqi, Hindiston, Italiya va Yaponiya kabi mamlakatlarga malaka oshirishga jo'natilar edi.

1934-yilda afg'on armiyasi soni 70 ming nafar askar va zobitdan iborat bo'lgan bo'lsa, 1936-yilda bu miqdor 80 ming nafarga va 1941-yilda 90 ming nafarga yetdi. XX asrning 30-yillari oxiri va 40-yillari boshida afg'on hukumati o'z budjetining 50 %i va undan ham ko'prog'ini harbiy sohaga sarfladi. 1937-yilda Afg'oniston

Eron, Turkiya va Iroq kabi davlatlar a'zo bo'lgan Saadobod paktiga qo'shildi. Afg'oniston a'zo bo'lgan ilk xalqaro tashkilot hisoblanmish ushbu tuzilmada yetakchi rolni Buyuk Britaniya o'ynadi. A'zo davlatlar bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik, umumiy chegaralarning daxlsizligini ta'minlash kabi shartlarga rioya etishga kelishib oldilar. Buyuk Britaniyaning ushbu tuzilmani tashkil etishdan maqsadi Germaniya va Italiya kabi fashistik davlatlarning Yaqin va Sharqqa suqilib kirishini oldini olish edi.

XX asr 30-yillari ikkinchi yarmidan boshlab Gitler yetakchiligidagi Germaniya Afg'onistonga juda katta qiziqish bildira boshladi. Bu bo'lajak urushda Germaniya raqiblari hisoblanmish Buyuk Britaniya va Sovet Ittifoqiga afg'on zaminining bevosita chegaradoshligi bilan izohlanadi.

1937-yil noyabrda Germaniyaning "Lyuftganza" aviakompaniyasi Berlin va Kobul o'rtasida doimiy havo qatnovini yo'lga qo'ydi. Shu yili Afg'onistonda qazilma boyliklarini qidirib topish va qazib olish bilan shug'ullanuvchi "Afghanistan Mines Ltd." nomi bilan ataluvchi afg'on-nemis kompaniyasi tashkil etildi. Shuningdek, ko'plab nemis mutaxassislari Afg'onistonda yo'l qurilishi, gidroenergetika, ko'mir qazib chiqarish kabi sohalarda faoliyat yurita boshladilar.

1939-yil avgustida Afg'oniston va Germaniya o'rtasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan savdo-moliyaviy kelishuv imzolandi. Unga ko'ra, afg'on tomoni gidro elektr stansiyalari va paxta xom ashyosini qayta ishlovchi zavodlar uchun zamonaviy asbob-uskunalarni uzoq muddatli imtiyozli kredit asosida oldi. Buyuk Britaniya, Sovet Ittifoqi, AQSH va Fransiya kabi davlatlarning Afg'oniston bilan hamkorlik qilishni, afg'on iqtisodiyotining rivoji uchun ko'maklashishni istamasligi jarayonida Germaniyaning siyosiy maqsadlarni ko'zlab, hech qanday kafolatsiz afg'on hukumatiga yirik kredit ajratishi o'ziga xos tavakkalchilik edi.

Afg'on hukumati nemis tomonining bunday faolligini ingliz va ruslar kabi afg'on zaminini mustamlakaga aylantirish maqsadida emas, balki Afg'onistonni sanoatlashtirish va zamonaviylashtirish

yo'lida ko'maklashish, deya talqin etdi. Urush arafasida nemis mutaxassislarining Afg'onistondagi faoliyat doirasi kengaydi. Jumladan, nemislar afg'on politsiya xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirishda, pochta, telefon va telegraf hamda bank sohalarida keng faoliyat olib borar edilar. Shuningdek, nemis mutaxassislari afg'on yoshlariga ta'lim berish yo'nalishida ham samarali ish olib bordilar. Shu tariqa, Ikkinchi Jahon urushi boshida Afg'onistonda ko'p sonli nemis ekspert-mutaxassislari, muhandislari va o'qituvchilari faoliyat yuritishar edi.

Ikkinchi Jahon urushi arafasida Afg'oniston o'z mavqeidan kelib chiqqan holda neytralitet e'lon qilishni ma'qul ko'rdi va urush boshlanishi bilanoq, ya'ni 1939-yil 3-sentabrda Afg'oniston ushbu urushda o'z betaraffligini e'lon qildi. Shu munosabat bilan Afg'oniston qirg'inbarot urushga tortilmadi.

Ikkinchi Jahon urushi yillarida Germaniya va Buyuk Britaniya o'z milliy manfaatlarini ko'zlagan holda Afg'onistonni 1939-yil 3-sentabrda e'lon qilingan neytralitet to'g'risidagi siyosatidan voz kechishga undadi. Biroq rasmiy Kobul betarafflik to'g'risidagi mavjud shartnomani o'zgartirmasligini ma'lum qildi. O'z navbatida mazkur holat Sovet Ittifoqi va Afg'oniston munosabatlarida ijobiy qarashlar saqlanib qolishiga asos bo'lib xizmat qildi.

Germaniya Afg'onistondan Britaniya Hindistoniga bostirib kirish uchun qulay plasdarm sifatida foydalanishga urinib ko'rdi. Afg'on hukumati nemislarning bunday rejasini qo'llab-quvvatlamaganligi bois (chunki bosh vazir M.Hoshimxon inglizparast edi) Germaniya hatto, Kobulda hokimiyatni o'zgartirish va sobiq hukmdor Omonullaxonni yana taxtga qaytarish taraddudiga ham tushib qoldi. Biroq, Germaniyadagi ba'zi kuchlar hokimiyatni almashtirish emas, balki afg'on bosh vaziriga bosim o'tkazish yo'li bilan o'z rejalarini amalga oshirishni ma'qul ko'rdilar.

1940-yil bahorida Kobuldagi nemis elchisi afg'on bosh vaziriga Germaniya yaqin orada Buyuk Britaniyani to'la mag'lubiyatga uchratishi va Londonni egallashi to'g'risida maxfiy ma'lumotni yetkazdi. Nemis tomoni agar Buyuk Britaniya mag'lubiyatga

uchraydigan bo'lsa, afg'on davlatining Durrioniylar davridagi tarixiy chegaralari qayta tiklanishiga, ya'ni Belujiston, Kashmir, G'arbiy Panjob va Sind o'lkasi (Karachi porti bilan birga) Afg'oniston tarkibiga qo'shib berilishiga va'da berdi.

1940-yil yozida Germaniyaning G'arbiy Yevropadagi muvaffaqiyatli harbiy harakatlari va Angliyani bombardimon qilishi natijasida afg'on siyosiy elitasining ba'zi vakillari, xususan Zohirshohning amakisi va harbiy vazir Shoh Mahmud, qirolning amakivachchasi Muhammad Dovud va uning ukasi Naimxon hamda iqtisodiyot vaziri Abdulmajid kabi shaxslar qirolga Afg'onistonning neytralitet maqomini bekor qilishni va Germaniyaning faol qo'llab-quvvatlashni maslahat berdilar.

Afg'onistonni o'z tomoniga og'dirishni ahd qilgan nemislarga javoban afg'on hukumati agar inglizlar tomonidan bosib olingan tarixiy afg'on yerlari qaytarilsa va mamlakat dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'lsa, shuningdek, Sovet Ittifoqi afg'on zaminining yaxlitligiga kafolat bersa Afg'oniston Germaniya yetakchilik qilayotgan ittifoqqa qo'shilishi hamda ozod qabilalar hududi va Vaziristonda afg'on qabilalarining qo'zg'olonini uyushtirishi mumkinligini ma'lum qildi.

1941-yil iyunida Germaniyaning Sovet Ittifoqiga nisbatan hujumi natijasida vujudga kelgan sovet-britan ittifoqi Afg'onistondan Gitler Germaniyasini qo'llab-quvvatlamaslikni va barcha nemis agentlari hamda razvedkachilarini afg'on zaminidan zudlik bilan chiqarib yuborishni talab qildi. Bunday talabning jiddiyligini qo'shni Erondagi voqealar ham ko'rsatib berdi. Ya'ni, Buyuk Britaniya va Sovet Ittifoqi hukumatlari Eron shohi Rizoshoh Pahlaviydan ham Germaniyaning qo'llab-quvvatlamaslikni hamda barcha nemis agentlari va razvedkachilarini Erondan zudlik bilan chiqarib yuborishni talab qilgan edi. Biroq, Rizoshoh tomonidan antigitler koalitsiyasiga a'zo ushbu davlatlar talabining rad etilishi Sovet Ittifoqi Eronning shimoliy qismini, Buyuk Britaniya esa Eronning janubiy qismini okkupatsiya qilishiga olib keldi.

Erondagi voqealardan xavotirga tushgan afg'on hukumati 1941-yilning noyabrida Buyuk Britaniya va Sovet Ittifoqi hukumatlariga o'zining 1939-yilda e'lon qilingan neytralitet maqomiga qat'iy amal qilishini yana bir bor ma'lum qildi. Ikkinchi Jahon urushi Afg'onistonning iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir qildi. Garchi, Afg'oniston urushga tortilmagan bo'lsa-da, mamlakatning Yevropa va Osiyo mamlakatlari bilan o'rnatilgan savdo munosabatlariga putur yetdi hamda mamlakat daromadi keskin kamayib ketdi. Afg'onistonga muhim iste'mol tovarlari olib kirilishining keskin cheklanishi natijasida mamlakatda narx-navo bir necha barobarga oshdi va urushning boshi (1939-yil)dan to urushning oxiri (1945-yil)gacha narx-navo yetti barobarga qimmatlashdi.

Afg'on mahsulotlari eksportining cheklanishi bilan bir qatorda chet el mahsulotlari importining kamayishi bojxona va boshqa tushumlarning ham qisqarishiga olib keldi. Mamlakatdagi moliyaviy nochorlik milliy pul birligi – afg'oniyning qadrsizlanishini yuzaga keltirdi va urushning dastlabki yillarida inflyatsiya yillik o'rtacha 20%ni tashkil etib turgan bo'lsa, urush oxirida uning miqdori yillik 300%gacha ko'tarilib ketdi. 1944–1945-yillarda Afg'onistonda ichki siyosiy vaziyat birmuncha keskinlashdi. Bir tomondan hukumatning soliq siyosatidan norozi bo'lgan ba'zi pushtun qabilalari qurolli qo'zg'olon ko'tarishgan bo'lsa, ikkinchi tomondan hukumat ba'zi isyonchi qabilalarni qurolsizlantirishga intildi hamda barcha qabilalar uchun umumiy harbiy majburiyat qat'iy belgilab qo'yildi. Bunday holat erksevar afg'on qabilalari noroziligiga sabab bo'ldi.

1944-yil aprelda Xost atroflarida istiqomat qiluvchi jadrان qabilalari qo'zg'oloni boshlandi va hukumat qo'shinlarining zudlik bilan harakati natijasida o'sha yilning iyunida ushbu qo'zg'olon bostirildi. 1945-yil mayida Paktiya viloyatida istiqomat qiluvchi mangal qabilasi, iyun oyida esa Sharqiy hududlarda yashovchi afg'on qabilalari qo'zg'oloni ro'y berdi. Hukumat mazkur qo'zg'olonlarni bostirish uchun keskin chora-tadbirlar ko'rishga majbur bo'ldi va o'sha yilning noyabriga kelib bu qo'zg'olonlar bostirildi.



## **AFG‘ONISTONNING ENG YANGI DAVR TARIXI (1945–2000-YILLAR). AFG‘ONISTONNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA SIYOSIY TARAQQIYOTI**

Afg‘oniston garchi Ikkinchi Jahon urushida ishtirok etmagan bo‘lsa-da, urush mamlakat hayotiga katta zarar yetkazdi. XX asr 30-yillari davomida mamlakat iqtisodiyotini tiklash va rivojlantirish bo‘yicha yetakchi chet davlatlar bilan o‘rnatila boshlangan savdo-iqtisodiy, texnikaviy va shu kabi sohalardagi hamkorlik urush boshlanishi bilan to‘xtab qoldi. Urush yillarida Afg‘oniston faqat Buyuk Britaniya bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni olib bora oldi, xolos. Ikkinchi Jahon urushi nihoyasiga yetgach, Afg‘oniston ham ichki siyosatda, ham tashqi siyosatda bir qator jiddiy muammolarga to‘qnash keldi.

1946-yilda ichki siyosatda afg‘on xalqi ustida juda ham qattiq nazorat yuritib kelgan M.Hoshimxon (podshoh M.Zohirshohning amakisi) boshchiligidagi hukumat Shoh Mahmud (M.Zohirshohning boshqa bir amakisi) yetakchiligidagi hukumat bilan almashgan<sup>73</sup> bo‘lsa ham afg‘on qabilalari orasidagi norozilik kayfiyati hamon ustun bo‘lib turar, mamlakat iqtisodiyoti va xo‘jaligi zudlik bilan hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator muammolarga to‘qnash kelgan edi.

Mamlakatda hukumat almashinuvi bilan ijtimoiy-siyosiy hayotda ham birmuncha o‘zgarishlar ro‘y berdi. Jumladan, bir qator ommaviy va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning paydo bo‘lishiga hamda faoliyat yuritishiga sharoit yuzaga keldi.

Shoh Mahmudning hukumatga kelishi bilan XX asr 30-yillarida qamoqqa tashlangan ilg‘or fikrga ega bir qator jamoat arboblari ozodlikka chiqarildi va surgundan qaytib kelishga ijozat berildi. Xususan, uzoq muddatli qamoq jazosini o‘tagan Said Qosim Lag‘moniy adliya vaziri lavozimini egallagan bo‘lsa, Abdul Hodi Doviy afg‘on parlamenti quyi palatasi rahbari lavozimini egalladi.

Urushdan keyingi yillardagi og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, kun tartibida turgan bir qator o‘tkir muammolarning hal etilmasligi va

---

<sup>73</sup> Ghoobar, Mir Gholam Mohammad. Afghanistan in the Course Of History. Volume II. – Alexandria (USA): Hashmat K. Gobar, 2001. – P. 175.

hukumatning bu boradagi sust faoliyati mamlakatda turli muxolif harakatlar hamda guruhlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

1947-yilda ana shunday harakatlardan biri “Vish zalmiyon” (Uygʻonayotgan yoshlar) paydo boʻldi. Uning tarkibiga asosan pushtun millatiga mansub savdo-sanoat sohasi vakillari, kichik lavozimdagi davlat xizmatchilari hamda ziyoli qatlam vakillari kirishdi. Jumladan, harakat yetakchisi qandahorlik Muhammad Rasul Pushtun boʻlsa, kichik amaldor Nur Muhammad Tarakiy, shoir Abdurrauf Benavo, tarixchi Abdulhay Habibiy, shoir Gul Pacha Ulfat kabilar harakat aʼzolari edilar.

1948-yil oxirida mamlakat vakillik organlariga boʻlib oʻtgan saylovlarda “Vish zalmiyon” harakati aʼzolaridan bir necha nafari deputat boʻlib saylanishga muvaffaq boʻldi va ularning saʼy-harakati bilan 1951-yilda soʻz va matbuot erkinligini taʼminlash, shaxsiy gazeta va jurnallarni nashr etish uchun huquqiy asos boʻladigan “Matbuot haqida” yangi qonun qabul qilindi.

Mazkur harakat mamlakat yoshlarini umumiy taraqqiyot yoʻlida birlashtirish yoʻlida keng koʻlamli faoliyat olib bordi. Natijada 1950-yilda mamlakat oliy oʻquv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarni birlashtiruvchi talabalar ittifoqi yuzaga keldi.

Ushbu davrda Afgʻonistonda vujudga kelgan yana bir ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida “Vatan” tashkilotini koʻrsatib oʻtish mumkin. 1951-yilda tashkil etilgan ushbu tashkilot oʻz oldiga nisbatan keng koʻlamdagi siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy masalalarni hal etish yoʻlida kurashishni qoʻygan edi. “Vatan” tashkiloti saflarida turli qatlam vakillari bor edi. Jumladan, mashhur afgʻon tarixchisi Mir Gʻulom Muhammad Gʻoʻbor tashkilot rahbari va gʻoyaviy yetakchisi boʻlsa, davlat xizmatchisi Mir Muhammad Siddiq Farhang, ziyoli Ahmad Ali Koʻhzod, Kobul universiteti oʻqituvchisi Farux Ettemodiy, shoir Sarvar Joʻyo, yozuvchilar Ali Ahmad Naimiy va Abduhalim Atefiy kabilar tashkilot aʼzolari edi<sup>74</sup>.

Afgʻonistondagi ijtimoiy-siyosiy harakatlarning faollashuvi mamlakat hukmron tabaqalarini ham befarq qoldirmas edi.

<sup>74</sup> Ghobar, Mir Gholam Mohammad. Afghanistan in the Course of History. Volume II. – Alexandria (USA): Hashmat K. Gobar, 2001. – P. 206.

1948-yilda mamlakat mudofaa vaziri lavozimini egallagan Muhammad Dovud (podshoh M.Zohirshohning amakivachchasi) o‘z atrofiga davlat amaldorlari va intelligensiya vakillarini yig‘a boshladi.

1950-yilda Muhammad Dovud yetakchiligida “Milliy klub” tashkil etildi va uning tarkibiga sobiq iqtisodiyot vaziri Abdulmajid Zobuliy, maorif vaziri Fayz Muhammad Zikriyo, bosh vazir o‘rinbosari Ali Muhammad Badaxshoniy kabi davlat amaldorlari kirishdi. Ushbu tashkilot afg‘onlarning birligi, konstitutsion monarxiya boshqaruvi tarafdori bo‘lib chiqsa-da, ko‘plab davlat amaldorlari va oddiy xalqning qo‘llab-quvvatlashiga erisha olmadi. Chunki, “Milliy klub” Muhammad Dovudning hokimiyat pog‘onasida yanada yuqorilashi va bosh vazir lavozimini egallashi yo‘lida bir vosita bo‘lishi lozim edi.

1952-yilda mamlakat parlamentiga bo‘lib o‘tgan saylovlarda rasmiy hukumat tobora avj olib borayotgan muxolifat guruhlariga nisbatan keskin choralar qo‘lladi va natijada yuqorida nomlari tilga olingan ijtimoiy-siyosiy tashkilot hamda guruhlar a‘zolari parlament deputatligiga saylanishga yo‘l qo‘yilmadi. Bunday holat birmuncha noroziliklar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa ham, hukumat vaziyatni tezda qo‘lga olib, muxolifat vakillarining barchasini qamoqqa olishga yoki surgun qilishga muvaffaq bo‘ldi.

XX asr 40-yillari oxiri va 50-yillaridan boshlab Afg‘oniston dunyoda kechayotgan turli jarayonlarga, xususan geosiyosiy jarayonlarga ko‘proq tortila boshlandi va yanada ko‘proq xalqaro ahamiyat kasb eta boshladi. Ma‘lumki, 1945-yil 5-martda Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri U.Churchill Fulton universitetida (AQSH) so‘zlagan nutqida “Sovuq urush” boshlanganini e‘lon qilgan edi. Mazkur “urush” raqiblari bir tomonda AQSH bo‘lsa, ikkinchi tomondan Sovet Ittifoqi edi.

“Sovuq urush” davrida Afg‘oniston Sovet Ittifoqi hamda AQSH manfaatlari doirasidagi hududlarni ajratib turuvchi davlat sifatidagi roli ham Sovet Ittifoqi ham AQSH manfaatlariga to‘liq mos kelardi. Shunga qaramasdan, dunyoning ikki yetakchi davlatlari

Afg'onistonni o'z nazoratlarida ushlashga, afg'on zaminida harbiy jihatdan hozir bo'lish (presence)ni<sup>75</sup> kuchaytirishga, Afg'onistonni iqtisodiy qaram qilishga intilib keldilar.

1947-yilda Afg'oniston yetakchi davlat Buyuk Britaniyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosati barbod bo'lishidan quvonish hissini tuyib, bir asrdan ortiq vaqt mobaynida afg'on davlatiga tazyiq o'tkazib kelgan inglizlarning mintaqani tark etishi va Hindistonga mustaqillik berishidan xursand bo'lsa-da, bunday holat yana bir boshqa jiddiy muammoni keltirib chiqardi. Hindistonni osonlikcha tark etishni istamagan inglizlar bu yerda bir-biriga dushmanlik kayfiyatida bo'lgan ikki davlat Hindiston (aholisining asosiy qismi induizm diniga e'tiqod qiluvchi) va Pokiston (aholisining asosiy qismi islom diniga e'tiqod qiluvchi) barpo etilishini e'lon qildilar. Inglizlarning bunday o'ziga xos siyosati kelgusida ham hind zaminida yangi barpo etilgan ikki davlat, ikki din vakillari o'rtasida ziddiyat va qarama-qarshilik saqlanib qolishiga zamin yaratishi hamda inglizlar bunday ziddiyatdan kezi kelganda ustalik bilan foydalanishlari uchun amalga oshirildi.

Afg'on qabilalari istiqomat qiladigan ozod qabilalar hududi yangi tuzilgan Pokiston tarkibiga o'tib ketganligi bois, Afg'oniston ushbu masalani muzokaralar orqali hal etish yuzasidan Pokiston Islom Respublikasi rasmiy doiralariga murojaat qildi. Biroq, Pokiston tomoni Afg'oniston murojaatini bee'tibor qoldirdi va Afg'onistonga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lib keldi. 1947-yilning o'zidayoq bir qator afg'on qabilalari yangi Pokiston hukumatiga qarshi qo'zg'olonchilik harakatlarini ham boshlab yubordilar.

1949-yil iyulida afg'on parlamenti Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar masalasini muhokama qildi hamda Pokiston tarkibidagi afg'on qabilalarini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. Shuningdek, afg'on parlamenti "Dyurand chizig'i"ni ikki davlat o'rtasida belgilangan chegara sifatida tan olmasligini e'lon qildi.

---

<sup>75</sup> Сафоев С.С. Марказий Осиёнинг геосиёсати. – Тошкент: Патент пресс, 2005. – Б.8.

1949-yil avgustida Pokiston hududida istiqomat qiluvchi afg'on qabilalari yetakchilarining yig'ilishi bo'lib o'tdi va unda Pokistondan mustaqil Pushtuniston davlati tuzilganligi e'lon qilindi. Pushtuniston Milliy Assambleyasi saylandi va uning bayrog'i tasdiqlandi. 1950-yilda Pokiston rasmiy hukumati hatto, Afg'onistonga nisbatan qurolli hujum qilish bilan tahdid qildi. Afg'on hukumatining ushbu mojaroli vaziyatni bartaraf etishda AQSHdan yordam so'rashi hech bir natija bermadi. Biroq, AQSH Afg'onistonda o'z mavqeini mustahkamlash bo'yicha boshqa bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

XX asr 40-yillari ikkinchi yarmidan boshlab AQSH Afg'onistonda bir qator iqtisodiy loyihalarning amalga oshirilishi bo'yicha ko'mak ko'rsata boshladi. Jumladan, qiymati 20 million AQSH dollariga teng irrigatsion va yo'l-transport loyihalari ana shular jumlasidandir. Dastlab Afg'onistonga AQSHning "Morrison-Nadsen" firmasi kirib keldi va afg'on hukumati bilan irrigatsiya obyektlarini qurish bo'yicha shartnoma tuzdi. AQSH hukumati mazkur shartnomaning amalga oshirilishini noma'lum vaqtgacha cho'zib borib, o'zini mintaqada mavjud bo'lishini ta'minlashga intildi va Afg'oniston hukumatini moliyaviy jihatdan o'ziga qaram qilib qo'ydi. 1948-yilda Afg'oniston hukumati yana AQSHga moliyaviy ko'mak berishni so'rab murojaat qildi.

AQSH hukumati XX asr 50-yillari boshida Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi mojaroli vaziyatga ham birmuncha aralashdi va "pushtunlar muammosi"ning yanada chigallashuviga o'z "hissasini" qo'shdi. 1951-yilda Afg'oniston AQSHga qurol-yarog' yetkazib berish bo'yicha yordam so'rab murojaat qildi. Biroq, G.Trumen hukumati Afg'onistonning ushbu iltimosini rad etdi. O'z navbatida Sovet Ittifoqi hukumati ham Afg'oniston bilan munosabatlarini rivojlantirishga intildi.

1954-yilda Afg'oniston 3,5 mln. AQSH dollari miqdorida sovet kreditini oldi va 1955-yilda sovet hukumati Muhammad Zohirshohga 100 mln. AQSH dollari miqdorida qarz berdi. Bundan tashqari, sovet mutaxassislari Salang dovoni orqali mamlakatning

markaziy qismini Sovet Ittifoqi hududi bilan tutashtiruvchi katta transport magistralini qurib berishdi. Shuningdek, sovet mutaxassislari ko‘magida Mozori Sharif, Bagrom va Shindod shaharlarida zamonaviy aerodromlar barpo etildi.

XX asr 50-yillari sovet-afg‘on munosabatlarini rivojlantirishda samarali bosqich bo‘ldi. Chunki, aynan shu davrda Sovet Ittifoqi Afg‘onistonda turli sohalardagi infrastrukturani rivojlantirish maqsadida katta miqdorda iqtisodiy-texnik yordam ko‘rsatdi. Jumladan, Sovet Ittifoqi sarmoyasi asosida mamlakatda magistral yo‘llar, cho‘l hududida joylashgan Jalolobod irrigatsiya kompleksi, zaytun va apelsin yetishtirishga mo‘ljallangan qishloq xo‘jaligi kompleksi, aholi yashashi uchun turar joylar qurib berishga ixtisoslashtirilgan baza, Kabul Politexnika instituti va shu kabi 140 dan ortiq obyektlarni qurdi.

1950–1960-yillar davomida Sovet Ittifoqi Afg‘onistonga umumiy qiymati 1 mlrd. AQSH dollari miqdorida moliyaviy yordam ko‘rsatdi va ikki davlat o‘rtasida imzolangan “O‘zaro hujum qilmaslik va neytralitet to‘g‘risida”gi shartnomani yana 10 yilga uzaytirishga kelishib olindi. Shunday qilib, eng yangi tarix davrida Afg‘oniston o‘zining qulay strategik holati tufayli jahon geosiyosiy xaritasida alohida o‘rinni egalladi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Afg‘oniston ko‘plab mamlakatlar, shu jumladan Sovet Ittifoqi va AQSHning siyosiy, mafkuraviy va savdo-iqtisodiy manfaatlarini doirasiga tobora tortila boshladi. Mamlakat aslida ikki buyuk davlat manfaatlarini to‘qnashgan maydonga aylanib qoldi.

Liberal islohotlarni amalga oshirishning boshlanishi. 1964-yilgi Konstitutsiya. XX asrning 50-yillari birinchi yarmiga kelib ham Afg‘onistonda iqtisodiy-ijtimoiy holat yaxshilanmadi. Urushdan keyingi yillarda amalga oshirilishi boshlangan bir qator loyiha va dasturlar o‘z samarasini bermadi. Shunday vaziyatda Shoh Mahmud boshchiligidagi hukumat iste‘fo berdi. 1953-yil sentabrda hukumat rahbari – bosh vazir lavozimini ko‘pchilik kutganidek, podshohning amakivachchasi Muhammad Dovud (1909–1979) egalladi. Bu vaqtga qadar Muhammad Dovud bir qator mas‘ul lavozimlarda –

Afg‘onistonning Fransiyadagi elchisi, bir qator viloyatlar hokimi, ichki ishlar vaziri va mudofaa vaziri kabi muhim davlat lavozimlarida ishlab kelgan edi. Muhammad Dovud hukumati mamlakatda iqtisodiy-moliyaviy ahvolni yaxshilashga intilib, banklar faoliyatiga keng yo‘l ochib berish va chet el investitsiyalarini ko‘proq jalb etish yo‘lidan bordi. Shu maqsadda 1954-yilda “Chet el sarmoyasini jalb etish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi.

1954-yilda AQSHdan harbiy sohada ko‘mak berishni so‘rab murojaat qilgan Muhammad Dovud hukumati yana rad javobini oldi. Buning ustiga 1954-yilda AQSH Pokistonga harbiy ko‘mak berish bo‘yicha bitim imzoladi. Bu voqea Muhammad Dovud hukumatini qattiq tashvishga soldi va hukumat zudlik bilan Sovet Ittifoqiga o‘zaro hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha taklif bilan murojaat qildi hamda rasmiy Moskva ushbu taklifga ijobiy yondashdi.

G‘arb davlatlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Pokiston Afg‘oniston bilan munosabatlarni keskinlashtirish yo‘lidan bordi. 1955-yilda Pokiston Afg‘oniston bilan barcha turdagi (siyosiy, diplomatik, savdo-iqtisodiy) munosabatlarni to‘xtatishga qaror qildi. 1955-yilning noyabrida Kobulda bo‘lib o‘tgan Luye Jirge Pokiston hududida istiqomat qilib kelayotgan pushtunlar masalasini muhokama qildi va Pokiston hukumatidan pushtunlarga o‘z kelajagini o‘zi belgilash huquqini taqdim etishni hamda Pushtuniston masalasida yon berishni talab qilib murojaat qildi.

Mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish yo‘lida sovet davlati andozasiga monand besh yillik dasturlar qabul qilish va ularni amalga oshirish yo‘lidan borildi. Chunonchi, 1957–1962-yillarda birinchi besh yillik dastur, 1962–1967-yillarda ikkinchi besh yillik dasturlar qabul qilindi. Garchi, ushbu dasturlarda belgilangan barcha ishlar amalga oshirilmagan bo‘lsa-da, ular mamlakat taraqqiyotida muayyan rol o‘ynadi.

Sovet Ittifoqi bilan yaqindan hamkorlik qilgan Muhammad Dovud 1956, 1959 va 1961-yillarda sovet davlatida rasmiy tashrif bilan bo‘lgan edi. Shuningdek, podshoh Zohirshoh ham 1957 va 1962-yillarda Moskvaga rasmiy tashrif bilan kelgan edi. Shu bilan

bir qatorda Muhammad Dovud 1959-yilda AQSHga ham rasmiy tashrif buyurib, prezident D.Eyzenxauer va davlat kotibi J.F.Dalles bilan muloqotlar olib bordi.

Davlat boshqaruvida o'z roli va ta'sirini kengaytirishga intilib kelgan Muhammad Dovudning podshoh Zohirshoh bilan munosabatlari salbiy tus ola boshladi. Avtoritar tartibdagi boshqaruv tarafdori bo'lgan Muhammad Dovud bir qator masalalar bo'yicha (jumladan, Pushtuniston masalasini muzokaralar yo'li bilan hal etish) yon berishni istamas va o'zining pushtun millatchiligiga asoslangan pozitsiyasida qattiq turar edi. Shuningdek, Muhammad Dovud mamlakat parlamenti faoliyatini ham birmuncha cheklashga muvaffaq bo'lib, qonun chiqaruvchi vakolatlarni ham hukumat qo'lida jamlanishiga erishadi. Zohirshoh tomonidan davlatda Muhammad Dovud ta'sirini birmuncha cheklash bo'yicha sezilarli tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, bosh vazirga yaqin bir qator yirik davlat amaldorlari qamoqqa olindi.

Davlat ishlarida o'z ta'sirini yo'qotishni istamagan Muhammad Dovud 1962-yil oxirida davlat boshqaruvini tubdan isloh etishni ko'zda tutuvchi dastur ishlab chiqadi va uni podshohga taqdim etadi. Mazkur dasturga ko'ra, hukumatni podshohga ma'qul shaxslardan iborat tarkibda emas, balki o'tkazilgan saylovlar natijasida g'olib chiqqan siyosiy partiya vakillaridan iborat tarkibda shakllantirish ko'zda tutilgan edi. Muhammad Dovudning taklifiga binoan, podshoh oilasi a'zolari siyosat bilan shug'ullanishdan butkul voz kechishlari, podshohga esa faqatgina rasmiy tadbirlarda davlat nomidan ishtirok etish funksiyasi ajratilgan edi. Shaxsan o'zining kelgusi maqomi xususida Muhammad Dovud alohida qarashga ega bo'lib, u o'z tarafdorlaridan iborat siyosiy partiya tuzishi va saylovda g'olib chiqish orqali hukumatni boshqarishni rejalashtirgan edi. Tabiiyki, Muhammad Dovudning shaxsiy hokimiyatini yanada mustahkamlashni ko'zda tutuvchi mazkur dasturni Muhammad Zohirshoh ma'qullamaydi va bosh vazirdan iste'fo berishini talab qiladi. 1963-yilning may oyida Muhammad Dovud hukumati iste'foga chiqdi.



XX asrning 60-yillarida mamlakatda amalga oshirilgan islohotlarning kam samara berishi, hukumatning mamlakat taraqqiyoti uchun jiddiy jon kuydirmasligi oqibatida ijtimoiy harakatlar va siyosiy guruhlarning faoliyati jonlana boshladi. Muhammad Dovud iste'fosidan keyin shakllantirilgan yangi hukumatga Muhammad Yusuf (1963–1967) boshchilik qildi. Mazkur hukumat mamlakat iqtisodini birmuncha erkinlashtirish, shaxsiy sarmoyadorlarga keng imkoniyatlar berish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidan bordi. Yangi hukumat tashqi siyosatda ham biroz yumshoqlik bilan harakat qilish tarafdori bo'lib, Pokiston bilan munosabatlarni muzokaralar orqali yaxshilash yo'lidan bordi. Shuningdek, rasmiy Kobul 60-yillar birinchi yarmida Pokiston va Hindiston o'rtasida kelib chiqqan qurolli mojaroda ham betaraf mavqeda turganligini Pokiston tomoni ijobiy baholadi.

1963-yil oxirida Afg'onistonning kelgusi taraqqiyoti yo'lida muhim siyosiy-huquqiy asos bo'lishi ko'zda tutilgan mamlakatning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish jarayoni boshlandi. Yangi Konstitutsiyani ishlab chiqish bo'yicha tuzilgan maxsus komissiya Fransiya, Kanada, Shvetsiya, Misr, Hindiston kabi bir qator davlatlarning tajribasini o'rganib chiqdi. 1964-yilning sentabrida Kobulda chaqirilgan Luye Jirge ishlab chiqilgan Konstitutsiya loyihasini ko'rib chiqdi va ikkin haftalik muhokamalardan so'ng Afg'onistonning yangi Konstitutsiyasini ma'qulladi.

1964-yilning 1-oktabrida podshoh Muhammad Zohirshohning tasdiqlashi bilan zamonaviy davlatlar andozasi asosida ishlab chiqilgan hamda to'la ma'noda demokratik xarakterdagi yangi Konstitutsiya kuchga kirdi. Afg'onistonning demokratiya yo'lidagi rivojlanishiga yo'l ochib bergan 1964-yilgi Konstitutsiya bir qator olimlar va mutaxassislar tomonidan "islom olamidagi eng maqbul Konstitutsiyalardan biri" sifatida talqin qilinadi<sup>76</sup>. Chunki, aynan ushbu Konstitutsiyada g'arbga xos demokratik qadriyatlar va tamoyillarning afg'on jamiyatiga xos an'anaviy siyosiy tizim

---

<sup>76</sup> Rashidov R. Afg'onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. Monografiya. – T.: Navro'z, 2017. – B. 34.

bilan uyg'unlashuvi o'z aksini topgan edi. Shuning uchun ham ushbu Konstitutsiya amalda bo'lgan o'n yillik muddat (1963–1973) manbalarda “Yangi davr”, “Demokratiya o'n yilligi” (Decade of Democracy) deb ataladi.

Mazkur Konstitutsiya Afg'onistonda davlatga xos siyosiy institutlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi va rivojida muhim rol o'ynadi. Garchi, Afg'oniston konstitutsion monarxiya tipidagi davlat ekanligi Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa-da, podshoh hokimiyati mamlakatda qonun chiqaruvchi ikki palatali parlament hamda sud hokimiyati faoliyatiga aralashmasligi va ular o'z faoliyatlarida mustaqil ekanliklari belgilab qo'yilgan edi.

Mazkur Konstitutsiya podshoh xonadoni a'zolariga siyosat bilan shug'ullanishni, yetakchi davlat lavozimlarini egallashni taqiqlab qo'ydi. Shuningdek, podshoh xonadoni vakillari siyosiy partiyalar tuzish, ularga a'zo bo'lish huquqidan ham mahrum etildi. Konstitutsiyadagi ushbu normalar shubhasiz sobiq bosh vazir Muhammad Dovudning siyosiy ambitsiyalariga qarshi ishlab chiqilgan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

1964-yilgi Konstitutsiya Afg'onistonning to'la suverenitetini tasdiqlagan holda, mol-mulk daxlsizligi, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligi, so'z va matbuot erkinligi, yig'ilishlar o'tkazish, majburiy boshlang'ich ta'lim hamda mamlakat hududi bo'ylab erkin harakatlanish kabi demokratik xarakterdagi asosiy inson huquqlarini mustahkamlab qo'ydi.

Konstitutsiyada islom dinining hanafiylik mazhabi davlatning rasmiy dini deb e'lon qilingan bo'lsa-da, diniy ulamolar va ruhoniylarning davlat ishlariga, xususan ta'lim-tarbiya va sud ishlariga aralashuvi cheklab qo'yildi.

Afg'onistonda parlamentarizmning rivojlanishiga yangi Konstitutsiya katta turtki berdi. Ushbu Konstitutsiyaga ko'ra, mamlakat parlamenti ikki palata – “Meshrano Jirg'a” (yuqori palata) va “Vulusi Jirg'a” (quyi palata)dan iborat tarkibda faoliyat yuritishi belgilab qo'yildi. Demokratik davlatlardagi Senat vakolatlariga ega Meshrano Jirg'aning uchdan ikki qism a'zolari mahalliy

vakillik organlaridan ovoz berish orqali saylanadigan bo'lsa, ushbu organning uchdan bir qism a'zolarini podshoh tayinlashi ko'zda tutildi. Bevosita qonun ijodkorligi bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan quyi palata Vulusi Jirg'a esa joylardan saylanadigan deputatlardan iborat tarkibda shakllantiriladigan bo'ldi.

Garchi Konstitutsiyada podshoh mamlakat parlamentini tarqatib yuborishi huquqiga egaligi mustahkamlab qo'yilgan bo'lsa-da, o'z navbatida parlament mamlakat hukumati ustidan nazorat yuritishi mumkinligi ham belgilab qo'yildi. Yangi Konstitutsiyaga ko'ra, afg'on parlamentiga berilgan vakolatlardan yana biri – mamlakat hukumatiga ishonchsizlik votumini bildirish huquqi bo'ldi. Parlament o'zining ushbu huquqidan foydalanib, 1971 va 1972-yillarda mamlakat hukumatiga ishonchsizlik votumini bildirdi.

Shu bilan birga, afg'on parlamentining yuqori palatasi Meshrano Jirg'a hukumat a'zolarining faoliyati yuzasidan tergov-surishtiruv ishini boshlashni talab qilish huquqiga ham ega bo'ldi.

1964-yilgi Konstitutsiyada afg'on davlati va jamiyatida muhim o'ringa ega bo'lib kelgan an'anaviy boshqaruv-maslahat organi bo'lmish Luye Jirgega tegishli normalar nisbatan qisqa shaklda o'z aksini topdi. Bunday yondashuvni ikki jihat bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, 1964-yilgi Konstitutsiyaning demokratik xususan, G'arb davlatlari andozasi bo'yicha ishlab chiqilganligiga yana bir bor urg'u bergan holda, G'arb davlatlari davlat boshqaruvida parlament instituti eng yuqori turuvchi davlat organi hisoblanadi. An'anaviy afg'on jamiyatida esa bir necha asrlardan beri kuchli ta'sirga ega bo'lib kelayotgan Loya Jirg'a institutiga tegishli huquq va vakolatl mamlakat parlamentiga olib berilishi orqali afg'on davlat boshqaruvini demokratlashtirish yoki g'arblashtirish nazarda tutilganligini ta'kidlash lozim.

Ikkinchidan, podshoh hukumati muayyan masala yuzasidan afg'on oqsoqollari yig'ini bo'lmish Loya Jirg'ani chaqirish va yig'ish bilan bog'liq nisbatan uzoq vaqt talab etadigan jarayonga qarab qolmaslik hamda ushbu organ faoliyatida ishtirok etadigan afg'on

oqsoqollari va vakillarining podshoh hokimiyatiga nisbatan loyalligini ta'minlashning mushkulligi bois mazkur tarixiy tuzilmaning davlat boshqaruvidagi roliga ko'p ham e'tibor qaratmadi.

Yangi Konstitutsiyada o'z aksini topgan muhim normalardan biri mamlakatda siyosiy partiyalar faoliyatiga ruxsat etilganligi bo'ldi. Siyosiy partiyaning maqsadi va g'oyasi Konstitutsiya normalariga zid bo'lmasligi hamda siyosiy partiya faoliyatini moliyalashtirish manbalari haqida ma'lumotlar ochiq bo'lishi lozimligi belgilab qo'yildi.

1964–1973-villarda Afg'oniston. 1964-yilgi Konstitutsiya normalari asosida 1965-yilda yangi “Saylov to'g'risida” qonun qabul qilindi va 1965-yil avgust-sentabrda mamlakat parlamentiga bo'lib o'tgan saylovlar ushbu qonunga binoan tashkil etildi. Mazkur qonun 1952-yilda qabul qilingan ilgari qonundan ancha demokratik xarakterga egaligi bilan farq qildi. Jumladan, mamlakat tarixida ilk bora ayollarga vakillik organiga saylanish huquqining berilganligi, deputatlikka nomzodlarga qo'yilgan yosh senzining 25 yoshga tushirilganligi, davlat amaldorlari, armiya zobitlari va sud hokimiyati vakillariga vakillik organiga saylanishning mumkin emasligi chin ma'noda Afg'onistonning demokratik rivojlanish tomon qadam tashlayotganligini namoyon etdi.

1965-yilgi saylovlar natijasida shakllantirilgan yangi tarkibdagi parlament bilan Muhammad Yusuf boshchiligidagi hukumat o'rtasida tushunmovchiliklar boshlandi. Nisbatan demokratik kayfiyatdagi parlament mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy tadbirlardan butkul norozi edi. Shu bilan birga, 1965-yil 25-oktabrida poytaxt Kobulda turli ijtimoiy harakatlar, jumladan, talaba yoshlarning norozilik chiqishlari boshlandi. Bunday kuchli harakatlardan qo'rqib ketgan podshoh bosh vazir M.Yusufni iste'foga chiqardi va uning o'rniga hukumatda madaniyat va axborot vaziri lavozimini egallab kelgan Muhammad Hoshim Mayvandvol (1965–1967)ga yangi hukumat tuzishni topshirdi.

Yangi hukumat mamlakatda bir qator tub o'zgarishlarni amalga oshirishga intildi. 1967-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirishning uchinchi besh yillik (1967–1972) rejasi ishlab chiqildi va qabul qilindi. Mamlakat iqtisodiyotida davlatga tegishli sanoat korxonalarini ko‘paytirish yo‘lidan borildi.

1967-yil oxirida Mayvandvol ham bosh vazir lavozimidan iste‘foga chiqarildi va uning o‘rniga tashqi ishlar vaziri lavozimida samarali mehnat qilib kelgan Nur Ahmad Ettemodiy (1967–1971) hukumat rahbari etib tayinlandi. Ettemodiy amir Habibullaxon davrida mamlakat bosh vaziri lavozimida faoliyat yuritgan Abdul Quddusxonning nevarasi bo‘lib, podshoh xonadonining ishonchini qozongan siyosatchi va davlat arbobi edi.

Nur Ahmad Ettemodiy o‘z faoliyatida mamlakat parlamenti bilan o‘zaro tushunmovchilik mavqeida turib munosabatlar olib bordi va natijada parlament uning hukumatiga ishonchsizlik votumini e‘lon qildi. Natijada Ettemodiy 1971-yilda iste‘foga chiqdi. 1971-yil iyunidan 1972-yilning dekabriga qadar hukumatni Abdul Zohir (parlament quyi palatasi spikeri) boshqargan bo‘lsa, 1972-yil dekabrda Muso Shafiq bosh vazir lavozimini egalladi.

Afg‘onistonda hukumatning bu qadar tez o‘zgarishi, albatta, mamlakat ichki siyosiy hayotiga, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatmay qolmas edi. Har bir hukumat mamlakat hayotiga oid o‘z dasturini ishlab chiqishi va amalga oshirishni boshlashi bilan tanqidga uchrar va normal faoliyat yurita olmas edi. Mamlakatdagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilmasligi, normal faoliyat yuritadigan hukumatning yo‘qligi afg‘on jamiyatida yana turli ijtimoiy-siyosiy harakatlar, siyosiy partiyalarning tashkil etilishiga olib keldi. Ana shunday harakatlardan biri Afg‘oniston Xalq Demokratik Partiyasi (AXDP) edi.

1965-yil 1-yanvarida hukumatdan yashirincha AXDPning ta‘sis qurultoyi bo‘lib o‘tdi va partiya Markaziy Kengashiga a‘zolar saylandi. Partiya rahbari etib ziyoli qatlam vakili, jurnalist Nur Muhammad Tarakiy saylandi. Uning o‘rinbosari etib Babrak Karmal, Markaziy Kengashiga a‘zolari sifatida S.Zeray, S.A.Keshtmand, T.Badaxshiy kabilar saylandi. AXDP tashkil etilgan davrdanoq

uning saflarida birlik mavjud bo'lmadi. Ichki kurash asosan ikki yetakchi N.M.Tarakiy va B.Karmal o'rtasida kechdi. N.M.Tarakiy mehnatkash qatlarga tayanuvchi radikal kurash usulini qo'llab-quvvatlasa, B.Karmal partiya saflarida ziyolilar, kichik va o'rta biznes vakillari hamda davlat xizmatchilari ham bo'lishiga intilar, parlament saylovlarida ko'proq ovoz olish orqali partiya dasturiy maqsad va vazifalarini amalga oshirish tarafdori edi.

1967-yilda AXDP yetakchilari o'rtasidagi ichki kurash natijasida partiya ikki oqimga – N.M.Tarakiy yetakchiligidagi “Xalq” va B.Karmal yetakchiligidagi “Parcham” (Bayroq) oqimiga bo'linib ketdi. “Xalq” oqimi o'z saflarida asosan pushtun millatiga mansub mamlakatning qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholi vakillarini birlashtirgan bo'lsa, “Parcham” oqimi saflarida asosan tojik va pushtun millatiga mansub ziyoli qatlam vakillari bor edi. Har ikkala oqim ham mamlakatda chin ma'nodagi xalq hokimiyatini o'rnatishga intilishi, tub agrar islohotlar o'tkazish orqali mamlakat qishloq xo'jaligida bir necha asrlardan beri hukmron bo'lib kelayotgan feodal munosabatlarga butkul barham berish, yerni dehqonlarga bo'lib berish, ishchi va xizmatchilar uchun 42 soatli ish haftasidan iborat tartibni joriy qilish, ishchilar manfaatlarini himoya qiladigan kasaba uyushmalarini barpo etish kabi asosiy maqsad va shulardan kelib chiqadigan vazifalar uchun kurash olib borishni ma'lum qildi.

AXDP yetakchilarining rasmiy Moskva bilan aloqalari ham alohida e'tiborga loyiqdir. G'arb manbalarida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, AXDP kommunistik partiyaga xos qarashlarni o'zida mujassam etganligi hamda maqsad va vazifalari ham mushtarakligi bois butkul Sovet Ittifoqi nazoratida bo'lib kelgan<sup>77</sup>.

Bu davrda AXDPning qarash va mavqeiga qarshi ijtimoiy harakatlar ham vujudga keldi. Bunday harakatlar islom mafkurasi asosida mamlakatda o'zgarishlarni amalga oshirishni ilgari suruvchi afg'on yoshlarini o'z saflarida birlashtirgan edi. Bu boradagi

---

<sup>77</sup> Poullada Leon. The Failure of American Diplomacy in Afghanistan / World Affairs. – Winter 1982–1983. – P. 244.

tashabbusni o‘z qo‘liga olgan afg‘on yoshlari ba‘zi chet el davlatlari ta‘siriga ham tushib qoldilar. Jumladan, arab davlatlaridan ayrim radikal kuchlar ta‘siri ostida ko‘plab ekstremistik guruhlar tuzila boshlandi. Kobul universiteti bunday faoliyatlarning markaziga aylandi. Xususan, Burhoniddin Rabboniy, Abdul Rasul Sayyof, Muhammad Umar, Gulbiddin Hikmatyor, Sayfiddin Nasratyor va Habib Rahmonlar ushbu harakat “yadrosini” tashkil qildi. Keyinchalik Kobul universitetida “Musulmon yoshlari” maxfiy uyushmasi tashkil etildi. Mazkur uyushma 1970-yillarda mamlakatning barcha viloyatlarida fundamentalistik yacheykalar tuzib, hattoki o‘z saflariga mamlakat qurolli kuchlarida xizmat qilib kelayotgan zobitlarni ham jalb etishga intilishdi. “Musulmon yoshlari” harakatining yetakchisi etib Burhoniddin Rabboniy e‘lon qilindi. Ushbu harakat a‘zolari tomonidan siyosiy hokimiyatni qo‘lga olish maqsadida 1960-yillar ikkinchi yarmida mamlakatda 2000 dan ziyod mitinglar o‘tkazildi.

XX asr 60–70-yillarida Afg‘onistonning chet davlatlar bilan munosabatlari ham birmuncha rivojlandi. 1960–1970-yillarda Sovet Ittifoqi-Afg‘oniston munosabatlari bir qator sohalarda jadal rivojlanib bordi. Jumladan, yo‘l qurilishi, sanoat va qishloq xo‘jaligi, elektr energiyasi ishlab chiqarish sohalarida sovet mutaxassislari ko‘magida bir qator yangi ishlab chiqarish obyektlari barpo etilib ishga tushirildi. 1963-yil oktabr oyida SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi Raisi L.I.Brejnevning Kobulga tashrifi davomida “Gaz qazib olishda Sovet yordami to‘g‘risida” kelishuv imzolandi.

1965-yilda uzunligi 680 km bo‘lgan qattiq qoplamali Kushka-Hirot-Qandahor avtomagistral yo‘li (qiymati 140 mln. AQSH dollari) sovet mutaxassislari ko‘magida qurib ishga tushirildi. 1966-yilda poytaxt Kobulni Hindikush tog‘ tizmalari orqali Amudaryo qirg‘og‘i bilan bog‘lovchi uzunligi 470 km.li avtomagistral yo‘li foydalanishga topshirildi.

1967-yilda Kobul daryosida quvvati 100 ming kVt.li Naglu gidro elektr stansiyasi, “Sarde” irrigatsion kompleksi, 1968-yilda Kobul politexnika instituti kabi bir qator muhim ijtimoiy-iqtisodiy

obyektlar qurib ishga tushirildi. XX asr 60-yillarida Afg'onistonning Eron bilan munosabatlari ham ijobiy xarakterga ega bo'ldi. 1961-yilda Eron va afg'on hukumatlari tomonidan savdo tranzit sohasida yangi shartnoma imzolandi. Shartnomaga ko'ra, eksportga mo'ljallangan afg'on mahsulotlari Eronning Mashhad shahriga olib borilib, u yerdan temir yo'l orqali mamlakatning Xurramshahr portiga yetkazilgan va chet elga eksport qilingan. Mazkur shartnoma ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga yaxshigina turtki berdi.

Eron Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi kelishmovchiliklarni yumshatish borasida vositachilik rolini ham bajarishga intildi. Shu maqsadda 1962-yilning yozida Eron shohi Muhammad Rizo Pahlaviy Kobul va Islomobodga tashrif buyurdi. 1963-yilda Afg'onistondagi hukumat o'zgarishidan so'ng Afg'onistonning Pokiston bilan munosabatlari iliqlasha boshladi. Bu Eronning vositachi sifatida mintaqadagi rolining oshishiga olib keldi.

1960-yillarda AQSH Afg'onistonga o'z e'tiborini kuchaytirdi va bu ikki tomonlama munosabatlarda o'z aksini topdi. 1967-yilda AQSH ko'magi bilan Qandahor yaqinida quvvati 33 ming kVt. li Kajakiy gidro elektr stansiyasi qurilishi boshlandi. 1967-yilda AQSH hukumati tomonidan Afg'onistonga ko'rsatilgan turli yordamlar miqdori 350 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shuningdek, AQSH ko'magida Kobul-Qandahor va Kobul-Spinbuldak (Pokiston chegarasida), Kobul-Torxam (Pokiston chegarasida), Hirot-Islom qal'a (Eron chegarasida) avtomagistral yo'llari barpo etildi.

Bu davrda Afg'oniston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida ikki tomonlama munosabatlar o'rnatildi va olib borildi. Garchi Xitoy hamda Hindiston o'rtasida kelib chiqqan qurolli mojaro va Xitoyning Pokiston bilan yaqinlashuviga qaramasdan afg'on hukumati Xitoy bilan yaxshi munosabatda bo'lishga intildi. Xitoy o'z navbatida Afg'onistonda bir necha loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etdi. Parvon viloyatida Xitoy hukumati ko'magi bilan barpo etilgan qiymati 10 mln. AQSH dollariga teng irrigatsion tizim ana shular jumlasidandir.



## AFG‘ONISTON XX ASRNING 70-YILLARIDA

XX asr 70-yillari boshida Afg‘onistonda davlat hokimiyati tizimida chuqur inqiroz kuzatila boshlandi. Buni qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar faoliyatidagi nomuvofiqliklar, bir-birining faoliyatini cheklashga urinishlar bilan izohlash mumkin. Bunday vaziyatda podshoh M.Zohirshoh davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish o‘rniga beparvolikka berildi va natijada mavjud inqirozli vaziyat yanada chuqurlashdi. Mamlakatda korrupsiya, poraxo‘rlik, davlat g‘aznasidan mablag‘ o‘zlashtirish, davlat amaldorlarining o‘z vazifalariga mas’uliyatsizligi kabi salbiy illatlar nihoyatda kuchaydi.

Haqiqiy pushtun millatchisi bo‘lgan sobiq bosh vazir Muhammad Dovud mamlakatdagi boshboshdoqlik vaziyatga jim qarab tura olmas edi. U davlat to‘ntarishini amalga oshirib, hokimiyatni o‘z qo‘liga olishni zimdan rejalashtirdi. Ushbu maqsadda Muhammad Dovud armiyadan foydalanishga qaror qiladi. Chunki u afg‘on armiyasiga o‘z siyosiy faoliyatining tayanchi sifatida qarar edi. Bu davrda Muhammad Dovud garchi mamlakatda hech bir rasmiy lavozimni egallamagan bo‘lsa ham, afg‘on armiyasida uning ta’siri nihoyatda kuchli edi. U mamlakat bosh vaziri va undan oldin mudofaa vaziri bo‘lib ishlagan davrida armiya saflarida shaxsan o‘ziga sodiq hamda uning qarashlarini qo‘llab-quvvatlaydigan kichik va o‘rta darajadagi zobitlar qatlamini shakllantirishga ulgurgan edi.

Mamlakat bosh vaziri lavozimidan iste’fo berganidan so‘ng ham Muhammad Dovud armiya bilan o‘z munosabatlarini uzmani va zimdan armiyadagi tarafdorlari bilan aloqa qilib turdi. 70-yillar boshida 90 ming nafar harbiylardan iborat afg‘on armiyasida 200 nafardan ortiq oliy va yuqori lavozimdagi Muhammad Dovud tarafdorlari bor edi. 1973-yil 17-iyulida Afg‘onistonda ichki siyosiy keskinlik kuchayishi oqibatida mamlakat sobiq bosh vaziri Muhammad Dovud rahbarligida armiya ofitserlari tomonidan amalga oshirilgan harbiy to‘ntarish mamlakatda monarxiyaga barham

berib, Afg'onistonni Respublika deb e'lon qilinishiga olib keldi<sup>78</sup>. Mazkur davlat to'ntarishi vaqtida podshoh Muhammad Zohirshoh Italiyaga davolanishga ketgan edi. Davlat to'ntarishi haqidagi xabarni eshitgach, Muhammad Zohirshoh taxtdan voz kechganligini e'lon qildi va Italiyada qolib o'z mamlakatiga qaytmaslikka qaror qildi.

Davlat to'ntarishi amalga oshirilgan kuniyoq Muhammad Dovud mamlakat radiosi orqali chiqish qildi va monarxiya tuzumi mamlakatdagi har qanday islohotlar hamda o'zgarishlarga to'g'anoq bo'lib turganligini, endilikda haqiqiy islohotlarni amalga oshirish vaqti yetganligini ma'lum qildi. 1973-yilning 23-avgustida Muhammad Dovud "Xalqqa murojaat" nomi bilan mashhur bo'lgan mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga oid o'z harakat dasturini e'lon qildi. Ilgarigi tuzumni keskin tanqid qilgan davlat rahbari afg'on xalqi irodasiga muvofiq holda jamiyatni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan isloh qilishni ilgari surdi.

1973-yilgi davlat to'ntarishi natijasida mamlakat parlamenti tarqatib yuborildi va 1964-yilgi Konstitutsiyaning amal qilishi to'xtatildi. Muhammad Dovud Afg'onistonning Birinchi Prezidenti bo'ldi. Davlat to'ntarishini afg'on xalqi muayyan darajada bee'tibor, muayyan darajada esa ijobiy kutib oldi. Muhammad Dovud ham podshoh xonadoniga mansub bo'lgani uchun afg'on xalqi mazkur davlat to'ntarishini bir podshohning ikkinchisi bilan almashinuvi sifatida qabul qildi. Davlat boshqaruvining mutlaqo yangi tuzilmalari tashkil etildi. Respublika Markaziy Kengashi – mamlakatda qonun chiqaruvchi organ vazifasini bajardi va uning tarkibi saylovlar o'tkazish orqali emas, balki Muhammad Dovud tarafdorlarini bevosita tayinlash bilan to'ldirildi. Respublika Markaziy Kengashi rahbari lavozimini Muhammad Dovudning o'zi egalladi. Muhammad Dovud yana mamlakat bosh vaziri, mudofaa vaziri, tashqi ishlar vaziri lavozimlarni ham egalladi. Boshqaruvdagi barcha muhim lavozimlarni shaxsan o'z qo'lida to'plashi orqali Muhammad Dovud mamlakatda amalda avtoritar boshqaruv tartibotini o'rnatdi.

---

<sup>78</sup> Wahab, Sh. & Youngerman, B. A Brief History of Afghanistan. – New York: Facts On File, 2007. – P. 128.

1973-yil oxirida Afgʻonistonda Oliy Iqtisodiy Kengash tuzildi va ushbu tuzilma mamlakat sanoati va qishloq xoʻjaligi tarmoqlari faoliyatini rejalashtirish hamda oʻzaro muvofiqlashtirish bilan shugʻullanishi maʼlum qilindi. 1973–1977-yillarga moʻljallangan besh yillik dastur oʻrniga yangi keng qamrovli va 1976–1982-yillarga moʻljallangan yetti yillik dastur qabul qilindi. Mazkur yetti yillik dasturga muvofiq mamlakatda asosan energetika, togʻ-kon sanoati, transport sohalariga oid 200 dan ortiq yirik loyihalar amalga oshirilishi koʻzda tutilgan edi.

1974-yildan boshlab Muhammad Dovud oʻz hokimiyatining huquqiy asoslarini mustahkamlashga kirishdi va hukumatda yangi shakldagi Konstitutsiyani ishlab chiqish boʻyicha komissiya ish olib bordi va 1977-yilda 13 bob, 136 moddadan iborat Afgʻonistonning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi<sup>79</sup>. Mazkur Konstitutsiyaga muvofiq, mamlakat parlamentining huquq va vakolatlari keskin qisqartirildi hamda ijro hokimiyatining huquq va vakolatlari koʻpaytirildi. Shuningdek, Konstitutsiyada davlat rahbari sifatida prezidentga ham keng huquq va vakolatlar berilgan edi. Mazkur Konstitutsiyaning 1964-yilgi Asosiy Qonundan bunday farq qilishiga sabab sifatida ilgari parlament va hukumat faoliyatida kuzatilgan nomuvofiqliklarning yana takrorlanishiga yoʻl qoʻymaslikni taʼkidlab oʻtish mumkin.

Muhammad Dovud tomonidan oʻrnatilgan yangi tartibot qanchalik mustahkam boʻlmasin uning boshqaruvi davrida mamlakatda yana davlat toʻntarishini amalga oshirishga boʻlgan bir necha urinish roʻy berdi. Jumladan, 1973-yilning dekabrda mamlakat xavfsizlik xizmatining sobiq rahbari Habibulla Rahmon yetakchiligida tayyorlangan davlat toʻntarishi, 1976-yilda general Mir Ahmadshoh Rizvoniy boshchiligidagi toʻntarishga urinish hamda islom dinidagi radikal oqimlarga tegishli ijtimoiy-siyosiy harakatlar tomonidan davlat hokimiyatini egallashga boʻlgan urinishlar buning misolidir.

---

<sup>79</sup> The Constitution of Republic Afghanistan. Year 1977 / The Europe Year Book. A World Survey. – London, 1978.

O'z boshqaruvi asoslarini mustahkamlash uchun Muhammad Dovud mamlakatda o'z qarash va g'oyalariga zid bo'lgan siyosiy, ijtimoiy va diniy harakatlar, siyosiy partiyalar hamda tuzilmalarga qarshi keskin kurash olib bordi. Xususan 1975-yil noyabrida Muhammad Dovud Afg'onistonda bir partiyaviylik tizimi o'rnatilganligini ma'lum qildi. Natijada bu kabi harakatlar keskin qatag'onga uchradilar va nolegal harakat olib borishga majbur bo'ldilar. Shular qatorida Afg'oniston Xalq Demokratik Partiyasi ham Muhammad Dovud boshqaruvidan norozi holda o'zining siyosiy kurashini kuchaytirdi.

Afg'onistonning tashqi siyosat yo'nalishida Dovud o'ziga xos ravishda yondashdi va boshqa davlatlar bilan tengma-teng hamda mamlakatining hech bir davlatdan kam bo'lmagan mavqega erishishiga intildi.

1974-yilda Muhammad Dovud Sovet Ittifoqiga rasmiy tashrif bilan keldi va ushbu davlat rahbari L.Brejnev (1964–1982) bilan muzokaralar olib bordi. Ushbu muzokaralar chog'ida Sovet hukumati Afg'onistonning 100 mln. AQSH dollari miqdoridagi qarzini to'lash muddatini yana 10 yilga kechiktirganligini va afg'on hukumatiga 600 mln. AQSH dollari miqdorida kredit berishini ma'lum qildi. 1975-yil dekabrda Sovet Ittifoqi va Afg'oniston o'rtasida "Neytrallik va o'zaro hujum qilmaslik to'g'risida"gi Shartnoma yana 10 yil muddatga uzaytirilgani imzolandi. Sovet Ittifoqi 1966–1976-yillarda Afg'onistonga 700 mln. AQSH dollari miqdorida katta mablag' sarflagan edi. XX asr 70-yillarning o'rtalarida, Afg'onistonda Sovet Ittifoqi ko'magida 80 ga yaqin yangi ishlab chiqarish obyektlari ishga tushirildi. Mamlakat tovar aylanmasining deyarli 40%i Sovet Ittifoqi hissasiga to'g'ri kelar edi.

Muhammad Dovud Afg'oniston infratuzilmasini rivojlantirish uchun Sovet Ittifoqi tomonidan ko'rsatilayotgan yordamga qanoat qilmay, Pokiston, Turkiya, Eron va Saudiya Arabistoni vositachiligida G'arb davlatlaridan iqtisodiy ko'mak ola boshladi. Shu bilan birga, Misr va Hindiston bilan keng ko'lamli hamkorlik olib bora boshladi. Muhammad Dovudning bunday yondashuvi Sovet

Ittifoqi manfaatlariga zid keldi. 1974-yilning oktabr oyida Eron tomonidan Afgʻonistonga togʻ-kon sanoatini rivojlantirish uchun 10 mln. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish boʻyicha va afgʻon iqtisodiyotini qayta tiklash uchun oʻn yil davomida 2 mlrd. AQSH dollari miqdorida kredit berish borasida kelishuv imzolandi<sup>80</sup>. 1975-yil Muhammad Dovud Eronga rasmiy tashrif bilan keldi. Eron shohi Rizoshoh afgʻon davlatiga 300 mln. AQSH dollari miqdorida kredit ajratishini maʼlum qildi. Shuningdek, 1975-yilda rasmiy Tehron va Kobul oʻrtasida transafgʻon temir yoʻlini qurish maqsadida Eron tomonidan Afgʻonistonga 1,5 mlrd. AQSH dollari qiymatida investitsiya kiritish toʻgʻrisida bitim imzolandi. Lekin Eronning bunday yirik loyihalarini amalga oshirilishiga Eronga chet davlatlardan kelib tushadigan valuta hajmining qisqarib ketishi hamda 1978–1979-yillar davomida ikki davlatda yuz bergan siyosiy oʻzgarishlar toʻsqinlik qildi.

Muhammad Dovudning Pokiston bilan munosabatlari yaxshi kechmadi. Shu davrdan boshlab Pokiston oʻz tashqi siyosatida Afgʻoniston muhim omil ekanligi va uning keyingi taraqqiyoti ushbu mamlakat orqali amalga oshiradigan maqsadlariga bevosita bogʻliq ekanligi namoyon boʻla boshladi. Pokiston hukumati Afgʻonistonda hokimiyatni Muhammad Dovud tomonidan qoʻlga kiritilishini rasman tan olgan boʻlsa-da, Dovud rejimini “musulmonlarga qarshi” va hatto “Pokistonga qarshi” deya hisobladi. Shu bilan bir qatorda, Pokiston tomoni Muhammad Dovudni bosh vazir boʻlgan davridagidek yana Pushtuniston masalasini koʻtarishidan xavotirda edi. Chin maʼnodagi pushtun millatchisi hisoblangan Muhammad Dovud Pokiston hududida istiqomat qilib kelayotgan pushtun millatiga mansub aholi manfaatlarining himoyachisi sifatida maydonga chiqdi.

1974-yilda Pokistonning pushtunlar istiqomat qiladigan Shimoliy-gʻarbiy chegara provinsiyasi (North-West Frontier Province – NWFP)da va Belujistonda mahalliy aholining gʻalayonlari

---

<sup>80</sup> Wahab, Sh.& Youngerman, B. A Brief History of Afghanistan. – New York: Facts On File, 2007. – P. 130.

boshlandi. Pokiston tomoni ushbu g'alayonlarda rasmiy Kobulning qo'li borligini bildirib, Afg'onistonni Pokiston ichki ishlariga aralashishda aybladi. Muhammad Dovud Pokistonning yuqoridagi kabi ayblovlariga keskin javob berib, Pokiston hududidagi Shimoliy-g'arbiy chegara provinsiyasi aslida Afg'onistonning tarixiy hududi ekanligini, inglizlar bosqini davrida afg'on davlatiga majburan imzolatilgan noteng shartnoma (Dyurand bitimi) natijasida ushbu hududlar Pokiston davlatiga o'tib qolganligini ta'kidladi. 1976-yildan boshlab Afg'oniston va Pokiston munosabatlarida biroz yumshash alomatlari ko'zga tashlana boshladi. Bunda, albatta, vositachi sifatida rol o'ynagan Eron va Turkiyaning xizmatlari bor.

1976-yil iyunda Pokiston bosh vaziri Zulfiqor Ali Bxutto rasmiy tashrif bilan Kobulga keldi. Muzokaralar chog'ida ikkala tomon mavjud muammolarni muzokaralar orqali bartaraf etishga kelishib oldilar. 1976-yil avgustda Muhammad Dovud rasmiy tashrif bilan Pokistonga bordi. Uchrashuv chog'ida tomonlar ikki oy avval Kobulda kelishilgan masalalarga rioya qilishlarini ma'lum qildilar. 1977-yil iyunida Pokiston bosh vaziri Zulfiqor Ali Bxutto yana Afg'onistonda bo'ldi. O'z navbatida Muhammad Dovud 1978-yilning martida yana bir bor Pokistonga tashrif buyurdi.

1978-yil aprel inqilobi va Afg'oniston Demokratik Respublikasining vujudga kelishi. XX asrning 70-yillari ikkinchi yarmiga kelib Afg'onistonda turli ijtimoiy harakatlar va siyosiy guruhlarining faoliyati yana jonlana boshladi. Ushbu guruhlarining tashkillashtirilishi va moliyalashtirilishida Eron, Saudiya Arabistoni kabi Pokiston ham asosiy rol o'ynadi. Bu davrda Afg'oniston siyosiy sahnasida yetakchi muxolifat tashkiloti sifatida shubhasiz AXDPni ko'rsatib o'tish mumkin. Ikki oqimga bo'lingan partiya Muhammad Dovud hukmronligi davrida o'z imkoniyatlarini birlashtirish va umumiy ravishda mavjud tuzumga qarshi faol kurash olib borish yo'lini tanladilar. Jumladan, AXDP yetakchilari sekin-asta afg'on armiyasi saflariga kirib borib, o'rta va quyi darajadagi zobitlarni o'z g'oyalari bilan yaqindan tanishtira bordilar. Biroq, AXDPning ko'plab sa'y-harakatlariga qaramasdan Muhammad Dovud rejimi

o'z muxoliflariga qarshi murosasiz bo'lib keldi.

Afg'onistonda Muhammad Dovud boshqaruviga barham bergan inqilobning boshlanish nuqtasi sifatida 1978-yil 17-aprelida AXDP faollaridan biri Mir Akbar Xaybarning noma'lum sabablarga ko'ra o'ldirilishi va 19-aprelda uni dafn etish marosimining katta norozilik chiqishiga aylanib ketganligini olish mumkin. Mazkur norozilik harakatiga AXDP



yetakchilari boshchilik qiladilar va bunday yirik xalq harakatidan cho'chib ketgan Muhammad Dovud norozilik harakati yetakchilari AXDP rahbariyatini qamoqqa olishga buyruq berdi.

1978-yil 26-aprelda AXDPning yetti nafar yetakchi rahbarlari, shu jumladan, N.M.Tarakiy va B.Karmal qamoqqa olindi. Uy qamog'ida saqlanishi lozim bo'lgan partiyaning yana bir yetakchisi Hafizulla Amin o'z o'g'li orqali afg'on armiyasidagi AXDPga sodiq zobitlarga qurolli qo'zg'olonni boshlash rejasini yetkazdi. Mazkur reja hukumat tomonidan partiya yetakchilariga qilinadigan har qanday tajovuzli (favqulodda) holatlarda harakat qilish uchun Hafizulla Amin tomonidan ishlab chiqilgan hamda partiya rahbariyati tomonidan ma'qullangan edi.

1978-yil 27-aprelda afg'on armiyasining AXDPga sodiq zobitlari o'z harbiy qismlari bilan prezident saroyini shturm qilishni boshladi. Mazkur davlat to'ntarishiga afg'on armiyasi zobitlari – podpolkovnik Abdul Qodir va kapitan Aslam Vatanjar boshchilik qilishdi. Bu paytda Muhammad Dovud hukumat a'zolari bilan yig'ilish o'tkazayotgan edi va nima bo'layotganligini anglab yetmaydi. Muhammad Dovud soqchilari bilan bo'lgan qisqa to'qnashuvdan keyin prezident saroyi egallandi va to'qnashuvda Muhammad Dovud hamda oila a'zolari o'ldirildi. Shu kuni kechki

paytga qadar poytaxtning barcha strategik nuqtalari inqilobchilar qo'liga o'tdi hamda AXDP yetakchilari qamoqdan ozod etildi. Hukumat Nur Muhammad Tarakiy boshchiligidagi Inqilobiy Kengash qo'liga o'tdi. Uning o'rinbosari sifatida Babrak Karmal, to'ntarishning faol ishtirokchilari – Abdul Qodir – mudofaa vaziri, Hafizulla Amin – tashqi ishlar vaziri, Aslam Vatanjar – aloqa vaziri lavozimlariga tayinlandi.

Shu tariqa 70-yillar davomida Afg'oniston ichki siyosatidagi xatolar 1978-yili 27-aprel kuni navbatdagi davlat to'ntarishining amalga oshirilishiga olib keldi. Mazkur to'ntarish Afg'oniston tarixida "Savr inqilobi" nomini oldi. "Savr" – Afg'onistonda qabul qilingan hijriy-qamariy yil hisobi bo'yicha 22-apreldan 21-maygacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va shu sabab oy nomiga bog'liq holda mazkur harbiy to'ntarish "Savr inqilobi" deyiladi. Sovet Ittifoqi tomonidan "Aprel inqilobi" deb talqin etilgan mazkur qurolli to'ntarishni Afg'oniston Xalq Demokratik Partiyasi amalga oshirdi. Bu to'ntarishdan keyin mamlakatning rasmiy nomi Afg'oniston Demokratik Respublikasi (ADR) deb o'zgartirildi. Yangi hukumat mamlakatda Sovet Ittifoqi manfaatlariga mos bo'lgan sotsialistik jamiyat qurish dasturini e'lon qildi. Sovet Ittifoqi Afg'oniston yangi hukumatini 30-apreldayoq tan oldi. Afg'on inqilobi haqida xabarlar tarqalganidan so'ng, Farblik siyosatchilar ushbu to'ntarishning tashabbuskori sifatida rasmiy Moskvani hisoblay boshlaydilar<sup>81</sup>. Ular Sovet Ittifoqini ushbu voqealarni tayyorlashda va bevosita ishtirok etishda ayblashdi. 1978-yilning 9-mayida "Afg'oniston Demokratik Respublikasi hukumatining asosiy inqilobiy vazifalari" deb ataluvchi mamlakat hayotini keskin o'zgartirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar dasturi qabul qilindi.

1978-yilning noyabridan boshlab yangi hukumat zudlik bilan butun Afg'oniston bo'ylab qishloq xo'jaligida foydalanilib kelinayotgan yerlarni musodara qilish va kambag'al hamda yersizlarga bo'lib berish siyosatini boshlab yubordi. Butun mamlakat

---

<sup>81</sup> Arnold, A. Afghanistan: The Soviet Invasion in Perspective. – Stanford: Hoover Institution Press, 1981. –P. 68.



bo'ylab 6 gektar (ga)dan ortiq yeri bo'lgan zamindorlarning yeri tortib olindi va yersizlarga 1 ga hajmda taqsimlab berildi. Natijada 300 ming nafarga yaqin yersiz kambag'allar yer bilan ta'minlandi. Biroq, hukumat yangi yer olganlarni kredit, texnika, ekiladigan urug'lik, o'g'it va eng asosiysi, suv bilan ta'minlay olmadi. Oqibatda hukumat ko'zlagan maqsadiga yeta olmadi va yer islohoti barbod bo'ldi. AXDP hukumati islom dini ruhoniylariga ham qarshi targ'ibot-tashviqot kampaniyasini boshlab yubordi va bunday salbiy harakat diniy qadriyatlar kuchli bo'lgan afg'on jamiyatida partiyaga nisbatan norozilikning shakllanishiga sabab bo'ldi. Tashqi siyosat masalasida ADR hukumati Sovet Ittifoqi bilan yanada yaqinlashish yo'lidan bordi hamda ikki tomonlama munosabatlar qardoshlik va inqilobiy hamjihatlik ruhida olib borilishini e'lon qildi.

1978-yil iyulida Afg'oniston Sovet Ittifoqidan 250 mln. AQSH dollari miqdorida harbiy texnika va qurol-aslaha sotib olish bo'yicha kelishuvni imzoladi. Shu vaqtdan boshlab Afg'onistonda ko'plab sovet harbiy mutaxassis va maslahatchilari faoliyat yurita boshladi. 1979-yil aprelda ularning soni ming nafardan oshib ketdi.

Savr inqilobidan so'ng Afg'onistonning Bolgariya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Chexoslovakiya, Polsha, Vengriya, Mongoliya, Kuba va Vetnam kabi sotsialistik blokda davlatlar bilan aloqalari rivojlanib bordi. Bunga teskari ravishda Saudiya Arabistoni, Misr, Eron va Pokiston bilan esa munosabatlar salbiy tus ola boshladi va mazkur davlatlar Savr inqilobini "islom diniga tahdid" va "g'ayriislomiy kommunistik g'oya ta'sirining oshishi" sifatida kutib oldilar.

Bu vaqtga kelib xalqaro vaziyat ham murakkablashib borayotgan edi. Xususan, Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'n yilliklar davomida jahondagi geostrategik raqobatda Buyuk Britaniya o'rnini Amerika Qo'shma Shtatlari egallay boshladi. Bir tomondan Sovet Ittifoqi, ikkinchi tomondan AQSH ikki qutbli dunyodagi qarama-qarshilik taraflari sifatida jahonning eng muhim mintaqalaridan bir-birini siqib chiqarish va o'sha joylarda o'z ta'sirini o'rnatishga harakat qildilar. Tabiiyki, bu ziddiyat Yaqin va O'rta Sharqning ug-

levodorodli xomashyoga boy va strategik jihatdan muhim hududlarini, shuningdek, ularga qo'shni mintaqalarni ham chetlab o'tmadi.

1970-yillar so'ngidan 1990-yillar boshiga qadar Afg'oniston uchun olib borilgan kurash XIX asrdan buyon davom etib kelayotgan "Katta o'yin" siyosatining navbatdagi bosqichi bo'ldi. Afg'oniston uchun kurashga ikkala blok ham juda katta resurslarni safarbar etdi.

J.Karter rahbarligidagi AQSH hukumati Afg'onistondagi 1978-yil aprel inqilobini "dunyodagi xavfsizlikka nisbatan xavf" deya baholadi. Shunday bo'lsa-da, dastlabki bosqichda AQSH ADR bilan munosabatlarni buzmaslikka va muayyan darajada hamkorlik qilishga intildi. Biroq, AQSH Afg'onistonda ADR hukumatiga qarshi tobora kuchayib borayotgan muxolifat kuchlarni yashirin tarzda qo'llab-quvvatlashni boshlab yubordi.

1979-yilning fevralida Kobulda noma'lum sabablarga ko'ra AQSHning Afg'onistondagi elchisi A.Dabs o'ldirildi. Mazkur voqeadan so'ng rasmiy Vashington va ADR o'rtasidagi munosabatlar salbiy tomonga o'zgarib boshladi. AQSHning Afg'onistonga nisbatan strategiyasini butkul o'zgartirish tashabbuskori Prezident J.Karterning milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha maslahatchisi Z.Bjezinskiy edi.

1978-yilgi aprel to'ntarishidan so'ng mamlakatda AXDPdan boshqa siyosiy partiyalarning faoliyati taqiqlangan bo'lsa-da, AXDP saflarida ham yakdillik yo'q edi va mazkur partiya yetakchiligidagi hukumat ham barqaror emas edi.

1978-yil iyunida ro'y bergan bo'linish natijasida hukumatni "Xalq" oqimi vakillari to'la egallashdi va "Parcham" oqimi yetakchilaridan ba'zilar chet mamlakatlarga diplomatik vazifalarga tayinlanishi orqali ular davlat boshqaruvidan chetlatilgan bo'lsa, ba'zilar esa jismonan yo'q qilindi.

AXDPning oliy rahbariyatida hokimiyat uchun kurash avj olib, 1979-yil sentabr-oktabr oylarida ro'y bergan hukumat inqirozi "Xalq" oqimi orasida ham yakdillik yo'qligini ko'rsatib berdi. 1979-yil 16-sentabrda amalga oshirilgan to'ntarish natijasida hukumat rahbari va "Xalq" oqimi yetakchisi N.M.Tarakiyning o'rinbosari

bo‘lib kelgan Hafizulla Amin hokimiyatni to‘la egalladi. Shuningdek, ADR Inqilobiy Kengashining raisi N.M.Tarakiy “inqilobga qilgan xoinligi uchun” H.Amin tomonidan hibsga olinadi va 8-oktabr kuni o‘ldirildi.

Ichki vaziyatning keskinlashuvi va Sovet Ittifoqi qo‘shinlarining Afg‘onistonga kiritilishi. AXDP hokimiyatda bo‘lgan davr diniy ulamolar faoliyati cheklanishi, diniy qadamjo va markazlar faoliyati to‘xtatilishi va davlat tomonidan islom diniga qarshi ateistik siyosat yuritilishi bilan xarakterlidir. Yangi hukumatning islohotlar o‘tkazishdagi shoshma-shosharligi va qo‘pol xatolari, savodsiz xalq orasida islohotlarning ahamiyati to‘g‘risida tushuntirish ishlari olib borilmaganligi hamda aholi orasida hali-hamon kuchli ta’sirga ega din ulamolariga nisbatan tazyiq va qatag‘onlar din ulamolarining xalqni hukumat siyosatiga qarshi qayrashiga va ommaviy noroziliklar boshlanishiga olib keldi. Shunday vaziyatda diniy ulamolarning “Islom xavf ostida!” chaqirig‘i bilan afg‘on xalqining keskin noroziligi ko‘tarildi va “jihod” (muqaddas urush) e‘lon qilinib, din yo‘lida kurashuvchilar mujohidlar deb atala boshlandi.

1978-yil may oyidan boshlab “mujohidlar” – din uchun kurashuvchilar, islom himoyachilari mavjud kommunistik rejimga qarshi kurashni boshladilar. 1978-yilning yozi o‘rtalaridan boshlab afg‘on viloyatlaridan biri Nuristonda markaziy hukumatga qarshi birinchi qurolli qo‘zg‘olon alanga oldi va ushbu harakat shu yilning oktabriga kelib shafqatsiz ravishda bostirildi. Biroq, Nuristondagi xalq harakati butunlay to‘xtab qolmadi. 1979-yil bahoridan yangi kuch bilan qayta boshlangan ushbu xalq harakati natijasida qo‘zg‘olonchilar tomonidan “Ozod Nuriston” tuzilganligi e‘lon qilindi. 1979-yilning mart oyida Hirotda boshlangan xalq qo‘zg‘olonidan so‘ng, norozilik harakatlari shu yilning aprel–may oylarida Bag‘lon, Uruzgon, Faroh, Bodg‘is, G‘ur va Lugar kabi viloyatlariga ham tarqaldi<sup>82</sup>.

<sup>82</sup> The Soviet-Afghan War. How a Superpower Fought and Lost. The Russian General Staff (Translated and edited by Lester W. Grau and Michael A. Cress). –Lawrence (Kansas): University Press of Kansas, 2002. – P. 9.

1979-yil bahoridan boshlab AXDP rahbariyati o'z tuzumining har tomonlama xavfsizligini ta'minlash maqsadida Sovet Ittifoqidan Afg'onistonga qo'shin kiritishni so'rab bir necha marta rasmiy ravishda iltimos qila boshlaydi. 1979-yil iyunda AXDP hukumati tomonidan M.Dovud davridan beri afg'on qamoqxonalari o'tirgan 100 nafardan ortiq islom rahnamolari otishga buyurilgan. Qatl etilganlar orasida mamlakatda juda katta obro'ga ega bo'lgan Mujaddadiy, G'iloniy kabi diniy birlashmalar yetakchilari ham bor edi<sup>83</sup>.

1979-yil avgustida asosan hazoriy millatiga mansub aholi istiqomat qiladigan mamlakatning markazidagi Hazorajot o'lkasida AXDP tuzumiga qarshi 3 ming nafar jangchini birlashtirgan kuchli xalq harakati boshlandi va "Mustaqil Islomiy Hazorajot" tuzilganligi e'lon qilindi<sup>84</sup>. 1979-yil yozi va kuzida mamlakat janubi va sharqiy hududlarida ham sho'roparast AXDP hukumatiga qarshi harakatlar avj oldi va markaziy hokimiyat ushbu harakatlarni bostirishga butkul layoqatsiz ekanligi namoyon bo'la boshladi.

AXDP tuzumi o'z ichki siyosatida aholining har bir noroziligini qurolli kuch vositasida bostirishga tayana boshladi va ushbu holat mamlakatda osoyishtalikka olib kelmadi, aksincha – markaziy hokimiyatga qarshi vujudga kelgan harakatning ijtimoiy bazasi kengayishiga yo'l ochib berdi. Shuningdek, afg'on aholisi o'z joylaridan siljib Pokiston va Eronga qochishga majbur bo'ldi. Ushbu davlatlar hukumatlari qochoqlarni muhojirlar, deb tan oldilar. Tez kunlarda Eron va Pokiston hududida qurolli oppozitsiyaning o'quv markazlari paydo bo'la boshladi va bu kabi maskanlar keng yoyilib katta tarmoqqa aylandi.

1979-yil 3-iyulda AQSH Prezidenti J.Karter "Afg'onistonga SSSRning kirishini "rag'batlantirish" maqsadida, afg'on

---

<sup>83</sup> Dorronsoro, G. Revolution Unending. Afghanistan: 1979 to the Present. – London: Hurst & Co., 2005. – P. 96.

<sup>84</sup> The Soviet-Afghan War. How a Superpower Fought and Lost. The Russian General Staff (Translated and edited by Lester W. Grau and Michael A. Cress). – Lawrence (Kansas): University Press of Kansas, 2002. – P. 9.

muxolifatiga to‘g‘ridan to‘g‘ri yordam berish to‘g‘risida”gi birinchi rasmiy direktivani imzoladi. Endilikda Sovet hukumati oldidagi eng muhim masalalardan biri – bu mamlakat chegara oldi hududlarida AQSH tomonidan vujudga keltirilgan radikal islom va separatistik guruhlarining kuchayib borishining oldini olish edi. 1979-yilning yozida Kobulga, juda ko‘p sonli sovet harbiy mutaxassisleri keldi. Mamlakatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va mamlakat rahbariyati o‘rtasidagi hokimiyat talashishdan Sovet Ittifoqi norozi edi va bu holat rasmiy Moskvani e‘tiborsiz qoldirmadi. Shu vaqtdan boshlab Sovet Ittifoqi Afg‘onistonda mamlakat oliy rahbariyatini o‘zgartirish yo‘lida keng ko‘lamli tayyorgarlikni boshlab yubordi.

1979-yilning 25-dekabr kuni Kobul va Bagrom aerodromiga 7700 kishilik sovet harbiy xizmatchilarining birinchi guruhi kelib tushdi. Jumladan, Sovet Armiyasining eng yaxshi bo‘linmasi hisoblangan 103-havo-desant diviziyasi Kobulga yetib kelishi bilan AXDP Markaziy Kengashi, Mudofaa vazirligi, Ichki Ishlar vazirligi va Aloqa vazirligi binolarini egalladi. Poytaxt butunlay sovet qo‘shinlari nazoratiga o‘tdi.

1979-yil 27-dekabrda sovet qo‘shinlarining maxsus “Alfa” guruhi tomonidan H.Aminning rezidensiyasi Toj Bek saroyi hujum qilib egallandi. H.Amin esa Sovet maxsus xizmatlari tomonidan AQSH Markaziy Razvedka Boshqarmasi (MRB)ning agenti deb taxmin qilinib kelinar edi va ushbu hujum chog‘ida H.Amin o‘ldirildi. Shu kun kechki payt soat to‘qqizda, 1978-yil aprel to‘ntarilishidan so‘ng AXDP Bosh kotibi o‘rinbosari lavozimida ishlagan hamda AXDPda guruhlararo kurash natijasida keyinchalik Chexoslovakiyaga elchi bo‘lib ketgan Babrak Kormal AXDP Markaziy Kengashi Bosh kotibi va Inqilobiy Kengash raisi deb e‘lon qilindi. Shu paytning o‘zida Sovet qo‘shinlari Afg‘oniston hududiga bostirib kira boshladi va shunday qilib Afg‘onistonni okkupatsiya qilish boshlandi. 1979-yil dekabr to‘ntarishi va Sovet qo‘shinlarining kiritilishidan so‘ng Afg‘onistonda muxolifat harakati tez sur‘atlarda o‘sib bordi. Bunga 1978-yil aprel to‘ntarishidan so‘ng olib borilgan noto‘g‘ri

ichki siyosat ham turtki bo'ldi. Shunday qilib, afg'on zaminida beqaror vaziyatning avj olishi va AQSHning zimdan aralashuvi bois 1979-yilning 25-dekabridan boshlab Sovet qo'shinlarining cheklangan kontingenti (SQChK) yoki boshqacha qilib aytganda 40-armiyaning harbiy qism va bo'linmalari Afg'onistonga kiritildi.

1980-yil 7-yanvarda BMT Xavfsizlik Kengashi Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishini qattiq qoralab chiqdi va Sovet hukumatidan o'z qo'shinlarini Afg'onistondan tezda olib chiqib ketish lozimligi to'g'risida rezolyutsiya qabul qildi hamda Sovet Ittifoqini agressor davlat deb e'lon qildi<sup>85</sup>. O'sha yil 14-yanvarda BMT Bosh Assambleyasi hech bir shartlarsiz zudlik bilan chet davlat qo'shinlarini Afg'onistondan olib chiqib ketilishiga chaqiruvchi qaror qabul qildi. Ushbu rezolyutsiyaning qabul qilinishini yoqlab 104 ta davlat ovoz bergan bo'lsa, 18 ta sotsialistik blokka kiruvchi davlatlar bunga qarshi chiqdi hamda Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishini qo'llab-quvvatladi<sup>86</sup>.

1980-yilning 27–29-yanvar kunlari 54 ta davlat a'zo bo'lmish Islom Konferensiyasi Tashkiloti (IKT)ning favqulodda chaqirilgan sessiyasida ham Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga bostirib kirishi qoralandi va sho'roparast ADR hukumatining ushbu tashkilotdagi a'zoliigi to'xtatildi hamda o'z faoliyatida islom dini arkonlariga tayanuvchi mujohidlarning IKT yig'ilishlarida ishtirok etishiga kelishib olindi<sup>87</sup>.

1980-yil boshlaridan Sovet qo'shinlari mamlakat ichidagi harbiy harakatlarga aralasha boshladi, bu esa keyinchalik juda katta salbiy oqibatlariga olib keldi. Chunki, Afg'oniston Demokratik Respublikasi armiyasi jangovorlik ruhiyatini yo'qotgan va armiya saflaridan qochish (dezertirlik) juda yuqori darajada edi.

---

<sup>85</sup> Umarzai, G. *Nights in Kabul: Action Behind the Curtain during the Last Two Decades in Afghanistan*// Area Study Centre (Central Asia).– Peshavar: University of Peshavar, 2004. – P. 157.

<sup>86</sup> Misdaq, N. *Afghanistan: Political Frailty and External Interference*. – London and New York: Routledge. 2006. – P. 156.

<sup>87</sup> O'sha joyda.

Shunday vaziyatda Afg'oniston va Pokiston chegara hududlarida "yangi hukumatga" qarshi kuchlar tashkillashtirila boshlanadi. Ushbu qarshilik kuchlariga AQSH, Eron, Pokiston va boshqa mamlakatlar harbiy maslahatchilari tayyorlov markazlarida ko'mak berib keldilar. Bu borada, Z.Bjezinskiy "Le Nouvel Observateur" fransuz jurnaliga bergan intervyusida, AQSH Markaziy Razvedka Boshqarmasining mujohidlarga ko'mak berishini sobiq Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishidan olti oy oldin boshlaganligini qayd etgan edi. Shu tariqa, Afg'oniston ustida bo'lgan "o'yin"da buyuk davlatlardan biri SSSR o'z geosiyosiy ta'sirini kuchaytirish uchun, AQSH esa bunga yo'l qo'ymaslik uchun kurash olib bordi. 1981-yilning apreliga kelib Afg'oniston Demokratik Respublikasining hukumat qo'shinlari o'z ishonchsizligini namoyon qilishi va ushbu ishonchsizlik tufayli ular mamlakat poytaxti Kobuldan chiqarildi. Ularning o'rnini Sovet Ittifoqi qurolli kuchlari qismlari egalladi<sup>88</sup>.

## **NAJIBULLONING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI VA UNING "MILLIY YARASHUV" SIYOSATI**

1986-yil mayida Najibullo Afg'oniston rahbari lavozimiga kelgan vaqtda mamlakatning siyosiy holati ayanchli holga kelib qolgan bo'lib, mujohidlar mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatga har tomonlama ta'sir o'tkazayotgan edi. Mujohidlarning asosiy maqsadi mamlakatdan Sovet qo'shinlarining olib chiqilishi va sho'roparast hukumatning barham topishi edi. Shu sababli ular mamlakatda keng ko'lamlil urush olib borar, ijtimoiy-siyosiy holat esa izdan chiqib ketgan edi.

Muhammad Najibullo hukumat tepasiga kelgach uning birinchi vazifasi AXDP saflarida hamon davom etayotgan "Parcham" oqimi va "Xalq" oqimi vakillari o'rtasidagi nizolarga barham berish hamda ularni yagona maqsad yo'lida birlashtirish bo'ldi.

---

<sup>88</sup> Maley, W. The Afghanistan Wars. – New York: PALGRAVE MACMILLAN. 2002. – P. 43–44.

1986-yilning yozida yuqoridagi vazifa bajarildi va AXDPning ikki oqimi ilk bora siyosiy jihatdan birlashdilar. Ammo, ular o'rtasidagi ichki kurashlar baribir to'xtamadi. Najibullo boshqaruvni o'zgartirishga harakat qildi va eski tartiblardan voz kechish yo'lidan bordi. Dastlab hukumatga partiya a'zolari kiritildi va partiyadan tashqarilar boshqaruvda ishtirok eta olmasligi belgilandi.

Muhammad Najibullo yangi hukumatni shakllantirish chog'ida yangi kadrlar bilan bir qatorda Savr inqilobidan buyon davlat ishlarida yetakchi vazifalarni bajarib kelayotgan bir qator shaxslarga ham yana ishonch bildirdi va ularga muhim davlat lavozimlarini topshirdi. Jumladan, dastlabki vaqtda Muhammad Rafiy mudofaa vaziri, Aslam Vatanjar esa ichki ishlar vaziri lavozimida faoliyat yuritishdi.

Najibullo yuqori lavozimli shaxslarni vazifalarga tayinlashda ko'plab xatolarga yo'l qo'ydi. Masalan, Najibullo hukumati davrida Hoji Muhammad Chamkaniy Inqilobiy kengash bosh maslahatchisi lavozimiga tayinlangan edi. Vaholanki, ushbu shaxs siyosatni umuman tushunmaydigan, umri davomida dehqonchilik bilan shug'ullangan qabila oqsoqollaridan biri edi, xolos.

Najibullo markaziy hokimiyatdan norozi bo'lib kelayotgan Paktiyo viloyati aholisiga va xonlariga ko'pgina masalalarda imtiyozlar berib yubordi. Bu esa mazkur hududda tinchlik va barqarorlikning o'rnatilishiga emas, balki imtiyozlarni bo'lishish masalasida yana bir necha inqirozli holatlar kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

1987-yilning yanvar oyida Najibullo o'zining "Milliy yarashuv" siyosatini e'lon qildi. Uning mazkur dasturi mazmun-mohiyatiga ko'ra, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ulkan voqea edi. Chunonchi, dasturda mamlakatdagi fuqarolar urushini to'xtatish, ijtimoiy-siyosiy holatni yaxshilash va mujohidlar bilan koalitsion hukumat tuzish kabi bir qator islohotchilik xarakteriga ega jihatlar qamrab olingan edi. "Milliy yarashuv" siyosati negizida mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotini liberallashtirish yotar edi.



“Milliy yarashuv” siyosatidan kelib chiqib rasmiy Kobul mamlakatdagi siyosiy holatni yaxshilash hamda urushni to‘xtatish bo‘yicha mujohidlar bilan muzokaralar olib borish uchun olti oy davomida harbiy harakatlarni to‘xtatib turish haqida e‘lon qildi. Ammo, bu hech qanday natija bermadi va muxolifat kuchlari o‘z harbiy harakatlarini to‘xtatmadilar hamda mamlakatda siyosiy inqiroz davom etdi. Kobul hukumati “Milliy yarashuv”ni amalga oshirish uchun chora-tadbirlar izlay boshladi. Bu borada AXDP siyosiy monopoliyasining bekor qilinganligi e‘lon qilindi va muxolifatni koalitsion hukumat tuzishga chaqirdi. Ammo, Najibullo hukumati muxolif partiyalarning mamlakat siyosiy hayotidagi rolini e‘tiborga olmadi. Muxolif partiyalar sovet qo‘shinlarining mamlakatdan chiqib ketishi bilan birga Najibullo hukumatining iste‘fo berishini ham talab qila boshladilar. Shu sababli Kobul hukumati muxolifat bilan kelisha olmadi.

Shunday bo‘lsa-da, Najibullo hukumati “Milliy yarashuv” siyosatida barcha afg‘on fuqarolari siyosiy partiyalarga birlashishi hamda siyosiy hayotda ishtirok etishlari mumkin ekanligini e‘lon qildi va bu bilan muxolifatga nisbatan bir qancha jiddiy yon berishlarga borishni ma‘qul ko‘rdi. 1987-yilning iyunida “Milliy yarashuv” siyosatidan kelib chiqib, Afg‘onistonda ko‘ppartiyaviylik tizimi e‘lon qilindi va mamlakat siyosiy hayotini liberallashtirish boshlandi. 1987-yil iyulda “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun qabul qilindi. Mazkur qonun qabul qilinishi bilan ko‘pgina partiyalar faol siyosiy holatga o‘tdi. Har bir siyosiy partiyaning rahbari Afg‘onistonni siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturini alohida-alohida e‘lon qila boshlaydi.

1987-yilning noyabr oyida Najibullo butun afg‘on oqsoqollari kengashi – Luye Jirgeni chaqirishga qaror qildi va ushbu yig‘ilishda mamlakat boshqaruviga oid masalalar muhokama etildi. Shuningdek, mazkur yig‘ilish doirasida Najibullo o‘z hokimiyatini legitimlashtirishni ham maqsad qilgan edi. Natijada Afg‘onistonning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Mamlakatning mazkur Asosiy Qonuniga ko‘ra islom dini Afg‘onistonning asosiy dini ekanligi va

shariat ahkomlari muqaddas ekanligi belgilab qo'yildi. Asosiy Qonun ham, undan kelib chiqib qabul qilinuvchi barcha qonun-qoidalar ham shariat qonunlariga mos kelishi belgilab qo'yildi. Mamlakatning rasmiy nomi Afg'oniston Demokratik Respublikasidan Afg'oniston Respublikasiga o'zgartirildi. Davlatning siyosiy tuzumi demokratik tuzumdan parlamentar demokratiya shakliga o'zgartirildi. Mamlakatning Asosiy Qonuniga binoan, barcha partiyalarga siyosiy erkinlik berildi. Endilikda ular parlamentga bo'ladigan saylovlarda, hukumatni shakllantirish va boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'ldilar.

1988-yilning aprelida parlamentga saylovlar bo'lib o'tdi. Qonun chiqaruvchi organ hisoblanmish parlamentda to'rtinchi qism o'rin mujohidlarga ajratildi, 22,6% o'rinni esa AXDP egalladi<sup>89</sup>. Mujohidlar parlamentdagi o'rinlarni rad etdilar.

1988-yil mayida Najibullo hech bir siyosiy partiyaga a'zo bo'lmagan Muhammad Hasan Sharqni bosh vazir etib tayinlaydi va unga yangi "koalitsion" hukumat tuzishni topshiradi. Najibulloning bu ishi uning yaqin safdoshlari tomonidan ma'qullanmadi. Chunki, Muhammad Hasan Sharq o'z faoliyatida butkul neytral bo'lishga intildi va uning hali ham davlat tizimlarida nisbatan kuchli mavqega ega bo'lib qolayotgan AXDP bilan munosabatlari ijobiy tus olmadi.

1988-yilning may oyida Muhammad Hasan Sharq rasman Afg'oniston bosh vaziri etib tayinlanib ish boshlagach, hukumat a'zolarining yarmi unga nisbatan norozilik bildirdilar. Ammo Najibullo o'z siyosatini o'zgartirmadi va bosh vazirga ishonch bildirdi.

Muhammad Hasan Sharq "Milliy yarashuv" siyosatini o'zgacha yuritdi. 1988-yilning o'rtalarida bo'lib o'tgan hukumat yig'ilishida u mamlakatdagi mavjud ichki siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, "afg'on xalqi muxolifatga qaraganda AXDPga ko'proq ishonadi", – degan fikrni ishonch bilan ta'kidladi<sup>90</sup>. Muhammad Hasan Sharqning

---

<sup>89</sup> Afghanistan Today. –May-August, 1987. – №3(5).

<sup>90</sup> Rubin, B. The Fragmentation of Afghanistan: State Formation and Collapse in the International System. – London: Yale University Press, 2002. – P. 120.

bunday fikri muxolifat kuchlar bilan qarama-qarshilikni yanada kuchaytirdi va endilikda AXDP rahbarlari mamlakatda to'la ishonch qozonish uchun yangidan targ'ibot uyushtira boshladilar. Biroq AXDP vakillari o'z targ'ibot-tashviqot ishlarida jiddiy o'zgartirish yasab, islom qonunlari afg'on jamiyatining asosi ekanligiga urg'u bera boshladilar. Bu, albatta, o'zgacha bir hol bo'lib, kommunistik mafkura asosiga qurilgan AXDPning yangi siyosati edi. Jumladan, Najibullo ham har bir bayramda so'zga chiqib, islom dini muqaddasligi, yangi afg'on jamiyati uning atrofida birlashishi, barcha qonunlar shariat asosida amalga oshirilishini ta'kidlab o'tar edi.

1988-yilda Najibullo Islom Maslahat Kengashini tashkil etib, unga "Milliy yarashuv" siyosatining mazmun-mohiyatini afg'on xalqiga tushuntirish va ijobiy jihatlarini isbotlab berish vazifasini yukladi. Najibullo xalq ishonchini hamma narsadan ustun qo'ydi va unga erishish yo'llarini izladi. Uning ko'ppartiyaviylik siyosati ham aynan shunday maqsadga qaratilgan edi. Najibullo hukumat ishida xalq vakillaridan ko'pchilik ishtirok etishini xohlab, siyosiy partiyadan xoli bo'lgan shaxslarning ham davlat va hukumat boshqaruvida ishtirok eta olishini kafolatlaydigan Konstitutsiyaviy qonun qabul qildi. Uning yuqoridagi barcha chora-tadbirlari mamlakat ijtimoiy-siyosiy holatini yaxshilashga qaratilgan edi. Najibullo boshqaruvi davrida mamlakat agrar siyosatida ham bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi va agrar islohotlar boshlandi.

1987-yilda qabul qilingan "Yer haqida"gi dekret mamlakatning qishloq xo'jaligi sohasidagi munosabatlarni o'zgartirishga qaratilgan edi<sup>91</sup>. Hukumat o'zining agrar siyosatida yangi usuldan foydalana boshladi, ya'ni "Milliy yarashuv" siyosatini qo'llab-quvvatlovchi aholiga yer hadya etilib, muayyan imtiyozlar berila boshlandi. Natijada dehqonchilik bilan shug'ullanadigan aholining ko'pchilik qismi Najibullo hukumatini qo'llab-quvvatladi. Najibullo hukumatining bunday yangicha siyosati kutilmaganda hukumatga katta foyda berdi. Chunki, dekretga binoan yer egalari erkin ravishda

---

<sup>91</sup> Хакикат-е энкелаб-е Савр (газета). –1987 йил 28 ноябрь.

o'z yerlarini sotish, ijaraga berish va meros qoldirish huquqiga ega bo'ldilar.

Najibullo mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash uchun milliy-etnik totuvlikka erishishni ham asosiy vazifalardan biri deb bildi hamda "Milliy yarashuv" siyosatida Afg'onistonda istiqomat qilib kelayotgan barcha millat va elatlar bilan yaqinlashish siyosatini olib bordi. Turli millat va elatlar yetakchilarining ko'pchiligi markaziy hokimiyatning bunday siyosatiga xayrixohlik bildirib, rasmiy Kobul bilan aloqa bog'ladilar<sup>92</sup>.

1988-yilgi Jenevabitimi va Afg'onistondan Sovet qo'shinlarining olib chiqib ketilishi (1989-y. fevral). 1982-yilda Jenevada BMT shafeligida afg'on mojarosini hal etish bo'yicha afg'on-pokiston muzokaralari boshlandi. Mazkur muzokaralarda Sovet Ittifoqi va AQSH rasmiy vakillari ham ishtirok etishdi. Sovet Ittifoqining maqsadi Pokiston tomonidan afg'on mujohidlariga ko'rsatilayotgan har qanday ko'makni oldini olish va afg'on-pokiston chegarasini ishonchli qo'riqlashga erishish bo'lsa, bunga teskari ravishda AQSH hukumati o'zining tinchliksevar deklaratsiyalari bilan muzokaralarni cho'zishga va mujohidlarni qo'llab-quvvatlashni davom ettirishni ma'qul ko'rdi. Rasmiy Vashington Sovet Ittifoqining afg'on mojarosiga yanada ko'proq kirishib ketishini, ko'proq moddiy va ma'naviy zarar ko'rishini istar edi.

Qurol vositasida va harbiy kuch bilan afg'on mojarosini bartaraf etib bo'lmasligini tushungan Sovet Ittifoqi rahbariyati Afg'oniston hududidan o'z qo'shinlarini olib chiqish taraddudiga tushdi. 1986-yilning oktabrida SQACHK tarkibidan 7 ming nafarga yaqin jangchi Sovet Ittifoqiga qaytarildi.

1987-yildan boshlab esa Sovet qo'shinlari Afg'onistonda yirik harbiy operatsiyalarni amalga oshirish taktikasidan voz kechdi va faqat harbiy qismlar joylashtirilgan hududlar va muhim obyektlarni himoya qilish hamda qo'riqlash bilan mashg'ul bo'ldi. Jenevada afg'on mojarosining hal etilishiga oid muzokaralar jarayoni bir necha yilga cho'zilgan bo'lsa-da, nihoyat tomonlar kelishuvga keldilar.

---

<sup>92</sup> Najibullah, M. Afghanistan: Taking the Path of Reconciliation. – P. 68–79.

1988-yil 14-aprelda Jenevada Sovet Ittifoqi, AQSH, Afg'oniston va Pokiston vakillari tomonidan afg'on muammosini siyosiy hal qilish borasida bitim imzolandi. Uning asosida 1988-yil 15-mayda Afg'onistondagi SQACHKning harbiy qism va bo'linmalarini olib chiqib ketish boshlandi. 1988-yil 15-may kuni Sovet qo'shinlarining mamlakatdan olib chiqishining ilk kuni edi. Bu kunni Najibullo "Milliy ozodlik kuni" deb e'lon qildi. Bu kun afg'on xalqi uchun muhim sana edi. Najibullo hukumati davrida Sovet kuchlarining olib chiqilishi ko'pgina rahbarlar tomonidan ma'qullandi.

Najibullo rasmiy Moskvaning afg'on mojarosini hal etish bo'yicha barcha takliflarini qo'llab-quvvatladi. O'z navbatida u birinchi qadam qo'yishga harakat qilib, bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishga kirishdi. 1989-yil 1-yanvaridan boshlab Najibullo hukumat qo'shinlariga mamlakatning barcha hududlarida harbiy harakatlar olib bormaslikka buyruq berdi va muxolifat bilan muzokaralar olib borishga tayyorligini e'lon qiladi. Muxolifat kuchlari esa Najibulloning ushbu chaqirig'iga qurolli hujumlar bilan javob berdi hamda shu kunning o'zida poytaxt va boshqa hududlarga hujum boshladi. Ular Kobuldan tashqari Hirot, Qandahor, Jalolobod, Gardez, G'azna va Xost kabi shaharlarda yirik harbiy harakatlar boshlab yubordi.

1989-yilning yanvar fevral oylarida mujohidlar Afg'onistonning janubi-sharqiy chegaralarida joylashgan Nangarxor, Paktiyo, Qandahor kabi hududlarda keng ommaviy harakatlarga rahbarlik qilib, Sovet harbiylarining ushbu hududlarni tark etishini katta xursandchilik bilan kutib oldilar. Afg'oniston chegaraviy hududlarida joylashgan viloyatlarda qo'shin to'plagan muxolifat kuchlari Kobulga tomon harakat qila boshladilar. Ular 430 ta harbiy guruhlardan tashkil topgan bo'lib, 12 mingdan ziyod jangchini tashkil etdi.

Sovet armiyasi Afg'onistonni tark etgach, mujohidlar ancha erkin harakat qilishga o'tishdi. Ular 1989-yilning o'zida 250 marta SSSR chegarachilariga qurolli hujum uyushtirishdi.

Sovet qo‘shinlari mamlakatdan olib ketila boshlangach Kobul hukumati rahbarlari “Milliy yarashuv” siyosati va Jeneva konferensiyasi qarorlariga umid bog‘ladilar. Bu vaqtda Pokiston va AQSH mamlakat ichki ishlariga aralashmaslik majburiyatini ham olgan edi. Shunga umid qilgan Najibullo hukumati mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy holatni mo‘tadillashtirishga harakat qildi.

Najibullo hukumatining inqirozi. Sovet harbiylari mamlakatni tark etgach, Najibullo muxolifat kuchlari bilan kurashda yakka qolib ketdi. Endilikda u hukumatni afg‘on harbiylari yordamida himoya qilishi zarur bo‘lib qoldi. 1989-yil 18-fevralda mamlakatda favqulodda holat yuzaga keldi. Parlamentning ko‘pchilik a‘zolari qo‘liga qurol olib, Najibullo hukumatiga qarshi chiqdi. Siyosiy holat yana izdan chiqdi. Biroz vaqt o‘tib, hukumat armiyasi ularni to‘xtatishga erishdi.

Najibullo mujohidlarga hukumatni boshqarishda qatnashish imkonini berdi va ularni ham bir qator muhim davlat lavozimlariga taklif etdi. Jumladan, hukumatdagi muhim lavozim hisoblangan mudofa vazirligiga rahbarlik mujohidlarning mashhur qo‘mondoni Ahmadshoh Mas‘udga bo‘shatib berilib, unga bu lavozim taklif etildi. Biroq, Ahmadshoh Mas‘ud Najibullo hukumatining bu taklifini rad etdi. Mujohidlardan birorta ham vakil Najibullo hukumatida ishtirok etishni istamadi hamda ular Najibullo hukumatining taklifiga javoban Kobulga raketalar bilan hujum uyushtirdilar.

Bosh vazir Muhammad Hasan Sharq xalqni birlashtirish yo‘lidan borib, mujohidlarni koalitsion hukumat tuzishga chaqirdi va ularga bir necha bor maktub yo‘llab murojaat qildi. Ammo uning xatlari javobsiz qoldi. Muhammad Hasan Sharq bunday holni o‘zicha talqin qilib, mujohidlar Najibullo hukumatini yoqtirmayotganligini va o‘zi hukumat tepasiga kelsa, ular bilan birlashib, mamlakatni boshqarish mumkinligiga ishonadi. Shu maqsadda Muhammad Hasan Sharq Sovet Ittifoqiga safar uyushtirdi. Uning maqsadi Najibulloni hokimiyatdan chetlatib, uning o‘rnini o‘zi egallash edi. Sovet Ittifoqiga tashrif buyurgan Muhammad Hasan Sharq Najibullo masalasida Sovet davlati rahbari Gorbachyov bilan suhbatlashadi.

Ammo, mazkur suhbat unga o'zi kutgan natijani bermaydi. Sovet Ittifoqi tashqi ishlar vaziri E.Shevarnadze esa Muhammad Hasan Sharqning Gorbachyov bilan olib borgan suhbatining mazmuni hamda maqsadi haqida Najibulloga xabar beradi va Najibullo o'z bosh vazirini hokimiyatdan chetlashtirish chora-tadbirini izlay boshlaydi.

1989-yil fevral oyida Sovet qo'shinlari mamlakatni tark etgach, Najibullo Muhammad Hasan Sharqni vazifasidan chetlashtirilganligini e'lon qildi va uning o'rniga Sulton Ali Keshtmandni bosh vazir etib tayinlaydi. Sulton Ali Keshtmand partiyadan xoli bo'lgan hukumat a'zolarini boshqaruvdan chetlashtirdi. Bunday holat mamlakatda siyosiy inqirozning yanada chuqurlashuviga olib keldi. Sovet qo'shinlari olib chiqilgan bo'lsa-da, mujohidlar qarshilikni to'xtatmadilar. Endilikda ular Najibullo hukumatini ag'darish payiga tushdilar.

1989-yilning may oyida qo'shni Pokiston tomonidan Jalolobod shahriga o'n minglab qurollangan mujohidlar guruhi hujum qila boshladi. Garchi mujohidlarning hujumi shiddatli bo'lsa-da, hukumat qo'shinlari ushbu hujumni to'xtatishga muvaffaq bo'ldi.

Jalolobod jangi butun mamlakatni titratib yubordi. Bu vaqtda hukumat qo'shinlari harbiy qurollanish jihatidan mujohidlardan ustun turar edi. Chunki Sovet qo'shinlari o'zining barcha harbiy texnikasi va qurol-aslahalarini hukumat harbiylari ixtiyoriga topshirib ketgan edi. Afg'on armiyasining havodan va quruqlikdan uyushtirgan shiddatli hujumlari mujohidlarni qiyin ahvolga solib qo'ydi. Mazkur operatsiya davomida mujohidlar qo'shinlari ikki tarafdin o'rab olinib, chekinishga majbur qilindi. Hukumat qo'shinlari Bagram aviabazasida joylashtirilgan havo kuchlari yordamida hujumga o'tdilar va mujohidlar armiyasiga havodan kuchli zarbalar berdi. Hukumat qo'shinlarining bunday kuchga ega ekanligi mujohidlarning hatto, tushiga ham kirmagan edi. Shundan so'ng mujohidlar katta talafotlar ko'rib, chekinishga majbur bo'ldilar. Hukumat qo'shinlari aydarlicha zarar ko'rmadi. Shundan so'ng xalqning katta qismi Najibullo qo'shinlariga ishona boshlaydi. Chunki afg'on armiyasi ilk marta mamlakatni Sovet

qo'shinlarisiz o'zi himoya qildi. Shu sababli xalqda hukumat o'zini-o'zi himoya qila oladi, degan fikr paydo bo'ldi. Bu albatta, Najibullo hukumatining g'alabasi edi. Bu voqeadan so'ng Najibullo hukumatni isloh qilishga kirishdi.

Mamlakat siyosatini liberallashtirish ishlari jadal ravishda davom etib bordi. Ko'plab jamoat tashkilotlariga siyosiy erkinliklar berildi, joylardagi mahalliy hukumat vakolatlari kengaytirildi.

1989-yilda mamlakatda birinchi mustaqil, nodavlat tashkiloti tuzildi. Shu yilning 20-sentabrida Kobulda "Afg'onistonni qutqarish milliy jamiyati" tashkil etildi. Bu jamiyat a'zolari mamlakatning barcha sohalarini erkinlashtirish yo'lidan borib, birinchi navbatda erkin saylov tizimini joriy etishni talab qildilar.

1960-yillarda Afg'oniston Adliya vaziri bo'lgan Muhammad Asqar mamlakatning eski siyosiy elitalarini birlashtirdi. M.Asqar tashkil etgan jamiyat Kobul hukumatini yoqtirmas edi. Shaxsan M.Asqarning o'zi jurnalistlarga bergan intervyularidan birida Najibulloni diktator deb atadi. Najibulloning siyosiy tizimini Muhammad Doud rejimi bilan tenglashtirdi va hali hanuz mamlakat kommunistik mafkura yo'lidan borib, sotsializmga xos bo'lgan jamiyat yaratmoqda, deya Najibullo hukumatini aybladi. M.Asqarning asl maqsadi AXDPni mamlakat siyosatidan chetlashtirish bo'lib, u bu yo'lda Najibullo hukumatini obro'sizlantirish usulidan bordi. Ammo AXDPning katta siyosiy hokimiyatga ega ekanligi bunga imkon bermadi.

Yangi siyosiy rejim yaratish yo'lidan borayotgan Najibullo hukumati mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish ishlarini boshlab yubordi. Yangi yer islohoti o'tkazilib, ADR hukumati tomonidan tortib olingan yerlar egalariga qaytarildi. Ommaviy ravishda davlat yerlari xususiy qilib berila boshladi. Xususiy xo'jalikni rivojlantirish ishlari boshlandi. Najibullo hukumati xo'jalik yuritishning oldingi tartiblarini bekor qilib yangi sivilizatsiyalashgan xo'jalik yaratish yo'lidan bordi.

1989-yilning avgust oyida Kobulda hukumatga qarshi qo'zg'olonlar boshlandi. Qo'zg'olonchilar orasida davlatga qarshi



chiqqan jangari kuchlar va harbiylar bor edi. Shu yilning oxirida 100 dan ortiq davlatga qarshi chiqqan shaxslar qamoqqa olindi. Bular orasida yuqori lavozimdagi armiya generallari ham bor edi. Qo‘zg‘olonchilar orasida “Xalq” oqimi a‘zosi bo‘lmish mudofaa vaziri general Shohnavoz Tanay ham bor edi. Shohnavoz Tanay mudofaa vazirligi generallarini ozod qilish haqida fikr bildirdi va mamlakat mudofaa vazirligi Prezidentga generallarni ozod qilish talabini qo‘ydi. Najibullo qo‘zg‘olon ishtirokchisi bo‘lmish 4 nafar generalni ozod etgan bo‘lsa-da, mudofaa vazirligi va Prezident o‘rtasida vujudga kelgan qarama-qarshilik yo‘qolmadi.

1990-yilning 6-martida Shohnavoz Tanay AXDPning “Xalq” oqimi tarafdorlarini Najibulloga qarshi qurolli qo‘zg‘olonga chaqirdi. Shu kuni ertalab u bir guruh ofitserlar va kuchli himoyachilar bilan Kobuldan 50 km shimolda joylashgan Bagram aerodromiga yetib keldi. Uning tarafida afg‘on armiyasining 15 tank brigadasi hamda 40-diviziyasi bor edi.

General Shohnavoz Tanay shaxsan Kobulga shturmlar bilan zarba berish to‘g‘risida buyruq berdi. Buning oldini olish maqsadida Najibullo zudlik bilan butun harbiy kuchlarni Shohnavoz Tanay boshchiligidagi davlat to‘ntarishini amalga oshirishga urinayotgan kuchlarning qarshiligini sindirish uchun safarbar etdi. Najibullo Bagram aerodromini bombardimon qilishga buyruq berdi. Najibullo bu haqda keyinroq shunday deydi: “Men shu tariqa Bagramni bombardimon qildim, hattoki o‘zim uchun zararli bo‘lsa ham”. Ushbu operatsiya chog‘ida Uragan nomli qiruvchi samolyot qo‘zg‘olonchilarni tashvishga solib qo‘ydi. Shundan so‘ng chorasiz qolgan Shohnavoz Tanay va uning safdoshlari 7-mart kuni Bagram aerodromidan uchib ketdi va Pokistonga borib qo‘ndi. Shu tariqa Shohnavoz Tanay boshchiligidagi davlat to‘ntarishini amalga oshirish muvaffaqiyatsiz tugadi hamda 1990-yil martidan boshlab Bagram aerodromi hukumat qo‘shinlari nazorati ostiga o‘tdi.

Mazkur davlat to‘ntarishini amalga oshirishga urinish yangidan “Vatan” partiyasi nomi bilan faoliyat yuritayotgan sobiq AXDPning siyosiy sustligi va hukumatning Shohnavoz Tanay yetakchiligidagi

qo‘zg‘olonchilarga yetarlicha baho bermaganligi bilan xarakterlidir. Qo‘zg‘olonchilarning harakati hukumatni ancha shoshirib qo‘ydi. Qo‘zg‘olon aslida Kobul rejimini ag‘darishga qaratilgan bo‘lib, afg‘on armiyasi zobitlari guruhi hukumatga ishonchsizlik bildirdi va “Xalq” oqimi tarafdorlariga qo‘shilib ketdi.

1990-yil mart voqealari Afg‘oniston siyosiy sahnasida hamon yakdillik yo‘qligini, xususan AXDP saflarida bo‘linish yaqqol namoyon bo‘lib turganligini ko‘rsatib berdi. Bu AXDPning “Xalq” oqimi hukumatga qarshi radikal kayfiyatda ekanligining, mamlakat rahbari va AXDPning “Parcham” oqimi yetakchisi Muhammad Najibullo esa AXDP saflaridagi kelishmovchiliklarni hal etishda faqat “Parcham” oqimiga tayanganligi va undan foydalanmoqchi bo‘lganligining natijasidir.

1990-yilda Kobulda AXDP o‘rniga “Vatan” partiyasi tuzildi. Bu partiya o‘zining yangi siyosiy dasturini e‘lon qilib, keng ommaviy ishlarni boshlab yubordi. “Vatan” partiyasi mamlakatda demokratik islohotlar o‘rkazishni, xalq istagidan kelib chiqib qonunlar yaratish, sotsializmdan islom foydasi uchun voz kechish kabi g‘oyalarni ilgari sura boshladi<sup>93</sup>.

Partiya rahbarlari hatto, Sovet-afg‘on do‘stlik shartnomasini ham tan olmadilar. Ular Moskva bilan aloqalarini butunlay uzish, mamlakatning chet davlatlar aralashuviziz mutlaq mustaqilligini ta‘minlash va ijtimoiy-siyosiy hayotni islom xarakteriga moslab o‘zgartirishni talab qila boshladilar. Partiya tarafdorlari kommunistik afg‘on jamiyati uchun o‘ta xavfli ekanligini uqtirib, AXDPning siyosiy faoliyati ko‘pdan-ko‘p salbiy oqibatlariga olib kelganligini bildirdilar. Afg‘on xalqining muayyan qismi bu partiyaning qo‘llab-quvvatladi. O‘z navbatida Najibullo ham mazkur siyosiy partiya harakatiga ijobiy munosabat bildirib, uning siyosiy faoliyatiga to‘sqinlik qilmadi.

---

<sup>93</sup> Anthony, A. The Ephemeral Elite. The Failure of Socialist Afghanistan. Political Parties and Restructuring Order in Socialist Afghanistan. New York, 1988. – P.21.

1990-yilning may oyida navbatdagi Luye Jirge chaqirilib, unda Konstitutsiyaga ham ba'zi o'zgartirishlar kiritildi. Mamlakat bosh vaziri etib Fazlulloh Xoliqyor tayinlandi.

Najibullo tashkil etgan navbatdagi hukumat vakillari turli xil partiya va guruhlar a'zolari edi. Ularning faoliyat yuritishi dastlab qiyin kechdi. Bu paytga kelib Afg'onistonda quyidagi ko'zga ko'ringan partiyalar faoliyat yuritar edi:

Vatan partiyasi (Hezb-e Vatan), oldingi AXDP;

Afg'oniston mehnatkashlari birlashmasi (Sozmon-e Zahmatkeshon-e Afg'oneston);

Afg'oniston Xalq Islom partiyasi (Hezb-e Eslom-e Mardum-e Afg'oneston);

Mehnatkashlar Inqilobiy Birlashmasi (Sozmon-e Enqilobie Zahmatkeshon);

Afg'oniston Dehqonlari Adolat partiyasi (Hezb-e Adolat-e Dehqonon-e Afg'oneston);

Afg'oniston Xalq Birligi partiyasi (Hezb-e Hambastagie Afg'oneston);

Afg'oniston yosh ishchilar partiyasi (Hezb-e Korgaron-e Javonon-e Afg'oneston);

Afg'oniston milliy partiyasi (Hezb-e Millie Afg'oneston).

Najibullo hukumati mazkur siyosiy partiyalarga hukumat ishida ishtirok etishlariga ruxsat berdi hamda mazkur siyosiy partiyalarning erkinligi Najibullo tomonidan e'lon qilingan "milliy yarashuv" siyosati tufayli hayotga tatbiq etildi.

Faoliyati davomida Najibullo mamlakat bo'ylab o'ziga harbiy tayanch yaratishga harakat qilgan edi. Ushbu maqsadda afg'on armiyasi saflaridagi millati pushtun bo'lmagan qo'mondonlarni qo'llab-quvvatlay boshlaydi. Bunday qo'mondonlardan biri millati o'zbek Abdurashid Do'stum bo'lsa, ikkinchisi shia oqimiga e'tiqod qiluvchi Sayid Mansur Nodiriy edi. Ushbu harbiy qo'mondonlar ostidagi kuchlar Kobul-Hayraton avtomagistralini va mamlakatning shimolidagi iqtisodiy rivojlangan hududlarni himoya qilar edi. Sovet harbiylari mamlakatni tark etgach, Najibullo hukumati ixtiyorida

mamlakat shimolidagi hududlarni himoya qilish uchun yetarlicha harbiy kuch qolmagan edi. Shu sababli Najibullo yuqoridagi ikki qo'mondonga mamlakat shimolidagi hududlarda hokimiyatni boshqarish vakolatini bergan edi.

Abdurashid Do'stum markazi Mozori Sharif shahri bo'lgan shimoldagi ko'pgina hududlarni nazorat qilar edi. Said Mansur Nodiriy esa Bag'lon viloyatida o'z hokimiyatini o'rnatib, boshqaruvni qo'liga olgan edi. A.Do'stumning harbiy kuchlari Najibulloga qo'zg'olon va notinch vaziyatlarda katta yordam qilib kelar edi. Shu sababli, 1986-yilda Abdurashid Do'stum Vatan oldidagi xizmatlari uchun "Afg'oniston Demokratik Respublikasining Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgan edi. Do'stumning siyosiy sahnaga kelishi 1988-yilda yuz berdi. Shu yili Qandahorda mujohidlar va hukumat qo'shinlari o'rtasida katta jang bo'lib o'tdi. A.Do'stum o'z qo'mondonligi ostidagi 53-diviziyasi bilan Qandahor mojarosiga aralashdi va hukumat qo'shinlari bostira olmagan Qandahor qo'zg'olonini bostirdi. Shundan so'ng Do'stum xalq orasida tanildi va mamlakat siyosiy hayotida bevosita ishtirok eta boshladi.

Mujohidlar bilan kelishuvga erisha olmagan Kobul hukumati muxolifat saflaridan chiqib alohida siyosat yuritayotgan islomiy guruhlar bilan aloqa bog'lashga harakat qildi. Bu borada muayyan muvaffaqiyatlarga erishgan Najibullo hukumati bir qator kichik guruhlar bilan aloqa bog'lab, ular bilan harbiy harakatlarni to'xtatish to'g'risida kelishuv imzoladi. Hukumat ularga ko'plab moddiy yordam ham berilishini va'da qildi. Shundan so'ng, Kobul hukumati bir qator yutuqlarga ega bo'ldi. Xususan, Najibullo xalq orasida katta hurmatga sazovor bo'ldi.

Navbatdagi vazifa mamlakatning janubiy, janubiy-sharqiy hududlarida yashovchi qabila xonlari bilan aloqa o'rnatish edi. Ammo, bu tadbir Najibulloga o'zi kutganidek natija bermadi. Hukumat bilan kelishuv imzolagan ko'pchilik qabila xonlari moddiy yordam olgach, uni joylarda o'z hokimiyatini mustahkamlashga qaratib, so'ngra yana muxolifat kuchlar tomoniga o'tib ketdilar. Ba'zi qabila boshliqlari bir vaqtning o'zida ikki tarafga ham xizmat

qildilar. Harbiy guruhlar boshliqlari bilan aloqa kuchaytirishga harakat qilgan Kobul hukumati bu orqali joylarda militsiya xizmatini shakllantirishni ham yo'lga qo'ydi.

## **XX ASR OXIRIDA AFG'ONISTONDAGI SIYOSIY, IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT**

Sovet qo'shinlari olib chiqib ketilgandan so'ng Afg'onistonda tinchlik o'rnatilmadi va ikki buyuk davlat (AQSH va Sovet Ittifoqi) ning Afg'onistondagi manfaatlari to'qnashuvi saqlanib qoldi. Ushbu manfaatlar to'qnashuvi endilikda prezident Najibulloning 130 mingga yaqin qo'shini bilan AQSH va Pokiston tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan 150 ming kishidan iborat muxolifatchi guruhlar o'rtasidagi jangovar harakatlar tarzida davom etdi.

1979–1989-yillardagi afg'on urushi Sovet Ittifoqidagi iqtisodiy va siyosiy inqirozning jadallashishiga, Sovet davlatining parchalanishiga va kommunistik rejimning barbod bo'lishiga ham sabab bo'ldi.

1980-yillar oxiri va 1990-yillar boshida dunyo siyosiy manzarasining keskin o'zgarishi sharoitida Sovet Ittifoqidan kelib turgan katta hajmdagi ko'makdan ajralib qolgan Najibulloning Afg'onistonda hokimiyatni boshqarishi o'ta mushkul vazifaga aylana boshladi.

Sovet qo'shinlari Afg'onistonni 1989-yilda tark etgan bo'lsa ham, Kobuldagi sho'roparast hukumatni har tomonlama qo'llab-quvvatlab turish maqsadida Sovet hukumati Najibulloga moddiy ko'mak berib turdi. 1989-yil fevraldan boshlab Sovet Ittifoqi har kuni Kobul yaqinidagi Bagram harbiy aerodromiga 2–3 ta yirik transport samolyotlarida qurol-aslaha, kiyim-kechak, yoqilg'i va oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib turdi. Bu, albatta, Kobul rejimining hayotiyiligini ta'minlovchi muhim omil edi.

1991-yilning avgustida Sovet Ittifoqida ro'y bergan davlat to'ntarishini amalga oshirishga bo'lgan urinish Sovet davlatining parchalanishiga olib keldi. Mazkur parchalanish oqibatida Kremlida rasmiy

hokimiyatni qo‘lga kiritgan B.Yelsin (1991–1999) boshchiligidagi Rossiya Federatsiyasi hamda AQSH hukumati o‘rtasida 1991-yilning sentabrida imzolangan shartnomaga ko‘ra, 1992-yil 1-yanvardan boshlab Afg‘onistondagi Najibullo hukumatiga qurol-yarog‘ va boshqa turli ko‘makning yetkazib berilishini to‘xtatishga kelishib olindi. Rossiya Federatsiyasi AQSH bilan tuzilgan mazkur kelishuvga qat‘iy amal qilgan bo‘lsa-da, rasmiy Vashington afg‘on mujohidlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni davom ettirdi. Shu bilan birga, Pokiston, Saudiya Arabistoni va ba’zi davlatlar esa mujohidlarga qurol-yarog‘ yetkazib berishda davom etdilar.

Rasmiy Moskvaning Najibullo hukumatini qo‘llab-quvvatlashdan butkul voz kechishini mujohidlar katta xursandchilik bilan kutib oldilar va Jalolobod, Xost, Qandahor, Kobulda hamda Salang tunnelida keng ko‘lamli hujumga o‘tdilar. Hukumatning harbiy harakatlarda sustligi, muammoni kuch bilan hal qilishga bo‘lgan ishonch, afg‘on armiyasi orasida muxolifatning buzg‘unchilik faoliyatining oshib borishi, iqtisodiy holatning yaxshilanishiga nisbatan umidning yo‘qolishi Najibullo hokimiyatining qulashiga olib keldi.

1992-yilning bahoriga kelib BMT tomonidan afg‘on muammo-sini bartaraf etish bo‘yicha reja ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, Afg‘oniston Respublikasi prezidenti va uning hukumati a‘zolarining iste‘foga chiqishi, umumiy demokratik saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘lgan muvaqqat betaraf hukumat tuzilishi nazarda tutilgan edi. 1992-yil 18-mart kuni Najibullo tuzilajak muvaqqat hukumatga hokimiyatni topshirish taklifi bilan chiqdi va 16-aprel kuni lavozimidan ketdi.

Aynan shu davrda Pokiston va Eronda uzoq yillardan beri Afg‘onistondagi sho‘roparast hokimiyatga qarshi qurolli kurash olib borgan – “Yettilar Ittifoqi” hamda “Shia sakkizligi”ga birlashgan mujohidlar mamlakat siyosiy sahnasiga kirib kelishdi. Mamlakatda yangi siyosiy vaziyat yuzaga keldi. “Afg‘oniston mujohidlarining islomiy ittifoqi” (“Yettilar Ittifoqi”) AQSH va Pokiston bosimi ostida Peshovar shahrida o‘zining o‘tish hukumatini tuzdi va

bundan maqsad Kobulda hokimiyatni egallash edi. Mazkur o'tish hukumatiga sobiq qirol M.Zohirshoh yetakchiligida yangi hukumat tuzish tarafdorlari ham, shia mazhabiga mansub mujohidlarning vakillari ham kiritilmadi. Bu kelgusida hokimiyatni egallash, mujohidlar o'rtasida bartaraf etib bo'lmaz kelishmovchiliklarning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Shu tariqa 1991-yil 16-aprel kuni Najibullo muvaqqat hukumatga hokimiyatni topshirdi va shu yilning 28-aprel kuni Afg'onistonni qutqarish milliy fronti yetakchisi S.Mujaddadiy boshchiligidagi Peshavarda shakllangan mujohidlarning muvaqqat Kengashi vakillari Kobulga yetib keldilar. Ushbu Kengash mamlakat qonuniy hukumati funksiyalarini o'z zimmasiga oldi.

Mamlakat parlamenti tarqatib yuborildi, shariatga mos kelmaydigan barcha qonunlar bekor qilindi hamda davlat boshqaruvida islom qonun-qoidalari asos qilib olindi. Mamlakat yangi rasmiy nom bilan – **Afg'oniston Islom Davlati** deb atala boshlandi va uni darhol Pokiston, Eron, Saudiya Arabistoni va boshqa davlatlar tan oldilar.

Mujohidlar hokimiyatni qo'lga kiritgach, "Afg'onistonni qutqarish milliy fronti" yetakchisi S.Mujaddadiy ikki oy muddatga davlat rahbari lavozimini egalladi. Undan so'ng hokimiyat "Afg'oniston islom jamiyati" yetakchisi B.Rabboniy qo'lga o'tdi va u to'rt oy muddat davomida hokimiyatda bo'lishi, undan so'ng mujohidlarning vakolatli shaxslardan iborat Kengashi ikki yil muddatga davlat prezidentini saylashi lozim edi<sup>94</sup>.

1992-yil dekabr oyi so'nggida Xalq vakillari vakolatli kengashi delegatlarining ovoz berish yakunlariga ko'ra, etnik kelib chiqishi tojik millatiga mansub bo'lgan, Afg'oniston Islom Jamiyati (AIJ) yetakchisi Burhoniddin Rabboniy Afg'oniston Islom Davlati prezidenti etib saylandi. Bosh vazir lavozimiga Afg'oniston Islom

<sup>94</sup> Мубориз А. Ҳақойеқ ва таҳлил-е вакайо-и сиёси-йе Афғонестон (1973–1999). Аз суқут-е салтанат то зуҳур ва ижроот-е Толибон. (Афғонистон сиёсий воқеалари ҳақиқатлари ва таҳлили (1973–1999). Салтанатнинг ағдарилишидан толибларнинг келгунига қадар). – Пешовар: Майванд, 1378 (1999). – Б. 81–87.

Partiyasi (AIP) yetakchisi Gulbiddin Hikmatyor, Mudofaa vaziri etib esa Afg'oniston Islom Jamiyatining mashhur qo'mondoni Ahmad Shoh Mas'ud tayinlandi. Shunday bo'lsada, mamlakatdagi vaziyat barqarorlashmadi. Chunki, G.Hikmatyor mujohidlarning o'tish hukumati uning ishtirokisiz tuzilganligini hamda ilgari sho'roparast hukumatga xizmat qilgan A.Do'stum bilan mujohidlar olib borayotgan munosabatlari<sup>95</sup> uni qanoatlantirmasligini bahona qilib, Kobuldagi mujohidlar hukumatiga qarshi muxolifat mavqeida turdi hamda har qanday yon berishlarga bormasdan Kobul shahri va uning atroflarini og'ir artilleriya vositasida tinimsiz o'qqa tuta boshladi.

Garchi, B.Rabboniy hukumati yigirmadan ortiq turli siyosiy kuchlarning manfaatlarini inobatga olib, ularning vakillaridan iborat tarkibda tuzilgan bo'lishiga qaramasdan, tez orada ular o'rtasida jiddiy bo'linish yuz berdi. B.Rabboniy hukumatida mudofaa vaziri lavozimini egallagan A.Mas'udning barcha harbiy-siyosiy guruhlarni o'z qo'l ostiga birlashtirishga intilishi uning A.Do'stum bilan, keyinchalik hazoriylar bilan munosabatlarini keskinlashtirib yubordi. Siyosiy kuchlar o'rtasida yuqoridagi kabi kelishmovchiliklar "hamma hammaga qarshi" tamoyili bo'yicha o'zaro urushga aylandi. Sho'roparast hukumat davrida Afg'oniston yagona davlat tuzilmasini tashkil etgan bo'lsa, endi u mahalliy harbiy-siyosiy guruhlar tomonidan nazorat qilinayotgan ta'sir zona (tanzim)larga bo'linib ketgan edi<sup>96</sup>.

Hokimiyat uchun o'zaro kurash va siyosiy tarqoqlikning kuchayishi. 1993-yil davomida va 1994-yilning boshida Afg'onistonda ijtimoiy-siyosiy va harbiy vaziyat nihoyatda chigallashib ketdi hamda afg'on xalqi uchun yana fojiali sinovlar

<sup>95</sup> Нажибулло ҳукумати ағдарилгач, катта харбий кучга эга генерал А.Дўстум мамлакат шимолидаги ҳудудларни ўз назорати остига олди ва Кобулдаги мужоҳидлар ҳукумати билан келишиб фаолият олиб бора бошлади.

<sup>96</sup> Bhatia, M. and Sedra, M. Afghanistan, Arms and Conflict. Armed groups, disarmament and security in a post-war society. – New York: Routledge, 2008. – P. 73.



ro'y berishiga sabab bo'ldi. 1993-yilning boshida Afg'onistonda turli siyosiy-harbiy guruhlar tomonidan hokimiyat talashish bahonasida yangidan-yangi kelishmovchiliklar yuzaga keldi. Bunday kelishmovchiliklarga barham berish maqsadida Saudiya Arabistoni qiroli Fahd 1993-yilning yanvarida tinchlikka erishish chaqirig'i bilan chiqdi. Natijada 1993-yilning fevralida Afg'onistonda hokimiyat talashayotgan turli siyosiy-harbiy guruhlar Saudiya Arabistoni, Pokiston va Eron shafeligida mojaroga barham berishga qaratilgan Islomobod kelishuvini imzoladilar. Mazkur kelishuv imzolangach, barcha ishtirokchilar Saudiya Arabistonidagi muqaddas shahar – Makkaga safar uyushtirib, “Muqaddas Ka’ba”ni tavof qildilar va Islomobod kelishuviga qat’iy amal qilishga qasamyod qildilar<sup>97</sup>.

Islomobod kelishuviga binoan B.Rabboniy mamlakat prezidenti sifatida faoliyat yuritishi, G.Hikmatyor esa bosh vazir lavozimini egallashi lozim bo'lsa ham, G.Hikmatyor hukumatda Ahmadshoh Mas'udning mudofaa vaziri sifatida faoliyat yuritishiga butkul qarshi chiqdi va yana mamlakatda harbiy to'qnashuvlar davom etaverdi hamda ichki siyosiy vaziyat keskinlashib ketdi.

1993-yilda G.Hikmatyor, A.Do'stum, S.Mujaddadiy va “Afg'oniston islomiy birlik partiyasi”ning A.A.Mazoriy yetakchiligidagi bir bo'g'inidan iborat kuchlar “Afg'oniston islom inqilobining muvofiqlashtiruvchi Kengashi”ga birlashdi va B.Rabboniy hukumatiga qarshi harakat yurita boshladi. Bu jarayonda 40 ming nafar ko'ngilli askarlarga ega bo'lgan general A.Do'stum va G.Hikmatyor birlashdilar hamda prezident B.Rabboniyni hokimiyatni bosib olganlikda ayblab, uni ag'darishga urindilar. Bunday salbiy holat Afg'onistondagi boshqa siyosiy partiyalar va janubda kuch to'playotgan “Tolibon” harakatining bosh ko'tarishi uchun zamin yaratib berdi va afg'onlar o'rtasidagi nizoni yangi bosqichga olib chiqdi.

Shu tariqa Afg'oniston ichki mojarolar botqog'iga botib qoldi va mamlakat tarixida bo'lganidek, bir necha mayda mulklarga

---

<sup>97</sup> Rubin, B. The Fragmentation of Afghanistan: State Formation and Collapse in the International System. – London: Yale University Press, 2002. – P. 273–274.

bo'linib ketdi. Jumladan, poytaxt Kobul va mamlakat shimoliy-sharqi prezident B.Rabboniyini qo'llab-quvvatlovchi A.Mas'ud nazoratida bo'lsa, markazi Hirot bo'lgan mamlakat shimoliy-g'arbi Afg'oniston Islom Jamiyati a'zosi hisoblanmish Ismoilxon nazoratida, markazi Mozori Sharif bo'lgan mamlakat shimolidagi to'rtta viloyat (Balx, Juzjon, Faryob, Qunduz) general A.Do'stum nazoratida edi. Shuningdek, Bag'lon viloyatida Sayyid Mansur No-diriy, Nangarxor viloyatida Hoji Abdulqodir, G'aznada Qori Bobo, Qandahorda mavlaviy Oxundzoda, Gardezda Jaloliddin Haqqoniy kabi mujohidlar yetakchilari yoki dala qo'mondonlari (inglizcha – war lord) mustahkam o'rnatildilar va ushbu hududlarda oliy hokimiyatni amalga oshirib keldilar.

Afg'onistondagi vaziyat qo'shni davlatlarga va mintaqadagi siyosiy jarayonlarga muayyan darajada ta'sir ko'rsatmay qolmas edi. Xususan, 1993-yil boshida Afg'onistonda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun manfaatli emas edi. Biroq, mazkur chigal vaziyat manfaatlari to'qnash kelayotgan boshqa tomonlarni qoniqtirardi.

Birinchiidan, Afg'onistondagi ichki siyosiy kurashda A.Do'stum va Rabboniy-Mas'udning soxta davlat tuzilmalari sobiq Sovet Ittifoqi hududida tuzilgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) janubiy chegaralarini Afg'onistondagi urush tazyiqidan muhofaza qiluvchi bufer rolini o'ynardi<sup>98</sup>.

Ikkinchiidan, Najibullo rejimi qulagandan so'ng pushtun millatiga mansub mujohidlar saflaridagi harbiy dala qo'mondonlarining ko'pchiligi yagona afg'on davlati uchun kurashishdan ko'ra o'z qabilasi yoki hududi doirasida to'liq mustaqillikni afzal ko'rishdi.

Uchinchiidan, XX asr 90-yillari boshida AQSH afg'on mojarosi bilan qiziqmay qo'ydi. Buni "sovuq urush"da erishilgan g'alaba va Sovet davlati parchalanganidan keyin Afg'onistondagi mojaro global siyosiy va mafkuraviy kurash xususiyatiga ega bo'lmay qolgani bilan izohlash mumkin edi.

---

<sup>98</sup> Туляганова Н.У. Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. – Т.: Фан, 2004. – С. 46.

Shuningdek, Afg‘onistondagi boshboshdoqlik Eron uchun ham muayyan darajada foydali edi. Chunki bu holat shia oqimiga e‘tiqod qiluvchi hazoriylar tomonidan tashkil etilgan eronparast tashkilotlarning muxtoriyatini ta‘minlardi. Bu holat Afg‘onistondagi vaziyatga rasmiy Tehronning ta‘sirini saqlab qolish va “islom inqilobi”ni eksport qilishga imkoniyat yaratar edi. Xususan, Afg‘onistonda eronparast “Afg‘oniston islomiy birlik partiyasi” (Hezb-e vahdat-e eslomi-ye Afg‘oniston) qisqacha “Hezb-e Vahdat” partiyasiga mansub hazoriylar 1992-yildan boshlab tog‘li Bomiyon viloyatini va mamlakat poytaxti Kobul hududining muayyan bir qismini nazorat qilib kelayotgan edi.

Bu davrga kelib, rasmiy Islomobod Afg‘oniston orqali mintaqada yetakchilikni qo‘lga kiritishga astoydil harakat qila boshladi va bu yo‘lda har qanday qulay sharoitdan foydalanishga intildi.

XX asr 90-yillari boshida Pokiston uchun Afg‘onistondagi fuqarolar urushi uning geosiyosiy ahvolining barcha ijobiy jihatlari yo‘qqa chiqardi. Pokiston G‘arb davlatlarining Afg‘onistonni Sovetlar tomonidan bosib olinishiga qarshi tayanchi sifatida barcha afzalliklaridan foydalanib keldi. Ya‘ni afg‘on mujohidlariga ko‘mak berish bahonasida Pokiston armiyasiga ham iqtisodiy va zamonaviy harbiy texnikaning yetkazib berilganligi va qo‘llab-quvvatlanganligi Pokiston taraqqiyotida muhim omil bo‘ldi. Shuningdek, mujohidlarga va millionlab afg‘on qochoqlariga harbiy hamda moddiy yordamning taqsimlanishi Islomobod nazoratida bo‘lganligi Pokiston uchun katta daromad manbai edi. Pokiston Afg‘onistondagi urush davrida AQSHning strategik ittifoqchisi sifatidagi maqomi sababli o‘zining mintaqadagi azaliy dushmani – Hindiston bilan mavqei va harbiy qudratini tenglashtirib olgan edi.

XX asr 90-yillari boshlaridan boshlab, Pokiston oldida mamlakat yaxlitligini saqlab qolish masalasi ham ko‘ndalang bo‘lib qoldi. Ma‘lumki, 1893-yil Afg‘oniston va Buyuk Britaniya Hindistoni o‘rtasida imzolangan shartnomaga ko‘ra, pushtunlar istiqomat qilib kelgan hududlar – “Dyurand chizig‘i” bilan ikki qismga bo‘lib

qo'yilgan edi. Natijada Pokistonda pushtunlar Afg'onistonga qaraganda ko'pchilikni tashkil etib qolgandi. Pushtunlar yashaydigan butun hududga da'vogar Afg'oniston hukumati "Dyurand chizig'i"ni hech qachon tan olmagan va shu sababli Pokiston doimo pushtunlarning birlashuviga yo'l qo'ymaslikka harakat qilib keldi.

Shuningdek, Pokiston mujohidlarning Afg'onistonni bo'lib olishiga ham qarshi edi. Buning asosiy sababi esa Sovet Ittifoqi parchalangach, Pokistonning Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatining yaratilganidadir. Bu davrda Markaziy Osiyoning mustaqil davlatlari o'z yoqilg'i-energetika resurslarini import qilish uchun yangi transport yo'laklariga muhtojligi vaziyatida Pokiston ularga Hind okeani va Arabiston dengiziga chiqish imkoniyatini yaratishga tayyorligini ma'lum qildi. Buning uchun rasmiy Islomobod tomonidan Pokiston va Markaziy Osiyo temir yo'li tarmog'ini yaratish rejasi hamda Pokistonga turkman nefti hamda gazini yetkazib berish uchun quvur o'tkazish loyihasi qo'llab-quvvatlana boshlandi<sup>99</sup>.

Mazkur rejalar muvaffaqiyatli amalga oshirilsa, rasmiy Islomobod iqtisodiy va siyosiy jihatdan katta manfaat topishi muqarrar edi, chunki Hind okeaniga chiquvchi transport kommunikatsiyalarining barchasi Pokiston hududidan o'tganligi sababli rasmiy Islomobod Markaziy Osiyoning barcha asosiy transport yo'laklarining to'liq "egasi"ga aylanardi. Shu bois, XX asr 90-yillarining birinchi yarmida parokanda holatga kelib qolgan Afg'oniston "Pokiston orzusi" yo'lidagi yagona jiddiy to'siq bo'lib turardi.

## **AFG'ONISTONDA HOKIMIYAT TEPASIGA "TOLIBON" DINIY EKSTREMISTIK HARAKATINING KELISHI VA UNING OQIBATLARI**

XX asr 90-yillari davomida Afg'onistonda ro'y bergan siyosiy jarayonlar, xususan, ichki siyosiy (etnik, diniy) konfliktlar natijasi-

---

<sup>99</sup> Banuazizi Ali and Myron Weiner. *The New Geopolitics of Central Asia and its Borderlands*. – Bloomington: Indiana University Press. – London: I.B. Tauris, 1994.

da oxir-oqibat hokimiyat tepasiga kelgan “Tolibon” harakati mam-lakatni yangi geosiyosiy “o‘yinlar”ning jang maydoniga aylantirib qo‘ydi. Boshqacha aytganda tashqi harbiy aralashuv uchun qulay sharoitni vujudga keltirdi.

Toliblar harakat sifatida XX asr 70-yillarining so‘nggida yuzaga kelgan edi. Dastavval toliblar deganda asosan Pokistonning push-tunlar yashaydigan hududlarida (Pokistonning Shimoli-g‘arbiy viloyati va Balujiston) joylashgan madrasalar talabalari tushunilardi. Afg‘oniston-Pokiston chegara hududlarida afg‘on qochoqlarini va mujohidlarni tayyorlash uchun maxsus madrasalar ochilgan bo‘lib, ularning aksariyati Pokiston razvedkasi tomonidan Afg‘onistondan olib kelingan pushtun millatiga mansub, ota-onasiz qolgan o‘g‘il bolalar edi. Ular Sovet-afg‘on urushida foydalanish uchun Peshovar yaqinidagi lagerlarda harbiy tayyorgarlikdan o‘tkazilib, “kofirlarga qarshi harbiy harakatlardan iborat bo‘lgan” jihadni olib borishga o‘rgatilardi. Bular yuzaga kelayotgan “Tolibon” harakatining ne-gizini tashkil qilardi<sup>100</sup>.

“Tolibon” harakatining bir qancha rahbarlari AQSH tomonidan Sovet Ittifoqiga qarshi uyushtirilgan “jihad”da ishtirok etishgan bo‘lsa-da, bu harakat mujohidlarning birlashmasi hisoblanmagan. Ular Pokistonning Shimoli-g‘arbiy chegara viloyatida afg‘on qo-choqlari lagerlarida tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lib, 1980-yillarda-gi janglarda nisbatan kam ishtirok etishgan edi. Chunki, ularning aksariyati hali yosh o‘spirinlar edi. Xususan, bu kabi talabalarning “salohiyati” va kuchidan “Afg‘oniston mujohidlarining islomiy ittifoqi” tarkibiga kiruvchi Muhammad Nabi Muhammadiy boshchiligidagi “Afg‘oniston islomiy inqilobi harakati” (AIHH) o‘ziga xos “Yoshlar qanoti”ni tashkil etib, sho‘roparast AXDP hukumatiga va sobiq Ittifoq qo‘shinlariga qarshi kurashda foydalangan edi.

“Tolibon” harakati asosan qochoqlar lagerlarida tug‘ilib, voyaga yetgan yoshlardan iborat bo‘lganligini ushbu muammo

<sup>100</sup> Pirseyedi, B. The Small Arms Problem in Central Asia: Features and Implications / United Nations Institute for Disarmament Research (UNIDIR). – Geneva, 2000/8. – P. 18–22.

bilan shug‘ullangan pokistonlik jurnalist, “Tolibon” muammosi bo‘yicha mutaxassis Ahmad Rashid quyidagicha tavsiflaydi: “Bu yigitlar men 1980-yillarda bilgan mujohidlar – o‘z qabila va urug‘i haqida batafsil hikoya qilishga qodir, tashlab kelgan xo‘jaliklari va vodiysini qo‘msab eslaydigan hamda afg‘onlar tarixidan afsona va rivoyatlar aytib bera oladigan erkaklardan o‘zgacha dunyo edi. Bu yigitlar o‘z Vatanini tinchlik vaqtida hech qachon ko‘rmaganlar, Afg‘onistonni bosqinchilarga qarshi yoki o‘z ichidagilarga qarshi urush holatidan boshqa sharoitda ko‘rmaganlar avlodidan hisoblanardi... Ular hech qanday ildizga va ishga ega bo‘lmagan, behalovat, iqtisodiy jihatdan benavo, o‘zligini zaif anglaydigan aynan urush yetimlari edi...”<sup>101</sup>.

1994-yilda “Tolibon” harakati siyosiy rahbariyati afg‘on jamiyatining an‘anaviy elitasi tarkibiga kirmaydigan yetakchilardan iborat edi. Jumladan, siyosiy rahbar – mulla Muhammad Umar Oxunzoda ilgari mujohidlarning dala qo‘mondonlaridan biri hisoblangan Nabi Muhammadiy yetakchiligidagi qarshilik harakatining oddiy a‘zosi bo‘lgan bo‘lsa, harakat asoschilaridan yana biri Abdurahmon Sovet qo‘shini afg‘on zaminiga kirib kelganda Pokistondan panohtopgan qochoqlardan biri edi. Bundan tashqari, “Tolibon” rahbarlari orasida maxfiy politsiya departamentining sobiq amaldori Muhammad Akbar, general Muhammad Jiloniylar bor edi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, afg‘on jamiyatida turli sabablarga ko‘ra barqaror aloqalarga ega bo‘lmagan kishilardan tuzilgan “Tolibon” harakati Pokistonning qo‘llab-quvvatlashi bilan Afg‘onistonda tartib o‘rnatish, uning parchalanishini bartaraf qilish va Markaziy Osiyo mintaqasiga transport yo‘lagini ochish vazifasini bajara olishi lozim edi. Bunda Pokiston tashqi siyosatining mintaqada yetakchilikni qo‘lga kiritish hisoblangan asosiy maqsadlariga sodiq bo‘lib qolishi rasmiy Islomobod uchun muhim edi<sup>102</sup>.

---

<sup>101</sup> Рашид А. Талибан. Ислам, нефть и новая Большая игра в Центральной Азии. – М.: Библион, 2003. – С. 32.

<sup>102</sup> Rashid, A. Jihad the Rise of Militant Islam in Central Asia. – London: Penguin books, 2003. – P. 215.

Faol harbiy harakatlarga kirishish davridan boshlab, “Tolibon” harakati o‘zini oddiy xalq vakillariga qilinayotgan yovuzlikni baraf etishga otlangan “diniy hushyorlik qo‘mitasi” sifatida namoyon qilib, butun afg‘on jamiyatiga mafkuraviy ta’sir ko‘rsatishga intilgan edi. “Oddiy qishloq mullalari tomonidan ularning ongiga singdirilgan, xaloskor hamda xudojo‘y islomga bo‘lgan oddiy ishonch oddiy xalq umid bog‘lashi mumkin bo‘lgan va hayotlariga qandaydir ma’no baxsh etgan yagona tayanch edi”, – deb yozgan edi tadqiqotchilardan biri oddiy toliblar haqida. “Hech narsaga tayyor bo‘lmagan, hatto ajdodlarining qishloq xo‘jaligini yuritish, chorvachilik yoki kasb-hunar singari an’anaviy mashg‘ulotlaridan ham bexabar bo‘lgan mazkur toifa kishilari Afg‘onistonning lyumpen-proletariati edi”, – deydi A.Rashid<sup>103</sup>.

Afg‘onshunos olim Martin Evene qayd etganidek: “Asosan sobiq partizanlardan hamda noprofessional talabalardan tuzilgan kuch bo‘lgan “Tolibon” harakati o‘z faoliyatining boshidan namoyish etgan mahorat va uyushqoqlik bilan harakat qilishiga aql bovar qilmaydi. Uning a‘zolari orasida, shubhasiz, afg‘on qurolli kuchlarining sobiq vakillari bo‘lsa-da, ularning hujumkor operatsiyalari tezlik va ustalik bilan olib borilganligi, shuningdek, ularning aloqa vositalaridan foydalanishlari, havodan bombali zarbalar berish va artilleriyadan aniq o‘t ochishlari shubhalidir. Bu borada ular Pokiston harbiylari oldida, yoki, hech bo‘lmasa, ularning professional madadi uchun qarzdordirlar”, – degan muqarrar xulosaga keladi.

“Tolibon” harakati o‘z faoliyatining ilk davrida dastlab Qandahorni va pushtunlar ko‘proq bo‘lgan janubiy viloyatlarini qo‘lga kiritdi. Biroq toliblar mamlakat poytaxti Kobulga hujum qilish o‘rniga, asosiy zarbani shimoli-g‘arbiy yo‘nalishga, turkman-afg‘on chegarasi tomonga qaratishdi. Bunga toliblarning Kobul ostonalarida mohir harbiy qo‘mondon Ahmad Shoh Mas‘ud armiyasining qarshiligiga duch kelganligi bahona qilib ko‘rsatiladi.

---

<sup>103</sup> Рашид А. Талибан. Ислам, нефть и новая Большая игра в Центральной Азии. – М.: Библион, 2003 – С. 32.

Lekin, toliblarning poytaxt Kobulga uyushtirgan dastlabki hujumi muvaffaqiyatsizligining boshqa sababi bor edi. U ham bo'lsa, Pokiston ko'rsatmasiga binoan toliblar Qandahor – Hirot yo'lini, ya'ni Pokistonni Markaziy Osiyo bilan bog'lashi kerak bo'lgan asosiy magistral yo'lining Afg'onistonga qarashli qismini to'liq nazorat qilish maqsadida o'z harbiy harakatlarini shimoliy-g'arbiy yo'nalishga qaratishgan edi. Qizig'i shundaki, 1994-yil yozida Turkmanistonning Kushka shahridan Pokistonning Chaman shahrigacha temir yo'l qurilishi loyihasi ma'qullangan edi. Mazkur temir yo'l shoxobchasi Hirot orqali Afg'onistonning g'arbiy viloyatlaridan o'tib Qandahorga borishi mo'ljallangan edi. Ushbu loyiha e'lon qilinishidan birmuncha vaqt o'tgandan so'ng bu yerda toliblar paydo bo'lishganligi bejiz emas edi.

Shuningdek, aynan shu davrda Turkmaniston hududidan Pokistonga qadar qariyb 1500 km ga cho'ziluvchi "transafg'on gaz quvuri"ni yotqizish rejasi ham yuzaga chiqdi. Bunday yirik loyihaning amalga oshirilishida Saudiya Arabistonining "Delta Oyl" neft kompaniyasi va AQSHning "Unocal" (United Oil of California) kompaniyasi asosiy ishtirokchilar ekanligi "Tolibon" harakatini mazkur gaz quvuri o'tadigan shimoliy-g'arbiy hududlarni imkon boricha tezroq o'z nazoratiga olishga undar edi.

1995-yilga kelib toliblar Hirot shahrini bosib oldilar va Afg'onistonning Turkmaniston bilan chegarasiga chiqdilar. Shunday qilib, 1995-yildayoq Pokistondan Markaziy Osiyo mintaqasiga transport yo'lagini ochishdan iborat geosiyosiy vazifaning birinchi bosqichi bajarildi.

1995-yilga kelib toliblar Afg'oniston markazi va shimolida nisbatan qattiq qarshilikka duch keldilar. Bunda toliblar etnik jihatdan o'zbek millatiga mansub jangchilarni birlashtirgan general Abdurashid Do'stum boshchiligidagi "Jumbush-e Melli-ye Eslo-mi-ye Afg'oneston" (Afg'oniston milliy islomiy harakati), etnik tojiklarning Burhoniddin Rabboniy va Ahmad Shoh Mas'ud boshchiligidagi "Afg'oniston Islom Jamiyati" va hazoriy shialarining Muhammad Xaliliy rahbarligidagi "Hezb-e Vahdat" (Afg'oniston



islom birligi partiyasi) kabi siyosiy tashkilotlar qarshiligiga uchrab, Afg‘oniston ichkarisiga kirib borishni vaqtincha to‘xtatdi.

Shu tariqa, 90-yillar o‘rtalariga kelib, Afg‘oniston quyidagi tartibda parokanda holga keltirilgan edi. “Tolibon” harakati – mamlakatning janubiy, janubi-g‘arbiy hamda shimoliy-g‘arbiy viloyatlarini, shu jumladan Qandahor va Hirot shaharlarini, hazoriy shialari – tog‘li Hazorajotdagi Bomiyon viloyatini, general A.Do‘stum – mamlakat shimolidagi olti viloyatni, B.Rabboniyning “Afg‘oniston islomiy hukumati” – mamlakat poytaxti Kobulni va Tojikistonga yondosh shimoli-sharqiy viloyatlarni nazorat qilar edi. Bundan tashqari, toliblarga muxolifatda bo‘lgan pushtun jan-gari qo‘mondonlari Afg‘oniston janubidagi yirik Jalolobod shahrini egallab turishardi.

1996-yil 26-sentabrda Kobul qo‘lga kiritilgach esa, toliblar xalqaro huquq shartlariga zid ravishda Kobuldagi BMT vakolat-xonasiga bostirib kirdilar hamda u yerdan panohtopgan mamlakatning sobiq prezidenti Najibulloni qiynab o‘ldirdilar va uning jasadini namoyishkorona qilib poytaxt markazida osib qo‘ydilar.

## **AFG‘ONISTONNING XALQARO TERRORISTIK VA EKSTREMISTIK GURUHLAR PANOHTOPGAN HUDUDGA AYLANISHI**

Poytaxt Kobul egallangach, Afg‘onistonda yana qaltis vaziyat yuzaga keldi. Toliblarga butun Afg‘oniston hududini nazoratga olishi uchun qo‘shimcha resurslar talab qilinardi. Pokiston esa, Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatni buzmaslik uchun, toliblarga hal qiluvchi ustunlikka erishishda ko‘maklashmoqchi emasdi. Pokiston yordam berishni to‘xtatganligi bois, “Tolibon” rahbarlari boshqa moliyalashtirish manbayini izlay boshlashdi. O‘shanda “Tolibon” harakati yangi daromad manbayi sifatida narkobiznesni yo‘lga qo‘ydi.

Jumladan, 90-yillar o‘rtalarida Afg‘oniston ko‘knori yetishtiruvchi va jahon bozoriga qoradori (afyun) va heroin yetkazib beruvchi

asosiy mintaqa bo‘lib qoldi. Giyohvand moddalarni ishlab chiqaruvchilar va tashuvchilar daromadining 30–35 foizi “Tolibon” harakati budjetiga kelib tushardi. Aynan shu mablag‘ Afg‘oniston ichidagi muxolifat bilan kurashni moliyalashtirish va xalqaro terrorchilik harakatini kengaytirishning asosiy daromad manbai bo‘lib qoldi.

90-yillar ikkinchi yarmida Afg‘onistonda juda chigal vaziyat hukm surib turgan bir vaqtda, afg‘on sahnasining asosiy ishtirokchilaridan biri sifatida Usoma bin Laden paydo bo‘ldi. U yaratgan “Al-Qoida” xalqaro terrorchilik tashkiloti tarmog‘i bu paytga kelib barcha rivojlangan mamlakatlardagi jinoiy, terrorchi va separatchi guruhlar bilan barqaror aloqa o‘rnatgan edi. Toliblar “Al-Qoida” misolida heroin tayyorlanadigan va uni iste‘mol qiladigan geografik jihatdan tarqoq hududlarni tutashtiruvchi ko‘prik bo‘lish imkoniga ega bo‘ldi va giyohvand moddalar savdosi “Tolibon” harakati uchun o‘z faoliyatini moliyalashtirishning ishonchli manbayiga aylandi.

1997-yil iyunida A.Mas‘ud, A.Do‘stum va A.Xaliliy yetakchiligidagi kuchlar ishtirokida toliblarga qarshi **“Afg‘onistonni qutqarish bo‘yicha birlashgan islomiy ittifoq”** (Jabha-ye Muttahid-e Eslomi baroye Nejat-e Afg‘oniston) yoki ilmiy manbalarda “Shimoliy Alyans” deb ataluvchi ittifoq tuzildi. Biroq, ushbu ittifoq ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro ishonchning yo‘qligi bois, ular umumiy dushmanga qarshi o‘z harakatlarini birlashtira olmadilar va natijada 1998-yil oxiriga kelib A.Do‘stum qo‘l ostidagi shimoliy hududlar, A.Xaliliy nazoratidagi hazoriylar istiqomat qiladigan Bomiyon hududi toliblar qo‘liga o‘tdi<sup>104</sup>. Shunday qilib, shimolga yurish oldidan “Tolibon” kuchlari mamlakatning 75% hududini nazorat qilib turgan bo‘lsa, shimoliy hududlar zabt etilgach Afg‘onistonning 90% hududi ularning qo‘l ostiga o‘tdi<sup>105</sup>. Garchi toliblar mamlakat shimolini egallagan bo‘lsalar ham, bu yerdagi qarshilik harakatini butunlay bostira olmadilar.

---

<sup>104</sup> Saikal, A. *Modern Afghanistan. A History of Struggle and Survival*. – New York: I.B.Tauris, 2004. – P. 229.

<sup>105</sup> Runion, M.L. *The History of Afghanistan*. – London: Greenwood Press, 2007. – P. 123.

Shu tariqa, 1998-yilga kelib toliblar mamlakatning markaziy va shimoliy viloyatlarida nazorat oʻrnatdi hamda 1999-yil boshiga kelib “Tolibon” harakati Afgʻoniston hududining deyarli 90 foizini, shu jumladan, aholisining koʻpchiligi oʻzbeklar va hazoriylar boʻlgan viloyatlarni ham oʻz nazorati ostiga oldi. Jahon hamjamiyati esa Afgʻoniston Islom Davlati Prezidenti B.Rabboniy boshchiligidagi hukumatni hamon Afgʻonistondagi birdan-bir qonuniy hukumat deb tan olar edi. BMT doirasidagi yigʻilishlarda ham Rabboniy hukumatidan doimiy vakil ishtirok etar edi.

“Tolibon” harakati Afgʻonistonni musulmon qonunlari va shariat ahkamlari orqali boshqardi. 1997-yil oktabr oyida mamlakat rasmiy nomi oʻzgartirildi va “Afgʻoniston Islom Amirligi” deb eʼlon qilindi va uni faqat 3 ta davlat – yaʼni Pokiston, Saudiya Arabistoni va Quvayt tan oldi, xolos. Toliblar yetakchisi mulla Muhammad Umar esa “Amir” – “moʻmin-musulmonlar yetakchisi”, “musulmonlarga amr etuvchi” deb eʼlon qilindi.

Toliblar oʻz boshqaruvi davrida Afgʻonistonni keng koʻlamdagi gumanitar halokat jari yoqasiga olib kelib qoʻyishdi va aholining uchdan bir qismi mamlakatni tark etdi. Afgʻoniston giyohvand moddalar ishlab chiqaradigan yirik hududga hamda xalqaro terrorizmni qoʻllab-quvvatlovchi markazga aylanib qoldi. Mamlakatda Usoma bin Laden yetakchiligidagi “Al-Qoida” xalqaro terroristik tashkilotining hech bir qarshiliksiz faoliyat yuritishiga izn berish bilan bir qatorda toliblar uygʻur separatchilaridan iborat “Sharqiy Turkiston islom harakati” aʼzolari hamda chechen jangarilari ham yaqin aloqada boʻlishdi.

“Tolibon” harakati oʻzining 1994-yildan to 2001-yilgacha boʻlgan yetti yillik hukmronligi davrida Afgʻonistonni siyosiy va iqtisodiy boshboshdoqlik girdobiga tortib, ochlik hamda kasallik iskanjasida qoldirdi. Ularning eng katta xatosi XXI asr boshida mamlakatni oʻz siyosiy amallari orqali “Xulaf-o-ye Roshidin” davriga qaytarish, “asl” islom hukmron boʻlgan davlat tuzish edi. Toliblarning bu harakatlari jahon hamjamiyatining nafratini uygʻotdi.

Sovet armiyasi Afg‘onistondan olib chiqib ketilgach, Usoma bin Laden yangi tashkilot tuzib, uni “Al-Qoida” deb nomladi. “Al-Qoida” yollanma jangarilar, qotillar va terrorchilardan iborat o‘ziga xos tashkilot bo‘lib, Usoma bin Ladenning har qanday topshirig‘ini zudlik bilan amalga oshiruvchi hamda dunyoning ko‘pgina beqaror hududlarida joylashib olgan xalqaro tarmoqqa aylandi. “Al-Qoida”ga birikkan terrorchilar endi o‘z homiysi, ya‘ni Sovet-afg‘on urushida ulardan foydalangan AQSHga qarshi kurasha boshladilar. Bu borada Usoma bin Laden o‘z tarafdorlarini g‘oyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida “diniy fatvo” – muayyan bir diniy yetakchi tomonidan oddiy musulmonlarga u yoki bu harakatni amalga oshirishga da‘vat etuvchi va izn beruvchi o‘ziga xos ruxsatnomalar chiqargan edi. Jumladan, 1996-yilda Usoma bin Laden tomonidan chiqarilgan dastlabki fatvoda “musulmonlarning ikki muqaddas yerlarini egallab olgan amerikaliklarga qarshi urush ochish to‘g‘risida” bo‘lsa, yana biri 1998-yilda chiqarilgan bo‘lib, unda AQSH hukumati Isroil davlatini qo‘llab-quvvatlagani bois, dunyo bo‘ylab amerikaliklarni o‘ldirishga fatvo bergan edi. 1998-yilda Keniya va Tanzaniyada “Al-Qoida” tashkiloti tomonidan AQSH elchixonalari portlatib yuborildi va shundan so‘ng ushbu tashkilot dunyodagi 1-raqamli terrorchi tashkilot deb e‘lon qilindi.

2001-yil 11-sentabrda “Al-Qoida” kamikadzelari Nyu-Yorkdagi osmono‘par egizak binolar – Jahon savdo markazini “Boing” samolyotlari vositasida kunpayakun etishganida butun dunyo hamjamiyati ularning naqadar yovuz kuchga aylanganligiga guvoh bo‘ldi. 2001-yil 11-sentabrdagi terroristik hujumni amalga oshirgan terrorchilar (jami 19 nafar) “Al-Qoida” xalqaro terroristik tashkilotiga taalluqli edilar va ushbu ekstremistlar guruhi, begunoh insonlarni o‘ldirishni oqlash uchun, dunyodagi eng buyuk dinlardan biri – Islom dinini bulg‘ab, buzib ko‘rsatishdi. O‘zining terrorchilik faoliyati davomida Usoma bin Laden o‘z tarafdorlari va barcha

musulmonlarni AQSHga qarshi “muqaddas urush” (jihod) ochishga bir necha bor da’vat qilib kelgan.

Afg‘oniston mazkur yirik terrorchilik harakatini sodir etgan tashkilotga boshpana bergan hudud sifatida tarixda qoldi. “Al-Qoida”ning asosiy operatsiyalari Afg‘onistonda amalga oshirildi va Afg‘oniston mazkur terrorchi tashkilot uchun o‘ziga xos tayyorgarlik bazasi vazifasini o‘tadi. “Al-Qoida” terrorchilari o‘zlarining yovuz maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida Afg‘oniston hududidan bemaol foydalandilar va ularga “Tolibon” harakatining pano h berganligi Afg‘onistondagi toliblar hukumatining xalqaro terrorchi hamda ekstremistlar bilan hammaslak ekanligini butun dunyo hamjamiyatiga namoyon qildi. 2001-yil 11-sentabrda AQSHda sodir etilgan terroristik xurujlar Afg‘oniston va butun jahon siyosatini tubdan o‘zgartirib yubordi. Ushbu fojiali voqealar Usoma bin Laden va uning “Al-Qoida” xalqaro terroristik tashkiloti nazdidagi xalqaro terrorism nafaqat AQSHga, balki butun g‘arbg a tahdid solishi mumkinligini ko‘rsatib berdi. Biroq, bu voqealarning eng jiddiy oqibatlar i Afg‘onistonda mana 15 yildan buyon davom etayotgan yirik harbiy kampaniyaning boshlanishiga olib keldi.

2001-yilning 11-sentabridagi fojiali voqealarni tashkil etgan va amalga oshirgan “Al-Qoida” terrorchilik tarmog‘ining Afg‘onistondan pano h topganligi voqealarning boshqacha rivojlanishiga va Yevroosiyo qit‘asida katta geosiyosiy o‘zgarishlar ro‘y berishiga olib keldi.

2001-yilning 7-oktabrida AQSH va uning ittifoqchilari tomonidan “Al-Qoida” terrorchilik tarmog‘ining Afg‘onistondagi harbiy-kommunikatsion nuqtalarini yo‘q qilish va mazkur tashkilotga pano h bergan “Tolibon” hukumatiga barham berishga qaratilgan keng ko‘lamli kontrterror operatsiyasi boshlandi. Amerika armiyasi toliblarning asosiy kuchlariga sezilarli darajada zarba berish bilan bir vaqtda toliblarga qarshi bir necha yildan beri mardonavor kurashib kelayotgan “Afg‘onistonni qutqarish bo‘yicha birlashgan islomiy ittifoq” (Shimoliy Alyans)ga ham tegishli yordam ko‘rsatdi.

Achinarlisi shunda ediki, xalqaro hamjamiyat tomonidan Afg'onistonda mazkur operatsiyani boshlash oldidan Shimoliy Alyans saflari jiddiy yo'qotishga uchradi. 2001-yilning 9-sentabr kuni Usoma bin Laden tomonidan uyushtirilgan suiqasd oqibatida Shimoliy Alyansning mashhur yetakchisi Ahmadshoh Mas'ud halok bo'ldi. "Al-Qoida" tashkilotining ikki nafar terrorchisi arab telekanalining muxbirlari niqobida A.Mas'uddan intervyu olish maqsadida Shimoliy Alyans qarorgohiga yetib kelishadi va ularning qo'l ostidagi telekamerada joylashtirilgan portlovchi moslamaning portlashi natijasida taniqli qo'mondon halok bo'ldi.

Usoma bin Laden 2001-yilning 11-sentabrida AQSHda terrorchilik harakatlarini rejalashtirar ekan, mazkur harakatlar sodir etilgach, o'z tashkilotiga qarshi va unga panoj bergan "Tolibon" hukumatiga qarshi AQSH tomonidan tegishli harbiy operatsiya o'tkazilishini oldindan ko'ra olgan edi. AQSH tomonidan bunday operatsiya o'tkazilsa, "Al-Qoida"ning ham, "Tolibon" hukumatining ham Afg'onistondagi harbiy qudrati sindirilishi hamda ularning hukmronligiga barham berilishi va natijada Afg'oniston siyosiy sahnasiga yana Shimoliy Alyansning chiqishini anglagan Usoma bin Laden Ahmadshoh Mas'udni bartaraf qilish orqali uni kelgusida barpo etiladigan yangi afg'on davlatida yetakchi shaxsga aylanishini oldini olish va Shimoliy Alyansning parchalanib ketishiga erishishni mo'ljallagan edi.

2001-yilning 7-oktabrida Afg'onistonda AQSH yetakchiligida boshlangan aksiterror operatsiyasi davomida "Tolibon" kuchlariga havodan zarba berilib, ularning harbiy infratuzilmasiga jiddiy shikast yetkazildi<sup>106</sup>. Ammo, shunday bo'lsa-da, toliblarning 40000–50000 kishilik va "Al-Qoida" xalqaro terroristik guruhining esa 5000 kishilik piyoda jangarilardan iborat asosiy kuchlari mamlakatning yirik shaharlarini o'z nazoratida ushlab turar edi. Toliblarning ushbu kuchlariga zarba berishda 15000 kishilik harbiylardan iborat

---

<sup>106</sup> Tanner, S. Afghanistan. A Military History from Alexander the Great to the Fall of the Taliban. – Cambridge (Massachusetts): Da Capo Press, 2003. – P. 295.

“Shimoliy alyans” tarkibiga kiruvchi Muhammad Qosim Fahim<sup>107</sup>, Ismoilxon, A.Do‘stum va A.Xaliliy yetakchiligidagi kuchlar katta rol o‘ynadi<sup>108</sup>. “Shimoliy alyans” harbiy kuchlari harakati natijasida 9-noyabrda Mozori Sharif, 12-noyabrda Hirot, 13-noyabrda Kobul, 15-noyabrda Jalolobod shaharlari<sup>109</sup> va nihoyat 9-dekabrda Qandahor shahri toliblardan ozod qilindi va natijada “Tolibon” boshqaruviga barham berildi<sup>110</sup>.

## **AFG‘ONISTONDA YANGI HUKUMATNING SHAKLLANTIRILISHI**

Afg‘onistonda AQSH yetakchiligidagi olib borilgan aksiterror operatsiyasini amalga oshirish va “Al-Qoida” terroristik guruhi infratuzilmasi hamda “Tolibon” boshqaruviga barham berish bilangina afg‘on zaminida butkul tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish mumkin emas edi.

Shu sababli Afg‘onistonda urushdan keyingi hayotni yo‘lga qo‘yish va buning uchun birinchi navbatda hokimiyat tuzilmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylandi. Bu jarayonlarga BMT faol kirishib, 2001-yilning 27-noyabr – 4-dekabr kunlari uning shafe‘ligida Bonn shahrida “Afg‘oniston bo‘yicha muzokaralar” (Talks on Afghanistan) mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. Unda quyidagi to‘rtta delegatsiya ishtirok etdi:

- Pokistondagi afg‘on muhojirlari nomidan “Peshovar guruhi”;
- Eron tomonidan qo‘llab-quvvatlanuvchi hazoriylar va shia

---

<sup>107</sup> 2001 йил 9 сентябрда “Шимолий альянс” ҳарбий кучларининг етакчиси Аҳмадшоҳ Масъуд Усома бин Ладен томонидан уюштирилган суиқасд натижасида ҳалок бўлгач, “Шимолий альянс” ҳарбий кучларига раҳбарлик қилиш А.Масъуднинг ўринбосари генерал (кейинчалик маршал) Муҳаммад Қосим Фаҳим (1956–2014)га ўтди.

<sup>108</sup> Rasanayagam, A. Afghanistan. A Modern History. – London & New York: I.B. Tauris, 2002. – P. 252–253.

<sup>109</sup> Ўша манба. – Б. 254.

<sup>110</sup> Peabody, L.B. Afghanistan Security. – New York: Nova Science Publishers, Inc. 2009. – P. 55.

oqimiga e'tiqod qiluvchi afg'on aholisi vakillaridan tashkil topgan "Kipr guruhi";

– Zohirshoh rahbarligidagi "Rim guruhi";

– Shimoliy Alyans delegatsiyasi (Muhammad Yunus Qonuniy yetakchiligida)<sup>111</sup>.

Bonn konferensiyasi davomida ham bir necha yillik etnik qarama-qarshiliklarning namoyon bo'lishiga qaramay, xalqaro kuzatuvchilarning, birinchi navbatda AQSHning tazyiqi ostida yuqorida nomlari tilga olingan to'rt delegatsiya vakillari 6 oylik vakolat muddati bilan o'tish davri hukumati va Luye Jirge ishini tashkil etish uchun 21 kishidan iborat hay'at tuzishga kelishib olishdi. Bundan tashqari pushtun qabilalari yetakchilaridan biri, 44 yoshli Hamid Karzay muvaqqat hukumat rahbari etib tayinlandi. H.Karzay durroniy qabilasining Muhammadzoy urug'idan bo'lib, Qandahorda tug'ilgan, boshlang'ich ma'lumotni Qobulda, oliy ma'lumotni Hindistonning Simla shahrida olgan. Mutaxassisligi bo'yicha siyosatshunos, dariy va pushtu tillari bilan bir qatorda ingliz tilini ham biladi.

H.Karzay o'zining siyosiy karyerasini Pokistondagi muhojirlik hayoti jarayonida, 1985-yilda mujohidlarga tegishli bo'lgan Afg'onistonni qutqarish Milliy fronti axborot departamenti boshlig'i sifatida boshladi. 1992–1994-yillarda Sovet qo'shinlari Afg'onistondan olib chiqib ketilgandan keyin tuzilgan hukumatlarning birida Tashqi ishlar vazirining o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritdi. "Tolibon" harakatining ilk shakllanish davrida toliblar unga ishonch bildirishdi va H.Karzayga hatto o'zlarining BMTdagi vakili lavozimini taklif etishdi. Biroq, H.Karzay toliblarning ushbu taklifini rad etib, bir necha yil AQSHda yashadi.

2001-yil 22-dekabridan boshlab H.Karzay rahbarligidagi Muvaqqat organ Afg'onistonda toliblar hukumatidan keyingi davrda davlat boshqaruvi bo'yicha mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi

---

<sup>111</sup> Rashidov R. Afg'onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. Monografiya. – T.: Navro'z, 2017. – B. 67.



va Muvaqqat hukumat deb ataluvchi ushbu organ Afg'onistonda davlatga tegishli barcha funksiyalarni amalga oshirib keldi<sup>112</sup>.

Shu tariqa, 2001-yilning oktabrida Afg'onistonda AQSH boshchiligidagi aksiterror koalitsiyasi tomonidan amalga oshirilgan aksiterror operatsiyasi natijasida "Tolibon" hukumatiga barham berildi va ko'pchilikning manfaatlarini ifoda etuvchi yangi hukumat tuzildi. Ushbu operatsiyaning amalga oshirilishi Afg'onistonda bir necha yildan buyon davom etib kelayotgan urush va mojarolarning chek qo'yilishining hamda qariyb vayron bo'lgan mamlakatni qayta tiklashning boshlanishiga, umuman olganda yangi ko'rinishdagi davlatchilikning shakllanishiga turtki berdi. Ammo, birgina "Tolibon" hukumatining ag'darilishi bilan afg'on zaminida necha vaqtlardan buyon davom etib kelayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va milliy-etnik muammolar o'z yechimini topadi degan ma'noni anglatmas edi. Bunday o'tkir muammolarni yechish hamda mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida yangi afg'on davlatchiligini shakllantirish jarayonlari boshlandi.

"Afg'oniston poytaxti Kobulga Shimoliy ittifoq harbiy kuchlarining kirib borishi bilan xuddiki Afg'onistonda jangovar harakatlar nihoyasiga yetkazildi, mana endi qonuniy afg'on hukumati Kobulda o'z faoliyatini boshladi, shu bilan afg'on fojiasiga yakun yasashga zamin tug'ildi, deb faraz qilish, o'ylaymanki, bu ham o'ta xomxayol bo'lur edi"<sup>113</sup>. Ha, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, Afg'onistonda terroristlarga panoh bergan "Tolibon" hukumatiga barham berish va uning o'rniga ko'pchilikning manfaatlarini ifoda etuvchi yangi hukumatni shakllantirish bilangina afg'on jamiyatining bir necha yillik urush davomida yig'ilib kelayotgan muammolarini hal qilish mumkin emas edi. Iqtisodiy

---

<sup>112</sup> Каранг: Совет Безопасности ООН. Декларации и соглашения по Афганистану / Боннское соглашение о временных механизмах в Афганистане до восстановления постоянно действующих правительственных институтов от 5 декабря 2001 года. <http://www.un.org/ru/documents/ods.asp?m=S/2001/1154>

<sup>113</sup> Каримов И.А. Асарлар тўплами. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 138.

qoloqlik va xalqning qashshoqlashuvi har qanday yovuz illatlarning ildizi ekanligini hisobga olgan Xalqaro Hamjamiyat markazlashgan hokimiyatning faoliyat yuritishi va davlat xavfsizligini ta'minlovchi organlarni shakllantirishda, mamlakat xo'jaligining barcha sohalarini qayta tiklashda, shuningdek, xalq ahvolini yaxshilash va uni qashshoqlik botqog'idan qutqarish kabi masalalarni hal etishda, ya'ni Afg'onistonni butunlay qayta tiklashda o'tish hukumatiga har tomonlama yordam berishni va unda bevosita ishtirok etishni o'z zimmasiga oldi, toki afg'on zamini yana boshqa bir yovuzlik va illatlarning makoniga aylanmasin.

Afg'onistondagi barcha etnik va siyosiy guruhlar, shu jumladan siyosiy partiyalar vakillaridan iborat hukumat tuzish va ushbu hukumat ta'sirini butun mamlakat bo'ylab o'rnatish, xavfsizlik va ichki barqarorlikni ta'minlovchi (armiya va politsiya) tuzilmalarni shakllantirish, shuningdek, bir necha yillik urush davomida ixtiyorida ko'p miqdordagi harbiy qurol-aslaha yig'ilib qolgan dala qo'mondonlari va jangchilarni qurolsizlantirish hamda davlatchilikning huquqiy poydevori bo'lmish qonunchilik tizimini yaratish kabi masalalar 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin ilk bora shakllantirilgan o'tish hukumati oldida turgan muhim vazifalar edi. Bu borada quyida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bildirgan fikrlarini keltirish o'rinli bo'lar edi.

“Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining 2001-yil 15-noyabrda qabul qilgan rezolyutsiyasida<sup>114</sup> Afg'onistonning yangi, vaqtinchalik ma'muriyati va bo'lajak hukumati keng koalitsion asosda tuzilishi, ya'ni uning tarkibida afg'on diyorida istiqomat qilayotgan barcha hududiy, etnik va diniy guruhlarning vakillari bo'lishi, bu hukumat qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarda tinchlik va yaxshi qo'shnichilik tamoyillariga amal qilishi va xalqaro normalarga itoat qilib yashashi lozimligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Lo'nda qilib aytganda, nafaqat Afg'oniston

---

<sup>114</sup> Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Хавфсизлик Кенгашининг 2001-йил 15-ноябрдаги 1378-сонли резолюцияси. <http://www.un.org/russian/documen/scresol/res2001/res1378.htm>

atrofida joylashgan qo'shni davlatlar uchun, o'ylaymanki, ongli hayot kechirayotgan barcha xalqlar uchun tinch-totuv yashaydigan, betaraf bo'lgan va barqaror rivojlanish yo'lidan boradigan yangi Afg'oniston kerak"<sup>115</sup>.

2002-yil 11–19-iyun kunlari Kobulda Butunafg'on oqsoqollarining katta yig'ini – Luye Jirge ish olib bordi<sup>116</sup>. Oqsoqollar yig'inining asosiy vazifasi mamlakatning keyingi ikki yil davomidagi rivojlanish yo'nalishini belgilab berish edi.

Luye Jirge ishtirokchilari orasida XX asrning 70-yillaridan boshlab Afg'onistonning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol qatnashgan turli guruh vakillarini uchratish mumkin edi. Ushbu anjumanda ishtirok etgan jami 1450 nafar delegatdan 1051 nafari 2002-yil aprel–may oylarida 381 ta saylov okrugida xalq tomonidan saylangan bo'lsa, 163 ta joyni xotin-qizlar egallashdi, 100 ta o'rin qochoqlarga va 6 ta o'rin ichki migrantlarga ajratildi, qolgan o'rinlar esa hukumat vakillari hamda yuqori martabali shaxslar tomonidan egallandi.

Bir qancha bahs-munozaralardan so'ng Muvaqqat hukumat o'rniga 2004-yil o'tkazilishi mo'ljallangan prezidentlik saylovlariga qadar faoliyat yuritadigan o'tish hukumatini tuzish hamda 18 oylik vakolat muddatiga ega Afg'oniston Islomiy O'tish Davlati (AIO'D) Prezidenti lavozimini joriy etish bo'yicha bir to'xtamga kelindi. Prezident hamda o'tish hukumati rahbari etib Muvaqqat hukumat boshlig'i H.Karzay saylandi va unga qonun kuchiga ega normativ-huquqiy hujjatlar chiqarish huquqi berildi.

Afg'onistonda yangi davlatchilikning shakllanish jarayonlarida davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlarida aks etuvchi hamda g'arb siyosiy tizimiga xos qadriyatlarning afg'on jamiyatida mavjud an'anaviy siyosiy qarashlar va normalar bilan uyg'unlashuvi

<sup>115</sup> Каримов И.А. Асарлар тўплами. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. 10-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 141.

<sup>116</sup> Fange, A. The Emergency Loya Jirga / Snapshots of an Intervention. The Unlearned Lessons of Afghanistan's Decade of Assistance (2001–11). Martine van Bijlert and Sari Kouvo (editors). – Kabul: Afghanistan Analysts Network (AAN), 2012. – P. 14–17.

ko'zga tashlanmoqda va bunday holat o'z navbatida yangi afg'on davlatining keyingi rivojlanish yo'li hamda tendensiyalarini belgilab berishi mumkin.

## **AFG'ONISTON ISLOM RESPUBLIKASIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR**

Afg'onistonda konfliktidan keyingi davrda qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida samarali huquq tizimining shakllantirilishi dolzarb masalaga aylandi. Bu borada demokratik tamoyillar hamda islom dini normalari asosida mamlakat yangi Konstitutsiyasining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Afg'oniston konstitutsiyaviy islohotlar doirasida o'ziga xos tajribaga egadir. Jumladan, mamlakatda birinchi konstitutsiya 1923-yilda qabul qilingan bo'lsa, ikkinchisi 1931-yilda, uchinchisi 1964-yilda, to'rtinchisi 1977-yilda va beshinchisi 1987-yilda qabul qilingan edi.

Ma'lumki, mujohidlar hukmronligi davrida mamlakatda Konstitutsiya yo'q edi. Mujohidlar o'z boshqaruvida islom dini an'analari va shariat ahkomlarini asos qilib olgan edilar.

Afg'onistonda hokimiyat tepasiga toliblar kelganda, dastlab Konstitutsiya qabul qilish bo'yicha rejalar mavjud bo'lgan. Bu borada toliblarga, hatto, bir qator ko'zga ko'ringan pokistonlik dindorlar ham o'z takliflarini berishgan edi. Lekin, keyinchalik "Tolibon" harakati Afg'oniston Islom Amirligi qonunchilik asosini shariat qoidalari tashkil etishini, shuning uchun ular biror-bir konstitutsiyaga muhtoj emasliklarini ma'lum qilishdi.

2001-yil so'nggida Afg'onistonda "Tolibon" hukumati bartaraf etilgach, mamlakatning tarixda mavjud bo'lgan konstitutsiyalari orasida eng liberal va demokratik xarakterga egaligi bilan ajralib turuvchi 1964-yilgi konstitutsiya yangi konstitutsiya qabul qilinguniga qadar vaqtincha amalda bo'lib turdi.

2001-yil dekabr oyi oxiridan boshlab o'z faoliyatini boshlagan H.Karzay yetakchiligidagi muvaqqat hukumat ham aynan ush-

bu konstitutsiya normalariga tayangan holda ish yuritdi. Biroq, H.Karzayning muvaqqat hukumati o'z faoliyatida 1964-yilgi konstitutsiyada belgilab qo'yilgan monarxiya davlat boshqaruvi shaklini o'zida aks ettiruvchi normalarini istisno etgan holda foydalanib keldi.

2002-yilning iyun oyida tashkil etilgan Afg'onistonning o'tish hukumati oldiga yangi Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish va uni qabul qilish vazifasi qo'yildi. Mazkur majburiyat 2001-yil 5-dekabrda Bonn kelishuvida o'z aksini topgan "afg'on xalqining ijtimoiy adolatlilik, plyuralizm, demokratiya va islom tamoyillariga asoslanuvchi o'z siyosiy taqdirini o'zi erkin hal qilish huquqi"ni amalda namoyon bo'lishini ko'zda tutar edi.

2003-yil dekabr oyining o'rtalaridan 2004-yilning yanvar oyi boshlariga qadar Kobulda ish olib borgan navbatdagi Luye Jirgeda Konstitutsiyani ishlab chiqish komissiyasi tomonidan yaratilgan hamda xalq muhokamasidan o'tkazilgan Afg'oniston tarixidagi yangi Konstitutsiya qabul qilindi.

Yangi Konstitutsiyani ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida quyidagi to'rtta asosiy muammo – davlat tuzilish shakli (unitar yoki federativ), davlat boshqaruv shakli (monarxiya yoki respublika), jamiyat hayotida islomning o'rni va ahamiyati hamda ayollar huquqi masalalari doirasida kelishmovchiliklar yuzaga keldi.

Yangi Konstitutsiya loyihasining muhokamasi jarayonida xalqaro ekspertlar va xalqaro tashkilotlar kuzatuvchilari tomonidan ko'plab ijobiy va salbiy fikr hamda mulohazalar bildirildi. Shuningdek, Afg'onistondagi yetakchi siyosiy kuchlar yangi konstitutsiya loyihasini tanqid qilib, Asosiy Qonun inson huquqlarining tengligini ta'minlab bera olmasligini ta'kidlab o'tishgan edi.

Konstitutsiyaviy komissiyaning oldida turgan eng o'tkir muammolardan biri bu Afg'onistonning davlat boshqaruv shakli borasidagi masala edi. Afg'oniston kelgusida respublika yoki monarxiya shaklidagi davlat sifatida mavjud bo'lishi masalasi qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi hamda ko'pchilik ekspertlar va mamlakatdagi siyosiy kuchlar monarxiya shaklidagi

davlat boshqaruv shaklini ilgari surishiga qaramasdan, H.Karzay rahbarligidagi o'tish hukumati tashqi kuchlar da'vati bilan mamlakatda G'arb madaniyatiga xos bo'lgan, afg'on xalqining urf-odatları va madaniyatiga umuman to'g'ri kelmaydigan o'ta markazlashgan, mutlaqo ko'p vakolatlarni o'z qo'lida to'plovchi prezidentlik respublikasini joriy etish tarafdori edi.

H.Karzay qat'iy shartlarni qo'yib, agar Konstitutsiyada davlat boshqaruvining prezidentlik shakli qayd etilmasa, 2004-yilgi prezidentlik saylovlarida o'z nomzodini qo'ymasligini e'lon qildi.

Afg'onistonda kuchli prezidentlik boshqaruvini joriy etish g'oyasi tarafdorları mazkur davlat boshqaruvi shakli mamlakatda kelgusida milliy birlikka erishish yo'lida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha muammo va to'siqlarning hal etilishida samarali mexanizm bo'lishligini ta'kidlab o'tishdi.

Konstitutsiya qabul qilinishi arafasida afg'on aholisining ko'pchilik qismi Afg'onistonda prezidentlik respublikasi boshqaruvining joriy etilishi tarafdori edi. Lekin, mamlakat aholisining yana bir qismi yangi shakllanayotgan hokimiyat tizimida davlat boshqaruvining parlamentar respublika shaklini ham ma'qulladi.

Afg'onistonda davlat boshqaruvining parlamentar respublika shaklini ma'qullovchi aholi asosan, Afg'onistonning shimolidagi tojiklar, o'zbeklar, hazoriylar va turkmanlardan iborat bo'lgan etnik kamchiliklarning vakillari bo'lib, ular davlat boshqaruvining prezidentlik shakliga e'tiroz bildirishib, hududlarning avtonomligi, parlamentda keng vakillikning mavjud bo'lishi va o'z tillarida ta'lim olish kabi normalar yangi Konstitutsiyada o'z aksini topishini talab qilishdi.

Afg'onistonda parlamentar davlat boshqaruv shaklini joriy etish g'oyasining tarafdori Afg'oniston Islom Jamiyati (AIJ) yetakchisi, ilohiyot professori B.Rabboniy edi. AIJ a'zosi Sayyid Inoyatulla Shadab juda ko'p vakolatga ega prezidentlik davlat boshqaruvi shakli "mamlakat uchun xavfli" ekanligi haqida fikr bildirdi. Afg'oniston Islom Jamiyatining bir qator yetakchi siyosatchilari ham "mamlakatdagi mavjud sharoitda bir shaxsga shunchalik ko'p

vakolat berilishi diktaturaga olib kelishi mumkin”ligini ta’kidlab o’tishdi. AIJ faoli, mamlakatning sobiq mudofaa vaziri marshal Muhammad Qosim Fahim ham shunday fikrda edi.

Konstitutsiyada prezidentning davlat boshqaruvida mutloq vakolatlarni egallashi ko’zda tutilayotganligi Afg’onistondagi boshqa bir qator siyosatchilar tomonidan ham mamlakat kelajagi uchun tahdid sifatida baholandi va ular mavjud sharoitda hokimiyat bitta kuchli etnos vakili qo’lida to’planishi ehtimolini yuzaga keltirishidan xavotirda ekanliklarini ma’lum qilishdi. Ba’zi siyosatchilar mamlakatda prezident bilan hokimiyatni bo’lishgan holda boshqarishi lozim bo’lgan hamda shu orqali davlat boshqaruvida kuchlar muvozanatini ta’minlashi mumkin bo’lgan Bosh vazir lavozimining joriy etilishini ham talab qilishdi.

Konstitutsiya loyihasida Afg’onistonning yangidan barpo etilayotgan siyosiy tizimida islom dinining o’rni va ahamiyati masalasi ham keskin muhokamalarga sabab bo’ldi. Loyihada (2-modda) islom “Afg’oniston dini” sifatida belgilab qo’yildi. Bundan tashqari, “biror-bir qonun muqaddas islom diniga zid kelishi mumkin emas”ligi qat’iy ko’rsatib qo’yildi. So’ngra, ushbu normalar bir ovozdan qo’llab-quvvatlandi va Konstitutsiyada o’z aksini topdi.

Umuman olganda, 2004-yil 4-yanvarda uzoq tortishuv va bahslardan so’ng Afg’onistonning yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya 162 moddadan iborat bo’lib, unga ko’ra davlatning rasmiy nomi **Afg’oniston Islom Respublikasi (AIR)** deb yuritiladigan bo’ldi.

Konstitutsiyaga muvofiq mamlakat prezidentlik boshqaruvi shaklidagi respublika hisoblanadi. Oliy ijro hokimiyati prezident qo’lida bo’lib, u fuqarolar tomonidan umumiy, teng va to’g’ridan to’g’ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo’li bilan 5 yil muddatga saylanadi. Konstitutsiyaga muvofiq, ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq mamlakat prezidenti etib saylanishi mumkin emas<sup>117</sup>.

---

<sup>117</sup> The Constitution of Afghanistan. Year 1382 (2004). Article 60–70. [http://www.afghan-web.com/politics/current\\_constitution.html](http://www.afghan-web.com/politics/current_constitution.html)

Shuningdek, prezident Vazirlar Mahkamasining raisi hisoblanadi. U Qurolli Kuchlarning Oliy bosh qo'mondoni bo'lib, vazirlarni va boshqa hukumatning amaldor shaxslarini lavozimiga tayinlaydi va ozod etadi. Prezidentning ikki nafar o'rinbosari (vise-prezident) bor.

Konstitutsiya normalariga ko'ra, Afg'oniston prezidenti davlat siyosatini belgilaydi va amalga oshiradi, qonun va dekretlarni imzolaydi, mamlakat nomidan xalqaro shartnomalar va kelishuvlarni imzolaydi hamda xalqaro muzokaralar olib boradi, milliy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalaridagi eng muhim masalalar bo'yicha referendum o'tkazish tashabbusiga ega, vise-prezidentlarni, sudyalarni, Qurolli Kuchlarning Oliy qo'mondonlarini, diplomatik vakillarni, shuningdek, yuqori mansabdor shaxslarni lavozimiga tayinlaydi va ozod qiladi, chet el vakillarining ishonch yorliqlarini qabul qiladi, sudlar tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etadi va Konstitutsiya hamda qonunlarda nazarda tutilgan boshqa vakolatlarini amalga oshiradi<sup>118</sup>. Prezident shuningdek, hukumat yig'ilishlarida raislik qiladi, vazirlar, Bosh prokuror, Markaziy bank boshlig'i, Oliy sud sudyalarini mamlakat parlamenti bilan kelishgan holda tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi. 2004-yilgi Konstitutsiyada belgilanganidek, prezidentning siyosiy sohadagi ba'zi bir qarorlari mamlakat parlamenti tomonidan tasdiqlanishi lozim. Jumladan, urushish va yarashish, favqulodda vaziyatlar, mamlakatning milliy qurolli kuchlari kontingentini boshqa davlatga yuborish to'g'risidagi qarorlari parlament palatalari tasdig'iga kiritilishi zarur.

Yangi Konstitutsiyaga ko'ra, ijro etuvchi organni o'zida aks ettiruvchi mamlakat hukumati o'z faoliyatini prezident rahbarligi ostida olib boradi va uning a'zolari parlament tomonidan tayinlanadi. Hukumat qonun loyihalarini taklif qiladi, o'z faoliyatiga doir akt va yo'riqnomalar chiqaradi, mamlakatning rivojlanish rejasi va budjet loyahasini tayyorlaydi, favqulodda vaziyatlar davrida qonun kuchiga teng normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qiladi, har yil

---

<sup>118</sup> The Constitution of Afghanistan. Year 1382 (2004). Article 60–70. [http://www.afghan-web.com/politics/current\\_constitution.html](http://www.afghan-web.com/politics/current_constitution.html)



yakunida parlament oldida budget haqida hisobot beradi va keyingi yilgi budget loyihasini taqdim etadi. Konstitutsiyada belgilab qo'yilganidek, vazirlar mamlakat prezidenti va parlamenti oldida hisob berishga majburdirilar<sup>119</sup>.

2004-yilgi Afg'oniston Konstitutsiyasida mamlakat qonunchilik hokimiyati – ikki palatali Milliy Kengashdan iborat ekanligi belgilab qo'yildi. Afg'on parlamenti “Mishranu Jirge” – yuqori palata va “Ulusi Jirge” – quyi palatalardan tashkil topgan<sup>120</sup>.

Mishranu Jirge – demokratik davlatlardagi Senat, ya'ni “Oqsoqollar Kengashi” vakolatlarini o'zida mujassam etuvchi afg'on parlamenti yuqori palatasining 120 nafar a'zosi uch guruhga bo'linadi: uchdan bir qismi viloyat kengashlari a'zolaridan (har bir kengashdan bir nafardan jami 34 nafar) 4 yil muddatga saylanadi, boshqa uchdan bir qismi esa viloyatlardagi tuman kengashlari a'zolaridan (34 nafar) 3 yil muddatga va qolgan qismi (34 nafar) 5 yil muddatga prezident tomonidan tayinlanadi. Prezident tomonidan tayinlanadigan deputatlarning 50% ayollardan iborat bo'lishi lozimligi Konstitutsiya normalarida o'z aksini topdi.

Quyi palata – Ulusi Jirge 249 nafar deputatdan iborat bo'lib, ular umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan 5 yil muddatga saylanadi.

Afg'on parlamentining palatalari o'z faoliyati doirasida qonunchilik aktlari, davlat budjeti, xalqaro shartnomalar va kelishuvlarni tasdiqlash orqali mamlakat siyosiy hayotida muayyan rol o'ynab kelmoqda. 2004-yilgi Konstitutsiya Afg'oniston tarixida muhim ahamiyat kasb etib kelayotgan oliy davlat boshqaruv tuzilmasi hisoblanmish Butunafg'on oqsoqollari kengashi – Luye Jirgega tegishli normalarni ham o'zida aks ettirdi. Konstitutsiyaga ko'ra Luye Jirge ishida mamlakat parlamenti palatalari a'zolari, viloyat kengashlari vakillari, hukumat a'zolari va Oliy sud a'zolari ishtirok

---

<sup>119</sup> The Constitution of Afghanistan. Year 1382 (2004). Article 71–80. [http://www.afghan-web.com/politics/current\\_constitution.html](http://www.afghan-web.com/politics/current_constitution.html)

<sup>120</sup> Rashidov R. Afg'onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. Monografiya. – T.: Navro'z, 2017. – B. 88.

etishlari mumkin. Luye Jirge yig'ilishi davomida davlat mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitlik, konstitutsiyaga qo'shimcha hamda tuzatishlar kiritish va shu kabi boshqa mamlakat taqdiri bilan bog'liq bo'lgan muhim masalalar ko'rib chiqilishi belgilab qo'yildi.

Afg'oniston sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi konstitutsiyada belgilab qo'yildi. Sud hokimiyatining oliy organi Oliy sud bo'lib, u to'qqiz nafar sudyadan tashkil topgan holda faoliyat yuritadi. Oliy sud boshqa sud organlari ustidan nazorat o'rnatadi. Konstitutsiyaga ko'ra, Oliy sud raisi va uning boshqa sudyalari prezident tomonidan 10 yil muddatga tayinlanadi.

Yangi Konstitutsiya mamlakatdagi mahalliy boshqaruvga oid munosabatlarni ham tartibga soladi. Ushbu sohaga oid normalarga muvofiq mamlakat 34 ta viloyatga bo'lingan holda boshqariladi. Viloyatlarning boshliqlari gubernator deb nomlanib, ular bevosita prezident tomonidan tayinlanadi. Viloyatlar tumanlar (okrug va uyezdlar)ga bo'linadi.

Afg'onistonning yangi Konstitutsiyasi mamlakat hayotining turli sohalaridagi munosabatlarni tartibga solishda Asosiy Qonun vazifasini bajarib kelmoqda hamda kelgusida afg'on davlati hayotida ro'y beradigan o'zgarishlar Konstitutsiyada ham o'z aksini topishi va shu orqali mazkur hujjat yanada takomillashib borishi lozim.

## **PREZIDENTLIK SAYLOVLARINING O'TKAZILISHI VA DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARINING SHAKLLANTIRILISHI**

2004-yil iyun oyida Afg'onistonda prezidentlik lavozimiga umumxalq saylovlari o'tkazilishi mo'ljallangan edi. H.Karzay boshchiligidagi o'tish davri hukumati zimmasida bo'lgan asosiy vazifalardan biri ham ana shu saylovlarga tayyorgarlik ko'rish, ovoz berish huquqiga ega saylovchilarni ro'yxatga olish, ovoz

berish uchastkalarini saylovga tayyorlash hamda saylovda ishtirok etuvchi nomzodlarga qonun doirasida barcha sharoitlarni yaratib berish kabi masalalar edi. Ammo, saylovda ovoz berish huquqiga ega bo'lgan saylovchilarning (10,5 mln. nafar) barchasini ro'yxatga olish ishlari tugallanmaganligi, saylovni o'tkazish bilan bog'liq moliyaviy xarajatlarning yetarli emasligi hamda mamlakatdagi beqaror vaziyat tufayli saylovlar muayyan muddatga kechiktirildi.

2004-yil 9-oktabrda Afg'oniston tarixida ilk bor demokratik ravishda prezidentlik saylovlari bo'lib o'tdi. Saylovda mamlakat o'tish hukumati rahbari H.Karzay, Shimoliy Alyans namoyandasi M.Yu.Qonuniy, mamlakat shimolida katta ta'sirga ega general A.Do'stum, sobiq rejalashtirish vaziri M.Muhaqqiq, shuningdek, ayollar shifokori doktor M.Jalol va boshqa nomzodlar ishtirok etishdi. Saylov natijalariga ko'ra H.Karzay saylovchilarning 55,4% ovozini olib Afg'oniston Islom Respublikasining dastlabki prezidenti lavozimini egalladi. Shuningdek, M.Yu.Qonuniy 16,3%, M.Muhaqqiq 11,6 %, A.Do'stum 10,2 %, doktor M.Jalol esa 1,2% ovoz olishdi.

Afg'oniston prezidentlik respublikasi bo'lgani uchun yangi saylangan prezident o'ziga xolis hukumatni shakllantirishi lozimligi mamlakat Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan. H.Karzay ham saylov natijalari rasmiy e'lon qilinganidan birmuncha muddat o'tib 2004-yilning 23-dekabrida yangi hukumat tarkibi tuzilganligini ma'lum qildi. Yangi hukumatda asosiy o'rinlarni pushtun millatiga mansub shaxslar egallashdi. Chunki H.Karzay, agar saylovda g'olib chiqsa, koalitsion hukumat tuzish rejasi yo'qligini saylovoldi kompaniyasi jarayonida bir necha bor ta'kidlagan edi. Bunday holat mamlakatni toliblar zulmidan ozod qilishga katta hissa qo'shgan Shimoliy Alyans vakillarining hokimiyatdan chetlashtirilganligini bildirardi va ba'zi noroziliklarga sabab bo'ldi. Shunday qilib, Afg'oniston rahbariyatining Karzayga sodiq bo'lgan o'zagini vise-prezidentlar – Afg'onistonning Rossiya Federatsiyasidagi sobiq elchisi A.Z.Mas'ud va hazoniyar namoyandasi M.K.Xaliliy hamda pushtun millatchilari – Ichki Ishlar vaziri A.A.Jaloliy, Mudofaa vaziri A.Vardak, Moli-

ya vaziri A.H.Ahadiy, Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish vaziri X.Atmar, Oliy Sud raisi F.X.Shinvoriy va Qobul gubernatori mulla T.Muhammadlar tashkil qilishdi.

2009-yilning 20-avgustida bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovlari natijasida H.Karzay yana davlat rahbari lavozimini egalladi<sup>121</sup>. Biroq, 2004-yil prezident saylovlarida muvaffaqiyat qozongan H.Karzay uchun 2009-yilgi prezident saylovlarida g‘alaba qozonish birmuncha qiyin kechdi. Saylov jarayonining cho‘zilishi, AQSHning talabi bilan ikkinchi turning belgilanishi, ikkinchi turda ishtirok etgan mamlakat sobiq tashqi ishlar vaziri Abdulla Abdulla tarafdorlarining H.Karzayni ayblashlari ostida tashqi kuchlarning muayyan darajadagi sa’y-harakatlari yotganligini va bu orqali ular H.Karzayga bosim o‘tkazib, biroz cho‘chitib qo‘shishni istaganliklarini anglash mumkin. H.Karzayga nisbatan bu kabi bosim o‘tkazish saylov tugagach ham to‘xtagani yo‘q va aksincha, yangi hukumatni shakllantirish, hukumat siyosatini belgilash bo‘yicha g‘arb mamlakatlari o‘zlarining quyidagi talablarini ilgari surdilar:

– AQSH ma’muriyati Afg‘oniston prezidentiga hukumatni isloh qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish uchun 6 oylik ultimatum e’lon qildi;

– Buyuk Britaniya Bosh vaziri Gordon Braun Afg‘onistonni poraxo‘rlik avjiga chiqqan mamlakat deya atadi va yangi hukumatda dala qo‘mondonlarini ko‘rishni istamayotganligini bildirdi;

– Fransiya Tashqi Ishlar vaziri Bernar Kushner H.Karzayni “g‘arbning odami” deya atadi hamda rasmiy Parij bo‘lib o‘tgan saylovlardagi H.Karzayning asosiy raqibi – doktor Abdullani Afg‘onistonning yangi hukumatida keng vakolatlarga ega vazir lavozimida bo‘lishini talab qildi;

– BMT Bosh kotibining Afg‘onistondagi maxsus vakili Kay Eyde esa, korrupsiyaga qarshi kurashish va tuzilajak hukumat tarkibini shakllantirish bo‘yicha takliflar berdi.

---

<sup>121</sup> Afghanistan Presidential and Provincial Council Elections / The International Republican Institute. – Washington, DC., 2009. – P. 24.

2009-yilda o'tkazilgan prezidentlik saylovlari natijalariga ko'ra, pushtun millatiga mansub nomzod aholining ko'pchilik ovozi bilan g'alaba qozondi. Bu Afg'oniston Islom Respublikasida hokimiyat organlarining aksariyati pushtunlar tomonidan egallanganligini hamda ular davlat boshqaruvida yetakchi rolni o'ynab kelayotganliklarini ko'rsatib beradi.

Afg'onistonda 2014-yilgi prezidentlik saylovlari natijasida oliy hokimiyatning demokratik tamoyillar asosida bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tganligini mamlakat tarixidagi ulkan ijobiy voqea deb hisoblash mumkin. 2014-yilning 2-fevral kuni Afg'oniston Islom Respublikasi Mustaqil Saylov Komissiyasi (MSK) shu yilning 5-aprel kuni o'tkazilishi rejalashtirilgan navbatdagi prezidentlik saylovi rasman boshlanganligini e'lon qildi va shu bilan saylovoldi kompaniyasi ham boshlandi.

Mamlakat prezidentligiga 11 ta nomzod – Doktor Abdulla Abdulla, Ashraf G'ani Ahmadzoy, Zalmay Rasul, Abdul Qayum Karzay, Abdul Rab Rasul Sayyof, Abdul Rahim Vardak, Muhammad Daud Sultonzoy, Muhammad Nodir Naim, Qutbuddin Hilol, Hidayat Amin Arsala va Gul Og'a Sherzoylar o'z nomzodini olg'a surishdi. Yuqorida nomlari tilga olingan 11 nafar nomzoddan 10 nafari pushtun millatiga mansub edi. Prezidentlikka nomzodlardan faqat Abdulla Abdulla etnik tojik bo'lganligi sababli saylov jarayonlarida mamlakatning tojik millatiga mansub aholisi to'laligicha Abdulla Abdullani qo'llab-quvvatladi. 2001-yildan buyon mamlakatning muvaqqat va o'tish hukumatlari hamda 2004-yildan boshlab prezident lavozimini egallab kelayotgan H.Karzay, Konstitutsiyaga binoan ushbu lavozimga uchinchi marta saylana olmaydi.

Afg'on Mustaqil saylov komissiyasining e'lon qilgan prezidentlik saylovining natijalari bo'yicha, doktor A.Abdulla saylovchilarning 45 % ovozini olgan holda birinchi o'rinni egallagan bo'lsa, Ashraf G'ani Ahmadzoy esa 32 % ovoz bilan ikkinchi o'rinni egalladi. Shu tariqa, dastlabki bosqichda hech bir nomzod 50%dan yuqori ovoz to'play olmadi. Shundan so'ng, demokratik mezonlar va mamlakat Konstitutsiyasiga muvofiq, dastlabki turda eng ko'p

ovoz olgan ikki nafar nomzod o'rtasida saylovning ikkinchi bosqichi o'tkazilishi ma'lum qilindi.

2014-yilning 14-iyun kuni prezidentlik saylovining ikkinchi bosqichi o'tkazildi. Bunda Ashraf G'ani Ahmadzoy saylovchilarning 55,27% ovozini olgan bo'lsa, Abdulla Abdulla saylovchilarning 44,73% ovozini oldi. Mamlakatning sobiq moliya vaziri bo'lmish Ashraf G'aniga 3,93 mln. nafar saylovchi ovoz berdi. Ushbu saylovchilar asosan mamlakatning sharqiy, janubiy va g'arbiy viloyatlarida istiqomat qiluvchi etnik pushtunlar edi. Sobiq Tashqi ishlar vaziri bo'lmish A.Abdulla mamlakatning markaziy va shimoliy qismidagi aralash etnik guruhlar tarafidan qo'llab-quvvatlandi va unga 3,18 mln. nafar saylovchi ovoz berdi.

2014-yilgi prezidentlik saylovlari jarayonida qonun buzilishi holatlarining ro'y berishi hamda saylov yakuniy natijalarini e'lon qilishning cho'zilib ketishi, nomzodlarning bir-birini ayblashlari umumiy jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, saylovda ishtirok etgan mamlakatdagi ikki siyosiy yetakchilar – A.Abdulla va A.G'. Ahmadzoyning rasmiy natijalar e'lon qilinmasdan turib saylovda g'olib chiqqanliklari xususida ishonch bilan ma'lum qilishlari va buning oqibatida yuzaga kelgan bahsli vaziyat AQSH yetakchiligida muvofiqlashtirilishi<sup>122</sup> alohida e'tiborni talab qiladi.

Afg'onistondagi demokratik jarayonlarning kechishida o'z mas'uliyatini anglagan AQSH ikki nomzod o'rtasida yuzaga kelgan bahsni hal etishda muhim rol o'ynadi va muzokaralar natijasida ikkala tomon hokimiyatni bo'lishish to'g'risida o'ziga xos **kelishuv/konsensus**ga erishdilar. Unga ko'ra, A.G'.Ahmadzoy saylovda g'olib deb topildi va mamlakat prezidenti lavozimini egallaydigan bo'ldi<sup>123</sup>. Biroq, A.Abdulla uchun ijro hokimiyati tizimida yangi bir lavozim, ya'ni **ijro hokimiyati rahbari** lavozimi joriy etildi va uning siyosiy-huquqiy maqomi prezidentning alohida farmoni bilan

---

<sup>122</sup> Kenneth Katzman. Afghanistan: Politics, Elections, and Government Performance / Congressional Research Service (CRS) Report for Congress. – Washington D.C., January 12, 2015. – P. 28–29.

<sup>123</sup> Nordland, Rod. Ashraf Ghani Is Named President of Afghanistan by Elections Panel. September 21, 2014. New York Times.

belgilab qo'yiladigan bo'ldi. Shundan kelib chiqib, A.G'. Ahmadzoy prezident sifatida qasamyod qilishi bilanoq mamlakat Konstitutsiyasining 50-moddasiga muvofiq, **ijro hokimiyati rahbari** (rais-e ejra'iya – head of the executive) lavozimini joriy etish bo'yicha farmonga imzo chekdi<sup>124</sup>.

A.Abdulla uchun joriy etilgan ushbu lavozim ingliz tilidagi barcha manbalarda "Chief Executive Officer" (SEO), ya'ni "bosh ijrochi direktor" shaklida berilgan. Ta'kidlash joizki, ushbu atama bilan ataluvchi lavozim g'arb davlatlarida davlat boshqaruvida emas, balki biznes tuzilmalarida qo'llaniladi<sup>125</sup>. Shunday bo'lsa-da, ijro hokimiyati rahbari bosh vazirga tegishli barcha vakolat va funksiyalarga egaligi belgilab qo'yildi<sup>126</sup>.

Ijro hokimiyati rahbari, uning ikki nafar o'rinbosari va barcha vazirlardan iborat hukumatdan alohida tuzilma – "Vazirlar Kengashi" (Shura-ye Waziran – Council of Ministers) tashkil etilishi belgilandi va ushbu tuzilma har haftada bir marta o'z yig'ilishini o'tkazib, uning ishiga ijro hokimiyati rahbari boshchilik qiladigan bo'ldi. Shuningdek, ijro hokimiyati rahbari, uning ikki nafar o'rinbosari mamlakat Milliy Xavfsizlik Kengashi tarkibidan joy oladigan bo'ldilar<sup>127</sup>.

---

<sup>124</sup> Thomas Ruttig. The President's CEO Decree: Managing rather than executive powers (now with full translation of the document)/ Afghanistan Analysts Network (AAN) Publications. 13 February 2015. – P. 1–2. Download URL: <https://www.afghanistan-analysts.org/wp-admin/post.php>

<sup>125</sup> Rashidov R. Afg'onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. Monografiya. – T.: Navro'z, 2017. – B. 97.

<sup>126</sup> Thomas Ruttig. The President's CEO Decree: Managing rather than executive powers (now with full translation of the document)/ Afghanistan Analysts Network (AAN) Publications. 13 February 2015. – P. 1–2. Download URL: <https://www.afghanistan-analysts.org/wp-admin/post.php>

<sup>127</sup> O'sha manba. – B. 2–3, 7–8.

## **IJTIMOIIY-SIYOSIIY HARAKATLAR, SIYOSIIY PARTIYALAR FAOLIYATINING QAYTADAN JONLANISHI VA PARLAMENT SAYLOVLARI**

Afg‘onistonda toliblar hokimiyati ag‘darilgandan so‘ng siyosiy partiya va harakatlarning yana qaytadan faollashishiga shart-sharoitlar yuzaga keldi hamda ular siyosiy jarayonlarga jiddiy ta‘sir eta boshladi. Bunday siyosiy partiya va harakatlar qatorida Afg‘oniston Islom Jamiyati, Afg‘oniston Milliy Islomiy Fronti, Afg‘onistonni Qutqarish Milliy Fronti, Afg‘oniston Milliy Islomiy Harakati, Afg‘oniston Ozodligi Islomiy Ittifoqi, Afg‘oniston Islom Partiyasi hamda boshqalarni kiritish mumkin. Mazkur ijtimoiy-siyosiy tuzilmalarning “Tolibon” harakati hukmronligi davrida faoliyat olib borishi butunlay taqiqlab qo‘yilgan edi.

Toliblar hukumati ag‘darilgach va Afg‘onistonda yangi ko‘rinishdagi davlatchilik asoslari barpo etish boshlangach, Afg‘oniston siyosiy sahnasida bir necha yildan buyon mavjud bo‘lib kelayotgan yuqoridagi siyosiy tuzilmalar o‘z faoliyatini yangidan boshlashga imkoniyat yaratildi.

Afg‘oniston Islom Jamiyati (AIJ) 1976-yilda Pokistonda tashkil etilgan edi. AIJ sho‘roparast AXDP hukumatini hokimiyatdan chetlashtirish va Afg‘onistonda Islom respublikasini o‘rnatishga intilib kelgan. AIJ yetakchisi – mashhur dinshunos, Kobul universitetining sobiq professori Burhonuddin Rabboniy (1940–2011) edi. AIJ oliy rahbariy organi B.Rabboniy tomonidan boshqariladigan Kengash hisoblanadi. Hozirgi vaqtda AIJ mamlakatning bir qator viloyatlari, jumladan Kobul, Hirot, Bodg‘is, Faryob, Juzjon, Balx, Samangon, Qunduz, Taxor, Bag‘lon, Badaxshon va Parvon viloyatlarida faol harakat olib bormoqda.

2005-yilgi parlament saylovlari yakuniga ko‘ra, AIJ afg‘on parlamentining quyi palatasida 52 nafar deputatdan iborat o‘z fraksiyasiga ega bo‘ldi. AIJ tarafdorlari sifatida Muhammad Yunus Qonuniy (“Yangi Afg‘oniston” partiyasi yetakchisi),



Muhammad Qosim Fahim (sobiq mudofaa vaziri va vise-prezident), Ahmad Vali Mas'ud (marhum Ahmadshoh Mas'udning ukasi, "Afg'oniston milliy harakati"ning yetakchisi), Muhammad Ismoilxon (mujohidlarning mashhur yetakchilaridan biri, H.Karzay hukumatida Energetika va suv resurslari vaziri) va Ato Muhammad Nur (Balx viloyatining gubernatori) kabi Afg'onistonning ayni paytdagi taniqli davlat va jamoat arboblari ko'rsatib o'tish mumkin.

Afg'oniston Milliy Islomiy Fronti (AMIF) AXDP tomonidan amalga oshirilgan inqilob natijasida Afg'onistondan qochib ketgan yirik yer egalari, katta amaldorlar, burjuaziya vakillari tomonidan 1978-yilning dekabr oyida Pokistonda tashkil etilgan. Mashhur din vakili, "Qodiriya-i Sufiy" tariqatining ma'naviy yetakchisi (pir) Sayyid Ahmad G'iloniy tashkilot rahbari hisoblanadi. AMIFning asosiy maqsadi Afg'onistondagi inqilobiy tuzumni barbod qilish va monarxiyani tiklash orqali "Islom va millatchilik qonunlariga tayanuvchi demokratiya"ni joriy etish bo'lib, Pokiston hududidagi qochoqlar orasida ta'siri kuchli bo'lgan. AMIF Afg'oniston hududida 75 ga yaqin yaxshi qurollangan jangari bo'linmalariga ega bo'lgan. Hozirda Qandahor, Zabol, G'azna, Paktika, Paktiya, Xost viloyatlarida o'z mavqeiga ega. 2005-yilgi parlament saylovlarida AMIFning 10 nafar a'zosi afg'on parlamenti quyi palatasi deputati bo'lib saylanishga muvaffaq bo'ldi.

Afg'onistonni Qutqarish Milliy Fronti (AQMF) 1978-yilda Pokistonga qochib o'tgan reaksion klerikal vakillar va yirik yer egalari tomonidan tashkil etilgan. AQMF rahbari mashhur musulmon fiqhshunosi Sebg'atullo Mujaddadiy (1924–2016), afg'on parlamenti yuqori palatasi – Mishrano Jirgening raisi (2005–2010). Tashkilot a'zolarining aksariyatini olimlar, ziyolilar, sobiq davlat xizmatchilari, qabila sardorlari tashkil etadi. Ularning ko'pchiligi islom dinining sunniylik oqimiga e'tiqod qiluvchi pushtunlar hisoblanadi. O'z faoliyatini Kobul, Logar, Paktiya, Xost, Nangarxor va Kunar viloyatlarida faol olib bormoqda. Afg'on parlamentining quyi palatasida 3 o'ringa ega.

Afg‘oniston Milliy Islomiy Harakati (AMIH) 1992-yil may oyida Mozori Sharifda etnik jihatdan o‘zbek millatiga mansub general Abdul Rashid Do‘stum yetakchiligida tashkil etilgan. Ayni vaqtda rasmiy yetakchisi Sayyid Nurullo bo‘lib, u Najibullo hukumati davrida vazir lavozimida faoliyat yuritgan edi. 2005-yil aprel oyida A.Do‘stum o‘rniga Sayyid Nurullo AMIH yetakchisi lavozimiga tayinlangan bo‘lsa-da, mazkur tashkilotda haliyam A.Do‘stumning ta’siri juda kuchli. AMIHning mamlakat shimolida, xususan Balx, Samangon, Juzjon, Saripul, Faryob, Bodg‘is viloyatlarida mavqei kuchli bo‘lib qolmoqda. AMIH 2005-yilgi parlament saylovlarida parlament quyi palatasidan 20 nafar o‘rin egallashga muvaffaq bo‘ldi.

Yana shunday harakatlardan biri Afg‘oniston Ozodligi Islomiy Ittifoqi (AOII) birinchi navbatda Saudiya Arabistoni manfaatlari yo‘lida faoliyat olib borgan va undan katta yordam olib kelgan tuzilma hisoblanadi. AOII 1981-yilda tashkil topgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi Afg‘onistonda “Islom respublikasi”ni tuzish bo‘lgan. AOII eng ekstremistik kayfiyatdagi tashkilotlardan biri bo‘lib, Saudiya Arabistoni bilan munosabatlari juda yaxshi bo‘lganligi sababli u vahhobiylik oqimiga xos tashkilot sifatida baholangan. Partiya rahbari – Abdur Rab Rasul Sayyof. Bugungi kunga kelib Lag‘mon, Nangarxor, Kunar, Xost viloyatlarida faol harakat olib bormoqda. Parlamentning quyi palatasida 7 nafar o‘ringa ega.

Afg‘oniston Islom Partiyasi (AIP) 1976-yilda bir necha ekstremistik guruhlar, Misrda faoliyat yurituvchi “Ixxvon ul-muslimin” (Musulmon birodarlar) va uning yoshlar qanoti “Musulmon yoshlari”ning Afg‘onistondagi tarafdorlaridan iborat guruhlarning birlashishi natijasida yuzaga kelgan edi. AIPning asosiy maqsadi Afg‘onistonda sho‘roparast tuzumni yo‘qotish va islom rejimini o‘rnatishdan iborat edi. AIP yetakchisi – Gulbiddin Hikmatyor bo‘lib, tashkilot AQSH Markaziy Razvedka Boshqarmasi (MRB) ning alohida e’tiborida turgan va Amerika tomonidan ko‘rsatiladigan jami yordamning 40% gacha miqdorini olib kelgan edi. AIP Pokiston hududida bir vaqtning o‘zida 7–8 ming jangari tayyorlashga

mo'ljallangan bir nechta o'quv markazlariga ega bo'lgan. Hozirga kelib Kobul, Qandahor, Zobul, G'azna, Paktika, Paktiya, Xost, Nangarxor, Kunar, Nuriston viloyatlarida faol a'zolariga ega. 2005-yil parlament saylovlari yakunlariga ko'ra, afg'on parlamentining quyi palatasida 18 nafar a'zodan iborat partiya fraksiyasi faoliyat yuritdi. 2014-yilgi prezidentlik saylovlarida G.Hikmatyorning AIPdagi o'rinbosari lavozimida faoliyat ko'rsatgan Muhammad Xon prezidentlikka nomzod A.Abdullaning o'rinbosari sifatida ishtirok etdi va saylov yakunlariga ko'ra, A.Abdulla ijro hokimiyati rahbari lavozimini egallagach, Muhammad Xon uning o'rinbosari lavozimiga tayinlandi.

2005-yil may oyining oxirlarida o'tkazilishi mo'ljallangan ikki palatali parlament va 34 ta provinsiyadagi mahalliy vakillik organlariga saylovlar texnik kamchiliklarning mavjudligi va mamlakatdagi nobarqaror vaziyat tufayli o'sha yilning 18-sentabrida o'tkazildi<sup>128</sup>. Saylov natijalariga ko'ra, parlamentning 249 a'zodan iborat quyi palatasi – Ulusi Jirge, 102 a'zodan iborat yuqori palata – Mishrano Jirge va mahalliy vakillik organlari shakllantirildi hamda ular o'z faoliyatini boshladi.

2005-yilgi parlament saylovlari natijalariga ko'ra, afg'on parlamentida faoliyat olib borayotgan siyosiy partiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh – konservatorlar yoki fundamentalistlar:

– Afg'onistonni Islomga Chaqiriq Partiyasi (yetakchisi Abdul Rab Rasul Sayyof);

– Afg'oniston Islom Partiyasi (yetakchisi Muhammad Xolid Faruqiy);

– Afg'oniston Islom Jamiyati (yetakchisi Burhoniddin Rabboniy);

– Yangi Afg'oniston Partiyasi (yetakchisi Muhammad Yunus Qonuniy).

---

<sup>128</sup> Wilder, A. A House Divided? Analysing the 2005 Afghan Elections. – Kabul: Afghanistan Research and Evaluation Unit (AREU) Publications, December 2005. – P. 2.

Ikkinchi guruh – mo‘tadillar:

– Afg‘onistonni Qutqarish Milliy Fronti (yetakchisi Sebg‘atullo Mujaddadiy);

– Afg‘oniston Milliy Islomiy Fronti (yetakchisi Sayyid Ahmad G‘iloniy);

– Afg‘oniston Birdamlik Milliy Harakati (yetakchisi Sayyid Is‘hoq G‘iloniy);

– Afg‘oniston Islom Birligi Partiyasi (yetakchisi Muhammad Karim Xaliliy).

Uchinchi guruh – liberallar:

– “Afg‘on Mellat” partiyasi (yetakchisi Anvar ul-Haq Ahadiy);

– Afg‘oniston Milliy birlashish partiyasi (yetakchisi Sayid Mansur Nodiriy);

– Afg‘oniston Yoshlari Birdamligi Milliy Partiyasi (yetakchisi Muhammad Jamil Karzay)<sup>129</sup>.

Afg‘onistonda yangi ko‘rinishdagi davlatchilikni barpo etish jarayonida mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning rasmiy faoliyat olib borishi uchun huquqiy asoslar ham ishlab chiqildi. Jumladan, turli siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar va tuzilmalarni tashkil etish hamda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, siyosat maydonda kurashish uchun shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida bir qator hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2004-yilda qabul qilingan mamlakat Konstitutsiyasida siyosiy partiya va harakatlarning jamiyat siyosiy tizimida o‘rni va davlat bilan o‘zaro aloqasi belgilab qo‘yildi.

2007-yil oktabrida afg‘on parlamenti quyi palatasi “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida” Qonunni qabul qildi. Ushbu qonun normalari asosida hozirgi kunda Afg‘onistonda rasmiy davlat ro‘yxatidan o‘tgan 110 ta siyosiy partiyalar va turli ijtimoiy-siyosiy harakatlar faoliyat yuritmoqda<sup>130</sup>.

<sup>129</sup> Рашидов Р. К характеристике политических партий в современном Афганистане // *Общественные науки в Узбекистане*, 2009, № 2. – С. 80–81.

<sup>130</sup> The 2009 Presidential and Provincial Council Elections in Afghanistan. Final report of National Democratic Institute (NDI). – Washington, DC. 2010. – P.19.

Afg‘onistonda “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida” Qonun loyihasi qizg‘in muhokama qilinayotgan bir vaqtda ushbu qonun normalari asosida yangi siyosiy kuchni barpo etish bo‘yicha harakatlar boshlandi. Bunday sa‘y-harakatlar natijasida 2007-yil aprel oyida yangi siyosiy ittifoq – “Afg‘oniston Milliy Fronti” (AMF) tuzildi. Mamlakat sobiq prezidenti Burhonuddin Rabboniy mazkur siyosiy tuzilmaning rahbari sifatida e‘tirof etildi hamda AMFning Oliy Kengashi rayosatiga sobiq shoh Zohir Shohning nevarasi Mustafo Zohir, vise-prezident Ahmad Ziyo Mas‘ud, parlament quyi palatasi raisi Muhammad Yunus Qonuniy, Energetika va suv resurslari vaziri Ismoil Xon, Prezident maslahatchisi Abdul Rashid Do‘stum, sobiq Mudofaa vaziri Muhammad Qosim Fahim, sobiq Savdo ishlari vaziri Said Mustafo Kozimiy, parlament deputatlari Said Mansur Nodiriy, Muhammad Akbariy, Said Muhammad Gulabzoy, Nur-ul Haq Ulumiylar kirdilar.

Said Mustafo Kozimiy yangi ittifoqni “islohotchi” tuzilma sifatida baholab, uning asosiy vazifalaridan biri mamlakatda siyosiy barqarorlikni o‘rnatish hisoblanishini ta’kidladi. Shuningdek, u Ittifoqning mamlakat prezidenti H.Karzay bilan hamkorlik o‘rnatishga tayyorligini bildirdi.

“Afg‘oniston Milliy Fronti” a‘zolari mamlakatda parlament rolini kuchaytirish, prezidentning vakolatlarini qisqartirish hamda istiqbolda katta vakolatlar berilishi kutilayotgan Bosh vazir lavozimini joriy etish lozimligi borasida o‘z fikrlarini bildirdilar.

Ammo, AMF o‘z tarkibidagi ba‘zi yetakchi siyosatchilarning alohida tutgan pozitsiyalari va yagona fikrning yo‘qligi tufayli 2009-yil bahorida, ya‘ni prezident saylovlari arafasida tarqalib ketdi.

O‘z navbatida prezident H.Karzay ham ushbu siyosiy kuchga raqobatchi bo‘lgan yangi “Afg‘oniston Respublikachilar partiyasi”ni tuzish rejasi borligini ma‘lum qilgan edi.

2010-yil Afg‘onistonda bo‘lib o‘tgan navbatdagi parlament saylovlari ham demokratik mezonlar asosida o‘tkazildi<sup>131</sup>.

---

<sup>131</sup> The 2010 Wolesi Jirga Elections in Afghanistan/ National Democratic Institute. – Washington, DC, 2011. – P. 12–15, 70.

Saylov yakuniga ko'ra, 19 ta turli siyosiy partiyalarning a'zolari bo'lgan 85 nafar nomzod afg'on parlamentining quyi palatasi – Ulusi Jirge deputati bo'lib saylanishga muvaffaq bo'ldi<sup>132</sup>.

2015-yil yakunida o'tkazilishi rejalashtirilgan navbatdagi parlament saylovlari mamlakatda xavfsizlik bilan bog'liq vaziyatning murakkabligi hamda tegishli mablag'ning yetishmasligi tufayli 2016-yilning oxirida o'tkazilishi ma'lum qilindi. Biroq, mazkur saylovlarni 2016-yilning oxirida o'tkazilishi ham shubha ostida turibdi.

Xulosa qilib aytganda, Afg'oniston siyosiy partiyalari mamlakat tarixida shu kungacha, ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi damgacha ro'y bergan o'ta mushkul siyosiy jarayonlar va siyosiy voqealarda gohida faol, gohida sust ravishda ishtirok etib, mamlakat siyosiy maydonida mavjud ekanliklari va faoliyat olib borayotganliklarini namoyish qilib keldilar.

## **AFG'ONISTONDA QAYTA TIKLASH JARAYONI VA UNING AHAMIYATI**

Afg'onistonda iqtisodiy qoloqlik mamlakatda tinchlik va barqarorlikning o'rnatilishiga, xalqning tinch-osuda hayotiga hamda afg'on zaminining keyingi taraqqiyotiga salbiy ta'sir etayotgan omillardan biridir. Buni e'tiborga olgan Xalqaro hamjamiyat afg'on xo'jaligining barcha sohalarini qayta tiklash, shuningdek, xalq ahvolini yaxshilash va uni qashshoqlik botqog'idan qutqarish, markazlashgan hokimiyatning faoliyat yuritishi va davlat xavfsizligini ta'minlovchi organlarni shakllantirish kabi masalalarni hal etishda, ya'ni Afg'onistonni butunlay qayta tiklashda afg'on hukumatiga har tomonlama yordam berishni va unda bevosita ishtirok etishni o'z zimmasiga oldi. Biroq, qayta tiklash ishlarining amalga oshirilishiga qariyb chorak asr davom etgan mojarolar

---

<sup>132</sup> Political Parties in Afghanistan. A Review of the State of Political Parties after the 2009 and 2010 Elections. National Democratic Institute for International Affairs (NDI). – Washington, DC. June 2011. – P.9.

natijasida vujudga kelgan bir necha o'tkir muammolar to'g'anoq bo'lib turibdi va avvalo, tiklanish ishlarining samarali bajarilishi ushbu muammolarning hal etilishi bilan bog'liqdir.

Birinchidan, mamlakat xalq xo'jaligi va infrastrukturasini butunlay izdan chiqqanligi tufayli afg'on hukumati o'zining aniq daromad manbalari va davlat budjetiga ega emas. Donor-davlatlar tomonidan ajratilishi rejalashtirilgan xalqaro moliyaviy yordam esa bir necha yillar davomida aniq loyihalar bo'yicha yo'naltiriladi, xolos.

Ikkinchidan, mamlakat bank-moliya tizimining izdan chiqqanligi va uning butun mamlakat bo'ylab faoliyat yuritmasligi e'tiborga olinsa, afg'on hukumatining Xalqaro hamjamiyat ajratadigan moliyaviy yordamga bevosita ega bo'lish imkoniyatlari cheklangan va bu holat donor-davlatlar hamda tashkilotlarning moliyaviy hamkorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, afg'on hukumatiga o'z budjet daromadlari (1 yilda 80 mln. AQSH dollari atrofida) yordamida tinchlik va barqarorlik hukmron bo'lgan vaziyatda mamlakatni to'la qayta tiklash uchun qariyb 100 yil vaqt lozim bo'ladi. Afg'onistonning o'z ichki imkoniyatlari hisobiga qayta tiklash jarayonini amalga oshira olmasligini anglagan dunyo jamoatchiligi bu jarayonga tezda kirishib ketdi.

Jahon Banki mutaxassislari Afg'onistonni qayta tiklash uchun 2002–2012-yillar davomida 15 mlrd. AQSH dollari, shu jumladan dastlabki 2002–2004-yillar davomida 4,9 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' lozim bo'lishini hisoblab chiqishdi.

2001-yilning 4-dekabrda Bonndagi Xalqaro Konferensiya tugashi bilanoq o'sha yilning 6-dekabrda Berlin shahrida boshqa bir tadbir "Afg'onistonga ko'mak berish guruhi"<sup>133</sup> vakillarining Xalqaro Konferensiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu anjumanda AQSH,

<sup>133</sup> Ушбу гуруҳ 1996-йилда ташкил этилган бўлиб, унга куйидаги 15 та давлат аъзо бўлиб кирган: АКШ, Австралия, Буюк Британия, Германия, Голландия, Дания, Италия, Канада, Норвегия, Россия, Финляндия, Франция, Швеция, Швейцария, Япония. 2001-йилда бу гуруҳга Германия раислик қилганлиги учун йиғилиш Берлинда бўлиб ўтди.

Rossiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanada kabi donor-davlatlar bilan birgalikda BMT, Yevropa Komissiyasi va bir necha nohukumat tashkilotlarning vakillari ishtirok etishdi. Konferensiya ishtirokchilari tomonidan Afg'onistonga insonparvarlik hamda iqtisodiy ko'mak berish ishlari o'zaro hamkorlikda uzoq muddatga mo'ljallangan holda olib borilishi lozimligi ta'kidlab o'tildi.

2002-yil 21–22-yanvarida Tokioda o'tkazilgan donor-davlatlarning Xalqaro Konferensiyasi Afg'oniston iqtisodiyotini qayta tiklash va unga moliyaviy ko'mak berish masalalariga bag'ishlandi. 60 ga yaqin davlat va 20 dan ortiq Xalqaro Tashkilotlar vakillari ishtirok etgan ushbu Konferensiyada Afg'onistonga 5 yil davomida 4,5 mlrd. AQSH dollari, shu jumladan 2002-yil davomida 1,8 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratishga kelishib olindi. Anjumanda asosiy donorlar sifatida AQSH (2002-yil davomida 296 mln. AQSH dollari), Yaponiya (2,5 yil davomida 500 mln. AQSH dollari), Saudiya Arabistoni (3 yil davomida 220 mln. AQSH dollari), shuningdek, Yevropa Ittifoqi (1,5 mlrd. AQSH dollari), Jahon Banki (2,5 yil davomida 500 mln. AQSH dollari) va Osiyo Rivojlanish Banki (500 mln. AQSH dollari) hamda doimiy ravishda donor bo'lmagan Eron (5 yil davomida 500 mln. AQSH dollari, shu jumladan 2002-yil uchun 120 mln. AQSH dollari), Pokiston (100 mln. AQSH dollari) va Hindiston (100 mln. AQSH dollari) kabi davlatlar ishtirok etishdi.

Konferensiyada ishtirok etgan Afg'oniston Muvaqqat Hukumati rahbari H.Karzayning fikricha, Afg'onistonni butunlay qayta tiklash jarayoni davomida 45 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi mablag' zarur, chunki kelajakda Afg'oniston jahon iqtisodining bir qismi bo'lib unga integratsiyalashuvi lozim bo'ladi.

2002-yil 2-dekabrda Germaniya Tashqi Ishlar vaziri Yoshka Fisher tashabbusi bilan Germaniyada "Afg'onistonni qayta tiklash – tinchlik va barqarorlik garovi" mavzusida Xalqaro Konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiyada 30 dan ortiq davlat vakillari, shu jumladan Afg'onistonga qo'shni bo'lgan davlatlar vakillari ham ishtirok etishdi. Shuningdek, ushbu anjumanda Afg'oniston O'tish



hukumati rahbari H.Karzay, BMT Bosh Kotibining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili L.Braximiy va AQSHning Afg'onistondagi vakili Z.Xalilzod qatnashdi.

Konferensiya ishtirokchilari afg'on muammosining nozik jihatlaridan biri – barcha siyosiy va milliy guruhlar o'rtasidagi muvozanatni BMT rahbarligida qaror toptirish lozim, degan fikrga kelishdi va ushbu maqsadda yagona modelni yaratish masalasi qizg'in muhokama qilindi.

BMT Bosh Kotibining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili L.Braximiyning fikricha, dono va qat'iyatli yo'lboshchilar rahbarligida xavfsiz, tinch, demokratik va rivojlanayotgan yangi Afg'onistonni qurish mumkin. 2003-yil 18-martida Bryusselda va 2003-yilning 20-noyabrida Stokgolmda ham Afg'onistonni qayta tiklash masalalariga bag'ishlangan Xalqaro darajadagi Konferensiyalar bo'lib o'tdi. Bryusseldagi Konferensiyada ishtirok etgan Yevropa Ittifoqi vakili K.Pattenning fikricha, Afg'onistonga moliyaviy ko'mak berishni o'z zimmasiga olgan donor-davlatlarning bergan va'dalarini bajarmasliklari dunyo jamoatchiligining ularga bo'lgan ishonchini yo'qotishi mumkin. Shuningdek, K.Patten qayta tiklashga sarflanayotgan moliyaviy xarajatlar ustidan qattiq nazorat o'rnatish lozimligini ham ilgari surdi.

2004-yil 31-mart – 1-aprel kunlari Afg'onistondagi qayta tiklash masalalariga bag'ishlangan yana bir yirik anjuman 56 davlat va 10 dan ortiq Xalqaro Tashkilot vakillari ishtirokida Berlinda bo'lib o'tdi. O'z ahamiyatiga ko'ra, ushbu Konferensiya Afg'onistondagi qayta tiklash jarayoni ishtirokchilarining 2001-yilgi Bonn va 2002-yilgi Tokio Konferensiyalaridan keyingi yirik uchrashuvidir.

Ushbu Konferensiya o'tkazilgunga qadar H.Karzay hukumatiga qayta tiklash maqsadlari uchun 4 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi turli yordamlar, moliyaviy mablag'lar kelib tushdi. Ammo, afg'on hukumati buni yetarli emas, deb hisoblab, Jahon Banki ko'magida qiymati 27,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etuvchi "Yetti yillik dastur" ishlab chiqdi.

Konferensiya ishida Afg'oniston rahbari H.Karzay so'zga chiqib, "Afg'onistondagi inqiroz – butun mintaqaning inqirozidir", – deya ta'kidlab o'tdi. Buni hisobga olgan donor-davlatlar uch yil davomida Afg'onistonga 8,2 mlrd. AQSH dollari, shu jumladan 2004-yil uchun 3,6 mlrd. AQSH dollari ajratishga kelishib oldilar. Bu borada yirik donor-davlatlar sifatida AQSH (2,2 mlrd. dollar) va Buyuk Britaniya (900 mln. AQSH dollari) boshqa ishtirokchilarga ko'ra ko'proq mas'uliyatni o'z zimmalariga oldilar.

Hozirgi kunda Jahon Banki boshqa xalqaro tashkilotlarni ham Afg'onistonga ko'mak berishga undab, bu boradagi o'z faoliyatini BMT, Xalqaro Valuta Fondi, Osiyo Rivojlanish Banki hamda AQSH va Yevropaning turli agentlik va fondlari bilan muvofiqlashtirishga harakat qilmoqda. Jumladan, Jahon Banki, Osiyo Rivojlanish Banki va BMTning bir necha Dasturlari vakillari Afg'onistonga ko'mak berish maqsadida 3 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi mablag'ga ega Xalqaro Fond tashkil etishni BMTga taklif etdilar.

Donor-davlatlar va Xalqaro Moliyaviy Tashkilotlarning Afg'onistondagi qayta tiklash jarayoni uchun ajratishni mo'ljallagan moliyaviy mablag' va ko'makni bevosita tasarruf etish maqsadida afg'on hukumati ixtiyoriga berilishi borasida jiddiy muammolar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Jumladan, Afg'oniston Markaziy Bankining faoliyatini qoniqarli deb bo'lmaydi. Shu bilan birga, Afg'onistonda 11 ta xorijiy banklar (Buyuk Britaniyaning "Standard Chartered" va Mikrokreditlar banklari, Pokiston Milliy Banki hamda Eronning "Oriyon Bank"i va boshqalar)ning bo'limlari ochilgan bo'lib, ularning faoliyat doirasiga asosan eksport-import masalalari bilan shug'ullanish kiradi, xolos.

Afg'oniston hukumati qayta tiklash jarayonida barcha davlatlar va tashkilotlarning ishtirokini ta'minlash hamda ularni faol jalb etish maqsadida har bir soha uchun alohida loyihalar ishlab chiqdi. Jami 448 ta loyihani amalga oshirish uchun 2002-yil davomida donor-davlatlar tomonidan 1 mlrd. 718 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratish mo'ljallangan bo'lsa, amalda 538 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratildi:

Sarflanadigan sohalar	Rejalashtirilgan summa (mln. AQSH doll.)	Moliyalashtirilgan summa (mln. AQSH doll.)
Qochoqlarga yordam	164	16
Ijtimoiy ta'minot	248	96
Ta'lim	250	0
Sog'liqni saqlash	173	0
Transport	238	233
Energetika va telekom-munikatsiya	162	78
Tabiiy resurslarni qayta ishlash	147	0
Ma'muriy islohotlar	97	40
Huquqni muhofaza qilish	102	0
Ichki ishlar	27	13
Savdo-sotiq	5	2
Shaharlar obodonchiligi	75	33
OAV va madaniyat	30	27
<b>Jami</b>	<b>1718</b>	<b>538</b>

2003-yil davomida Afg'onistonga ko'rsatilgan moliyaviy ko'makning miqdoriga nazar tashlaydigan bo'lsak, ahvol yanada og'irroq ekanligi ma'lum bo'ladi, ya'ni rejalashtirilgan 2,2 mlrd. AQSH dollaridan atigi 371 mln. AQSH dollari (16 %) miqdoridagi mablag' afg'on hukumatiga berilganligi qayta tiklash jarayonida amalga oshirilayotgan ishlarning to'la bajarilishini shubha ostiga qo'yadi.

Afg'onistondagi qayta tiklash jarayonini boshqa davlatlar va hududlarda amalga oshirilgan qayta tiklash jarayonlari bilan solishtiradigan bo'lsak, Afg'onistondagi jarayon birmuncha og'ir kechishi mumkinligi va ko'p mablag' talab qilishi hamda o'ziga xos ba'zi xususiyatlarni inobatga olgan holda olib borilishi lozimligi namoyon bo'ladi. Jumladan, 2001–2002-yillar davomida Iordan

daryosining g'arbida joylashgan 2 mln. aholi yashaydigan Falastin hududlarining iqtisodiy rivojlanishi uchun ajratilgan mablag'lar 3 mlrd. AQSH dollarini tashkil esa, 5 mln. aholi istiqomat qiladigan Bosniyani qayta tiklash uchun Xalqaro hamjamiyat 1995–1999-yillar davomida 5,4 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratgan edi. Ammo, BMT mutaxassislarining fikricha, Afg'onistonda barcha hududlarni minalardan tozalash uchun ketadigan mablag'larning minimal miqdori 500 mln. AQSH dollarini tashkil etadi va bu ishlar 10 yil muddat davomida olib borilishi mumkin.

2002–2003-yillar mobaynida Xalqaro hamjamiyat ajratgan mablag' va yordamlarni Afg'oniston aholisi jon boshiga taqsimlaganda rejalashtirilgan 182 AQSH dollari o'rniga atigi 67 AQSH dollarini tashkil etganligi ma'lum bo'ladi va bu raqam qayta tiklash ishlari olib borilayotgan boshqa hududlar aholi jon boshiga ajratilgan mablag'dan anchagina kamdir (Ruandaning har bir fuqarosi uchun 1994–1996-yillar davomida 98 AQSH dollari, Bosniya va Gersegovina uchun 1995–1997-yillar mobaynida 249 AQSH dollari, Sharqiy Timor uchun 1999–2001-yillar mobaynida 256 AQSH dollari ajratilgan).

## **AFG'ONISTON XAVFSIZLIK TUZILMALARINI YANGIDAN YO'LGA QO'YISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR**

2001-yilgi Bonn kelishuvlariga asosan Xalqaro hamjamiyat tomonidan xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha markaziy davlat institutlarini shakllantirishga kirishildi hamda "Tolibon" harakati va shu kabi kuchlarga qarshi kurashda muhim tayanch bo'lishi uchun Afg'oniston mudofaa vazirligi tarkibida Afg'on Milliy Armiyasi (AMA) hamda Afg'oniston ichki ishlar vazirligi tarkibida Afg'on Milliy Politsiyasi (AMP) tuzila boshlandi<sup>134</sup>. Xavfsizlik tuzilmalari dastlab 60 ming nafardan iborat armiya, 8 ming nafar harbiy havo

---

<sup>134</sup> Seth G. Jones, Arturo Munoz. Afghanistan's Local War: Building Local Defense Forces. – Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2010. – P. 6.

kuchlari, 12 ming nafar chegara qo‘shinlari va 70 ming nafar politsiya kuchlaridan iborat tarkibda tashkil etilishi rejalashtirildi<sup>135</sup>.

2002-yil 20-iyundagi Afg‘oniston o‘tish hukumatining qaroriga asosan mamlakat Qurolli Kuchlari tashkil etildi.

2002-yil 1-dekabrda Afg‘oniston rahbari H.Karzay Afg‘on Milliy Armiyasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko‘zda tutuvchi hujjatni imzoladi. Mazkur hujjat asosida afg‘on Qurolli Kuchlari, mujohidlarning harbiylashtirilgan bo‘linmalari va boshqa yarim harbiy guruhlar mudofaa vazirligi nazorati ostiga olindi. 2005-yil 11-iyunda Afg‘onistonda “No-qonuniy qurolli guruhlarni qurolsizlantirish” ishlari boshlandi. Bu jarayonda mujohidlarning harbiylashtirilgan bo‘linmalarini qurolsizlantirish va boshqa qurolli guruhlarni tugatish hamda AMA va Afg‘on Milliy Politsiyasini shakllantirish ishlari olib borildi.

2005-yilga kelib AMA harbiy xizmatchilari soni 30 mingga yetkazildi. Batalon va brigada bo‘linmalari, hududiy qo‘mondonlik shtablari (Kobul, Gardez, Qandahor, Hirot va Mozori Sharif) va bir qancha garnizonlarga asos solindi<sup>136</sup>.

Bugungi kunga kelib, AMA tarkibi 195 ming nafarga yaqin harbiylardan iboratdir (Quruqlikdagi qo‘shinlar – 149 ming nafardan ortiq, Havo kuchlari – 8 ming nafardan ortiq va Maxsus operatsiya qo‘shinlari – 17 ming nafardan ortiq)<sup>137</sup>.

Hozirda tegishli islohotlar natijasida birmuncha takomillashtirilgan Afg‘oniston armiyasining quruqlikdagi qo‘shinlari asosini 6 ta armiya korpusi (AK) tashkil qiladi. Ular

<sup>135</sup> Ali A. Jalali. *Rebuilding Afghanistan’s National Army / Parameters*, US Army War College Quarterly – Autumn 2002. – P. 82. <http://strategicstudiesinstitute.army.mil/pubs/parameters/Articles/02autumn/jalali.htm>

<sup>136</sup> C.J. Chivers. *Supplier Under Scrutiny on Arms for Afghans*. March 27, 2008. Available at: [http://www.nytimes.com/2008/03/27/world/asia/27ammo.html?\\_r=1&](http://www.nytimes.com/2008/03/27/world/asia/27ammo.html?_r=1&)

<sup>137</sup> Office of the Secretary of Defense. *Justification for FY 2016. Overseas Contingency Operations (OCO) Afghanistan Security Forces Fund (ASFF) / Department of Defense, Defense Budget, FY2016.* – Washington, D.C., February 2015. – P.4. <http://comptroller.defense.gov/Portals/45/Documents/defbudget/fy2016/FY16-J-B.pdf>.

asosan Afg‘onistonning strategik jihatdan quyidagi muhim hududlar markazlarida joylashtirilgan.

- Bosh Shtab – Kobul shahrida;
- 201-korpus – Kobul shahrida;
- 203-korpus – Gardez shahrida;
- 205-korpus – Qandahor shahrida;
- 207-korpus – Hirot shahrida;
- 209-korpus – Mozori Sharif shahrida;
- 215-korpus – Lashkar Goh shahrida;
- Milliy Kommandos brigadasi – Kobul shahrida;
- 111-brigada – Kobul shahrida<sup>138</sup>.

Armiya korpuslari umumiy hisobda 20 ta yirik brigadalardan tashkil topgan<sup>139</sup>.

Afg‘oniston Harbiy Havо Kuchlari (HHK) o‘z tarkibiga 3 ta aviabo‘linmani birlashtiradi. Shu bilan birga, HHKda 2 ta alohida Mi-17 va Mi-35 vertolyotlari bilan qurollangan eskadrilya mavjud. Aviatsiyaning umumiy soni 50 dan ortiq samolyot va 50 dan ortiq vertolyotdan iborat. Biroq, mazkur texnikalarning asosiy qismi o‘z ekspluatatsiya resurslarini ishlab bo‘lgan va bugungi kunda kapital ta‘mirlashga muhtoj. HHKning ta‘minot bazalari Qandahor, Bagrom va Shindonda joylashtirilgan bo‘lib, imkoniyatlari Hirot, Mozori Sharif va Jaloloboddagi obyektlar hisobidan kengaytirilgan. Ta‘kidlab o‘tish joizki, AIR havo qatlamlari bugungi kunda AQSH HHKlari tomonidan nazorat qilinmoqda. Shuningdek, HHK mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan va An-12, An-32, An-26 samolyotlari bilan ta‘minlangan. Keyingi paytda Afg‘oniston Harbiy Havо Kuchlarining AQSHda ishlab chiqarilgan harbiy samolyotlar bilan ta‘minlanishi natijasida afg‘on armiyasida mazkur harbiy texnika vositalaridan mohirlik bilan foydalana oladigan professional kadrlarning yetishmasligi muammosi yuzaga chiqmoqda.

---

<sup>138</sup> Afghan National Army Command & Corps Structure from Institute for the Study of War. October 2014. <http://www.understandingwar.org/afghanistan-national-army-ana>

<sup>139</sup> Antonio Giustozzi. The Afghan National Army // Afghanistan Analysts Network, 2007. – P. 4.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda afg'on armiyasi qo'mondonligi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida Maxsus Operatsiya Qo'shinlari (MOQ)ni shakllantirish va uni takomillashtirishni belgilab olgan. Ushbu qo'shinlarning tashkiliy tuzilmasi 2012-yilda tasdiqlangan bo'lib, uning tarkibi 2 ta brigada, maxsus vertolyot eskadrilyasi, 5 ta maxsus batalon, psixologik operatsiyalar bataloni, razvedka bo'linmasi va moddiy texnik bo'linmalaridan tashkil topgan<sup>140</sup>.

AMA saflaridagi harbiy xizmatchilarni o'qitish ishlari AQSH boshchiligidagi koalitsion kuchlar tomonidan olib borilmoqda. AIR Mudofaa vazirligi qoshida Afg'on milliy armiyasining o'quv qo'mondonligi (AMAO'Q) mavjud. U afg'on armiyasi saflaridagi harbiylarga ta'lim berish va ularni tayyorgarlikdan o'tkazish ishlari bilan shug'ullanadi. Mazkur harbiy o'quv yurti tarkibi – Qo'mondonlik-shtab kolleji, Afg'oniston milliy harbiy bilim yurti va Qobul harbiy tayyorgarlik markazidan iborat. AMAO'Q dastlab NATO ko'magida tashkil qilingan 13 ta maxsus ta'lim markazidan iborat edi.

Afg'oniston Milliy Armiyasi shaxsiy tarkibini shakllantirish mamlakat Mudofaa vazirligi tomonidan olib boriladi. O'rnatilgan tartibga ko'ra, afg'on armiyasi saflarida xizmat qilish uchun 22–30 yosh oralig'idagi talabgorlar 4 yillik muddatga ixtiyoriy asosda taklif qilinadi. Tanlov jarayoni rasmiy ravishda ixtiyoriy tartibda amalga oshirilsada, AMA shakllanish jarayonining ilk davrida uning tarkibi asosan milliy armiyada o'z vakillariga ega bo'lish maqsadida mahalliy dala qo'mondonlarining harbiy bo'linmalari bilan to'ldirilgan edi. AMAni shakllantirishda ko'pmillatlik va etnik muvozanatning ta'minlanganlik tamoyiliga asoslanish zarurligi belgilab qo'yilgan.

2002-yil 2-mayda Vashingtonda o'tkazilgan Qo'shma Shtatlar va Yevropa Ittifoqi sammitidagi qarorga asosan, AMAni shakllantirish AQSH Mudofaa vazirligi zimmasiga yuklatildi. Shu bilan birga,

---

<sup>140</sup> Matthew Chlosta. ANA Commandos First on the Ground in Marjah. 2007. <http://www.rs.nato.int/article/news/ana-commandos-first-on-the-ground-in-marjah.html>.

Buyuk Britaniya, GFR, Xitoy, Hindiston, Italiya, Turkiya, Pokiston kabi davlatlar ham AIR armiyasi jangovar shayligini oshirishga moliyaviy va texnik ko‘mak berishga tayyor ekanliklarini bildirishdi.

Afg‘on armiyasini yangidan shakllantirish boshlangan 2001-yildan buyon o‘tgan 15 yil davomida bir necha yo‘nalishda ishlar amalga oshirilib, bu jarayonlarga katta miqdordagi moliyaviy xarajatlar sarflanganligiga qaramasdan, afg‘on xavfsizlik kuchlari haligacha xorijiy davlatlar ko‘magisiz to‘liq mustaqil harakat qila olmaydi.

2013-yil holatiga ko‘ra, milliy armiya tarkibida bo‘lgan 23 brigadadan faqat bittasi Xavfsizlikka Ko‘maklashuvchi Xalqaro Kuchlar (ISAF) ko‘magisiz mustaqil jangovar harakatlarini amalga oshira oladi<sup>141</sup>. Muammolardan yana biri AMAda og‘ir qurol-aslahaning yetishmasligidir. Samolyot va vertolyotlarning nosozligi, minomyot va tankka qarshi moslamalar yetishmasligi Foryob, Balx va Qunduz viloyatlarida joylashgan 209 armiya korpusida kuzatiladi.

Ayni paytda, Afg‘onistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini moliyaviy ta‘minoti uchun yiliga 8 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag‘ talab etiladi. AIR iqtisodiyotining bugungi kundagi holatidan kelib chiqib aytish mumkinki, hukumat AQSH va boshqa xorijiy davlatlarning moliyaviy ko‘magisiz Afg‘on hukumati mazkur xarajatlarni qoplay olmaydi.

2012-yilda AQSH va Afg‘oniston o‘rtasida strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. Ushbu hujjatga asosan, AQSH tomonidan Afg‘onistonga harbiy yordam ko‘rsatilishi belgilab qo‘yildi hamda AIRga “AQSHning NATOdan tashqaridagi asosiy ittifoqdoshi” maqomi berildi. 2014-yil 30-sentabrda AQSH va AIR o‘rtasida imzolangan “Xavfsizlik va mudofaa masalalari bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida”gi ikki tomonlama shartnoma talablari asosida, hozirda Afg‘onistonda faoliyat yuritayotgan 10

---

<sup>141</sup> Бобокулов И.И. Афганская трансформация: приоритеты и ключевые проблемы / Центральная Азия и Кавказ, Том 16, Выпуск 2, 2013.



ming nafarga yaqin AQSH harbiy kuchlari zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifa ham aynan Afg'oniston milliy armiyasi va politsiyasini jangovar shayligi va qobiliyatini oshirish hisoblanadi<sup>142</sup>.

AQSH va uning ittifoqchilari ko'magi doirasida, bugungi kunda AIRdagi 350 ga yaqin harbiy obyektlar barcha infratuzilmaviy sharoitlar bilan ta'minlanib, 15 mingga yaqin harbiy avtomobillar, 1600 atrofida bronetexnika vositalari afg'on armiyasi ixtiyoriga topshirildi. 2012–2014-yillar oralig'ida 7 ta umumiy harbiy hamkorlik mashg'ulotlari va 40 ga yaqin AMA hamda XKXX hamkorligida maxsus taktik mashg'ulotlar o'tkazildi<sup>143</sup>.

2001-yil oxiri va 2002-yil boshlaridan boshlab mamlakatga XKXX kiritilgandan so'ng **Afg'on Milliy Politsiyasi (AMP)**ning yangi tarkibini shakllantirish ishlari boshlandi. Afg'oniston Islom Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi tarkibiga kiruvchi quyidagi turli tuzilmalar faoliyat yuritadi: Afg'on umumiy politsiyasi, Afg'on Milliy yordamchi politsiyasi, Afg'on fuqarolik nazorati politsiyasi, Afg'on Narkotiklarga qarshi kurash politsiyasi, Terrorizmga qarshi kurash departamenti, Afg'on mahalliy politsiyasi va Chegara politsiyasi<sup>144</sup>.

Ushbu bir-biridan mustaqil boshqarma va bo'limlar turli vazifalarni bajarishi belgilangan. Masalan, Afg'on Milliy yordamchi politsiyasi politsiyaga ko'mak berib turgan hamda unda bir yil xizmat qilgan va maxsus ko'rikdan hamda qo'shimcha kursdan o'tgan harbiy xizmatchilarni politsiya tarkibiga olishni belgilagan.

Afg'on umumiy politsiyasi – AMPning yirik tuzilmasi bo'lib, bugungi kunda ushbu tuzilma saflarida 90 ming nafardan ortiq politsiya xodimi faoliyat yuritmoqda. Afg'on umumiy politsiyasi qonunchilik

---

<sup>142</sup> SECURITY AND DEFENSE COOPERATION AGREEMENT BETWEEN THE UNITED STATES OF AMERICA AND THE ISLAMIC REPUBLIC OF AFGHANISTAN. 2014. <http://mfa.gov.af/en/news/bsa>

<sup>143</sup> Anthony H. Cordesman. Transition in Afghanistan: Loosing the Forgotten war? The need to reshape US strategy in Afghanistan, Pakistan, and Central Asia. – Washington, D.C.: CSIS, 2015. – P. 91.

<sup>144</sup> Center for Security Governance. The Afghan National Security Forces Beyond 2014: Will They Be Ready? – №2, February 2014.

bajarilishini nazorat etish, Afg'on hokimiyat idoralarini qo'riqlash, jamoat tartibini saqlash kabi vazifalarni bajaradi va mamlakatning barcha viloyatlarida ushbu tuzilmaning bo'linmalari mavjud. Shuningdek, Afg'on patrul politsiyasi ham Afg'on umumiy politsiyasi tarkibida faoliyat olib boradi va ushbu tuzilmaga mamlakat bo'ylab yo'llarda harakatlanish bo'yicha xavfsizlikni ta'minlash mas'uliyati yuklatilgan. Afg'on fuqarolik nazorati politsiyasi – 2006-yilda katta shaharlarda tartibsizliklarni oldini olish, favqulodda holatlarda hududlar barqarorligini ta'minlash, yuqori darajali tahdid mavjud hududlarni qo'riqlash kabi vazifalar yuklatilgan. AMPning ushbu bo'limi 14 500 nafar xodimdan iborat bo'lib, hozirda Kobul, Qandahor, Hirot, Gardez va Helmand viloyatlarida bo'linmalari mavjud.

Afg'on chegara politsiyasi – Afg'oniston chegaralarini qo'riqlash, mamlakatga kirish va chiqishni nazorat qilish, noqonuniy tovarlar kirim-chiqimi (kontrabanda), xalqaro aeroportlar hududlari, fuqarolar xavfsizligini, shuningdek, chegaralardan 50 km uzoqlikdagi ichki hududlar xavfsizligini Afg'on umumiy politsiyasi bilan birgalikda ta'minlash vazifalarini bajaradi. Afg'on chegara politsiyasida 40 ming nafardan ortiq chegarachi mavjud. Hozirgi kunda Afg'on chegara politsiyasining joylarda 6 ta bo'limi hamda ularga qarashli postlari mavjud. Jumladan, O'zbekiston bilan chegaradosh hududlarda Mozori Sharif chegara bo'limining Balx bo'linmasiga qarashli Sho'rtepa va Kaldor postlari faoliyat yuritadi.

Jinoyat-qidiruv departamentida AMPning 4000 nafardan ortiq xodimlari faoliyat yuritib keladi va ularning ko'pchiligi poytaxt Kobulda jinoyat-qidiruv ishlari hamda ularni sudga oshirishga oid hujjatlashtirish, jinoyat ekspertizasi kabi ishlar bilan shug'ullanadi.

2003–2004-yillar davomida 35 ming nafar xodim bilan tashkil etilgan AMP shaxsiy tarkibida so'nggi yillarda o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Afg'on Milliy Politsiyasi tizimidagi e'tiborga loyiq jihat shundaki, uning tarkibida ko'pchilik xotin-qizlar faoliyat yuritib kelmoqda va bunday holat islom an'analariga xos hayot tarziga rioya etuvchi mamlakat uchun katta ahamiyatga ega. Xususan, hozirgi

vaqtda AMP tarkibida 4 ming nafarga yaqin ayol politsiyachilar mavjud. 2014-yil yanvar oyida polkovnik Jamila Biyaz ilk bor Kobul politsiya bo'limining boshlig'i etib tayinlandi. Afg'oniston IIV ko'rsatmasiga ko'ra, kelgusida xavfsizlik choralari kuchaytirish maqsadida har yili politsiya saflariga 1000 nafardan ortiq xotinqizlarning ishga qabul qilinishi belgilab olindi. Chunki, Afg'oniston sharoitida so'nggi yillarda "Tolibon" harakati va boshqa ekstremistik guruhlar tomonidan qo'poruvchilik maqsadlarida ayollardan keng foydalanish holatlari ko'plab uchramoqda. Afg'on an'alariga ko'ra esa, begona erkakning notanish ayolga yaqinlashishi va tintuv qilishi taqiqlangan. Islom shariati normalari amal qilinadigan davlatda bunday harakatlar aholi tomonidan salbiy qabul qilinadi va shu sababli hozirgi paytda bu kabi vazifalarni ayol politsiyachilar bajarishi belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, shubhali jinoyatchilar ayollar orasiga kirib ko'zdan yashirinmoqchi bo'lsa, uni ta'qib qilish ayol politsiyachiga noqulaylik tug'dirmaydi va fuqarolar orasida ham norozilikka sabab bo'lmaydi. Shu boisdan, Afg'oniston hukumati yaqin kelajakda AMP tarkibida ayollarning ulushini 10 %ga yetkazishni rejalashtirishmoqda. Bu borada 2015-yil yanvar oyidan maxsus loyihani amalga oshirish boshlandi va mazkur loyiha doirasida yaqin 10 yil davomida AIR politsiya tizimida ayol politsiyachi xodimlar sonini 10 ming nafarga yetkazish mo'ljallanmoqda.

Texnik jihatdan va qurollar turi bilan ta'minlanishiga ko'ra hozirda AMP tasarrufida 1000 dan ortiq avtotexnika vositalari mavjud. 2014-yilning sentabr oyida Uelsda bo'lib o'tgan NATO sammitida Shimoliy Atlantika Ittifoqiga a'zo davlatlar tomonidan Afg'on Armiyasi va Politsiyasiga berilayotgan moddiy yordam hajmini 2014-yildan keyingi davrda yiliga 4,1 mlrd. AQSH dollaridan 5,1 mlrd. AQSH dollarigacha oshirishga qaror qilindi.

Afg'on Milliy Xavfsizlik Kuchlarini mamlakatda istiqomat qiluvchi milliy-etnik birliklar nisbatidan kelib chiqib shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

2003-yilda Afg'oniston Qurolli Kuchlari shakllantirilishi jarayonida etnik balansni saqlab qolishni kafolatlovchi rahbariy

tamoyillar e'lon qilingan edi. Xususan, shaxsiy tarkibning 38% pushtunlardan, 25% tojiklardan, 19% hazoriylardan, 8% o'zbeklardan tashkil topishi kerak edi. Ammo, bugungi kunda Afg'on Milliy Xavfsizlik Kuchlari etnik tarkibida asosiy o'rinni pushtunlar va tojiklar egallab kelmoqda.

## **AFG'ONISTONNING IQTISODIY SALOHİYATI VA UNI QAYTA TIKLASH JARAYONI**

Afg'onistonda "Tolibon" hukumati ag'darilgach, mamlakatga qaytib kelgan 3 mln. nafardan ortiq qochoqlarga yordam berish, irrigatsiya va energetika tizimlarini qayta tiklash hamda ta'lim, sog'liqni saqlash sohasidagi jiddiy kamchiliklarni bartaraf etish, umuman olganda bir necha yillik urush natijasida butunlay vayron bo'lgan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini qayta tiklash ishlarini olib borishni vaziyat taqozo qilar edi. Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi juda nochor ahvolga tushib qolgan bo'lib, XXI asr boshida elektr energiyasidan faqat 6% afg'on aholisi, dastlabki tibbiy yordamdan esa 10% aholi foydalana olar, afg'onlarning boshlang'ich ta'lim olganlik darajasi esa 12% ga yetar edi.

XXI asr boshida mamlakatda yirik ishlab chiqaruvchi birorta ham korxonalar qolmagan, faqat qo'l bilan sanarli miqdordagina o'rta darajadagi korxonalar achinarli holda faoliyat yuritir, mavjud kichik korxonalarning ham ahvoli nochor edi.

Afg'oniston ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini darrov tiklab bo'lmashligini va ushbu jarayonda olib boriladigan ishlarning ustuvor strategiyasini tuzish lozimligini ilgari surgan Jahon Banki qisqa, o'rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqishni taklif etdi. Jahon Bankining rejasiga ko'ra, Afg'onistonda birinchi navbatda Xalqaro hamjamiyat tomonidan ko'rsatilayotgan insonparvarlik yordamlari o'rniga mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga asos bo'ladigan sohalarga tegishli moliyaviy dasturlarni amalga oshirish lozimdir.

Bu boradagi ustuvor yoʻnalishlardan biri qishloq xoʻjaligi boʻlib, Afgʻonistonning agrar davlat ekanligini hisobga olgan holda, irrigatsion tizimlarni qayta tiklash, qishloq xoʻjalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy va moddiy (qishloq xoʻjaligi ekinlarining urugʻlari va oʻgʻitlar) tomondan koʻmak koʻrsatish zarur.

Shuningdek, migratsion muammolar, turar joylar, maktab va shifoxonalarni tiklash hamda yangilarini qurish kabi masalalar ham katta eʼtibor talab qiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, aholini transport yoʻllari, irrigatsion kanallar va boshqa infrastrukturaviy inshootlarni qayta tiklashga jalb qila borib, ish bilan taʼminlash lozim. Oʻrta muddatdagi ustuvor yoʻnalishlarga mamlakat moliyaviy tizimining faoliyatini yaxshilash, Afgʻoniston Markaziy Banki faoliyatini qayta yoʻlga qoʻyish, iqtisodning shaxsiy sektori rivojlanishi uchun bir qator shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, sogʻliqni saqlash, xalq taʼlimi va oliy taʼlimni yoʻlga qoʻyish kabi masalalar kiradi. Uzoq muddatli ustuvor yoʻnalishlar sifatida esa, sanoat korxonalarini qurish, urush davomida vayron boʻlgan shaharlarni qayta taʼmirlash kabi masalalar kiradi.

2001-yildan keyingi davrda Afgʻoniston iqtisodiyotini qayta tiklashga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, transport va energetika sohalarida 10 ga yaqin loyihalar toʻla moliyalashtirib birmuncha yutuqlarga erishildi. Afgʻonistonning mintaqaviy integratsion jarayonlarda, xususan yirik transport kommunikatsiyalari loyihalarini amalga oshirishdagi ishtiroki, avvalo oʻzining iqtisodiy rivojlanishiga asos boʻlib xizmat qiladi.

XXI asr boshiga kelib Afgʻonistonda jami 23700 km avtomobil yoʻllari mavjud boʻlsa, shundan 6000 km davlat ahamiyatidagi yoʻllar, 2700 km ikkinchi darajadagi yoʻllar va qolgan 15000 km esa mahalliy ahamiyatga ega qattiq qoplamasiz yoʻllar hisoblanadi.

2002-yilda Osiyo Taraqqiyot Bankining hisob-kitobiga koʻra, Afgʻonistondagi 6000 km davlat ahamiyatidagi yoʻllarning atigi 17%i oʻrta holatda edi. Ushbu bank ekspertlarining bildirishicha, Afgʻonistondagi avtomobil yoʻllarini qayta tiklash va rekonstruksiya

qilish uchun 2002–2005-yillar mobaynida 650 mln. AQSH dollari, keyingi 5 yil davomida yana 660 mln. AQSH dollari sarflanishi lozimdir. Umuman, 10 yil davomida butun yo‘l-transport tizimini qayta tiklash uchun 2 mlrd. AQSH dollaridan ziyod miqdorda mablag‘ talab qilinadi.

Afg‘oniston hukumati va xalqaro ekspertlarning fikriga ko‘ra, nafaqat afg‘on transport infrastrukturasi, balki iqtisodiyotning ham qayta faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyatga ega hamda uzunligi qariyb 2400 km bo‘lgan mamlakatning asosiy avtoyo‘l tizimi Kobul – Mozori Sharif – Shibirg‘on – Maymana – Hirot – Qandahor – Kobul “Halqa yo‘li”ni qayta ta‘mirlash lozim. 2002-yilda “Halqa yo‘li”ni xalqaro moliya institutlari va turli tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladigan 4 ta asosiy qismga bo‘lib ta‘mirlash va qurish ma‘lum qilindi:

– birinchi qism: Qandahor – Kobul (taxminan 480 km, qiymati 110,2 mln. AQSH dollari) AQSH, Yaponiya, Saudiya Arabistoni tomonidan moliyalashtiriladi;

– ikkinchi qism: Hirot – Qandahor (taxminan 560 km, qiymati 80,6 mln. AQSH dollari) AQSH, Yaponiya, Saudiya Arabistoni tomonidan moliyalashtiriladi;

– uchinchi qism: Kobul – Puli Xumri – Mozori Sharif – Shibirg‘on – Andxoy (taxminan 546 km, qiymati 84,2 mln. AQSH dollari) Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan moliyalashtiriladi;

– to‘rtinchi qism: Shibirg‘on – Maymana – Hirot (taxminan 615 km, qiymati 177,1 mln. AQSH dollari) Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan moliyalashtiriladi.

Afg‘oniston transport kommunikatsiyalarini qayta tiklash va yangilarini qurish bo‘yicha yuqorida ko‘rib o‘tilgan loyihalar qatorida O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan **transafg‘on transport yo‘nalishining** qurilishi ham istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Ushbu yo‘nalish Markaziy Osiyo davlatlarini Fors qo‘ltig‘i bilan bog‘lashi ko‘zda tutilgan bo‘lib, loyihaga muvofiq Termizdan Mozori Sharif va Hirot shaharlari orqali Erondagi Bandarabos va Choxbahor portlariga chiqish mo‘ljallangan.

Shuningdek, Termiz-Xayraton-Mozori Sharif temir yo‘lining hamda TRASEKA loyihasini qo‘shni davlatlar bilan birgalikda, donor-davlatlar va xalqaro moliyaviy tashkilotlar homiyligida amalga oshirilishi ushbu loyihalarning barcha ishtirokchilari uchun, shu jumladan O‘zbekiston va Afg‘oniston uchun ham keng imkoniyatlarni yaratadi.

2001-yildan keyingi davrda Afg‘oniston yoqilg‘i-energetika tizimining ahvoliga nazar tashlanadigan bo‘lsa, mavjud elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi issiqlik va gidroelektr stansiyalari ayni vaqtdagi mamlakat ehtiyojining qariyb 40%ini qondirayotganligi ma‘lum bo‘ladi. Bir necha yillik urush natijasida elektr stansiyalarida ishlab chiqariladigan elektr tokining hajmi bir necha barobarga qisqarib ketdi va bu inshootlar ham jiddiy zarar ko‘rdi. Chunonchi, 2001-yil holatiga ko‘ra mavjud 100 ga yaqin elektr stansiyalaridan faqat 22 tasi qisman faoliyat yuritgan hamda elektr uzatish liniyalarining 80%i yo‘q qilingan.

Ayni paytda Afg‘onistonda mavjud 3 ta yirik (Naglu, Mahishar – Kobul daryosining o‘rta oqimida va Mozori Sharifdagi stansiyalar) hamda 10 dan ortiq kichik quvvatli elektr stansiyalari mamlakat energetika tizimining asosini tashkil etadi. Ammo, ushbu inshootlarni XX asr ikkinchi yarmida barpo etish davomida kelajakda mamlakat doirasida yagona energetika tizimini yaratish, ya‘ni barcha elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi stansiyalarni bir tizim doirasida birlashtirishdan iborat muhim maqsad va vazifalar qo‘yilmaganligi tufayli Afg‘onistonda energetika sohasining rivoji sust kechdi va bu sohadagi hozirgi holatga ham salbiy ta‘sir o‘tkazmoqda.

2002–2005-yillar davomida Afg‘onistonda elektr ta‘minoti va elektr uzatish liniyalarini qayta tiklash hamda yangilarini qurish borasida Jahon Banki bir necha loyihalarni to‘la moliyalashtirdi. Ammo, ayni damda mamlakat elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatining pastligi va elektr energiyasiga bo‘lgan talabning oshib borishi hisobga olinadigan bo‘lsa, Afg‘oniston yaqin kelajakda qo‘shni davlatlar (O‘zbekiston, Eron, Turkmaniston)ning ko‘magiga muhtoj bo‘lib qoladi.

Afg'onistonda sanoat maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan bir qator xomashyo (bir necha metallarning rudalari, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar)ning yetarli darajadagi zaxiralari mavjud. Jumladan, Kobuldan 40 km uzoqlikda joylashgan Aynak mis konidagi rudaning zaxirasi 11 mln. t ni tashkil etadi va mis rudasi yerning ustki qismida joylashgan bo'lib, qazib olish jarayonida ortiqcha xarajatlar talab qilmaydi.

2007-yilda "Aynak" mis konini tasarruf etish bo'yicha o'tkazilgan xalqaro tenderda AQSH, Kanada, Rossiya, Qozog'iston va Xitoy davlatlarining 9 ta kompaniyasi ishtirok etdi va unda Xitoyning "China Metallurgical Group Corporation" kompaniyasi g'olib bo'ldi. Ushbu kompaniya "Aynak" konini o'zlashtirish loyihasiga 2,9 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' kiritishga tayyorligini bildirdi. Tenderda g'olib chiqqan "China Metallurgical Group Corporation" rudani qazib olish va qayta ishlashni 2012-yil boshiga belgilagan bo'lsa-da, o'tgan vaqt mobaynida ushbu loyihaning amaliyotga tatbiq etilmayotganiga sabab sifatida Afg'onistonda hukumatga qarshi davom etayotgan qurolli harakatlarni ko'rsatish mumkin.

Afg'onistondagi temirga boy (ruda tarkibida temirning miqdori 62%ni tashkil etadi) Xojikeg temir konida esa ruda zaxirasi 500 mln. t ni tashkil etadi. Tahliliy tekshiruvlarga ko'ra, bu ko'rsatkich 2 mlrd. tonnagacha yetishi mumkin. Shuningdek, Kobul shahridan sharqdagi hududlarda bir qator nodir metallarning zaxiralari mavjud. Panjsher va Badaxshon vohalaridagi qimmatbaho toshlarning zaxiralari esa chet ellik tadbirkorlarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Saripul provinsiyasida joylashgan Angot neft konida kichik hajmda neft qazib chiqariladi (neft zaxiralari 11,6 mln. t ni tashkil etadi). Ayni damda uni qazib olishda eskirgan texnologiyalardan foydalanilayotganligi sabab uning foydali ish koeffitsiyenti ancha past. Qazib olingan neftning oz qismi Shibirg'onda qayta ishlanadi.

Bundan tashqari, Afg'onistonning Hirot viloyatida joylashgan ko'mir havzasi 1,5 mlrd. tonna zaxirasi bilan alohida ahamiyatga



ega. Shuningdek, Saripul (Juzjon viloyati) va Daraisuf (Samangon viloyati) ko'mir konlari ham mamlakatning eng katta ko'mir havzalari hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, mamlakat shimolida muhim Afg'on-janubiy turkman neft va gaz havzasi mavjud. Bu konlar Juzjon, Balx va Foryob viloyatlari hududida joylashgan. Umuman, Afg'onistonda yirik 5 ta neft konlari mavjudligi ta'kidlanadi. Misol uchun, Qunduz viloyatida joylashgan Tirpul neft va gaz koni umumiy ravishda 1,6 mlrd. barrel xomashyoga egaligi ma'lum qilingan.

2004–2007-yillar davomida AQSH geologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar yakuniga ko'ra, Afg'onistonning hali foydalanilmay kelayotgan katta miqdordagi uglevodorod resurslarga egaligi, ya'ni qiymati 3 trln. AQSH dollariga baholangan 219 mln. tonna neft, 444 mlrd. kub metr gaz va 77 mln. tonna gaz kondensati mavjudligi ma'lum qilindi.

2015-yilning dekabr oyida AQSHning "Yunokal" Transmilliy kompaniyasi loyihasi asosida Turkmanistondan boshlanib Afg'oniston orqali Pokiston va Hindistongacha borishi rejalashtirilgan Transafg'on gaz quvurining qurilishi boshlandi. Uzunligi qariyb 1700 km ni va yillik gaz o'tkazish imkoniyati 30 mlrd. kub metr gacha yetuvchi ushbu loyihaning qiymati 4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi hamda ushbu loyiha amalga oshiriladigan bo'lsa, Afg'oniston gaz tranzitidan yiliga 400 mln. AQSH dollari miqdorida foyda ko'rishi hamda 12 ming nafardan ortiq ishchi o'rinlari yaratilishi imkoniyati paydo bo'ladi.

Afg'onistonda tabiiy gaz, temir, mis va qimmatbaho toshlarning o'zlashtirilmagan katta konlari mavjud. Biroq, beqaror siyosiy vaziyat hamda markaziy hokimiyatning kuchsizligi bu sohaga qiziqayotgan chet el sarmoyadorlari shashtini yo'qqa chiqarmoqda. Natijada chet ellik xususiy sarmoyadorlar afg'on hukumati bilan hozirgi paytgacha atigi 400 mln. AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritish borasida shartnoma imzolashgan va bu kelishuvlarning asosiy qismi qog'ozda bo'lib hali amalga oshirilgani yo'q.

## **AFG‘ONISTON XALQARO VA MINTAQAVIY JARAYONLARDA**

2001-yil 11-sentabrda AQSHda sodir etilgan terroristik xurujlardan so‘ng, AQSH va Yevropa davlatlari terrorizm tahdidiga birgalikda kurashish uchun birlashishdi. Bu borada **Shimoliy Atlantika Shartnomasi Ittifoqi (NATO)** doirasida G‘arb davlatlarining Afg‘onistonga nisbatan tutgan pozitsiyasi va amalga oshirgan strategiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. 2001-yilda NATOga a‘zo davlatlar AQSHda sodir etilgan terroristik aktlar nafaqat Amerika, balki butun G‘arbga qilingan tahdid deb qabul qilishdi.

2001-yil 20-dekabrda BMT Xavfsizlik Kengashining 1386-sonli rezolyutsiyasi bilan 2001-yil 5-dekabrda Bonn kelishuvlari asosida NATO doirasida ittifoqdosh va hamkor mamlakatlar ishtirokida ko‘pmillatli Xavfsizlikka Ko‘maklashuvchi Xalqaro Kuchlar (XKXX) (International Security Assistance Forces – ISAF) tashkil etildi.

2002-yil boshida Afg‘onistonda faoliyat yuritgan XKXX tarkibida dastlab NATOga a‘zo 17 ta davlatga tegishli 4 ming nafar harbiy xizmatchi mavjud edi. 2003-yilda AQSH yetakchiligida “Tolibon” harakati va “Al-Qoida” xalqaro terrorchilik tashkilotining qurolli tuzilmalariga qarshi amalga oshirilgan “Yengilmas ozodlik” deb ataluvchi harbiy operatsiyaning faol bosqichi yakunlangach, Afg‘onistondagi xalqaro koalitsion kuchlarga qo‘mondonlik qilish NATOga topshirildi.

2003-yilning avgustida NATO Afg‘onistonda afg‘on hukumatiga yordam berish orqali xavfsizlikni ta‘minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oldi. Shuningdek, Afg‘onistonda jangarilarga qarshi koalitsion kuchlar tomonidan o‘tkazilayotgan harbiy operatsiyalarga NATO qo‘mondonlik qildi.

2003-yil 9-dekabrda XKXXning vakolatlari va vazifalari BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari hamda XKXX va AIR hukumati o‘rtasidagi harbiy-texnikaviy kelishuvlarga asosan belgilandi. Ular asosida NATO Kengashi AIRda harbiy tadbirlarda ishtirok

etayotgan, lekin Shimoliy alyans a'zosi bo'lmagan davlatlar bilan ham Afg'onistonda xavfsizlikni ta'minlash borasida doimiy ravishda hamkorlik qilib keldi.

2005-yildan boshlab NATOga a'zo davlatlar Afg'onistonda o'z harbiy kontingenti sonini oshirib bordilar va 2009-yilga kelib afg'on zaminida AQSHning 68 ming nafar askari hamda NATOga a'zo boshqa mamlakatlar va ularning sheriklaridan 38 ming nafarga yaqin harbiy xizmatchi joylashtirildi. NATO shafeligidagi XKXXning Afg'onistondagi kontingenti eng ko'p miqdorni tashkil etgan davr 2011-yilga to'g'ri keladi. Bu vaqtda Afg'onistonda XKXX saflarida 48 mamlakatga tegishli bo'lgan 132 ming nafardan ortiq harbiy bor edi<sup>145</sup>.

NATO shafeligidagi XKXXning dastlabki faoliyati Afg'oniston poytaxti Kobul va unga tutashgan hududlar xavfsizligini ta'minlash va shu orqali Muvaqqat hukumat hamda BMT xodimlarining faoliyat yuritishlarida yordam berish edi.

2003-yilgi BMT XKning 1510-rezolyutsiyasiga muvofiq, NATOning vakolat doirasi Kobul shahri chegarasidan chiqib, asta-sekin butun AIR bo'ylab kengaytirildi. Nazorat avval mamlakat shimoliga va g'arbga, keyinchalik esa janubiy hududlar va nihoyat mamlakatning sharqiga – Afg'onistonning eng xavfli va vaziyat tez o'zgaruvchan bo'lgan mintaqalariga kengaytirildi. O'z faoliyati davomida NATO kuchlari Afg'oniston hududining taxminan 85 %ini qamrab oldi. NATOning Afg'onistondagi operatsiyasi doirasida besh mintaqaviy qo'mondonlik tuzilib, ushbu mintaqaviy qo'mondonliklarga rahbarlik qilish alyansga a'zo quyidagi mamlakatlarning harbiy bo'linmalari zimmasiga yuklatildi: “Shimol” – Germaniya, “G'arb” – Italiya, “Janub” – Buyuk Britaniya, “Sharq” – AQSH va “Markaz” – Turkiya.

2006-yil 28–29-sentabrda Sloveniyada bo'lib o'tgan NATOga a'zo davlatlar Mudofaa vazirlari kengashida AIRga qo'shimcha harbiylar kiritishga qaror qilindi va ular mamlakatning oltita janubiy viloyatlariga kiritilishi belgilandi.

---

<sup>145</sup> International Security Assistance Force (ISAF): Key Facts and Figures. Brussels. September 9, 2011. – P.2.

2010-yilda AIRdagi harbiy-siyosiy vaziyat murakkablashgani bois operatsiyalar olib borishni faollashtirish va optimallashtirish maqsadida XKXX doirasida tuzilgan mintaqaviy qo‘mondonliklar sonini ko‘paytirishga qaror qilindi. Unga ko‘ra, AIRdagi eng notinch hudud hisoblangan janubiy hududda XKXXning ilgari faoliyat yuritgan “Janub” mintaqaviy qo‘mondonligi ikkiga ajratildi hamda “Janub” va “Janubiy-G‘arb” mintaqaviy qo‘mondonliklari tashkil qilindi. Ushbu mintaqaviy qo‘mondonliklar tarkibida 28 ta Viloyatlardagi tiklash guruhleri mavjud edi va ularda XKXX ishtirokchi mamlakatlarining harbiy bo‘linmalari, politsiya xodimlari hamda noharbiy bo‘lgan mutaxassisleri faoliyat ko‘rsatdi. Viloyatlardagi tiklash guruhleri Afg‘onistonda maktab, shifoxona va shu kabi ijtimoiy infrastruktura obyektlarini ta‘mirlash, suv bilan ta‘minlash inshootlarini barpo etish va afg‘on politsiyachilarini o‘qitish ishlari bilan shug‘ullanib keldi.

NATO shafeligidagi XKXXning Afg‘onistondagi missiyasida ishtirok etayotgan davlatlarni shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruh – 2001-yildan buyon Afg‘onistonning eng notinch hududlari bo‘lmish janubiy-sharqiy viloyatlarda “Tolibon” harakati otryadlariga va ashaddiy terroristik guruhlariga qarshi kurashgan AQSH, Yangi Zelandiya va Avstraliya kabi davlatlarning harbiy bo‘linmalari.

Ikkinchi guruh – bevosita janubiy hududlarda harbiy operatsiyalar olib borayotgan AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada va Gollandiya harbiy kontingenti.

Uchinchi guruh – AIRdagi nisbatan tinch shimoliy-g‘arbiy hududlarda harbiy vazifalarni bajarayotgan Ispaniya, Italiya, Germaniya, Fransiya va Turkiya kabi Shimoliy Atlantika ittifoqiga a‘zo mamlakatlarning harbiy kontingentidan iborat. Bu guruhga, nisbatan yangi a‘zolar hisoblanadigan Chexiya, Polsha, Sloveniya, Latviya, Estoniya va NATO a‘zosi bo‘lmagan, ammo Shimoliy Atlantika hamkorligi dasturi (SEAP) bo‘yicha afg‘on muammosini hal qilishda ishtirok etayotgan Gruziya, Ukraina va Ozarbayjon harbiylarini ham kiritish mumkin.

Afg‘on zaminida chet mamlakatlar harbiy kontingenti tomonidan amalga oshirilib kelingan harbiy operatsiyalar 2001-yil 7-oktabrda “Yengilmas ozodlik” operatsiyasi bilan boshlangan bo‘lsa, undan so‘ng 2001-yil noyabr-dekabr oylarida Kobul atroflari va mamlakat janubiy-sharqidagi Tora-Bora tog‘ tizmalarida “Tolibon” kuchlari va “Al-Qoida” terrorchilariga qarshi maxsus harbiy operatsiyalar amalga oshirildi.

2002-yil mart oyida Afg‘onistonda AQSH harbiy yetakchiligida “Al-Qoida” terroristik tashkiloti jangarilariga qarshi “Anakonda” harbiy operatsiyasi amalga oshirildi.

2003–2005-yillarda NATOga a‘zo davlatlar tomonidan Afg‘onistonda harbiy harakatlarni o‘tkazish birmuncha kamaydi. Buni 2003-yilda AQSHning Iroqda harbiy missiya boshlaganligi bilan izohlash mumkin. Natijada Afg‘oniston bo‘ylab “Tolibon” harakatining kuch yig‘ib olishi va mamlakat hududida partizanlik harakatlarning faollashuvi ro‘y berdi. “Tolibon” harakati jangarilari Afg‘oniston-Pokiston chegarasidagi nazoratsiz hududlarda o‘z ta‘sirini kengaytirib, jangovar shayligini oshirib bordi.

Shu tufayli 2006-yilda NATO shafeligidagi koalitsion kuchlar mamlakat janubida harbiy harakatlarni faollashtirib yubordi. Xususan, 2006-yil avgustda “Tog‘ni yorib o‘tish”, sentyabrda “Meduza” hamda 2006-yilning sentabridan 2007-yilning yanvarigacha davom etgan “Tog‘ g‘azabi” nomli harbiy operatsiyalar amalga oshirildi.

2006-yilda Qandahorda o‘tkazilgan “Meduza” operatsiyasi koalitsion kuchlarning yirik masshtabdagi operatsiyalaridan biri hisoblanib, unda Buyuk Britaniya, Kanada, Niderlandiya va birinchi bor AIR harbiylari ishtirok etdi.

2007-yilning mart oyida XKXK kuchlari janubdagi Helmand viloyatida “Lastay Kulang” va “Axilles” deb nomlangan navbatdagi yirik masshtabli harbiy operatsiyani o‘tkazdi.

2008-yilni harbiy harakatlarning mohiyatiga ko‘ra, “Tolibon” harakatining Pokistonning Vaziriston hududidan XKXK harbiylariga qarshi hujumi kuchaygan davr sifatida baholash mumkin.

2009-yil iyun oyida o‘tkazilgan Afg‘onistondagi prezident saylovidan oldin AQSH va Buyuk Britaniya harbiylari tomonidan “Xanjar” nomli navbatdagi yirik masshtabli hamda o‘sha yilning avgustida nemis va afg‘on harbiylari hamkorligida mamlakat shimolidagi Chohar dara uyezdida toliblarga qarshi “Burgut” nomli operatsiya amalga oshirildi.

2010-yilga kelib XKXX tomonidan Afg‘onistonda harbiy operatsiyalar olib borish faollashdi. Jumladan, 2010-yilning fevral-may oylarida AQSH, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Kanada va afg‘on armiyasi harbiylari ishtirokida Helmand viloyatida toliblarning ta’sirini kamaytirish, rasmiy hukumatning nazoratini oshirish hamda narkotik moddalar yetishtirish hajmini qisqartirish maqsadida yirik masshtabli “Mushtarak” operatsiyasi va o‘sha yil avgustida Qandahor viloyatida “Qandahordagi hamkorlik” operatsiyasi o‘tkazildi. Bundan tashqari, 2010-yil sentabr-oktabr oylarida Qandahor viloyatining Argandob, Zari va Panjvay uyezdlarida “Ajdarho zarbasi” deb nomlangan maxsus operatsiya amalga oshirildi.

2010-yilning kuzida germaniyalik harbiylar nazoratidagi mamlakat shimolida vaziyat yomonlashgani bois Balx viloyatida XKXX va afg‘on harbiylari ishtirokida “Navro‘z” nomli yirik masshtabli harbiy operatsiya o‘tkazildi.

NATOga a‘zo davlatlardan Afg‘onistonga kelgan 1400 nafar maslahatchi va 2 ming nafar instruktorlar afg‘on armiyasi harbiy xizmatchilarini tayyorlash jarayonida ishtirok etmoqda.

2010-yildan boshlab Afg‘onistonda faoliyat yuritib kelgan NATO shafeligidagi XKXXning harbiy missiyasini tugatish va chet el harbiy kontingentini afg‘on zaminidan olib chiqish masalasi NATO va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlarda muhokama qilina boshlandi. Ushbu muzokaralar davomida NATO yetakchilari Afg‘oniston xavfsizlik kuchlariga mamlakat xavfsizligini ta’minlashni 2011-yilning iyulidan 2014-yil oxirigacha bosqichma-bosqich topshirib, Afg‘onistondan chet el koalitsion qo‘shinlarini olib chiqish muhokama qilindi. 2015-yilning 1-yanvariga kelib Afg‘oniston hududidan NATO shafeligidagi Xavfsizlikka Ko‘maklashuvchi

Xalqaro Kuchlar to'liq olib chiqib ketildi va shu vaqtdan boshlab Afg'onistonda NATOning "Qat'iy ko'mak" (Resolute Support) deb ataluvchi yangi missiyasi boshlandi<sup>146</sup>.

## **AFG'ONISTONNING ROSSIYA VA XITOIY BILAN MUNOSABATLARI**

XX asr 90-yillari ikkinchi yarmida Rossiya "Tolibon" harakatiga qarshi kurashib kelgan Shimoliy Alyansga homiylik qilib keldi. XX asr 90-yillari oxirida Afg'onistondan tarqalayotgan diniy ekstremizm, noqonuniy qurol-yarog' va narkotik moddalarining tarqalishi xalqaro xavfsizlikka, shu jumladan Rossiya Federatsiyasi (RF)ning janubiy chegaralarida jiddiy tahdidning kuchayishiga olib keldi. O'z navbatida, RF o'z tashqi siyosatida ushbu muammoni adolatli ravishda hal qilishga harakat qila boshladi.

XXI asr boshidan boshlab Rossiyaning Afg'oniston bo'yicha strategiyasida quyidagi yo'nalishlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

– siyosiy (Afg'oniston tashqi siyosatiga ta'sir etish mexanizmini yaratish, mamlakatning siyosiy neytraliteti va hududiy yaxlitligini saqlash);

– iqtisodiy (xalqaro savdo, tranzit loyihalari, istiqbolli bozorga ega bo'lish);

– xavfsizlik (xalqaro terrorizm va narkotrafik tahdidi).

Rossiya-Afg'on munosabatlarining yangi davri AQSH boshchiligidagi koalitsion qo'shinlarning 2001-yil sentabrda Afg'onistonga kirib kelganidan keyin boshlandi. Rasmiy Moskva AQSHning "Tolibon" hukumatiga qarshi harakatlarini qo'llab-quvvatlab, mamlakatda NATO yetakchiligidagi Xavfsizlikka Ko'maklashuvchi Xalqaro Kuchlarning shakllantirilishiga ham rozilik bildirdi. Keyinroq esa Rossiya AQSH tomonidan Afg'onistonda xavfsizlikka daxl qiluvchi har qanday terroristik va ekstremistik kuchlarga qarshi harbiy operatsiyalar o'tkazilishiga, tranzit

---

<sup>146</sup> About Resolute Support Mission. North Atlantic Treaty Organization official site. <http://www.rs.nato.int/mission.html>

yo'laklardan foydalanishga, terrorizmga qarshi preventiv chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga xayrixoh ekanligini bildirdi.

2001-yil oxirida Afg'onistonda "Tolibon" hukumatiga barham berilgach hamda yangi afg'on hukumati ish boshlagach, rasmiy Moskva Afg'oniston bilan do'stona munosabatlarni qayta tiklashga harakat qila boshladi va shu maqsadda Rossiya Federatsiyasi o'z tashqi siyosatida afg'on yo'nalishi bo'yicha samarali choralarni ishlab chiqa boshladi. Rossiyaning bunday siyosat olib borishdan asosiy maqsadi Afg'onistonni to'liq AQSHning nazoratiga tushib qolishini xohlamasligi bilan bog'liqdir.

2002–2005-yillarda Rossiya Afg'onistonda o'zining ta'sirini saqlab qolish maqsadida 200 mln. AQSH dollariga teng harbiy-texnikaviy yordam sifatida Kobul aeroportini himoya qilish uchun havo hujumiga qarshi mudofaa tizimi va aloqa vositalari, shuningdek, 8 ta vertolyot va 4 harbiy transport samolyoti yetkazib berdi. Bundan tashqari, Rossiya tomoni har yili 300 nafar afg'on harbiy xodimlarini Rossiyaning oliy harbiy bilim yurtlarida malaka oshirishi uchun imkoniyatlar yaratib berdi.

2005-yildan keyin Rossiya Federatsiyasi va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlarda sustlashishi ko'zga tashlanadi va rasmiy Moskva tomonidan afg'on hukumatiga berilayotgan harbiy-texnikaviy yordam to'xtatildi. Biroq, ushbu davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning yangi pog'onaga ko'tarilishida 2006–2007-yillarda tomonlar o'rtasida oliy darajadagi uchrashuvlar muhim rol o'ynadi. Ushbu uchrashuvlar davomida Rossiya hukumati Afg'onistonning sobiq Sovet Ittifoqi oldidagi qarzidan voz kechishini ma'lum qildi va o'z navbatida rasmiy Kobul rossiyalik tadbirkorlarning Afg'onistondagi faoliyatini kafolatlashni o'z zimmasiga oldi. Ushbu muzokaralar yakuniga ko'ra, Rossiya 2007-yilda Afg'onistonning 11 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi qarzidan voz kechdi.

2007-yil RF Savdo-sanoat palatasi huzurida rus-afg'on ishchi kengashi tuzildi, o'sha yilning oktabr oyida esa Afg'oniston investitsiya agentligi va RF Savdo-sanoat palatasi o'rtasida "Ikki



tomonlama hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida"gi Memorandum imzolandi. 2008-yildan e'tiboran Rossiya Afg'onistonga o'zining iqtisodiy yordamini oshira boshladi. Xususan, o'sha yili beg'araz yordam sifatida 15 ming tonna bug'doy va 4 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratdi.

2001–2009-yillar mobaynida RF AIRga umumiy summasi 40 mln. AQSH dollariga teng miqdorda gumanitar yordam yetkazib berdi.

2011-yil Rossiya-Afg'oniston hukumatlararo komissiyasi tashkil qilinib unga Rossiya tomondan RFning Energetika vaziri S.Shmatko va Afg'oniston tomonidan Omar Zaxelval boshchilik qilishdi. Komissiyaning birinchi yig'ilishi 2011-yil iyun oyida bo'lib o'tdi.

Ikki davlat o'rtasida munosabatlarda yaqinlashuv holatlarining kuzatilishiga qaramasdan, AQSHning Afg'onistonga ta'siri mintaqada Rossiya pozitsiyasining mustahkamlanishiga to'siq bo'lib turibdi. Rossiya tomoni AQSHning Afg'onistonda yangi harbiy bazalar qurishi Rossiya milliy manfaatlariga zid ekanligini ta'kidlab keladi.

Davlatlaro munosabatlarning umumiy sohalarini modernizatsiya qilish yo'nalishida AIR Prezidenti H.Karzayning 2011-yil 21-yanvarda Moskvaga tashrifi chog'ida ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitimning imzolanishi ular o'rtasidagi munosabatlar rivojlanishiga asosiy qadam bo'ldi. Ushbu kelishuv savdo-iqtisodiy sohada RF va AIR o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning asosiy shart-sharoitlarini o'zida aks ettiradi. Xususan, ushbu hujjatda savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha Rossiya-Afg'oniston Hukumatlararo komissiyasini tuzish ko'zda tutildi. Hukumatlararo komissiyasining asosiy ishi birinchi navbatda, ikki tomonlama loyihalarning ishlab chiqilishiga qaratilgan.

Keyingi yillarda Rossiya va Afg'oniston o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasi hajmi ham o'sib bordi. 2011-yilda ikki davlat o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasi 2004-yilga nisbatan 12,2 marta oshdi. Bunda o'zaro tovar aylanmasi asosan Rossiyaning

Afg‘onistonga eksport qiladigan mahsulotlari hisobiga oshganligini kuzatish mumkin. Xususan, 2011-yilda ikki davlat o‘rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 984,9 mln. AQSH dollarini tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich 2010-yilga nisbatan 1,7 martaga ko‘paydi. Bunda Rossiya tomonining eksporti 953,8 mln. AQSH dollarini, importi esa 31,1 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

2011-yilning 3-noyabrda Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan Afg‘onistondagi mojaroning hal etilishi bilan bog‘liq “Osiyo yuragida xavfsizlik va hamkorlik” nomli konferensiyada RF Tashqi ishlar vaziri S.Lavrov rasmiy Moskva kelajakda Afg‘oniston tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash borasidagi har qanday tadbirda ishtirok etishini ta‘kidlab o‘tgan edi.

Zamonaviy bosqichda Rossiya uchun Afg‘onistondagi mojaro tufayli yuzaga kelgan terrorizm hamda narkotik moddalar muammosining bartaraf etilishi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayni paytda, RF Afg‘onistonga nisbatan o‘zining quyidagi pozitsiyasini ma‘lum qildi va kelgusida ikki tomonlama munosabatlar ushbu pozitsiyadan kelib chiqib amalga oshirilishini yoqlab chiqmoqda.

– o‘zaro ikki tomonlama munosabatlarda afg‘on hukumati bilan aloqalarni salbiylashtirmaslik;

– mintaqaviy muammolar hal etilishida tashqi kuchlarning aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– Afg‘onistondagi mojaroni mamlakat aholisining iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini yaxshilash orqali hal etilishiga intilish;

– Afg‘oniston hududida chet el harbiy bazalarining uzoq vaqt saqlanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– Jahon hamjamiyatining Afg‘oniston bilan bog‘liq siyosiy qarorlarni qabul qilishida Rossiya manfaatlarining hisobga olinishiga ta‘sir o‘tkazish;

– mintaqada diniy ekstremizm tarqalishini oldini olishga qaratilgan tizimni shakllantirish hamda “Tolibon” harakati imkoniyatlarini bartaraf etish.

Afg‘onistondagi xavfsizlik va barqarorlikning ta‘minlanishi Xitoy Xalq Respublikasi (XXR)ning bir necha yo‘nalishlardagi

manfaatlariga mos keladi. 2002-yilda Xitoy hukumati afg'on hukumatiga urushdan keyingi tiklash jarayonlari uchun 150 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratish to'g'risida qaror qabul qildi. Xitoy Afg'onistonga oziq-ovqat mahsulotlarini gumanitar yordam sifatida berib kelmoqda (2009-yilda 4,4 ming tonna don mahsuloti).

2002-yildan keyingi davrda Xitoy kompaniyalari Afg'oniston iqtisodiyotiga yirik investitsiya kiritib kelmoqda. Jumladan, Xitoyning "China Metallurgical Group Corporation" kompaniyasi Aynakda joylashgan Yevroosiyo mintaqasida mis zaxirasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan loyihani tender asosida yutib oldi. Xojikendagi temir rudalar qazib olish bo'yicha loyihalarida ham Xitoyning bir nechta kompaniyalari ishtirok etmoqda.

XXR tomonidan e'lon qilingan "Ipak yo'li iqtisodiy kamari" loyihasining ma'lum qismi aynan mazkur mintaqada amalga oshirilishi belgilangan. Xitoy hukumati AIRdagi beqarorlik mamlakatda Jahon hamjamiyati tomonidan rejalashtirilgan iqtisodiy dasturlarning amalga oshirilishiga to'sqinlik qilishidan xavotirda ekanligini ma'lum qildi. Shuningdek, rasmiy Pekin Xitoydagi Shinjon Uyg'ur Muxtor Hududidagi mahalliy uyg'ur ayirmachi guruhlarining Afg'onistonda faoliyat yuritayotgan terrorchi va ekstremistik tashkilotlar bilan hamkorlik qilishidan xavotirlanayotganligini kuzatish mumkin.

Afg'onistonda AQSH yetakchiligidagi chet el harbiy kuchlari bo'lishining XXR uchun ham ijobiy, ham salbiy taraflari mavjud. Ijobiy tarafi shundaki, Qo'shma Shtatlar qo'shini terrorchilik va ekstremistik tashkilotlar faoliyatining Sharqiy Turkiston bo'ylab kengayishini tiyib turishi mumkin. Salbiy jihati esa, AQSH Afg'onistondagi o'z harbiy infratuzilmasi imkoniyatlaridan foydalangan holda aynan Shinjon Uyg'ur Muxtor Hududidagi ayirmachilik harakatlarini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

2014-yildan boshlab Xitoy afg'on muammosi atrofidagi jarayonlarda o'z ishtirokini keskin faollashtirdi. Yangi saylangan AIR Prezidenti A.G'aniy 2015-yilning martida o'zining birinchi xorijiy rasmiy safarini ham aynan Xitoydan boshlagani hamda

XXR vakillarining Pokiston bilan hamkorlikda Afg'on hukumati va "Tolibon" harakati o'rtasida tinch muzokaralarni o'tkazishga vositachilik qilishga urinayotganligi yuqoridagi fikrni asoslaydi.

## **AFG'ONISTON VA POKISTON O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR**

Zamonaviy bosqichda Afg'oniston va Pokiston Islom Respublikasi (PIR) o'rtasidagi munosabatlar o'ta muhim ahamiyatga egadir. Pokiston tomoni azaldan afg'on rasmiy hukumati bilan iliq munosabatlar o'rnatishga harakat qilib kelgan. 2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin Pokistonning "afg'on siyosati" o'zgardi va xalqaro hamjamiyat tomonidan Afg'onistonda amalga oshirilgan aksilterror operatsiyasini qo'llab-quvvatladi va unda ishtirok etdi.

Bugungi kunda Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar imzolangan bir qator ikki tomonlama hujjatlarga asoslangan holda olib borilmoqda. Xususan, AIR va PIR hamkorligi mintaqada tinchlik, xavfsizlik va rivojlanishni ta'minlash yuzasidan imzolangan "Yaxshi qo'shnichilik to'g'risida"gi Qobul deklaratsiyasi (2002-yil), "Pokiston Islom Respublikasi va Afg'oniston Islom Respublikasi o'rtasida tranzit qatnovi to'g'risida"gi kelishuv (2005-yil), "AIR va PIR terrorizmga qarshi kurashishda hamkorlik to'g'risida"gi memorandum, "Pokiston Islom Respublikasi va Afg'oniston Islom Respublikasi o'rtasida ishonchni mustahkamlash choralarini amalga oshirish uchun ishchi guruhini tuzish to'g'risida"gi shartnoma (2007-yil), "Ikki tomonlama hamkorlik yo'nalishlari to'g'risida"gi qo'shma deklaratsiya (2009-yil), "Islomobod deklaratsiyasi" (2009-yil 13–14-may kunlari Islomobodda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyasi yakunlari bo'yicha imzolangan), "Afg'oniston – Pokiston savdo-tranzit kelishuvi to'g'risida"gi shartnoma (2010-yil oktabr) shular jumlasidandir.

Ikkala davlat o'rtasidagi munosabatlar tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, Pokiston doimo Afg'onistonda beqaror vaziyat mavjud bo'lishidan manfaatdor bo'lib kelgan.

Afg‘oniston o‘z qo‘shnilari orasidan Pokiston bilan eng uzun chegaraga ega bo‘lib, mazkur chegaraning ikkala tomonida ham bir xil millat, ya‘ni pushtunlar va balujlar yashaydi. Pokistonda ayni paytga kelib 30 mln. nafarga yaqin pushtunlar (vaholanki Afg‘oniston hududida 15 mln. nafar atrofida pushtun millatiga mansub aholi yashaydi) va 8 mln. nafarga yaqin balujlar (Balujiston viloyatida) yashayotganligi va ular orasida separatistik harakatlarning mavjudligi rasmiy Islomobodning doimiy xavotiriga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, ikkala davlat ham o‘z tashqi siyosiy strategiyasini ishlab chiqishda pushtunlar masalasiga alohida e‘tibor qaratishi bejiz emas.

Ikki davlatda yashovchi pushtunlarni birlashtiruvchi yagona “Buyuk Pushtuniston” davlatini barpo etishga intilishlar ham Pokiston va Afg‘oniston o‘zaro munosabatlarining rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, Afg‘oniston va Pokiston munosabatlarida davlat chegaralarining qonuniyligi va uni delimitatsiya hamda demarkatsiya qilish bo‘yicha ham muammolar mavjud. Tarixda Buyuk Britaniyaning Hindistondagi ma‘muriyati va Afg‘oniston o‘rtasida o‘rnatilgan “Dyurand chizig‘i” ayni paytda Pokiston va Afg‘oniston o‘rtasida chegara sifatida belgilab qo‘yilgan. Ammo, ushbu chegaraning qonuniyligi shu choqqa qadar birorta ham afg‘on davlati rahbari yoki afg‘on hukumati tan olmagan. Shu sababli bugungi kunda ham Afg‘oniston va Pokiston chegaralarining qonuniyligi masalasi tomonlarning tortishuviga sabab bo‘lib kelmoqda.

2003-yil iyulida chegara tumanlarida Afg‘oniston va Pokiston xavfsizlik kuchlari o‘rtasida qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. Buning natijasidagi tushunmovchiliklar tufayli ish Kobuldagi Pokiston elchixonasida tintuv o‘tkazilishigacha yetib bordi.

2007-yil may oyida Islomobodning Afg‘oniston chegarasida to‘siq tizimini o‘rnatish va mina maydonini barpo etishga harakati ikki tomon chegara kuchlarining qurolli to‘qnashuviga hamda muammoning keskinlashishiga sabab bo‘ldi. Pokiston tomoni ikki davlat o‘rtasidagi chegarada to‘siq barpo etishni transc chegaraviy

terrorizmni to'xtatish va "Tolibon" jangarilari harakatini bartaraf etishga yordam beradi deya umid bildirdi.

O'z navbatida AIR Prezidenti H.Karzay esa rasmiy Islomobodning ushbu tashabbusiga qarshi chiqib, ikki davlat o'rtasidagi chegarada to'siq o'rnatilishi muammoni hal qilmasligini, balki chegara hududlarida istiqomat qiluvchi bir-biriga yaqin qabilalar hamda oilalarning ajratilib qo'yilishiga, buning natijasida Pokiston hududida hukumatga qarshi chiqishlarning yuzaga kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tdi.

PIR hududida ko'p sonli afg'on qochoqlarining mavjudligi, mamlakat ichki xavfsizligiga, ayniqsa Federal boshqaruvdagi qabilalar hududi (FBQH)dagi ichki vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. 2006-yil oktabridan 2007-yil apreliga qadar Pokistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, PIRda hali-hamon 2 mln. nafardan ziyod afg'on qochoqlari borligi ma'lum bo'ldi.

Qochoqlarga Pokiston hukumati budjetidan muayyan miqdorda qo'shimcha sarf-xarajat qilib kelinmoqda. Shu bilan birga, ilgari qochoqlar ishlari bo'yicha BMT Oliy Boshqaruv komissarligi va donor davlatlar Pokistonga qochoqlarni ta'minlab turish uchun turli ko'mak berib kelgan bo'lishsa, ayni paytda ushbu yordam miqdori ancha qisqardi. Jumladan, 1980-yillar boshida Pokistonga afg'on qochoqlarini ta'minlash uchun chetdan keladigan ko'mak yiliga o'rtacha 100 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2005-yilda ushbu ko'mak atigi 4 mln. AQSH dollariga teng bo'ldi<sup>147</sup>. Bunday holat o'z navbatida afg'on qochoqlari orasida kontrabanda, ish-sizlikning oshishi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Pokiston hududidagi 80%dan ortiq afg'on qochoqlari o'z Vatanlariga qaytishni xohlashmaydi. Chunki ular o'zlari moslashgan joyni tashlab, yashash sharoiti qiyin bo'lgan tarixiy Vatanlariga qaytishdan ko'ra, PIRda qolishni afzal ko'radilar.

<sup>147</sup> UNHCR. Searching for solutions: 25 Years of UNHCR – Pakistan cooperation on Afghan Refugees. – Islamabad. June 2005.; Afghan refugees not responsibility of Pakistan alone: Fehmida. 24.07.2008.<http://dailymailnews.com/200807/24/news/dmcitypage07.html>

Ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar terrorizmga qarshi kurash yo'nalishida ham olib borilayotganligini ko'rish mumkin.

2006-yil 7-sentabrda Pokiston Prezidenti P.Musharrafning Afg'onistonga rasmiy tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasidagi chegaradosh hududlarda xavfsizlikni ta'minlash uchun "Tolibon" harakati, "Al-Qoida" va boshqa terroristik tashkilotlarga qarshi Pokiston tomoni kurashni hamda boshqa chora-tadbirlarni yuqori darajada amalga oshirishni davom ettirajagini ma'lum qildi.

2006-yil sentabrda Afg'oniston va Pokiston davlat rahbarlari-ning Vashingtonga rasmiy tashrifi chog'ida, mintaqada barqarorlik va tinchlikni ta'minlash masalasini ikki davlat hududida istiqomat qiluvchi pushtun qabilalari oqsoqollarining Katta Jirgesida muhokama qilish tashabbusi ilgari surildi. Ushbu kelishuvga muvofiq, 2007-yilning 9–11-avgust kunlari Kobulda Afg'oniston-Pokiston Tinchlik Jirgesi bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda Afg'oniston Prezidenti H.Karzay va Pokiston Bosh vaziri Shavkat Aziz, shuningdek, ikki davlat chegara hududlarida istiqomat qiluvchi pushtun qabilalarining 600 ga yaqin yetakchilari ishtirok etdi. Qabila boshlig'i va oqsoqollarni chaqirishdan maqsad o'zaro murosaga kelish yo'llarini topish edi. Bundan tashqari, Jirgeda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq masalalar ham ko'rib chiqildi. Biroq, ushbu Jirge ishini Federal boshqaruvdagi qabilalar hududidagi aksariyat pushtun qabila yetakchilari inkor etganligi ushbu yig'ilishning natijasiz xotima topishiga sabab bo'ldi.

Ushbu yig'ilishning yopilish marosimiga yetib kelgan Pokiston Prezidenti P.Musharraf rasmiy Islomobod tomonidan "Tolibon" harakati qo'llab-quvvatlab kelinganligini tan oldi hamda toliblar bilan bo'ladigan har qanday muzokara faqat Pokiston orqali amalga oshirilishi lozimligini ta'kidlab o'tdi.

Afg'oniston hukumati terrorizmga qarshi kurashda rasmiy Islomobod bilan hamkorlik qilishga ishonchsizlik bilan qarab, uni tez-tez terrorchilarni qo'llab-quvvatlashda ayblab keladi. Rasmiy Kobul Afg'oniston hududiga kirib kelayotgan jangarilar PIR maxsus xizmatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligini

ta'kidlab, undan o'z hududidagi jangari guruhlarga nisbatan tegishli choralar ko'rishni talab qilib kelmoqda. O'z navbatida, Pokiston tomoni toliblar hamda terrorchilarning afg'on zaminidagi qurolli faolligini Afg'oniston hukumatining o'z mamlakatida tartib o'rnatishni o'z zimmasiga olganligida deb hisoblaydi.

Afg'on tomoni Federal boshqaruvdagi qabilalar hududidagi terroristik guruhlar va ekstremistlar bilan rasmiy Islomobod o'rtasida tinchlik kelushuviga erishilishiga hamisha qarshi bo'lib keldi. Bu borada AIR Tashqi ishlar vaziri R.Spanta 2008-yil 5-iyunida PIR Tashqi ishlar vaziri M.Qureyshiy bilan uchrashuvida rasmiy Islomobodning toliblar bilan kelishuvidan afg'on hukumati norozi ekanligini ma'lum qildi.

2007-yilning aprelida Turkiyaning Anqara shahrida Pokiston Prezidenti P.Musharraf va Afg'oniston Prezidenti H.Karzayning navbatdagi uchrashuvi bo'lib o'tdi va Turkiya ishtirokida uch tomonlama ishchi guruhini tuzish, Afg'oniston Islom Respublikasi va Pokiston Islom Respublikasi o'rtasida ishonchni mustahkamlash chora-tadbirlari bo'yicha kelishuvlar imzolandi. Shuningdek, ikki tomon ham har qanday qo'poruvchilik va terroristik aktlarini oldini olish majburiyati qayd etilgan "Anqara deklaratsiyasi"ni imzoladilar.

2010-yil 4–5-dekabr kunlari Pokiston Bosh vaziri Yu.G'iloniyning Afg'onistonga qilgan rasmiy tashrifi davomida 2011-yilning yanvar oyidan boshlab, Pokiston orqali olib kirilgan tovarlar uchun bojsiz savdo qilish va olingan daromadlarni soliqqa tortmaslik tizimini joriy etish, marmar, yarim qimmatbaho toshlar, oziq-ovqat mahsulotlari, avtotransport vositalari kontrabandasiga chek qo'yish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. 2011-yil 10–11-iyun kunlari Afg'oniston Prezidenti H.Karzayning Pokistonga qilgan rasmiy tashrifi davomida 2010-yil oktabrda imzolangan "Afg'oniston–Pokiston savdo-tranzit kelishuvi to'g'risida"gi shartnomada ko'zda tutilgan masalalarni amalga oshirish bo'yicha aniq to'xtamga kelindi. Mazkur shartnomaning kuchga kiritilishi natijasida tranzit yuklarini tashishga bank kafolatlarini berish bandi shartnomadan chiqarib tashlandi va bojxona tariflarini belgilash



hamda sug'urta kompaniyalari tomonidan tranzit yuklari uchun sug'urta kafolatlarining ta'minlanishi yuzasidan kelishib olindi.

“Afg'oniston–Pokiston savdo-tranzit kelishuvi to'g'risida”gi shartnomada ikki tomonlama tranzit yuklarini tashishga mo'ljallangan yangi transport yo'nalishlarini ishga tushirish, Pokistonning Markaziy Osiyo davlatlariga eksport salohiyatini oshirish hamda Afg'onistonning PIR dengiz portlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun ham huquqiy asoslar belgilab qo'yildi. XXI asr dastlabki o'n yilligi va ikkinchi o'n yillik boshlarida Afg'oniston–Pokiston savdo aloqalarining rivojlanishi natijasida ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi hajmi ham oshib bordi. Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasi 2008-yilda 1,3 mlrd. AQSH dollari, 2009-yilda 1,4 mlrd. AQSH dollari, 2010-yilda 1,5 mlrd. AQSH dollari va 2011-yil yakunlariga ko'ra esa 2,5 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. PIRning 2009-yilgi umumiy eksport hajmidagi Afg'oniston ulushi 3%, 2010-yilda esa 8,5%ga yetgan bo'lsa, Pokiston importidagi afg'on ulushi 2009-yilda 0,8%, 2010-yilda esa 1,3% ga teng bo'ldi.

Afg'onistonga Pokistondan asosan tibbiyot uskunalari, to'qimachilik (paxta tolasi, ip gazlama, tayyor mahsulotlar) va oziq-ovqat mahsulotlari (un, guruch, baliq) eksport qilinsa, Pokiston Afg'onistondan quritilgan meva, jun, paxta, mo'yna va teri, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar, afg'on gilami kabi mahsulotlarni import qiladi.

2010-yil oktabrda imzolangan “Afg'oniston–Pokiston savdo-tranzit kelishuvi to'g'risida”gi shartnomaga binoan yigirilgan ip va sintetik shtapel matolar, elektr jihozlari, sintetik ipak tolasi, mexanik asbob-uskunalar, qog'oz va kartonlar, hayvon va o'simlik yog'i, kofe va choy, rezina mahsulotlari, shakar va qandolat mahsulotlari, avtomobil ehtiyot qismlari kabi 10 turdagi mahsulotlar AIRning asosiy import tovarlari sifatida ro'yxatga olinib, ushbu tovarlarning erkin savdo qilinishi belgilab olindi.

2011-yilning 19-iyul kuni PIR Prezidenti A.A.Zardoriy Afg'onistonga rasmiy tashrif bilan keldi. Mazkur tashrif davomida

tomonlar ikki o'rtadagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga chegara hududlarida yuzaga kelayotgan beqaror vaziyat salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini muhokama qildilar. Pokiston Afg'onistonni qayta tiklash ishlarida ham ishtirok etib kelmoqda va bu borada muhim donor davlat ham hisoblanadi. 2006-yilda Pokiston Afg'onistonning ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy qurilishi va boshqa ijtimoiy sohalarni rivojlantirish maqsadidagi jami 20 ta loyihani amalga oshirish uchun 200 mln. AQSH dollari miqdorida moddiy yordam ko'rsatdi.

2012-yil 16–17-yanvar Islomobod shahrida Afg'oniston–Pokiston qo'shma iqtisodiy komissiyasining navbatdagi 8-yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Pokiston Moliya vaziri Hafiz Shayx va Afg'oniston Moliya vaziri Hazrat Omar Zahelval boshchiligidagi ikki tomon vakillari o'zaro hamkorlik masalalarini muhokama qilib, 2015-yilgacha ikki davlat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash miqdorini ikki barovar oshirishga kelishib oldilar. Komissiya yig'ilishida Pokiston tomonidan ajratilgan 300 mln. AQSH dollari miqdoridagi grantlar doirasida amalga oshirilgan loyihalar natijalari ham tahlil qilindi.

Pokistonning "Oil and Gas Development Company Limited" milliy kompaniyasi afg'on gazini uzatish tarmog'ini rivojlantirishga yordam berib kelmoqda. Pokiston tomonidan Afg'onistonga ajratilayotgan iqtisodiy ko'mak asosan aeroportlar hamda avtomobil yo'llariga yo'naltirilmoqda va bu ikki tomonlama savdo aloqalarini yanada kengaytirishga yordam beradi. 2010-yil ma'lumotlariga ko'ra, 60 mingdan ortiq pokistonlik Afg'oniston xalq xo'jaligining turli sohalorida faoliyat olib bordi. Shuningdek, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, qochoqlarga yordam berish, kambag'allikni tugatish, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va ta'lim sohasidagi muammolarni hal qilish, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun Afg'oniston va Pokiston xalqlar do'stligi Assosiatyasi ham samarali faoliyat olib bormoqda.

Afg'oniston va Pokiston o'zaro munosabatlarni o'zaro ishonch hamda do'stlik tamoyillari asosida olib borishga intilishsa-da,

chegara hududlarida xavfsizlikning ta'minlanmaganligi oqibatida o'zaro qurolli to'qnashuvlarning sodir bo'lishi kuzatilmoqda. Xususan, 2011-yil davomida ikki davlat chegara hududlarida bir qator o'zaro to'qnashuvlar ro'y berdi. 2011-yil 28-aprel kuni Pokistonning Angur-Ada shahri yaqinida ikki davlat harbiylari o'rtasida to'qnashuv bo'lib o'tdi. Ushbu to'qnashuvda 12 nafar afg'on askari, 1 nafar Pokiston chegarachisi halok bo'ldi hamda 3 nafar pokistonlik chegarachi va 8 nafar tinch aholi vakillari jarohatlandi.

2011-yilning 20-iyul kuni afg'on askarlari Janubiy Vaziristondagi Pokiston vakolatxonasiga hujum uyushtirishdi. Buning oqibatida 4 nafar pokistonlik askar halok bo'lib, 2 nafari jarohat oldi. 2011-yilning 27-avgust kuni 300 nafar afg'on jangarilari shimoli-g'arbiy Pokiston hududidagi politsiya nazorat punktiga hujum uyushtirishi natijasida 25 nafar pokistonlik askar va 20 nafar jangari halok bo'ldi. 2011-yilning 10-oktabr kuni 200 nafarga yaqin afg'on jangarilarining Pokiston chegarasini kesib o'tishga urinishi oqibatida 1 nafar pokistonlik chegarachi va 30 nafar afg'on jangarisi halok bo'ldi.

Shu bilan birga, Afg'oniston rasmiylari chegara hududlar Pokiston harbiylari tomonidan o'qqa tutilib kelinayotganligi va buning natijasida o'nlab tinch aholi vakillari qurbon bo'layotganligini ta'kidlab kelmoqda. AIR va PIRning ikki tomonlama o'zaro hamkorligi muammolari asosan Federal boshqaruvdagi qabilalar hududi bilan bog'liqligini, shuningdek, o'zaro chegaraning delimitatsiya va demarkatsiya qilish yuzasidagi muammolar, katta miqdordagi afg'on qochoqlari turmush tarzidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolar, bundan tashqari ushbu hududda terroristik guruhlarining faoliyati tez-tez ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda keskinlik holatlari yuzaga kelishiga hamda tortishuvning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

## AFG‘ONISTONNING ERON BILAN MUNOSABATLARI

2001-yilda Afg‘onistondagi “Tolibon” hukumati ag‘darilib tashlangandan keyin Eron Islom Respublikasi (EIR) afg‘on mojarosi-ning bartaraf etilishida BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar faoliyatini qo‘llab-quvvatladi. Bu borada rasmiy Tehron 2001-yilning dekabr oyida bo‘lib o‘tgan Bonn konferensiyasida ishtirok etib, birinchilardan bo‘lib H.Karzay yetakchiligidagi muvaqqat hukumatni tan oldi.

EIR tashqi siyosatida Afg‘oniston yo‘nalishi muhim ahamiyat kasb etadi va afg‘on muammosining hal etilishi yuzasidan rasmiy Tehronning o‘z pozitsiyasiga egaligi va uni amalga oshirilishi Eronni mintaqaviy yetakchi davlatga aylanib borishi bilan birgalikda, mintaqa davlatlari uchun tahdid sifatida qaralayotgan terrorizm hamda narkotik moddalar muammosini oldini olishda o‘z mahsulini bermoqda. Ayni paytda, EIR Afg‘onistonga nisbatan quyidagi pozitsiyasini saqlab kelmoqda:

- rasmiy Kobul bilan iliq munosabatlar yuritish;
- mintaqaviy muammolarning hal etilishida tashqi kuchlarning aralashuviga yo‘l qo‘ymaslik;
- Afg‘onistondagi mojaroni mamlakat aholisining iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash orqali hal etish;
- Afg‘oniston hududida chet el harbiy bazalarining uzoq vaqt saqlanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- Jahon hamjamiyatining Afg‘oniston bilan bog‘liq siyosiy qarorlari qabul qilinishida Eron manfaatlari hisobga olinishiga erishish.

Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos bir qancha omillar mavjud bo‘lib, ular umumiy tarixga egalik, hududiy yaqinlik, o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy aloqalari, umumiy chuqur ma‘naviy va axloqiy negizlarning mavjudligida namoyon bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda, so‘nggi yillar davomida Eron va Afg‘oniston o‘rtasida iqtisodiy hamda madaniy sohalarida 25 dan ortiq shartnomalar imzolandi.

2001-yildan keyingi vaqt mobaynida Afg'oniston va Eron o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarga oid bir qancha loyihalar amalga oshirildi. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, Erondagi afg'on qochoqlari muammosini hal qilish, Afg'onistonda narkotik moddalar yetishtirilishini oldini olish borasida birgalikda samarali faoliyat olib borildi.

Eron va Afg'oniston o'rtasidagi aloqalarni kengaytirish borasida ikki davlat prezidentlari tomonidan Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotining Bokudagi (2006-yil) sammitida, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining (ShHT) Shanxay (2006-yil), Toshkent (2010-yil) va Astanadagi (2011-yil) yig'ilishlarida, mamlakat rahbarlarining forsiyzabon davlatlar uchrashuvida Dushanbe (2006-yil) kengashida hamda BMT Bosh assambleyasining Nyu-Yorkdagi (2006-yil) yig'ilishlari doirasida bo'lib o'tgan o'zaro uchrashuvlarida kelishib olingan edi.

2009-yilning may oyida Eron, Afg'oniston va Pokiston o'rtasida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash borasida uch tomonlama uchrashuv bo'lib o'tdi. Bu uchrashuvda rasmiy Tehron o'z oldiga maqsad qilib mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi ta'sirni kamaytirish va Eronning rolini oshirishni qo'ydi.

Eron hukumati tomonidan afg'on muammosini hal qilishdagi mazkur yondashuv xalqaro konferensiyalarda ham, ikki tomonlama uchrashuvlarda ham ilgari surib kelindi. Rasmiy Tehronning bu yondashuvi 2009-yilda AQSH hukumati tomonidan Afg'oniston borasidagi yangi strategiyasi e'lon qilingandan keyin yanada faollashdi hamda 2011-yilning iyun oyidagi Tehron va 2012-yilning fevral oyida Islomobodda bo'lib o'tgan Afg'oniston muammosini hal qilish borasidagi konferensiyalarda ham ta'kidlab o'tildi.

Rasmiy Tehron kelajakda AQSH harbiy bazalarining afg'on zaminida saqlanib qolishini Eron-Afg'oniston munosabatlariga tahdid sifatida ko'rmoqda. Eronning bu boradagi tutgan mavqei haqida fikr bildirgan yetuk afg'onshunos mutaxassis Sh.Akmalov shunday deydi: "Eronning ikkala tomonida, ya'ni Iroq va Afg'onistonda g'arb davlatlari harbiy kontingentlarining

joylashtirilishi rasmiy Tehron uchun maqbul emas va ayniqsa afg'on zaminining yanada harbiylashtirilishi (chet el harbiy kontingenti miqdorining ko'paytirilishi – R.R.) Eron tomonining xavotiri oshishiga sabab bo'lmoqda"<sup>148</sup>.

Rasmiy Tehron Afg'oniston hududidagi Eron tomon bo'lgan kuchlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish borasidagi ishlarni ham faollashtirmoqda. Bu boradagi asosiy maqsad Eron hududining o'rab olinishiga yo'l qo'ymaslik va AQSH bilan qurolli to'qnashuvlarni yuzaga keltirmaslikdir. Bugungi kunda EIR hukumat rahbarlari chet el qurolli kuchlari tomonidan keng qamrovli harbiy tayyorgarlik ishlari olib borilayotgan Afg'onistonning Eron bilan chegaradosh hududlarini mustahkamlashga harakat qilmoqda.

Eron tomonidan afg'on siyosati borasidagi asosiy yo'nalishlardan biri afg'on narkotiklarining Eron orqali Yevropaga chiqib ketishiga to'sqinlik qilish hisoblanadi. Eron hukumatini mamlakatning Afg'oniston bilan chegaradosh Xuroson, Kermon, Seyiston va Belujiston viloyatlaridagi vaziyat xavotirga solib, bu hududlarda afg'on narkotik moddasi sotuvchilari tomonidan amalga oshirilayotgan terror, odamlarni o'g'irlab ketish hamda mansabdor shaxslarni sotib olish singari jinoyatlar kuchayishi kuzatilmoqda. Eron Afg'onistonda narkotik o'simliklarini ekishga qarshi kurashishga nisbatan olib borilayotgan chora-tadbirlarda faol ishtirok etib keladi. Eron afg'on narkotik moddalar yetishtirish va ularning savdosiga qarshi kurashishda YUNDKP, Afg'onistonga chegaradosh davlatlar hamda donor davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan mintaqaviy rejalarini qo'llab-quvvatlaydi.

Eron Afg'onistonni tiklash bilan bog'liq bo'lgan barcha konferensiyalarda faol ishtirok etdi hamda afg'on tomoniga moliyaviy yordamlar ajratishini ma'lum qildi. Bu borada Eron hukumati Afg'onistonning tiklanishidan asosiy manfaatdor davlat sifatida 2001-yildan keyingi 5 yil davomida 500 mln. AQSH dollari ajratdi hamda ushbu investitsiyani sifatli amalga oshirish maqsadida

---

<sup>148</sup> Акмалов Ш. О некоторых аспектах военно-политической обстановки в Афганистане. // Востокведение. №1–2. 2008. – С.13.

Eron tomonidan maxsus dastur ishlab chiqildi. Eron Prezidenti Muhammad Hotamiy 2002-yilning 13-avgustida Kobulga qilgan rasmiy tashrifi chog'ida xalqaro hamjamiyatni Afg'onistonni qayta tiklashda faol ishtirok etishga chaqirdi. 2002–2004-yillarda Eron hukumati tomonidan Afg'onistonga 381,9 mln. AQSH dollari, 2005–2006-yillarda 100 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag' ajratilgan bo'lsa, 2006–2009-yillarda Afg'oniston iqtisodiyotiga sohalar bo'yicha quyidagicha mablag' ajratildi: temir yo'l qurilish sohasiga – 200 mln. AQSH dollari, mudofaa va bojxona tizimi faoliyatini takomillashtirishga – 16 mln. AQSH dollari, kommunal xo'jaligini rivojlantirishga – 16 mln. AQSH dollari, telekommunikatsiya sohasiga – 10 mln. AQSH dollari, madaniyat va sport sohasiga – 10 mln. AQSH dollari hamda gumanitar sohaga – 38 mln. AQSH dollari.

Eron hukumati Afg'onistondagi iqtisodiyotni qayta tiklash maqsadida boshqa davlatlardan farqli ravishda asosan qishloq xo'jaligi, energetika, yo'l qurilishi va kommunikatsiya sohasiga investitsiya ajratib keldi. 2002-yilda Eron tomoni Afg'onistonda irrigatsion sohani rivojlantirishga hamda mamlakatning shimoliy va g'arbiy viloyatlarida irrigatsiya va aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashga qaratilgan umumiy miqdori 11,5 mln. AQSH dollarini tashkil etuvchi 22 ta loyihani amalga oshirishga kirishdi. Ushbu dastur asosida 2005-yilda Afg'onistonning Hirot, Kobul va Qandahor viloyatlarida 180 ta artezan quduqlari barpo etildi hamda irrigatsiya va ichimlik suvi tizimi tiklandi. 2006-yilda esa Hirot viloyatida eronlik mutaxassislar tomonidan 1200 km uzunlikdagi kanal qurilishi boshlandi.

2001-yildan keyingi davr mobaynida EIR va AIR o'rtasida transport va tranzit sohasida bir qancha kelishuvlar imzolandi. 2003–2004-yillarda Eron ishtirokida Afg'oniston transport yo'lini tiklash borasida ikkita shartnoma hamda to'rtta savdo-tranzit sohasida kelishuvlar imzolandi. Ushbu kelishuvlarga muvofiq, Eron transafg'on temir yo'l tizimini qurish ishlarida ham ishtirok etdi. Bu borada Eron transafg'on temir yo'l tizimining bir qismi hisoblangan

Xaf-Hirot (191 km) temir yo'lini qurib foydalanishga topshirishni o'z zimmasiga oldi.

Bundan tashqari, EIR AIRda avtomobil yo'llari qurilishida ham faol ishtirok etdi. Jumladan, 2004-yilda EIR tomonidan ajratilgan 3 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag' vositasida Eron-Afg'oniston chegarasida Milak ko'prigi qurildi. Shu yilda Eron mablag'i asosida Hirot-Elamqal'a va Hirot-Maymana yo'llari, 2005-yilda esa 123 km uzunlikdagi davlatlararo Doxarun-Hirot tranzit yo'li qurib bitkazildi.

Eron hukumati Afg'oniston iqtisodiyotini qayta tiklash jarayonida energetika sohasiga ham e'tibor qaratdi hamda 2002-yilda qo'shni mamlakatning g'arbiy hududlarida elektr tarmoqlarini barpo etish ishlarini amalga oshirdi. EIR afg'on aholi punktlarini elektr energiyasi bilan ta'minlashga qaratilgan ikkita loyihaning amalga oshirilishiga 13,6 mln. AQSH dollari miqdorida pul ajratdi hamda birinchi loyiha Tayobog'-Hirot yo'nalishida 2003-yilda, ikkinchi loyiha Turbot-Jom-Hirot yo'nalishida 2005-yilda ishga tushirildi.

2005-yil mart oyida bo'lib o'tgan AIR va EIR o'rtasidagi hukumat darajasidagi uchrashuvda yagona hukumatlararo savdo-iqtisodiy qo'mita tuzish hamda Eron tomonidan Afg'onistonga energetika tarmog'ini rivojlantirish uchun 50 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratish bo'yicha shartnoma imzolandi. 2006-yilning boshida ikki davlat o'rtasida energetika sohasida o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha memorandum imzolandi. 2009-yilning 25-martida EIR Prezidenti Ahmadi Najodning Afg'onistonga tashrifi davomida Eron tomonidan ajratilgan 3 mln. AQSH dollari miqdoridagi mablag' asosida Kobulda barpo etilgan Telekommunikatsiya markazining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

2009–2014-yillar davomida Eron kompaniyalari Afg'onistonda 360 mln. AQSH dollariga teng miqdoridagi sanoat sohasiga oid bir qator loyihalarni amalga oshirdi va bu boshqa xomashyo qazib chiqarish bilan shug'ullanuvchi chet el kompaniyalaridan farqli ravishda tayyor afg'on mahsulotlarini jahon bozoriga chiqarilishida yordam berdi.



Shuningdek, Eronning bir qator savdo va sanoat kompaniyalari AIRni qayta tiklash borasidagi ko'pgina loyihalarda ishtirok etishni ko'zlab, Afg'onistonga jami bo'lib 1 mlrd. AQSH dollari miqdorida investitsiya kiritish imkoniyati mavjudligini ma'lum qilishdi. Ikki davlat o'rtasidagi savdo va tranzit sohasidagi aloqalar ham rivojlanib bormoqda. 2002–2010-yillarda ikki davlat o'rtasida faqat savdo-iqtisodiy hamkorlik borasida 35 ta shartnoma imzolandi va amalga oshirildi. Afg'oniston Savdo vazirligining ma'lum qilishicha, 2011-yilda mamlakatda 500 dan ortiq Eron kompaniyalari ro'yxatdan o'tgan holda faoliyat yuritmoqda. 2011-yil avgustda Eronning Qum shahrida bo'lib o'tgan ikki davlat savdo vazirliklari mas'ul xodimlari o'rtasidagi uchrashuvdan so'ng Afg'onistonga investitsiya kiritishlari va erkin faoliyat yuritishlari uchun eronlik savdogarlarga afg'on hukumati tomonidan bir necha imtiyozlar berilganligi ma'lum qilindi.

Ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanib borishida o'zaro tovar almashinuvi hajmining o'sib borayotganligi ijobiy holdir. Xususan, 2001-yilda Erondan Afg'onistonga 52 mln. AQSH dollari miqdorida mahsulot eksport qilingan bo'lsa, 2005-yilda ushbu ko'rsatkich 497 mln. AQSH dollariga yetdi va 2009-yilda esa 1 mlrd. AQSH dollaridan oshdi. 2011-yilda Eron Afg'onistonga 1,5 mlrd. AQSH dollari miqdorida mahsulotlar va xizmatlar eksport qildi. O'z navbatida Afg'oniston uchun o'z mahsulotlarini sotish bo'yicha Eron muhim bozor hisoblanadi. Garchi o'zaro savdo aylanmasi hajmida afg'on tomonining hissasi kamroq bo'lsa-da, keyingi yillarda o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Jumladan, 2001-yilda Afg'onistonning Eronga eksporti 0,7 mln. AQSH dollarini, 2005-yilda 6,3 mln. AQSH dollarini, 2009-yilda 15,3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2011-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 300 mln. AQSH dollari miqdoriga yetdi.

Eron tomonidan Afg'onistonga neft va neft mahsulotlari, dori-darmonlar, avtomobillar, qurilish va plastik jihozlar eksport qilingan bo'lsa, Afg'onistondan rangli metallar, meva va chorva mollari sotib

olinmoqda. Xususan, ayni paytga kelib Afg'onistonda yiliga 3 mln. tonna miqdoridagi neft va neft mahsulotlari iste'mol qilinsa, shuning 70%i Eron dan yetkazib berilmoqda. 2011-yilning dekabr oyida Afg'oniston hukumati Eronning Chohbahor portida yuklarni tranzit qilishda foydalanish uchun savdo markazini barpo etish bo'yicha EIR bilan bitim imzoladi.

Eronning Afg'onistonga nisbatan 2001-yildan keyingi munosabatlarida iqtisodiy va madaniy sohalar yetakchi o'ringa chiqdi. Mamlakat tomonidan Afg'onistonni o'z ta'sir doirasiga saqlab turishda qo'llanilgan siyosiy munosabatlardan farqli ravishda "yumshoq kuchdan" vosita sifatida foydalanish maqsad qilib olindi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, bugungi kunda ikki davlat o'rtasida ilm-fan va madaniyat sohasida aloqalar yo'lga qo'yildi hamda rasmiy Tehron tomonidan Afg'onistondagi fuqarolar urushi davomida buzilib ketgan diniy, madaniy va ta'lim tizimiga tegishli bo'lgan maktab, kutubxona, bosmaxona va boshqa obyektlarni tiklash uchun moliyaviy yordam ko'rsatilmoqda. Jumladan, 2002–2006-yillarda Eron hukumati mablag'i asosida Hirot shahrida madaniy markaz qurib bitkazildi. Shuningdek, shu yil davomida EIR tomonidan afg'on ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida maktablarni o'quv materiallari bilan ta'minlagan holda, fors ilm-fan vakillari tomonidan turli ilmiy seminar, konferensiya va ko'rgazmalar o'tkazildi.

2010-yilda EIR hukumati tomonidan ajratilgan 5 mln. AQSH dollari miqdoridagi afg'on oliy ta'lim tizimi xodimlarini qayta tayyorlashga qaratilgan dastur doirasida 253 nafar afg'on o'qituvchisi va 400 nafar talabalar qisqa muddatli o'qitildi. Hozirda Eron hukumati Afg'onistonda oliy ta'lim muassasalarini ochish va ularni turli jihozlar bilan ta'minlash borasida bir qancha loyihalarni amalga oshirmoqda. Tarixiy-madaniy bir-biriga yaqin bo'lgan bu ikki davlat munosabatlari rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan qator omillar ham mavjud.

1999-yilda "Tolibon" hukumati tomonidan Helmand daryosi suvining to'xtatib qo'yilishi natijasida Eronning Belujiston va

Seyiston viloyati katta miqdorda iqtisodiy zarar ko'rdi. 2002-yilning avgust oyiga kelib Helmand daryosining Eronga boradigan tarmog'i qayta ochildi. 2006-yilda ikki davlat o'rtasida Helmand daryosi suvidan foydalanishni tekshirib turuvchi delegatsiya tuzish va Homun ko'li havzasini qayta tiklash bo'yicha shartnoma tuzildi. Bundan tashqari, Afg'oniston hukumati tomonidan mamlakatni elektr energiyasi bilan ta'minlash loyihalaridan biri bo'lmish Helmand daryosiga Kojaki GESni va to'g'on qurilishini boshlashi ikki davlat o'rtasidagi vaziyatning keskinlashishiga sabab bo'ldi.

2009-yilda Eron hukumati tomonidan Afg'oniston Suv resurslari va energetika vazirligi huzurida suv resurslarini o'rganish ilmiy tadqiqot institutini tashkil etish va o'zaro ma'lumotlar almashib turish borasida kelishuvga erishildi. Ayni vaqtda, Afg'onistonda yiliga 6000 t dan ortiq narkotik moddalar yetishtirilmoqda. Ushbu giyohvand moddalarning 60%i Eron hududidan tranzit sifatida Yevropaga chiqarish uchun foydalanilib kelinmoqda va bundan 1/3 qismi Eron hududida qolib ketmoqda. So'nggi 20 yil davomida EIR hukumati Afg'oniston hududidan kiruvchi noqonuniy narkotik moddalari savdosiga qarshi kurashish uchun 1 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' sarfladi. 2005-yilda EIR Afg'oniston hukumatiga ikki davlat o'rtasidagi chegaralarda 25 ta blokpost qurilishiga yordam berdi. Shuningdek, BMT va Eron birgalikda Afg'onistondagi chegara postlarini texnika vositalari bilan ta'minlashga ko'maklashish maqsadida "Said" dasturi amalga oshirildi.

2007-yilda Eron Ichki ishlar vazirining Afg'onistonga tashrifi davomida Hirot, Farah va Nimroz viloyatlarida nazorat postlari tashkil qilish borasida kelishuv imzolandi va ushbu kelishuv 2010-yilga kelib to'la amalga oshirildi. Shu bilan birgalikda, 2009-yilda Pokiston, Afg'oniston va Eron tomonidan olib borilgan tadbirlar jarayonida 2,5 tonna giyohvand moddalar ushlanib qolib, 74 nafar jinoyatchi qo'lga olindi<sup>149</sup>.

---

<sup>149</sup> mChristensen J.B. Iran's troubled relation to Afghanistan and Pakistan. /RAND,2011. [http://www.rand.org/content/dam/rand/pubs/occasional\\_papers/2011/RAND\\_OP322.pdf](http://www.rand.org/content/dam/rand/pubs/occasional_papers/2011/RAND_OP322.pdf)

2011-yilning 20-iyunida Afgʻoniston Prezidenti H.Karzay hamda Eron Mudofaa vaziri Sardor Ahmad Vohidiy oʻrtasidagi uchrashuv chogʻida ikki davlat hukumatlari hamkorligida xalqaro terrorizm, narkotik moddalar kontrabandasi va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish boʻyicha shartnoma imzolandi. Afgʻonistondagi ogʻir ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat afgʻonlarning oʻzi yashab turgan hududlarini tark etib, boshqa davlatlardan boshpana izlashlariga sabab boʻldi. Bu esa birinchi navbatda Afgʻoniston bilan qoʻshni boʻlgan Eron oldida ham muayyan ijtimoiy-siyosiy muammolarni keltirib chiqardi. Afgʻoniston Qochoqlar ishi boʻyicha vazirligining maʼlum qilishicha, 1979–2001-yillar mobaynida nobarqaror vaziyat tufayli mamlakat fuqarolarining 3 mln. nafarga yaqini Eron hududiga qochib oʻtishga majbur boʻldi.

2001-yilda Tolibon hukumatining agʻdarilganidan soʻng BMT va donor davlatlar tomonidan afgʻon qochoqlarini qaytarish (repatriatsiya) dasturi ishlab chiqildi. Dasturga asosan 2004–2010-yillar oraligʻida Afgʻonistonga 1,6 mln. nafar afgʻon qochoqlari qaytarildi. 2011-yilda Eron hukumati tomonidan qochoqlarni roʻyxatga oʻtkazish amalga oshirilgan boʻlib, unga koʻra ayni paytda mamlakatda 940 ming nafar afgʻon qochoqlari mavjudligi maʼlum qilindi.

## ATAMALAR LUG‘ATI

“**Al-Qoida**” – xalqaro terroristik guruh, “Asos” ma’nosini beradi. Mashhur terrorchi Usoma bin Laden tomonidan tashkil etilgan.

“**Parcham**” – “Bayroq” ma’nosini bildiradi. AXDPning bir oqimi. Afg‘onistonda hokimiyat uchun kurash olib borgan.

“**Tolibon**” **harakati** – Afg‘onistonda pushtunlar orasida shakllangan, 1996-yildan 2001-yilga qadar Afg‘onistonni boshqargan o‘ta radikal kayfiyatdagi terroristik guruh. Yetakchisi Mulla Muhammad Umar.

“**Xalq**” – AXDPning bir oqimi. Afg‘onistonda hokimiyat uchun kurash olib borgan.

“**Bukilmas ozodlik**” operatsiyasi – 2001-yil 11-sentabrdagi AQSHda sodir etilgan terroristik xurujlarga qarshi javob tariqasida AQSH yetakchiligidagi xalqaro aksiterror koalitsiyasi tomonidan Afg‘onistondan panoh topgan “Al-Qoida” xalqaro terroristik guruhi va uni qo‘llab-quvvatlab kelgan “Tolibon” hukumatiga qarshi o‘tkazilgan harbiy harakatlarning rasmiy nomlanishi.

**Aksiterror operatsiyasi** – terroristik aktlarni oldini olish, ular oqibatlarini minimallashtirish hamda shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligini ta’minlash va terrorchilarni zararsizlantirish maqsadida davlat organlari tomonidan o‘tkaziladigan maxsus tadbirlar majmui.

**Amir** – (arabcha) mo‘min-musulmonlarga amr etuvchi, mo‘min-musulmonlar yetakchisi. Tarixning yangi davrida bir muddat Afg‘oniston hukmdorlari o‘zlariga “amir” rutbasini olishgan.

**Arbob** – (arabcha) Afg‘onistonda kichik bir hudud (qishloq, ko‘cha) yetakchisi, kichik darajadagi amaldor.

**Afg‘oniston Xalq Demokratik Partiyasi** (AXDP) – 1965-yilda sobiq Sovet Ittifoqidagi kommunistik partiya namunasida tashkil etilgan partiya. Keyinchalik bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan ikki oqimga bo‘linib ketgan.

**Deobandizm** – 1867-yilda Hindistonning Deoband shahridagi islom universitetida dinparvarlar Muxammad Qosim Nanotav va

Rashid Axmad Gangoxi (ikkisi ham Angliyaga qarshi qo'zg'olonlar qatnashchisi, 1857–1859-yy.) tomonidan asos solingan. XX asr 90-yillarida Afg'onistonda hokimiyat uchun kurash olib borgan "Tolibon" harakati vakillari Deobandlik madrasasini o'qigach, barcha noislomiy narsalarni rad etdi va barcha noislomiy odatlarni taqiqladi.

**Durroniylar davlati** – 1747-yilda harbiy qo'mondon Ahmadshoh Durroniy tomonidan Qandahorda asos solindi. U birinchi yagona afg'on davlati edi. Biroq A.Durroniy vorislari davrida mazkur davlat bir qator mustaqil mulklariga bo'linib ketdi.

**Dyurand chizig'i** – Pokiston va Afg'onistonni ajratib turuvchi chegara chizig'i bo'lib, bu chegara to'g'risidagi shartnoma 1893-yilning 12-noyabrida Qobulda Afg'oniston amiri Abdurahmon va Britaniya Hindistonining tashqi ishlar bo'yicha kotibi M. Dyurandlar tomonidan imzolangan. Keyinchalik bu shartnoma 1905, 1919, 1921-yillardagi ingliz – afg'on shartnomalari bilan tasdiqlangan.

**Jirg'a** – mahalliy darajadagi kengash. Unda har bir fuqaro ishtirok etgan va mahalliy darajadagi masalalar muhokama etilgan.

**Jihad** – "muqaddas urush", islom dini himoyasi uchun diniy yetakchilar tomonidan e'lon qilingan va olib borilgan.

**Mujohid** – jihodda ishtirok etuvchi shaxs.

**Pushtun** – afg'on xalqini tashkil etuvchi yirik qabilalardan biri. Asosan Afg'oniston va Pokiston hududida istiqomat qiladi.

**Pushtunvali** – yozilmagan qonunlar to'plami yoki pushtun qabilari falsafasi bo'lib, pushtunlar uchun axloq kodeksi hisoblanadi.

**Savr inqilobi** – 1978-yil 27–28-aprelda (musulmon taqvimnomasi bo'yicha 1357-yilning 7-savrida ro'y bergan) AXDP a'zolari bo'lgan zobitlar guruhi hamda Afg'oniston kommunistlarining birgalikdagi faoliyati natijasida amalga oshirildi.

**Salang** – Afg'onistondagi mamlakatning shimoliy va janubiy hududini bog'lab turuvchi Hindikush tog'ida joylashgan strategik dovon. Sovet mutaxassislari tomonidan ushbu dovon hududida uzunligi 2,7 km bo'lgan tunnel o'tkazilgan. Afg'on urushi davomida ushbu tonnelda Sovet harbiy xizmatchilari ikki marotaba yirik yo'qotishni boshdan kechirgan. Shimoliy Alyans va

“Tolibon” harakati o‘rtasidagi markaziy hokimiyat uchun kurash yillarida Salang yagona to‘siq vazifasini bajargan va 1997-yilda toliblarning shimolga yurishini bartaraf etish maqsadida Ahmad Shoh Mas’udning buyrug‘iga binoan tunnel portlatilgan. 2002-yilda toliblar boshqaruviga barham berilganidan so‘ng tunnel qaytadan ochildi.

**Transafg‘on transport yo‘lagi** – Markaziy Osiyo davlatlarining Afg‘oniston hududi orqali Pokiston va Erondagi dengiz portlariga chiqishini ko‘zlovchi transport yo‘llari birlashmasi.

**Xavfsizlikka Ko‘maklashuvchi Xalqaro Kuchlar (International Security Assistance Force (ISAF))** – NATO boshchiligidagi xalqaro qurolli kuchlar kontingenti. AIR hududida 2001-yil BMTning 1386-sonli rezolyutsiyasi asosida kiritilgan.

**Xel** – pushtun millatiga mansub aholi orasida alohida bir kichik ijtimoiy guruhni ifoda etish maqsadida qo‘llanib kelingan.

**Xon** – mo‘g‘ul va turk tillarida hukmdor, davlat boshlig‘i ma’nosini bildiradi. O‘rta asrlarda Afg‘oniston hududida mahalliy hokimlar va alohida qabila yetakchilariga nisbatan qo‘llanilgan.

**Etnos** – umumiy nomga, madaniyatda umumiy o‘xshashliklarga ega bo‘lgan, jamoaviy tarixiy tafakkurga va kelib chiqish tarixini umumiy mifologik tarzda tasavvur etuvchi, o‘zlarini ma’lum bir hudud bilan bog‘liq hamda hamfikir deb biluvchi kishilar guruhi.

## XRONOLOGIYA

Mil.avv. 100–40 mingyillik – Afg‘oniston hududidan dastlabki odam izlarining topilishi.

Mil.avv. VI–IV asrlar – Afg‘oniston Ahamoniylar imperiyasi tarkibida.

Mil.avv. 330–327-yy. – Makedoniyalik Aleksandr Afg‘oniston hududini zabt etdi.

Mil.avv. 250-y. – Yunon-Baqtriya davlatining barpo etilishi.

Mil.avv. I asr – milodiy III asr – Afg‘oniston Kushon imperiyasi tarkibida.

225 – 600-yillar – Afg‘oniston hududida Sosoniylar hukmronligi.

652-yil – arablarning Afg‘oniston hududida paydo bo‘lishi.

VIII–X asrlar – Afg‘oniston hududida mahalliy musulmon hukmdorlari hukmronligi.

997–1180-yillar – Afg‘oniston hududida G‘aznaviylar hukmronligi.

1186-yil – G‘uriylar tomonidan G‘aznaviylar hukmronligiga barham berilishi.

1221–1360-yillar – Afg‘oniston mo‘g‘ullar istibdodi davrida.

1370-yil – Amir Temur tomonidan Balx shahrining qo‘lga kiritilishi.

1381-yil – Amir Temur tomonidan Hirot shahrining qo‘lga kiritilishi.

1398-yil – Amir Temurning Afg‘oniston orqali Hindistonga yurishi.

1405–1506-yillar – Temuriylarning Hirot va Balxdagi hukmronligi.

1504–1525-yillar – Zahiriddin Muhammad Boburning Kobuldagi hukmronligi.

1526–1640-yillar – Afg‘oniston Boburiylar saltanati tarkibida.

1648-yil – Eron tomonidan Qandahor shahrining egallanishi.

1713-yil – Mir Vaysxon yetakchiligida Qandahor shahrida eronliklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilishi.



1716-yil – Abdaliylar tomonidan Hirot qo‘zg‘olon ko‘tarilishi.  
1709–1738-yillar – G‘ilzoylar tomonidan Eronning egallanishi va boshqarilishi.

1747-yil – Ahmadshoh Durraniy tomonidan mustaqil afg‘on davlatiga asos solinishi.

1773–1793-yillar – Temurshoh Durraniy hukmronligi.

1793-yil – Zamonshoh hukmronligining boshlanishi.

1800-yil – Durraniylar saltanatida Mahmudshoh hukmronligining boshlanishi.

1803-yil – Shoh Shujo tomonidan hokimiyatning egallanishi.

1809-yil – Britaniya hukumati vakili Monstyuart Elfinston va afg‘on hukmdori Shoh Shujo tomonidan o‘zaro bitimning imzolanishi.

1816-yil – Eronliklar tomonidan Hirotni qo‘lga kiritishga bo‘lgan urinishning chippakka chiqishi.

1826-yil – Do‘st Muhammadxon tomonidan Kobulda hokimiyatning egallanishi.

1834-yil – Do‘st Muhammadxon tomonidan Qandahor shahrining qo‘lga kiritilishi.

1837-yil sentabr – Buyuk Britaniya hukumatining diplomatik missiyasi tarkibida Iskandar Byornsning Kobulga kelishi.

1837-yil dekabr – Ivan Vitkevich yetakchiligida Rossiya Imperiyasi diplomatik missiyasining Kobulga kelishi.

1838–1842-yillar – Birinchi ingliz-afg‘on urushi.

1855-yil – Buyuk Britaniya va Afg‘oniston o‘rtasida diplomatik munosabatlarni qayta tiklashga qaratilgan Peshovar bitimining imzolanishi.

1857-yil – Buyuk Britaniya va Afg‘oniston o‘rtasida harbiy bitim tuzish bo‘yicha Peshovar kelishuvining imzolanishi.

1863-yil – Do‘st Muhammadxon tomonidan Hirot shahrining qo‘lga kiritilishi va uning vafoti.

1869–1879-yillar – Amir Sherali afg‘on davlati hukmdori.

1878-yil iyul – general Stoletov yetakchiligida Rossiya Imperiyasi diplomatik missiyasining Kobulga kelishi.

1878-yil avgust – Buyuk Britaniya hukumati tomonidan ingliz diplomatik missiyasini Kobulda qabul qilish bo'yicha Amir Sheraliga ultimatum qo'yilishi.

1878-yil sentabr – Amir Sherali tomonidan inglizlar ultimatumining rad etilishi va ikkinchi ingliz-afg'on urushining boshlanishi.

1879-yil fevral – Amir Sheralining Mozori Sharif shahrida vafot etishi.

1880-yil – Amir Abdurahmonning afg'on taxti uchun kurashni boshlashi va hokimiyatga kelishi.

1881-yil – ingliz qo'shinining Afg'oniston hududini tark etishi va ikkinchi ingliz-afg'on urushining tugashi.

1892-yil – Bomiya hazoriylar qo'zg'oloni va uning bostirilishi.

1893-yil – Buyuk Britaniya hukumati va afg'on hukmdori Abdurahmon o'rtasida Dyurand bitimining imzolanishi.

1896-yil – Amir Abdurahmon qo'shini tomonidan Kofiristonning egallanishi.

1901-yil – Amir Abdurahmonning vafoti.

1901–1919-yillar – Amir Habibullaxon hukmronligi.

1907-yil – Buyuk Britaniya va Rossiya Imperiyasi hukumatlari o'rtasida Afg'onistonni o'zaro ta'sir doirasiga bo'lib olish bo'yicha bitimning imzolanish.

1911-yil – Mahmud Tarziy tomonidan “Siroj ul-Axbor” gazetasi chop etilishining boshlanishi.

1914-yil – Amir Habibullaxon tomonidan Birinchi Jahon urushida Afg'onistonning betarafligi maqomining e'lon qilinishi.

1915–1916-yillar – Afg'onistonda Nidermayer-Gentig missiyasining bo'lishi.

1919-yil fevral – Amir Habibullaxonning o'ldirilishi va Omonullaxonning taxtga kelishi.

1919-yil may–avgust – Uchinchi ingliz-afg'on urushi.

1919-yil 19-avgust – Afg'oniston mustaqilligining e'lon qilinishi.

1921-yil – Afg‘oniston va Sovet hukumati bilan do‘stlik bitimining imzolanishi.

1923-yil – Afg‘onistonning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilinishi.

1924–1925-yillar – Xostda qo‘zg‘olon.

1926-yil – Omonullaxon tomonidan “shoh” titulining joriy etilishi.

1927-yil – Omonullaxonning Hindiston, Misr va Yevropaga safari.

1928-yil dekabr – Ko‘histonda Habibulla Qalaqoni yetakchiligida qo‘zg‘olonning boshlanishi va uning butun mamlakat hududiga yoyilishi.

1929-yil yanvar – Omonullaxonning taxtdan voz kechishi va Habibulla Qalaqoniyning amir deb e‘lon qilinishi.

1929-yil oktabr-noyabr – Nodirxon tomonidan taxt uchun kurashning boshlanishi va Habibulla Qalaqoniyning qatl etilishi.

1929–1933-yillar – Muhammad Nodirshoh hukmronligi.

1933-yil – Muhammad Nodirshohga nisbatan suiqasd va uning vafoti. Hokimiyatga uning o‘g‘li Muhammad Zohirshohning kelishi.

1936-yil – pushtu tilining umumdavlat tili deb e‘lon qilinishi.

1939-yil – Ikkinchi Jahon urushining boshlanishi va Afg‘oniston betarafligining e‘lon qilinishi.

1941-yil – Ikkinchi Jahon urushiga nisbatan e‘lon qilingan Afg‘oniston betarafligining qayta tasdiqlanishi.

1946-yil – Muhammad Hoshimxonning bosh vazir lavozimidan iste‘fo berishi.

1947-yil – mustaqil Hindiston va Pokiston davlatlarining paydo bo‘lishi.

1948-yil – Pushtuniston masalasida Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasida kelishmovchiliklarning yuzaga kelishi.

1953-yil – Muhammad Dovudning Afg‘oniston bosh vaziri lavozimini egallashi.

1960-yil – sobiq afg‘on shohi Omonullaxonning Shveysariyada vafoti.

1963-yil – Muhammad Dovudning bosh vazir lavozimidan iste‘fo berishi.

1964-yil – Afg‘onistonda demokratik xarakterdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi.

1965-yil yanvar – Afg‘oniston Xalq Demokratik Partiyasi (AXDP)ning tashkil topishi.

1973-yil – sobiq bosh vazir Muhammad Dovud tomonidan davlat to‘ntarishining amalga oshirilishi hamda Afg‘onistonning Respublika va Muhammad Dovudning Prezident deb e‘lon qilinishi.

1978-yil aprel – Kobulda AXDP tomonidan inqilobning amalga oshirilishi va hukumatni Nur Muhammad Taraqiy yetakchiligidagi sho‘roparast guruh qo‘liga o‘tishi.

1979-yil – Afg‘oniston hududida sho‘roparast AXDP hukumatiga qarshi keng ko‘lamli qarshilik harakatining boshlanib ketishi.

1979-yil oktabr – AXDP ichidagi o‘zaro kurash tufayli hokimiyatga Hafizulla Aminning kelishi va Nur Muhammad Taraqiyning o‘ldirilishi.

1979-yil dekabr – Afg‘oniston hududiga Sovet Ittifoqi qo‘shinlarining kiritilishi.

1980-yil yanvar – Afg‘onistonda hukumat tepasiga Babrak Karmalning kelishi.

1985-yil – Sovet Ittifoqida hukumatga M.Gorbachyovning kelishi va Afg‘onistondan Sovet qo‘shinlarini olib chiqib ketish bo‘yicha muzokaralarning boshlanishi.

1986-yil – Babrak Karmalning iste‘fo berishi va hukumatga Muhammad Najibullaning kelishi.

1988-yil may – Sovet qo‘shinlarining Afg‘oniston hududidan olib chiqib ketilishining boshlanishi.

1989-yil fevral – Sovet qo‘shinlarining Afg‘oniston hududidan olib chiqib ketilishining tugallanishi.

1990-yil – general Shoh Navoz Tanay boshchiligida davlat to‘ntarishi va uning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi.

1991-yil sentabr – AQSH va Sovet Ittifoqi o‘rtasida Afg‘onistonga qurol-yarog‘ yetkazib berishga chek qo‘yish bo‘yicha bitimning imzolanishi.

1991-yilning oxiri va 1992-yilning boshi – Afg‘on mujohidlari tomonidan hokimiyat uchun kurashning avj oldirilishi.

1992-yil aprel – Muhammad Najibullaning iste‘fosi va hokimiyatni mujohidlar tomonidan egallanishi.

1992–1995-yillar – Afg‘onistonda yagona hokimiyatning yo‘qligi va mujohidlar o‘rtasida o‘zaro kurashning avj olishi.

1994-yilning oxiri – Afg‘oniston siyosiy sahnasida “Tolibon” harakatining paydo bo‘lishi.

1996-yil sentabr – poytaxt Kobulning “Tolibon” harakati tomonidan qo‘lga kiritilishi va mamlakatning sobiq rahbari Muhammad Najibullaning namoyishkorona qatl etilishi.

1997-yil – “Tolibon” hukumatini Pokiston, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari tomonidan tan olinishi.

1998-yil – Usoma bin Laden boshchiligidagi xalqaro terrorchilarning Afg‘oniston hududidan panohtopishi.

1998-yil – Toliblarning Mozori Sharif shahri va Amudaryo sohiligacha bo‘lgan hududlarni egallashi.

2001-yil sentabr – Usoma bin Laden yetakchiligidagi xalqaro terrorchilar tomonidan AQSHda terroristik aktlarning sodir etilishi va AQSH yetakchiligida xalqaro hamjamiyat tomonidan Afg‘onistondagi “Tolibon” hukumati va “Al-Qoida” xalqaro terroristik guruhiga qarshi aksilterror operatsiyasining boshlanishi.

2001-yil noyabr-dekabr – Afg‘onistonda “Tolibon” hukumatiga barham berilishi.

2001-yil dekabr – Afg‘onistonda H.Karzay yetakchiligida Muvaqqat hukumatning tuzilishi.

2002-yil – NATO shafeligidagi xalqaro kuchlarning Afg‘onistonga kiritila boshlashi.

2004-yil yanvar – Afg‘onistonning Islom Respublikasi deb e‘lon qilinishi va mamlakat yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

2004-yil sentabr – Prezidentlik saylovlarining o‘tkazilishi va unda H.Karzayning g‘alabasi.

2005-yil – parlament saylovlarining o‘tkazilishi.

2009-yil – Prezidentlik saylovlarining o‘tkazilishi va unda yana H.Karzayning g‘alaba qozonishi.

2013-yil – NATO shafeligidagi xalqaro kuchlarning Afg‘oniston hududidan olib chiqib ketila boshlanishi.

2014-yil – navbatdagi Prezident saylovlarining o‘tkazilishi va A.G‘anining prezident, A.Abdullaning hukumat rahbari lavozimlarini egallashlari.

### *O‘zbek tilida:*

1. Rashidov R. Afg‘onistonda davlatchilik masalasi: tarix va hozirgi zamon. Monografiya. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2017. – 264 b.

2. Rashidov R. Amir Do‘st Muhammadxon hukmronligi davrida Afg‘oniston / Xorijiy Sharq mamlakatlari tarixiy jarayonlari va ularni o‘rganishning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – ToshDShI, 2015. – B. 162–165.

3. Rashidov R. Loyya Jirg‘a – afg‘on xalqi irodasini ifoda etuvchi demokratik institut sifatida / Demokratlashtirish va inson huquqlari. Ilmiy-ma‘rifiy jurnal. 3 (67) – 2015. – B. 54–60.

4. Сафоев С.С. Марказий Осиёнинг геосиёсати. – Тошкент: Патент пресс, 2005. – 160 б.

5. Tursunov A.S. O‘zbekiston va BMT: hamkorlikning yangi ufqlari. // *MILLIY TIKLANISH* gazetasi. № 9 (122). 2011-yil 2-mart.

6. O‘zbekiston tashabbuslari amalga oshmoqda // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2001-y. 26-dekabr.

### *Rus tilida:*

1. Акмалов Ш. О некоторых аспектах военно-политической обстановки в Афганистане. // *Востоковедение*. №1–2. 2008. – С.13.

2. Бобокулов И.И. Афганская трансформация: приоритеты и ключевые проблемы / *Центральная Азия и Кавказ*, Том 16, Выпуск 2, 2013.

3. Ведад Х. Восстание и правление эмира Хабибулли-хана Бача-и Сако (январ октябр 1929 г.) в Афганистане. – М., 1996.

4. Мирхамидов М.Ш. “Потенциал железнодорожного сообщения Термез – Мазари Шариф в улучшении транспортной инфраструктуры и развития экономики Афганистана”. Материалы международной конференции “Афганистан: проблемы стабилизации и перспективы реконструкции”. – Ташкент, 2009. – С.74.

5. Рашид А. Талибан. Ислам, нефть и новая Большая игра в Центральной Азии. – М., 2003.

6. Рашидов Р. К характеристике политических партий в современном Афганистане // Общественные науки в Узбекистане, 2009, № 2. – С. 80–81.

7. Узбекско-афганские отношения и вклад Узбекистана в восстановление социально-экономической инфраструктуры Исламской Республики Афганистан / Сотрудничество Республики Узбекистан со странами Среднего, Ближнего Востока и Африки. Официальный сайт Министерства иностранных дел Республики Узбекистан. 2015. УРЛ адрес: <http://mfa.uz/ru/cooperation/countries/59/>

### ***Fors va dariy tilida:***

1. Muboriz Abdulhamid. Haqoyeq va tahlil-e vaqayo-i siyosiy-e Afgʻoniston: az sukut-e saltanat to zuhur va ijroot-e Tolibon, 1973–1999. – Peshovar: Mayvand, 1999. 276 b.

2. Nezomnome-ye Asosi-ye Doulat-e Oliya-ye Afgʻoniston (Afgʻoniston Oliy davlatining asosiy tartiblari). 1923-yil 9 aprel. <http://www.afghan-web.com/history/const/const1923.html>

3. Fayz M. Siroj at-tavorix. 1–3 jild. Kobul, 1331–1333 hy. (1912/13 – 1914/15). 1200 s.

4. Mir Gʻulom Muhammad Gʻubor. Afgʻoniston dar masire torix. – Kobul.: Markaze enqelobe nashr, 1399. – S. 324.

### ***Ingliz tilida:***

1. Arnold, A. Afghanistan: The Soviet Invasion in Perspective. – Stanford: Hoover Institution Press, 1981. – 123 p.

2. Barfield, T. Afghanistan: a Cultural and Political History. – New Jersey: Princeton University Press, 2010. – 389 p.

3. Belasco, A. The Cost of Iraq, Afghanistan, and Other Global War on Terror Operations Since 9/11. – Washington, D.C.: CRS, December 8, 2014. <http://fas.org/sgp/crs/natsec/RL33110.pdf>.

4. Bellew, H.W. The Races of Afghanistan: Being a Brief Account of the Principal Nations Inhabiting that Country. – Calcutta: Thacker, Spink and Co.; – London: Trubner and Co., 1880. – 124 p.

5. Bhatia, M. and Sedra, M. Afghanistan, Arms and Conflict. Armed groups, disarmament and security in a post-war society. – New York: Routledge, 2008. – 324 p.



6. Bowman, S. War in Afghanistan: Strategy, Military Operations, and Issues for Congress. // CRS Report for Congress. Washington, DC. June 8, 2010.
7. Braithwaite, R. Afgantsy. The Russians in Afghanistan 1979–89. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 433 p.
8. Burnes, A. Cabul: personal narrative journey to, and residence in that city, in the years 1836–38. – Philadelphia: Carey and Hart, 1843. 96 p.
9. Cordesman, A.H. Transition in Afghanistan: Loosing the Forgotten war? The need to reshape US strategy in Afghanistan, Pakistan, and Central Asia. – Washington, D.C.: CSIS, 2015.
10. Dacosta, J. A scientific frontier; or, The danger of a Russian invasion of India. – London: W.H. Allen & Co. 1891. – 140 p.
11. Dorronsoro, G. Revolution Unending. Afghanistan: 1979 to the Present. – London: Hurst & Co., 2005. – 370 p.
12. Dupree, L. Afghanistan. Princeton, New Jersey: Princeton University Press, 1980. – 590 p.
13. Elphinstone, M. An Account of the Kingdom of Caubul and its Dependencies, in Persia, Tartary, and India. Vol. I. – London: Richard Bentley, 1842. – 422 p.
14. Elphinstone, M. An Account of the Kingdom of Caubul and its Dependencies, in Persia, Tartary, and India. Vol. II. – London: Richard Bentley, 1842. – 440 p.
15. Ferrier, J.P. History of the Afghans. – London : John Murray, 1858. – 491 p.
16. Forbes, A. The Afghan Wars, 1839–42 and 1878–80. – London: Seeley & Co., 1892. – 337 p.
17. Fraser-Tytler W.K. Afghanistan: A Study of Political Development in Central and Southern Asia. – London: Oxford University Press, 1953. – 348 p.
18. Ghoobar, Mir Gholam Mohammad. Afghanistan in the Course of History. Volume II. – Alexandria (USA): Hashmat K. Gobar, 2001. – 242 p.
19. Gray, J.A. At the Court of the Amir. – London: Richard Bentley and Son, 1895. – 523 p.
20. Gregorian Vartan. The Emergence of Modern Afghanistan.

- Stanford (California): Stanford University Press, 1969. – 586 p.
21. Hanna, H.B. The second Afghan war 1878–79–80. Its causes, its conduct and its consequences. Vol I. – London: Westminster Archibald Constable & Co, 1899. – 386 p.
22. Henty G.A. To Herat and Kabul. A Story of The First Afghan War. – New York: Charles Scribner’s Sons, 1901. – 346 p.
23. Holt F.L. Into the Land of Bones. Alexander the Great in Afghanistan. – Los Angeles: University of California Press, 2005. – 241 p.
24. Isby, David C. Russia’s War in Afghanistan. (Men-at-arms series; 178). – London: Osprey Publishing Ltd, 1986. – 47 p.
25. Jones, S.G. and Munoz, A. Afghanistan’s Local War: Building Local Defense Forces. – Santa Monica, CA: RAND Corporation, 2010. 97 p.
26. Kakar, M. Hassan. A Political and Diplomatic History of Afghanistan, 1863–1901. – Leiden: Brill, 2006. – 259 p.
27. Katzman, K. Afghanistan: Politics, Elections, and Government Performance / Congressional Research Service (CRS) Report for Congress. – Washington D.C., January 12, 2015.
28. Katzman, K. Afghanistan: Post-Taliban Governance, Security, and U.S. Policy. // CRS Report for Congress. Washington, DC. September 22, 2011.
29. Kaye, J.W. History of the War in Afghanistan. – London: WM. H. Allen & Co., 1874. – 502 p.
30. Lal Mohan. Life of the Amir Dost Mohammed Khan, of Kabul. Vol. 1. – London: Longman, Brown, Green, and Longmans. 1846. 399 p.
31. Lockhart, L. The fall of the Safavi dynasty and the Afghan occupation of Persia. – Cambridge: Cambridge University Press, 1958.
32. Mahomed Khan, S. The Life of Abdur Rahman, Amir of Afghanistan. Vol. 1. – London: John Murray, 1900. – 295 p.
33. Mahomed Khan, S. The Life of Abdur Rahman, Amir of Afghanistan. Vol. 2. – London: John Murray, 1900. – 319 p.
34. Maley, W. The Afghanistan Wars. – New York: PALGRAVE MACMILLAN. 2002. – 176 p.
35. McCauley, M. Afghanistan and Central Asia. A Modern History. – London: Pearson Education Limited, 2002. – 172 p.
36. Mirdaq, N. Afghanistan: Political Frailty and External Inter-

ference. – London and New York: Routledge. 2006. – 351 p.

37. Mohammed Ali. *The Afghans*. – Kabul: Kabul University, 1969. – 184 p.

38. Noelle, Ch. *State and tribe in nineteenth century Afghanistan: The reign of Amir Dost Muhammad Khan (1826–1863)*. – Richmond, UK: Curzon, 1997.

39. Peabody, L.B. *Afghanistan Security*. – New York: Nova Science Publishers, Inc. 2009. – 248 p.

40. Pirseyedi, B. *The Small Arms Problem in Central Asia: Features and Implications / United Nations Institute for Disarmament Research (UNIDIR)*. – Geneva, 2000/8. – 48 p.

41. Poullada Leon. *The Failure of American Diplomacy in Afghanistan / World Affairs*. – Winter 1982–1983. – Pp. 236–249.

42. Rasanayagam A. *Afghanistan. A Modern History*. – London & New York, 2002. – 301 p.

43. Rashid A. *Jihad the Rise of Militant Islam in Central Asia*. – London, 2003. – 281 p.

44. Rubin B. *The Fragmentation of Afghanistan: State Formation and Collapse in the International System*. – London: Yale University Press, 2002. – 378 p.

45. Runion, M.L. *The History of Afghanistan*. – London: Greenwood Press, 2007. – 155 p.

46. Ruttig, T. *Islamists, Leftists, and a Void in the Centre: Afghanistan's Political Parties and where they came from 1902–2006*. Konrad Adenauer Stiftung. Kabul. 2006. – 47 p.

47. Saikal A. *Modern Afghanistan. A History of Struggle and Survival*. – New York, 2004. – 342 p.

48. Samad, R. *The Grandeur of Gandhara: The Ancient Buddhist Civilization of the Swat, Peshawar, Kabul and Indus*. – New York: Algora Publishing, 2011. – 286 p.

49. Sykes, P. *A History of Afghanistan*. Vol. 1. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940. – 411 p.

50. Sykes, P. *A History of Afghanistan*. Vol. II. – London: Macmillan & Co. Ltd, 1940. – 414 p.

51. Tanner, S. *Afghanistan. A Military History from Alexander the Great to the Fall of the Taliban*. – Cambridge (Massachusetts):

Da Capo Press, 2003. – 351 p.

52. Tate, G. P. The kingdom of Afghanistan: a historical sketch. – Bombay, 1911. – 224 p.

53. The 2009 Presidential and Provincial Council Elections in Afghanistan. Final report of National Democratic Institute (NDI). – Washington, DC. 2010.

54. The Soviet Withdrawal from Afghanistan (edited by Amin Saikal and William Maley). – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 177 p.

55. The Soviet-Afghan War. How a Superpower Fought and Lost. The Russian General Staff (Translated and edited by Lester W. Grau and Michael A. Cress). – Lawrence (Kansas): University Press of Kansas, 2002. – 364 p.

56. The Taliban and the Crisis of Afghanistan. / edited by Robert D. Crews and Amin Tarzi. – Harvard: Harvard University Press, 2009. – 430 p.

57. Umarzai, G. Nights in Kabul: Action Behind the Curtain during the Last Two Decades in Afghanistan // Area Study Centre (Central Asia). – Peshavar, 2004. – 280 p.

58. Wahab Sh., Youngerman B. A Brief History of Afghanistan. – New York, 2007. – 308 p.

59. Yousaf, M. and Adkin, M. Afghanistan The Bear Trap: The Defeat of a Superpower (Afghanistan's Untold Story). – Bloomington: Casemate, 2001. – 242 p.

60. Zaeef, A.S. My Life with the Taliban. / Edit. by Alex Strick van Linschoten and Felix Kuehn. – New York: Columbia University Press, 2010. – 331 p.

61. The Constitution of Afghanistan. Year 1382 (2004). [http://www.afghan-web.com/politics/current\\_constitution.html](http://www.afghan-web.com/politics/current_constitution.html)

62. The Constitution of Afghanistan. Year 1964. <http://www.afghan-web.com/history/const/const1964.html>

63. A New Strategy for Afghanistan and Pakistan 2009 // [http://www.ipcs.org/pdf\\_file/issue/SR77-Final.pdf](http://www.ipcs.org/pdf_file/issue/SR77-Final.pdf).

64. Enduring Strategic Partnership Agreement between The United States of America and The Islamic Republic of Afghanistan, May 2, 2012 // <https://www.whitehouse.gov/sites/default/>

files/2012.06.01u.s.-afghanistansassignedtext.pdf.

65. Security and Defense Cooperation Agreement between The Islamic Republic of Afghanistan and The United States of America, September 30, 2014 // <http://justsecurity.org/wp-content/uploads/2014/10/BSA-ENGLISH-AFG.pdf>

66. Security And Defense Cooperation Agreement Between The United States Of America And The Islamic Republic Of Afghanistan. 2014. <http://mfa.gov.af/en/news/bsa>

67. Fange, A. The Emergency Loya Jirga / Snapshots of an Intervention. The Unlearned Lessons of Afghanistan's Decade of Assistance (2001–11). Martine van Bijlert and Sari Kouvo (editors). – Kabul: Afghanistan Analysts Network (AAN), 2012.

68. Giustozzi, A. The Afghan National Army / Afghanistan Analysts Network (AAN), 2007.

69. International Security Assistance Force (ISAF): Key Facts and Figures. Brussels. September 9, 2011.

70. Jalali, A.A. Rebuilding Afghanistan's National Army / Parameters, US Army War College Quarterly – Autumn 2002.

71. Kucera J. Clinton's Dubious Plan to Save Afghanistan With a "New Silk Road" // The Atlantic Monthly. – Washington D.C. November 11, 2011.

72. Lambah S.K. The Durand Line / Policy Papers №4. – New Delhi. India. 2011. – P. 4–6.

73. Nordland, R. Ashraf Ghani Is Named President of Afghanistan by Elections Panel. September 21, 2014. New York Times.

74. Office of the Press Secretary. Statement by the President on Afghanistan. – The White House, May 27, 2014 // <http://www.whitehouse.gov/the-press-office/2014/05/27/statement-president-afghanistan>.

75. Office of the Secretary of Defense. Justification for FY 2016. Overseas Contingency Operations (OCO) Afghanistan Security Forces Fund (ASFF) / Department of Defense, Defense Budget, FY2016. – Washington, D.C., February 2015. URL: <http://comptroller.defense.gov/Portals/45/Documents/defbudget/fy2016/FY16-J-B.pdf>.

76. Official statistics from the US Department of Defense. Janu-

ary 16, 2015. <http://www.defense.gov/news/casualty.pdf>

77. Pasicolan, P., Hwang, B. The Vital Role of Alliances in the Global War on Terrorism / The Heritage Foundation Backgrounder №1607. October 24, 2002. [www.heritage.org/research/middleeast/bg1607.cfm](http://www.heritage.org/research/middleeast/bg1607.cfm)

78. Political Parties in Afghanistan. A Review of the State of Political Parties after the 2009 and 2010 Elections. National Democratic Institute for International Affairs (NDI). – Washington, DC. June 2011.

79. Ruttig, Th. The President's CEO Decree: Managing rather than executive powers (now with full translation of the document) / Afghanistan Analysts Network (AAN) Publications. 13 February 2015. Download URL: <https://www.afghanistan-analysts.org/wp-admin/post.php>

80. SIGAR. Quarterly Report to Congress. – Washington, D.C. January 30, 2015. <http://www.sigar.mil/pdf/quarterlyreports/2015-01-30qr.pdf>

81. Tertrais B. The Changing Nature of Military Alliances / The Washington Quarterly. – Washington, 2004.

82. UNHCR. Searching for solutions: 25 Years of UNHCR – Pakistan cooperation on Afghan Refugees. – Islamabad. June 2005.

83. Wilder, A. A House Divided? Analysing the 2005 Afghan Elections. – Kabul: Afghanistan Research and Evaluation Unit (AREU) Publications, December 2005.

## MUNDARIJA

Afg‘oniston qadimgi davrda .....	5
Afg‘oniston Ahamoniylar imperiyasi tarkibida .....	16
Afg‘oniston A.Makedonskiy bosqini va undan keyingi davrda ....	22
Qadimgi Afg‘oniston madaniyati.....	39
Afg‘onistonda Kushon imperiyasi hukmronligi .....	44
Afg‘oniston feodal munosabatlar davrida.....	54
Afg‘oniston mahalliy musulmon sulolalari hokimiyati ostida .....	64
Afg‘oniston mo‘g‘ullar bosqini davrida .....	85
Afg‘oniston Amir Temur va temuriylar davrida .....	90
Durroniylar davlatining barpo etilishi.....	116
XIX asrning ikkinchi yarmida Afg‘onistondagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.....	133
Afg‘oniston amir Abdurahmonning hukmronligi davrida .....	145
Afg‘onistonning XX asr tarixi .....	159
Afg‘onistonda Muhammadzoylar hukmronligi .....	176
Afg‘onistonning eng yangi davr tarixi (1945–2000-yillar).	
Afg‘onistonning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti .....	192
Afg‘oniston XX asrning 70-yillarida .....	208
Najibulloning hokimiyat tepasiga kelishi va uning “Milliy yarashuv” siyosati .....	222
XX asr oxirida Afg‘onistondagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.....	236
Afg‘onistonda hokimiyat tepasiga “Tolibon” diniy ekstremistik harakatining kelishi va uning oqibatlari .....	243
Afg‘onistonning xalqaro terroristik va ekstremistik guruhlar panoh topgan hududga aylanishi .....	248
Afg‘oniston XXI asr boshida .....	251
Afg‘onistonda yangi hukumatning shakllantirilishi.....	254
Afg‘oniston Islom Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.....	259
Prezidentlik saylovlarining o‘tkazilishi va davlat boshqaruv organlarining shakllantirilishi.....	265

Ijtimoiy-siyosiy harakatlar, siyosiy partiyalar faoliyatining qaytadan jonlanishi va parlament saylovlari .....	271
Afg‘onistonda qayta tiklash jarayoni va uning ahamiyati.....	277
Afg‘oniston xavfsizlik tuzilmalarini yangidan yo‘lga qo‘yish bo‘yicha chora-tadbirlar .....	283
Afg‘onistonning iqtisodiy salohiyati va uni qayta tiklash jarayoni.....	291
Afg‘oniston xalqaro va mintaqaviy jarayonlarda.....	297
Afg‘onistonning Rossiya va Xitoy bilan munosabatlari .....	302
Afg‘oniston va Pokiston o‘rtasidagi munosabatlar .....	307
Afg‘onistonning Eron bilan munosabatlari.....	315
Atamalar lug‘ati .....	324
Xronologiya .....	327
Adabiyotlar ro‘yxati .....	334



*Mannonov Abdurahim Mutalovich,  
Abdullayev Nodir Abdulhayevich,  
Rashidov Rustam Rasulovich*

# **Afg'oniston tarixi**

**(o'quv qo'llanma)**

**Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2018**

*Muharrir: H.Zakirova*

*Musahhiha: H.Zakirova*

*Dizayner: D.Azizov*

*Kompyuterda*

*sahifalovchi: M.Mamorasulova*

**E-mail: Barkamolfayz@mail.ru**

**Nashr.lits. AIN№ 284, 12.02.16. Bosishga ruxsat etildi 27.12.2018.**

**Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/16. «Times New Roman» garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 21,5. Nashriyot bosma tabog'i 21,5.**

**Tiraji 300. Buyurtma №51.**

**«HILOL MEDIA» MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.**

**Manzil: Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Sharaf va**

**To'qimachi ko'chalari kesishuvi.**

ISBN 978-9943-5517-5-6



9 789943 551756